G‘iybat - bu birovlarning orqasidan yomonlab gapirish, fisqi-fasad tarqatishdir. Ular birovning gapini boshqa birovga yetkazib odamlar o‘rtasiga nifoq soladilar. Kasb-korda o‘zgalarning mahsulotini kamsitish, mehnatini qadirsizlantirish.

Tuhmat - bu halol odamlarni ayblash yoki qoralash maqsadida uylab chiqarilgan asossiz da’vo, bo‘qtondir. YOlgon - bu haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, noto‘g‘ri so‘zlarni aytishdir. YOlgonchi kishilarni kazzob deydilar, Kasbida ham baraka bo‘lmaydi. Hadisda faqat uch holda - urush

vaqtida, er va xotinni rizo qilishda, ikki mo‘min orasini tuzatmoqda yolg‘on gapirishga ruhsat etiladi.

Haqorat - bir kishining nafsiga, iffatiga tegadigan so‘zlar ilaqadr va e’tiborni tushurmoq niyatida yomon muomala qilishdir. Birovni haqorat qilish katta gunohdir.

Qo‘rqoqlik - eng yomon xulqlarning biridur. Qo‘rkok kishilar vahm va xayolot asiri bo‘lib, bir ishni qilishga jasorat qilolmaydi. Ularning so‘z va va’dalariga ishonib bo‘lmaydi. Zeroki, yuraksiz kishilarda sabr, jur’at va matonat kabi yaxshi sifatlar bo‘lmaydi.

Tama – mansabi yoki lovozimidan foydalanib, birovdan bir narsa umidvor bo‘lishga aytiladi. Tamagirlik balosiga yo‘liqqan kishilarga nomus va hayo degan yaxshi sifatlar bo‘lmaydi.

Zulm - deb birovning joniga yoki moliga zarar yetkazmakni aytiladi. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga mag‘rur bo‘lib, birovning xaqiga tajovuz qilish zulmdir. Kattalikning izzati zulm va jabrda emas, shafqat va marhamatdadur. «Kichiklikning lazzati nafrat va qarshilikda emas, sadoa hurmatdadir.» (Abdulla Avloniy)

Umuminsoniy ma’naviyatga, ahloqqa zid illatlar jamiyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, talabalar kasbiy ma’naviyati rivojlantirishga slbiy ta’sir ko‘rsatib axloqiy-estetik tarbiyalash ishlariga xalaqit beradi, jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

SHu bois kasbiy halollik va poklik muhitini mustahkamlash, ta’lim muassasalarida umuminsoniy kasbiy ma’niyat normalariga zid illatlardan ayniqsa korruptsiya balosidan butunlay qutulish umummilliy harakatga aylanish kerak. Ajdodlarimizning aksariyatida bu illat to‘g‘risida tushuncha ham bo‘lmaganligiga shubha yo‘q. Ajdodlarimiz poraxo‘rlik, yolg‘onchilik, kibri-havoga berilish, ta’magirlik, isrofgarchilik kabi illatlardan yiroqda bo‘lgan. CHunki ularning kasbiy ma’naviyaida ko‘ngil xotirjamligi, sabr, qanoat, halollik kabi insoniy fazilatlar shakllantirilgan. Nega ular shunday bo‘lgan? Ular ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va kasbiy munosabatlarni ma’naviyat bilan uyg‘un olib borganlar. Kasb qilishdan murod rizq topishdir deb xisblaganlar. Rizq topishga harakat qilgan har bir odam iloji boricha oson yo‘l bilan ko‘proq rizq topishga intilib yashamagan. Har bir odam rizqi keng va mo‘l bo‘lishi uchun halol mehnatga suyangan.

Bugun kasbiy ma’naviyatli mutaxassislarni tayyorlash iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishiga, o‘zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy ma’naviyatli shaxsni kamol topishi natijasida jamiyat ravnaq topadi. Usiz buyuk davlat qurib bo‘lmaydi. CHunki, kasbiy

ma’naviyatga ega bo‘lgan mutaxassislar jamiyat va millat ravnaqining boy poydevori sanaladi. Demak, talabalarning kasbiy ma’naviyati zaruriy ijtimoiy ehtiyoj bo‘lib, kelajakda YAngi O‘zbekistonda islohotlarni amalga oshirilishi uchun o‘zida zamin yaratadi. O‘zbekistonda kasbiy madaniyatli kadrlarni tayyorlashga kuchli e’tibor berilishining boisi ham ana shunda.

Natijalar. Kasbiy ma’naviyat har qanday faoliyatning ayniqsa kasbiy faoliyatning muhim va zarur qismidir. Bu o‘zini ish xatti-harakatlarini boshqarish, uni kasbiy takomillashtirishga, insoniy ruhiyatini va amaliyotni yuqori sifatli ishlarga yo‘naltirish qobiliyati sifatida namoyon qiladi. Kasbiy ma’naviyat insonning o‘z ishidan moddiy va ma’naviy qoniqish hosil qilibgina qolmay, axloqiy kechinmalari, o‘z kasbiga chinakam sodiq bo‘lishi, uni doimo takomillashib borishidan iborat. SHu bilan birga, kasbiy ma’naviyat kasbiy bilimlari bilan tabiiy va ijtimoiy muhitni insonparvarlashtirish, umumiy manfaatlarni ta’minlash va xususiy yoki guruh manfaatlari uchun atrof-muhitga va jamoa tartiblariga ziyon yetkazmaslikni ham nazarda tutadi.

Afsuski, bugun talabalarning kasbiy ma’naviyatini rivojlantirishga yordam beradigan, yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalar, mukammal qo‘llanmalar xatto kasb-hunarning professiogrammasini hali to‘liq ishlab chiqqan emas. Ommaviy va professional kasblarga bag‘ishlangan o‘quv-uslubiy adabiyotlar va kasb-hunar to‘g‘risidagi kinofilmlar, spravochniklar kamligi, psixologik-diagnostik tadqiqotlar o‘tkazishga yordam beradigan zamonaviy apparat va asboblar bilan ta’minlash yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, talabaning muayyan kasbga yaroqliligini aniqlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishni taqazo etadi.

Muhokama. Biroq, hozirgi davrda taraqqiyotimiz uchun xavfli bo‘lgan talaba-yoshlar ma’naviyatiga, shuningdek, ularning kasbiy ma’naviyatiga salbiy ta’sir etuvchi, yoshlarni dushmanlik ruhida tarbiyalaydigan buzg‘unchi g‘oyalar ta’siri kuchaymoqda. Bunday tahdidlar quyidagi kasbiy vositalardan nomoyon bo‘lmoqda bular: internet, sputnik aloqalari, badiiy adabiyot, gazeta va jurnallar, san’at (tasviriy san’at, haykaltaroshlik, kino, seriallar, musiqa, raqs) orqali salbiy ta’sir o‘tkazishdir. Bunday tahdidlarning turlari, ularning xususiyatlari ba’zan oshkora va ba’zan o‘ta maxfiy, ichki, yashirin bo‘ladi, bu maqsadlarni bilish va o‘z vaqtida anglash hamda unga qarshi javob berish uchun, yoshlar yuksak ma’naviyatli, g‘oyaviy ongli, ma’naviy barkamol bo‘lishlari shart. Faqat shunday yoshlargina bunday ta’sirlardan himoyalanishga qodir bo‘ladi.

SHu bois talaba-yoshlarning ma’naviy tarbiyasida beparvolik va va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. YOki aksincha, qaerda

xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur xukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Talabalar kasbiy ma’naviyatini rivojlantirish omillari va vositalarini innovatsion va zamonaviy texnologiyalar asosida o‘rganish, kasbiy ma’naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptirish masalalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish natijasida bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz:

– ta’lim muassalaridagi har bir talabada kasbiy ma’naviyatning kontseptul jihatlarini: yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, vijdonlilik, vatanparvarlik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va boshqa shu kabi fazilatlarni rivojlantirishda ma’naviyatninng innovatsion usullariga tayanish lozim;
– talablarda ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali ularda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;
– talabalarda kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish;
– talaba-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg‘or – talabalarda kasbiy ko‘nikamalarni takomillashtirishga xizmat etadigan pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni rag‘batlantirish;
– faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish orqali ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e’tiqodni shakllantirish;
– kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish.

Xulosa. Shunday qilib talabalar kasbiy ma’naviyatini shakllantirish jamiyat, millatning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyat rivojlanishining negizi sifatida YAngi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh omili hisoblanadi. Zero Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek “Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaydigan yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan vazifalarni hal etishga qodirdir.”

Adabiyotlar:

1. А. Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т:. Ўқитувчи нашриёти. 1992. –Б.15.

2. Асмус В.Ф. Античная философия:- 3-е и зд .- М.: Высш. шк., 1999.- 400 с.; Семенюк В.А. Античная философия Учебное пособие по курсу философии для студентов, магистрантов и аспирантов Учебное электронное издание Минск, БНТУ, 2008.

3. Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16.

4. Халқ сўзи газетаси. 2021 йил 20 январь, 13 (7793)

5. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форс тожик тилидан Н.Комилов таржимаси. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мерос нашриёти, 1994.-Б.26.

РЕЗЮМЕ

Maqolada kasbiy ma’naviyat tushunchasi, insonning kasbiy faoliyatida ma’naviy munosabatlari va ma’naviy muammolari bilan bog‘liq tushunchadir. Bu tushuncha insonning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim rol o’rinda ekanligi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье понятие профессиональной духовности представляет собой понятие, связанное с духовными отношениями и духовными проблемами человека в его профессиональной деятельности, поясняется, что данное понятие играет важную роль в успешности человека в его профессиональной деятельности.

SUMMARY

In the article, the concept of professional spirituality is a concept related to the spiritual relations and spiritual problems of a person in his professional activity. It is explained that this concept plays an important role in the success of a person in his professional activity.

MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA TALABALARGA O‘QUV MATERIALLARINI IMMITATSION-VARIATIVLIK ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Jamshidbek O.G‘.
Farg‘ona politexnika instituti (O‘zbekiston, Farg‘ona)
Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
FJSTI II va IB prprektori, pedagogika fanlari doktori, professor ***Kadirova M.R.*** *taqrizi asosida*

Tayanch so’zlar: mustaqil ta’lim jarayoni, kredit-modul tizimi, immitatsion-variativlik, o‘quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish, immitatsion model.

Ключевые слова: самостоятельный учебный процесс, кредитно-модульная система, имитационно-вариационная, совершенствование учебных материалов на основе имитационно-вариативной, имитационная модель.

Key words: independent education process, credit-module system, imitation-variation, improvement of teaching materials based on imitation-variation, imitation model.

I. Kirish. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga o‘quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.

Jahonda ta’lim investitsiyasiga e’tibor kuchayib, oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni takomillashtirish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xorij tajribasiga nazar solsak, ta’lim sohasidagi islohotlar aynan texnika oliy ta’lim muassasalarning texnologik-pedagogik zamonaviy o‘quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida amalga oshirish orqali sifatli ta’lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan interventsion texnik ta’lim tadqiqotini taqdim etadi. Immitatsion-variativlik pedagogikasi asosan texnika oliy ta’lim sohasidagi bo‘lajak kadrlarni tayyorlash va ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun matnlarning ichki tuzilishini tahlil qilishni o‘qitishdan iboratdir. Asosiy e’tibor texnik matnlarni pedagogik texnologiyalar yordamida tushunish hamda sinergetik, germenevtik va praksiologik yondashuv orqali o‘quv materiallarini immitatsion-variativlik va vizual-amaliy yo‘nalganlik

imkoniyatlarini kengaytirish vositasida talabalarning texnika tilini bilish, o‘quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalarini mazmun mohiyati va texnika ta’limidagi ahamiyatini talabalar ongida shakllantirishga qaratilgan [1]. Dunyoning ilg‘or xalqaro oliy ta’lim texnika oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan maqsadlarga e’tibor berilganda, immitatsion-variativlik asosida o‘qitish - bo‘lajak muhandislar uchun ta’lim jarayoni, birinchi navbatda, hozirgi vaqtda o‘rganish va o‘rganilgan tadqiqotlardan kelajakda butunlay yangi sharoitlarda yoki vaziyatlarda foydalanish imkoniyatidir. Ushbu tadqiqot ishimiz orqali ham biz, immitatsion-variativlik asosida o‘qitish qanday qilib texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarini kasbiy kompetentliklarini oshirish jihatlari yoki o‘z kasbini texnologik madaniyatni tashkil etuvchi komponentlar va ularning mutaxassislik fanlarni o‘qitishdagi o‘rni va mazmunini integrallashuvi o‘laroq tushunishni rivojlantirish yoki ularni texnologik jixatdan takomillashtirish usullarini yaratish masalasi ekanligini ko‘rsatamiz [2]. Bu jarayonda albatta asosiy fundamental va aprior omil bu immitatsion model hisoblanadi.

II. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga o‘quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish.

Immitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalarining didaktik xususiyatlari.

Immitatsion model – murakkab tizimlarni tadqiqot qilishning universal vositasi, tizimning alohida elementlarini harakatini va ularning modellanuvchi tizimda paydo bo‘luvchi hodisalarning ketma-ketligini aks ettiruvchi o‘zaro ta’siri qoidalarining mantiqiy-algoritmik tasnifidir. Agar statistik modellashtirish immitatsion modeldan foydalanib bajarilsa, bunday modellashtirish immitatsion deb nomlanadi. Statistik va immitatsion modellashtirish tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida ko‘riladi. Lekin nazarda tutish kerakki, statistik modellashtirish immitatsion bo‘lishi shart emas. Masalan, aniq integralni Monte-Karlo usulida statistik tajribalar to‘plami asosida integralosti maydonni aniqlash yo‘li bilan hisoblash statistik modellashtirishga kiradi, lekin immitatsion deb nomlanmaydi [3]. Immitatsion modellashtirish harakatlanishi diskret xarakterga ega bo‘lgan murakkab tizimlarni tadqiqot qilishda, shu bilan birga ommaviy hizmat ko‘rsatish modellarida ham keng qo‘llanildi. Bunday tizimlarning harakatlanish jarayonlarini tasniflash uchun odatda vaqt diagrammalaridan foydalaniladi.

Vaqt diagrammasi - tizimda bo‘layotgan xodisalarning ketma-ketliginig grafik taqdim etilishidir. Vaqt diagrammalarini qurish uchun tizim ichidagi xodisalarning o‘zaro aloqasini aniq tasavvur qilish kerak. Diagrammalarni tuzishda batafsillik darajasi modellanuvchi tizim xususiyatlari va

modellashtirishning maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Har qanday tizimning harakatlanishi vaqt diagrammasida yetarli darajada to‘liq aks ettiriladi, shuning uchun immitatsion modellashtirishni alohida elementlar harakatlanish xarakteri va ularning o‘zaro bog‘liqliklari haqidagi axborotlar asosida o‘rganilayotgan tizimning harakatlanish diagrammasining amalga oshirish jarayoni deb aytish mumkin.

2. Tadqiqot metodologiyasi. Immitatsion modellashtirish odatda EHMda berilgan aniq mantiqiy algoritmik tasnifni amalga oshiruvchi dasturga binoan bajariladi. Bunda o‘rganilayotgan tizimni ishlashining bir nechta soati, xaftasi yoki yillari EHMda bir necha daqiqa ichida modellanishi mumkin. Ko‘p xollarda model tizimning aniq analogi emas, balki shunchaki ramziy aks ettirilishi bo‘ladi. Lekin bunday model boshqa usul bilan bajarib bo‘lmaydigan o‘lchashlarni amalga oshirishga imkon beradi. Immitatsion modellashtirish o‘rganilayotgan tizim ustida bevosita ta’sirsiz tajriba, baholash va ilmiy tajribalar o‘tkazishga imkon yaratadi. Har qanday aniq tizimni tahlil qilishda birinchi qadamda elementlar ajratiladi va bu elementlarni o‘zaro ishlashini boshqaruvchi mantiqiy qoidalarni ifodalanadi. Buning natijasida olingan tasnif tizimning modeli deb nomlanadi [4]. Modelning ichiga tizimning qiziqish o‘yg‘otayotgan yoki tadqiqotga muxtoj aspektlari kiradi. Har qanday modelni yaratishdan maqsad modellanuvchi tizimning xarakteristikalarini o‘rganish bo‘lganligi uchun immitatsion modelga matematik statistika usullariga asoslangan formula va xarakteristikalar bo‘yicha statistik axborotni yig‘ish va qayta ishlash vositalari kiritilishi kerak.

3. Tahlil va natijalar. Metod tushunchasi ham uslub tushunchasiga ega bo‘lib har xil uslublarni qo‘llab talabaga yoki o‘rganuvchiga mustaqil ta’limni sifatli tarzda yetkazishga aytiladi. Metod tushunchasi nafaqat tili o‘rganishda balki turli sohalarda ham qo‘llanilmoqda. Ana shunday metodlar orqali ham immitatsion modellar yaratilishi mumkin, chunki metod virtual resurslarni qanday qilib ro‘yobga chiqarib uni havola qilishini ta’minlaydi [5]. Demak immitatsion modellar orqali virtual resurslar yaratishda nafaqat uning o‘quv metodik qarashlariga balki uning me’yoriy tarkibiga ham e’tibor qaratish kerak. Chunki tarkib orqali uning yo‘nalishi anqlanadi. Strukturasi tuzilib jarayonni yaratish tuziladi.

Immitatsion model qurish jarayonida chet tilini ayniqsa ingliz tilidan mavzularni tanlab olish va ularga tasvir grafalarini harakatga keltirish, bu uning to‘liq amalga oshirilganini bildiradi. Chunki so‘nggi jarayon faqat tekshirish jarayoni bo‘lib unda tayyor modelni faqatgina amalda qo‘llash qoladi xolos.

Ta’lim modellashtirish muhitlari hozirda ancha keng tarqalgan kasbiy funksiyalari bo‘lajak muhandis-metrolog yoki mahsulot sifati menejerlarini tayyorlashda, umuman olganda qo‘llaniladigan har bir immitatsion atama «odam - mashina» deb ataladi. Haqiqatga maksimal darajada yaqinlashishni ta’minlash, masalan ta’lim sohalari muhandislarga optimal qarorlar va turli xil ta’lim traektoriyalari uchun kognitiv mezonlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

III. Xulosa va takliflar. Kelajakdagi sifatli ta’lim yoki mustaqil ta’limning ahamiyatini oshirishda maqsadli immitatsion variativlikni shakllantirishni ta’minlaydigan kreativ-modellashtiruvchi o‘quv muhiti ta’lim sifatini boshqarish tizimining aspektlari bilan kasbiy ko‘nikmalari almashinuvi tajribasi mustaqil ta’lim jarayonidagi talabaning rolini aniqlab berishga xizmat qiladi.

Zamonaviy professional ta’limiy amaliyotlarning katta qismi, u yoki bu tarzda, immitatsion-variativlikni ta’minlash bilan bog‘liq dinamik, murakkab tuzilish va muhandis uchun ma’lum bir xavfni ifodalovchi mutaxassislar va ilmiy adabiyotlarda ko‘pincha «muhandis-mashina» intellekti deb ataladigan muhiti. Bu holat kasb-hunar ta’limi sohasidagi mutaxassislarning katta qiziqishini tushuntiradi o‘rganilayotgan kasbiy tizimlar ularning modellari bilan almashtiriladigan simulyatsiya muhitida faol va interaktiv ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va pedagogik jarayonga integratsiya qilish.

Immitatsion o‘quv muhitini ishlab chiqish faqatgina mustaqil ta’lim jarayonida emas, balki raqamli ta’limda an’anaviy ta’lim jarayoni uchun ham dasturiy ta’minot ko‘rinishidagi ularning dizayni ishdan oldin amalga oshiriladi ijobiy va salbiy professional tajribani umumlashtiradigan va sxematiklashtiradigan tahlilchilar, o‘rganish sababiy munosabatlar va munosabatlarni amalda ta’minlashda o‘qituvchilarning o‘rni ham katta variativ qobiliyatlarini o‘quv jarayoniga va yakuniy muhitlarga integratsiya qilish, shu tariqa, yaxlit didaktik tizimni shakllantirishni namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. Obidov J.G., Formation of principles on the concept of technological determination in students in teaching technical sciences //Academic Research in Educational Sciences, Volume 3 | Issue 7 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 |SIS: 1,12| SJIF: 5,7|UIF: 6,1| Chirchik city, Tashkent region. 146–151 pages, https://doi.org/

2. Obidov J.G., Effectiveness of improving students’ knowledge about the basics of the concept of technological determinism., International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted., from Berlin, Germany https://conferencea.org., June 30th 2022., 348-354 pages

3. Rasulovna M. K., et al. Innovation teaching method in primary education //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 5. – C. 31-34

4. J.Y.Suyumov., Kompyuter imitatsion modellari asosida faol o‘qitish texnologiyasining nazariy asoslari//SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601

5. O.Mamaraufov., Imitatsion modellashtirishning dasturiy vositalari. Taqdimot 14.03.2016// https://prezi.com/bfyxcqnqabry/imitatsion-modellashtirishning-dasturiy-vositalari/

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarning texnologik-pedagogik zamonaviy o'quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida amalga oshirish, sifatli ta'lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan interventsion texnik ta'lim tadqiqoti orqali mustaqil ta'lim jarayonida talabalarga o'quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается внедрение технико-педагогических современных учебных материалов технических вузов на имитационно-вариативной основе, внедрение учебных материалов для студентов в процесс самостоятельного обучения через интервенционное техническое педагогическое исследование, направленное на повышение качества образовательной практики. Выделены имитационно-вариативные педагогико-психологические возможности совершенствования обучения.

SUMMARY

In this article, the implementation of technological-pedagogical modern educational materials of technical higher education institutions on the basis of imitation-variation, the implementation of educational materials for students in the process of independent education through interventional technical education research aimed at improving quality educational practice, imitative-variation Pedagogical-psychological possibilities of improving teaching are highlighted.

INDIVIDUAL YO'NALTIRILGAN TA'LIM MODELI

Dehqonova M.G'.
CHDPU, Pedagogika fakulteti, "Maxsus pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: individual ta'lim, model, tizim, muhit, mentor, assistant, dars, mashg'ulotlar, metodika, diagnostika, yo'nalish.

Ключевые слова: индивидуальное обучение, модель, система, среда, наставник, помощник, урок, обучение, методика, диагностика, направление.

Key words: individual education, model, system, environment, mentor, assistant, lesson, training, methodology, diagnosis, direction.

Hozirgi kunda eng katta e'tibor ta'limga qaratilmoqda. Bilamizki ta'lim-tarbiya jamiyatni oson boshqarish uchun bir vosita sifatida hayotimizning muhim pozitsiyasidan biri bo'lib bormoqda. Buyuk taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglaymiz. Shu nuqtai nazardan oladigan bo'lsak ta'lim tarbiya jarayoni faqatgina to'g'ri pedagogik yondoshuv bo'lgan muassasadagini amalga oshadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalari o'z mavqeini va bilim salohiyati yuksaltirish uchun turli yo'nalishlar, uslublar, innovatsion texnologiyalarni qo'llab dars jarayonlarini tashkil etilmoqda.

Individual yo'naltirilgan ta'lim bu - har bir ta'lim oluvchi talabaning shaxsiy qobiliyatlarini va o'zlashtirishini inobatga olgan holda unga mos va xos yondoshish vositasidir. Ushbu ta'lim modeli ikki xil tizim orqali o'z muvaffaqiyatini yorita oladi:

– Talabalarni muvaffaqiyatga yo'naltirilgan;
– Talabalarning bo'shliqlariga yo'naltirilgan.

Har bir model o'z ichiga talaba bilan individual ishlash orqali undagi qobiliyatlarni qayta yaratishni maqsad qilib qo'yadi. Talabalarni muvaffaqiyatiga yo'naltirilgan modeldan o'zlashtirishdagi yutuqlari va kasbiy amaliyotga yo'naltirilganlik asosiy o'rinni egallab, assistentdan mentorgacha faoliyatiga jalb etiladi. Bu uning shaxsiy individual qobiliyatlarini yanada rivojlanishi uchun muhim zamin hisoblanib mentorlik sari yo'lda asosiy yo'lchiroq sifatida xizmat qiladi. Mentorlik sari yo'lda talaba bosqichma bosqich kelajagi uchun kerak bo'lgan bilim ko'nikmalarga ega

bo'ladi, nafaqat har kungi ta'lim sifatini balki o'zining shaxsiy muommolari jamoa bilan, ota-onalar bilan, do'stlar davrasida o'zining va yaqinlarining muommolariga ham yechim topishni o'rganadilar. Bu bevosita faqatgina individual tarzda amalga oshadi. Bu asnosida ishlash yuqori sifat koefsiyentini tashkil qilib ilk individual tarzda bilim berilgan "Mentorlik kursi" tinglovchilarida juda pozitiv xotiralar va amaliy jarayonlar bilan yodda qoldira oldi.

Talabalarning bo'shliqlariga yo'naltirilgan modelda o'zlashtirishdagi muommo sabablari aniqlanadi, sabablari asoslanadi va unga mos keladigan individual konpetension-korreksion ish tizimi ishlab chiqiladi. Bu yo'nalish ham o'qituvchi va professor tomonidan individual shug'ullanib maxsus tayyorlangan tizim orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ikki model bilan sifatli ta'lim berish talabalarning sifatli ta'lim olish huquqini poymol qilmasdan to'g'ri yo'naltirish mumkin bo'ladi. Eng muhim sifatli ta'limning tarkibi va talab qilib olishni bilish lozimdir. O'zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasi 50 moddasida ham sifatli ta'lim kafolatlanadi deb ta'kidlangan.

Individual yo'naltirilgan ta'lim tizimimiz quidagi tartibda ish olib boradi:

1. Tezkor diagnostika;
2. ART- metodika;
3. Kasb to'garagi;
4. Binar darslar;
5. Integrativ darslar.

Tezkor diagnostikada talabalarning shaxsiy individual qobiliyatlari ularning qiziqishlariga moslangan holda test, savol javob, anketa-so'rovnoma orqali aniqlab olinadi va ularni guruhlarga bo'lgan holda ish olib borish uchun saralanadilar. Bunda nafaqat o'zlashtiruvchi balki o'zlashtirmovchi qatnashchilar ham teng ball to'plab o'zining ichki qobiliyatlari va pedagogik mahoratini ham namoyon qilishi mumkin bo'ladi. Yoki aksincha yuqori natija kutgan talabadan keskin past ball olishi va u faqatgina yuzaki amaliy bilimga ega bo'lgan natija qayd etishi mumkin. Bunda talabalar akademik va ijtimoiy potensial tahlil metodikalaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Shu asnoda tezkor diagnostika o'tkaziladi va individual ta'lim modelining keyingi tizimiga o'tkaziladi.

ART-metodikada talabalarning vaqtlarini mazmunli o'tkazish va bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib bunda har bir o'tiladigan mashg'ulotlariga mos metodikalar tayyorlanadi va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi metodik qo'mitaga yoki boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun foydalanishga topshiriladi. Bu bilan ularning o'zlari ham amaliyot jarayonida talabalar tomonidan tayyorlangan mualliflik metodikalarini bemalol amaliyotga tadbiq qilishlari mumkin bo'ladi. Bu ularning amaliyotga moslashishlariga va erkin ijodiy muhitda o'zlarini ko'rsatib qobiliyati rivojlanishiga yordam beradi.

Individual ta’limning keyingi bosqichi olingan bilimlarni mustahkamlovchi asosiy tizim hisoblanib amaliy darslar, seminar mashg’ulotlari va amaliyotda tushunmovchilikka ega bo’lgan va qiyinchilikka uchragan mavzularni maxsus tashkillashtirilgan to’garaklarda mustahkamlaydilar. Bunda pedagogik, psixologik, metodik va huquqiy tomondan bilimlar beriladi va kasbiy yetilish jarayoni tezlashadi.

Mustahkamlangan bilimlar dars jarayonlariga tadbiq qilinadi va an’anaviy darsdan innavatsion uslubdagi darsga o’zgartiriladi. Bunda “Binar darslar” eng maqbul innovatsion yechim hisoblanadi. Binar darsda ikki hildagi til va o’qituvchilarning tajriba malakalari inobatga olinadi.

Integrativ dars jarayoni asosan ikki hil turdagi ta’lim yo’nalishini talabalarini bir mavzuga birlashtirgan holda bilim berish va o’zaro ma’lumot almashuvi amalga oshiriladi. Misol uchun oladigan bo’lsak tiflopedagogika va surdopedagogika talabalarini umumlashtirgan mavzu ostida o’qitib o’zaro har bir yo’nalishdagi kamchilik va yutuqlar bilan bo’lishishi yoki yangiliklarni muhokama qilishlari mumkin. Bunda eng asosiysi bilimlarni birgalikda mustahkamlash va ulardagi bilimlarning saviyasi yuqori bo’lishi ta’minlash bolib, ma’lumotlarni qiyosiy va intensiv o’zlashtirish muhiti paydo bo’ladi.

Adabiyotlar:

1. Dehqonova, M. (2023). The first stages of ensuring continuity in the elimination of speech defects of speech-impaired children. Science and innovation, 2(B2), 55-58.

2. Ghiyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. Central asian journal of social sciences and history, 4(1), 101-105.

3. G’iyosiddinovna, D. M. (2022). 4+ 2 Ta’lim tizimidagi o’rni. ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 389-393.

4. Achilova S.J., Qodirova F.U., DEhqonova M.G’., “Logopedik texnologiya” o’quv qo’llanma, 2023. Zebo-print.

5. Muborak, D., & Lobar, S. (2022). maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning kech rivojlanishi. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 345-349.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Chirchiq davlat pedagogika universitetining ilmiy yangiligi “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri”ining eng muhim kompenentlaridan bo’lgan “Individual yo’naltirilgan ta’lim” modeli misolida tanishib chiqsak bo’ladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье мы можем ознакомиться на примере модели «Индивидуально-ориентированное образование», которая является одной из важнейших составляющих научной инновационной деятельности Чирчикского государственного педагогического университета «Инновационный кластер педагогического образования».

SUMMARY

In this article, we can get acquainted with the example of the «Individual oriented education» model, which is one of the most important components of the scientific innovation of the Chirchik State Pedagogical University «Pedagogical Education Innovation Cluster».

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Mirzaakbarov D.D.
Far'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi
Ismoilova D.S.
Far'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: Integratsiya, konsalting, bulutli texnologiya, innovatsiya, tizim texnologiyalari, kompetensiya, Klan, Gibrid, Google Drive, Yandex Disk, Microsoft Sky Drive, Dropbox, ICloud.

Ключевые слова: Интеграция, консалтинг, облачные технологии, инновации, системные технологии, компетенции, Клан, Гибрид, Google Диск, Яндекс Диск, Microsoft Sky Drive, Dropbox, iCloud.

Key words: integration, consulting, cloud technology, innovation, system technologies, competence, Klan, Hybrid, Google Drive, Yandex Disk, Microsoft Sky Drive, Dropbox, iCloud.

Kirish. Axborot tizimlari va axborot resurslarini yaratish va bu axborot resurslaridan oson va qulay foydalanish, xavfsiz ma'lumot almashinuvini ta'minlash, tashqi xosting maydonchalari bilan integratsiya masalalari bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatishni tashkil etadi. O'zbekistonda Raqamli texnologiyalarning rivojlanishida ta'lim tizimi uzluksiz, individual yo'naltirilgan, moslashuvchan va dinamik jarayon shaklida bo'ladi.

Barcha Oliy ta'lim muassalarida ta'limning barqaror rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning barcha joyga kirib borishi, jamiyat talablariga mos keladigan AKT kompetensiyasi, media va kompyuter savodxonligi yuqori darajasini shakllantirish muammolari va yechimlarini tavsiflashni amalga oshirmoqda, AKTni rivojlantirishda pedagogika integratsiyasi shu sohadagi muammolarni hal qilishi, shu jumladan, ochiq ta'lim resurslari va o'quv-uslubiy yordam, ommaviy ochiq onlayn ta'lim tizimlaridan foydalanish, shakllantirish uchun ishlatiladigan innovatsion texnika va texnologiyalarni rivojlanishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. XXI asr - yuqori darajadagi texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiyalar asri. Hozirgi kunda hayotimizni texnika va elektron qurilmalar (kompyuter, noutbuk, planshet va uyali telefon) siz tasavvur qilish juda qiyin. Bu qurilmalar ko'plab odamlarning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirib yubormoqda. Sir emaski, katta tezlik bilan rivojlanib borayotgan jamiyatni «bulutli» texnologiyalar

yanada shiddatliroq rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Bu texnologiya biznes, menejment, ta’lim va tadqiqot uchun innovatsion, tez va tejamkor imkoniyatlarni taqdim etadi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda “bulutli” texnologiyalarni o‘rganish ularni amaliyotga, sohalarda qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda content juda ham ko‘p, ularni bohsqarish bir joyda saqlash va kezi kelganda foydalanish zarurati tug‘iladi. Masalan, talaba yoki domlaning ma’lumotlari bir nechta kompyuterlarda mavjud: ish xonasidagi kompyuterda, uyidagi kompyuterida, noutbuklarida, planshetida va qo‘l telefonida. Bu texnikalar orasida doimiy ravishda ma’lumot almashish, fayllarni uzatish, hujjatlarni ochish va tahrirlash, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishi, qurilmalar orasida dasturiy ta’minotlarning muvofiqligi haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak;

- flesh-kartalarining cheklangan hajmini bilish;
- dasturiy ta’minot litsenziyasiga ega bo‘lish zarurati;
- qattiq disklarning hajmlarini cheklanganligi.

Bularning barchasi kishiga ancha noqulayliklar tug‘diradi, ammo osonlashtirishni yagona yechimi esa bu “Bulutli” texnologiyalardan foydalanishdir.

Bulut texnologiyasi bu ommabop texnologiya bo‘lib, unda foydalanuvchilar Internet-platformada IT-resurslarda ma’lumot kiritish yoki olish uchun ishlatadilar. Bu texnologiya ma’lumotlar va resurslarni onlayn-serverda saqlaydigan va foydalanuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuterning qattiq diskida saqlash o‘rniga xavfsiz joyda saqlash, undan foydalanish uchun ishlatiladi. Bulutli texnologiyalarining yana bir afzal tarafi bu online serverlardan ish joyidami, uydami qo‘yinki , dunyonining istalgan nuqtasida turib ma‘lumotlarni kiritish yoki qabul qilish va jo‘natishi mumkin. Bulutli texnologiyalarning turli xil xizmatlari mavjud bo‘lib, ular juda mashhur va bugungi kunda dunyoda keng qo‘llanilmoqda.

Bulutli dasturlar texnologiyasi - bu Internetga asoslangan platforma, bu resurslar serverdan mijozga tarmoqlar kanallari orqali ma’lumot yetkazadi. Shu sababli, texnologiya yorug‘lik tezligida yangilanayotgan hozirgi zamonda qaysi texnologiyaga o‘tish kerakligini va texnologiyadan tog‘ri foydalanishni bilish juda muhimdir. Shunday qilib, bulutli texnologiyalarning mashhurligi va Internetning salbiy ta’siriga qaramay, u eng tezkor texnologiya bo’lib qoladi va u bugungi bozorning so’nggi tendentsiyasiga aylanadi. Demak, undan foydalanishning maqsadi butun dunyo bo‘ylab xaridorlarni bir-biriga bog’lash orqali resurslarni diversifikatsiya qilish va o‘z vaqtida kerakli resurslardan foydalangan holda ushbu sohadagi mijozlarini saqlab qolish orqali biznes foydalanuvchilariga o‘z bozorlarini kengaytirishga imkon berishdir. Yuqorida qo‘llanilgan «bulut» so‘zi

barcha texnik tafsilotlarni yashiradigan murakkab infratuzilmaning metaforasi sifatida ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda «bulutli texnologiyalar» quyidagi toifalarga ajratilgan:- Shaxsiy (xususiy) - Ommaviy - Gibrid - Klan (jamoa). Shaxsiy bulut(inglizcha privatecloud), ya'ni bir nechta mijozlar bilan bitta tashkilot tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan infratuzilma hisoblanadi. Umumiy bulut - Ommaviy bulut (inglizcha publiccloud) - bu keng jamoatchilik tomonidan foydalaniladigan infratuzilma. Ommaviy bulut tijorat, akademik va davlat tashkilotlariga (yoki ularning har qanday kombinatsiyasiga) egalik qilishi, boshqarilishi va tahlil qilinishi mumkin. Gibrid bulut (eng. hybridcloud) - bu ikki yoki undan ko'p turli xil bulutli infratuzilmalarning kombinatsiyasi, bulutlar orasidagi yukni muvozanatlash uchun umumiy bulut resurslaridan foydalaniladi. Klan buluti yoki ijtimoiy bulut - umumiy vazifalari bo'lgan tashkilotlar iste'molchilarining ma'lum bir hamjamiyati foydalanishi uchun mo'ljallangan infratuzilma turi. [1]

Bugungi kunda O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish va isloh qilish, yangilik kiritish zaruratiga duch kelinmoqda. Ya'ni, ta'lim jarayonida zamonaviy ustoz faqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'libgina qolmay, balki yuksak pedagogik mahoratga, kreativ fikrlashga, mustaqil ravishda, boshqa hamkasblari bilan birgalikda mazmunli maqsadlarni qo'yishi, o'z-o'zini tarbiyalash vaziyatlarini yaratishi, izlanuvchan va doimiy ravishda yangilikka intiluvchan bo'lishi kerak, bu shu sohadagi muammolarni hal qilish usullaridan hisoblanadi. Kundek ravhsanki, bulutli texnologiya orqali talaba va ustozlar birgalikda umumiy ma'lumotlar to'plamidan foydalanishlari mumkin, Bundan tashqari oddiy onlayn vositalardan tortib, loyihalarda hamkorlik qilish mumkin bo'ladi. Bu jarayonda talabalar faol ishtirok etadilar, talabalarning SaaS(Xizmat sifatida saqlash) texnologiyalaridan foydalanishi evaziga bulutli texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanishi mumkin, Bundan tashqari IT ilovalari va bulutli veb-xizmatlarni ijaraga olishi, internet xizmatlaridan foydalanishi ular orasida mutlaqo bepullari juda ko'p. [2] Oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanishga misol sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- o'qituvchilarning dars ishlamalarini yetkazish, ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari topshiriqlarini yaratish;
- talabalar va o'qituvchilar uchun shaxsiy hisoblar (ballar va baholar);
- talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni interaktiv qabul qilish;
- talabalar ma'lumot almashishlari mumkin bo'lgan tematik forumlar;
- o'qituvchi yo'qligida yoki uning rahbarligida talabalar muayyan ta'lim muammolarini hal qilishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qidirish;

- bulutli ma’lumotlarni saqlash.

Oliy ta’lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Hujjatlar bo‘yicha o‘qituvchi va oquv tizimiga mas’ul hodimlarning hamkorligi. Masalan, ta’lim dasturi, silabus yoki shahsiy ish rejalar tuzilishi. Ushbu hujjatlar ma’muriyat xodimlari va har qanday yo‘nalishga mas’ul bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan tuziladi, masalan, amaliy matematika va informatika, iqtisodiyot, matematika, fizika psixologiya, ijtimoiy yo‘nalish o‘qituvchilari. Oliy ta’lim ischki strukturasida almashinadigan hujjatlar, jadvallar, dekanat hujjatlari, topshiriqlar, qarorlar, va boshqa hujjatlar. Har kim hujjatning o‘ziga tegishli qismi uchun javobgar bo‘ladi va boshqa bloklarga o‘zgartirish kirita olmaydi. Bulutli texnologiyalarda jamoa bo‘lib hamkorlik qilish uchun bulutli xotiraga hujjat yaratishingiz yoki qo‘yishingiz va unga havola yoki elektron pochta, telegram manzili bo‘lganlarga kirishni ta’minlashingiz kerak bo‘ladi.

2. Talabalarning birgalikdagi loyiha ishi, amaliy ishlari, fan topshiriqlarini mavzularni olishadi. Keyin ular 2 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhning o‘z vazifalari bo‘ladi, bunda menedjer hujjat yaratadi va kirish huquqini beradi. Bular havolalar yoki elektron pochta manzillari bo‘lishi mumkin.

Bulutli xizmatlarning afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iboratdir.

Talabalar uyida yoki oliy ta’lim muassasasida loyiha ustida ishlashadi, hujjatlarni mazmun bilan to‘ldiradilar, ish tugagach, o‘qituvchiga kirish huquqi beriladi. Agar zarur bo‘lsa, o‘qituvchi ularni online nazorat qilishi va ishlarga tuzatishlar kiritishlari uchun shartlar yozishi mumkin bo‘ladi.

Bulutli texnologiyalar dasturiy ta’minot sotib olish uchun, texnik xizmat ko‘rsatish, yangilash uchun pulni tejash imkonini beradi.

Bulutdagi ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun sayyoramizning istalgan nuqtasidan turib masofadan kirish mumkin.

Foydalanuvchilar xizmat uchun xaqni faqat kerak bo‘lgandagina to‘laydi.

Masshtablilik, nosozliklarga chidamlilik va xavfsizlik, dastur extiyojlariga qarab zarur resurslarni avtomatik ravishda taqsimlash va chiqarish. Xizmat ko‘rsatish, dastruriy ta’minotni yangilash provayder tomonidan amalga oshiriladi.

Eng mashxur bulutli fayllar omboriga quyidagilarni keltirish mumkin: Google Drive, Yandex Disk, Microsoft Sky Drive, Dropbox, ICloud va boshqalar. Bularning deyarli barchasida royhatdan o‘tilgandan so‘ng, foydalanuvchilarga 5G baytdan -10G baytgacha bepul va qo‘shimcha to‘lov evaziga 20Gb - bir necha Terabaytgacha joy beriladi. Masalan, Dropboxdan foydalanishda, uning asosiy

afzalligi hujjatlarni (matnlar, rasmlar, taqdimotlar, jadvallar) birgalikda tahrirlash imkoniyatidir.

3. Yaqin kelajakda «bulutli»texnologiya bizning O‘zbekistonda ham keng tarqalgan texnologiyaga aylanadi. Bulutli texnologiyalarning tez tarqalishi biz uchun bulutli xizmatlarini ta’lim muassasalari tizimiga integratsiya qilishda qiyinchilik tug‘ilmoqda. Bulutli hisoblash ta’lim, tadqiqot va amaliy ishlanmalar va masofaviy ta’limda keng qo‘llanilishi istiqbollariga ega. Oliy ta’lim tizimida bulutli texnologiyalardan foydalanish ta’lim maydonini ochiq qilish imkonini beradi. O‘z navbatida bu texnologiyani ta’lim jarayonida bulutli yechimlardan foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda, amalga oshirishda mumkin bo‘lgan qiyinchiliklari va mavjud kamchiliklarni ta’kidlash lozim.

Foydalanuvchi ichki bulut infratuzilmasiga kirish huquqiga ega emas.

Foydalanuvchi ma’lumotlarini xavfsizligi ko‘p jihatdan provayder kompaniyaga bog‘liq.

Barcha o‘qituvchi va talabalarni shu texnika imkoniyatidan foydalanishlari uchun Oliy ta’lim dargohlarida va barcha ta’lim tizimlarida moddiy texnika bazasini va Internet tarmog‘ini uzluksiz ishlashini ta’minlashga erishish lozim.

Tarmoq ulanishiga bog‘liqlik mavjud va muhim ma’lumotlar bilan ishlashda mahalliy kompyuterlarda va portativ ommaviy axborot vositalarida zaxira nusxalarini yaratish kerak.

Keling, Dropbox yoki Google tomonidan ta’lim muassasalari uchun taqdim etiladigan asosiy onlayn bulutli hisoblash xizmatlarini ko‘rib chiqaylik. Google dagi Gmail - bu tezkor xabar almashish, ovozli va videochat, mobil aloqa, spam va viruslardan himoya qiluvchi to‘liq xususiyatli elektron pochta mijozidir. Google Groups simulyatsiya qilingan forumlar va pochta ro‘yxatlariga asoslangan boshqaruv va jamoaviy ish vositasidir. Zamonaviy ta’limda Internet bilan ishlash, birgalikdagi faoliyatni, o‘rganish uchun Internet muhitidan foydalangan holda loyihalar va tadqiqotlar o‘tkazish qobiliyati birinchi o‘rinda turadi.

Xulosa shuki, barcha bulutli dasturlar bizga har qanday hajmdagi, turli tipli, fayllarni zaxira qilishnimiz va bu zahiradan doimiy foydalanishimiz uchun imkonyat taqdim etadi. Bu axborot texnologiyalari mutaxassislari, boshqa soha vakillari uchun ham dunyodagi istalgan joydan turib resurslarga kirish va ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi, so‘nggi texnologiya tendentsiyasining ulkan o‘sishi va mijozlar bilan ishlashini yanada moslashuvchan qiladi. Bundan tashqari axborot va kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot ishlarida

talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va IT - kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shaklantirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Трайнев. В. А. Новые информационные коммуникационные технологии в образовании: Информационное общество. Информационно-образовательная среда. Электронная педагогика. Облачно-модульное построение информационных технологий / В. А. Трайнев. - М.: Дашков и К, 2013. - 320 с

2. Федотова, Е. Л. Информационные технологии в науке и образовании: Учебное пособие / Е. Л. Федотова, А. А. Федотов. - М.: Форум, 2018. - 256 с.

3. Mamatova, M.A., Rasulov, R.Y., & Mirzaakbarov, D.D. (2022). Relation between the concentration of nonequilibrium electrons and holes in long semiconductor diodes. European Science Review Scientific journal (5–6).

4. Mirzaakbarov, D.D. (2021). Direktions for the introduction of new information technologies in education. Экономика и социум, 4(83).

5. Shermatova, G. Y. H. (2022). Aniq fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Scientific progress, 3(1), 372-376.

6. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, (4-1), 466-468.

7. Йулдашева, Г., & Йўлдошева, М. (2022). Использования информационных технологий в организациях. Scientific progress, 3(3), 477-480.

8. Ibragimov Sh.M. (2020). Improving the effectiveness of teaching information technology in universities using the method of individualization. Elektronnoye nauchno-prakticheskoye periodicheskoye mejdunarodnoye izdaniye «Ekonomika i sosium», (11-78).

9. Рахимов, Қ., & Ибрагимов, Ш. (2022). Фанларни ўқитишда диагностика қилиш усуллари. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim Vazirligi Toshkent Kimyo-texnologiya instituti mexanika va matematikaning amaliy muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 52-56.

10. Toshboltaev F.U., & Toshboltaeva Yu.I. (2020). Solution of ecological and economic problems by modeling. Экономика и социум, 11(78), 356-359.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada Oliy ta’lim muassasalarida bulutli texnologiyalarni qo‘llash va undan foydalanish usullari, maqsadi, muammolari, shuningdek, O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimida bulutli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishning amaliy ahamiyati atroflicha yoritib beriladi va tahlil qilinadi. Oliy ta’lim muassasalarida bulutli texnologiyalarni qo‘llashning yanada qulayroq usullaridan foydalanish imkonini berishi hamda o‘quv jarayonini sifatini oshirish, tizimga inovatsiyalar kiritish va optimallashtirishning zamonaviy usullaridan biri ekanligi ko‘rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно и проанализированы методы, цель и проблемы применения и использования облачных технологий в высших учебных заведениях, а также практическая значимость внедрения и использования облачных технологий в системе высшего образования Узбекистана. Считалось, что это позволяет использовать более удобные методы использования облачных технологий в высших учебных заведениях и является одним из современных методов повышения качества образовательного процесса, внедрения инноваций и оптимизации системы.

SUMMARY

In this state, detailed analysis methods, objectives and problems of application and use of cloud technology in higher education, as well as the practical significance of introduction and use of cloud technology in the system of higher education in Uzbekistan. Schitalos, chto eto pozvolyaet ispolzovat more convenient methods of using cloud technology in higher education, i yavlyaetsya odnim iz sovremennyx metodov povysheniya kachestva obrazovatelnogo protsesa, vnedreniya innovatsiy i optimizatsii sistemy.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHI SHAXSINING IJTIMOIY FAOLLIGI

Jumaev A.Sh.
O‘zDJTU dotsenti

Tayanch so’zlar: shaxs, pedagog, , zamonaviylik, pedagogik jarayon, bo‘lajak mutaxassis,kasbiy shakllanish, muloqot, ijtimoiy faollik.

Ключевые слова: личность, педагог, современность, педагогический процесс, будущий специалист, профессиональное становление, общение, социальная активность.

Key words: personality, pedagogue, modernity, pedagogical process, future specialist, professional formation, communication, social activity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, bu yilgi davlat dasturi tasdiqlandi. Davlat dasturining har bir bandi mamlakatimiz rivoji uchun ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Mazmunan demokratik va insonparvarlik asosiga qurilayotgan jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti shaxsning shu taraqqiyot talablariga moslik darajasi, uning aql-idrokiga, jismoniy kuch-quvvatiga, ijtimoiy-siyosiy voqelikni anglashiga, ijtimoiy va kasbiy faolligiga bevosita bog‘liqdir.

O‘qituvchi shaxsi hamisha ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Zamonaviy o‘qituvchi esa munosabatlar muvozanatini ko‘ra bilishga, uni rivojlanish sari unday olishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Zamonaviylik har doim yangicha pedagogik – psixologik idrokni talab etadi. Pedagogika va psixologiya fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘shadi. Shunga muvofiq, zamonaviy o‘qituvchi shaxsining kasbiy va ijtimoiy faolligi jamiyatni ijtimoiy sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy faolligini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalashdan boshlamog‘imiz lozim.

Amaliyot va uzoq yillar davomida olib borilayotgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatayaptiki, shaxslarning ko‘p qirrali faoliyati murakkab va qarama-qarshilikdan iborat bo‘lganligi uchun aholi o‘rtasidagi munosabatlari, fikr-mulohazalari, baholash mezonlari bir tekisda rivojlanib bormaydi. Shaxsning

qalbi, ruhiyatida kechadigan har bir yangilanish, o‘zgarish uning hayotga bo‘lgan qarashini, munosabatlarini, kelajak rejalarini ham muayyan ma’noda o‘zgartiradi. Demak, jamiyatda o‘zgarmaydigan munosabatlar va qarashlar bo‘lishi mumkin emas.

Jamiyatimizning shiddatli taraqqiyoti, yangicha tafakkurning shakllanayotgani yosh avloddan zamon bilan hamohang qadam tashlashni talab etadi. Bugungi yoshlarimizning qalbuyg‘oqligi, eng muhimi befarq emasligi, burch va mas’uliyat, daxldorlik hissi, o‘z taqdiri va kamoli uchun qayg‘urishi, bizga behad mamnunlik baxsh etadi. O‘y-kechinmalari, orzu va intilishlarining qamrovi keng, havaslari davru zamonlarga yarasha, ong va tafakkurni yuksaltirish, ilmu ma’rifatga chanqoqlik aksariyat yoshlarimizga xos fazilatlardir.

Qisqa davr ichida mamlakatimizda ta’lim – tarbiya tizimi tubdan yangilandi, ta’limning tarbiya va amaliyot bilan uyg‘unligiga erishildi. Darhaqiqat, shunday ekan bugungi kunga kelib ta’limni zamon talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

Zamonaviylik o‘z navbatida keng ma’noga ega bo‘lgan tushuncha bo‘lib, o‘qituvchi shaxsining jamiyat tarqqiyotiga bo‘lgan kasbiy, ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari hamda fuqarolik mas’uliyatini belgilovchi o‘lchov hisoblanadi.

Zamonaviy bilimlar asosidagi kasbiy faollik insonni imkoniyat doirasini kengayib borishiga yo‘l ochadi. Chunki bu jarayonda yangi ehtiyojlar va imkoniyatlar paydo bo‘ladi, ehtiyoj qondirish yo‘lida faol harakat vujudga keladi. Shaxsning avvalo tabiatga, jamiyatga, ijtimoiy va iqtisodiy tuzumga, mavjud turmush tarziga faol munosabati, ularni o‘zgartirish va takomillashtirishda qatnashishi insonning o‘zini ham o‘zgartirib, aqlan kamol topib, dunyoqarashi shakllanib, siyosiy ongi o‘sib, barkamollik darajasiga ko‘tarilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Tadqiqotlar o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy funksiyasi uni qay darajada pedagogik mahoratni egallaganligida ko‘rinishini asoslamoqda. Agar o‘qituvchi shaxs sifatida o‘z kasbini sevsa, uni ardoqlasa, kasb burchi va mas’uliyatini dildan his etib faoliyat yuritsa, o‘zining insonparvarligi, bilimdonligi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari hamda yuksak madaniyati bilan ibrat-namuna ko‘rsata olsa, bunday o‘qituvchi ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalab yetkazishga qodir bo‘la oladi.

Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta’minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi.

PEDAGOG MAHORATI:

1. Dars berish mahorati;
2. Tarbiyalash mahorati;
3. O‘quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta’minlaydigan shaxsiy sifatlari;

4. Ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

DARS BERISh MAHORATI QUYIDAGI TALABLAR BILAN BELGILANADI:

- Kasbiy layoqat va eruditsiya;
- Psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
- Ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlash va yangi bilimlar olishga o‘rgatish mahorati;
- O‘quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;
- Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallanganlik, Internetning global tarmog‘i bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar;
- Pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish;
- Ilmiy –pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;
- Pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini bilish;
- Fanlararo aloqalardan foydalanish mahorati;
- Ritorika va notiqlik san’ati asoslarini bilish;

Hozirgi kun talabi bizning nazarimizda “kim o‘qituvchi bo‘la oladi, ideal o‘qituvchi o‘zi qanday bo‘lishi kerak?- degan savollarga javob topish emas, balki professional o‘sish va o‘qituvchi bo‘lib shakllanishning amaliy texnologik yo‘llarini aniq ko‘rsatib berishdan iborat.

Darhaqiqat, yangi to‘ldirilgan va o‘zgartirilishlar kiritilgan konstitutsiyamizda ham davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi aytilgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi.
2. A.Sh. Jumaev. Pedagogik faoliyatda shaxs xususiyatlari va kasbiy sifatlar o‘rtasidagi psixologik uyg‘unlik // O‘zMU xabarlari № ½, 2015, 142-145 b.
3. M.Quronov, Z.Qurbaniyazova. Ijtimoiy pedagogika. – T.: 2003.-48 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini kasbiy shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil etilgan bo‘lib, o‘qituvchi shaxsining jamiyat tarqqiyotiga bo‘lgan kasbiy, ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari ijtimoiy faollik omili sifatida o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются подходы к профессиональному становлению будущего учителя, а также профессиональные, духовно-нравственные, экономические и политические отношения педагога к развитию общества как фактора социальной активности.

SUMMARY

This article analyzes the approaches to the professional formation of the future teacher, and the professional, spiritual, moral, economic and political relations of the teacher to the development of society as a factor of social activity.

TALABALARNI MUSTAQIL TA'LIMINI BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NATIJALARI VA ULARNI SAMARADORLIGI

Jo'raeva D.Yu.
Navoiy davlat pedagogika instituti doktaranti

Tayanch so'zlar: Google Drive, Microsoft Office 365, Microsoft Firebase, bulutli texnologiyalar, bulutli-ta'lim muhiti.

Ключевые слова: Google Drive, Microsoft Office 365, Microsoft Firebase, облачные технологии, облачная образовательная среда.

Key words: Google Drive, Microsoft Office 365, Microsoft Firebase, cloud technologies, cloud educational environment.

Kirish. Xalqaro pedagogik tajribalar o'qitish tizimida Google Drive, Microsoft Office 365, Microsoft Firebase kabi bulut xizmatlari asosida ishlab chiqilgan ta'lim vositalarining yangi avlodlarini yaratish va ulardan foydalanish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyoda mehnat munosabatlarining global tarzda o'zgarishi markazdan qochish amaliyotiga olib kelmoqda, ya'ni jamiyatdagi axborotlashuvning shiddat bilan rivojlanishi natijasida kasbga tayyorgarlik ko'rishning virtuallashuv holatlari kuzatilmoqda. Ana shunga bog'liq ravishda bulutli texnologiyalar orqali o'z bilimini oshirishga bo'lgan talab oshib bormoqda, xususan, virtual ta'lim kurslari orqali ta'lim olishni ommalashuvini bunga misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun bunday sharoitda axborot texnologiyalari sohasida tayyorgarlik darajasiga e'tibor qaratilishini nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchilarni kasbiy masalalarni yechishga o'rgatishda ta'lim jarayonini innovatsion metodlari orqali takomillashtirish lozimligini talab etadi.

Bugungi kun yosh avlodning zamonaviy texnologiyalarga asoslangan Internet xizmatlaridan foydalanishga ehtiyoji yuqori. Shu sababli, bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlaridan foydalanish eng samarali va qulay usullardan biri hisoblanadi [1].

Materiallar va usullar. Olib borilgan pedagogik tadqiqotning samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida aniqlanadi. Shuning uchun tadqiqot doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari pedagogika

oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy fanlardan biri hisoblangan, biologiyani o’qitish metodikasi fanidan mustaqil ta’limini tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor auditoriyadan tashqari vaqtda kompyuter dasturlari, bulutli ilovalar yordamida turli didaktik materiallar tayyorlash hamda dala amaliyotlari va o‘quv-ilmiy laboratoriyalarda tajribalar o‘tkazish orqali fanning o‘qitish samaradorligini va talabalarning kompetentligini rivojlanganli darajasini aniqlashga qaratilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish ilmiy asoslangan, ma’lum bir qoida va talablarga tayanishni taqozo etadi. Shuning uchun pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishda U.B.Baxodirova, M.X.Allambergenova [2], I.A. Yuldoshev [3], N.O.Norbekov [4] larning tadqiqotlaridan foydalanildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2020-2023 yillarda to‘rt bosqichda olib borildi: izlanuvchi (2020-2021-yy.), shakllantiruvchi (2021-2022-yy.), yakuniy-nazorat bosqichlarda (2022-2023-yy.) o‘tkazildi.

Talabalarning biologiyani o’qitish metodikasi fanidan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov ishining izlanuvchi bosqichi 2020 yilda olib borildi. Mazkur bosqichda tadqiqot maqsadi, ob’ekti, predmeti va vazifalari belgilandi hamda mavzuga oid ilmiy, metodik manba’lar tahlil etildi.

Shu bilan birga mazkur bosqichda talabalar ga bulutli texnologiyaning imkoniyatlari, ulardan mustaqil ta’limda foydalanishga oid ma’lumotlar va tavsiyalar berildi.

Shuningdek, bu bosqichida tajriba-sinov dasturi ishlab chiqilib, tajriba-sinov ishlari o‘tkaziladigan pedagogika oliy ta’lim muassasalari, ya’ni Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Navoiy davlat pedagogika instituti obyekt sifatida belgilandi.

Tajriba-sinov dasturini ishlab chiqishda qo‘yidagilarga e’tibor qaratildi:

1. Biologiyani o’qitish metodikasi fanining mavjud o‘qitish holatini tahlil etish;

2. Biologiyani o’qitish metodikasi faniga oid adabiyotlarni tahlil etish;

3. Biologiyani o’qitish metodikasi faniga doir malaka talablarini, o‘quv rejalarni, fan dasturlarini tahlil etish;

4. Global tarmoqda biologiyani o’qitish metodikasi faniga oid bulutli-ta’lim muhitini yaratish, unga elektron ta’lim resurslarini, bulutli ta’lim texnologiyalarini hamda talabalar bilimini baholovchi va nazorat qiluvchi amaliy dasturlarni joylashtirish va ularni tajriba-sinovdan o‘tkazish;

5. Talabalarning biologiyani o’qitish metodikasi fanidan mustaqil ta’limida beriladigan amaliy topshiriqlarni aniqlashtirish;

6. Tajriba-sinov ishlarining natijalarini solishtirish uchun talabalar ni tajriba va nazorat guruhiga ajratish;

7. Tajriba guruhiga ajratilgan talabalarning mustaqil ta'limida bulutli texnologiya asosida topshiriqlar bankini shakllantirish;

8. talabalarning biologiyani o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limini tashkil etish uchun ishlab chiqilgan metodikani tajriba guruhida qo'llash;

9. Tajriba-sinov yakunida tajriba va nazorat guruhining natijalarini matematik-statistik tahlil etish.

Ushbu belgilangan vazifalar asosida pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishda pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "Biologiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishini 3-bosqichida tahsil olayotgan talabalar jalb etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Bunda og'zaki, yozma va test baholash usullaridan foydalanildi. Ularning tajriba boshidagi ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba boshi va yakunida olingan natijalar

№	Tajriba va nazorat guruhlarida talabalarning olgan baholari									
	Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
	talabalarning umumiy soni	2 (qoniqarsiz)	3 (qoniqarli)	4 (yaxshi)	5 (a'lo)	talabalarning umumiy soni	2 (qoniqarsiz)	3 (qoniqarli)	4 (yaxshi)	5 (a'lo)
Navoiy davlat pedagogika instituti										
Tajriba boshida	50	5	20	18	7	45	3	19	18	5
Tajriba yakunida	50	0	18	19	13	45	2	17	17	7
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti										
Tajriba boshida	45	7	15	16	7	55	7	21	22	5
Tajriba yakunida	45	0	14	17	14	55	3	23	25	5
Chirchiq davlat pedagogika instituti										
Tajriba boshida	55	6	20	21	8	50	4	21	19	6

Tajriba yakunida	55	0	18	25	12	50	2	20	22	6
JAMI										
Tajriba boshida	150	18	55	55	22	150	14	61	59	16
Tajriba yakunida	150	0	50	61	29	150	7	60	64	18

Tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichi 2021 yilda amalga oshirildi. Mazkur bosqichda tajriba-sinov vaqtida talabalarning baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Mazkur bosqichda biologiyani o'qitish metodikasi fanidan bulutli-ta'lim muhitini yaratish bosqichlari, xususan, boshlash jarayoni, maqsadlarni aniqlash, unga oid elektron ta'lim resurslar yaratish, sinovdan o'tkazish, tahrir qilish va biologiyani o'qitish metodikasi fanidan bo'lajak biologiya o'qituvchilariga foydalanishi uchun topshirish bosqichlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil etildi.

Bulutli-ta'lim muhiti uchun mo'ljallangan elektron ta'lim resurslarini yaratishda bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida keng ko'lamda foydalanilib kelinayotgan kompyuterning pedagogik dasturiy vositalari tanlab olindi. Elektron ta'lim resurslarni yaratish uchun pedagogik dasturiy vositalarni tanlashda tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan oliy ta'lim muassasalarining informatika va axborot texnologiyalari fani professor-o'qituvchilarining ko'magidan foydalanildi [5-7].

Tajriba-sinov ishining yakuniy-nazorat bosqichi 2022-2023 yilda olib borildi. Ushbu bosqichda biologiyani o'qitish metodikasi fanining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish tizimini takomillashtirishga oid talabalar va professor-o'qituvchilar bilan suhbat va kuzatuvlar tashkil etildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun belgilangan oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil qilishga oid pedagogik kuzatuv olib borildi. Kuzatish jarayonida professor-o'qituvchi va talabalar bilan individual suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlar davomida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor berishlari va qaysi tamoyillar asosida mustaqil topshiriqlarni berish lozimligi o'rgatildi. Suhbat davomida ularga savollar bilan murojaat qilindi.

Bundan tashqari ushbu bosqichda biologiyani o'qitish metodikasi fanidan global tarmoqning **bio-cloud.uz** manzilida bulutli-ta'lim muhiti yaratildi. Ushbu bulutli-ta'lim muhitiga vebga moslashtirilgan elektron ta'lim resurslar yaratilib, joylashtirildi va ular O'zbekiston Respublikasi Intellektal mulk agentligidan ro'yxatdan o'tkazildi.

Tadqiqot doirasida yaratilgan bulutli-ta'lim muhiti va unga joylashtirilgan elektron ta'lim resurslarini sinovdan o'tkazish va sifat darajasini aniqlash maqsadida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, va Navoiy davlat pedagogika institutlarining "Biologiya o'qitish metdikasi" ta'lim yo'nalishining 3-bosqich talabalari (300 nafar) va "Biologiya" kafedrasi professor-o'qituvchilari (98 nafar) jalb etildi.

Biologiyani o'qitish metodikasi fanidan yaratilgan bulutli-ta'lim muhitining talabalarning mustaqil ta'lim olishiga mosligi muhim hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqot doirasida yaratilgan bulutli-ta'lim muhitini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari va professor-o'qituvchilar tomonidan baholash natijasiga ko'ra, tadqiqot doirasida yaratilgan bulutli-ta'lim muhiti 100 balldan - 85 ballga baholandi. Shuning uchun tadqiqot doirasida yaratilgan **bio-cloud.uz** bulutli-ta'lim muhitidan pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "Biologiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ni biologiyani o'qitish metodikasi fanini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin, - degan xulosaga keldik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining yakuniy-nazorat bosqichi 2023 yilda umumlashtirilib, unda tajriba va nazorat guruhiga ajratilgan talabalarning bilimlari biologiyani o'qitish

metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi. Ularning ko'rsatkichlari umumlashtirilib, Styudent-Fisher kriteriyasi yordamida matematik-statistik tahlildan o'tkazildi.

Tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasalarining «Biologiya» ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalarini masofaviy ta'lim olish jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samardorlik darajasini aniqlash bo'yicha Navoiy davlat pedagogika instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika institutlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov talabalarning darajasini aniqlash uchun tajriba va nazorat guruhlarida hamda izlanuvchan-nazariy, shakllantiruvchi va yakunlovchi (statistik tahlil) bosqichlarida tajriba-sinov maydoni etib belgilangan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamkorligida dissertant tomonidan 2020-2023 yillarda amalga oshirildi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlarida jami 300 nafar talabalar ishtirok etdi. Shundan 150 nafari tajriba guruhida, 150 nafari esa nazorat guruhida ishtirok etdi.

Oliy ta'lim muassasasidagi biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining fan bo'yicha tayyorgarligini takomillashtirish natijalarini baholash uchun testlar, amaliy topshiriqlar, laboratoriya ishlari ishlab chiqildi va tajriba-sinov ishlarida qo'llanildi.

Natijalar. Olib borilgan tajriba-sinov natijalariga tayangan holda talabalarning mustaqil ta'limni bulutli texnologiyalar asosida takomillashtirish metodikasi samaradorligini tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlariga qanday ta'sir etganini aniqlash maqsadida Styudent matematik-statistika metodi yordamida chuqur tahlil etdik. Tahlil qilish uchun ba'zi belgilashlar va formulalardan foydalanildi:

x_i, n_i - tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va tinglovchilar sonini mos ravishda;
y_j, m_j- nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va tinglovchilar sonini mos ravishda;

$\mu = \frac{x_{o'rt}}{y_{o'rt}} = \frac{\frac{\sum x_i n_i}{n}}{\frac{\sum y_j m_j}{m}}$ - tajriba va nazorat guruhlarining o'rta arifmetiklari nisbati o'quv jarayoni samaradorligi koeffitsiyentini beradi, bunda $x_{o'rt}, y_{o'rt}$ – mos ravishda tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha arifmetik qiymatlari;

$S_x^2 = \frac{1}{n}\sum n_i (x_i - x_{o'rt})^2$, $S_x = \sqrt{S_x^2}$- tajriba guruhining mos ravishda o'rtacha kvadratik og'ish va standart og'ish kattaliklari;

$S_y^2 = \frac{1}{m}\sum m_j (y_j - y_{o'rt})^2$, $S_y = \sqrt{S_y^2}$- nazorat guruhining mos ravishda o'rtacha kvadratik og'ish va standart og'ish kattaliklari;

Tajriba va nazorat guruhlari o'rtacha qiymatlarini quyidagicha aniqlaymiz:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n} \cdot x} \cdot 100\%, \qquad C_y = \frac{S_y}{\sqrt{m} \cdot y} \cdot 100\%$$

Har bir bosh to'plamning noma'lum o'rta qiymatlarininig ishonch oraliqlari quyidagicha aniqlandi:

$$a_x \in \left[x_{o'rt} - \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x; x_{o'rt} + \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x\right]; \quad a_y \in \left[y_{o'rt} - \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y; y_{o'rt} + \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y\right]$$

bu yerda t – normallashgan chetlanish ishonch ehtimoli P asosida aniqlanadi (P=0,95 da t=1,96);

O'zaro qarama-qarshi bo'lgan ikkita gipotezani ilgari suramiz, ya'ni N_1 gipoteza va unga zid bo'lgan N_0 gipoteza. Shunday qilib, $N_1: a_x = a_y$ bo'lsa, u holda $N_0: a_x \neq a_y$.

Shunga asosan quyidagi Styudent matematik-statistikasini hisoblanishni bajaramiz:

$$T_{n,m} = \frac{|x_{o'rt} - y_{o'rt}|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}}$$

Agar T > t bo‘lsa, N_0 gipoteza rad etilib, N_1 gipoteza qabul qilinadi.

2020-2023 o‘quv yillari uchun aniqlangan baholash ko‘rsatkichlari matematik jihatidan hisoblab chiqildi. Ushbu natijalarga ko‘ra, Styudent metodi orqali tekshirib, quyidagi ifodaga erishildi.

$$T_m = \frac{\left|x_{o\prime rt}^{t.b.} - x_{o\prime rt}^{t.o.}\right|}{\sqrt{\frac{S_{x^{t.b.}}^2}{n} + \frac{S_{x^{t.o.}}^2}{n}}}; T_n = \frac{\left|y_{o\prime rt}^{t.b.} - y_{o\prime rt}^{t.o.}\right|}{\sqrt{\frac{S_{y^{t.b.}}^2}{m} + \frac{S_{y^{t.o.}}^2}{m}}}.$$

2020-2023 o‘quv yili uchun tajriba-sinov guruhi:

$$x_{o\prime rt}^{t.b.} = 3{,}542;\ x_{o\prime rt}^{t.o.} = 3{,}936.$$

samaradorlik koeffitsiyenti $\mu_n = 1{,}132$

$$T_n = \frac{|3{,}542-3{,}936|}{\sqrt{\frac{0{,}968+0{,}807}{150}}} = \frac{0{,}452}{\sqrt{0{,}0112}} = 3{,}62.$$

T_n =3,62 > (t) = 1,96. Demak, N_1 gipoteza qabul qilinadi.

2020-2023 o‘quv yili uchun nazorat guruhi: $y_{o\prime rt}^{t.b.} = 3{,}513$ va $y_{o\prime rt}^{t.o.} = 3{,}518$.

bunda $\mu_m = 1{,}013$ – samaradorlik koeffitsiyenti.

$$T_m = \frac{|3{,}513-3{,}518|}{\sqrt{\frac{0{,}884+0{,}807}{150}}} = \frac{0{,}005}{\sqrt{0{,}0113}} = 0{,}47.$$

T_m = 0,47< 1,96 bo‘lib, N_0 gipoteza qabul qilinadi.

Tajriba-sinov ishlari natijasidan kelib chuiqilgan holda umumiy ko‘rsatkichlar mosligi va farqlarining ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher matematik-statistikasi metodidan foydalanildi.

Barcha hisoblash ishlarini Exsel dasturidagi maxsus statistik formulalar yordamida amalga oshirdik. Olingan natijalardan quyidagi jadvalni tuzdik (3-jadvalga qarang).

Demak, bosh o’rtacha qiymatlar tengligi haqidagi N_0 nolinchi gipoteza rad etiladi. Buni 97 % ishonchlilik bilan aytish mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi o’rtacha o’zlashtirish ko’rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi o’rtacha o’zlashtirish ko’rsatkichlaridan yuqori bo’ldi. Endi tajriba boshi va yakunidagi natijalarning diagrammasini keltiramiz (1-rasmga qarang).



1-rasm. Tajriba-sinov o’tkazilgan oliy ta’lim muassasalari bo’yicha umumiy natijalar diagrammasi

Xulosa. Tadqiqot davomida olingan natijalar ustida o’tkazilgan statistik tahlillardan tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 1,119 barobarga, boshqacha qilib aytganda 12% ga samaraliroq natijaga erishilganligi ko’rsatildi. Bu esa o’z navbatida mustaqil ta’limni bulutli texnologiyalar

asosida takomillashtirish metodikasi samarali ekanligini isbotlaydi va uni keng ko'lamda respublikamizning barcha oliygohlarida qo'llashimiz mumkinligiga asos bo'ladi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi **tavsiyalarni** taqdim etamiz:

1. talabalarning kasbiy fanlaridan mustaqil o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda bulutli texnologiyalardan va ilovalardan fodalanishni yaxlit mexnizmni ishlab chiqish lozim;

2. talabalarning biologiyani o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limini tashkil etishda ko'proq amaliy topshiriqlarni vazifa sifatida berish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, dala amaliyotlari va o'quv-ilmiy laboratoriyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish zarur;

3. Tadqiqot doirasida yaratilgan bulutli-ta'lim muhitidan imkoniyati cheklangan talabalar ni o'qitish foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Моор П. К., Моор С. М. Виртуалное взаимодействие в современном образователном пространстве // Электронное образование: перспективы исползования SMART–технологий: Материалы III Международной научно–практической видеоконференции. − Тюмен: ТюмГНГУ, 2016. − 170 с.

2. Носкова Т.Н. и др. Анализ отечественных и зарубежных подходов к построению передовых образователных практик в электронной сетевой среде // Интеграция образования журнал. – Москва. Т. 20, № 4, 2016. С. 456–464.

3. Эргашева Г.С. Биология таълимида интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланишни такомиллаштириш. Дисс.докт. пед. фан. (DSc). Тошкент.ЎзМУ–2018.– 32с.

4. Уваров А.Ю., Цифровая трансформация и сценарии развития общего образования. Националный исследователский университет «Высшая школа эконо мики», Институт образования. – М.: НИУ ВШЭ, 2020. – 108 с. – 200 экз. – (Совре менная аналитика образования. № 16(46)).

5. Михалева О. В. Рол цифровой образовател ной среды вуза в повышении качества будущих бака лавров // Ученые записки ИУО РАО. 2018. № 3 (67). С. 104–107.

6. Никулина Т. В. Информатизация и цифрови зация образования: понятия, технологии, управление / Т. В. Никулина, Е. Б. Стариченко // Педагогическое образование в России. 2018. № 8. С. 107–113.

7. Тарасов С. В. Образовательная среда: поня тие, структура, типология // Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина. 2011. № 11. С. 133–138.

РЕЗЮМЕ

Maqolada talabalarni mustaqil ta'limini bulutli texnologiyalar asosida takomillashtirishning natijalari va ularni samaradorligi haqida so'z yuritilib, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda matematik-statistik jarayonlar bayoni keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассказывается о результатах совершенствования самостоятельного обучения студентов на основе облачных технологий и их эффективности, приводится описание организации опытно-экспериментальных работ и математико-статистических процессов.

SUMMARY

The article describes the results of improving students' independent learning based on cloud technologies and their effectiveness, describes the organization of experimental work and mathematical and statistical processes.

GIPOTETIK-DEDUKTIV METOD VA UNING ZAMONAVIY PEDAGOGLARNI ANALITIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Aliyev N.M.
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so’zlar: gipotetik-deduktiv, yangi taraqqiyot, tafakkur ko‘nikmalari, innovasion g‘oyalar, mantiqiy fikrlash, individual sifatlar, barkamol inson, ta’lim standartlari, aqliy faoliyat turi, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: гипотетико-дедуктивное, новое развитие, мыслительные способности, инновационные идеи, логическое мышление, индивидуальные качества, совершенный человек, образовательные стандарты, вид мыслительной деятельности, научно-методический.

Key words: hypothetical-deductive, new development, thinking skills, innovative ideas, logical thinking, individual qualities, perfect person, educational standards, type of mental activity, scientific-methodical.

Kirish. Gipotetik-deduktiv metod – bir-biri bilan deduktiv bog‘liq bo‘lgan gipotezalar tizimini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur gipotezalardan pirovard natijada empirik faktlar to‘g‘risida xulosalar chiqariladi. Ushbu metod gipotezalardan va xaqiqiy ma’nosi ma’lum bo‘lmagan boshqa farazlardan xulosalar chiqarishga (deduksiyaga) asoslanadi. Binobarin, mazkur metod yordamida chiqarilgan xulosa muqarrar tarzda ehtimoliy xususiyatga ega bo‘ladi.Analitik tafakkurni rivojlantirishdagi eng samarali nazariya hisoblangan gipotetik-deduktiv metodning asosini nazariy bilish metodlari tashkil qiladi. Gipoteza qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib «ὑπόθεσις»-»taxmin» degan ma’noni bildirib, tabiat va jamiyatdagi jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishda muhim metodik vazifani o‘taydi. Ilmiy izlanishlar va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi olimlarning umumiy fikriga ko‘ra gipoteza haqiqat va yolg‘onning o‘rtasida mavjud bo‘lib, unga asoslangan yoki uni qo‘llash natijasida olingan natijalarga qarab u haqiqatga yoki yolg‘onga aylanadi. Shu bilan birgalikda gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonlarida boshqaruvchi rolni ham o‘ynaydi va u ilmiylik xususiyatlari bilan qorishib ketadi. Gipoteza shu tufayli ham tabiat va jamiyatdagi ro‘y beradigan hodisa va voqeiylik hamda munosabatlarning kelgusidagi holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Gipotezaning qo‘yilishi esa ilmiylikka undaydi va shu orqali u prognoz tushunchasi bilan qorishib ketadi.[1] Prognoz esa gipotezalarga tayangan holda ilmiy-qonuniyatlarga asoslanadi. O‘rganilayotgan jarayonning kelgusidagi holatini aniqlashda ularni birga qo‘llash muhim metodik yo‘llanmalarni beradi va ular birgalikda rejalarni shakllantirishga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Prognozlashtirish boshqaruv tizimining muhim va zaruriy elementi hisoblanadi. Prognozlashtirish natijasida boshqaruv jarayonida boshqaruv ob’yektining kelgusidagi holati va unga ta’sir etuvchi omillarning yo‘nalishlari aniqlanadi.[2] Boshqaruvni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadga erishishning taktik yo‘nalishlari va unga o‘zgartirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Rossiyalik iqtisodchi olim N.N. Moisevning ta’kidlashicha har qanday iqtisodiy ob’yektni prognozlashtirish uchta xususiyatga: tizimlilik, ob’yektivlilik va bilish mumkinlik (poznavayemost) kabilarga ega bo‘ladi, shu jihatdan har qaysi ob’yektni prognozlashtirish jarayoniga fundamental nuqtai nazardan qarashga to‘g‘ri keladi.

Rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonlari asosan “Futurologiya” termini bilan izohlangan. «Futurologiya» (lot. futurum – kelajak va ...logiya) – keng ma’noda insoniyat kelajagi, umumbashariy muammolar haqidagi umumiy konsepsiya yoki tasavvurlar majmuasi; tor ma’noda – ijtimoiy jarayonlar hamda fan-texnika taraqkiyotiga oid sohalardagi jarayonlarni izchillikda o‘rganish va kelajagini bashorat qilish imkoniyatini beradigan fan sohasi.

Prognoz qilish turlari jud ko‘p. Chunki, tabiat va jamiyatdagi har qaysi jarayon va hodisalarda rivojlanish jarayoni davom etadiki, ularning kelgusidagi holatini bilishga intilish prognoz jarayoni orqali amalga oshiriladi. Prognoz tushunchasi va uning mohiyatini o‘rganish maqsadida iqtisodiy va boshqa adabiyotlarda uning turlariga yondashuvlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida ularni yondashuvimiz bo‘yicha ma’lum bir mezonlar asosida guruhlarga ajratdik. Prognozning mohiyatini chuqurroq o‘rganish maqsadida ularni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qamrab olishi; ko‘lami va funksional belgisiga ko‘ra guruhlab o‘rganish maqsadga muvofiq.

Gipotetik-deduktiv metodning umumiy tuzilishi:

– nazariy tushuntirishni taqozo etuvchi material bilan tanishish va mavjud nazariyalar, qonunlar yordamida nazariy tushuntirishga harakat qilish. Agar buning iloji bo‘lmasa:

– turli-tuman mantiqiy usullar yordamida mazkur hodisalarning sabab va qonuniyatlari to‘g‘risida faraz (gipoteza, taxmin)lar qilish;

– farazlarning asosliligi va jiddiyligiga baho berish va ularning orasidan haqiqatga eng yaqinini tanlab olish;

Gipoteza uslubining umumiy tuzilishi bilan tanishish qonunlar, prinsiplar va nazariyalarni fanda o‘rganishga qaratilgan bilish turli shakldagi murakkab kompleks usullarga asoslanishini bilib olishga yordam beradi.

Ba’zan gipoteza bu metodni, gipotezani ilgari surish doimo undan empirik Tushuntiruvchi gipoteza qonun to‘g‘risidagi taxmin sifatida gipotezaning fandagi yagona turi emas. Shuningdek, ekzistensial gipotezalar, ya’ni fanga noma’lum bo‘lgan elementar zarrachalar, irsiy birliklar, kimyoviy elementlar, yangi biologik tiplar va boshqalar mavjudligi to‘g‘risida taxminlar ham mavjud. Bunday gipotezalarni asoslab berish va ilgari surish tushuntiruvchi gipotezalardan farq qiladi. Asosiy gipotezani tajriba yo‘li bilan qulay holga keltirish imkonini beradigan yordamchi gipotezalar ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ishchi gipoteza deb ataladiganlari ham bor, ular empirik dalillarni yaxshi bilishga imkon beradiyu, lekin ularni tushuntirishga, keyin esa doimiy bilim sifatida saqlanib qolishga da’vo qilmaydi.

Gipotezaning muhim turlaridan biri, oliy darajadagi matematikalashgan fanlar uchun xos bo‘lgan matematik gipotezadir. Yuqorida bayon qilingan usul mazmunli gipoteza metodi hisoblanadi. Uning doirasida dastlab qonunlar to‘g‘risidagi taxminlar asoslanadi, keyin esa ular mos tarzdagi matematik ifodaga ega bo‘ladi. Avval miqdoriy bog‘liqliklarni tushuntirish uchun aralash fanlar sohasida mos bo‘lgan tenglama tanlab olinadi, keyin bu tenglamaga mazmun berishga harakat qilinadi. Matematik gipotezani tavsiflar ekan, S.I.Vavilov yozgan edi: faraz qilaylikki, tajribada o‘rganilayotgan matematik hodisa o‘zaro bir-biriga yaqin tenglama bilan bog‘liq bir qator o‘zgaruvchan va doimiy kattaliklarga bog‘liq. Bu tenglamani o‘zgartirib boshqa munosabatlarni olish mumkin. Matematik gipoteza yoki ekstrapolyasiya ana shundan iborat. U tajriba bilan mos yoki tafovutli fikrlarga olib keladi va muvofiq tarzda yana qo‘llaniladi yoki olib tashlanadi.

Gipoteza metodi yangi qonunlar, prinsiplarni ochish va nazariyalarni yaratish jarayonida ilmiy tadqiqotning ijodiy xarakterini namoyish qiladi. Bu metod qoidasi tadqiqot natijalarini bir xil tushuntirmaydi va olingan bilim haqiqatligini kafolatlamaydi. Aynan ijodiy intuisiyagina muammoni yechishning ko‘plab yo‘llari orasidan ijodiy tanlash orqali olimni yangi nazariya tomon yetaklaydi. Nazariya mantiqiy hisoblab chiqarilmaydi, u olimning ijodiy dahosi bilan yaratiladi va unda doimo ijodkor shaxs iste’dodi namoyon bo‘ladi.

Beruniyning bu gipotezasining yana bir ajoyib tomoni bor: tushayotgan jismning sharqqa siljishining sababi o‘zining dastlabki katta tezligini saqlab

qolishdir, bu esa Beruniy Galiley – Nyutonlardan oldin mana shu inersiya qonuniga tarixiy asos solishdir, degan natijaga kelindi.

Ibn Sino gipotezani fanning zamini deb hisoblagan. Uning aytishicha, gipotezada shubha bo‘lishi mumkin. Birovning gipotezasini boshqalar qabul qilishi yoki qabul qilmasligi mumkin, lekin uning bo‘lgani yaxshi. Gipoteza isbotlanganidan keyin nazariyaga aylanadi.

Ibn Sino bilish sohasida fantaziyaga alohida o‘rin beradi. Uning aytishicha, bir narsani bilish uchun uni boshqalardan ajratib olib, qiyoslash kerak, shunda umumiylik va farq aniqlanadi, endi har qanday hayolga, fantaziyaga yo‘l ochiladi. Masalan, filni hayolan ikkiga bo‘lib, ularni tasavvur qilish. Demak, fantaziya qurollari bo‘lib qiyoslash, bog‘lash va tasavvur yotadi.

Natijalar. Gipotezani ta’riflash uchun ob’yekt tadqiq qilinadi, mumkin bo‘lgan tahmin ifodalanadi, tahmindan chiqadigan oqibatlar ko‘rsatiladi. Oqibatlarning haqiqatligi ko‘rsatilgach, gipoteza yo e’tirof etiladi yoki inkor etiladi. E’tirof etilsa, gipoteza nazariyaga aylanadi. Ma’lum gipotezaning haqiqat ekanligini yo bevosita tajriba bilan, yo boshqa bir tasdiqlangan nazariya bilan taqqoslash natijasida isbotlash mumkin. Misol uchun Quyosh sistemasining paydo bo‘lishi haqidagi gipotezalarni olaylik. N.N.Pariyskiy 1942 yili Toshkentda yashab turgan vaqtida o‘sha vaqtgacha hukm surib kelgan Kant-Laplas, Jins, Multon va boshqa bir qancha gipotezalarni haqiqatligi aniqlangan fikr bo‘lgan harakat miqdori momentining saqlanishi haqidagi qonunga solishtirdi. U gipotezalarning hammasi bu qonun talablariga javob berolmaganligidan puchga chiqdi. A.B.Krat, O.Yu. Shmidt va V.G. Fesenkovlarning gipotezalari bu qonunga mos. Lekin ular hanuz gipotezalikdan nariga o‘tgan emas. Keyingi vaqtlarda molekulyar genetikada bir qancha gipotezalar paydo bo‘ldi. Ularning qaysi biri to‘g‘riligini aniqlashda matematik statistikadan foydalanilmoqda.

Analiz (tahlil qilish faoliyati) jarayonida fikr murakkablikdan oddiylikka, tasodifdan zaruratga qarab, xilma-xillikdan ayniyatga va birlikka qarab harakat qiladi. Analiz qilishning maqsadi qismlarni, murakkab butunning unsurlari sifatida bilish va ular o‘rtasidagi aloqa va qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Sintez, aksincha, analiz vositasi bilan ajratilgan qismlar, xossalar, munosabatlarni yagona bir butunga birlashtirish jarayonidan iborat. Sintez birliqdan tafovutga va xilma-xillikka qarab yo‘naltirilgan bo‘lib, umumiylik va ayrimlikni, birlik va xilma-xillikni muayyan jonli butunga birlashtiradi.[7] Analiz va sintez chambarchas bog‘liq holda amal qiladi.

Analiz va sintez birgalikda to‘la bilim beradi. Ularni bir-birlaridan mutlaq ajratmaslik lozim. Integralni differensialsiz, hayotni dissimilyasiyasiz yoki assimilyasiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Analiz bilan sintez birligi deganda,

albatta, bir butunni bir gal bo‘laklarga bo‘lib tashlash, ikkinchi gal ularni yana mexanik ravishda qovushtirish tushunilmasligi kerak. Analizda ham, sintezda ham yangi fikr yoki yangi modda kelib chiqadi, hamma vaqt differensial tenglama tuzilib, integrallansa, qo‘yilgan masala hal qilinadi. Alkoloidlarni analiz qilib, kerakliklaridan keraklicha qo‘shilsa, yangi bir dori kashf etish mumkin. Beruniy va Ibn Sinoning farmakognoziya va farmasevtika haqidagi asarlarida o‘simliklardan dori tayyorlash usullari shu tamoyilga asoslangan. Kimyoviy moddalarni analiz qilib, so‘ngra ma’lum qoida bilan yig‘ilsa, sintetik tola yoki balonye hosil qilish mumkin. Paxtani va g‘o‘zapoyani analiz qilib, elementlarga ajratib, so‘ngra tegishli sintez qilish natijasida bir necha o‘nlab muhim modda hosil qilinadi.[7] Fanni bilish uchun uni bo‘laklarga ajratiladi, matematika, fizika, ximiya, biologiya va hokazo. Ular alohida-alohida o‘rganilib, so‘ngra sintez qilinadi, falsafiy mulohaza yuritiladi.

Ob’yektiv dunyoda narsalar va hodisalar rang-barang, ular miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham cheksiz. Har bir narsaning yoki voqeaning o‘zi e’tiborga olingan holda konkret deyiladi. Har bir ob’yekt esa, umuman, ko‘p jinsli, bir qancha xossali, ko‘p tomonli bo‘ladi. Konkretlikning murakkabligi shundadir. Endi, u murakkab ob’yektlarning har birini alohida-alohida emas, ya’ni konkret ravishda emas, balki ularning hammasining bir tomoni, bir xossasi olinsa – bu abstraktlik deyiladi. Shuning uchun abstraktlik konkret holda sezilmay, faqat fikrlashning maxsulidir. Masalan, hayotimizda uchraydigan voqealar: olmaning tushishi, avtomashinaning yurishi, Oyning siljishi – konkretdir, ular harakatining qonuni abstrakt-likni ifodalaydi.

Abstraksiyaning vazifasi tekshirilayotgan narsani tanho ko‘rish. Abstraksiyalash – kerakmas, qiziqtirmaydigan narsadan faqat judo bo‘lish. Bir misol: fan haqida gap ketsa, mulohaza kengroq bo‘ladi, agar matematika haqida gap ketsa, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlardan abstraksiya qilinadi, ular haqida gapirilmaydi.

Gipotezaning matematik shaklda ifodalashni hozirgi zamon fanida borgan sari ko‘p joy olmoqda. Bunday gipotezani yaratishda tajriba yakunlari, empirik mulohazalar materiya rivojlanishi oqibatlarini hisobga olgan matematik ekstranolyasiya formulalarining taqqoslanishi muhim ahamiyatga ega. Matematika endi lingivistika, medisina, sosiologiyaga shaxdam kirib bormoqda.

Mavhumlashtirish – o‘rganilayotgan hodisaning bir qancha xossalari va nisbatlaridan fikran uzoqlashish, ayni paytda tadqiqotchini qiziqtirgan xossalarni (eng avvalo, muhim, umumiy xossalarni) ajratish jarayoni. Mazkur jarayon natijasida har xil «mavhum predmetlar» olinadi. Bunda «mavhum predmetlar» deganda alohida tushunchalar va kategoriyalar («rivojlanish»,

«qarama-qarshilik», «fikrlash» va b.) hamda ularning tizimlari tushuniladi. Matematika, mantiq, dialektika va falsafa eng rivojlangan tizimlardir.

Muhokama. Ko‘rib chiqilayotgan xossalarning qay biri muhim, qaysinisi ikkinchi darajali ekanligini aniqlash mavhumlashtirishning bosh masalasidir. Mazkur masala har bir muayyan holatda, eng avvalo, o‘rganilayotgan predmetning tabiatiga, shuningdek, tadqiqotning muayyan vazifalariga qarab hal qilinadi.

Umumlashtirish – predmetning umumiy xossa va belgilarini aniqlash jarayoni bo‘lib, mavhumlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Bunda har qanday umumiy (abstrakt-umumiy) yoki muhim (muayyan umumiy, qonun) belgilar ajratilishi mumkin.

Induksiya – ayrimlik (tajriba, fakt)dan umumiyga (ularni umumlashtirib, xulosa chiqarishga) fikran harakat qilish;

Deduksiya – bilish jarayonining umumiydan ayrimlikka yuksalishi. Induksiya va deduksiya o‘zaro bog‘lanadi hamda bir-birini to‘ldiradi. Tajriba hamisha cheksiz va nomukammal bo‘lganligi uchun induktiv xulosalar doim muammoli (ehtimoliy) xususiyatga egadir. Induktiv umumlashtirishlarga, odatda, tajribada bilingan haqiqatlar (empirik qonunlar), deb qaraladi.

Induktiv umumlashtirish turlaridan ommaviy induksiya, to‘liqsiz induksiya, to‘liq induksiya, ilmiy induksiya va matematik induksiya ajratiladi. Mantiqla sababiy aloqalarni aniqlashning induktiv metodlari – induksiya qonunlari (Bekon-Mill induktiv tadqiqot qoidalari) farqlanadi. Yagona o‘xshashlik, yagona tafovut, o‘xshashlik va tafovut, bog‘liq o‘zgarishlar metodlari va qoldiqlar metodi shular jumlasidandir.

Deduksiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tadqiqotchi deduksiya vositasida bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to‘g‘risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma’lumki, agar biron xususiyat bir toifa yoki bir jinsdagi hamma narsa yoki hodisalarga xos bo‘lsa, bu xususiyat shu toifa yoki jinsga oid har bir narsa yoki qodisaga ham xos bo‘ladi.

Analogiya (moslik, o‘xshashlik) – o‘xshash bo‘lmagan ob’yektlarning ayrim jihatlari, xossalari va munosabatlaridagi o‘xshashliklarni aniqlash. Aniqlangan o‘xshashlik asosida tegishli analogiya bo‘yicha xulosa chiqariladi.

Modellashtirish – borliqni bilvosita o‘rganish usuli. Biron ob’yektning xususiyatlarini ularni o‘rganish uchun maxsus tuzilgan boshqa ob’yektda qayta hosil qilishdir. Modellashtirish asosida tadqiq qilinayotgan ob’yekt bilan uning modeli o‘rtasidagi o‘xshashlik, muvofiqlik yotadi. Mazkur usul ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ob’yektning o‘rnini bevosita tadqiq etish mumkin

bo‘lmagan, qimmat bo‘lgan, juda uzoq vaqt talab qiladigan holatlarda modelga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Shuningdek, gipotetik-deduktiv metodning ilmiy bilishdagi samaradorligi umumiy bilish usullari hamkorligi asosida bo‘lishini ham unutmasligimiz kerak.

Kuzatish bilishning bevosita shaklidir. Yangi ma’lumot sezgi organlari orqali olinadi. Kuzatish paytida kuzatilayotgan narsa yoki hodisaga aktiv ta’sir ko‘rsatilmaydi.

Eksperiment tadqiqotning shunday usuliki, bunda tekshirilayotgan ob’yekt zaruricha o‘zgartirilishi mumkin, har xolda ma’lum darajada unga ta’sir qilinadi. Eksperiment ma’lum shart-sharoitni talab qiladi. Agar shunday sharoit mavjud bo‘lmasa-yu, bu eksperiment «bajarilsa», u «fikriy eksperiment» deyiladi.

Ilmiy eksperiment elementlari: xalaqit beradigan faktorlardan halos bo‘lmoq, kerakli hodisani sun’iy ravishda ro‘yobga chiqarmoq, kuzatish va tegishli vositalar yordamida qalamga olmoq.

Kuzatish va ilmiy eksperiment ishlarida priborning roli borgan sari ortmoqda. Tabiiy hodisalar xarakteristikalarini o‘lchash o‘z vazifalarini bajarayotgan sezgi organlariga yordam berish, ob’yektni sof holda tekshirish uchun kerakli shart-sharoit yaratish priborning bilishdagi vazifasiga kiradi. Bu vazifani bajarish ob’yektning priborga ko‘rsatadigan ta’siriga asoslanadi. Shu bilan birga, ayniqsa, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida priborning ob’yektga ta’siri ham hisobga olinadi.

Nazariya bilishning fikrlashga oid qismi. Nazariyani bir tomon¬dan amaliyot bilan, ikkinchi tomondan gipoteza bilan taqqoslash mumkin. Nazariya amaliyotdan boshlanadi, ya’ni amaliy xayotga, tajribaga asoslanadi. Tajriba yakunlari nazariyada bevosita yoki bilvosita element shaklida ishtirok etadi. Nazariya kishilar fikrida mujassamlashgan amaliyotdir.

Xulosa. Xulosa qilib, gipotetik-deduktiv metod narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, ijtimoiy munosabatlarni chuqur tahlil qilish va shu asosida haqiqatlarni topishga yordab beradigan, o‘rganuvchida analitik va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradigan yondashuv hisoblanadi.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovotining, ongli harakatining yuksak shakli va tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Analitik tafakkur – tahliliy fikr yuritish san’ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o‘rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to‘xtamga kelish qobiliyati. Analitik tafakkur

egasi tahlil qilinayotgan ob'yektni har tomonlama sinchiklab o'rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi, har bir so'z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o'zaro mantiqiy bog'laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Demak, ana shu analitik tafakkurning rivojlanishidagi turli qarashlar, yondoshuvlar, konsepsiyalar orasidagi ziddiyatlar mavjudligiga e'tibor berilsa, talabada tanqidiy tafakkurni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Фалсафа: қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 390.
2. Ғозиев Э.Ғ. Тафаккур психологияси. – Т.:Ўқитувчи, 1990. – Б.3.
3. Conley, David T. Toward a More Comprehensive Conception of College Readiness. Educational Policy Improvement Center. 16 May 2011. http://epiconline. org/files/pdf/ Houston%20A+% 20Friday%20 2-15-088.pdf
4. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2004, -Б. 26.
5. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2004, -Б. 26.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada gipotetik-deduktiv metod orqali uni zamonaviy pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning amaliy ahamiyati, analitik tafakkurni rivojlantirishda dialektik uslubning ham samaradorligi yuqori hisoblanishi hamda pedagogik jarayonda tafakkur uslublarini mushtarak holda qo'llashga o'rgatish rivojlantirish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития аналитического мышления у будущих педагогов посредством гипотетико-дедуктивного метода, высокая эффективность диалектического метода в развитии аналитического мышления, развитие обучения использованию стилей мышления в представлен педагогический процесс в общепринятой форме.

SUMMARY

In this article, the theoretical-methodological foundations of the development of analytical thinking in future pedagogues through the hypothetical-deductive method, and the effectiveness of the dialectical method in the development of analytical thinking are considered high. In the pedagogical process, it is important to teach the common use of thinking styles.

INDIVIDUAL TA'LIMNING ISTIQBOLLARI VA ZAMONAVIY TALABA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Gayupova S.X.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: talaba, ta'lim jarayoni, pedagogik-psixologik omillar, korreksion-rivojlantiruvchi yondashuv, ko'nikma va malaka, kompetensiyaviy, evristik, akmeologik, shaxs portreti, individual, aqliy, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, mutaxassis.

Ключевые слова: студент, образовательный процесс, педагогико-психологические факторы, коррекционно-развивающий подход, умения и компетенции, компетентность, эвристический, акмеологический, портрет личности, индивидуальный, психический, физический, духовный, духовный, специалист.

Key words: student, educational process, pedagogical-psychological factors, correctional-developmental approach, skills and competence, competence, heuristic, acmeological, personality portrait, individual, mental, physical, spiritual, spiritual, specialist.

XXI asrda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi ta'lim mazmuni va sifatiga yangicha yondashuv zarurligini har qachongidan ham dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlarining ta'lim sohasiga jadal sur'atlarda kirib kelishi, axborot oqimining ko'pligi, innovatsion texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi, davlat va jamiyat oldiga kadrlar tayyorlash siyosatini zamona talabiga muvofiqlashtirish talabini qo'ymoqda. Bu esa zamonaviy ta'limda ijtimoiy yo'naltirilgan yangi texnologik yondashuvlar asosida psixologik-pedagogik individual yondashuvni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan ta'limga nisbatan yangi texnologik omillar sifatida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, evristik, akmeologik va individual yondashuvlar negizida "O'quv jarayonida zamonaviy talabaning psixologik portreti"ni yaratish ta'lim berishning individual pedagogik imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shaxs porteriti-bu uning barcha individual sifat va xususiyatlarini o'zida aks ettirgan "diognostik ensiklopediya" desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan biz, ilmiy tadqiqot ishimizda individual pedagogik ta'lim imkoniyatlarini real muvofiqligini ta'minlash, uning bir qator imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qiladigan vosita ekanligini asoslash uchun, talaba shaxsi

porteritini shakllantirish orqali o‘quv jarayoniga zamonaviy yondashishni taklif etgan holda, ilmiy tahlilni amalga oshirdik.

Ta’lim oluvchilarning oliy o‘quv yurtida o‘qish davri o‘smirlikning ikkinchi davriga yoki shaxs xususiyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan va murakkabligi bilan ajralib turadigan birinchi yetuklik davriga to‘g‘ri keladi. Bu yoshdagi axloqiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, talaba xulq-atvorning ongli motivlari kuchayib o‘ziga bo‘lgan talabchanchik ortadi. Maktab davrining yuqori sinflarda to‘liq shakllangan ammo o‘zi va boshqalar tomonidan e’tiborga olinmagan fazilatlar sezilarli darajada mustahkamlanib, individual va ijtimoiy maqsadlilik, qat’iyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, o‘zini boshqarish, anglangan faoliyatga yo‘nalganlik, axloqiy shakllanish va nazorat, ta’lim muhiti talab va tartiblariga rioya etish, kasbiy qiziqish va uni anglash, mas’uliyat, burch va javobgarlik kabi sifatlar shakllanadi. [1]

Davlat va jamiyat uchun zarur bo‘lgan, uning ertangi istiqbolini belgilaydigan zamonaviy talabalarini intellektual rivojlanish salohiyati, ma’anvaiy axloqiy shakllanishi, ta’lm va tarbiyasi, iqtidor va imkoniyat muvofiqligi negizida ijtimoiylashuvi individual pedagogik yondashuv mahsuli hisoblanadi. Busiz uni amalga oshirib bo‘lmaydi. Olib borilgan tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdigi yuqorida biz ta’kidalagan omillar umumiy tarzda tashkillashtirilgan bo‘lib, xususiy va individual yondashuv texnologiyasiga maqsadli muvofiqlashtirilmagan. Oddiy qilib aytganda ta’lim jarayoni sifatida amalga oshirib kelingan.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida shu narsa aniqlandiki individual ta’lim jarayonida talabalarda ijtimoiy qabul qilingan me’yorlarga ijobiy munosabat paydo bo‘lib, talaba shaxsiga xos bo‘lgan xususiyatlar rivojlanishi, shaxsga xos bo‘lgan introversiya kamayib, ekstrovertik omillarn namoyon bo‘lishi, refleksiv yondashuvlar shakllanishi, buning natijasida aqliy faoliyatning kuchayishi va samaradorligini ortishi kuzatildi.

Individual ta’limning pedagogik amaliyoga joriy etilishini muvaffaqiyati shundaki, oliy ta’limda o‘qishning yangi xususiyatlarini rivojlantirish omillarin yuzaga chiqarib, talaba shaxsida vujudga keladigan “ichki individual tusiqlarni” bartaraf etish, ta’lim jarayonida sodir bo‘ladigan noqulaylik tuyg‘usini optimistik jihatga o‘tkazish, atrof-muhit bilan ziddiyat ehtimolini blokirovka qilish orqali shaxs faolligini yuzaga chiqarib, o‘zini izolyatsiya qilish holatini yo‘qotadi. Bu jarayon talaba shaxsini shakllanishiga xizmat qilib, faol talabadan yetuk mutaxassisga aylanishiga zamin bo‘ladi.

Talaba porteritini shakllantirishda eng avvalo dastlabki kursdan pedagogik-psixologik omillar asosida muvofiqlashtiruvchi dastur negizida uning individual aqliy va jismoniy, ruhiy va ma’naviy jihatlari o‘rganilib, ta’lim

jarayoniga faol kirishi uchun zarur bo‘lgan tavsiya va taklif hamda pedagogik-psixologik korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlar orqali bilim olish ko‘nikma va malakalari shakllantirib boriladi. Bunda tanlagan kasbiga nisbatan motivni rivojlantirish, optimal aqliy va jismoniy faoliyatga o‘tish, sog‘lom muloqot, dam olish ratsioini, barqaror turmush tarzi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va korreksiyalab borish, ruhiy, jismoniy va aqliy negativlardan himoyalanish profilaktik kompetentligini shakllantirish kabilar e’tiborga olinadi.

Talabalik yosh davri shaxs kamolotini ijtimoiylashuv omillarini jamiyat bilan har tomonlama integratsiyasini yuzaga chiqaruvchi davr ekanligini inobatga olsak, individual yo‘naltirilgan ta’limni ijtimoiy ahamiyati yanada yuqori ekanligini, uning imkoniyatlaridan imkon qadar maqsadli va sarali foydalanish davlat va jamiyat uchun zarur bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tarbiyalashning asosiy omili ekanligini anglaymiz.

Shaxsga xos bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantirish va imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda talabalik yosh davri aqliy rivojlanishning yuqori koeffitsientlarini katta foizini tashkil qilib, tashqi ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlik va reaksiya berishning asosiy bosqichidir.

Talaba har bir shaxs kabi sotsiobiologik xususiyatga ega bo‘lib, uning muhim tarkibiy qismi sifatida tashqi ta’sirlarni qabul qilishga nisbatan individual qiymat-motivatsion tayyorlik jarayoniga bog‘liq bo‘lgan ichki ongli tafakkurning mavjudligi, «aqliy tirnash xususiyatini namoyon bo‘lishi», ta’limga nisbatan antipatik va simpatik munosabat, oliy ta’limdagi bilimning dastlabki “yukini” olishga ruhiy tayyorgalik kabi xususiyatlar shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik omillar orqali ta’minlanadi. Bu jarayon individual yo‘naltirilgan ta’lim negizida shaxs porteritini zamonaviy rakrursda ishlab chiqish va uning pedagogik-psixologik tavsifiga ehtiyoj siezadi. [5]

Individual ta’lim jarayonida talabaning nevrologik tayyorgarligini o‘rganish, o‘z vaqtida psixologik jihatdan qo‘llab – quvvatlash, sog‘lom dunyoqarshni qaror toptirish, samarali ta’lim olishiga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish, pedagogik va ma’naviy jihatdan OTMning birlamchi funksional vazifalaridan hisoblanadi. Talaba OTMga o‘qishga qabul qilingan ilk davrida individual pedagogik muloqotga ehtiyoj sezadi. Chunki bu davrda talaba yangi ijtimoiy muhitda o‘zini qanday boshqarish, ta’lmi muassasa muhiti, yaratilgan shart-sharoit, talab va tartib, burch va mas’uliyat haqida maslahat va tushuntirishlarga ehtiyoj sezadi. Shu davrda berilgan to‘g‘ri yo‘nalish, uning kognitiv qiziqishlarini rag‘batlantirish, ilmiy ijodga motivlashtirish, dunyoqarashini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga muammosiz olib kirish imkoniyatini ta’minlaydi.

Individual ta’lim talabalarni shakllanishida o‘quv jarayoning madaniy va texnik funksiyani bajarib qolmasdan, balki har qanday vaziyat hamda sharoitda irodaviy sifat va chidamlilik kompetentligini shakllanishiga xizmat qiladi. Shaxsga xos bo‘lgan aqliy va ma’naviy jihatdan o‘zini rivojlantirish, o‘rganish qobiliyati rag‘batlantirish, doimiy o‘z-o‘zini nazorat qilish, emotsiyalarni boshqarish va tarbiyalash talabalik davriga xos bo‘lgan tushunchalardandir.

Shu nuqtai nazardan shaxsni jamiyatda munosib mutaxassis bo‘lib faoliyat olib borishi, kasbiy va hayotiy pozitsiyani egallashi ijtimoiy-psixologik va psixologik-pedagogik jihatdan tashkil etilgan individual ta’lim bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, shaxs shakllanishining ko‘p qirrali tuzilishini ifodalaydi.[6]

Talaba hayotiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadigan oliy maqsadni o‘z oldiga qo‘yishi, xulq-atvor tarbiyasi, mukammal shaxs qiyofasi va faoliyati qobiliyatini rivojlantirish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmasini tizmili shakllanishi va amaliyotda namoyon bo‘lishi individual pedagogik yondashuv imkoniyatilaridan samarali foydalanish orqaligini ta’minlanadi.[7]

Jamiyat hayotining beqaror dinamik jarayonlari talablar shaxsini har tomonlama mukammal qilib tarbiyalashni, shaxsiy va kasbiy jihatdan kutilmagan vaziyatlarda qarorlar qabul qilishini taqozo etishi tabiiy holdir. Shu nuqtai nazarda bunaqa vaziyatda optimal qarorlar qabul qilish ko‘nikma vamalakasinini shakllantirish, kasbiy va axloqiy bilimlarni qanchalik chuqur o‘zlashtirganligi bilan tavsiflanadi. Shaxsda shakllanadgigan kasbiy va axloqiy bilimlar barqarorligi individual ta’lim mahsulidir. Individual ta’lim orqali shakllantirilgan kasbiy va axloqiy bilimlar bugun ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik muammolarni murakkab yechimlarini ham ijobiy jihatdan muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda talaba individual olingan puxta bilimlar asosida, mutaxassisi sifatida vaziyatni baholab, ijtimoiy omillarni tahlil etish, iqtisodiy muammolarni hal qilish orqali kretivlikni namoyon etadi. Bunda eng avvalo, individual ta’lim jarayonida unga berilagan chuqur kasbiy bilimlar, to‘laqonli mas’uliyat, ijtimoiy faollik, o‘z-o‘zini psixologik boshqarish, to‘g‘ri va ratsional qaror qabul qilish hamda kasbiy burchni chuqur anglash kabi omillar zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, individual ta’lim imkoniyatilarii to‘liq ruyobga chiqarishda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim ijtimoiy faol bo‘lgan talab shaxsini shakllantirib beruvchi omildir. Uning komponentlari peagogik-psixologik ichki va tashqi resurslar bilan muvofiqlashgan bo‘lib, motivatsiya dinamikasi, barcha va mas’uliyat

kombinatsiyasi hamda kasbiy maxsus qobiliyatlarning intensivligi bilan tavsiflanadi.

Individual ta'lim zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishning eng muhim omili va istiqbolli rejalarini qurish va amalga oshirish manbaidir. Shu nuqtai nazardan, individual ta'lim talabalik davridan mutaxassislikka o'tish markazida turadigan yadro bo'lib, u barcha talabalarni yetku mutaxassis hamda davlat va jamiyat uchun kerakli shaxsga aylantiradi.

Ilmiy tadqiqotga doir manbalar tahliliga ko'ra hozirgi avlod talabalari avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Zamonaviy talabalar industrial jamiyatidan informatsion jamiyatiga o'tish fonidagi jarayonlar bilan ham farqlanadi. Bugungi kun zamonaviy talabalari o'zgaruvchan sharoitlarga yuqori darajada moslashish qobiliyatiga ega bo'lib, negativ omillarga ham empatik munosabati ortib bormiqda. Bu jarayon bugungi kunda idividual ta'limni tezkorlik bilan ta'lim tizimining barcha bug'iniga olib kirishni hamda uning imkoniyatlaridan omilkorlik bilan foydalanishni davr talabi etib qo'ymoqda.

Informatsion jamiyatda axborot manbalari bilan muoloqot qilish borgan sari ortib bormoqda. Zamonaviy talabalar shaxsiy va kasbiy faoliyatlari uchun zaruriy manbalarni kitob yoki jurnallardan emas, balki internet saytlardan olishni afzal ko'rishadi. Bugungi kun talaba yoshlarning fikricha, zamonaviy talaba yangi bilimga intilishi kerak, chunki u uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan bo'lib, o'zi va kursdoshlariga yordam berish, dunyoning boshqa mamlakatlaridagi tengdoshlari va hamkasblari bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, OTM hayotida faol ishtirok etish muhim masaladir [8].

Xulosa qilib aytganda davlat va jamiyat taraqqiyoti fonida zamonaviy talabani kelajakdagi o'rni uni belgilash, bugungi kunda kishilik jamiyatining beqaror dinamikasi, dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatga asoslangan munosabatida o'zgarishlar ro'y berayotgan bir paytda, zamonaviy talaba shaxsiga qo'yiladigan talablar, uni o'qitishda individual ta'lmni o'rin va imkoniyatlari hamda vazifalari, jamiyat manfaati va insoniyat sivilizatsiyasiga bevosita daxldorlik hissini pedagogik nuqtai nazardan shakllantirish lozim.

Pedagogik jarayonning individual ta'lim yondashuvini jamiyat hayotiga olib kirmasdan, an'anaviy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmasdan turib, jamiyat hayotining intellektual sohasida sifat o'zgarishlariga erishish hamda jamiyat ongiga yangicha tafakkurni joriy etish mumkin emas. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, OTMlarda zamonaviy talaba portretini yaratish va undan sifatli mutaxassis tayyorlash yo'lida individual ta'lim imkoniyat va yutuqlarini integarsiyalashni pedagogik omillarini, mavjud resrslarni yo'nalganligini

zamonaviy yondashuvi ko‘p qirrali, harakatchan, tashabbuskor, kreativ, o‘z ustida ishlaydigan hamda o‘zini o‘zi tanqidiy baholash kompetentligiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ananev B.G. Psixologiya i problemы chelovekoznaniya. / B.G.Ananev; pod redaksiey Bodaleva A.A. – M.: Izdatelstvo «Institut prakticheskoy psixologii». – Voronej: NPO «MODEK», 1996.

2. Gayupova S.X. Analiz psixologii i povedeniya studentov pedagogicheskogo vuza // Ekonomika i sotsium. №1(92) 2022.

3. Gayupova S.X. Zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari // Mug‘allim xem uzliksiz bilimlendiriu № 6/3 – 2022.

4. Gayupova S.X. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri doirasida talabalar shaxsini shakllantirishning psixologik masalalari / Pedagogik t’lim klasteri:muommo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy ishlar to‘plami. Chirchiq, 2020. -B.180-182.

5. Yepifanova S. Formirovanie uchebnoy motivasi. // Vыsshee obrazovanie v Rossii. - 2000. - № 3. - S.16.

6. Kobzeva N.I. Sotsialno-psixologichekiy portret sovremennogo studenta. // Sovremennыe issledovaniya sotsialnыx problem. - 2011. - № 4.

7. Melekesov G.A. Aksiologizasiya pedagogicheskogo obrazovaniya studentov: monografiya. / G.A. Melekesov. - Chelyabinsk: IPK OGU, 2000

8. Talovskaya N. A., Samigullina G.Yu. Psixologicheskiy portret sovremennogo studenta. // Mejdunarodnыy jurnal prikladnыx i fundamentalnыx issledovaniy. – 2010. – № 3 – S. 47-48

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada individual ta’lim zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishning eng muhim omili va istiqbolli yondashuvlaridan biri ekanligi, individual ta’lim talabalik davridan mutaxassislikka o‘tish markazida yadro bo‘lishi lozimligi, kompetensiyaviy, evristik va akmeologik yondashuvlar zamonaviy talabaning psixologik portretini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi hamda talabani individual aqliy va jismoniy, ruhiy va ma’naviy jihatdan shakllanishi pedagogik-psixologik jihatdan ilmiy tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье показано, что индивидуальное образование является одним из важнейших факторов и перспективных подходов к формированию личности современного студента, что индивидуальное образование должно быть стержнем перехода от студенчества к специализации, что компетентностный, эвристический, акмеологический подходы важны в создании психологического портрета современного студента, а также то, что индивидуальное психическое и физическое, умственное и духовное становление студента получило научно-педагогический и психологический анализ.

SUMMARY

This article states that individual education is one of the most important factors and promising approaches to the formation of a modern student’s personality, that individual education should be the core of the transition from studentship to specialization, that competence, heuristic and acmeological approaches are important in creating a psychological portrait of a modern student, and that the student is an individual intellectual and physical, mental and spiritual formation has been scientifically analyzed pedagogically and psychologically.

DIDAKTIK LOYIHALASH MUHANDISLIK TALIMI JARAYONINI FANLARARO INTEGRATIV TAKOMILLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Adilov N. X.
Jizzax politexnika instituti kimyoviy tehnologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so'zlar: oliy muhandislik ta'limi, didaktik loyihalash, pedagogik hodisalar, zaryadlangan zarralarning ko'rinishi, yasama didaktik elektron qurilma.

Ключевые слова: высшее инженерное образование, дидактическое проектирование, педагогические явления, появление заряженных частиц, искусственное дидактическое электронное устройство.

Key words: higher engineering education, didactic design, pedagogical phenomena, the appearance of charged particles, yasama didactic electronic device.

Loyiha keng ma'noda ma'lum obekt, hatti-harakat, holatning tarixi demakdir. Didaktik loyihalarda muhandislik ta'limi sub'ektlari o'zaro ta'siridan shakllanadigan, istiqbolga yo'nalgan faoliyatni moddiylashtiriladi.

Pedagogik hodisalarning borishi, rivojlanishidagi o'zgarishlarni loyihada aks ettirish, loyihada kuzlangan maqsad, vosita, natijalarni talaba faoliyatiga nisbatan tasavvur qilish, ma'lum bir didaktik nazariyaga asoslanib loyihani tayyorlash loyiha muallifi pedagogik bilimlarining takomillashuviga, pedagogik amaliyotdagi yangi bog'lanishlarni sezish va ajratishga olib keladi. Garchand, loyiha faoliyatning normativ sohasiga taalluqli bo'lsada, u didatik hodisalarni ko'rish yo'li bilan bilishning eng qulay usuli sanaladi. (1-rasm)



1-rasm. Elektromagnit maydonda zaryadlangan zarralarning ko'rinishi

Bu tasvir O'zbekiston televideniyasi inovatsion strategiya ko'rsatuvidan olingan bo'lib, jarayon to'liq o'rganilmagan, darsda obektiv integratsiya masalasini amalga oshirishda foydalanilgan, fizika

fanini o‘qitish jarayonidagi biz o‘tkazgan tajriba natijalari.

P.Galperino‘z tadqiqotlarida tarbiyalovchi ta’lim haqida fikr yuritib uning o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish imkoniyatiga egaligini ta’kidlagan edi[1].

Integratsiya - fan bilimlari chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. (2-rasm)



2-rasm. Dunyo bo‘ylab telekanalidan olingan shar shakldagi plazma tasviri

Bu esa sharsimon chaqmoq tasviriga o‘ta yaqin o‘xshashlikni o‘zida mujassam etadi. Berlin laboratoriyasida yaratilgan fanlararo integratsiyaviy bilimlarni o‘zida mujassam etgan sharsimon chaqmoq bilan bog‘liq ko‘plab savollar ochiq qolmoqda.

B.B.Ma’murov[2], G.N.Najmiddinova[3] kabilar. Ularning fikricha, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish ularning faoliyatlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari yordamida amaliy ko‘nikmalarni faollashtirishga turli dalillarni tahlil qilish orqali erishadilar. Bunda o‘quvchilarning intellektual, ijodiy layoqatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Loyiha muallifining didaktik bilimlari unda shakllangan pedagogik mahorat, orttirgan hayotiy tajribasi loyihalash vositalari bo’lib, ular loyiha sifatini belgilovchi omillardir. Didaktik bilimlar ko’lami, hajmi, aniqligi, pedagogik tajribaning yetukligi, uning puxta egallanganligiga ko’ra didaktik loyihalar bir-biridan farq qiladi. Binobarin, didaktik loyihalarning samaradorligi va sifati pirovard natijada loyiha muallifining bilimi, tajribasi, mahoratiga borib taqaladi.

Oliy muhandislik ta’limida didaktik loyihalash - bu ta’lim sub’ektlari o’zaro ta’sirining ta’lim mazmuniga yo’nalgan akt, zveno, bosqich, davr shaklidagi harakatlarini kelgusida amalga oshirish namunasi timsolini tayyorlash demakdir.

Oliy muhandislik ta’limida didaktik loyiha mohiyatiga ko’ra o’ta murakkab populyativ tizim bo’lib, o’zini shakllantirishga yo’nalgan faoliyatni loyihalash sohasiga oid bilim hamda vositalarni loyihalash predmeti - o’quv materialini tahlil qilishni taqozo qiladi. Didaktik loyiha ta’lim sub’ektlari faoliyatida amalga oshiriladi. Binobarin, didaktik loyiha o’qitish faoliyatiga ham, o’qish faoliyatiga ham, shuningdek o’qitish va o’qish faoliyatlarining o’zaro kirishuvidan shakllanadigan hosila faoliyat – muhandislik ta’limiga ham taalluqlidir.

3-rasm. Oliy ta'limda didaktik elektron qurilmani tayyorlash jarayoni

Ma'lumot mazmuniga pedagog ishlov berish yo'li bilan ta'limning keng qamrovli, katta, universal loyihalari konsepsiya, dastur, darslik shaklida tayyorlanadi. Didaktik loyihalarni tayyorlashda didaktika fani yutuqlaridan foydalaniladi. O'z navbatida didaktik loyihani sinab ko'rish didaktik nazariyani rivojlantirish uchun etakchi omil vazifasini o'taydi.

Oliy muhandislik ta'limida didaktik loyiha jamiyatning bir funksiyasini - muhandislarni, ishlab chiqarishga yaroqli komil inson qilib etishtirishda etakchi vosita bo'la olish ishini anglatadi. Didaktik loyihani o'ziga adekvat tizim bilan yonma-yon o'rganish, masalan, «ta'lim jarayoni va didaktik loyiha». Bu tizimda didaktik loyiha ta'lim jarayonining timsoli, namunasi funksiyasini bajaradi.

Azizxodjaeva N.N. Loyihalashtirish metodi sanoat va turli muassasalar, real jamiyat muammolari o'rtasidagi interfaol jarayonga qaratilgan. Bu jarayonda ta'limni turmush, tabiat, ishlab chiqarish bilan bog'lash imkoniyati mavjud. Loyihalashtirish metodi real hayot muammosini hal etish maqsadida rejali o'quv mashqi sifatida qo'llanilishi mumkin[4].

Televizor yoki komp'yuter qismlaridan yuqori voltli o'zgartirgich qurilmaning model konstruksiyasini tayyorlash jarayoni keltirilgan.(3-rasmga qarang)

Bu ishlab chiqilgan va tayyorlangan 25 kV li-yuqori kuchlanishli universal telequrilma modelini fizika fanida materiallarning elektr va elektromagnit xossalari mavzusini o'tish jarayonida foydalanildi.

Oliy muhandislik ta'limida didaktik loyihalashni ijtimoiy talab darajasida tasavvur etishda mutaxassislar oldida turgan asosiy muammo fan va o'quv predmeti farqlarini aniq chegaralashdir. Har bir o'quv predmetida o'ziga oid fanning umumiy asoslari o'rganiladi. Fan va ma'lumot o'zaro uzviy bog'liq, ammo alohida-alohida hodisalar sifatida sharxlanishi lozim. Ularning o'zaro bog'liqligini quyidagi fakt orqali kuzatishimiz mumkin: fan o'z sohasidagi bilimlarni, yangi kashfiyotlarning natijalarini o'quv predmetlari ixtiyoriga beradi, o'quv predmetlari esa o'z navbatida, bo'lajak muhandislarni ma'lumotli, madaniyatli, ijodkor shaxs sifatida shakllantirib, jamiyat ixtiyoriga topshiradi.

Ishchenko, V.[5] Darsni loyihalash jarayonida o'quv axborot vazifalari talabalarning olgan bilimlarini amaliy vazifalar uchun mustaqil ijodiy

qo‘llash jarayonida umumiy kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirishda, loyiha muammolarini hal qilishda bilimlarni izlashda qo‘l keladi.

Didaktik loyihani - o’quv materiali darajasida tasavvur etish yo’li bilan mavzular bo’yicha o’rganiladigan bilim, ko’nikma-malaka ijodiy faoliyat tajribasi, tarbiyalanadigan munosabat ko’lami ishlab chiqiladi.

STEAM ta’limida bo‘lajak muhandislar matematika, tabiiy fanlar va kasbiy fanlar bo‘yicha egallagan chuqur bilimlarni integratsiyalab o‘rganish jarayoni quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Loyihalar orqali mahsulot yaratishni o‘rganish;
2. Loyihalarni yaratishda amaliy vazifalarga asoslanish zarurligi;
3. Loyihalar bo‘yicha jamoaviy ishlash;
4. Loyihalarda muhandislik yondashuvi;
5. Texnologiyalarni loyihash jarayonidagi o‘rnini anglash;
6. Muntazam bo‘lmagan muammolarni hal qilish mahorati;
7. Matematik hisoblashlar va modellashtirish jarayonlari;

STEAM qoidalarini joriy etish bosqichlarini quyida keltirilgan sxema ko‘rinishida ifodalash mumkin. (ya’ni u har qanday kasbiy, umumkasbiy va umumta’lim darajasiga mos keladi) (4-rasm)



4-rasm. STEAM qoidalarini joriy etish bosqichlari sxemasi.

S.M.Vishnyakovning e’tirof etishicha, integrallashgan dars, binar dars, qo‘shma dars o‘quv mashg‘ulotining alohida turi bo‘lib, unda ikkita yoki bir nechta o‘quv fanlari (fizika va elektrotexnika)ning o‘zaro uzviy o‘quv materiallari o‘rganib chiqiladi; shunday darslarni o‘tishda bir o‘quv predmeti materiallarini bilish ikkinchi o‘quv fani materiali mazmuni mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lgan holatlarda tashkil qilish maqsadga muvofiq. integratsiyalashgan dars, odatda, o‘zaro bog‘liq fanlarning ikki o‘qituvchisi yoki ishlab chiqarish ta’limi ustasi va maxsus fan o‘qituvchisini tomonidan o‘tkaziladi[6].

STEAM ta’limi asosida yaratilgan qurilma modeli tayyorlanib ishga tushirilgandan so‘ng talabalardan quyidagi anketa savollari asosida so‘rovnoma o‘tkazildi:

1. Material o‘zidan elektr tokini yaxshi o‘tkazishi uchun qanday zarrachalarga ega bo‘lishi kerak.
2. Materiallardagi elektr zarrachasining ko‘chib yurishiga ko‘rsatiladigan qarshilik nima deyiladi.
3. Materiallarning elektr o‘tkazish xususiyati qanday tushuntiriladi.
4. Metallarning elektr o‘tkazuzchanligi nimaga bog‘liq.
5. Temperaturaning ortishi bilan o‘tkazgichda elektronlarning xarakati qanday o‘zgaradi.
6. Absolyut nol temperaturada o‘tkazgichdagi elektron harakatida qanday o‘zgarish sodir bo‘ladi.
7. Materiallar o‘zi uchun xos bo‘lgan kritik temperaturagacha sovitilganda nima sodir qiladi.
8. Elektr maydonidagi zaryadlangan zarrachalarning tezligi nimaga bog‘liq.
9. Rentgen nuri qanday xosil bo‘ladi.
10. O‘zgaruvchan tokka beriladigan qarshilik nima deb ataladi.

Mana shunday anketa savollari berilganda talabalarda ijodiy integratsiya yo‘qligi aniqlandi savollarga 100 ta talabadan 60 tasi javob berdi xolos. Bu fanlararo integratsiyalangan oddiy savollar edi.

Adabiyotlar:

1. Гальперин П. Психология критического мышления. - СПб.: Изд-во «Питер», 2000.-512 с.
2. Маъмуров Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик ёндашув асосида таълим жараёнини лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантириш. Монография.– Т.: Фан, 2017. –144 б.
3. Нажмиддинова Г.Н. Бошланғич синф ўқувчилари ўқув-билув фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари. 13.00.01. Пед. фан. номз. дисс… - Т.: 2006.- 139 б.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат.-Т.: “Молия”, 2003, - Б.192.
5. Ищенко, В. Компетентносный подход к подготовке преподавателей / В. Ищенко, З. Сазонова // Высшее образование в Росии. – 2007. - № 6. – С. 166-177.
6. Вишнякова С.М. Профессионалъной образование. Словаръ.-М.:, «Нов», 1999 – 535 с.

РЕЗЮМЕ

Oliy muhandislik talimida fan va ma'lumot integratsiyasi, pedagogik hodisalarning borishi, steam metodi, yangi kashfiyotlarning rivojlanishidagi o'zgarishlarni loyihada aks ettirish jarayonlari, loyihadan kuzlangan maqsadlar, vositalar orqali natijalarni talaba faoliyatiga nisbatan tasavvur qilish, ma'lum bir didaktik nazariyaga asoslanib loyihani tayyorlash pedagogik bilimlarining takomillashuvi, pedagogik amaliyotdagi yangi bog'lanishlarni sezish va ajratish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В высшем инженерном образовании освещаются вопросы интеграции науки и информации, хода педагогических явлений, метода steam, процессов отражения изменений в развитии новых открытий в проекте, видения результатов через цели, средства, ожидаемые от проекта, по отношению к деятельности студента, совершенствования педагогических знаний по подготовке проекта на основе конкретной дидактической теории, восприятия и выделения новых звеньев в педагогической практике.

SUMMARY

The higher engineering training covers the integration of Science and information, the course of pedagogical phenomena, the steam method, the processes of reflecting changes in the development of new discoveries in the project, the goals formulated from the project, the visualization of results by means in relation to student activities, the improvement of pedagogical knowledge of Project Preparation based on a certain didactic theory.

TALABA-YOSHLARDA ILM EGALLASH VA ILMIY-TADQIQOT BILAN SHUG‘ULLANISHNING DOLZARBLIGI

Usmonov A.A.
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so’zlar: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ilm, ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyati, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Kamoliddin Behzod va Ulug‘bek nomli davlat stipendiyalari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, Imom al-Buxoriy nomli davlat stipendiyasi

Ключевые слова: социально-экономическое развитие, наука, творческий, интеллектуальный и предпринимательский потенциал, государственные стипендии имени Беруни, Ибн Сины, Наваи, Камолиддина Бехзада и Улугбека, высшее образование, государственная стипендия имени Имама аль-Бухари.

Key words: socio-economic development, science, creative, intellectual and entrepreneurial potential, state scholarships named after Beruni, Ibn Sina, Navoi, Kamoliddin Behzad and Ulug’bek, undergraduate education, state named after Imam al-Bukhari scholarship.

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, jahon arenasida o‘z o‘rnini egallashi, barcha sohalarda taraqqiy etishi hamda ta’lim-tarbiya jarayonida sifat va samaradorlikka erishishida ilm va uning rivojlanishi asosiy omil sanaladi.

Respublikamizda ham ilmni rivojlantirishga bo‘lgan qarashlar kundan-kunga, tobora ijobiy tomonga o‘zgarib borayotgani juda quvonarli hol. Ayniqsa, yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, innovatsion g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.[2]

Iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida “G‘oyalar generatorlari”, “Startaplar”, “Biznes vakillari”, “Bo‘lajak akademiklar” kabi mamlakatning ilm-fan rivojlanishiga katta hissa qo‘shayotgan yuqori ilmiy salohiyatga ega platformalar ishga tushdi.

Respublikamizda Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Kamoliddin Behzod va Ulug‘bek nomli davlat stipendiyalari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha

yuqori kurslarning har ming nafar talabasiga bittadan, Imom al-Buxoriy nomli davlat stipendiyasining O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining uch nafar yuqori kurs talabasiga, kinematografiya sohasi uchun kadrlar tayyorlovchi har bir oliy ta’lim muassasasining bir nafar yuqori kurs talabasiga Xudoybergan Devonov nomli davlat stipendiyasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi har bir oliy ta’lim muassasasining bir nafar yuqori kurs talabasiga To‘lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalarining hamda har bir oliy ta’lim muassasasining bir nafar yuqori kurs talabasiga Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari[3]ning joriy etilishi talaba-yoshlarda ilmga intilish motivatsiyasini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonunining 4-bob, 21-moddasi Ilm-fan va ta’limning uzviy bog‘liqligi xususidagi modda sanaladi. Ushbu moddada ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish, pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirib borish, “ustoz-shogird” maktab va an’analarini mustahkamlash, ilmiy izlanuvchilarning iqtidorli kelajak avlodini shakllantirish hamda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab boorish[1] vazifalari keltirib o‘tilgan. Ya’ni, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni va ilm-fanni uzviy bog‘lagan holda iqtidorli yoshlarni-talabalarni, bo‘lajak mutaxassis, olimlarni yetishtirish masalasi belgilanadi.

2023 yil 14 iyul kuni muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarda ilm egallashga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida ularga murojaat bilan chiqish qilib, quyidagi “chaqiriq”ni eshittirdilar: “Aziz o‘g‘il-qizlarim, bugun tarixning o‘zi, zamonning o‘zi sizlarning oldingizda beqiyos imkoniyatlar ochmoqda. El-yurt koriga avvalo kim yaraydi? Albatta, sizlar! Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessansni kim barpo etadi? Albatta, sizlar! Yurtimiz, xalqimizni kelajakda kim rozi qiladi? Albatta, sizlar!

Xalqimiz, Vatanimiz sizlarga ishonadi. Sizlar O‘zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz.

Yoshlik – g‘animat, vaqt – g‘animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o‘z so‘zingizni ayting! Izlanish va intilishdan aslo to‘xtamang!”[10]

Darhaqiqat, bugun yurtimizda yoshlarning ilm egallashi va o‘z iqtidorini namoyish qilishlari uchun keng eshiklar ochilgan. Ilmli, iqtidorli yoshlar jamiyatda o‘z o‘rnini, qadrini naqadar yuqori ekanligini his qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Zero, ilmni egallash va uni boshqalarga yetkazib berish muammosi qadimdan e’zozlanib kelingan haqiqatdir.

“Ilm” – (arabcha so‘zdan olingan) o‘qish, o‘rganish hamda xayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui sanaladi. Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir.

Ilm – bu nazariya, harakat va ta’limni o‘z ichiga olgan keng qamrovli atama bo‘lib, u faqat bilimlarni egallash bilan chegaralanmaydi.[9]

Qur’onda “ilm” so‘zi turli hollarda 765 marta takrorlanadi. Payg‘ambar alayhissalomning hayotlari va aytgan so‘zlari ham ilmga da’vat bilan to‘la. Birgina misol keltiraylik. Badr degan joyda mushriklar bilan urushdan so‘ng Muhammad alayhissalom har bir asirga ozod bo‘lishi uchun 10 ta musulmonga o‘qish, yozishni o‘rgatib qo‘yishni shart qilganlar.[5]

Hadisi Sharifda ham ilm haqida ko‘p marotaba to‘xtalingan. Bir hadisda “Avvalo olim bo‘l! Loaqal ta’lim oluvchi yoki tinglovchi, ilmu ulamolarni sevuvchi bo‘lgin” deyilsa, boshqa birida “Sadaqaning afzali musulmon kishining ilm o‘rganib, so‘ng boshqa musulmon birodarlariga ham o‘rgatishidir”, deyiladi.

Imom Zarnujiyning “Ilm olish sirlari” nomli asarida shunday deyiladi: “Ilm o‘rganish eng oliy martabadagi ishlardan hisoblanadi. Naql qilinadiki, ilm talabida bo‘lmoq nafl ibodatlar qilishdan ko‘p marta afzaldir. Shuning uchun, ilm talab qilishda maslahat, kengashga solish zarur va vojibroqdir.”[4]

Abdibek Sheroziy ilm haqida, ayniqsa ayollarning, onalarning ilm olishini qo‘llab-quvvatlagan holda shunday fikr aytadi: “Yaxshi tahsil ko‘rgan va ilm nuri bilan hulqini yaxshilagan ayol har yerda izzat topadi. Ilm — ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan qutqargan har bir ayol nomus, izzat, ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatolarga yo‘l qo‘yadi.”

Faxrulbanot Sulaymoniy esa, “Ilm martabasi martabalarning zo‘ridir, degan gap shubhasiz to‘g‘ri. Qaysi yerda ilmu ma’rifat kuchli bo‘lsa, o‘sha yer baxt maskani hisoblanadi. Qaysi yerda nodonlik mavjud bo‘lsa, u yer quruq yoki toshloq joy kabidir.

Go‘zal xulq bilan payvasta bo‘lgan ilm odamlarni baxtiyor qiladi, martabasini balandlatadi. Ilmdan maqsad ko‘rkam va ezgu ishlarni amalga oshirishdir”, deydilar.

Ahmad Yugnakiyning ilm haqida chiroyli hikmatlari bo‘lib, bunda shunday deyiladi: “Ilmsiz iliksiz so‘ngak kabi bo‘shdir, iliksiz so‘ngakka qo‘l urilmaydi. Bilim bilan kishining martabasi oshdi, ilmsizlik esa kishini tubanlashtirdi. Bilimli kishi keraqli so‘zni so‘zlaydi, keraksiz so‘zni ko‘mib tashlaydi.”

Har bir mamlakatning, jamiyatning taraqqiyoti ilm-fanning u yerda qanchalik rivoj topgani bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmga va uni o‘rganishga qaratilayotgan e’tibor o‘sha davlatning ertangi kunini belgilab beradi. Ilm – aql nuridir. U insonlarni borliqni his etish, voqelikni idrok etish, ma’naviy va moddiy olamni anglashga, tafakkurini shakllantirishga undaydi. Ilm yashash chirog‘idir. U insonlarga baxt keltiradi, yorug‘likka chorlaydi, jaholatdan yiroqlashtiradi. Ziyoli insonlar jamiyatning yetakchilari hisoblanadi.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: “Ilm talab qilish har bir muslim uchun farzdir”, deya marhamat qilganlar. Beshikdan to qabrgacha ilm egallashga intilish mo‘min kishining hayot tarzi bo‘lishi kerak.[9]

Bilim to‘g‘risida xalqimizning ham juda ko‘p maqol va iboralari mavjud. Bilim olishning erta-kechi bo‘lmaydi, deydi dono xalqimiz. “Ilm olish igna bilan quduq qazish”, deb bekorga ta’kidlamaydi. Ilm cheksiz olam, tubsiz quduqdir. U chek-chegarasiz, uni to‘liq egallashga umrlar yetmaydi, keragini o‘qish ilm sohibining mahoratiga, tajribasiga, sabr-toqatiga va albatta ustozu muallimlar ko‘rsatmalariga bog‘liqdir.[9]

Yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosi o‘tmishda Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham keng yoritilgan. Abu Nasr Forobiyning “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgatgach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat – o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda, deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish, qiziqish va muhit bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidlaydi. Bilim olishda tushunib, o‘rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishiga alohida e’tibor beradi, jamiyatning ravnaqi ma’rifatning rivojiga bog‘liq, degan g‘oyani ilgari suradi. U fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o‘rganishga da’vat etadi. Beruniy “O‘tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarida shunday deydi: “Faxrlanish – haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilmu-hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga da’vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib, avlodlarga yetkazish kerak. Bu maqsadga yetishish uchun

inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi. “Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir”.

Mirzo Ulugbek boshchilik qilgan rasadxona kutubxonasi ko‘plab ilmiy asarlar, jahondagi mashxur kishilarning asarlari bilan to‘ldirilgan va u yerda saqlanayotgan kitoblar soni 150 mingdan ortiq bo‘lgan. Usha vaqtlarda Samarqandda Ulug‘bek atrofiga 100 nafardan ortiq olimlar uyushgan bo‘lib, rasadxona akademiya vazifasini ham o‘tagan edi. Madrasa bilan rasadxona orasida mustahkam aloqa bo‘lgan. Rasadxonada ishlab to‘rgan ilmiy xodimlarning bir qismi madrasada mudarrislik qilishgan. Ulugbek madrasa toliblari bilan tez-tez bahslashib, imtihon qilib turgan. Rasadxona bilan madrasa ilm ahllarining birgalikdagi faoliyati Ulugbek ilmiy maktabida yulduz ilmi va riyoziyotini o‘rta asrlar davrida eng yuqori pog‘onaga ko‘targan.

Fan har bir mamlakat iqtisodiyotini va jamiyat taraqqiyotini negizi hisoblanuvchi ilmiy-texnik rivojlanishini ta’minlovchi intellektual boylik (kuch) hisoblanadi, deydi A.Radjabov. Uzoq o‘tmishda yashab ijod qilgan ajdodlarimiz jahon sivilizatsiyasiga, fanning rivojlanishiga katta hissalarini qo‘shganliklarini yodimizda doimo saqlashimiz kerak. Qadim Turkiston eli o‘zining buyuk siymolari va ko‘p qirrali ijodi bilan fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Dunyoda ilk bor uchta akademiyaning Turkiston tuprog‘ida tashkil etilishi buning yorqin isbotidir. Xorazmda Ma’mun akademiyasining faoliyat ko‘rsatgani, Kamoliddin Behzod rahnomolik qilgan tasviriy san ‘at akademiyasi, koinot sirlarini ilk bor yuqori aniqlikda tasvirlay olgan Mirzo Ulug‘bek observatoriyasi va boshqa ilm-fan sirlarini ochib bergan ko‘plab buyuk siymolarni sanab o‘tish mumkin.[6]

Ilmni o‘rganish, tahlil qilish, uning turli yo‘llarini tadbiq etish hamda egallash va yangilik kashf etishning tizimli olib borilishi ilmiy tadqiqot sanaladi.

Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri sanaladi. Ilmiy tadqiqotda obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik bo‘lishi kerak. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim.

Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog‘langan ikki qism – tajriba va nazariyadan iboratdir. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlariga: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish kabilar kiradi.

Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o‘zidagina emas, balki ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo‘llaniladi.[7]

Ilmiy-tadqiqot - bu insonning o‘zi va atrofidagi o‘zgarishlarni anglab yetishga doimiy ravishda tayyor turish, yangicha fikrlash asosida o‘z qobig‘idan chiqa olishidir. Yangi narsalarni ixtiro etishga bo‘lgan intilish olimning nazariy huzur-halovatini namoyon etadi.

Bugungi kunda takomillashtirishga yo‘nalgan ilmiy tadqiqot izlanishlarini davom ettirmoqdalar. Bizning nazarimizda talaba-yoshlar, bulg‘usi olimlar nazariy g‘oyalarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishi, kashfiyotlar yaratishi va ixtirolar qilishda buyuk olimlar tajribasidan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ilmiy-tadqiqot jarayonida shaxs yoki jamoa, jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi yangilik yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4433-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 6309-sonli Farmoni.

4. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Toshkent-2004, Movaraunnahr, 66 bet.

5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: «Islom – ilm demakdir» (1989). https://ziyouz.uz/suhbatlar/islom-ilm-demakdir-muftiy-muhammad-sodiq-muhammad-yusuf-bilan-suhbat-1989/?lng=lat.

6. Radjavov A. Ilmiy tadqiqot asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: 2012 yil.

7. Райзберг Б.А. Диссертация и ученая степень. Пособие для соискателей. М.: 2003 г.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ilm va uning inson hamda jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, allomalarning ilm va uni o‘rganish haqidagi fikrlari bayon etilgan. Ilmiy faoliyatni yoshlikdan amalga oshirib borish hamda talaba-yoshlarning ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanib borishi davlat ahamiyatidagi dolzarb masala ekanligi misollar orqali ko‘rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассказывается о науке и ее роли в развитии человека и общества, а также о мнениях ученых о науке и ее изучении. На примерах рассмотрены актуальные вопросы государственной важности осуществления научной деятельности с юных лет, а также участие студенческой молодежи в научно-исследовательской деятельности.

SUMMARY

This article tells about science and its role in the development of man and society, as well as about the opinions of scientists about science and its study. Current issues of state importance of carrying out scientific activities from a young age, as well as the participation of students in research activities are considered by examples.

MASOFAVIY TA’LIM MUHITIDA MALAKA OSHIRISH TINGLOVCHILARINING IJODKORLIK FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Xoshimova F.B.
Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti

Tayanch so’zlar: masofaviy ta’lim, ijodkorlik faoliyati, qobiliyat, pedagogik asoslari, metodik asoslari,muhit, axborot texnologiyalar.

Ключевые слова: дистанционное образование, творческая деятельность, способности, педагогические основы, теоретические основы, среда.

Key words: distance education, creative activity, abilities, pedagogical bases, theoretical bases, environment.

Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelini loyihalash pedagogika va kasbiy axloq sohasidagi pedagogik faoliyatning o‘ziga xos tavsiflarini, kasbiy va axloqiy madaniyatning aloqadorligi va umumiyligini ochib beruvchi kasbiy etika mazmunining integrasiyasi tamoili asosida amalga oshiriladi. Pedagogik etikani egallash kasbiy-axloqiy kompetentlikni yanada chuqur shakllantirishga yordam beradi. Kasbiy-axloqiy kompetentlikka faqat shunday qarash, uni yana keng kasbiy-pedagogik jarayonlar mazmunini idrok etish, bizningcha, bu kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirishning adekvat mazmunini loyihalashning asosi bo‘lishi mumkin.

Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelini yaratishda tadqiqot ishimiz natijalariga ko‘ra, umumkasbiy, psixologik-pedagogik va axloqiy-etik bilim, ko‘nikma va malakalarning malaka oshirish mazmunining kasbiy-axloqiy komponentiga integrasiyasiga motivasiyasini oshirishga va oqibatda o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatining oshishiga yordam beradi. Ammo bunda boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarining o‘ziga xosligini va o‘quv materialining pedagogiki axloqiy komponentlari mazmuni elementlarining o‘zaro aloqalarligi me’yorini inobatga olish kerak.

Amaliy tajribalarimiz ko‘rsatishicha, Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelini joriy etishda o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar, mashg‘ulotlar mazmuni

va tuzilishi tinglovchilarga o‘zini ta’lim jarayonida affektiv, praksiologik va kognitik darajalarda yaxlit amalga oshirishlarini ta’minlaganida rivojlantirish mumkin.

Shuning uchun o‘quv-bilishga oid faoliyat tinglovchilarni nafaqat bilimlar, balki ijod, his-tuyg‘ular, o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalari tajribasi bilan boyitishi kerak. O‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalari o‘quv materiali mazmunida o‘z holati va uning sabablarini, his-tuyg‘ulari, kechinmalari, faoliyatdagi sub’yektiv qulaylik-noqulaylik, uning jarayoni va natijasidan qoniqishni tavsiflash; mavzu bo‘yicha o‘z kompetentligini baholashga imkon beruvich topshiriqlar, bilimlar va ma’lumotlarni “orttirish” darajasini anglash, ularning shaxsiy ahamiyatini asoslashga imkon beruvchi topshiriqlar, yangini o‘zlashtirish usullarida individual afzalliklarni tushuntirish, faoliyatning kuchli va zaif tomonlarini, ularning manbalarini tahlil qilish va tavsiflash, faoliyatni yo‘naltirish, ijro etish va nazorat qilish usullariga asoslangan tuzatishlar kiritish va boshqalarning mavjudligi bilan ta’minlanadi. Tinglovchilar ishlaydigan butun o‘quv materiali bo‘limlar bo‘yicha strukturalashtirilishi mumkin: axborot-munozarali, amaliy-o‘zgartiruvchi va refleksiv va bu bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy-axloqiy kompetentligini yaxlit shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlanadi.

Mazmunning aksiologik yo‘nalganligi malaka oshirish jarayonining qadriyatli-ma’noli mazmuni tashkil etadi. Kasbiy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mazkur jarayon asoslanadigan tizimni o‘z-o‘zidan qoniqish qadriyatlari (qadriyatlar-maqsadlar) va instrumental qadriyatlar (qadriyatlar-vositalar) turlariga ajratish mumkin (M.Rokich). Birinchilari quyidagi savolga javob berish imkonini beradi: «Ta’lim jarayoni nima uchun amalga oshiriladi?». Ular mazmun hosil qiluvchi hisoblanadi va ta’lim jarayoni barcha sub’yektlarini rivojlantirish va o‘zini-o‘zi rivojlantirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchi sub’yektiv pedagogik qadriyatlari tizimi, uning kasbiy motivlari iyerarxiyasi, pedagogik qarashlar, his-tuyg‘ular, ustanovkalar, pedagogik vazifalar yechimiga shaxsiy ahamiyatli yondashuvlar, niyatlar va amallarning o‘ziga xosligi, afzal ko‘rilgan, pedagogik texnologiyalar, pedagogik o‘zaro munosabatning individual-betakror uslubi, o‘quvchilar bilan optimal moslikni topish usullarining o‘ziga xos majmui – bularning barchasi muayyan o‘qituvchining kasbiy-axloqiy tajribasining batakrorligini belgilaydi.

Bunday talqin kasbiy-axloqiy kompetentlik mazmunining umumiy yo‘nalganligini va har bir o‘quv moduli va faoliyat turining yetakchi vazifasini, ya’ni Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi ta’lim jarayonining barcha shakllari va metodlarini aniqlash

imkonini beradi. Malaka oshirishning kasbiy-axloqiy bo‘limi integrativ mazmunini loyihalashda quyidagilar inobatga olindi:

- modul tamoili bo‘yicha tuzilgan kurslarning moslashuvchanligi va ko‘p variativligi; pedagog kompetentligi darajasiga va ta’lim oluvchilar kontingenti ehtiyojlariga ko‘ra modullarni tartiblash;
- malaka oshirish tizimida ehtiyojlarning keng doirasiga mo‘ljallangan o‘qituvchi faoliyatining kasbiy-axloqiy tashkil etuvchisining mazmuni;
- o‘quv-metodik adabiyot bilan ta’minlangan mustaqil-konsultativ va munozarali ishlarga (muammoli seminarlar va maxsus kurslarda), amaliy o‘qitishda esa – faol jamoaviy ish shakllari va jamoaviy ijodda ishtirok etishga urg‘uni ko‘chirish.

Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelini mazmuni va shakllarining bunday integrasiyasi malaka oshirishni tashkil etishning turli shakllari orqali mashg‘ulotning axborot materialini yangilaydi, emosional holatni, o‘qitish jarayonining obrazliligini yuzaga keltiradi, tinglovchilarni kasbiy-axloqiy faoliyatning amaliy ko‘rinishlariga undaydi.

Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelini rivojlantirishni integrativ modellashtirish jarayonida bu xususiyatlarni inobatga olish zarurdir. bugungi kunda pedagogikada modellashtirish metodi keng qo‘llanilib, uning ostida haqiqiy mavjud pedagogik tizimni yoki endigina ishlab chiqilayotgan tizimni, bu tizimni tashkil etish va ishlashining tamoillari ifodalanadigan maxsus moddelarni tuzish orqali fikran imitasiyalash tushuniladi.

A.N.Daxin modelni «jadvallar, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar yoki formulalar sun’iy tuzilgan ob’yekt bo‘lib, u o‘rganilayotgan ob’yekt (yoki hodisa)ga o‘xshash bo‘lib, soddalashtirilgan shaklda bu ob’yektning elementlari o‘rtasidagi struktura, xususiyat, o‘zaro aloqalarni aks ettiradi va ifodalaydi» deb ta’riflaydi.

Bu maqsadlarda o‘qitishning kompesator vazifasini ta’minlovchi, maqsadli (kasbiy-axloqiy muammolarga oid) malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o‘tkazishning an’anaviy chiziqli (integrativ) shakli faol qo‘llaniladi. Dasturlar mazmunida ishbilarmonlik o‘yinlari, amaliy mashg‘ulotlar, aqliy hujumlar, aniq vaziyatlar tahlilini o‘tkazishda tajriba va kasbiy-axloqiy g‘oyalarni almashish orqali kasbiy-axloqiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishga yo‘nalganlikni ta’minlovchi axloqiy-etik bo‘limga ahamiyatli o‘rin ajratiladi. Shuningdek, nochiziqli shaklda (tabaqalashtirilgan) o‘qitish kursi amalga oshiriladi. Malaka oshirishning mos dasturlarida malaka oshirish mazmunining asosiy komponenti bilan bir qatorda variativ qism mavjud bo‘lib, u guruhli va individual konsultasiyalar shaklida

tinglovchilarning kasbiy-axloqiy qiziqishlari va motivlariga muvofiq o‘tkaziladi, yoki alohida bo‘lim-modul ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mutaxassislar modelini ishlab chiqishga turli xil yondashuvlar mavjud, jumladan malaka oshirish tizimida (V.V.Krayevskiy, R.A.Islamshin, E.M.Nikitin). Model, masalan, mutaxassis modeli tadqiqotchiga malakaviy tavsiflar, professiogrammalarni tuzish, kasbiy tayyorgarlikning mazmuni va texnologiyasini belgilash imkonini beradi.

Masalan, E.M.Nikitin pedagog kasbiy kompetentligi modeli pedagogga zamonaviy pedagogik vaziyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur sifatlarni o‘zida shakllantirishga yordam beruvchi, malaka oshirish tizimida ta’lim xodimlari uchun zarur sharoitlarni ta’minlashga yo‘naltirilgan deb hisoblaydi. U “uning asosiy vazifalarini, unga talablarni, nazariy bilimlar doirasini, pedagogik ko‘nikma va malakalar ro‘yxatini, integrasiyalangan kasbiy-shaxsiy sifatlarni ifodalashi kerak” .

Shu bilan birga hech bir alohida olingan model o‘rganilayotgan ob’yekt to‘g‘risidagi to‘liq tasavvur bera olmasligini tushunamiz. Bu modelni deduktiv qurish uchun yetarli bo‘lgan, uning barcha elementlarining “hatti-harakati”ni tavsiflovchi (aytib beruvchi) tizim to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq yakuniy to‘plami mavjud bo‘lmasligini ta’kidlovchi meteriya va ongning cheksizligi to‘g‘risidagi umumilmiy metodologik qoidaga qarshi bo‘lar edi. Ma’lumki, aniq pedagogik model mazkur bosqichda tizimning va unda kechuvchi jarayonlarning eng ahamiyatli xususiyatlari va o‘zaro aloqadorliklarini strukturaviy va mazmunli aks ettirishi kerak

Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelining mohiyati, uning tuzilishi va mazmunini aniqlashtirish, shuningdek malaka oshirish jarayonida mazkur hodisaning rivojlanishiga integrativ yondashuv tamoillarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot ishi yakuniy natija – boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning yangi darajasini ta’minlashga erishishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishni amalga oshirish imkonini beradi. Ammo bu jarayonni optimal ko‘rinishda amalga oshirish, mazkur jarayonning mohiyatini ifodalab, integrativ hisoblanishi mumkin bo‘lgan, avaaldan ishlab chiqilgan malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish modeli asosida mumkin bo‘ladi.

Shaxsiy tajriba – mazmunni boshdan kechirish, mazkur predmet, faoliyatning shaxs hayot faoliyati mazmuniga o‘ziga xos jalb etilganligi (uning maqsadlari, jarayoni, kutilgan natijalari va boshqalar bilan). Bu sub’yektiv ustanovka, qarash, ishonch, boshdan kechirilganning shaxsiy tajribasiga aylangan ob’yektiv qadriyatdir.

Haqiqatda ikki bilim turlari alohida mavjud bo‘lmaydi, ammo o‘z birligida “konseptual jadvallar” yoki “kasbiy tuzilmalar” tizimini ifodalaydi va ular mohiyatan o‘qituvchining kasbiy vazifalarni yechishiga anglangan yoki anglanmagan tayyorligini belgilab beradi.

Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining tushunchaviy apparati, maqsadi va vazifalarining integrasiyasi, uni malaka oshirish tizimida amalga oshirishning mos modeli va pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish aniq tadqiqotning nazariy-metodologik va amaliy yo‘naltirilgan dolzarb vazifasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda keltirilgan dalillar umumiy holda, bizningcha avval amalga oshirilgan nazariy xulosalarning ishonchliligini tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishning integrativ modelidan foydalanish ularni tezroq amaliy va kasbiy jarayonlarga kirishga undaydi. Bu esa mamlakatimiz zamonaviy ta’limining yutuqlaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Бим И.Л. Основные направления организатсии обучения иностранным языкам на старшей ступены полной средней школы. -2002. -№5. –111. с.

2. Boymatova S.K. Развитие коммуникативной компетенции в учебно-профессиональной сфере общения студентов-медиков при изучение терминов. -T., 1993, 264 b.

3. Бургин М.С. Понятие и функции методологии педагогики / М.С.Бургин // Советская педагогика. – 1990. – № 10. –174 С.

4. Byram, M. Teaching and assessing intercultural communicative competence / M.Byram. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. -166 p.

5. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extrcurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565). (https://wos.academiascience.org)

РЕЗЮМЕ

Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalardan foydalanish, texnologik metodik asoslari yuzasidan fikrlar keltirilgan. Masofaviy ta’lim muhitida malaka oshirish tinglovchilarining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatga molik qismlariga ham e’tibor qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

Представлены взгляды на педагогические и теоретические основы развития творческой активности студентов повышения квалификации в условиях дистанционного образования. Также уделяется внимание важным сторонам развития творческих способностей обучающихся в условиях дистанционного обучения.

SUMMARY

Views are presented on the pedagogical and theoretical foundations for the development of creative activity of advanced training students in conditions of distance education. Attention is also paid to important aspects of the development of students’ creative abilities in distance learning.

«UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM» PLATFORMASIDA MALAKA OSHIRISH SIFATINI BELGILOVCHI OMILLAR

Rahmonova G.S.
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: ‹‹Uzluksiz kasbiy ta'lim›› platformasi, onlayn ta'lim sifati, onlayn ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik sifat, texnologik sifat.

Ключевые слова: платформа «Непрерывное профессиональное образование», качество онлайн-образования, факторы, влияющие на качество онлайн-образования, педагогическое качество, технологическое качество.

Key words: «Continuous professional education» platform, quality of online education, factors affecting the quality of online education, pedagogical quality, technological quality.

Kirish. Elektron ta'lim platformasi aloqa va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, turli interaktiv telekommunikatsiya tizimlari orqali tinglovchilarning akademik rivojlanishiga yordam beradigan dastur. Elektron ta'lim platformasini pedagogik va texnologik tarkibiy qismlarning tashkiliy sxemasi sifatida qarasak, ushbu komponentlar sifatini nazorat qilish platformada ta'lim sifatini boshqarishni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Elektron ta'lim platformalarida ta'lim sifatini boshqarish ta'limni tashkil etuvchi barcha elementlar, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish orqali amalga oshiriladi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bibliografik sharhlarga asoslanib elektron ta'lim platformalari yoki onlayn ta'lim dasturlarida ta'lim sifatini belgilovchi formulalar yoki sxemalar mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin. Buning sababi shundaki, har bir platforma o'ziga xos, uning tuzilishi tashkil etuvchi elementlari, maqsadlari, resurslari va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Shunga qaramay, Ispaniya Oliy ta'lim sifati bo'yicha qo'mitasi (1997-yilda) elektron ta'lim platfromalarini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan quyidagi elementlarni taklif qiladi: o'quv maqsadlari, o'qitish strategiyalari, ta'limni baholash strategiyalari, talabalar profili va interfaol o'qitish resurslari.

AQShning Arizona shtati olimlari Dag Barnard va Jennifer Echols "K-12 Onlayn Dasturlarining Anatomiyasi" kitobida elektron ta'lim platformalarida onlayn ta'lim dasturi nimadan iborat bo'lishi kerakligi va kurslarni qanday

yaratish lozimligi, ishonchlilik va yuqori akademik standartlarni qanday saqlab turishi haqida amaliy g‘oyalar va ko‘rsatmalar berishgan.

D.Barnard va J.Echols fikrlariga ko‘ra, elektron ta’lim platformalarida onlayn ta’lim dasturi o‘quvchilar profilini, tematik mazmunini, o‘rganish strategiyalarini, ta’lim texnologiyasining xususiyatlarini va o‘quv jarayonini baholash strategiyalarini o‘z ichiga olishi kerak. [2]

Xorijiy olimlar Nik Rushbi va Den Surri onlayn ta’lim dasturi quyidagi tashkil etuvchilarni nazarda tutgan holda yaratilishi kerakligini ta’kidlaydi: o‘quv ma’lumotlari, umumiy o‘quv maqsadlari, dastur mazmuni, o‘quv faoliyati, axborot manbalari, aloqa vositalari, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va o‘quv jarayonini baholash strategiyalari. [3]

Ushbu komponentlar elektron ta’lim platformasi sifatini belgilaydi va shuning uchun har bir platformaning kuchli va zaif tomonlarini hamda takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida baholanishi kerak.

Platformani doimiy baholab borish uni ta’lim maqsadlariga erishish davomiyligi haqida doimiy ma’lumot beradi. Ushbu ma’lumot fikr-mulohazalar orqali dasturni yaxshilash imkonini beradi.

Xorijiy olimlar Perez Juste [4], Daniel Surri va David Ensminger [5] ilmiy ishlarida ta’lim platformasini baholash uch bosqichda (boshlang‘ich, ishlab chiqish va yakuniy) amalga oshirilishi kerakligini ta’kidlashgan. Bundan tashqari, har bir bosqich o‘z maqsadlariga ega bo‘lishi kerak va uchta bosqich birgalikda platformani takomillashtirishga hissa qo‘shishi kerak degan fikrni oldinga surishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

- nazariy darajada - tadqiqot muammolari bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar va me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish; ishtirokchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish; tizimlar va ta’lim jarayonlarini, o‘qituvchi va ishtirokchilarning masofaviy o‘qitish tizimidagi pedagogik faoliyatini modellashtirish;
- empirik darajada - pedagogik tajriba; kuzatuv usullari, so‘rovnomalar, testlar, so‘rovlar, ma’lumotlarni qayta ishlashning statistik usullari.

Tahlil va natijalar. Onlayn elektron ta’lim sinxron, asinxron va gibrid (aralash) o‘quv muhitlari uchligiga bo‘linadi. Sinxron ta’lim muhiti o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar bir vaqtning o‘zida onlayn darsda qatnashishlarini talab etadi. Bunday ta’lim muhitida darslar videokonferensiya va onlayn guruh suhbati (chatlar) orqali amalga oshirilib, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar doimiy hamkorlikda bo‘lishi ta’minlanadi.

Asinxron muhit vaqt va makon bilan bog‘liq emas, ya’ni o‘rganish turli joylarda turli vaqtlarda sodir bo‘lishi mumkin, bunda ta’lim oluvchilar muhokamalar

chati yoki elektron pochta kabi vositalardan foydalanishadi. Elektron ta’lim muhiti turlariga ko‘ra sifatga ta’sir etuvchi omillar farqlanadi, chunki, sinxron va asinxron ta’lim muhitlarida ta’limni tashkil etuvchilar turlicha ekanligi sifatga ta’sir etuvchi omilllar farqlanishini keltirib chiqaradi.

Joriy tadqiqot obyekti ‹‹Uzluksiz kasbiy ta’lim›› maxsus elektron platformasi asinxron ta’lim muhitida o‘qitishga asoslangan, platformaning maqsadi va mazmuni, tashkil etuvchilari va ta’lim muhitini hisobga olgan holda, sifatga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadga muvofiq.

Sifatga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash sifatni yaxlit boshqarish yo‘llarini izlashga, keyinchalik, sifatni baholash va natijada, sifatni yaxshilash uchun chora-tadbirlar ko‘rishga majbur qiladi.

‹‹Uzluksiz kasbiy ta’lim›› maxsus elektron platformasida malaka oshirish sifatini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotning dastlabki davri 2022-yil oxiriga to‘g‘ri keldi.[6] Mazkur platformada malaka oshirgan va sertifikatga ega bo‘lgan 4000 ga yaqin tinglovchilarning elektron ta’limdan foydalanish ko‘nikma va tajribalari, platformada o‘qitilish sifati bo‘yicha fikrlarini o‘rganish maqsadida anonim aniqlashtiruvchi tajriba-sinov so‘rovnomalari o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, tinglovchilar nazdida internetga ulanish muammosi, platformaning “qotib qolishi” (sekin ishlashi), ba’zi kurslarning sifati pastligi, onlayn texnik yordamning yetishmasligi (kechikishi), tinglovchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotning yo‘qligi, mavzulardagi ahamiyati past savollardan tuzilgan testlar va kompyuter laboratoriyalarining yetishmasligi platformada o‘qish sifatini kamaytiruvchi asosiy muammolardir.

Virtual muhitda ta’lim jarayonini tashkil etishda yangi strategiyalarni qo‘llash uslubiy paradigmalarni hosil qiladi, ya’ni masofaviy ta’lim modellarini o‘z faoliyatiga singdirayotgan ta’lim muassasalari pedagogik sifat va texnologik sifat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash vazifasini o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘ladi.

‹‹Uzluksiz kasbiy ta’lim›› platformasida malaka oshirish sifatini belgilovchi omillar

Elektron ta’lim sifatini aniqlash va baholash bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar, elektron ta’lim sifatini boshqarish bo‘yicha xalqaro modellar tahlil etilib, ‹‹Uzluksiz kasbiy ta’lim›› platformasi maqsadi, tashkil etuvchilari, ta’lim strategiyalari, texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, sifatga ta’sir etuvchi omillarni ikki turga pedagogik sifat va texnologik sifat omillariga ajratamiz.

Pedagogik sifat omillari hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblaymiz, chunki u o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarining sifatini qamrab oladi. Platformada o‘qitish jarayonlarini tashkil etish va barqarorligini kafolatlash uning texnologik sifatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik va texnologik sifatga ta’sir etuvchi omillarni o‘z navbatida bir nechta qismlarga ajratish mumkin.

1-sifat omili: Malaka oshiruvchilarning ‹‹Uzluksiz kasbiy ta’lim›› platformasi nima maqsadda yaratilganligi, platformada onlayn malaka oshiruvchilar qanday qulaylik va imkoniyatlarga ega bo‘lishlari, platformadagi o‘quv jarayoni kasbiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etishini chuqur anglashlari malaka oshirish sifatiga ta’sir qiladi.

2-sifat omili: Platformadagi o‘quv dasturlari aniq maqsadlarga yo‘naltirilganligi va bu maqsadlar o‘quv rejasida to‘liq aks etishi, shuningdek, o‘quv rejasi mehnat bozori talablariga mos kelishi va tinglovchilar ehtiyoji asosida yaratilishi sifatga ta’sir etadi. Mulohazali tomoni shundaki, platformada ham xuddi an’anaviy o‘qish shaklidagi singari o‘quv dasturlari malaka oshirish mazmuni va sifatiga qo‘yilgan Davlat talablari doirasida bo‘lishi va mazmunni belgilovchi asosiy me’yoriy hujjatlar ham an’anaviy o‘qish shaklidagidan farqli bo‘lmasligi talab etiladi.

3-sifat omili: Platformaga kirish va unda ro‘yxatdan o‘tish qulayligi, dastur dizayni, trayektoriyasi aniqligi (o‘quv materiallariga kirish uchun sahifalar va tugmalar joylashuvi optimalligi), bitiruv sertifikatiga ega bo‘lish bosqichlari aniq ko‘rsatib berilganligi sifatga ta’sir etadi.

4-sifat omili: Platformadagi kurslarning tematik mazmuni sifatga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bo‘lib, kurslarda o‘quv soatlari optimalligi ya’ni ta’lim maqsadiga erishish hamda tinglovchi ehtiyojini qondirish uchun zarur va yetarli sonda mavzular qo‘yilishi, kurslardagi mavzu va mazmun bir-biriga mos kelishi, mazmun bevosita ta’lim maqsadiga va tinglovchi mutaxassisligiga yo‘naltirilgan bo‘lishi, mavzular ketma-ketligi bir-birini to‘ldirgan holda mantiqan tartibga solingan bo‘lishi sifatga ta’sir etadi.

5-sifat omili: O‘quv faoliyatining sifati malaka oshirish sifatiga ta’sir etuvchi muhim omil bo‘lib, bunda o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan tanlanma vositalar, pedagogik texnologiyalar va metodlar, o‘qitishning umumiy va xususiy tamoyillari asosida tashkil qilinishi sifatga katta ta’sir ko‘rsatadi.

6-sifat omili: Tinglovchilarning AKT savodxonligi darajasi va platformadan foydalanish ko‘nikma va malakalari sifati malaka oshirish sifatiga ta’sir qiladi. Tinglovchilarning onlayn ta’lim oluvchilar uchun belgilangan pedagogik va texnologik kompetensiyalarga ega bo‘lishlari malaka oshirish sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

7-sifat omili: O‘quv materiallarining sifati. Videodarslar, darsliklar, o‘quv qo‘llanma va adabiyotlar, ma’ruza matnlari, slaydlar, elektron doskadagi yozuvlar, plakat, laboratoriya jihozlari va boshqa o‘quv materiallarining sifati shuningdek, ularning yetarliligi, mavzuga aynan mosligi, mavzuni yoritishdagi ahamiyati va dolzarbligi malaka oshirish sifatiga ta’sir qiladi.

8-sifat omili: Onlayn o‘qituvchining sifatlari. O‘qituvchi nutqi, xulqi va imidji namunasi, kamera qarshisida dars o‘tish qobiliyati, o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan o‘qitish strategiyalari sifati malaka oshirish sifatiga ta’sir qiladi.

9-sifat omili: Tinglovchilarni nazorat-baholash komponenti sifati. Bunda tinglovchilar o‘z-o‘zini nazorat qilish komponenti sifati (o‘z-o‘zini tahlil qilish, savol-javob, topshiriqlar, tuzatish, amaliyotda qo‘llash, qiyoslash, xulosalash) va platforma tomonidan tashkil qilinadigan ichki nazorat sifati (kirish diagnostik testlari, joriy va oraliq testlar, yakuniy nazorat testlari va malaka ko‘nikmalarini aniqlash bo‘yicha sinov materiallari sifati) malaka oshirish sifatiga ta’sir qiladi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida aniqlangan sifatga ta’sir etuvchi omillar platformada malaka oshirish sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish va yaxlit sifat boshqaruvi modelini yaratish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Marciniak, R. (2016). Autoevaluación de programas de educación universitaria virtual [Self-assessment of higher virtual education programmes] (Doctoral dissertation). Autonomous University of Barcelona, Barcelona, Spain.

2. Barnard, D., & Echols, J. (2015). The anatomy of K-12 online programs: Practical ideas and guidelines. London: Rowman and Littlefield.

3. Rushby, N., & Surry, D. (2016). Wiley handbook of learning technology. New York: John Wiley and Sons.

4. Pérez Juste, R. (2014). Evaluación de programas educativos [Assessment of education programes]. Madrid: La Muralla.

5. Surry, D. W., & Ensminger, D. C. (2009). Supporting the implementation of online learning. In P. L. Rodgers (Ed.), Encyclopedia of distance learning, (1994-1999). New York: IGI.

РЕЗЮМЕ

Ta’lim sifati davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir paytda o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish zaruratga aylanmoqda. Respublikamizda maktab pedagog xodimlarining onlayn malaka oshirishiga xizmat qiluvchi ‹‹Uzluksiz kasbiy ta’lim›› platformasida malaka oshirish sifatini boshqarishni takomillashtirish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqot davomida platformada malaka oshirish sifatini belgilovchi pedagogik va texnologik sifat omillari aniqlangan bo‘lib, ularni 9 ta qismlarga ajratib ko‘rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В условиях, когда качество образования поднялось до уровня государственной политики, возникает необходимость регулярно повышать квалификацию преподавателей. В нашей республике проводится научно-исследовательская работа в целях совершенствования управления качеством повышения квалификации на платформе «Непрерывное профессиональное образование», обслуживающей дистанционное повышение квалификации школьных педагогов. В ходе исследования были определены педагогические и технологические факторы качества, определяющие качество обучения на платформе, и они были разделены на 9 частей.

SUMMARY

At a time when the quality of education has risen to the level of state policy, it is becoming necessary to regularly improve the qualifications of teachers. In our republic, research work is being carried out in order to improve the management of the quality of professional development on the «Continuous Professional Education» platform, which serves the online professional development of school pedagogues. During the research, the pedagogical and technological quality factors that determine the quality of training on the platform were determined, and they were divided into 9 parts.

TALABALARDA EKOETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANI MUSHTARAKLASHTIRISH MASALASI

Xamraqulov J.B.
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: ekologik ta'lim, ekotizimlar, atrof muhitni muhofaza qilish, mas'uliyat, ekologik mas'uliyat, ekoetik kompetentlik, ekologik-huquqiy me'yor, ekologik axloqiy normalar.

Ключевые слова: экологическое образование, экосистемы, охрана окружающей среды, ответственность, экологическая ответственность, экоэтическая компетентность, эколого-правовая норма, эколого-этические нормы.

Key words: environmental education, ecosystems, environmental protection, responsibility, environmental responsibility, ecoethical competence, environmental legal norm, environmental ethical norms.

Ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida tabiatni muhofaza qilish mas'uliyatini shakllantirishning mafkuraviy xususiyatlariga, tarixiy voqealarga vorislik masalalariga alohida diqqat-e'tiborni qaratish kerak. Zero, ekologiyalashgan mafkura ekologik ongning umuminsoniy qadriyatlarini mujassamlashtirgan shakli bo'lib, ekologik faoliyatga ilmiylik, g'oyaviylik, gumanistik mazmun baxsh etadi. Bundan tashqari, tabiat muhofazasiga mas'uliyatsizlarcha, to'ralarcha munosabatlarga qarshi murosasiz kurashni ekologik dunyoqarashdagi ideal konsepsiyasining siyosiy mohiyatini ifodalaydi. Ekologik ideallarning reallashuvi jarayonida stixiyali, oddiy kundalik ong elementlari hamda g'oyaviy darajalarining o'zaro munosabatlari rivojlanib boradi, hissiy va aqliy bilishning dialektik birligi vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi «ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi

zarurligi bilan belgilanadi»[3]. Shunday ekan, ekologik ta’lim va tarbiya shu kabi muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi kelib chiqadi.

2015-yil 12-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining «Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi» hamda «Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi» bilan hamkorlikda «Mamlakatimizda ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilgan. Anjumanda milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish talablari hamma fan yo‘nalishlari, jumladan, ekologik ta’lim va tarbiya tizimini qaytadan ko‘rib chiqish zarurati ta’kidlanadi. Buning uchun milliy ekologik ta’lim muammolarini hal etishda aynan masalaga metodologik yondashuv nuqtai nazardan qarashga to‘g‘ri keldi. Zero, ekologik ta’lim metodologiyasi yuzaga kelgan real sharoitni, ya’ni huquqiy asos, ijtimoiy holat, iqtisodiy imkoniyat, ekologik va siyosiy vaziyatni inobatga oladi. Milliy ta’limga oid siyosiy vaziyatni tez o‘zgaruvchanligi O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’lim va tarbiyaga doir tadqiqotlarni ham tez moslashuvchanlikka olib kelmoqda.

2017-2018-yillar davomida ekologik siyosat va milliy ta’limdagi holat tubdan o‘zgarib ketdi. Ekologik ta’lim metodologiyasi esa aynan ushbu huquqiy asos, siyosiy vaziyat va ijtimoiy holatni inobatga olmasdan iloji yo‘q. Milliy ta’lim tizimi tubdan isloh qilindi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-aprelda imzolangan «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5024-sonli Farmoniga binoan «Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi» nomi «Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi davlat qo‘mitasi» deb o‘zgartirildi. Uning zimmasiga ekologik holatni yaxshilash va aholining ekologik ongi va madaniyatini o‘stirishga doir bir qator vazifalar yuklandi. Qo‘mita qoshidagi «Barqaror taraqqiyot (rivojlanish)» Idoralar Kengashi faoliyati qayta ko‘rib chiqildi. Ekologik ta’lim va tarbiyani yuzaga kelgan ta’limdagi islohotlarni inobatga olgan tarzda BMTning «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi”ga monand ravishda qaytadan ko‘rib chiqish vazifasi yuklandi.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning maqsadi-tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish haqidagi nazariy bilimlar asoslarini o‘rgatishga, hozirgi zamon ekologik siyosatining mazmuni, mohiyati bilan tanishtirishga qaratilgan bo‘lib, mehnatkashlarning shu sohadagi amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, shaxsning xo‘jalik yuritishda ekologik tamoyillarga, normalarga mos bo‘lib, uning tashkilotchilik qobiliyatlarini, ehtiyojlarini, manfaatlarini, mas’uliyatini, tafakkur uslublarini shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Ekologik ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning tabiiy boyliklarni muhofaza qilish intizomi, uddaburonlik va ishchanlik sifatlari qaror topadi.

Hozirgi kunda bunga g‘oyat katta ehtiyoj bo‘lishiga qaramasdan, insonlarga umumlashgan ekologik bilim beradigan maxsus dastur yo‘q. Bunday bilimlar majmuasi - ta’lim-tarbiya muassasalarida tabiatshunoslik, texnik, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida fragmentar tarzda, qisman paydo bo‘lmoqda. Ekologik mas’uliyatni shakllantirish va rivojlantirish muammosini muvaffaqiyatli hal etish uchun ta’lim-tarbiyaning hamma yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirgan holda, uning umumiy nazariy konsepsiyasini yaratish va shu tizimni bosqichma-bosqich, uzluksiz amalga oshirish talab qilinadi.

Talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirishda ulardagi ekologik huquqiy mas’uliyatni shakllantirish talab etiladi. Ekologik huquqiy mas’uliyat funksiyalaridan biri – talabaning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini, amaliy xatti-harakatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini nazorat qilishdan iborat. Ijtimoiy mas’uliyat muammosining tadqiqotchilaridan biri V.I.Speranskiy fikriga ko‘ra, mas’uliyat hissining shakllanishi bilan insonning shaxsga aylanishi, uning ijtimoiy faolligi boshlanadi”[6,148]. Bunda muallif, mas’uliyatni shaxs shakllanishining asosi deb bilgan va uning sifatini belgilaydigan mezon darajasiga ko‘targan. Vaholanki, mas’uliyat hissining har qanday darajasi yoki shakli «inson sifatini» belgilashga da’vogarlik qila olmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ekologik huquqiy normalar nisbatan turg‘un, buning mazmunini esa uning doimiy rivojlanib borishi bilan izohlash kerak, lekin amaliyotda hamma vaqt shunday bo‘lavermaydi.

Ekologik huquqiy normalarning o‘ziga xos muhim xususiyati: birinchidan, ekologik munosabat subyektlarining faolliklarini maqsadga muvofiq yo‘naltirilishi bilan xarakterlanadi, ya’ni u ekologik faoliyatning doirasini, tartibini, tashkiliy bog‘lanishlarini belgilab turadi. Ikkinchidan, boshqa ijtimoiy munosabatlarni reglamentlashtirishda ichki e’tiqod, jamoatchilik fikri ustuvor xarakterga ega bo‘lsa, ekologik huquqiy normalar, asosan, davlatning “majburlash”, ta’qiqlash kuchlariga tayanadi. Aynan shunda, uning samaradorligi ham, ojizliklari ham namoyon bo‘ladi. Xususan, bugungi kunda ekologik huquqiy normalarning, aktlarning nisbatan turg‘unligi ekologik vaziyatning dinamik rivojlanish talablaridan orqada qolishiga olib kelmoqda. Buning ustiga, ekologik huquqiy normalar antiekologik xatti-harakatlarni baholashda aniq mezonlar majmuasiga ega emas. Shuning uchun ham talabalarda ekologik axloqiy normalarga hurmat va munosabatni shakllantirish, majburlash emas, g‘amxo‘rlikka asoslangan munosabatni shakllantirish talab etiladi.

Talabalarni ekologik vaziyatni keskinlashtiruvchi antropogen ta’sir haqidagi haqqoniy axborotlarga ega bo‘lishi norasmiy nazorat ko‘lamini, yo‘nalishini va uning natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarda ekologik vaziyat haqida to‘liq, obyektiv axborotlarning yetishmasligi, “informatsiya qashshoqligi”

tabiatni huquqiy muhofaza qilish vazifasining tashkiliy qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi, ya'ni oshkora ma'lumotlarning mavjudligi jamiyatning "tabiiy muhitga munosabatini belgilashi va inson sog'lig'ini saqlashi uchun zarur"[5]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hamma sohada bo'lgani kabi, tabiatni huquqiy muhofaza qilishda ham yetarli, obyektiv informatsiya bo'lmasa, dezinformatsiya vujudga keladi. Shu bois talabalarda ekologik vaziyat to'g'risida aniq ma'ulotlarni bo'lishi ularda axloqiy munosabatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni rivojlantirishda ulardagi ekologik stereotiplarni o'rganish, ijobiy jihatlarini takomillashtirish va ta'lim tizimida foydalanish, salbiy ekologik mas'uliyatsizlikni, xudbinlikni keltirib chiqaruvchi, ekologik muammolarni yuzaga keltiruvchi, loqaydlikni oshiruvchi stereotiplarni bartaraf etish talab etiladi. Ekologik stereotiplar nisbatan turg'un bo'lib, oldingi avlod tajribalarini umumlashtirish jarayonida, mavjud ekologik hayot tarzining mazmuniga aylanadi. Ekologik stereotiplar retrospektiv planda, yuzaki qaraganda, ekologik vaziyatlarga mos keladigan faollik va mas'uliyatni huquq vositasida chegaralaydigan hodisa bo'lib ko'rinadi, lekin aynan shu ekologik stereotiplarning amalda namoyon bo'lishi, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faollik va mas'uliyatni ifodalaydi. Vaholanki, aksariyat holatlarda, mavjud adabiyotlarda stereotiplarni hayotdan orqada qolgan aqidaviy qarashlar sifatida tushunish ustuvordir.

Ekologik axloqiy mas'uliyatni kuchaytirishning huquqiy omillari, o'zicha, shu xislatlarning "inson sifatiga" aylanishini bildirmaydi. Buning uchun, ekologik faollik va mas'uliyatni tarbiyalash muammosiga davlat miqyosida majmuaviy-tizimli tarzda yondashib, uni umummilliy mafkura ishining markaziga ko'chirilishi muhimdir. Ayniqsa, ekologik faollik va mas'uliyat, hozircha, ommaviy tus olmagan vaziyatda, bevosita shu sohada ishlayotgan kishilarning kasbiy faolligini va mas'uliyatini oshirish birinchi navbatdagi vazifadir. Chunki:

Birinchidan, kasbiy darajada ekologik faollik va mas'uliyatni oshirish, shu xislatlarni keng xalq ommasiga transformatsiya qilish vositasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozircha jamiyatda uning barcha a'zolarining ekologik faolligini va mas'uliyatini oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy, texnikaviy, tashkiliy imkoniyatlar chegaralangan.

Uchinchidan, kasbiy ekologik faollik va mas'uliyat, o'z "sifatiga" ko'ra, boshqa ijtimoiy qatlamlar uchun andoza rolini bajaradi.

Ekoetik kompetentlikni rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyani mushtaraklashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bunda nisbatan mustaqil ikki jarayon namoyon bo'ladi:

– ekologik tarbiyaga majmuaviy-tizimli yondashish imkoniyati ta'limning turli sohalarini uyg'unlashtirish, muqobil yo'nalishlarini yagona maqsad asosida bog'lash zaruriyatidan kelib chiqadi.
– ekologik tarbiyaning turli shakllari, darajalari o'rtasidagi bog'lanishlarning tarixiy, mantiqiy izchilligini saqlab, ularning vositalari, uslublari o'rtasidagi bog'lanishlarni ham ta'minlash zarur. Boshqacha qilib aytganda, bu yo'nalishlarning mushtarak xarakteri, ularning bir-biriga munosabatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim va tarbiyani tabiatni muhofaza qilish manfaatlari bilan bog'lash asosida umumiy mushtaraklik vujudga keladiki, aynan uning xususiyatlari ekologik mas'uliyatni rivojlantirishning zaruriy shartiga aylanadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya turli darajalari va yo'nalishlarining mushtaraklashuvi, shu sohalarning "individual" manfaatlarini umuminsoniy manfaatlarga moslashtirishni ifodalaydi. Shu mazmundagi, ekologik faollik va mas'uliyatni oshirishda boshqa faoliyat shakllarining kommunikativ: a'nanalar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va boshqa marosimlarning tarbiyaviy rolini alohida qayd qilish lozim. Bunday ijtimoiy-amaliy hodisalar o'ziga xos ekologik mazmun kasb etadi. Ya'ni, ijtimoiy qadriyatlar majmuasi ekologiyalashgan holda, jamiyatning boshqa ustqurmaviy elementlariga ta'sir qiluvchi omilga aylanadi. Xususan, ekologik ta'lim-tarbiya - tegishli yo'nalishdagi mas'uliyatni oshirish bilan, jamiyat ichki-tashqi siyosiy jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'lib qolmoqda. Ekologik faoliyatni tashkil qiluvchi tamoyillarni shaklantirish jarayonida muayyan nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan mehnatkashlarning ekologik tafakkur madaniyati, tushunchalari, xulosalari, amaliy munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy e'tiqodi, umumiy dunyoqarashi tarkib topadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim-tarbiya majmuasi - shaxsni faol ekologik ijtimoiy-siyosiy faoliyatga tayyorlab boradi.

Chex olimi Y.Demek ekologik ta'lim-tarbiyani siyosiy masalalar qatoriga kiritadi va uning vazifalarini quyidagi yo'nalishlarda turkumlashtiradi:

1) inson va tabiatga oid bilimlarni, tajribalarni, ko'nikmalarni egallash;

2) atrof muhit muhofazasiga yo'naltirilgan qobiliyatni vujudga keltirish;

3) ekologik muammolar yechimiga ijtimoiy munosabatni va majmuaviy yondoshishni ta'minlash;

4) tabiatga nisbatan ijobiy e'tiqodni shakllantirish, ekologik axloqni rivojlantirish [4,122]. Zero, hozirgi zamon ta'lim-tarbiya vazifalari - turli ijtimoiy ong shakllarining ekologik tafakkur bilan mushtaraklashuvini ta'minlash, har qachongidan ko'ra, dolzarb muammoga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida "Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"ning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-

tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg‘or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat.

Xulosa qilganda, ekologik tarbiya tabiatni muhofaza qilishning nazariy bilimlarini shakllantirishdangina iborat bo‘lmasdan, balki tegishli yo‘nalishdagi amaliy munosabatlarni ham rivojlantiradi. Amaliy ekologik faoliyat ko‘nikmalarning shakllanishi va hayot tarzining mazmuniga aylanib borishi o‘z-o‘zidan, stixiyali tarzda amalga oshadigan oddiy vazifa emas. Ekologik ta’lim-tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biri-yoshlarning kundalik hayot faoliyatlarida tabiat va jamiyat o‘rtasida ziddiyatlarni nazariy asoslash, ularning amaliy yechimlarini mustaqil topishga yo‘naltirishdan iborat. Oila va maktablarda ekologik tarbiyaning markaziy bo‘g‘ini, yoshlarda tabiat va jamiyat munosabatlarining ijtimoiy-ekologik ideallarini anglashni vujudga keltirishdir. Bu jarayon axloqiy, estetik, huquqiy qarashlar shaxsning e’tiqodiga, mas’uliyatiga aylanib, turli amaliy-ekologik faoliyatlarda namoyon bo‘lsagina, ta’lim-tarbiyaning shu sohadagi samaradorligini ko‘rsatuvchi mezoni bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент: Адолат, 2018. –Б.40.

2. «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. –Тошкент: Ўзбекистон, 2020.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 май 434-сонли «Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.05.2019 й., 09/19/434/3189-сон)

4. Демек Я. Образование и воспитание в области охраны окружающей среды в Чехословакии. // В кн.: ЭХО.(Экология, хозяйство, окружающая среда), 1990.

5. Соколов В. Экология и власность./ “Известия”, 1989, 27 марта.

6. Сперанский В.И. Социальная ответственность личности: судность и особенности формирования.-Москва.: Наука. 2006.

7. Хушвактова Х.С. Олий таълим муассасаларида “экология ва табиатни муҳофаза қилиш” фанини ўқитишнинг методик асосларини такомиллаштириш: Пед. фанл. докт....дисс. автореф. Чирчиқ, 2021.

8. Ҳомидова Г.М.,Муродов М.З. Экологик ахлоқ. – Фарғона, 2008.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ekologik ta’lim, uning jahondagi va yurtimizdagi umumiy holati haqida, shuningdek, ekotik kompetentlikni rivojlantirishda ekologik ta’lim va ekologik siyosatning o‘rni, ekologik huquqiy mas’uliyatni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается экологическое образование, его общее положение в мире и в нашей стране, а также роль экологического образования и экологической политики, вопросы формирования эколого-правовой ответственности в развитии экоэтической компетентности.

SUMMARY

This article discusses environmental education, its general position in the world and in our country, as well as the role of environmental education and environmental policy, the formation of environmental and legal responsibility in the development of environmental ethical competence.

ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLARDA TYUTORING TIZIMINI TASHKIL QILISHGA QUYILAYOTGAN TALABLAR VA MAS’ULIYATLI VAZIFALARNING AKS ETTIRILISHI

Nurmatova M.O.
QDPI

Tayanch so’zlar: tyutor, OTM tashkilotlari, talaba , faoliyat, tyutorning huquqlari, tyutor faoliyatining maqsadlari.

Ключевые слова: тьютор, вузовские организации, студент, деятельность, права тьютора, цели тьютора.

Key words: tutor, university organizations, student, activity, tutor’s rights, tutor’s goals.

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi xar qachongidan ham jiddiy masala sifatida qaralib, ularning ma’naviy kamolotini rivojlantirishga xissa qo’shuvchi xar qanday omilga aloxida e’tibor va yondoshuvlarni ko’rishimiz mumkin. Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti - ta’limga borib taqaladi. Chunki aynan ta’lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. SHu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g’oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo’naltirilgan. U oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishiga ko’maklashuvchi pedagog bo’lib, u yigit-qizlarni kasbga yo’naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to’garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o’rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug’ullanadi.

Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy qilinganiga ko’p bo’lmadi. Prezidentimizning 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni hamda Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining shu

asosda 2021 yil 30 sentyabrda qabul qilingan buyrug'i va nizomi yangicha tizimga asos bo'lgan edi. Ma'lumki, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 4 sentyabrdagi 386/1-son buyrug'i asosida respublikamiz oliy ta'lim muassasalari uchun "Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Namunaviy Nizom ishlab chiqildi.

Tyutor – bu liy ta'lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan xodim bo'lib, o'ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta'lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko'maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to'garak va klublarga jalb etish, ta'lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o'rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutoring tizimining tashkil etilishida tyutor talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarning muammolarini o'rganib borish va ularni yaxshilash choralarini ko'rish faoliyati bilan shug'ullanadi.

"Tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta'lim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga rioya etadi".

Ishlab chiqilgan me'yoriy-xuquqiy hujjatlar asosida tyutorlar quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga biriktirilgan talabalarning darslarini, talaba davomati va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish;

TTJga joylashishlari uchun talabalarga e'lon berish va ular tomonidan tegishli hujjatlarni yig'ib taqdim etish hamda tashkil etiladigan komissiya yig'ilishida talabalarning ishtirokini ta'minlash;

talabaning talabalar turar joyidan chiqarilishiga rozilik berish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish;

o'quv-tarbiyaviy sohalardagi muammolarini bartaraf etish bo'yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash;

madaniy-ma'rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o'tkazishda dekanat, rektorat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud ma'lumotlardan to'la foydalanish;

talabaning darslariga qatnashishi, o'zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning rag'batlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi bo'yicha xulosa berish;

Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bilan birgalikda talaba bilimini odilona baholashni nazorat qilish;

Tyutor qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

SHuningdek, tyutorlar:

talabalarning o'zlashtirishi va darslarda ishtirok etishini muntazam nazorat qilib borish hamda tahlil etish;

tyutorlik guruhlaridagi talabalarning ma'lumotlar bazasini yaratish

va fakultetga taqdim etish;

talabalar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor qilmaslik;

tyutorlik guruhidagi talabalar turar joyi, ijara, yaqin qarindoshi va o'z uyida istiqomat qiluvchi talabalarning yashash sharoitidan doimiy xabardor bo'lish;

talabalarning to'garak va klublarga a'zoligini maksimal darajada ta'minlash va ularning ushbu to'garaklar faoliyatidagi ishtiroki monitoringini yuritish;

o'ziga biriktirilgan akademik guruhlardagi talabalar bilan muntazam (guruhlarda va yakka tartibda) suhbatlar o'tkazib borish;

talabaning odobi, xulqi va ichki tartib qoidalarga rioya etishi yuzasidan ota-onalar bilan uchrashib, davra suhbatlar tashkil etib hamda tegishli ma'lumotlarni yetkazishi;

talabalar va ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini oliy ta'lim muassasasi ustavi, ichki tartib, odob-axloq hamda TTJdan foydalanish qoidalari va ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi;

akademik guruhlarda "Ma'naviyat va axborot soatlari" va "Soft skills" treninglarini dars jadvali asosida har haftada bir marotaba o'tilishini tashkil etish hamda uning samaradorligini ta'minlash;

talabalar bilan bog'liq favqulodda muammoli vaziyatlar yuzasidan zudlik bilan fakultet dekaniga axborot berish;

talabalar o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik va diniy ekstremizmning oldini olish bo'yicha soha mutaxassislari ishtirokida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish;

alkogol, tamaki va psixotrop vositalar iste'mol qilishning zararli oqibatlari xususida doimiy profilaktik ishlarni tashkil etish;

moddiy yordamga muhtoj talabalarni aniqlash, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha fakultet dekaniga taklif kiritish;

ta'lim muassasasi hududida talabalarning odob-axloq qoidalari va boshqa ichki hujjatlarda belgilangan talablarga mos ravishda bo'lishlarini nazorat qilish

hamda ushbu hujjatlarni buzgan talabalarga tegishli choralar ko'rish yuzasidan fakultet dekaniga bildirgi kiritish;

Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutoring tizimida tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta'lim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajaradi.

Nizomning "Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining maqsad va vazifalari" deb nomlangan 2-ruknida quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanishi ko'rsatilgan:

ta'lim va tarbiya jarayoni uyg'unligini samarali tashkil etish;

ta'lim muassasasi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

talabalarga ijtimoiy-ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatgan holda o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish;

ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda Jamoat kengashi va mahallaning o'rnini kuchaytirish.

talabalarning dars mashg'ulotlarini o'zlashtirib borishini tahlil qilish

va darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash;

ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo'lishdan iborat.

Me'yoriy hujjatlarni o'rganish asnosida tyutorlar uchun bir qator vazifalar qo'yilganligi ayon bo'ldi.

OTMlarda tyutorlar faoliyatini o'rganar ekanmiz, Nizomda ko'rsatilishicha, mazkur vazifani bajaruvchilar talabalarni darsdan bo'sh vaqtlarda tanlov va sport to'garaklariga jalb etish orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish; nogironligi bo'lgan, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va kam ta'minlangan talabalarga alohida g'amxo'rlik qilish va ularga tegishli tartibda ijtimoiy, ma'naviy va psixologik yordam berish choralarini ko'rishga alohida e'tibor qaratishi lozimligi ayon bo'ldi.

Talabalarda o'quv intizomini mustahkamlash, ularda o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish, ularning ta'lim muassasasi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy tadbirlarida faol ishtirokini ta'minlash ham tyutorning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Oliy ta'lim muassasa tyutorlari iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni respublika va xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash; talabaning axloqi, muomala madaniyati, yurish-turishini muntazam kuzatib borish; shuningdek, talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib u yerda yaratilgan

sharoitlarni o’rganib borish va ularni yaxshilash bo’yicha mutasaddilarga taklif kiritishlari kerak.

Muntazam ravishda talabalarning ota-onasi bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish; talabalarning muammolarini bartaraf etishda bayonnomalarni shakllantirib, amaliy yordam ko’rsatish zamonaviy tyutorning vazifalari sirasiga kiradi.

Ko’plab tadqiqotchi va mutaxassislar tyutorlikni qo’llab-quvvatlash uzluksiz ta’lim tizimida o’ziga xos murabbiylikni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biri, deb ta’kidlamoqda. Ayni paytda tyutorlik ilg’or pedagoglar tomonidan tatbiq etilayotgan innovatsion pedagogik faoliyatlardan biri sifatida ham e’tirof etilyapti. SHu bois, yurtimizda tyutorlik faoliyatiga qiziqishning ortishiga ko’p omillar sabab. SHulardan biri, oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik texnologiyalarini qo’llash ehtiyojining yuzaga kelgani bo’lsa, yana biri, tyutorlik g’oyalari davlat ta’lim dasturlariga kiritila boshlanganidir.

Adabiyotlar:

1. Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to’g’risidagi Namunaviy Nizom.

2. Tyutor - talaba uchun ko‘makchi-Yangi O’zbekiston gazetasi.7-iyun.2021yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Oliy ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi, tyutor vazifasini bajaruvchi shaxs faoliyatiga oid nazariy masalalar haqida mulohazalar bayon etilgan. Maqolada tutor vazifasida faoliyat olib boruvchi shaxsning faoliyatiga oid vazifalari mazmuni va maqsadi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены теоретические вопросы, связанные с деятельностью лица, работающего тьютором в организациях высшего образования. В статье раскрывается содержание и цель должностных обязанностей тьютора.

SUMMARY

This article discusses theoretical issues related to the activities of a person working as a tutor in higher education organizations. The article reveals the content and purpose of the job duties of a tutor.

ZAMONAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARI ASOSIDA TEXNIKA YO‘NALISHI TALABALARIGA MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Ulkanov S.S.
Andijon mashinasozlik institute tayanch doktoranti

Tayanch so’zlar: didaktik material, konseptual, muhandis, texnika, texnologiya, ta’lim.
Ключевые слова: дидактический материал, понятийный, инженер, техника, технология, образование.
Key words: didactic material, conceptual, engineer, technique, technology, education.

Oliy ta’lim muassasasi texnika yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlari shundaki, tayyorlanayotgan mutaxassislarning texnik, kasbiy faoliyati bevosita muntazam takomillashib borayotgan texnika va texnologiyalardan foydalangan holda murakkab masalalarni yechishga, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Shu bois texnika yo‘nalishida kasb ta’limi paradigmasi tubdan farqlanadi, ya’ni uning maqsadi, mazmuni, boshqarish tamoyili yangilanayotgan ishlab chiqarish tizimiga egiluvchan tarzda moslashib boradi. Texnika yo‘nalishida kasb ta’limi paradigmasini rivojlantirish yo‘nalishlari qanday? Bu savolga quyidagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlar yordamida javob topish mumkin (1-jadval).

1 – jadval

Texnika yo‘nalishida kasb ta’limi paradigmasini rivojlanish yo‘nalishlari

Paradigma / Elementlar	Mavjud paradigma	Amalga oshadigan rivojlanish
Insonning bosh vazifasi	Mavjud olamni anglash	Olamni maqsadli anglash
Faoliyatning ilmiy asosi	Tabiiy-ilmiy metod	Yaratuvchan amaliyot nazariyasi
Namunaviy texnik-texnologik masalalarga ega	Faqat birgina to‘g‘ri yechim	Yo‘l qo‘yiladigan yechimning ko‘pligi
Yechimni baholash mezonlari	Faqat bitta: “to‘g‘ri-noto‘g‘ri”	Mezonlarning ko‘pligi: foydali, samarali, sifatli, xavfsiz
Etika, axloq va axloqiylik o‘rni	Ularga o‘rin va zarurat yo‘q	Yechimni tanlash uchun zarur

Ta'limning bosh maq-sadi	Mavjud olam va uning qonuniyatlari haqida bilim berish	Dunyoni ijodiy o'zgar-tirish metodologiyasi bilan qurollantirish
Shaxsni ma'naviy shakllantirish imko-niyati	Gumanitar ta'lim orqali, faqat alohida holatlarda	Faoliyat jarayonida to'liq va maqbul amalga oshirish

Taklif etilayotgan ushbu konseptual yonashuvni insonparvar deyish mumkin, chunki, uning markazida inson, uning ma'naviy rivojlanishi, qadriyatlar tizimi turibdi. Bundan tashqari, ta'limning yangi konsepsiyasi ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini taqozo etmoqda, shaxsda kasbiy, axloqiy, irodaviy va ijodiy fikrlash sifatlarini shakllantirish vazifasini qo'ymoqda.

Ta'limni yangi konsepsiyasi bo'yicha xorijiy bir nechta davlatlar ham shu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Rasm 1. Ta'limni yangi konsepsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib borayotgan davlatlar

Biz xaritani tuzishda dastlab, scopus bazasidan ta'limni yangi konsepsiyasi ustida ish olib boruvchi olimlarning maqolasini tahlil qilish orqali bu xaritani tuzdik. Biz qo'shimcha Vosviewer dasturi ham tahlil qilish uchun foydalandik.

Hozirgi vaqtda ish beruvchilar uchun mutaxassislarda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki quyidagi shaxsiy sifatlarning mavjudligini ham muhim: mustaqil fikrlash va turli masalalarni mustaqil hal etish; tanqidiy va ijodiy fikrlash; ijtimoiy-gumanitar bilimlarni chuqur egallaganlik, so'z lug'ati zahirasining mavjudligi; o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga tez moslashuvchanlik; egallagan bilimlarini amaliyotga qo'llash; mustaqil tanqidiy fikrlash, yuzaga keladigan muammoni ko'ra olish, zamonaviy o'quv zamonaviy didaktik vositalaridan(O'ZDV) foydalanish; muammolarni yechish yo'llarini bilish; yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyati; axborotlar bilan ishlash malakasi; muloqotmandlik va boshqalar.



2-rasm. Didaktik vositalar va ta'limni yangi konsepsiyasi ustida ish olib boruvchi davlatlar. [Vosviewer dasturi yordamida]

Ammo, shaxsiy sifatlarni shaklllantirishda yangi tashkiliy va metodik yondashuvlar talab etiladi. Demak, yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq etish dolzarb pedagogik tadqiqot ob'yektiga aylanmog'i zarur. Shubhasiz, loyihalanilayotgan har qanday texnologiya bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati bilan aloqador bo'lishi talab etiladi.

Demak, Texnika yo'nalishi talabalari muhandislik fanlarini O'ZDV lar asosida o'rganish, eng asosiy masalani hal etishga, ya'ni jahon standartlari talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilishi kerak. Muhandislik fanlarini an'anaviy va O'ZDV lar asosida o'rganish tizimlari o'rtasida farqni ko'rsatish maqsadida ularni qiyosiy tahlil etish natijalarini 2-jadvalda ko'rsatilgan.

2-jadval

Muhandislik fanlarini o'qitishning an'anaviy va O'ZDV lari asosida o'rganish tizimlarining qiyosiy tahlili

Muhandislik fanlarini o'qitishning an'anaviy tizimi	Muhandislik fanlarini O'ZDV asosida o'rganish tizimi
O'qituvchi va talabaning o'zaro munosabati darajasida	
Talaba – ob'yekt, "axborotni qayta ishlovchi". Uning sub'yektivligi ko'p holda shunchaki rasmiyatchilik uchun namoyon etiladi. Pedagog - sub'yekt, faol faoliyat ko'rsatuvchi shaxs	Talaba – ob'yekt, tashabbuskorlik va mas'uliyat bilan faoliyat ko'rsatuvchi shaxs. Pedagog - maslahatchi, yordamchi, "tarmoqni tashkil etuvchi", qoidalarni sharhlovchi.
Tamoyillar darajasida	

Onglilik va faollik talabalarda o‘rganiladigan o‘quv materialiga mustaqil yondashuni shakllantirishni talab etadi; bilimlar ongli ravishda o‘zlashtiriladi	Talabalarning ongliligi va faol-ligi individual o‘qish bilan maksimal darajada uyg‘un; bilim-larni baholashning ball-reyting tizimi yordamida operatsion va motivatsion faollik kuchaytiriladi.
Tushunarlilik ta’lim mazmunini talabalarning qiziqishi, indivi-dual xususiyatlari hisobga olgan holda tanlash, orqali ta’minlanadi	Ta’limning tushunarlilik tamoyi-lini joriy etish, fanlarni o‘rga-nish ketma-ketligini mustaqil tan-lash asosida o‘qishning individual trayektoriyasini yaratishni nazarda tutadi.
Ko‘rgazmalilik o‘quv-ko‘rgazmali qo‘llanmalarni keng rivojlantirish va qo‘llash vositasida amalga oshiriladi	Ko‘rgazmalilik O‘ZDV lari doimiy ravishda qo‘llash, bosma hamda elektron shakldagi zarurуriy o‘quv va metodik materiallar bilan to‘la ta’-minlash orqali amalga oshiriladi.
Kasbiy yo‘nalganlik kasbiy faoliyat asoslari aks etgan o‘quv faoliyati mazmuni orqali ta’minlanadi	Kasbiy yo‘nalganlik o‘quv jarayonida kelgusidagi kasbiy faoliyatning ijtimoiy kontekstini maqsadga yo‘naltirilgan holda modellashtirish orqali amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizkki, bo‘lajak muhandislarni O‘ZDV lar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta’limning gumanistik g‘oyalarga tayanish lozim. Bu yerda gap, eng avvalo, ularda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish haqida ketmoqda, ya’ni talabalar nafaqat texnik vositalar, bilan muloqotga kirisha olish va ma’naviy aloqa o‘rnata bilish, ularga ijtimoiy (pozitiv) psixologik ta’sir ko‘rsatishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning konseptual asoslari tarbiyaviy tashkil etuvchidan tashqari muhandislik fanlarning eng so‘nggi yutuqlariga tayangan holda, maxsus kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishni ham qamrab oladi. Bunday sifatlarga ega talabalarning kasbiy mahorati ancha yuksak bo‘ladi. Turli darajadagi va ixtisoslikdagi muhandislarni rivojlantirish tajribalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining axloqiy mas’uliyati va ma’naviyati qanchalik yuksak bo‘lsa, ular maxsus kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ham shunchalik daraja yaxshi o‘zlashtiradilar. Amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalar talabalarning o‘qish jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash va aniq muammolarni yechishning amaliy ko‘nikmalarini egallash orqali shakllanadi. Amaliyot o‘z maqsadiga ega bo‘lib, kasbiy bilimlarni tizimlashtirish, kengaytirish va mustahkamlash, talabalarda

mustaqil ilmiy ish, tadqiqotchilik va tajribalar o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarning kasbiy-amaliy tayyorgarligi tizimi uzoq va ko‘p bosqichli pedagogik jarayon bo‘lib, bu jarayonda bo‘lajak mutaxassislarda integrativ sifatlar shakllanadi.

O‘qitish texnologiyasini takomillashtirish - ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili. Shuning uchun bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisi o‘quv jarayonini tashkil etish haqidagi bilimlarni puxta egallashlari kerak. Bo‘lajak muhandislarga o‘quv jarayonini texnologiyalar, kompterli o‘rganish vositalari asosida tashkil etish haqidagi bilimlar tizimi zarur. O‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan har qanday texnik vosita, shu jumladan, O‘ZDV lar turli maqsadlarda foydalaniladi.

Muhandislik fanlarni o‘rganish jarayoniga O‘ZDV larini qo‘llashda o‘qitish shakli e’tiborga olinadi. O‘rganishning zamonaviy shakli invariant tuzilishga ega va quyidagi bos-qichlarda amalga oshiriladi: tayanch bilimlarni faollashtirish; yangi bilim va faoliyat usullarini shakllantirish; bilimlarni amalda qo‘llash; amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

“O‘qitishni faollashtirish” bosqichida talabalarning O‘ZDV lar yordamida zaruriy tayanch bilim va faoliyat usullarini eslashlariga imkon yaratib beriladi. Natijada muhandis bilimining faollashganlik darajasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu o‘qitishning keyingi bos-qichida muvaffaqiyotga erishish uchun asos bo‘ladi. Keyingi bosqichda esa talabaga mavzu bo‘yicha yangi bilimlar beriladi.

“Qo‘llash” bosqichida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisi mustaqil faoliyatga to‘liq yo‘naltiriladi. Ular o‘zlashtirgan bilimlariga asoslanib, amaliy topshiriqlarni bajaradi.

Mashg‘ulotning yuqorida qayd etilgan tuzilmasi didaktik tuzilma - deb ataladi. Mashg‘ulotning didaktik tuzilmasi bilan birga psixologik tuzilmasi ham mavjud. O‘ZDV lar asosida tashkil etiladigan mashg‘ulot uchun quyidagi psixologik tuzilmani taklif etish mumkin: mashg‘ulot jarayonida talabalarning diqqat-e’tiborini boshqarish; amalga oshiriladigan o‘quv faoliyatining ma’no-mazmunini oydinlashtirish: hamorlikda maqsad qo‘yish; muammoni, ya’ni amalga oshiriladigan faoliyat maqsadini ifodalash; o‘quv faoliyati tizimlarini shakllantirish; ish faoliyatini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish; o‘zining o‘quv faoliyati jarayonini va uning natijalarini baholash.

O‘ZDV lar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulot samaradorligi ko‘p omillarga bog‘liq. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: o‘quv materiali mazmuni, mashg‘ulotni o‘tkazish shakli, o‘qitish metodi, talabalarda intellektual, motivatsion va boshqa sohalarning faol rivojlanish darajasi, muhandisning metodik mahorat darajasi hamda pedagogik dasturiy vositalarni tanlash va qo‘llash ko‘nikmasi.

Endilikda boshqarishning faqat avtoritar usuliga tayanilgan o‘qitish, illyustrativ-tushuntirish metodlari va dalillarga asoslangan bilimlarni mexanik ravishda o‘zlashtirish zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Shuning uchun ham bo‘lajak muhandislarni intellektual rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri bu – o‘quv jarayonida O‘ZDV lardan foydalanish. Bunda produktiv metodlar, ya’ni muammoli bayon etish, evristik, tadqiqotchilik usullarini qo‘llash orqali talabalar ijodiy fikrlashga o‘rgatiladi. Ularning ijodiy fikrlash ko‘nikmalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ma’lumotlarni tahlil qilish; muammoli masalalarni yecha bilish; vaziyatlar haqida fikr bildirish; masalani yechishning rasmiy usulini tushunish va undan foydalanish. bo‘lajak muhandislarda bunday ko‘nikmalar dasturlar ishlab chiqish va ularni amaliy qo‘llash jarayonida shakllanadi. Shu bois, o‘quv materiallarini o‘rgatish jarayonida nafaqat talabalarning bilimlarni puxta o‘

Texnika fanlarini muhandislarga o‘qitishda O‘ZDV larni qo‘llash asosida ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: ta’lim muassasalarida O‘ZDV lar (o‘rgatuvchi dasturlar, multimedia vositalari, tayanch ma’lumotlar va boshqalar)ning mavjudligi; ta’lim sub’yektlarining yangiliklarni o‘zlashtirishga, Texnika fanlarni o‘qitishda O‘ZDV larni qo‘llashga psixologik-pedagogik tayyorgarligi; ta’limning yangi maqsadlari va jamiyatda sodir bo‘layotgan axborotlashtirish jarayonini e’tiborga olib, o‘quv predmetlari bo‘yicha integrativ kurslar yaratish.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak muhandislarning shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida texnika fanlarni o‘qitishda O‘ZDV lardan foydalanilganda qator ijobiy natijalarga erishiladi. Jumladan: o‘quv faoliyatining yangilanishi hisobiga talabalarda bilim olishga motivatsiya kuchayadi; bo‘lajak muhandislarning mantiqiy fikrlashi faollashadi; bo‘lajak muhandislarning o‘rgatuvchi dasturlar asosida individual holda ta’lim oladilar; bilish jarayonida har bir bo‘lajak muhandislarning mustaqilligi va faolligi ortadi; tezkor holda treninglar, so‘rovnomalar o‘tkaziladi; o‘qitish natijasini baholash xolisligi ortadi; tabaqalashtirilgan ta’lim va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv amalga oshiriladi; bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisida ijodiy ishlash, loyihalash, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi, o‘quv faniga qizishi ortadi.

O‘qituvchilar uchun ham foydali yani texnika fanlarni o‘qitishda O‘ZDV lari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish dolzarb pedagogik muammolardan hisoblanadi. Axborot oqimining hajmi ortib borayotgan hozirgi sharoitda O‘ZDV lari samarali tashkil etib bo‘lmaydi. O‘quv axborotini AKT lar yordamida to‘plash, qayta ishlash va taqdim etish quyidagilarga imkon beradi: axborotlardan foydalanish; statistik tahlil, ta’lim jarayoni holatini baholash va prognozlashtirish; ta’lim jarayonidagi tendensiyalarning rivojlanishini kuzatish,

ta’lim mazmunini loyihalash; metodik tizimlarni yaratish; talabalar bilimini tekshirish va baholash; ta’lim jarayonini boshqarish.

Texnika fanlarni o‘qitishda O‘ZDV lardan foydalanilganda ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish sifat jihatdan mutlaqo yangi bos¬qichga ko‘tariladi. Texnika fanlarni o‘qitishda O‘ZDV lardan foydalanish ta’lim jarayonini ma’lum darajada optimallashtiradi. Uning axborot va metodik ta’minotini yaratishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, O‘ZDV lar ta’lim jarayonini bosh¬qarishda juda qo‘l keladi. Shunday bo‘lsada, eng asosiy maqsad ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish emas, balki ular vositasida ta’lim samardorligini oshirish va aniq natijaga erishishdir. Shu bois, o‘qitishning O‘ZDV lardan foydalanish strategiyasi, usul va metodlarini belgilashda ularning boshqaruv sifati va tezkorligini oshirishga imkon beruvchi asosiy vosita ekanligi hisobga olinadi. Shubhasiz, ularni amalda qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb masalalarni yechishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Askarov I.B. Basic stages of process of preparation to researchactivity of preparation of future professional education teachers. Eastern Evropean Seintific Journal. Germany, 2016. №-5. – P. 93-100.

2. Асқаров И.Б., Турматов Ж.Т. Олий таълим муассасаларида бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тадқиқотчилик фаолиятига тайёрлаш методикаси. - Т.: GOLD PRINT NASHR., 2018. – 80 б.

3. Жумаев М.Э. Ўқув жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг педагогик маданиятини тарбиялаш:. Пед. фан. ном. ... дисс.: - Т.: 1999. -137 б.

4. Мухина М.В. Развитие технического мышления у будущего учителя технологии и предпринимательства средствами системы познавательных заданий. Дисс. канд. пед. наук. - Н. Новгород. - 2003. -210 с.

5. Левитес Д.Г. Авто дидактика. Теория и практика конструирования собственных технологий обучения-М.: РАО МПСИ, 2003 г. - 320 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va vositalari asosida texnika yo‘nalishi talabalariga mutaxassislik fanlarini o‘qitishning konseptual asoslarini tuzish shuningdek, respublikamiz oliy ta’lim tizimiga joriy etishning zarurati haqida so‘z boradi. Shu bilan bir qatorda, didaktik vositalarni joriy qilishda konseptual asoslari haqida ma’lumot keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о необходимости создания концептуальной основы преподавания технических предметов студентам технических специальностей на основе современных технологий и средств обучения, а также о необходимости их внедрения в систему высшего образования нашей республики. Кроме того, дается информация о концептуальной основе внедрения дидактических средств.

SUMMARY

This article talks about the need to create a conceptual framework for teaching technical subjects to technical students based on modern teaching technologies and tools, as well as the need to introduce them into the higher education system of our republic. In addition, information about the conceptual basis of the introduction of didactic tools is given.

ЭВРИСТИК ТОПШИРИҚЛАР ЁРДАМИДА ИЖОДИЙ ВАЗИФАЛАРГА ЕЧИМ ТОПИШ ОРҚАЛИ БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Қодиров Ғ.Ў.
ЎзПФИТИ мустақил тадқиқотчиси, доцент

Таянч сўзлар: бўлажак ўқитувчи, касбий компетенциялар, касбий билимлар, эвристик топшириқлар, педагогик тафаккур, ижодий тафаккур, мантиқий фикрлаш.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональные компетенции, профессиональные знания, эвристические задания, педагогическое мышление, творческое мышление, логическое мышление.

Key words: future teacher, professional competencies, professional knowledge, heuristic assignments, pedagogical thinking, creative thinking, logical thinking.

Ҳар бир шахсда бетакрор идрок, тасаввур ва ҳукм чиқариш кўникмаларининг ривожланиши бевосита таълим жараёнида амалга ошади. Бу кўп жиҳатдан таълим олувчиларнинг интуитив тафаккури юқори даражада ривожланганлигидан далолат беради. Бундай инсонлар ижодкор шахс сифатида баҳоланади. Ижодкор шахснинг асосий белгиларидан бири ғояларнинг генерациялаш лаёқатига эгалигидадир.

Бугунги кунда ҳам барча бўғиндаги таълим муассасаларида ҳам ўқувчи ҳамда талабаларнинг ғояларинни генерациялаш лаёқатини ривожлантиришга етарлича эътибор қаратилмаяпти. Кузатишларимиз шуни кўрсатмоқдаки, профессор-ўқитувчилар топшириқларнинг мантиқий ечимини излашга талабаларнинг йўналтиралидагн топшириқларга эътибор қаратиб келмоқдалар. Ижодий топшириқларни ечиш жараёнида ҳам талабаларни мантиқий фикрлаш имкониятини кенгайтиришга йўналтирлган педагогик жараёнлар ташкил этилади. Агар ижодий топшириқларни ечишнинг педагогикада маълум бўлган методларини етакчи принципларга асоланган ҳолда гуруҳларга ажаратилса, уларга мувофиқ келадиган фаолият турлари таснифланса, улар иккита катта гуруҳни ташкил этади.

1. Мантиқий фикрлашга ундовчи методлар. Ушбу метод доирасида талабалар таҳлил қилиш, қиёслаш, умумлаштириш, таснифлаш, индукция, дедукция каби фаолият усулларини амалга оширадилар.

2. Эвристик методлар.

Эвристик методнинг ўзига хос жиҳатларини чуқур англаш учун сўзлар воситасида бир қатор тизимлашга қоидаларни тақдим этиш мумкин. Бунда асосан эвристик характердаги муайян топшириқларни бажариш учун қандай ҳаракатларни амалга ошириш ҳамда мазкур жараёнда нима қилиш лозимлиги ҳақидаги тасаввурлар кенгайтирилади. Фаолият қоидаларининг ранг-баранг тўпламини иккита катта гуруҳга ажратиб кўрсатиш мумкин: а) алгоритмлар ёки эвристиканинг алгоритмлардан иборат тўплами, б) эвристик кўрсатмалар яъни ҳаракат усулларини танлаш ҳақидаги тавсияларни ўз ичига олади. Бу жараёнда эвристика муаммоларни излаш имкониятини кенгайтиради, унинг тактик ва стратегиясини кўрсатади, бироқ ушбу йўналишда талабанинг муваффақият қозонишини кафолатланмайди.

Ижодий топшириқларни ечишнинг эвристик методлари деганда, қоидалар ва пинциплар тизими тушунилади. У талаб фаолиятининг қатъий тактикалари ва стратегияларини ўзида мужассамлаштириб, уларнинг интуитив тафаккурини муаммоларга ечим топиш жараёнига йўналтиради. Ғояларни генерациялаш асосида муайян тукумдаги ижодий топшириқларни ечиш жараёнини жадаллаштиради.

Ижодий топшириқларни бажариш қоидалари эвристик қоидалар сифатида эътироф этилади. Алоҳида ажратиб олинган ижодий топшириқларни бажариш қоидаси эвристика деб аталади.

Эвристика ва эвристик қоидаларинг маҳсулдорлиги ҳақида фикр юритилганда ихтирочилик ва рационализаторлик фаолияти назарда тутилади. Бироқ, аксарият, ҳолларда ушбу атамалар ўз ўрнида қўлланилмайди. Бу эса эвристик топшириқлардан педагогик амалиётда фойдалнишда мураккаблаштиради. Шунинг учун ҳам талабаларни ижодий топшириқларни бажаришга одатлантириш орқали уларда касбий компетенциялар шакллантирилади. Олий педагогик таълим жараёнида бўлажак ўқитувчиларнинг эвристик топшириқлар устида ишлаш фаолиятини тизимли ташкил этишда синов ва хатолар методидан фойдаланиш маҳсулдорликни таъминлаш имконини беради. Рус ва хориж педагогикасида синов ва хатолар методи асосан талабаларда ихтирочилик кўникмаларини таркиб топтиришда қўлланилган (Буша Г.Я., Г.С. Альтшуллера). Бу жараёнда мутахассислар ақлий ҳужум ва сине ктика методларидан фойдаланишни тавсия этганлар.

Маълумки ақлий ҳужум методи амераклик мутахассис А. Ф. Осборном томонидан педагогик муоммалага кирилган. Эвристик диалог эса таълим олувчиларнинг ақлий фаолиятини жадаллаштиришга кўмаклашиб, бир қатор педагогик-психологик қонуниятларга таянилган ҳолда амалга оширилади. Кузатишларимиз шуни кўрсатадики, талабалар якка тарздан кўра ғоя-

ларни гуруҳ бўлиб осонгина генерациялашга муваффақ бўладилар. Одатий вазиятларда бўлажак ўқитувчининг ижодий фаоллиги очиқ ёки яширин тарзда мавжуд бўлган педагогик ҳамда психологик тўсиқларни енгиб ўтиш натижасида шаклланади. Мазкур вазиятни "шлюза" модели ёрдамида ифодалаш мумкин Ушбу модел доирасида бўлажак ўқитувчиларнинг эвристик топшириқларни ечиш жараёнидаги ўзаро муносабатлари, диалоглари, ҳамкорликдаги фаолияти, фикр алмашиниши намоён бўлади. Талабанинг ижодий фаоллиги ушбу модел доирасида яққолроқ намоён бўлади. Талабалар синов ва хатоларга дуч келганларида уларда шаклланган касбий компетенцияга таянган ҳолда ҳаракатланадилар. "Шлюза" моделида ўзаро муносабтлардаги босимлар, талабанинг гуруҳдаги обрў-эътибори, мавқеи, анъаналар, одатлар, ижобий ҳис-туйғуларнинг намоён бўлмаслиги ҳам муҳим аҳамият касб этади. Талабалар орасидаги диалог, ўзаро фикр алмашиниш, ақлий ҳужум вазиятлари эса ижодий топшириқларни бажариш жараёнида тўсиқларни бартараф этиб талабаларнинг фаоллик кўрсатишларини таъминлайди.

Бугунги кунга келиб ақлий ҳужум модификациялаштирилган бир неча вариантлари мавжуд.

Тўғридан тўғри мияга ҳужум. Ушбу метод доирасида ғояларни жамоа бўлиб генерациялаш асосида ижодий топшириқларга ечим изланади. Ушбу методнинг қўллашдан кўзланадиган асосий мақсад ғояларни имкон қадар кўпроқ тўплаш, тафаккурни иннерциядан холос қилиш, ижодий топшириқларни бажариш жараёнида дастлабки фикрнинг ҳаракатланишини бартараф этиш тушунилади. Ушбу методни қўллаш жараёнида эътибор қаратиладиган асосий ҳолат талабалар томонидан тақдим этилган ғояларни танқид қилишга йўл қўймаслик, шунингдек, ҳазил мутойибаларни рағбатлантиришдан иборат. Ушбу методни муваффақиятли қўллаш кўп жиҳатдан талабаларнинг мунозара жараёнларини бошқарадиган профессор-ўқитувчининг касбий маҳоратига боғлиқ.

Профессор-ўқитувчи мунозаранинг йўналиши белгилаб бериши, унинг самарали кечишини таъминлаши лозим. Шунингдек талабалар олдига йўналтирувчи саволлар қўйиши, уларга кўмаклашиш учун қулай шароит яратиши, ҳазил-мутойиба ва репликалардан унумли фойдалана олиши талаб этилади. Гуруҳ аъзолари 5 тадан 10 тагача бўлиши мумкин. Талабалар гуруҳининг аъзолари турли туман ёндашувларни илгари суриши, кўплаб ғояларни тақдим эта олишлари фаол мулоқотга кириша олишлари диалог вазиятларига киришиш мотивларига эга бўлишлари лозим. Мияга тўғридан тўғри ҳужум вазиятлари 15 дақиқадан ярим соатгача давом этиши мумкин. Ғоялар белгилаб қўйилган экспертлар томонидан танлаб олинади, сарала-

нади ва икки босқичдан баҳоланади. Экспертлар дастлаб, бетакрор, унумли ғояларни танлаб оладилар, ундан кейин эса оптимал ғояларни саралашга ҳаракат қиладилар.

Оммавий тарзда мияга ҳужум методи. Талабалар гуруҳида янги ғояларни генерациялаш самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Ушбу метод дастлаб америкалик мутахассис Дж. Дональд Филипс томонидан қўлланилган. Модификциялашган ушбу методнинг ўзига хос жиҳати шундаки, аудиториядаги талабалар кичик гуруҳларга бўлиниб ишлайдилар. Охиргиси кичик гуруҳ тўғридан тўғри мияга ҳужум қилиш мақсадида сессия ташкил қилади. Кичик гуруҳ аъзоларининг фаолияти турли туман бўлиши мумкин. Профессор-ўқитувчилар томонидан уларнинг фаолият кўрсатиши учун ажратилган вақт белгилаб қўйилади. Кичик гуруҳларнинг аъзолари томонидан тақдим этилган ғоялар генерациялаштирилгандан кеийн баҳоланади. Шундан кейин бетакрор ғоялар ажратиб олинади.

Диалогга асосланган мияга ҳужум методи. Диалогнинг ўзига хос жиҳатлари шундаки, у талабаларнинг ижодий имкониятларини рўёбга чиқариб, уларнинг биргаликда тақдим этган ғояларини генерациялаш имконини беради.

Диалог жараёнида босқичма-босқич қуйидаги ҳаракатлар амалга оширилади:

1. Психологик ҳамда сон жиҳатдан мувофиқлик асосида кичик гуруҳлар шакллантирилади.

2. Муаммоли вазиятларни таҳлил қилишга мўлжалланган талабалар гуруҳи шакллантирилади, умумий кўринишдаги дастлабки ижодий топшириқлар шакллантирилади, диалог жараёнининг барча иштирокчилари ижодий топшириқларнинг бажарилиш сифатини баҳолаш ҳақида хабардор қилинади.

3. Тўғридан тўғри мияга ҳужум методи асосида жараён иштирокчилари томонидан тақдим этилган ғоялар генерация қилинади. Бунда ижодий жараёнларга алоҳида эътибор қаратилади.

4. Ғояларни тизимлаштириш ва таснифлаш. Ушбу ўринда бирлаштириш бўлган ғоялар ўрганилади ва мазкур белгилар асосида таснифланиб гуруҳларга ажратилади. Муайян гуруҳга мансуб ғоялар кўрсатилади, улар қайси принципга мансублигига кўра кичик гуруҳларга ажартилади. Шу асосда ижодий топшириқларни бажаришга оид ёндашувлар танланади.

5. Ғояларнинг таркибан бузилиши, бир тартибдан иккинчисига ўтиши. Бунда амалиётга татбиқ этиладиган ғоялар баҳоланади. Ушбу ўринда мияга ҳужум асосан илгари сурилган ғояларни амалиётга татбиқ этишга тўсқинлик қиладиган ҳолатларга қаратилади.

6. Олдинги босқичларда талабалар томонидан айтилган танқидий фикрларни баҳолаш ҳамда амалиётда қўлланиладиган ғояларнинг рўҳатини тузиш. Танқидий фикрларни баён жараёнида инкор қилинмаган ҳоллардагина мазкур рўйҳатга киритилади.

Барча талабалар юкламаларни тенг тақсимланган ҳолда эвристик топшириқларни бажарганларидагина педагогик жараённинг самарадорлиги таъминланади. Талабалар томонидан илгари сурилган барча ғоялар уч гуруҳга ажратилади. 1) генерациялаштирилган ғоялар; 2) муаммоли вазиятларни таҳлил қилиш асосида баҳоланган ғоялар; 3) оптималлаштирилган ғоялар.

Бетакрор ғояларни жамоа бўлиб излаш методи бир қатор педагогик-психологик қонуниятларга таянади.

1. Бўлажак ўқитувчиларнинг эвристик топшириқларни ечишда ўзаро ҳамкорликка киришишлари. Педагогик жараёнга раҳбарлик қилаётган профессор-ўқитувчи мулоқотнинг демократик усули қўллаган ҳолда талабаларнинг бетакрор ғояларини рағбатлантиради, кутилмаган ассоциацияларни амалга оширади, бетакрор ғоялар туғилиш учун талабаларни креатив фаолик кўрсатишга йўналтиради, ўзи ҳам мазкур ғояларнинг ҳаммуаллифи сифатида намоён бўлади. Бунинг профессор-ўқитувчиларда ижодий ҳамкорлик ва шахслараро муносабатлар юқори даражада ривожланган бўлиши лозим. Шунда талабаларнинг эвристик характердаги ижодий топшириқларни бажариш имкониятлари кенгаяди.

2. Бўлажак ўқитувчиларнинг ўзаро бир бирларининг лаёқатлари ва ижодий имкониятларига бўлган ишонч билан ёндашишлари ҳам ушбу мақсадга йўналартирилган педагогик жараённинг асосий қонунияти ва муҳим принципларидан бири ҳисобланади. Мазкур жараёнда барча талабалар ўзаро тенглик асосида ижодий ҳамкорликка киришадилар. профессор-ўқитувчилар эса уларни қўллаб-қувватлаб энг кичик ташаббусларини ҳам рағбатлантиради.

3. Талабаларнинг интуициялари ва мантиқий фикрлашларини муваффақиятли уйғунлаштириш принципи алоҳида аҳамиятга эга. Оптимал ғояларни генерациялашга йўналтирилган педагогик вазиятларда мантиқий фикрлаш ва ҳар қандай интуициянинг секинлашиши кузатилади. Бу эса муайян даражада айрим қоидаларга эътибор қаратишни талаб қилади, масалан ҳар қандай танқидга йўл қўймаслик генерациялашган ғояларни зудлик билан мантиқий ҳамда танқидий баҳолашга чек қўйиш кабилар.

Бетакрор ғояларни жамоа бўлиб излашнинг афзаллиги шундаки, у талабалар гуруҳининг барча аъзолари орасида тенгликка эришишни таъминлайди, авторитар услубда фаолият кўрсатаётган профессор-ўқитувчилар бундай топшириқларни қўллай олмайдилар. Бундай топшириқларни бажариш

жараёнида талабалардаги ялқовлик, мунтазам бир ҳилда фикрлаш, рационализм, ҳиссий жўшқинлик кабиларга чек қўйилади. Аудоториядаги қулай педагогик-психологик муҳит бўлажак ўқитувчиларни идроки ва интуициясини ривожлантириб, ижодий фаоллик кўрсатишлари учун қулай шароит яратади.

Ушбу методнинг асосий камчилиги эса уни қўллаш натижасида талабалар ижодий ғояни умумий тарзда топишлари лозимлигидадир. Чунки ушбу метод ғоялар устида батафсил устида ишлаш имконини бермайди. Шунинг учун ҳам у профессор-ўқитувчиларда алоҳида педагогик маҳорат: акмеологик фаолликни талаб қилади. Бўлажак ўқитувчиларнинг импровизация ва ҳазил-мутойибга лаёқатлиликлари аудиториядаги педагогик-психологик муҳитга ижобий таъсир кўрсатади. Ушбу методни қўллаш жараёнида талабалар тафаккуридаги тўсиқларни бартараф этишга эришиш имконисиз. Чунки эвристик характердаги ижодий топшириқларни ечишда, бир қатор ишончли усуллар, методлар, воситаларнинг нотўғри қўлланиши вужудга келади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. https://lex.uz

2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сон фармони. https://lex.uz

3. Авалиани Г.В. Эвристические методы в распознавании образов. - Тбилиси, 1988. - 45 с.

4. Аверин В. А. Психическое развитие детей младшего школьного возраста: Учеб. пособие С.Пб.: Изд-во Михайлова В. А., 2000. - 64 с.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада эвристик топшириқлар ёрдамида бўлажак ўқитувчиларда идрок, тасаввур, ҳукм чиқариш ҳамда ижодий тафаккурни ривожлантириш имкониятлари ҳақида маълумот берилган. Шунингдек педагогик тафаккур, унинг шаклланиши ва ривожланиши ҳақида ҳамда эвристика ва эвристик қоидаларнинг маҳсулдорлиги ҳақида фикрлар баён этилган. Бўлажак ўқитувчиларда ижодий тафаккурнинг ривожланиши ўзига хос йўналишлари, педагогик ходисалар устида фикрлаш, таҳлил қилиш, қиёслаш, умумлаштириш, баҳолаш ва эмпатия жараёни тавсифланган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о возможностях развития восприятия, воображения, суждения и творческого мышления у будущих учителей с помощью эвристических задач. Имеются также мнения о педагогическом мышлении, его формировании и развитии, о продуктивности эвристик и эвристических правил. Описаны конкретные направления развития творческого мышления у будущих учителей, процессов рефлексии, анализа, сравнения, обобщения, оценки и сопереживания педагогическим явлениям.

SUMMARY

This article provides information about the possibilities of developing perception, imagination, judgment and creative thinking in future teachers with the help of heuristic tasks. There are also opinions about pedagogical thinking, its formation and development, and about the productivity of heuristics and heuristic rules. Specific directions of development of creative thinking in future teachers, reflection, analysis, comparison, generalization, evaluation and empathy process on pedagogical phenomena are described.

AQLI ZAIF BOLALARNI O'QITISH: STRATEGIYALAR, MUAMMOLAR VA ENG YAXSHI AMALIYOTLAR

Otebaeva A. O.
Toshkent davlat pedagogika universiteti doktaranti

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, aqli zaif bolalar, intellekt, yondoshuvlar.
Ключевые слова: инклюзивное образование, умственно отсталые дети, интеллект, подходы.
Key words: inclusive education, mentally retarded children, intelligence, approaches.

Kirish: Intellektual faoliyat va moslashuvchan xulq-atvordagi cheklovlar bilan tavsiflangan intellektual nogironlik (ID) ta'lim sohasida jiddiy tashvish tug'diradi. Ilgari «aqliy zaiflik» deb atalgan bu holat odamlarning o'rganish, muloqot qilish va kundalik faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Aqliy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitish har bir shaxsning salohiyatini qadrlaydigan inklyuziv va adolatli jamiyatni yaratishning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu maqola identifikatorli o'quvchilarni o'qitish bilan bog'liq muammolar, strategiyalar va eng yaxshi amaliyotlarni o'rganib chiqadi, moslashtirilgan yondashuvlar va hamkorlikdagi sa'y-harakatlarning muhimligini ta'kidlaydi.

Tarixiy kontekst:Tarixiy jihatdan, aqliy nuqsonlari bo'lgan shaxslar ko'pincha asosiy ta'lim muassasalaridan chetlashtirilgan va mustaqil hayot uchun muhim ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlaridan mahrum bo'lgan. Mavjud tibbiy model diagnostika va ajratishga qaratilgan bo'lib, cheklangan ta'lim istiqbollari siklini davom ettirdi. Biroq, 20-asrning o'rtalarida nogironlar huquqlari harakati paydo bo'lishi bilan landshaft o'zgara boshladi. Bu harakat teng huquqlilik, ta'lim olish imkoniyati va nogironlarning jamiyatdagi ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan to'siqlarni bartaraf etish tarafdori edi.

Paradigma o'zgarishi:Alohida va defitsitga asoslangan yondashuvdan inklyuziv va kuchli tomonlarga asoslangan yondashuvga o'tish aqliy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda o'zgaruvchan bo'ldi. Ushbu paradigma o'zgarishi har bir shaxs, kognitiv qobiliyatidan qat'i nazar, o'z salohiyatini rivojlantiradigan muhitda sifatli ta'lim olish huquqiga ega ekanligini tan

oladi. IDga ega o‘quvchilarni umumiy ta’lim sinflariga integratsiyalashni o‘z ichiga olgan inklyuziya hozirda eng yaxshi amaliyot sifatida e’tirof etilgan. Ushbu yondashuv nafaqat nogiron o’quvchilarga foyda keltiradi, balki barcha o‘quvchilar o’rtasida hamdardlik, tushunishga yordam beradi.

Mavzuning ahamiyati:Aqli zaif o’quvchilarni o’qitish juda muhim mavzudir, chunki bu ularning hayotining traektoriyasiga bevosita ta’sir qiladi. Tegishli ta’lim olish bu o‘quvchilarga muhim ko’nikmalarga ega bo’lish, o’z-o’zini hurmat qilishni rivojlantirish va jamiyatga mazmunli hissa qo’shish imkonini beradi. Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim mansublik va ijtimoiy birdamlik tuyg’usini rivojlantiradi, farqlar nishonlanadigan va mos keladigan muhitni rivojlantiradi.

Maqola doirasi: Ushbu maqola aqliy zaifligi bo’lgan o‘quvchilarning ta’limini chuqur o’rganishga qaratilgan. U o’zlarining noyob ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun qo’llaniladigan strategiyalarni, o’qituvchilar va manfaatdor tomonlar duch keladigan muammolar va tadqiqot va amaliy tajriba natijasida paydo bo’lgan eng yaxshi amaliyotlarni o’rganadi. Ushbu jihatlarni o’rganib chiqib, maqola identifikatorli o‘quvchilarni o’qitish bo’yicha davom etayotgan muloqotga hissa qo’shishga va samarali va inklyuziv ta’lim amaliyotlarini amalga oshirishga yordam berishga intiladi.

IDga ega o‘quvchilarni o’qitish strategiyalari:

Aqliy nuqsonlari bo’lgan o’quvchilarni o’qitish ularning o’ziga xos kuchli tomonlari, qiyinchiliklari va o’rganish uslublarini hisobga olgan holda kompleks va individual yondashuvni talab qiladi. Ushbu o‘quvchilar uchun inklyuziv va qo’llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish uchun quyidagi strategiyalar muhim ahamiyatga ega:

1. Individuallashtirilgan ta’lim rejalari (ITR): Individuallashtirilgan ta’lim rejalarini (ITP) ishlab chiqish va amalga oshirish aqliy zaifligi bo’lgan o‘quvchilar uchun samarali ta’limning asosidir. ITPlar o‘quvchining ta’lim maqsadlari, turar joylari va zarur yordam xizmatlarini belgilaydigan shaxsiylashtirilgan hujjatlardir. Ushbu rejalar o’qituvchilar, ota-onalar yoki vasiylar va boshqa tegishli mutaxassislar tomonidan hamkorlikda tuziladi. ITPlar ta’limni har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirib, ta’lim mazmunli bo‘lishini va o‘quvchining qobiliyatlari va maqsadlariga mos kelishini ta’minlaydi.

2. Inklyuziv ta’lim: Inklyuzivlik aqliy zaifligi bo’lgan o’quvchilarni odatdagidek rivojlanayotgan tengdoshlari bilan bir qatorda oddiy sinflarga integratsiyalashni o’z ichiga oladi. Ushbu strategiya sotsializatsiyani rag’batlantiradi, stigmani kamaytiradi va tengdoshlar vositasida o’rganishni rivojlantiradi. Inklyuzivlik identifikatori bo’lgan o‘quvchilarga turli tengdoshlari

bilan muloqot qilish, ijobiy namunalardan o'rganish va qimmatli ijtimoiy va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

3. Differentsial ta'lim: O'qituvchilar aqliy zaifligi bo'lgan o'quvchilarning turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun tabaqalashtirilgan ko'rsatmalardan foydalanishlari kerak. Ushbu yondashuv o'qitish usullarini, materiallarni va baholashni bir xil sinfda turli qobiliyatlar va o'rganish uslublariga moslashtirishni o'z ichiga oladi. O'rganish va jalb qilish uchun bir nechta yo'llarni taqdim etish orqali o'qituvchilar har bir o'quvchining o'quv dasturiga kirishi va o'quv maqsadlariga erisha olishini ta'minlashi mumkin.

4. Yordamchi texnologiya: Yordamchi texnologiya vositalari va qurilmalari identifikatori bo'lgan o'quvchilar uchun o'quv tajribasini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar muloqot, vosita qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Kengaytiruvchi va muqobil aloqa qurilmalari, interfaol ta'lim ilovalari va moslashtirilgan kompyuter dasturlari o'quvchilarga ta'lim faoliyatida faol qatnashish va o'zlarini samarali ifoda etish imkonini beradi.

5. Ko'p sensorli yondashuvlar: Ko'p sensorli o'qitish usullari o'rganish va saqlashni kuchaytirish uchun bir vaqtning o'zida bir nechta hislarni jalb qiladi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, aqliy zaifligi bo'lgan o'quvchilar uchun samaralidir, chunki u turli xil ta'lim uslublarini o'z ichiga oladi va turli xil hissiy tajribalar orqali tushunchalarni mustahkamlaydi. Masalan, sensorli materiallar, ko'rgazmali qurollar va eshitish vositalaridan foydalanish o'rganishni mustahkamlash va tushunishni yaxshilashga yordam beradi.

6. Strukturaviy o'qitish: Strukturaviy o'qitish o'quv muhiti va vazifalarni oldindan aytib bo'ladigan va uyushtirilgan tarzda tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv aniq tartiblar, vizual jadvallar va identifikatori bo'lgan o'quvchilarga o'quv faoliyatini boshqarishda yordam berish uchun bosqichma-bosqich ko'rsatmalar beradi. Strukturaviy o'qitish xavfsizlik tuyg'usiga yordam beradi, tashvishlarni kamaytiradi va mustaqil qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

7. Ijobiy xulq-atvor tadbirlari: Aqliy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratish juda muhimdir. Ijobiy xulq-atvor tadbirlari mukofotlar, maqtovlar va rag'batlantirish orqali kerakli xatti-harakatlarni kuchaytirishga qaratilgan. Aniq xatti-harakatni kutish va nomaqbul xatti-harakatlarning izchil oqibatlari xavfsiz va qulay o'quv maydonini yaratishga yordam beradi.

8. Tengdosh vositachiligida o'qitish: Tengdosh vositachiligida o'rganish IDga ega bo'lgan o'quvchilarni o'rganish va ijtimoiy o'zaro munosabatlarida

qo’llab-quvvatlash uchun odatda rivojlanayotgan tengdoshlarning yordamini jalb qilishni o’z ichiga oladi. Ushbu strategiya ijobiy ijtimoiy munosabatlarni rag’batlantiradi, muloqot qobiliyatlarini oshiradi va hamkorlikda o’rganish imkoniyatlarini beradi.

9. Oilaning ishtiroki: Aqli zaif o’quvchilarni tarbiyalashda oilalarni jalb qilish juda muhimdir. Ota-onalar va vasiylar farzandlarining kuchli tomonlari, afzalliklari va qiyinchiliklari haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etishlari mumkin. Oilalar bilan hamkorlik qilish sinfdan tashqariga chiqadigan va uyda o’rganishni kuchaytiradigan yagona yordam tizimini yaratishga yordam beradi.

10. Uzluksiz kasbiy rivojlanish: O’qituvchilar maxsus ta’lim sohasidagi so’nggi tadqiqotlar, texnikalar va strategiyalardan xabardor bo’lish uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan shug’ullanishlari kerak. Doimiy treninglar o’qituvchilarni aqliy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan o’quvchilarning o’zgaruvchan ehtiyojlarini samarali hal qilish uchun zarur bo’lgan ko’nikma va bilimlar bilan ta’minlaydi.

Ushbu strategiyalarni ta’lim amaliyotiga kiritish nafaqat aqliy zaifligi bo’lgan o’quvchilarga imkoniyat beradi, balki ta’lim muhitining umumiy inklyuzivligi va xilma-xilligiga ham hissa qo’shadi. Shaxsiy farqlarni tan olish va ularga moslashish orqali o’qituvchilar har bir o’quvchining salohiyatini maksimal darajada oshiradigan boy va qo’llab-quvvatlovchi o’quv muhitini yaratishi mumkin.

Xulosa:

Aqliy nuqsonlari (ID) bo’lgan o‘quvchilarni o’qitish inklyuzivlik, tenglik va huquqlarni kengaytirish tamoyillarini o’zida mujassam etgan hal qiluvchi ishdir. Qiyinchiliklarni yengib o‘tish va ilg‘or tajribalarni joriy etish har bir o‘quvchiga o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini beradigan ta’lim muhitini yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir. Ushbu maqola identifikatorli o‘quvchilarni o’qitishda strategiyalar, muammolar va ilg’or tajribalarni o’rganib chiqdi, moslashtirilgan yondashuvlar, hamkorlik va qo’llab-quvvatlovchi muhitni yaratish muhimligini ta’kidladi.

Oldinga qarash:

Jamiyatlar taraqqiyoti va xabardorligi oshgani sayin, IDga ega bo’lgan o‘quvchilarning ta’limi rivojlanishda davom etmoqda. Rivojlanayotgan muammolar va imkoniyatlarni hal qilish uchun istiqbolli istiqbolni saqlab qolish zarur. Maxsus ta’limda davom etayotgan tadqiqotlar va innovatsiyalar IDga ega bo’lgan o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondiradigan yangi aralashuvlar, texnologiya va strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Ta’limdan tashqari inklyuzivlik:

Inklyuziv ta’limning ta’siri sinfdan tashqarida ham mavjud. O‘quvchilarga kerakli vositalar va ko’nikmalarni ID bilan ta’minlash orqali biz ularni o’z jamoalari va ishchi kuchida faol ishtirok etishlari uchun jihozlaymiz. Inklyuzivlik nafaqat IDga ega bo’lgan shaxslarga foyda keltiradi, balki empatiya, tushunish va xilma-xillikni rag’batlantirish orqali ijtimoiy tuzilmani boyitadi.

Adabiyotlar:

1. American Association on Intellectual and Developmental Disabilities. (2021). AAIDD definition of intellectual disability. Retrieved from https://www.aaidd.org/intellectual-disability/definition

2. UNESCO. (1994). The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Retrieved from http://www.unesco.org/education/pdf/SALAMA_E.PDF

3. Individuals with Disabilities Education Act (IDEA). (2004). 20 U.S.C. § 1400 et seq. Retrieved from https://sites.ed.gov/idea/

4. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813-828.

5. Mastropieri, M. A., & Scruggs, T. E. (2000). The Inclusive Classroom: Strategies for Effective Instruction (2nd ed.). Prentice Hall.

РЕЗЮМЕ

Aqliy nuqsonlari (ID) bo’lgan o‘quvchilar, shuningdek, aqliy zaiflik sifatida ham tanilgan, ularning mazmunli ishtirok etishi va inklyuziv sharoitlarda o’rganishini ta’minlash uchun maxsus ta’lim yondashuvlarini talab qiladi. Ushbu maqola identifikatorli o‘quvchilarni o’qitishda turli strategiyalar, muammolar va eng yaxshi amaliyotlarni o’rganadi. U individual ta’lim, manfaatdor tomonlar o’rtasidagi hamkorlik va dalillarga asoslangan tadbirlarni amalga oshirish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, o’qituvchilar IDga ega bo’lgan o‘quvchilarning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga yordam beradigan inklyuziv va qo’llab-quvvatlovchi o’quv muhitini yaratishi mumkin.

РЕЗЮМЕ

Учащимся с ограниченными интеллектуальными возможностями (ID), также известными как умственная отсталость, требуются специальные образовательные подходы, чтобы обеспечить их значимое участие и обучение в инклюзивной среде. В этой статье рассматриваются различные стратегии, проблемы и лучшие практики обучения студентов с умственными расстройствами. В нем подчеркивается важность индивидуального обучения, сотрудничества между заинтересованными сторонами и внедрения научно обоснованных мер. Учитывая эти факторы, преподаватели могут создать инклюзивную и благоприятную среду обучения, которая поддерживает когнитивное, социальное и эмоциональное развитие учащихся с умственными расстройствами.

SUMMARY

Students with intellectual disabilities (ID), also known as mental retardation, require special educational approaches to ensure their meaningful participation and learning in inclusive settings. This article explores various strategies, challenges, and best practices for teaching students with ID. It emphasizes the importance of individualized education, collaboration between stakeholders, and the implementation of evidence-based interventions. By considering these factors, educators can create inclusive and supportive learning environments that support the cognitive, social, and emotional development of students with ID.

TA’LIMDA SCRIBING TEXNOLOGIYASI

Siddiqov I.M.
Qo`qon davlat pedagogika instituti Informatika kafedrasi dotsenti

Tayanch so’zlar: skribing, skript, axborot makoni, kontent dizayni, axborot texnologiyalari, onlayn resurslar, interaktiv vizual aloqa.

Ключевые слова: письмо, скриптинг, информационное пространство, дизайн контента, информационные технологии, интернет-ресурсы, интерактивная визуальная коммуникация.

Key words: scribing, scripting, information space, content design, information technology, online resources, interactive visual communication.

Kirish. Axborot maydoni har yili insonning atrofidagi dunyoga ko’proq ta’sir qiladi. Ushbu hodisani elektron muhitdagi keng tarqalgan o’zgarishlar, ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish va uzatishning yangi usullarining paydo bo’lishi jamiyatda yangi madaniy tushunchalarning rivojlanishiga va atrofdagi makonni tushunishga yordam berishi bilan izohlanishi mumkin [2].

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida daqiqa sayin o‘ta jadal suratlarda rivojlanib borayotgan va jamiyat hayotining muhim bo‘g‘inlaridan biriga aylanishga ulgurgan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish, respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, AKTning ilg‘or texnologiyalarni faollashtirish va ularni ta’lim tizimiga qo‘llash tamoyillarini o‘rganish dolzarb masaladir.

Interaktiv vizual aloqani ta’minlashning eng samarali texnologiyalaridan biri bu skribingdir [1; 3; 4]. Skribingdan foydalanish samaradorligi chet tili darslarida qayd etiladi, chunki uni o’rganish hissiy organlarning maksimal sonining parallel ishtirokida amalga oshiriladi. Chet tilidagi kommunikativ va kognitiv faoliyat jarayonida talabalar o’zlarining qarashlarini kengaytiradilar, ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar, ijtimoiy va qadriyat fazilatlarini shakllantiradilar: xarakter xususiyatlari, axloqiy e’tiqodlari [12].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. N.V. Voroshilov, A.V. Tolmacheva, E.N. Kuklar o’z tadqiqotlarida o’quv materialining asosiy ma’nosi tasvirlar orqali yetkaziladigan skriping texnologiyasini ham ta’kidlaydilar. Yozish turli shakllarda bo’lishi mumkin. Masalan, axborot resursiga joylashtirilgan tayyor

mahsulot bo‘lgan, o‘qituvchi tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan videoklip yoki ko‘rib chiqilayotgan mavzu mazmunini ifodalovchi doskadagi eskizlar [6]. Video skribing yoki statik skribing - bu alohida komponentlar o’rtasida aloqa o’rnatishga yordam beradigan rasm ko’rinishidagi natija. Skribingning afzalliklari sifatida mualliflar o’quvchining eshitish, ko’rish va tasavvurlarini bir vaqtning o’zida ishlatish qobiliyatini ta’kidlaydilar.

O.V. Ivanovaning ta’kidlashicha, yozish mashg’ulotlarga ajratilgan vaqtni tejaydi. Ma’ruza jarayonida talabalar nafaqat yangi materialni o’rganishga, balki o’z bilimlarini mustahkamlashga, fanni o’rganishda ijodiy fikrlashni ko’rsatishga vaqt topadilar. Muallif o‘quv jarayonida skribingdan foydalanishning yana bir tomonini ham qayd etadi [8]. Masalan, o’qituvchi o’quv materialini vizual shaklda aks ettirish uchun ko’p vaqt sarflashi kerak. Natijada, skriptingdan foydalangan holda o’quv jarayoni ta’lim samaradorligini oshirishga, vizual aloqani rivojlantirishga va o’quv jarayoni sub’ektlarining mustaqilligini oshirishga yordam beradi.

N.V. Bystrova, I.L. Belova, A. Sayed yozishning ijobiy tomonlarini ta’kidlaydilar: o’quv materialini o’tkazish samaradorligi, muhim fikrlarni eslab qolish, vizual tilning universalligi, parallel ergashish effekti [5]. Skribing yordamida zamonaviy o’quv jarayoni besh bosqichni o’z ichiga olishi kerak. Birinchidan, tadqiqot muammosini aniqlash, uning dolzarbligini ko’rsatish kerak. Ikkinchidan, ma’lumotni topish va uni tahlil qilish muhimdir. Uchinchidan, rang, turli kompozitsiyalar yordamida materialni majoziy shaklda taqdim etish. To’rtinchi bosqich - kontentni loyihalash, qayta ishlash, video materialni tahrirlash. Yakuniy bosqich natijani taqdim etish, jamoatchilikka gapirishni o’z ichiga oladi.



1-rasm. O’quv jarayonida skriptni qo’llashning afzalliklari

Skribing texnologiyasi interaktiv vizual aloqani ta’minlashning universal vositasi bo’lib, o’quv jarayoni natijalariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. 1-rasmda skribingdan foydalanishning afzalliklari ko’rsatilgan.

O’quv materialini o’zlashtirish samaradorligi shundan dalolat beradiki, yozish qisqa vaqt ichida ma’lumotni idrok etish uchun qulay shaklda taqdim etishga imkon beradi. Audio va video materiallarni sinxronlashtirish axborotni tushunish va eslab qolishni yaxshilaydi.

Minimal investitsiyalar muhim afzallikdir, chunki skripingdan foydalanish uchun faqat elektron qurilma yoki chizma yuzasi va markerlar kerak bo'ladi [11].

Dars davomida o'quvchilar bilan bevosita interaktiv aloqada o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyati o'quvchilarni o'qishga kengroq jalb etish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Natijalar. Skriptni qo'llashda talabalar ma'lumotni qidirish, tahlil qilish, baholashni amalga oshiradilar, uni tasavvuriy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan grafik qatorga joylashadilar [13].

Skribing yordamida chet tilini o'rganish jarayonini samarali tashkil etish uchun interaktiv vizual aloqani ko'proq amalga oshirish imkonini beradigan onlayn resurslarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. 124 nafar talaba orasida eng ko'p talabga ega bo'lganlarni aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi.

Respondentlar skript yaratish uchun eng qulay 4 ta platformani aniqladilar. GoAnimate -ni talabalarning 29 foizi qayd etdi, 34 foizi Moovly foydasiga gapirdi. VideoScribe platformasi yuqori javob oldi - 52%, respondentlarning 44% PowToon. Onlayn platformalar variantlari orasida talabalar Wideo-ni ajratib ko'rsatishdi, ammo ko'pchilik talabalar uning boshqa xizmatlarga nisbatan ibtidoiyligini ta'kidladilar. Ba'zi talabalar onlayn platformani Prezi deb atashdi, lekin rus tilidagi interfeys yo'qligi sababli u past ball oldi.

Muhokama. GoAnimate oddiy taqdimotni to'laqonli animatsion filmga aylantirishga yordam beradi. Sayt interfeysi videoni tahrirlash, olingan tasvirni oldindan ko'rish imkonini beradi [7]. Chet tilini o'rganish bilan bog'liq holda,



2-rasm. Skribing uchun mashhur platformalarni aniqlash uchun talabalar o'rtasidagi so'rov natijalari

katta kutubxonadan o'yin qahramonlarini taqdim etish imkoniyati mavjud. Xizmatning afzalligi - katta hajmdagi harakatlar to'plami. Ta'lim muammolarini hal qilishda talabalar o'zlarining ta'lim natijalarini yaxshilash uchun o'zaro ta'sir qilishlari mumkin. GoAnimate -dagi jonli belgilar o'quvchilar uchun interaktiv vizual aloqani ta'minlaydi.

Infografika tayyorlash uchun eng oddiy, ammo ayni paytda mashhur vositalardan biri bu Moovly. Ushbu xizmatda ko'plab elementlarni qo'lda chizish mumkin, bu esa animatsion taqdimotning noyob turini yaratadi [10]. Ushbu xizmat skriping sohasida yangi boshlanuvchilar uchun javob beradi. Xizmatda batafsil vaqt jadvali va yaxshi ishlab chiqilgan navigatsiya mexanizmi mavjud.

VideoScribe - bu Sparkol kompaniyasining stsenariy taqdimotlarini yaratish uchun o'zaro platforma mahsulotidir . Taqdimot bilan ishlash oson. Natijada butun video. Videoni tomosha qilish jarayonida talabalar qahramonlarning dialoglarini ham muhokama qilishlari mumkin. O'qituvchi tinglashni chet tilida olib borishi mumkin, ammo qo'shilgan rasm tufayli o'quvchilar o'quv materialini o'zlashtirishlari osonroq bo'ladi.

PowToon shuningdek, interaktiv vizual aloqa uchun makondir. Dastur interfeysi qulay va taqdimotlarni yaratishga o'xshaydi, ammo ilg'or vositalar bilan. Avvalo, siz referatlar bilan slaydlar yaratishingiz kerak, keyin esa tayyor materialni jonlantirishingiz va bezashingiz kerak. Tayyor echimlar vizualizatsiya elementlari bilan turli xil o'quv jarayonini tashkil etishga yordam beradi [3; 9]. Chet tili darslarida istiqbolli lavozimda keyingi ishga joylashish uchun "Rezyume" mavzusini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Har bir hujjat o'z tuzilishiga ega,



3-rasm. «Infografika haqida nimani bilasiz?» mavzusidagi slaydning namunasi

unga rioya qilish kerak. PowToon platformasida siz chet tilida rezyumeni qanday yozishni batafsil o'rganishingiz mumkin (3-rasm).

Xulosa. Skriptyaratishuchunko'ribchiqilganonlaynxizmatlartaqdimotingizda qiziqarli animatsiya va nostandart jonli echimlardan foydalanishga imkon beradi. Chet tilidagi mavzularni o'rganish va o'rganish jarayonida talabalarning o'zaro munosabati ularning kasbiy kompetensiyalari darajasini oshirishga, ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Og'zaki va majoziy ma'noda yozish taqdimot tezislarini o'zgartiradi, aloqalarni faollashtiradi va asosiy fikrlarni ta'kidlaydi. O'quv jarayonida skriping texnologiyasidan foydalanish chet tilidagi kommunikativ va kognitiv faoliyatning samaradorligini, diqqatni faollashtirishni ta'minlaydi. Skriptingdan foydalanish ko'p xarajatlarni talab qilmaydi va har qanday faoliyat turi uchun juda yaxshi. Interaktiv vizual aloqa o'quv faoliyatining yuqori natijalarini olish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Aleshchanova IV, Frolova NA, Zheltukhina MR. Chet tili darslarida «yozish» kompetentsiyasini rivojlantirishga ijodiy yondashuv // SHS Web Conf., 2018a. - 50. - bet. 01025. https://doi.org/10.1051/shsconf/20185001025

2. Xabinskaya AA Raqamli avlodning kiberijtimoiylashuvining xususiyatlari // Bolqon gumanitar tadqiqotlari. - 2019. - 3-jild . - 3-son (5). - S. 55-57.

3. Ostrikova GN, Zheltukhina MR, Zyubina IA, Sidorova IG Chet tilini o'qitishning hozirgi bosqichida vizualizatsiya orqali o'rganish. Astra salvensis. - VI (2018), №. 1.-Pp. 601-607.

4. Bogoslovskiy V.I., Aniskin V.N., Dobudko T.V., Aniskin S.V. Pedagogik universitetning axborot infratuzilmasi sifatida yaxlit ta'lim muhitini loyihalash // Ilmiy vektor Bolqon. - 2018. - No 1. - S. 17-23.

5. Bystrova N.V., Belova I.L., Sayed A. O'quv jarayonida axborot vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida // Zamonaviy pedagogik ta'lim muammolari. - 2020. - 69-2-son. - S. 30-33.

6. Voroshilova N.V., Tolmacheva A.V., Kuksa E.N. Tarix va ijtimoiy fanlarni o'qitishda vizualizatsiya texnologiyalari . Izvestiya VGPU. - 2021 yil - 2-son (155). - S. 43-50.

7. Drozdova I.L. Botanika kursining o'quv jarayonida elektron o'quv qo'llanmalarining o'rni // Kareliya ilmiy jurnali. - 2018. - V. 7. - No 3 (24). - S. 13-16.

8. Ivanova O.V. Yozish o'rta va oliy maktablarda matematika fanlarini o'qitishda modulli vizualizatsiya vositasi sifatida // Shkolnye texnologiyalari. - 2018 yil - 4-son. - S. 72-79.

9. Kirillova I. K., Soluyanova O. N. Texnik universitetda chet tilini o'qitishning faol usullari tizimi // Kazanskaya Nauka. - 2015 yil. - 4-son. - S. 205-207.

10. Kovaleva G.A., Yankevich D.S., Chaykovskaya N.E., Talan A.S. Kibersport uchun mutaxassislarni kasbiy tayyorlash tizimidagi zamonaviy raqamli texnologiyalar // Minin universiteti axborotnomasi. - 2021. - V. 9, 2-son. - 9 - bet

- loyihalashtirish jarayonlari ketma-ketligida birinchi navbatda chizish qoidalariga muvofiq qo‘lda chizish(eskiz, tarx, klauzura), fasad, plan, qirqimlarni qog‘ozga chizma qurollaridan foydalanshi;
- qo‘l chizmasida o‘lcham qo‘yishda masshtablarga amal qilish, masshtablar bilan ishlashi, chizmalarni O‘zDST(YESKD) talablariga amal qilish ko‘nikmalari rivojlanishi;

- g‘oyalar perspektivasini qog‘oz ko‘rinishda eskiz ko‘rinishda chizishi va uning yaratish va loyihalashtirishda kompyuterning virtual modellashtirishidan foydalanishi natijalarida uzviylik, uzluksizlik tamoyillari ta’minlashi hamda professional va oliy ma’lumotlari raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qo‘yilgan talablarni bajarilishi erishiladi.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida to`g`risidagi PF-60-son Farmoni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2022 y., 28.01. www.lex.uz.

2. Abdullayev A. “Zamonaviy arxitekturada chizma geometriya masalalarini qo‘llash muammolari va yechimlari” mavzusida vazirlik miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Namangan 2022, 429-432.

3. Ergashev B., Abdullayev A. Professional ta’lim tizimi o`quvchilariga virtual modellashtirish asosida arxitekturaviy loyihalashni o`rgatish ilmiy-pedagogik muammo sifatida. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda ta’lim sifatini boshqarish muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qo`qon, 2022 y. 553-557 bb.

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Diss. ...ped.fan.dok. – T., 2007. – 305 b.

5. Ergashev B. Monitoring ta’lim sifatini boshqarish vositasi sifatida // Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi. – Namangan. - 2019. - №5.-B. 414 - 419.

6. Ergashev B.B. Professional taьlim bitiruvchisida raqobatbardoshlikni shakllantirishning pedagogik strategiyasi. Bosma Muallim ham uzluksiz bilimdadur ilmiy-metodik jurnal. – Nukus. - 2021. - №1.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining arxitekturaviy loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasi, arxitekturaviy loyihalash fanin o‘qitishda zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish, ularning texnik, didaktik parametrlari tizimi haqida so`z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются методика формирования архитектурно-проектной компетентности студентов профессиональных учебных заведений, использование современных компьютерных технологий в обучении архитектурному проектированию, а также система их технико-дидактических параметров.

SUMMARY

This article discusses the methodology for the formation of architectural and design competence of students of professional educational institutions, the use of modern computer technologies in teaching architectural design, as well as the system of their technical and didactic parameters.

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КЎНИКМАЛАРИНИ ЭГАЛЛАШЛАРИДА ПЕДАГОГИК СТРАТЕГИЯЛАР

Эргашев Б.Б.
педагогика фанлари доктори, доцент, Профессионал таълимни ривожлантириш институти
Хасанов М. А.
Шайхонтоҳур туман касб ҳунар мактаби, Ишлаб чиқариш таълими бўйича директор

Таянч сўзлар: профессионал таълим, педагогик стратегия, таълим, рақобатбардошлик, меҳнат бозори, кўникма, ўқув жараёни, мутахассис, таҳлил.

Ключевые слова: профессиональное образование, педагогическая стратегия, образование, конкурентоспособность, рынок труда, квалификация, процесс образования, специалист, анализ.

Key words: vocational education, pedagogical strategy, education, competitiveness, labor market, qualifications, educational process, specialist, analysis.

Кириш қисм. Республикамизда янги профессионал таълим тизимини ислоҳ қилиниши ҳозирги кунда мақсадли рақобатбардош кадрларни шакиллантиришга кўпроқ аҳамият беришни тақаззо қилмоқда. Бошқача қилиб айтганда, бизнинг фикримизча, профессионал таълим тизимини рақобатбардошлигини шакллантириш стратегик ёндашув ёрдамида амалга оширилади. Профессионал таълим тизимини халқаро тажрибалар асосида такомиллаштириш, бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим босқичларини жорий қилиш орқали меҳнат бозори учун малакали ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш ҳамда мазкур жараёнга иш берувчиларни кенг жалб қилиш, жумладан, тизимга профессионал таълим, касбий компетенция, профессионал стандарт, табақалаштирилган таълим дастури, ўқитишнинг дуал тизими каби янги тушунчалар киритилди. Улар орасида айримларига тўхталиб ўтиш зарур.

Асосий қисм. Касбий компетенция – бу билим, кўникма ва амалий тажриба асосида касбий фаолиятга тегишли вазифаларни бажаришда фаолият юритиш қобилияти ҳисобланади. Профессионал стандарт эса ходимга

маълум бир касбий фаолият турини, шу жумладан, маълум бир меҳнат функциясини бажариш учун зарур бўлган малака талабларидир.

Ўқитишнинг дуал тизими ҳам биз учун янги бўлган жараённи ўз ичига олади. У таълимнинг назарий қисми таълим муассасасида, амалий қисми иш жойларида ташкил этиладиган ўқитиш тури бўлиб, бу тизим Европа давлатларида ўзининг ижобий натижасини берганлиги ҳаммамизга маълум. Ўқитишнинг дуал тизимида касб-ҳунар ўрганувчини бир вақтнинг ўзида ҳам назарий, ҳам амалий билимларни мукаммал эгаллаши, иш берувчининг талабига мос кадр бўлиб етишиши учун замин яратилади.

Табақалаштирилган таълим дастурлари асосида кадрлар тайёрлашда халқаро тажрибани ўрганган ҳолда профессионал таълим жараёнларига ўқитишнинг кредит-модуль тизими босқичма-босқич жорий этилади. Кредит-модул тизими – ҳар бир ўқув модули таркибини тузишга асосланган модулнинг ўқув натижалари ва якуний назоратни кузатиб бориш орқали таълим олувчиларнинг билим, кўникма ва компетенцияларини мунтазам равишда баҳолаб борувчи ўқув дастурини ўзлаштириш жараёнини ташкил этиш тизими ҳисобланади.

Иш берувчиларнинг талаб ва таклифларига асосан кадрларга бўлган реал эҳтиёжни инобатга олган ҳолда иқтисодиёт соҳа ва тармоқлари учун зарур бўлган малакали мутахассисларни тайёрлаш ҳамда жамиятнинг касблар ва мутахассисликларга бўлган талабларини қондириш, меҳнат фаолиятида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ қилиш бўйича амалий кўникмаларга эга бўлган кадрларни тайёрлаш, маҳаллий ва халқаро таълим муассасалари билан ҳамкорликни ривожлантириш, замонавий инновацион ўқув лойиҳаларини биргаликда амалга ошириш учун малакали хорижий мутахассисларни жалб этиш – профессионал таълимнинг асосий мақсадидир. Бу, мамлакатда ишсизлик даражасини камайтириш, иш ўринларининг доимийлигини таъминлаш, меҳнат бозорида тажрибали кадрларни етиштиришга хизмат қилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, ушбу тадқиқотимизда биз **«Педагогик стратегия»** тушунчасига таъриф берамиз. Бунинг учун биринчи навбатда биз бошланғич, яъни **«Стратегия»** га тушунча бериб ўтамиз. Стратегия - бу батафсил ҳаракатларни босқичма-босқич амалга ошириш орқали мақсад ёки керакли натижага эришиш учун узоқ муддатли режадир [1-3].

Кўплаб манбаларда **«Педагогик стратегия»** ҳақида бир нечта маълумотлар келтирилган[4]. Қуйида уларнинг айримларини кўриб чиқайлик:

- педагогик стратегия – биринчи навбатда, белгиланган педагогик мақсадга мос келадиган, иккинчидан, изчил равишда жойлаштирилган ва

босқичма-босқич амалга ошириладиган педагогик ёрдамни сифатли танлаш орқали амалга ошириладиган педагогик ҳаракатларнинг оқилона шаклланган мажмуаси бўлиб, интизом, муайян стратегик белгини (таъсир объектининг керакли ҳолати) амалий амалга оширишга қаратилган усуллар, шакллар, воситалар ва усулларни мослашувчан қўллаш;

- педагогик стратегия – профессор-ўқитувчиларининг фаолияти бўлиб, унинг таркибида таълим жараёнининг мақсади белгиланади, бу эса стратегик мос ёзувлар нуқтаси, шунингдек, унга эришиш учун зарур ва етарли восита;
- педагогик стратегия – ўқитувчининг берилган натижага эришишга қаратилган мақсадга мувофиқ ҳаракатлар мажмуини ифодаловчи узоқ муддатли жараён (масалан, профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш);
- педагогик стратегия – ўқитувчининг фаолияти, бу ҳаракатларнинг самарали амалга оширилишини таъминлайдиган педагогик мақсад, режа ва уни амалга ошириш воситалари тўғрисидаги ғояларга мувофиқ белгиланган педагогик вазиятлар оралиғида амалга оширилади;
- педагогик стратегия – ўқитувчи фаолиятининг умумлаштирилган характеристикаси бўлиб, у педагогик йўналишни ўзига қамраб олган ҳолда, педагогик жараённинг маълум бир стратегик белгисига эришиш мақсадида амалга ошириладиган кенг кўламли ўқув, таълим ва касбий вазифаларни ҳал қилишга йўналтирилган.

Шундай қилиб, биз педагогик стратегияни танлашда қуйидагиларни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши кераклигини таъкидлаймиз:

- педагогик воқеликнинг ўзига хос хусусиятлари, унинг таркибида амалга оширилади;
- педагогик стратегияни амалга оширувчи ўқитувчининг педагогик маҳорат даражаси;
- мавжуд манбалар, танланган шакллар, усуллар ва мумкин бўлган нарсалар режалаштирилган мақсадга эришиш воситалари [4].

Тадқиқотларимиз давомида педагогик стратегия профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг концептуал асосидир. Шунинг учун биз профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг педагогик стратегияси профессионал таълим илмий-педагогик ходимларининг режалаштирилган ҳаракатлар керакли натижага эришишни белгилайдиган педагогик мақсад ва унга эри-

шиш воситалари тўғрисида ишлаб чиқилган ғоялар тўплами эканлигини аниқладик [5-6].

Замонавий ижтимоий-иқтисодий шароитларда профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг педагогик стратегияси қуйидаги концептуал қоидалар асосида самарали амалга оширилиши мумкин:

1. назарий ва услубий асоси ваколатга асосланган ёндашув бўлган профессионал таълим рақобатбардошлигини шакллантиришнинг ажралмас педагогик концепциясини ишлаб чиқиш ва асослаш;

2. профессионал таълим майдонини яратиш асосида профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг аниқланган намуналари ва тегишли принциплари бўлган педагогик стратегиянинг ядросини аниқлаш;

3. профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш бўйича педагогик стратегиянинг назарий моделини лойиҳалаш;

4. профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш учун стратегик режалаштиришнинг таркибий ва функционал таркибий қисмларини аниқлаш (стратегик таҳлил, стратегик қараш, стратегик шериклик ва бошқалар);

5. профессионал таълим битирувчисининг замонавий меҳнат бозоридаги самарали хулқ-атворининг хусусиятларини лойиҳалаш [7-8].

Профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардош фазилатлари ва шахсий хусусиятларини шакллантириш бўйича педагогик стратегиянинг моҳиятини белгилаб, унинг асосий назарий жиҳатларига мурожаат қилайлик:

- профессионал таълим талабалари ўртасида рақобатдошлик каби ривожланишнинг стратегик мақсадларидан хабардор бўлиш – профессионал таълим ўқувчиларини иш билан таъминлаш соҳасидаги вазиятдан чиқиш йўли сифатида;
- профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг стратегик мақсади у учун рақобат муҳитида келажакдаги ёш мутахассиснинг барқарор ишлаши ва ривожланишини таъминлашга имкон берадиган ноёб рақобатбардош устунликларга эга бўлиш;
- рақобатдош профессионал таълим битирувчисини шакллантириш бўйича педагогик стратегиянинг тактик вазифалари – бу имкониятни изчил ривожлантириш ва профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлиги таркибий қисмларининг ҳар бирини шаклла-

тириш учун педагогик қўллаб-қувватлаш учун шароит яратишдир. Буларни: амалга ошириш механизмлари ва педагогик воситалари; профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш учун таълим технологиялари ва ташкилий-педагогик шартлари.

Замонавий профессионал таълим амалиётида жуда хилма-хил педагогик стратегиялар мавжуд. Шунинг учун танланган педагогик стратегиянинг мазмуни стратегик мос ёзувлар пункти ва керакли натижага эришишнинг етарли шакллари, усуллари ва воситалари билан боғлиқ бўлиши керак.

Шундай қилиб, бизнинг тадқиқотимизда профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш бўйича педагогик стратегияни ишлаб чиқиш учун йўналиш, жалб қилиш ва ёрдам бериш каби стратегиялар алоҳида қизиқиш уйғотмоқда. Уларнинг таркибини батафсил кўриб чиқайлик. Йўналтириш педагогик стратегияси ўқувчи шахсининг ҳиссий-мотивацион, билим ва фаолият соҳаларига таъсир қилади ва муаммоли вазиятни таҳлил қилишга, ҳаракатлар режасини тузишга ва унинг фаолиятини тузатишга қаратилган ҳаракатлар мажмуини амалга оширишни ўз ичига олади. Бундан ташқари, йўналиш педагогик стратегия сифатида ўқитувчи томонидан талаба шахсида рақобатбардош хусусиятлар ва фазилатларни шакллантиришга қаратилган педагогик тадбирлар мажмуини амалга оширишни ҳам ўз ичига олади.

Ушбу илмий мақола доирасида биз йўналтиришнинг қуйидаги педагогик усулларини илгари сурдик: эътибор беринг, йўналтиринг, таништиринг, ёрдам беринг, таъминланг, фаоллаштиринг, тузатинг, талабанинг етарлича баҳолашига кўмаклашиш ва ҳ.к. Ушбу йўналтиришнинг педагогик усулларини танлаш, педагогик маънода талабанинг йўналиши уни қўллаб-қувватлаш ва шахсий ривожланиш йўналишини аниқлашда мумкин бўлган ёрдамни ўз ичига олиши билан боғлиқ (яъни, рақобатбардош мутахассис), зарурий фаолият йўналишларини фаоллаштириш, муаммоли вазиятни таҳлил қилиш ёки ҳал қилиш касбий вазифалар қатори, замонавий меҳнат бозорида рақобатбардош устунликларга эришиш бўйича ҳаракатлар режасини тузиш ва бошқалар[9].

Қатнашиш педагогик стратегияси фаолиятга йўналтирилган хусусиятга эга ва ўзининг мазмун моҳияти бўйича талабага маълум бир фаолият тури билан шуғулланиш, унинг тўлақонли ва фаол иштирокчисига айланиш имкониятини беришни назарда тутади. Масалан, бу талабани замонавий меҳнат бозорида рақобатбардош устунликларга эга бўладиган касбий маҳорат ва кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёни билан

таништириш, шу жумладан талабанинг касбий муаммоларни ҳал қилишда амалий тажрибасини оширишдир.

Ёрдам педагогик стратегияси кўпинча таълим муассасаларига ёрдам, таълим олишга ёрдам бериш, мутахассисларни тайёрлашга кўмаклашиш, бандликка кўмаклашиш, ўз тақдирини ўзи белгилашга ёрдам бериш, ўз-ўзини англашни тарғиб қилиш, ўз-ўзини ривожлантиришга кўмаклашиш, ўз-ўзини ривожлантиришни тарғиб қилиш ва бошқалар.

Ёрдам атамасининг бундай кўп қиррали ишлатилиши бизни функционал шароитда юқори малакали мутахассисларни тайёрлашнинг стратегик хусусиятини акс эттиради деган хулосага келишимизга имкон беради. Ёрдам профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг педагогик стратегияси сифатида фаолият кўрсатиши мумкин. Ушбу стратегиядан фойдаланиш шароитида талабанинг шахсиятига хос хусусиятлар ва фазилатларни эгаллаш ва ривожлантириш шароитида уни ривожлантириш, ўзини ўзи англаш ва такомиллаштиришга ёрдам берадиган махсус ташкилий ва педагогик шароитларни шакллантириш назарда тутилган. Унга замонавий меҳнат бозоридаги бошқа талабнома берувчиларга нисбатан рақобатбардош устунлик беради. Шу билан бирга, педагогик ёрдам ҳар доим ўқувчиларнинг шахсий ва касбий ривожланишида ёрдам бериш ва қўллаб-қувватлашга йўналтирилган онгли фаолиятдир.

Юқорида кўриб чиқилган педагогик стратегиялар бизни профессионал таълим амалий фаолиятда фақат шахсга йўналтирилган касбий таълим шароитида, талаба ўзи амалга оширган ҳаракатлар билан боғлиқ ҳолда ўз танловини танлаганида, баҳолашни ҳисобга олган ҳолда фойдаланиш учун мос келади. Бундан ташқари, педагогик стратегия рақобатдош профессионал таълим битирувчисини шакллантириш шахсий ривожланиш йўналишига – меҳнат бозорида талабанинг рақобатбардош устунликларини шакллантириш ва ривожлантиришнинг зарур йўналиши сифатида эга бўлиши керак.

Муҳокамалар ва натижалар. Педагогик стратегиянинг шахсий ривожланиш йўналиши қуйидаги ўзига хос хусусиятлар билан тавсифланади: талабага ўзининг касбий ва шахсий ривожланиши мавзусига нисбатан муносабат; йўналиш талаба ўзини ўзи ривожлантириш, ўзини ўзи тарбиялаш ва такомиллаштириш учун; талаба шахсини ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи аниқлаш учун шароит яратиш, шу жумладан: талабаларнинг рақобатбардошлигини шакллантириш жараёнини илмий-педагогик ва ташкилий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш учун инновацион технологияларни амалга ошириш; профессионал таълимни амалий, касбий, ижтимоий-маърифий ва

илмий-инновацион муҳитини яратиш; таълим жараёнида субъект муносабатларини шакллантириш. Шуни эътиборга оламизки, талаба рақобатбардош кураш учун зарур бўлган касбий фазилатларни ва шахсий хусусиятларини ривожлантириши ва шакллантириши билан унинг ўқитувчи билан ўзаро муносабатларининг тузилиши ўзгаради – у педагогик таъсирнинг пассив объектидан, ўзининг шахсий ва касбий ривожланиш йўналишини белгилашга қодир ва тайёр бўлган фаол ижодий шахсга айланади.

Педагогик стратегияни шакллантириш ва амалга ошириш тамойилларини кўриб чиқишга келсак, шуни таъкидлаш керакки, ўқитиш тамойилларининг бутун тизими ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда унинг шахсини ривожлантиришга қаратилган. Бундан ташқари, педагогик стратегияни шакллантириш ва амалга ошириш тамойиллари ўқувчиларнинг амалий ва билим фаолиятини педагогик бошқариш цикли босқичларига мос равишда ишлаб чиқилган.

1. ривожлантирувчи таълим принципи-ўқувчининг шахсини ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган бўлиб, унга шахсий ва касбий хусусиятлар ва фазилатларни шакллантиришни-замонавий меҳнат бозорида рақобатдош устунликлар сифатида тақдим этади;

2. доимийлик принципи-талабани замонавий ижтимоий-иқтисодий шароитларда ишлашга тайёрлаш нафақат назарий билим, кўникма ва малакаларни изчил эгаллашни, балки кенг кўламли масалаларни ҳал қилишда амалий тажрибани босқичма-босқич шакллантиришни ҳам профессионал муаммолар доираси ўз ичига олиши керак деб тахмин қилади. Ушбу тамойил, шунингдек, таълим жараёни мазмуни ва қурилишининг изчиллигини талаб қилади ва ўз зиммасига олади.

3. замонавий меҳнат бозорида профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардош устунликларини шакллантириш жараёнида талабанинг онги, мустақиллиги ва ижодий фаолияти принципи-бу унинг ўзига хос хусусиятлари ва шахсий фазилатлар мажмуасида акс этади.

4. профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришга комплекс ёндашув принципи-нафақат талабаларнинг назарий тайёргарлигини, балки амалий тажрибани шакллантиришни, уни меҳнат фаолиятининг ҳақиқий шароитлари билан боғлашни, кўплаб профессионал муаммоларни ҳал қилишни назарда тутади. Бундан ташқари, мураккаблик рақобатдош профессионал таълим битирувчисини шакллантириш талабалар шахсиятининг айрим фазилатлари ва хусусиятларини ривожлантиришни назарда тутади, бу уларнинг умумий ҳажмида унинг меҳнат бозоридаги

бошқа талабгорларга нисбатан рақобатбардош устунликларини акс эттиради.

5. ўқув жараёнини бўлажак мутахассисларни тайёрлашга компетенциал ёндашув асосида ташкил этиш принципи-қуйидаги лавозимдан келиб чиқади: профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлиги унинг касбий ваколати билан белгиланади, бунда махсус билимлар талабанинг индивидуал хусусиятлари ва шахсий фазилатлари сони ваколатга асосланган ёндашувнинг устуворлиги шу билан белгиланади. Айнан шу каналда ўқув жараёнини қайта йўналтириш имконияти билимларни ўқитувчидан ўқувчига (транслясия) устунлик беришидан талабанинг қобилиятини тавсифловчи компетенсиялар тўпламини ўзлаштириши учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратилишидан ҳосил бўлади.

6. таълимни меҳнат фаолиятининг ҳақиқий шартлари билан боғлаш принципи-профессионал таълимнинг амалий, касбий, ижтимоий таълим ва инновацион муҳитини яратиш зарурлигига қаратади.

Педагогик стратегияни шакллантириш ва амалга оширишнинг юқоридаги тамойилларидан ташқари, ўқитишнинг умумий тамойилларини ҳам унутмаслик керак. Профессионал таълим ўқувчиларининг рақобатбардошлигини шакллантириш бўйича педагогик стратегиянинг таркибий қисмлари ва элементларини аниқлаш ва асослашга ўтиб, қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратсак: рақобатбардошликни шакллантириш бўйича педагогик стратегия таркибининг таркибий қисмлари профессионал таълим битирувчиси; профессионал таълим битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш бўйича стратегик режалаштириш (стратегик таҳлил, стратегик қараш, стратегик шериклик ва бошқалар); замонавий меҳнат бозорида профессионал таълим ўқувчиларининг самарали хулқ-атворининг хусусиятлари.

Ҳулоса ўрнида шуни такидлаш жоизки, ушбу мақоламизда педагогик стратегияни профессионал таълим тизимида касбий тайёргарлик жараёнида битирувчининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг консептуал асоси сифатида ишлаб чиқдик ва асосладик. Булардан ташқари профессионал таълим муассасалари ҳудудларнинг демографик, ижтимоий-иқтисодий ва географик шароитларини, меҳнат бозорининг тегишли соҳа мутахассисларига бўлган талабини, манфаатдор вазирлик ва идораларнинг кадрларга бўлган эҳтиёжи ҳамда олий таълим тизими билан интеграциялашган таълим дастурлари асосида кадрлар тайёрлашни ҳисобга олган ҳолда фаолият юритиши келтириб ўтилди. Профессионал таълим муассасаларининг ўқувчилари ва ходимларига ижтимоий кафолатлар, қўллаб-қувватлаш ва имти-

ёзлар қонун ҳужжатлари, профессионал таълим муассасасининг устави асосида белгиланади. Шунингдек, коллежлар ва техникумларда кундузги, сиртқи ва кечки таълим шакллари жорий этилиши ва бу шакллар таълим сифатига алоҳида қараш талаб этилади.

Адабиётлар:

1. Муслимов Н., Усмонбоева М, Сайфуров Д, Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари.- Тошкент, 2015.-120 б.

2. Исмаилова З.К., Эргашев Б.Б. Мониторинг качества образовательного процесса в контексте управления Вузом // Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума, Том1, Наука инновации – современные концепции. – Москва, 2019. – С.57-68.

3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006.

4. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

5. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" NM ijodiy uyi, 2008. – 496 b.

6. Эргашев Б.Б. Мониторинг как средство управления качеством образования // Международная научно – практическая конференция, «Научные разработки: евразийский регион». –Москва, 2019. – С.85-89.

7. Эргашев Б.Б. Меҳнат бозорида талабаларни ишга жойлаштиришга кўмаклашишнинг самарали йўллари // "Профессиональное становление личности XXI века в системе непрерывного образования: теория, практика и перспективы", Материалы научно – практического семинара, ТОМ1 –Ташкент, 2019. – С.241-244.

8. Z. Ismailova, D. Khimmataliev, M. Khashimova, M. Baybaeva, B. Ergashev. Integrative approach to designing the content of secondary specialized vocational education // Revista de Ciencias Humanas y Sociales ISSN 1012-1587/ISSNe: 2477-9385. Opción, Año 36, Regular No.91 (2020): Pp. 25-41

9. D.O. Khimmataliev, K.T. Olmov, R.M.Abdullaeva, B.B. Ergashev, K.T. Chulponova. Mechanisms of professional competence development in future teachers based on pedagogical and technical knowledge // Psychology and education (2021) 58(1): Pp. 2838-2844 ISSN: 00333077

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақоланинг мақсади-профессионал таълим тизими ўқувчисининг рақобатбардошлигини шакллантириш асоси сифатида педагогик стратегиянинг асосий жиҳатларини ишлаб чиқиш ва концептуал асослаш, шунингдек профессионал таълим ўқувчиларининг рақобатбардошлигини шакллантириш бўйича педагогик стратегиянинг моҳияти ва ўзига хослигининг очиб бериш, педагогик стратегияни қуриш ва амалга ошириш тамойиллари тавсифлаш, педагогик стратегиянинг таркибий қисмлари ва элементларини аниқлашдан иборат.

РЕЗЮМЕ

Целью данной статьи является разработка и концептуальное обоснование основных аспектов педагогической стратегии как основы формирования конкурентоспособности выпускников системы профессионального образования, а также разъяснение сущности и специфики педагогической стратегии формирования профессионального образования, конкурентоспособности выпускников профессионального образования и выявление компонентов и элементов стратегии.

SUMMARY

The purpose of this article is to develop and conceptually substantiate the main aspects of the pedagogical strategy as the basis for the formation of the competitiveness of graduates of the vocational education system, as well as to explain the essence and specifics of the pedagogical strategy for the formation of vocational education, the competitiveness of vocational education graduates and to identify the components and elements of the strategy.

ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА ТЕХНИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Холиқова Н.
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигиин механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети изланувчиси, доцент

Таянч сўзлар: компетентлик, компетенция, касбий компетенция, тадқиқотчилик компетенцияси, таркибий компонент, мустақил таълим, билим, кўникма, малака, шахсий фазилатлар.

Ключевые слова: компетенция, компетенция, профессиональная компетентность, исследовательская компетентность, компонент, амостоятельное обучение, знание, умение, квалификация, личностные качества.

Key words: competence, competence, professional competence, research competence, component, independent learning, knowledge, skill, qualifcation, personal qualities.

Ҳозирги замон шароитида таълим тизимини модернизация қилиш амалга оширилиб, уларнинг асоси компетентлик парадигмаси ҳисобланади. Мазкур парадигма доирасида таълим жараёни талабаларда компетенцияларда ифодаланган таълим натижаларини шакллантиришга қаратилган бўлиб, уларнинг шаккланганлиги таълим олувчиларни муайян касбий фаолиятни бажаришга тайёрлигини кўрсатади.

Ҳар қандай замонавий умумий ва махсус педагогик тадқиқотнинг тамойили “замирида” компетентли ёндашув мавжуд бўлади.Таълим жараёнини трансформация қилиш, унинг устувор йўналиши ҳисобланган йўналишларини белгиловчи таълимнинг янги ва ўзига хос сифатига эришиш йўли ҳисобланади. Таълимни модернизация қилиш таълимотида қайд этилишича, касбий таълимнинг асосий мақсади – муайян савия ва малакадаги малакали ишчини тайёрлаш бўлиб, у меҳнат бозорида рақобатбардош бўлиши, компетентли, масъулиятли, ўзининг касбини эркин эгаллаган, фаолиятнинг турдош соҳаларини биладиган, жаҳон стандартларига мос равишда самарали меҳнат қилишга қодир, доимий касбий ўсишга тайёр, ижтимоий ва касбий мобил шахс бўлиши зарур.

Таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабаларни касбий тайёргарлик жараёнининг замонавий ҳолатини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики,

мазкур тайёргарликнинг натижалари, аввалambор, турли компетенцияларда ўз аксини топади, улар талабалар томонидан ўзлаштириладиган билимлар мажмуидан иборат бўлиб, унинг интегратив тавсифини ташкил қилади, бўлажак касбий фаолиятни амалга оширишга қодирликни билдиради.

Касбий компетентлик тушунчаси моҳиятини рефлексив таҳлил қилиш ёндашувлари муайян касбий фаолият соҳасида қобилиятларини натижакор тарзда амалга ошириш, ўз малака ва билимларини ва тажрибасини намоён қилиш, субъект томонидан касбий мажбуриятларини бажарилишини таъминлайди.Унинг турларини аниқлаш орқали касбий компетентлигининг моҳияти билан тўлдирилади. Тадқиқотнинг материалларини умумлаштириш қуйидаги ёндашувларни ажратишга имкон беради:

а) ўзаро бир-бирини ўрнини босувчи, мустақил ва ўзаро бир бирини алмаштирувчи когнитив, эффектив ва иродавий компетентлиги бўлиб, субъект учун қизиқарли бўлган доирада шаклланади ва ривожланади.

б) лойиҳавий, ахборот, башорат, ташкилий, коммуникатив ва таҳлилий компетенциялар, бунда мезон – мутахассисда муайян кўникмаларнинг "шаклланганлиги", касбий фаолият жараёнининг лойиҳалаштиришдан баҳолашга қадар босқичлилиги ҳисобланади.

в) касбий-педагогик, коммуникатив, ижтимоий-психологик ва илмий компетенциялар.

г) махсус, ижтимоий, индивидуал ва шахсий компетентлик, мезон – субъектнинг муайян касбий соҳада, мулоқотда, ўзини ўзи ривожлантиришда етуклиги.

Касбий фаолият соҳасида компетенцияларнинг компонентларига ёндашувларни назарий таҳлил қилиш, унинг таркибида қуйидаги компонентлар бўлиши мумкин деган хулосага келишга имкон берди.

- ахборотли-мазмуний, жараёнли ва шахсий;
- касбий мулоқот, ўзини ўзи ривожлантириш, ўзига ўзи баҳо бериш, касбий ўсиш, ривожланган ижтимоий рефлексия соҳасида билим, кўникма ва қобилиятлар;
- интеллектуал-шахсий ресурсли асос ва тамойлли негизли қисм;
- мотивацияли, жараёнли ва рефлексив блоклар, тегишли тарзда шахсий ва қадриятли-мазмунли, технологик ва баҳолаш-мазмунли жиҳатларни ўзида акс эттиради;
- базавий, шахсий, ақлий-таъминловчи, ижтимоий таъминловчи ва касбий компонентлар бўлиб, улар норматив, шахсий-шартланган ва касбий компетенциядаги технологик мазмунни ифодалайди.

Талабаларни иқтисодий жараёнларни лойиҳалаш фаолиятга тайёрлаш – махсус ташкил қилинган иқтисодий самарага эга бўлган, муаммонинг

субъектив ва объектив янгилигини ўз ичига олган лойиҳани яратиш бўйича махсус ташкил қилинган таълим жараёни ҳисобланади. Мазкур жараён самарали лойиҳавий иқтисодий фаолият юритишга амалий жиҳатдан тайёрликни назарий, мотивацион, амалий тайёрликни интеграция қилиш билан биргаликда, лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва иқтисодий самарадорлигини белгилаш бўйича шахсий иш тажрибасини оширади.

Фаолият олиб боришга тайёрлик бўйича қилинган илмий тадқиқотлатаҳлилларига кўра, талабаларнинг иқтисодий жараёнларни лойиҳалаш фаолиятга тайёрлигини шартловчи интегратив шахсий таълим сифатида белгилаш имконини беради. Талабаларнинг иқтисодий жараёнларни лойиҳалаш фаолиятга тайёргарлиги – шахс компонентида интегратив таълим бўлиб, иқтисодиёт йўналишидаги мутахассисларнинг касбий фаолияти қадриятларини интеграция қилувчи, билим ва кўникмаларнинг шахсга оид мазмун-моҳияти, воқеликни ўзгартириш бўйича ғояларни кашф этиш, уларни лойиҳалар ва лойиҳавий ечимларда амалга ошириш, касб бўйича вужудга келадиган иқтисодий масалаларни ечишни ташкил қилиш бўйича лойиҳавий фаолиятнинг ўзига хос ролини тушуниш, иқтисодий лойиҳани амалга оширишнинг самарадорлигини ва ижтимоий йўналганлигини адекват баҳо беришда ўз аксини топади. Таркибий тузилмавий маънода бундай тайёргарлик қуйидаги когнитив, мотивацион-қадриятли, конатив ва рефлексив компонентларни ўз ичига олади. Талабаларни иқтисодий жараёнларни лойиҳалаш фаолиятга тайёрлашнинг ўзига хос компонентлари бизнинг назаримизда қуйидагиларда ўз аксини топиши зарур:

Когнитив компонент учун – бу менеджмент, маркетинг ва ижтимоий тижорат, ҳозирги замон шароитида корхонани бошқариш, айниқса инновацион иқтисодиёт, ноаниқлик ва хавф-хатар шароитида ушбу соҳалар тўғрисида билиш ва тушунчалар тизимини ҳисобга олиш, “иқтисодий лойиҳа” ва “лойиҳавий ечим” тушунчаларнинг моҳиятан билиш, “активлар”, “мажбуриятлар”, “капитал”, пул оқимларининг ҳаракатланиши”, “даромадлар”, “ҳаражатлар”, “ташкилотнинг фаолиятининг молиявий натижалари” ва бошқалар тўғрисида тушунчага эга бўлиш, бозорларда хўжалик юритувчи субъектларнинг эмоционал стратегияси ва касбий фаолиятининг ижтимоийиқтисодий кўрсаткичлари мазмунини билиш, турли мулк шаклидаги корхона ва ташкилотлар режаларининг иқтисодий бўлимлари тўғрисида тасаввурга эга бўлиш, иқтисодий қарорларни лойиҳалаштиришнинг асосий босқичларини ва лойиҳавий ечимларни лойиҳавий кузатиш (услубий, норматив, ташкилий), ижтимоий йўналтирилган лойиҳаларни амалга ошириш шароитида иқтисодий манфаатлар можароси сабабларини билиш;

Мотивацион-қадриятли компонент учун –бу билишга оид ички детерминация қилинган ва касбий мотивацияли, ижобий касбий муносабатлар, лойиҳанинг роли ва лойиҳавий фаолиятнинг махсус шаклини тушуниш, вужудга келиши мумкин бўлган муаммоларни ечишни ташкил қилиш, ноаниқлик ва хавфхатар шароитида ишлашга бўлган мотивация ва қобилиятнинг мавжудлиги, амалиётда иқтисодий ечимларни лойиҳалаштириш бўйича махсус билимларни қўллай олиш, ижтимоий йўналтирилган лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва ларни қўллай олиш, ижтимоий йўналтирилган лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

Рефлексив компонент учун – бу умуман олганда касбий иқтисодий фаолиятдаги ривожланган рефлексив маданият ҳисобланади. Билимлар даражасини назорат қилиш кўникмалари ва иқтисодий ечимларни назорат қилиш мақсадларини аниқлаб олиш ва уларнинг натижаларини башорат қилиш, касбий маҳоратга интилиш, иқтисодиёт ва бошқарувда ўзини ўзи ривожлантириш, ўзининг касбий фаолиятига баҳо бериш, импровизация ва олдиндан кўра билишга қодирлик, ижтимоий йўналтирилган лойиҳавий – иқтисодий фаолиятда ўз самарадорлигининг рефлексияси.

Ҳулоса қилиб айтадиган бўлсак, манбаларни таҳлил қилиш бизга қуйидаги хулосаларни чиқаришга имкон берди.

Адабиётлар:

1. Джураев Р.Х., Тайлоқов Н.И. Ахборотлашган таълим муҳити-ўқитиш самарадорлигини ошириш воситаси // “Uzluksiz ta’lim”. ИМЖ. – Т., 2004. – №3. – Б. 3-7.

2. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. - Т. Фан, 2004, 124 бет.

3. Тўраев М.Ф. Муҳандис-дастурчиларни касбий коммуникатив компетентлигини шакллантириш ва уларни рақобатбардошлик муҳитига тайёрлаш. «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» Илмий-методик журнал 2021йил 1-сон. (39-42 бетлар)

4. Zuhra Ismailova, Durdona Mustafoeva Technology for the development of medikompetence of students // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 // Issn: 2181-3337 // scientists.uz https://doi.org/10.5281/zenodo.7612303

5. Z. Ismailova, D.Ximmataliev, R.Choriev, Sh.Ergashev, D.Mustafoeva Trends and Prospects of Education and Upbringing Generation in Uzbekistan during the Years of Independence // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol. 12 No.9 (2021), 3385-3390

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда техник компетентликни ривожлантириш масалалари ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы развития технической компетентности при подготовке студентов к профессиональной деятельности.

SUMMARY

This article discusses the issues of developing technical competence in preparing students for professional activities.

TALABALARDA ANALITIK MUSHOHADA YURITISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Arziyeva S. I.
NDKTU "Oliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti

Tayanch so`zlar: pedagogika, ta'lim, texnologiya, qobiliyat, integratsiya.
Ключевые слова: педагогика, образование, технологии, способности, интеграция.
Key words: pedagogy, education, technology, ability, integration.

Jahonning nufuzli o'quv maskanlarida bo'lajak mutaxassislarning universal kompetensiyalarini rivojlantirish, o'z sohasini chuqur bilishga yo'naltirilgan metodikalarni takomillashtirish, didaktik infrastruktura bazasini ijodiy faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bular toifasiga Garvard universiteti, Xarper Adams universiteti, Ponsele universitetini misol tariqasida keltirish mumkin. YUNESKOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" ilmiy hujjati; BMTning "XXI asrda oliy ta'lim: yondashuv va amaliy choralar" Butunjahon deklaratsiyasi; Yevropa oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatining bir xilligini ta'minlash maqsadida qabul qilingan Bolonya deklaratsiyasi ; bo'lajak chet til fanlari mutaxassislarini Common European Framework of Reference for Language malaka talablari asosida tayyorlash bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirishda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahonda ta'lim oluvchilarning samarali bilim egallashlari va sifatli o'quv-biluv faoliyati uchun muhim bo'lgan didaktik tayyorgarligini shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlari ta'lim jarayoniga joriy etilgan. Ayni damdagi zamonaviy ta'limda konseptual, indikativ o'qitish modellarini texnologik taraqqiyot nazariyalari bilan uyg'unlashtirish, xususan, innovatsion ta'lim texnologiyalari va relevant pedagogik modellardan foydalanish, o'quv jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini yuksaltirish masalalariga aloqador ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

2020 yilning 23 sentyabrida imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida innovatsion texnologiyalar, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish ahamiyatiga

alohida urg'u qaratilgan. Shu jihatdan olganda, yurtimizning yetakchi ilmiy muassasalarida yangi mazmunda o'rgatish, ta'lim jarayonlarini zamonaviy ta'lim andozasi zamirida pedagogik jarayonga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga oid innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, integrativ pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish va o'quv fanlarini o'qitishda talabalar yoshlarning kompetentligini rivojlantirish, globallashuv sharoitida innovatsiya jarayonining pedagogik-psixologik tomonlari, kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan talabalarda analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan integrativ pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

O'qitishning ta'lim modellarida kompetensiyalar asosiy o'rinni egallayotganligi va dunyo bozor iqtisodiyoti munosabatlarida raqobatbardoshligi va chidamliligi bilan ajralib turadi. Shitob bilan almashayotgan axborotlar oqimidan bo'lg'usi mutaxassislar, bugungi kun talabalari uchun zaruriy ma'lumotlarni taqdim etish va ularni reproduksiyalashga imkon beruvchi ta'lim tizimini yaratish uchun bozor va ishlab chiqarish korxonalarining mavjud ehtiyojlarini inobatga olish zaruriyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ 3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida bo`lajak mutaxassislarda kreativlik, analitik dunyoqarashga ega bo'lish, ularda innovatsion kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha bir qancha vazifalar belgilangan.

Ma'lumki, tafakkur-inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, inson miyasining alohida funksiyasi bo'lib, bu jarayonda insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Biz bilamizki, insonning fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida shaxsning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan ijtimoiy eksperiment boshqa kishilarga ham uzatiladi. Inson o'zining tafakkur doirasi, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita va bilvosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi asosiy bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni tushunib yetadi. Binobarin, inson ma'lum qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda natijasini oldindan bilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Analitik fikrlash esa umumiy ma’lumotlarni muayyan mezonlarga ko‘ra tarkibiy qismlarga bo‘lish; ma’lumotlarni qiyoslashtirish va munosabatlarni topish; axborotni xolisona baholash; mantiqiy fikrlash; fikrlarni puxta ifodalash; ma’lumotlar bilan ishlash; asosiyni ikkilamchidan ajratib, ustuvorlikni to‘g’ri belgilash; tanqidiy fikrlash; muqobil variantlarni izlash; xulosalar chiqarish; ma’lumot to‘plash; katta hajmdagi axborotlar bilan ishlash; umumiy ma’lumotlarni muayyan mezonlarga ko‘ra tarkibiy qismlarga bo‘lish; xulosalar chiqarish singari tarkibiy qismlardan iborat.

Analitik fikrlashning bir qator afzalliklari mavjud. Yaxshi rivojlangan analitik fikrlash hatto juda murakkab vazifani ham o‘z vaqtida va samarali hal qilish va bir nechta mumkin bo‘lgan yechimlarni topish imkonini beradi.

Analitik fikrlash qobiliyati bor bo‘lgan mutaxassis qat’iy va muvozanatli qarorlar qabul qiladi, o‘z faoliyatini rejalashtirish va prognoz qilishni biladi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar barcha tashkilotlarda yuksak baholanadi. Har qanday professional sohada murakkab vaziyatdan tezda munosib yo‘l topish qobiliyati ustunlik bo‘ladi.

Insonning shaxs tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyatdir, chunki hozirgi davrda yoshlarning kasbiga oid bilimlarini hayotda qo‘llay olishlari uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan. Ushbu vazifaning ta’minlanishi ta’lim sifatini oliy darajada ko‘tarishni, puxta va bilimli raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashni, boshqacha qilib aytganda, ta’lim va tarbiya tizimida kompetensiyali, malakali kadrlarga bo‘lgan zaruratni qondirish masalasining ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi. Analitik fikrlaydigan mutaxassis kasbiga doir yangi ma’lumotlarni izlash, uni o‘rganish va tizimlashtirishni, shuningdek olingan ma’lumotlar natijasida xulosalar chiqarishni biladi. Ushbu turdagi fikrlash faktlarni, masalani batafsil o‘rganishni, kichik narsalarga e’tibor berishni, ma’lumotlarni solishtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatini mutaxassisda namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ 3775 sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni.

3. Abdullaeva B.S. Matematika darslarida o‘quvchilarning bilimini baholash. Monografiya.-T.:Nodirabegim,2020.

4. Abdullaeva Sh., Ergasheva M.T. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma.Toshkent: 2022 y.

5. Abdullaeva Sh., Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlaridan foydalanish (PISA, TIMSS misolida). Monografiya.-T.:Nodirabegim, 2023.

6. Arziyeva S.I., Dj.N. Murodullayevna, Norov G.M. “Methods for solving some types of integrals using complex numbers”. Вестник науики и образования. 4-2 (124), 2022.

7. Arziyeva S.I., Normurodovna J.U. “Application of complex numbers”. Проблемы современной науки и образования. 5(125), 2018.

8. Arziyeva S.I. “Formula for calculating the sum of n of some types of numbers”. Наука техника и образование. 5(88), 2022.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida o‘rganilgan. Shuningdek, hozirgi davrda yoshlarning kasbiga oid bilimlarini hayotda qo‘llay olishlari uchun yetarlicha imkoniyatlar berilganligi, ushbu vazifaning ta’minlanishi ta’lim sifatini oliy darajada ko‘tarishi mumkinligi haqida izchil va puxta fikrlar yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье развитие навыков аналитической наблюдательности у студентов рассматривается как социально-педагогическая необходимость. Также были высказаны последовательные и обстоятельные мнения о том, что в текущий период молодым людям предоставлено достаточно возможностей для применения своих профессиональных знаний в жизни, и что обеспечение этой задачи способно поднять качество образования на высокий уровень.

SUMMARY

In this article, the development of analytical observation skills in students is studied as a socio-pedagogical necessity. Also, consistent and thorough opinions were given that in the current period, young people are given enough opportunities to apply their professional knowledge in life, and that the provision of this task can raise the quality of education to a high level.

TALABALARDA ANALITIK MUSHOHADA YURITISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MOHIYATI VA UNING TARKIBIY FUNKSIONAL TUZILISHI

Arziyeva S.I.
NDKTU "Oliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti

Tayanch so`zlar: pedagogika, psixologiya, ta'lim, tarbiya, qobiliyat, tafakkur, tushuncha.
Ключевые слова: педагогика, психология, образование, обучение, способности, мышление, понимание.
Key words: pedagogy, psychology, education, training, ability, thinking, understanding.

Talabalarda analitik mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishning mohiyati, tarkibiy funksional tuzilishini o'rganish uchun biz psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va falsafa sohasidagi ilmiy manbalarni tahlil qildik. Tahlillarimizdan aniqlanishicha, inson atrof-olam, voqea va hodisalarni o'rganar ekan, turli xil jarayonlarni bajarish va bu ob'yektlarga ta'sir etgan holda ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun ularni kuzatadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko'rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda shaxsga aniq bir ob'yektlar va ularning bevosita o'rganiladigan xossalari to'g'risida ma'lumot beradi. Psixik aks ettirishning ushbu shakllari inson tomonidan ob'yektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin alohida jismlar va haqiqiy olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan savollarga javob topish uchun yetarlicha emas. Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkurning asosiy komponenti analitik mushohada qilish yordam beradi. Avvalambor, tafakkur oliy darajadagi bilishning psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati shaxs tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o'zgartirishdan iborat. Tafakkur bu bevosita idrokda anglaymaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida ko'rsatib beradi. Tafakkurning muhim vazifasi real bog'liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o'tish jarayoni sodir bo'ladi.

Shunday qilib, tafakkurni voqelikni umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish namunasida ta'riflash mumkin. Bundan tafakkurning asosiy belgilaridan biri umumlashtirishdan iboratligi yuzaga chiqadi. Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina inson va zamondoshlarining emas, balki, o'tmish ajdodlarning ham hayotiy tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Shuning sababli tafakkur ko'plab odamlar bilimlarini umumlashtiradi.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til singari jismli va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli ko'rinishdadagi vositalardan foydalanadi.

Tafakkurning ikkinchi asosiy belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta'sir ko'rsatmay, ko'p hollarda asboblar ko'magida olingan qo'shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini beruvchi vositali tarzda aks ettirishdir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari ongda hodisalarning tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo'lishi bilan shaxs ichki, barqaror o'zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi. Tafakkurning o'ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu funksiyani bajarish bilan bog'liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo'lgan savolga javob berishdan boshlanadi.

Tafakkur muammosini ko'rib chiqqan A.A. Smirnov tafakkur va aqliy jarayonlarning assotsiativ tarzda kechishini tafovutlash zaruriyati to'g'risida e'tirof etgan. Gap shundaki, aqliy faoliyatda inson assotsiatsiyalardan juda keng foydalanadi, chunki ular tafakkur muammolarini yechishda ahamiyatli yordam ko'rsatadi. Aqliy jarayonlarning assotsiativ kechishida jarayon o'zgacha bo'ladi. Muhim tafovut shundan iboratki, bu vaziyatda o'rganuvchi o'z oldiga hech qanday maqsad qo'ymaydi va hech qanday vazifani bajarmaydi. Bunda bir jarayon boshqasiga almashadi, chunki ular bir-biri bilan assotsiativ tarzda bog'langan bo'ladi. Tafakkur jarayonlarining assotsiativ tarzda kechishi ko'p hollarda inson toliqqan bo'lib, hordiq olishni istayotganida kuzatiladi. Tafakkurning alohida muhim o'ziga xos xususiyati shundan iboratki –bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasidir. Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyati bor bo'lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo'lib hisoblanadi.

"Nutq tafakkur qurolidir. Ma'lum fikr so'zlar ila ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so'z bilan ifoda etish–ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo'lgan murakkab jarayondir".

Tafakkurning ikki darajasi mavjud: fahm-farosat–abstraksiyalardan foydalanish o‘zgarmas chizmalar, namunalar chegarasida sodir bo‘ladigan oddiy tafakkur, sog’lom fikr, tafakkurning boshlang’ich darajasi, uning mantiqiy mazmunini emas, balki, ibora va dalillar tuzilishini o‘rganadi, bu aniq, izchilliklik bilan mulohaza yuritish, fikrlarni to‘g’ri tuzish, dalillarni qat’iy tizimlashtirish, tasniflash layoqati; aql (dialektik tafakkur)–abstraksiyalarni ijodiy qo‘llash va ular tabiatini ongli tadqiq etish xususiyatiga ega bo‘lgan nazariy bilishning yuksak darajasi, aql yordamida inson narsalar mohiyati, ularning qonunlari va qarama-qarshiliklarini anglab yetadi.

Analitik tafakkur ikki qismga: nazariy va amaliy tafakkurlarga bo‘linadi. Nazariy tafakkurda tushunchali va obrazli tafakkur, amaliy tafakkurda esa–ko‘rgazmali-obrazli va ko‘rgazmali-harakatli tafakkur nazarda tutiladi.

Analitik mushohada esa muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning shaxs uchun yangiligi, insonning faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir qancha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h. k.) ajratib tadqiq qilinadi. Jamoada analitik qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat analitik mushohada xususiyatlari vujudga keladi.

Tushunchali tafakkur–bu ma’lum tushunchalar qo‘llaniladigan tafakkurdir. U yoki bu aqliy masalalarni yechishda boshqa insonlar tomonidan aniqlangan va tushunchalar, mulohazalar, xulosalar shaklida ifodalangan tayyor bilimlardan foydalanamiz.

Obrazli tafakkur–bu obrazlar yordamida mulohaza yuritish jarayonining bir turi bo‘lib, ular xotiradan olinadi yoki tasavvurda hosil qilinadi. Ko‘pincha tafakkurning bu turi badiiy ijodkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi insonlarda ustun bo‘ladi.

Tushunchali tafakkur voqelikni aniq va umumlashtirgan holda aks ettiradi, lekin bunday ko‘rsatish mavhumdir. O‘z navbatida, obrazli tafakkur atrofimizdagi olamni aniq va sub’yektiv aks ettirish imkonini beradi. Shunday qilib, tushunchali va obrazli tafakkurlar bir-birini to‘ldirib turadi.

Xulosa qilib aytganda, tafakkur moddiy olam qonuniyatlari, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sababiy-oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Tafakkur–bu narsalar mohiyatini ko‘rsatib beruvchi g’oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma’lum bir fikrdir. Tafakkur–bu kiritilgan yo‘nalishli-tadqiqiy, qayta o‘zgarishli va bilish xususiyati mavjud bo‘lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyat. Aqliy faoliyat natijalarini

qo‘llash sohasi bo‘lgan amaliyot tafakkur faoliyatining asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev F.A.”Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda axborot xizmati tizimini takomillashtirish (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida)» mavzusidagi 13.00.07 – Ta’limda menejment ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss...-T.;

2. Abdullaeva Sh.A. “Pedagogik diagnostika” Darslik.-T.:Universitet, 2021..

3. Азизходжаева Н.Н. “Педагогические технологии и педагогическое мастерство”. Учеб. пособ. для магистратуры всех специальностей. . – Т.: Чулпана, 2005.

4. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития. Казань. Центр инновационных технологии. 2012.

5. Arziyeva S.I., Dj.N. Murodullayevna, Norov G.M. “Methods for solving some types of integrals using complex numbers”. Вестник науики и образования. 4-2 (124), 2022.

6. Arziyeva S.I., Normurodovna J.U. “Application of complex numbers”. Проблемы современной науки и образования. 5(125), 2018.

7. Arziyeva S.I. “Formula for calculating the sum of n of some types of numbers”. Наука техника и образование. 5(88), 2022.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalarda analitik mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmun mohiyati, uning tarkibiy funksional tuzilishini o‘rganish uchun psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va falsafa sohasidagi ilmiy manbalarni tahlil qilinish jarayonlari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматривается процесс анализа научных источников в области психологии, педагогики, социологии и философии с целью изучения содержания развития навыков аналитического наблюдения у студентов, его структурной и функциональной структуры.

SUMMARY

This article discusses the process of analyzing scientific sources in the field of psychology, pedagogy, sociology, and philosophy to study the content of the development of students’ analytical observation abilities, its structural and functional structure.

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI TURLI MADANIYATLAR BILAN TANISHTIRISHDA GENDER YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Tojiboyeva X.M.

O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti (O‘zPFITI) direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Tayanch so‘zlar: gender madaniyat, gibrid madaniyat, ommaviy madaniyat, milliy madaniyat, o‘smir yoshdagi o‘quvchilar, ijtimoiy rollar, pedagogik imkoniyatlar, gender ong, gender ziddiyatlar, xulq-atvor me’yorlari.

Ключевые слова: гендерная культура, гибридная культура, массовая культура, национальная культура, школьники-подростки, социальные роли, педагогические возможности, гендерное сознание, гендерные конфликты, нормы поведения.

Key words: gender culture, hybrid culture, popular culture, national culture, adolescent students, social roles, pedagogical opportunities, gender consciousness, gender conflicts, behavioral norms.

Madaniyatning mohiyati inson huquqlarini poymol etmagan holda ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qilishdan iborat. Tabiiy muhitning o‘zgarishi, iqtisodning globallashuvi, axborotlar oqimining kengayishi turli madaniyatlarning uyg‘unlashuvi natijasida gibrid madaniyatning vujudga kelishini ta’minladi. Bu o‘z navbatida, milliy madaniyatning yaxlitligi va o‘zbek xalqi vakillari tomonidan samarali o‘zlashtirilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bugungi kunda madaniy qadriyatlarni tashqi madaniy xurujlardan himoyalash ham muhim ahamiyatga ega. Tashqi madaniy xurujlarning asosini yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatish, ular ongini manipulyatsiyalash natijasida “ommaviy madaniyat”ning g‘oyalarini yoyishdan iborat.

Madaniy taraqqiyot uchun gender tenglikni ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Barcha madaniyatlarda gender farqlarni shaxsning gender tengligi, o‘zaro farqlarini kengaytirish va himoya qilish bilan bir qatorda unga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlar ham mavjud. Bunday holatni “ommaviy madaniyat” bilan bog‘liq holda ham kuzatish mumkin.

Bugungi kunda jamiyat a’zolariga ayniqsa, yoshlarga ham ijobiy ham salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi madaniyat bu “ommaviy madaniyat”dir. Madaniyatning rivojlanishi shaxsning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ko‘plab masalalarda madaniyat insonlarning xulq-atvori va nuqtai nazarlariga ta’sir ko‘rsatadi. Biroq bu barcha kishilar bitta yagona madaniyatga mansub degan xulosani chiqarishga asos bo‘lmaydi. Chunki madaniyat yagona xulq-atvor va fikrning shakllanishini ta’minlamaydi. Insonlar o‘z nuqtai nazarlari va xatti-harakatlari bilan turli-tuman madaniyatlarga xos bo‘lgan xatti-harakatlar va nuqtai nazarlarni egallashga intiladilar. Kimdir Yevropa madaniyatini o‘zlashtirishga intilsa, yana boshqa bir guruh insonlar sharqona madaniyatga xos bo‘lgan xatti-harakatlarni egallashga harakat qiladi.

Gibrid madaniyat jamiyat hayotiga keng ko‘lamda kirib borayotgan bugungi kunda uning yoshlar ongi va nuqtai nazariga ko‘rsatayotgan ta’siri o‘ta xavflidir. Bu yoshlarning harakat me’yorlari, hulq-atvor ko‘rinishlari, etiqodlari va qadriyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘plab umumiy omillar madaniyatning tez o‘zgarishiga to‘sqinlik qilib, umumiy tasavvurlarning keng yoyilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bular jumlasiga natijalar va me’yorlar kiradi. Bu yoshlarning ijtimoiylashishlari va muloqot qilishlari uchun zarur vositalar va resurslarning yetarli emasligini ko‘rsatadi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda axborot olish, ularni saralab o‘zlashtirish va tahlil qilish imkoniyati yetarli bo‘lmagan vaziyatlarda ijtimoiy tarmoqlarga ko‘proq murojaat qiladilar. Natijada ular “ommaviy madaniyat”ga xos ijobiy sifatlar bilan bir qatorda salbiy xulq-atvor stereotiplarini ham o‘zlashtiradilar.

Axborotlarning ko‘pligi o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning ijtimoiylashishlarini jadallashtiradi.

Turli madaniyatlarga xos bo‘lgan tushunchalar uyg‘unlashib, jamiyat hayotida birgalikda yashab kelmoqda. “Ommaviy madaniyat”ga xos tushunchalar yoshlar ongiga singib, o‘zining yashovchanligini ta’minlamoqda. Ularning yashovchanligiga asosiy sabab jo‘nligi va o‘zlashtirish uchun osonligidadir. Shu bilan bir qatorda “ommaviy madaniyat” vositalari o‘zida art-dizaynga xos ko‘plab elementlarni mujassamlashtiradi. Bu esa o‘z navbatida yoshlar, ayniqsa o‘smir yoshdagi qizlar e’tiborini o‘ziga ko‘proq jalb etadi. “Ommaviy madaniyat”ga xos vositalardan esa barcha birday foydalanmaydi. Ularni o‘zlashtirish asosan yoshlar auditoriyalariga xosdir. Bunday madaniy faoliyat “ommaviy madaniyat”ning biryoqlama xarakterga egaligini ko‘rsatadi.

Shunday madaniyat vositalari borki, ulardan erkaklar ham ayollar ham birday foydalanadilar. Ular o‘z navbatida madaniy qadriyatlar sifatida e’tirof etiladi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, insonlar jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha qadriyatlarni birday o‘zlashtirmaydilar. Ayni bir madaniyatga mansub bo‘lgan kishilar o‘z madaniy dunyoqarashlari doirasida hayotiy me’yorlar va qadriyatlarni qabul qiladilar. Masalan, gender tenglikni tan olmaslik, sog‘lom madaniy nuqtai nazarga ega bo‘lgan xotin-qizlar va erkaklarda birday norozilik kayfiyatini vujudga keltiradi[1].

O‘z tabiatiga ko‘ra milliy madaniyat asrlar sinovidan o‘tgan qadriyatlar majmuidir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ommaviy madaniyat o‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Gender xususiyatlar bolalarda ijtimoiylashish jarayonida shakllanadi. Katta bo‘lgan sari bolalar ularga qanday xulq-atvor stereotiplari va faoliyat turlari xosligini bilib oladilar. Shu bilan bir qatorda jinsiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda qanday rollarni bajarishi kerak, qaysilarini bajarish xos emasligini ham anglab yetadi. O‘g‘il va qiz bolalarning jinslariga ko‘ra rollari xulq-atvor shakllarida namoyon bo‘ladi. Bularning barchasi ko‘plab o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Shunday o‘zgarishlardan biri madaniyatdagi o‘zgarishlardir.

O‘g‘il va qiz bolalar orasida turli farqlar ular xulq-atvorining manbai hisoblanadi. Bunday farqlar mehnat taqsimotini to‘g‘ri tashkil etish uchun zarur hisoblanadi. Mehnatning taqsimlanishi bir qator holatlarning vujudga kelishiga asos bo‘ladi. Masalan, qaxr-g‘azabning vujudga kelishi, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojning vujudga kelishi kabilar. Gender xususiyatlar asosan o‘smirlik yoshida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki bu yoshda o‘quvchilar ijtimoiylasha boshlaydilar. Natijada ular xulq-atvorning o‘ziga xos jihatlari va faoliyatning muayyan turlarini egallay boshlaydilar. Natijada o‘smirlar qanday rollarni bajarish unga to‘g‘ri kelishi, qaysilari to‘g‘ri kelmasligini anglab yetadilar.

Turli madaniyatlarda ayni bir jarayon turlicha natijalarga olib kelishi mumkin. Har qanday jamiyat va madaniyatda ayollar va erkaklarning o‘ziga xos rollari mavjud. Har qanday madaniyat erkaklar va ayollar xulq-atvori orasida farqlar mavjudligini namoyon etadi. Shuningdek, bunday farqlar ularning rollari, jamiyat oldidagi mas’uliyatlari, xulq-atvorlarida namoyon bo‘ladi[2].

O‘smir yoshdagi o‘quvchilar esa o‘zlari mansub bo‘lgan muayyan madaniyatga xos rollarni ijtimoiylashishning dastlabki bosqichlaridayoq o‘zlashtira boshlaydilar. Ushbu jarayonda ularda ijtimoiy-madaniy ong shakllanadi. Shu bilan bir qatorda barcha madaniyatlar uchun umumiy bo‘lgan gender rollar ham mavjud.

Har bir madaniyatda eski va yangi, an’anaviy va zamonaviy rollar mavjudki, ular jamiyat hayotining mavjud manzarasini o‘zgartirish imkoniyatiga ega.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlar ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilar aynan yangi, zamonaviy gender rollarni o‘zlashtirishga intilmoqdalar. Bu esa xalqning milliy madaniy qiyofasini unutish xavfini tug‘dirmoqda.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida jamiyatda qabul qilingan gender rollar keng targ‘ib qilinmoqda. Gender stereotiplarning shakllanishiga ayniqsa televideniya va reklamalarning ta’siri katta bo‘lmoqda. An’anaviy gender rollarning o‘zgarishi hayot tarzining buzilishiga olib kelmoqda. Bunday buzilishga yoshlar katta hissa qo‘shmoqdalar. Boshqa bir tomondan bunday ta’sir yoshlarda ommaviy ongning shakllanishiga katta xissa qo‘shmoqda[3].

Jamiyat hayotiga bosqichma bosqich noan’anaviy ayol va erkak qiyofasining kirib kelishi gender munosabatlar sub’ektlarida tolerantlikka asoslangan munosabatlarning shakllanishiga asos bo‘lmoqda. Milliy madaniyatimizda asrlar davomida jamiyat a’zolari ongida erkak va ayollarga xos xulq-atvor stereotiplari, urf-odat va ustanovkalar shakllangan. Bunday xulq-atvor stereotiplariga jamiyatning aksariyat vakillari qat’iy amal qilib kelmoqdalar. Ular xos madaniyat vakillari sifatida e’tirof etilmoqdalar.

Xulq-atvorning yangicha modellari shakllanishida shaxsning ijtimoiylashuviga o‘ziga zos tarzda ko‘maklashayotigan ommaviy axborot vositalari alohida hissa qo‘shmoqda. Mazkur vositalar yoshlarda yangicha gender xulq-atvor stereotiplari shakllanishiga xizmat qilmoqda. Bu sohada nodavlat telekanallar, ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati katta bo‘lmoqda. Erkak va ayollarga xos rollar ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib etilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari ayollar va erkaklarga xos zamonaviy rollarni targ‘ib qilish orqali yosh avlod ayniqsa o‘smirlar ongiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, ularda “ommaviy madaniyat”ga xos xulq-atvor stereotiplari, ustanovkalar, e’tiqodlar tarkib topayapti. Shuning uchun ham o‘smirlarda jamiyat ehtiyojlari va talablariga mos xulq-atvor stereotiplarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining mas’uliyatini oshirish talab qilinmoqda.

Ayni paytda bu o‘smir yoshdagi o‘quvchilar tomonidan jamiyatda qabul qilingan genderga xos madaniy stereotiplar sifatida idrok etiladi. Gender rollar va stereotiplar qanchalik barqaror bo‘lmasin, ommaviy madaniyat ta’sirida ommaviy axborot vositalari yordamida ommalashadi va keng auditoriyalarga mo‘ljallanadi. Bunday auditoriyalarda asosan o‘smir yoshdagi o‘quvchilar va talaba yoshlarning ishtirok etishi nazarda tutiladi.

O‘g‘il va qiz bolalarning ijtimoiylashish jarayoni bir-biridan keskin farq qilib, ulardan jinsga xos rollarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Jinsga xos rollar –

ijtimoiy xulq-atvor modeli bo‘lib, talablar, stereotiplar, shart-sharoitlar majmui bo‘lib, o‘g‘il va qiz bolalarga yo‘naltiriladi.

Bugungi kunda o‘g‘il va qiz bolalarda gender stereotiplarning shakllanishida ijtimoiy tarmoqlar katta ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalar gibrid madaniyatga xos bo‘lgan rollarni o‘zlashtirishda alohida tashabbus ko‘rsatmoqdalar.

Bunda reklamaning o‘rni beqiyos bo‘lib, qizlarga xos bo‘lmagan turli kiyimlar, taqinchoqlarni tavsiya qilsa, o‘g‘il bolalar uchun noodatiy bo‘lgan soch turmaklari, liboslarni targ‘ib qilishga katta o‘rin ajratmoqda. Ommaviy madaniyatning ta’siri o‘g‘il va qiz bolalarning nutqi, xatti-harakatlari, mimikasi, soch turmaklari va intilishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, qiz bolalar uchun xos bo‘lmagan xulq-atvor stereotiplarini ular ongiga singdirish jadal kechmoqda. Qizlarga xos bo‘lgan an’anaviy sifatlar inkor qilinib, ularni zamonaviylashtirish targ‘ib etilmoqda. Bu esa qizlar xulq-atvorida meshchanlik, moda ketidan quvish, dag‘allik, milliy an’analarga xos bo‘lmagan kiyinish tarzi, oilaga behurmatlik, uni qadriyat darajasida idrok etmaslik kabi salbiy sifatlarni tarkib toptirmoqda. Aksariyat qizlar o‘g‘il bolalarga xos kiyimlar kiyish, sochlarini erkakcha turmaklashni afzal ko‘rmoqdalar. Ularning nutqida noodatiy iboralar keng qo‘llanilmoqda. Chekish, spirtli ichimliklarni ichish, diskotekalarda o‘g‘il bolalar bilan birgalikda raqs tushish, bexayolikni targ‘ib qilayotgan kinofilmlarni ko‘rish, qizlar hayotining asosiy mazmuniga aylanmoqda. Yarim yalang‘och kiyimlar, tatirovkalar, millatimizga xos bo‘lmagan noodatiy soch turmaklari ham o‘smir yoshdagi qizlar orasida keng tarqalmoqda. Bu esa qizlarga xos an’anaviy rollar va sifatlarni inkor qilmoqda[4].

Umuman olganda, o‘smirlarning tasavvurida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar xaqiqiy olamni namoyish qiluvchi asosiy vosita sifatida taassurot qoldirmoqda. Ular o‘zlari uchun jozibali bo‘lgan narsalarni ijtimoiy tarmoqdan izlamoqdalar. Ular olayotgan axborotlar o‘g‘il va qiz bolalar uchun xos bo‘lmagan stereotiplarni ham taqdim qilmoqda. Shuning uchun ham ularni gender yondashuv asosida turli madaniyatlar bilan tanishtirish, salbiy va ijobiy jihatlarini farqlashga o‘rgatish muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Адабиётлар:

1. Гендерные исследования: методические рекомендации к семинарским занятиям и самостоятельной работе / В.Н. Кусургашев; ГОУ ВПО ЛНР Луганский национальный университет имени Тараса Шевченко. – Луганск : «Книта», 2017. – 84 с.

2. Коннелл Р. Гендер и власть: общество, личность и гендерная политика / Р. Коннелл. – М. : Новое русское обозрение, 2015. – 430 с.

3. Костикова И.В. Введение в гендерные исследования / И.В. Костикова. – М. : Аспект Пресс, 2005. – 252 с.

4. Safarova R.G. va b. O‘quvchi-yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. - Monografiya. – T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2018 yil, 192 bet.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni turli bilan tanishtirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan bo‘lib, unda gender madaniyat, gibrid madaniyat, milliy madaniyat, ommaviy madaniyatning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются педагогические возможности приобщения подростков к различным гендерным подходам, выделяются особенности гендерной культуры, гибридной культуры, национальной культуры, массовой культуры.

SUMMARY

This article analyzes the pedagogical possibilities of acquainting adolescents with a variety of gender-based approaches, highlighting the specifics of gender culture, hybrid culture, national culture, popular culture.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАРДА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ОИД КОМПЕТЕНТЛИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Абдуганиев О.Т.
Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти Илмий котиби (PhD)

Таянч сўзлар: талаба, компетентлик, ислоҳот, миллий ўзликни англаш, ташаббускорлик, ижтимоий – профессионаллик, баркамоллик, маънавий-аҳлоқий фазилатлар, тарихийлик, мантиқийлик, кузатиш, қиёсий таққослаш.

Ключевые слова: студент, компетентность, реформа, осознание национальной идентичности, инициатива, социально-профессионализм, совершенство, духовно-нравственные качества, историчность, разумность, наблюдательность, сравнительное сравнение.

Key words: student, competence, reform, awareness of national identity, initiative, socio-professionalism, excellence, spiritual and moral qualities, historicity, rationality, observation, comparative comparison.

Ўзбекистон Республикаси таълим ва фан соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг бош негизида ёш-авлодни яъни бўлажак кадрларни компетентли қилиб тарбиялаш энг биринчи масала сифатида қаралмоқда. Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8-октябрда қабул қилган Ўзбекистон Республикасида Олий таълим тизимининг 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида[1] ”ги Фармонида “2030 йилгача Олий таълимни ривожлантириш концепцияси”да миллий таълим тизимини янги натижага эришишга йўналтиришда “Универсал билимлар, кўникмалар, малакаларнинг янги тизими, шунингдек, таълим олувчиларнинг мустақил фаолият ва шахсий масъулият тажрибаси, яъни замонавий асосий компетенциялар” сифатида хизмат қилиши келтириб ўтилган[1].

Хусусан, Янги Ўзбектистон шароитида талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантириш шиддат билан ривожланиб глобаллашиб интеграцияланаётган дунё шиддат билан ўзгариб, миллий ўзликни англаши, умуминсоний қадриятларга содиқлиги, шахс маънавиятини мустаҳкамлаш жараёнларида турли ёт ғояларнинг салбий таъсири ортиб, одамларнинг онги-шуъури ва қалби учун кураш кучай-

иб бораётган бир даврда таълим-тарбия, тарғибот ва ташвиқот ишлари жараёнида умуминсоний қадриятларга содиқлик, миллий ғоя, миллат ва уларнинг ўзаро боғлиқлиги масаласининг долзарблиги янада ошмоқда. Халқнинг маънавий ҳаётида ўзлигини англаш муҳим ўрин тутади. Шундай экан, талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришда айни маънавий-аҳлоқий тарбияланишини таълим-тарбия жараёнининг аввало, миллий ўз-ўзини англашининг мазмун-моҳиятини, халқ, миллат тушунчалари ҳамда уларнинг ўзаро алоқадорлик жиҳатларига алоҳида эътибор қаратиш лозимлиги қайд этилмоқда. Талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришда педагогик-психологик жиҳатларини таҳлил этар эканмиз, биз томонимиздан олиб борилган тадқиқотларни ўрганиш доирасида аввал, маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларнинг ишларидаги илмий имкониятларни таҳлилига тўхталиб ўтишни лозим деб топдик.

Талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришданинг педагогик ҳамда психологик ривожлантирувчи сифатлари, таълим мазмуни ва моҳияти, шакл ва тамойилларини ифодалаб: “компетенцияни бу,” - олимлар томонидан билдирилган фикрларнинг этимологик таҳлилини ҳам таъкидлаш лозим. Дунё олимлари томонидан ушбу тушунчани ўрганиш жараёнида қуйидаги фикрларга тўхталиб ўтилган[2] . “Компетенция” тушунчаси олимлар томонидан турлича талқин этилган. Таълимда компетенциявий ёндашув деб, аввало, “Competence” сўзи “to compete” сўзидан келиб чиққан бўлиб[2], “у ёки бу соҳа бўйича билимдонлик” дея эътироф этилган. Жумладан, олиб борилган илмий тараққиётда педагогика фани ушбу тушунча таҳлилига нафақат жаҳонда, балки мамлакатимиз олимлари томонидан тадқиқот ишлари олиб борилаётганини ҳам келтириб ўтиш лозим. Компетенциявий таълимда фаолият кўринишлари учун тадқиқотнинг якуний мақсади компетенцияларни шакллантириш масаласи туриб унинг ривожлантирилиши ҳам энг устувор жиҳатлардан бири сифатида қаралади[2].

Шарқ мутафаккирларидан Жалолиддин Румий [3] ўз қарашларида “Жисмоний мансублик билан бирга руҳоний, маънавий яқинликка ҳам ишонади ва у маъно аҳлини авлиё фарзанди” дея таъкидлайди. Хусусан, ёшлар маънавий-руҳий етуклиги ўз даврида мутафаккир олим қарашларида ўз ифодасини топган[3].

Маълумки, Янги ЎЗбекистон шароитида талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришда таълим жараёнида талабаларга, ватанпарварлик, миллий ифтиҳор руҳида шаклланадиган би-

лишнинг ўзига хос шаклларидан биридир деб этироф этиш мумкин. Демак, шахснинг умуминсоний қадриятларга содиқлик, жамият, ижтимоий қатлами, сиёсий партия ва бошқа фуқаролик жамияти институтларининг муайян мақсадлари ифодаси, уларни бу йўлда бирлаштириши, уюштириши, фаолиятга ундаши, сафарбар қилиши» [4] деб ифодалаб ўтган.

Хориж олмиларида Hutmacher Walo [9; 11-б.] таълимда компетенциявий жиҳатларга тўхталиб ўтар экан: “Таълим тизимида ёш авлодда даҳлдорлик хиссини уйғотиш, катталарга ҳурмат, кичикларга иззатда, маданият, тил, дин вакиллари билан ижтимоий муносабатларда маданиятлараро муносабатларда” компетенцияларни ривожланиши муҳим аҳамият касб этади[9].

И.Фрумин [5; 38-б.] тадқиқотларида таълимда компетенцияни маълумотлар ва малакаларнинг оддий комбинацияси сифатида қаралмайдиган ва ҳақиқий масалаларни ҳал этишга йўналтирилган таълимий натижанинг янги тури сифатида эътироф этади. Таълим тизимида компетенциявий ёндашувни амалга оширишнинг йўналишлари у асосий компетенциялар, умумлашган мақсадли кўникмалар, амалий предметли кўникмалар ва ҳаётий малакалар деб атаган ва улар орасида энг муҳими асосий компетенциялар ғояси ҳисобланади деб ифодалаб ўтган[131].

Олим Л.Давидов [6] тадқиқотлари доирасида компетенция масаласига алоҳида урғу бериб, бир аниқ сифатларни ривожлантиришда компетенциявий таълимнинг ўзаро алоқадор ва ўзаро боғлиқ билим, кўникма ва малака, амалий фаолият тажрибаси сифатида қараш муҳим ўрин тутади[6].

А.В.Хуторский [7] тадқиқотлари доирасида компетенция асосида ётувчи кўникма, малака ва фаолият усулларини ажратиб ўрганган бўлиб, уларни ривожлантирилиши керак бўлган, шахс сифатларини блокларга гуруҳлаган: креатив, когнитив, коммуникатив ва дунёқарашга оид, ташкилий фаолиятли гуруҳли блокларга ажратиб уларда шахснинг жисмоний, эмоционал, интеллектуал, қадриятли ва маънавий-ахлоқий сифатларни ажаратиб таҳлил қилган ҳолда ифодалаб ўтган[7].

И.Зимняя [8; 37-б.] ўз изланишлари доирасида компетенциявий ёндашувнинг шаклланишини батафсил кўриб чиққан, у маҳаллий ҳамда хорижий олимларнинг мазкур ёндашувга оид тадқиқотларнинг натижаларини таҳлил қилган бўлиб, янги таълим парадигмасини шакллантиришнинг асосий босқичларини ажратган, бу унга, биринчидан асосий компетенцияларни гуруҳлашга ажратиш, назарий асослашга, иккинчидан, уларнинг айрим асосий, зарурий номенклатурасини аниқлашга, учинчидан эса

уларнинг ҳар бирига кирувчи компонентлар ёки компетенциялар турларини белгилашга имкон беради деб ифодалаган.

Олим томонидан компетенциявий таълимнинг компонентлари таркиби қуйидаги жиҳатларга ажратган ҳолда ифодалаган: яъни,

– таълимда компетенциянинг юзага келиши (яъни, мотивацион жиҳатлари);
– компетенциявий ёндашув таълим мазмунига оид билимга эгалик (когнитив фаолият);
– компетенциявий ёндашувнинг турли-туман стандарт ва ностандарт вазиятларда намоён бўлиш жиҳатлари (аҳлаоқий-хулқий жиҳат);
– компетенциявий таълимнинг мазмуни ва унинг объектига муносабат (қадриятли-мазмунли фаолият);
– таълимда компетенциянинг намоён бўлиш жиҳатлари ўқув-тарбия жараёни ва натижаси эмоционал-иродавий тартиб каби сифатларга ажратилади.

Демак, Янги Ўзбектистон шароитида талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришнинг асосий мақсади ёшларда бунёдкор ғояларнинг мазмун-моҳиятан соғлом ёки носоғлом, эзгу ёки ёвуз, бунёдкор ёки бузғунчи ғояларнинг бўлиши мумкинлигини ёритиш ҳамда умуминсоний қадриятларга содиқлик руҳида тарбияланиши муҳим педагогик вазифа сифатида қаралмоқда.

Бизга маълумки, умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантириш талабаларнинг кундалик фикрларидан фарқли яна ўз тафаккурида пайдо бўлсада, кенг жамоатчилик манфаатларини ифода этишда ўз миллий қадриятлари асосида тарбияланса муҳим ўрин тутади. Демак, талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантириш асосий омил сифатида ўзига ишонч ва эътиқодга айланиб эътироф этилганлиги сабабли талабаларни ватанга садоқат ишонч, миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида камол топиши, қадрлар тайёрлашда мамлакат тақдири учун жон куйдирадиган кадрлар этиб тарбиялаш масаласи долзарб аҳамият касб этмоқда.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // ПФ-5847-сон .

2. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти. Педагогик атамалар луғати. Т.: 2008 й. б – 28-29.

3. Румий Ж. Маънавий маснавий. Муҳаммад таржимаси. Теҳрон, 2001 йил, 7-б. Форсча-ўзбекча луғат.

4. Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар.. (кадрлар тайёрлаш миллий дастури вазифалари доирасида). Т.: 2002.-19 б.

5. Фрумин И. За что в ответе? Компетентностный подход как естественный этап обновления содержания образования. И.Д.Фрумин // Учительская газета. - 2002. - № 36. - С. 38-39.

6. Давыдов В.. Теория развивающего обучения // В.Давыдов. - М.: ИНТОР..., 1996. - 544 с.

7. Хуторской А. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Интернет-журнал «Эйдос». – 2002 г. - 23 апреля. -Режим доступ. URL: http://www.eidos.ru/journal/2003/0420-01.htm 15.02.2010 г..

8. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании .: авторская версия И.Зимняя. - М.: Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов 2004. - 37 с

9. Hutmacher W.. Key competencies for.:. Europe // Report of the Symposium Berne, switzerland 27-30 march, 1996. Council for cultural cooperation a secondary education for europe. Strasburg., 1997. C.11

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришда жамият ҳаётининг маънавий-маърифий фаолиятда амалга ошириладиган ишларни режалаштира олиш, интелектуал салоҳиятли баркамол ёш-авлодни тарбиялаш, узлуксиз таълим тизимида миллий ғояга доир билим ва тафаккурини юксалтириш ҳамда ривожлантириш, талаба-ёшларни профессионал касб эгаси бўлиб вояга етиши, шунингдек, уларнинг умуминсоний қадриятлар, меҳр-мурувват, бағрикенглик, ватанпарварлик, садоқат каби юксак инсоний фазилатларни ривожлантириш ижтимоий педагогик зарурят эканлиги педагогик таъсир воситалари орқали ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье в развитии компетенции учащихся относительно общечеловеческих ценностей, умения планировать работу, проводимую в духовно-просветительской деятельности общественной жизни, воспитывать зрелое молодое поколение, обладающее интеллектуальным потенциалом, воспитывать и развивать знание и размышление о национальной идее в системе непрерывного образования, воспитании студентов и молодежи в профессиональных профессиях, а также о том, что развитие у них высоких человеческих качеств, таких как общечеловеческие ценности, доброта, толерантность, патриотизм и лояльность, является приоритетным. через средства педагогического воздействия подчеркивается социально-педагогическая необходимость.

SUMMARY

In this article, in the development of students' competence regarding universal human values, the ability to plan work carried out in the spiritual and educational activities of public life, to educate a mature young generation with intellectual potential, to educate and develop knowledge and thinking about the national idea in the system of lifelong education, education of students and youth in professional professions, and also that the development of high human qualities in them, such as universal values, kindness, tolerance, patriotism and loyalty, is a priority. Social and pedagogical necessity is emphasized through means of pedagogical influence.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM-TARBIYA SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATI

Temirov D.Sh.
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tayanch so'zlar: ta'lim sifati, jamoatchilik nazorati, pedagogik monitoring, davlat ta'lim standartlari, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim siyosati, ijtimoiy buyurtma, sifat prinsiplari.

Ключевые слова: качество образования, общественный контроль, педагогический мониторинг, государственные образовательные стандарты, новые педагогические технологии, образовательная политика, социальный заказ, принципы качества.

Key words: quality of education, public control, pedagogical monitoring, state educational standards, new pedagogical technologies, educational policy, social order, quality principles.

Kirish. Ta'lim sifati ta'lim jarayoni va uning natijalarining ajralmas xususiyati bo'lib, ularning ta'lim jarayoni qanday bo'lishi va qanday maqsadlarga xizmat qilishi kerakligi haqidagi jamiyatda keng tarqalgan g'oyalarga muvofiqlik darajasini ifodalaydi. Ta'lim sifati uning ijtimoiy samaradorligini belgilovchi omillar bilan belgilanadi: mazmuni, pedagogik kadrlarning yuqori malakasi, eng yangi pedagogik texnologiyalar, moddiy-texnika jihozlari; insonparvarlik yo'nalishi, aholining bilimga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish.

Asosiy qism. Ta'lim jarayonining har bir sub'ekti (o'qituvchi, o'quvchilar, ota-onalar, ma'muriyat va boshqalar) ta'lim sifatini ta'minlashdan manfaatdor. Sifat turli xil, ko'pincha qarama-qarshi ma'nolarga ega:

ota-onalar, masalan, ta'lim sifatini farzandlarining shaxsiyatining rivojlanishi bilan bog'lashlari mumkin;

o'qituvchilar uchun sifat o'quv materiallari bilan ta'minlangan sifatli o'quv dasturiga ega bo'lishni anglatishi mumkin;

o'quvchilar uchun ta'lim sifati, shubhasiz, maktab ichidagi iqlim bilan bog'liq;

biznes va sanoat uchun ta'lim sifati bitiruvchilarning hayotiy pozitsiyasi, ko'nikma va bilimlari bilan bog'liq;

jamiyat uchun sifat o'sha qadriyat yo'nalishlari va kengroq aytganda, o'quvchilarning qadriyatlari bilan bog'liq bo'lib, ular o'z ifodasini topadi,

masalan, fuqarolik pozitsiyasida, ularning kasbiy faoliyatining texnokratik yoki gumanistik yo‘nalishi.

Sifat ma’nosini ba’zi bir noto‘g‘ri tushunish, uning ham mutlaq, ham nisbiy tushuncha sifatida ishlatilishi mumkinligi bilan mustahkamlanadi. Oddiy, kundalik ma’noda sifat asosan mutlaq tushuncha sifatida ishlatiladi. Odamlar, masalan, qimmatbaho restoranlarni (xizmat ko‘rsatish sifati) va hashamatli avtomobillarni (mahsulotlar sifati) tavsiflashda foydalanadilar. Uy sharoitida foydalanilganda, mutlaq konsepsiya nuqtai nazaridan sifatli baho berilgan narsalar, so‘zsiz taxmin qilinganidek, undan oshib bo‘lmaydigan eng yuqori standartni anglatadi. Sifatli mahsulotlarga ularning narxini cheklamasdan tayyorlangan mukammal buyumlar kiradi. Noyoblik va yuqori narx – bu ta’rifning ikkita ajralib turadigan xususiyati. Shu ma’noda sifat maqom va ustunlikni aks ettirish uchun ishlatiladi. “Sifatli” narsalarga ega bo‘lish ularning egalarini ularga egalik qila olmaydiganlardan ajratib turadi.

Ta’lim kontekstida qo‘llanilganda, “sifat” tushunchasi sezilarli darajada boshqacha ma’noga ega bo‘ladi. “Yuqori sifat” degan mutlaq tushunchaning ta’limdagi sifat menejmenti tizimiga hech qanday aloqasi yo‘q. Biroq, sifat menejmenti bo‘yicha munozaralar jarayonida uning mutlaq ahamiyati haqidagi savol ko‘pincha dolzarb holda paydo bo‘ladi. Ushbu konsepsiyadan ideallashtirilgan foydalanish jamoatchilik bilan aloqalar uchun foydali bo‘lishi mumkin, ta’lim muassasasining obro‘sini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, u eng yuqori standartlarga sodiqlik sifatida sifatni yaxshilash muhimligini ko‘rsatadi.

Sifat nisbiy tushuncha sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bunday holda, sifat mahsulot yoki xizmatning atributi emas, unga tegishli bo‘lgan narsadir. Sifat mahsulot yoki xizmat tegishli standartlar yoki spesifikatsiyalar talablariga javob berganida baholanishi mumkin.

Faqatgina sifat yakuniy natija bo‘la olmaydi. Bu faqat yakuniy mahsulotning standartga muvofiqligini aniqlash vositasidir.

Ma’lumki, siyosatning ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatlari jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq. Darhaqiqat, ochiqlik, mas’uliyatni taqsimlash, xilma-xillik huquqi va ehtiyojlarni qondirish – bu avvalo siyosiy va iqtisodiy sohalarda joriy etilishi va tatbiq etilishi, keyin esa ta’lim sohasida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan tamoyillardir.

Ta’lim sifati quyidagilar bilan belgilanadi:

muayyan ta’lim tizimi darajasida va alohida ta’lim muassasasi darajasida ta’lim maqsadlari va natijalariga muvofiqlik darajasi;

muayyan shaxsning ta’lim natijasini baholashda turli parametrlar (bilim sifati, tegishli ko‘nikma va malakalarning shakllanish darajasi, tegishli ijodiy

va individual qobiliyatlarning rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlar va qadriyat yo‘nalishlari) o‘rtasidagi muvofiqligi;

nazariy bilim va ko‘nikmalarning shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab turish va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishda ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda amaliy foydalanishga moslik darajasi.

Ta’lim sifati ko‘plab omillarga, birinchi navbatda, shaxs ta’lim oladigan ta’lim muassasasining pedagogik faoliyati sifatiga, shuningdek, uning o‘quv-moddiy bazasi va ilmiy, uslubiy, tashkiliy, boshqaruv, moliyaviy, iqtisodiy, texnik va xodimlarni qo‘llab-quvvatlash. Umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya sifatini yuqoridagilar bilan bir qatorda yana bir muhim omil – bitiruvchi o‘quvchilarning qancha qismi universitetlarda o‘qishga kirishi bilan belgilanadi.

Ta’lim sifatini baholashda quyidagi qoidalarni ta’kidlash kerak:

sifatni baholash faqat o‘quvchilar bilimini tekshirish bilan cheklanmaydi (garchi bu ta’lim sifati ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolmoqda);

ta’lim sifatini baholash ta’lim muassasasini o‘z faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha hisobga olgan holda har tomonlama amalga oshiriladi.

Sifatni ta’minlash yoki sifat menejmenti, birinchi navbatda, sifat monitoringini qo‘llash orqali, har bir ishlab chiqarish bosqichining optimal darajada bajarilishiga ishonch hosil qilish uchun mahsulotni olish jarayonini bosqichma-bosqich monitoring qilishni anglatadi, bu esa o‘z navbatida nazariy jihatdan sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarishning oldini oladi.

Monitoring (inglizcha monitor – “nazorat”, “tekshirish”) – 1) istalgan natija yoki dastlabki taxminlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida har qanday jarayonni doimiy monitoring qilish; 2) pedagogikada – kasbiy va ta’lim jarayonini tizimli diagnostik kuzatish.

Yuqoridagi tushunchalarni hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, quyidagi elementlar ta’lim sifati monitoringi tizimining bir qismidir:

standartlarni o‘rnatish va ishga tushirish: standartlarni aniqlash;

standartlarni ko‘rsatkichlarda (o‘lchangan miqdorlarda) operativlashtirish ;

standartlarga erishilganligini baholash mumkin bo‘lgan mezonni belgilash;

ma’lumotlarni to‘plash va baholash: ma’lumotlarni to‘plash; natijalarni baholash,

harakatlar: tegishli choralarni ko‘rish, standartlarga muvofiq amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalarini baholash.

Ta’lim sifati monitoringi bevosita ta’lim muassasasida (o‘z-o‘zini sertifikatlash, ichki monitoring) yoki, qoida tariqasida, davlat organlari tomonidan tasdiqlangan ta’lim muassasasiga nisbatan tashqi xizmat orqali amalga oshirilishi mumkin (tashqi monitoring).

Ta’lim standartlarini shakllantirishda standartlarning mazmuni va maqsadi (ta’lim mazmuni standartlari ham, o‘quvchilar erishadigan yakuniy natija standartlari) to‘g‘risida plyuralistik qarashga amal qilish tavsiya etiladi. Standartlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydigan shart-sharoitlarga taalluqli normalar ta’lim “jarayonini” ta’minlash normalari sifatida belgilanadi. Bunday standartlarga misol qilib, kerakli miqdordagi darsliklar va malakali o‘qituvchilarning mavjudligi, o‘quv jarayonini tegishli moddiy-texnik ta’minlash va boshqalarni keltirish mumkin.

Shunday qilib, ta’lim har bir ta’lim muassasasi faoliyatining natijasi va jarayoni sifatida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalar darajasini nazorat qilish bir vaqtning o‘zida professor-o‘qituvchilar va tashqi, davlat organlari tomonidan o‘qituvchilar faoliyatini monitoring qilish, baholanishi kerak.

O‘qituvchi faoliyatini baholashda shuni ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining bilim darajasi va uning o‘quvchilari erishgan natijalari o‘rtasida bog‘liqlik bor; bundan tashqari, bu o‘qituvchining lavozimga muvofiqligini aniqlashning eng oson, eng soddalashtirilgan va ayni paytda xavfli usulidir. Shuni hisobga olish kerakki, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari ta’lim tizimining faqat bir elementi va, ehtimol, talabalarning ta’lim yutuqlari bog‘liq bo‘lgan ko‘plab boshqalar orasida eng ta’sirli emas. Shu sababli, ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha o‘qituvchining faoliyatini baholash zarurligini tushunganda, ushbu element o‘quv va ta’lim yutuqlariga motivatsiya, oilaviy muhitga yoki o‘quvchining individual xususiyatlariga qaraganda kamroq ta’sir qilishini yodda tutish kerak.

Sifat birdan paydo bo‘lmaydi. Buni rejalashtirish kerak. Ta’lim sifatini rejalashtirish ta’lim muassasasi faoliyatining uzoq muddatli yo‘nalishini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Kuchli strategik rejalashtirish ta’lim tizimidagi har qanday muassasa muvaffaqiyatining eng muhim omillaridan biridir. Strategik rejalashtirishning yetakchi maqsadlari nafaqat ma’lum bir davr uchun ta’lim muassasasini rivojlantirishning umumiy rejasini ishlab chiqish, balki ushbu ta’lim muassasasi tomonidan taqdim etiladigan ta’lim xizmatlarining asosiy yo‘nalishlarini tushunish va qayta ko‘rib chiqish bilan ham belgilanadi.

Ta’limni boshqaruv tizimiga, ta’lim makoniga jamoatchilik tashabbusini kirib borish jarayonida bir qator muammolar kelib chiqmoqda. Jumladan:

– ta’lim tizimini boshqarishda uning turli sub’ekt va darajalari o‘rtasidagi vakolatlar chegarasini aniqlanmaganligi;
– ta’lim muassasalarini boshqarishning davlat va jamoatchilik organlarining faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani aniq ishlab chiqilmaganligi;

– ta’limiy jarayonlar sub’ektlari hamkorligini huquqiy tartibga solishdagi noaniqliklar.

Xulosa. Ta’limni boshqarishni jamoatchilikka asoslangan tarkibining salmog‘i bosqichma-bosqich ortib borayotgan sharoitda ta’limni boshqarish organlari faoliyatini hamkorlikdagi, ayni paytda alohida tarzda tashkil etish mumkin, ya’ni sub’ektlarga vakolatlarni berishda ularni

o‘z vakolatlari doirasida faoliyat ko‘rsatishlarini maksimal darajada qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish.

Ta’limni davlat-jamiyat shaklida boshqarish borasida rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshqarishning bu yo‘siniga o‘tish dabdurustdan emas, balki bosqichma-bosqich o‘tilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur loyihani amaliyotga joriy etishning dastlabki davrlarida ta’lim muassasasini boshqarishning davlat tarkibiga jamoatchilik ulushi bosqichma-bosqich qo‘shib(singdirib) boriladi. Jamoatchilik ulushini qo‘shib borishning bosh maqsadi – jamoatchilikka davlat boshqaruvi sub’ektlarining qabul qilayotgan qarorlari har doim ham jamoatchilikka tushunarli bo‘lmagan yoki ular haqida ma’lumotlarni yetarli bo‘lmaganligi sababli ularni negativ tarzda qabul qilinadiganlarini ochiq, tushunarli tarda taqdim etilishiga erishishdan iborat.

Адабиётлар:

1. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.

2. Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasini boshqarishning metodologik va tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish // monografiya. – T.: “Lesson press”, 2017. 116 bet.

3. https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik-nazorati-tarixi-zamonaviy-qarashlar-va-yondashuvlar

4. O‘zbekiston Respublikasining 12.04.2018 y. O‘RQ-474-son «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonuni. https://nrm.uz

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumta’lim maktablari ta’lim-tarbiya sifatini oshirishda jamoatchilik nazoratining tutgan o‘rni va ahamiyati, ta’lim sifatini tarkibiy tashkil etuvchichilari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются роль и значение общественного контроля в повышении качества образования в общеобразовательных школах, а также составляющие качества образования.

SUMMARY

This article discusses the role and importance of public control in improving the quality of education in general education schools, as well as the constituents of the quality of education.

OLIY TA’LIMDA IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QO‘YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Mamatqulova O.X.
TDPU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ta’lim, ta’lim shakllari, fan, ijtimoiy fan, globallashuv, tarix, ma’naviyat, pedagogika, milliy g‘urur, siyosat, texnologiya, pedagogik texnologiya, metod, interfaol metod, modernizatsiyalashtirish.

Ключевые слова: образование, формы образования, наука, обществознание, глобализация, история, духовность, педагогика, национальная гордость, политика, технология, педагогическая технология, метод, интерактивный метод, модернизация.

Key words: education, forms of education, science, social science, globalization, history, spirituality, pedagogy, national pride, politics, technology, pedagogical technology, method, interactive method, modernization.

Mamlakatimiz istiqlolining eng dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tuzimini mustahkamlash, uni davr talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga favqulodda katta ahamiyat berildi. Zero, ilm-fan, madaniyat va ma’rifat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko‘taradi, uning taraqqiyotini ta’minlaydi, kelajagini oldindan ko‘rsatib beradi. Ilm-ma’rifat e’zozlangan, ta’lim-tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat berilgan mamlakatda turish nizolar, urush to‘g‘risida o‘ylash hech kimning hayoliga ham kelmaydi. Chunki ilm-ma’rifat insonni yuksaklikka ko‘taradi. Ta’lim-tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat berish, bu haqda qayg‘urish mamlakat va xalq istiqbolini o‘ylash demakdir.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida, O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar

hal etadi. Kelajak taqdirimizga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omil fan-texnika, madaniyat, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng qo‘llashda o‘rganish, rivojlantirish va hayotga joriy etishdan iborat hisoblanadi.

“Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta”.

Tarix, davlat va huquq asoslari, iqtisodiy bilim asoslari, milliy istiqlol g‘oyasi kabi fanlar(keyingi o‘rinlarda ijtimoiy fanlar)ning o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasida o‘ziga xos o‘rni bor. Xususan, o‘quvchilarni yurtga sadoqat, ona Vatanga muhabbat, tinchlik va osoyishtalikni qadrlash, mustaqillikni asrash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida o‘stirishda ushbu fanlar muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar bu fanlarni mukammal egallasa, o‘zligini anglaydi, faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi, turli muammo va kutilmagan vaziyatlarda oqilona yo‘l tutish ko‘nikmalari shakllanadi.

Yoshlarning mustaqil duyoqarashini va falsafiy tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy - gumanitar fanlarning o‘rni beqiyosdir. Mustaqillik tufayli ta’lim sohasiga joriy etilgan “Milliy istiqlol g‘oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Ma’naviyat asoslari”, “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlar yoshlar tafakkurini kengaytirishda, mustaqil dunyoqarashini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Falsafa”, “Etika va estetika”, “Tarix”, “Iqtisod”, “Adabiyot”, “Huquq” kabi ijtimoiy - gumanitar fanlar yoshlarga nafaqat ilm beribgina qolmay, ularni komil inson bo‘lib yetishishlarida asosiy omil vazifasini bajaradi . Ushbu fanlar orqali g‘oyaviy tarbiya amalga oshiriladi, yoshlarning estetik, huquqiy, axloqiy, falsafiy, ilmiy dunyoqarashlari yuksaladi. Oliy ta’lim tizimida ijtimoiy - gumanitar fanlarning imkoniyatlari katta bo‘lib, bu bevosita o‘sha fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmonida 77-maqsad sifatida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish” deb nomlanganligi hamda ushbu maqsadning natijasi o‘laroq “Tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish” qayd etilganligi juda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibiga kiruvchi “Ma’naviyat asoslari”, “Iqtisodiyot”, “Axloqshunoslik”, “Estetika” kabi fanlaning imkoniyatlari ham oliy ta’lim tizimida alohida ahamiyatga ega, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakat mustaqilligining muhim poydevori iqtisodiyot ekanliginidan kelib chiqib, iqtisodiyotimizda erishilayotgan yutuqlar xalqimizning farovonligini

ta’minlashi haqidagi bilimlar orqali milliy g‘oyaning amaliy ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev bu masalaga alohida e’tibor qaratib shunday deydi: “Inson manfaatlarini ta’minlashda iqtisodiyotimizning yuksak sur’atlar bilan barqaror rivojlanishi qanday katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. SHu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi”.

Umuman olganda, oliy ta’lim tizimida ijtimoiy - gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanilsa, yoshlar qalbida milliy g‘oya chuqur o‘rin egallaydi va ularning amaliy faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tarixdan shu narsa ma’lumki, hech bir davlat yoki jamiyat g‘oyasiz, mafkurasiz bo‘lishi mumkin emas. Bordi-yu davlat yoki jamiyatning muayyan maqsad sari birlashtiruvchi o‘z g‘oyasi, mafkurasi bo‘lmas ekan, u holda o‘sha davlat yot va zararli mafkuralar ta’siriga tushib qolishi shubhasiz.

Ta’kidlash joizki, oliy ta’limda ijtimoiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish bu sohada ko‘zga tashlanayotgan muammolarni bartaraf etishni shartlab qo‘yadi. Zero, har bir sohada bo‘lgani kabi ijtimoiy fanlarni o‘qitishda ham ayrim muammo va kamchiliklar yo‘q emas.

Образование – это фундаментальный процесс, который играет ключевую роль в развитии личности и общества. Эта статья углубляется в суть образовательного процесса, исследуя его основную динамику, ключевые компоненты и глубокое влияние, которое он оказывает на учащихся и общество в целом. Посредством всестороннего анализа образовательных теорий, методологий и реальных приложений мы стремимся обеспечить более глубокое понимание того, как образование формирует мышление, развивает навыки и способствует социальному прогрессу.

SUMMARY

Education is a fundamental process that plays a pivotal role in the development of individuals and societies. This article delves into the essence of the educational process by examining its underlying dynamics, key components, and the profound impact it has on learners and society as a whole. Through a comprehensive analysis of educational theories, methodologies, and real-world applications, we aim to provide a deeper understanding of how education shapes minds, nurtures skills, and fosters societal progress.

TALABALARNING IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA

Yermekbaeva X.
Nizomiy nomidagi Toshkent DPU tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: o‘qituvchi, talaba, ijod, ijodiy faoliyat, kreativlik, o‘quv jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, muammo.

Ключевые слова: преподаватель, студент, творчество, творческая деятельность, креативность, учебный процесс, профессиональная подготовка, проблема.

Key words: teacher, student, creativity, creative activity, creativity, educational process, professional training, problem.

Respublikamizda so‘nggi yillarda talabalarning ijodiy faolligini dunyo hamjamiyati talablari asosida rivojlantirish, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan amaliyotda samarali foydalanishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilmoqda hamda moddiy-texnik bazasi boyitilmoqda. Mamlakatimizda «Xalqaro ta’lim standartlarini mahalliylashtirib ta’lim tizimiga joriy etish hamda ta’lim sifatini baholash asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyati sifati, samaradorligini oshirish» [1] ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish, faol ijodiy izlanish diagnostikasini samarali amalga oshirish, o‘quv jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy faolligini takomillashtirish bo‘yicha B.S.Abdullaeva, N.A.Muslimov, O.Musurmanova, Sh.S.Sharipov; ta’lim jarayonidagi ijodiy faollikning psixologik-pedagogik, uslubiy muammolari U.Sh.Begimqulov, R.X.Djo‘raev, R.G.Isyanov, R.A.Mavlyanova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Ijodiy shaxs tushunchasi falsafiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarda qadimdan ishlatilgan. Shunday qilib, hatto rus ixtirochisi va olimi P.K.Engelmeyer, xususan, «Texnik ixtirolar sohasidagi ijodiy shaxs va muhit» asarida quyidagi ta’rifni keltirgan: «ijodkor – bu hamma narsaga o‘zining yangi noodatiy g‘oyalarini beradigan progressiv shaxs» [7. B.81.].

N.Muslimov o‘zining tadqiqotlarida «rivojlantirish hamda tarbiya individga nisbatan yagona maqsad – uning jamiyatda o‘z intellektual imkoniyatlarini to‘la

ro‘yobga chiqarishga qaratilgan holda ijobiy ta’sir qiladi, biroq rivojlantirish bu vaqtda individ ega bo‘lgan shaxsiy sifatga qaratiladi, tarbiya esa, u ega bo‘lmagan, lekin jamiyatda qaror topgan ma’naviy-axloqiy me’yorlarda ko‘zda tutilgan sifatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Qayd etilgan omillarga zarur darajada har tomonlama ta’sir ko‘rsatib, ham talabani rivojlantirish, ham uni tarbiyalash masalalarini samarali hal qilishi mumkin» deb o‘z mulohazasini bildirgan [3. B. 78.].

B.S.Abdullaevaning tadqiqotida «Shaxsiy intellektual imkoniyatlarsiz talabaning mehnatga ijodiy munosabatlarini shakllantirish turli o‘quv fanlari mazmunini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida amalga oshiriladi» - deb ta’kidlagan [2. B. 13].

Bir qator dissertatsiya va monografiyalarda ijodiy, faol talaba va bu maqsadga real hamda maqsadli erishish uchun shart-sharoit va uslubiy-texnik vositalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, bu talabalarni oliy ta’limda o‘qitish tizimida ijodiy faolligini rag‘batlantiradigan o‘quv jarayonini oqilona tashkil etishni izlash zarurligini ko‘rsatadi.

Shaxsda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab «ijodkorlik» tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, ijodkorlik o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmuiyi sanaladi [4. B.14]. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida bu tushunchani shunday izohlaydi: «ijodkorlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim» [5. B. 10.].

Ijodkorlik – insonning dunyoni moddiy va ma’naviy anglash jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy hodisasidir. Ijodiy faoliyat jamiyatning turli sohalarida amalga oshiriladi, shunga ko‘ra uning turli ko‘rinishlari mavjud. Jumladan, kreativlik – (creare – ijodkorlik) xorijiy psixologiyada ham shaxs intellektual qobiliyatining alohida turi, faoliyatning ijodiy uslubi, ijodiy yutuqlari natijalari sifatida talqin qilinadi [6. B.52.].

Ijodiy faoliyat talabalarning mustaqilligini rivojlantirishni, ularning bir bosqichdan ikkinchisiga mustaqil ravishda o‘tish qobiliyatini (vazifani qabul qilishdan hal etishgacha, ta’lim vazifasini qo‘yishdan yetarli tarbiyaviy harakatlarni aniqlashgacha) o‘z ichiga oladi. Nafaqat mantiq texnikasini o‘zlashtirish va ta’lim muammolarini odatiy usullar bilan hal qilish, balki sizning eng oqilona hal qilish yo‘lingizni izlash qobiliyati hamdir. Bunday sharoitda pedagogik jarayonning dialektikasi o‘qituvchining faoliyati va talabaning ijodiy faolligining o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi, bu esa motivatsiya, mustaqillik,

intellektual va irodaviy sa'y-harakatlar, shuningdek hissiy tajribalarning ortishi bilan kechadi [8. B. 12.].

Faollik–insonningintiluvchanligivaishgalayoqatliliginingko‘rsatkichlaridan biridir. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarning hammasi ham yetarli darajada yuqori amaliy faolligi bilan ajralib turmaydi.

Tadqiqotimizda talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish muammosini o‘rganishda quyidagilarga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi:

– talabalar bo‘lajak kasbiy tayyorgarligining natijadorligiga (faollik, tadbirkorlik, ijodiy fikrlash va shaxsning zamonaviy jamiyatda faollashishi);
– talabaning ijodkor shaxs sifatida faol rivojlanishiga (jamiyat hayotidagi murakkab vaziyatlar va muammolar);
– samarali pedagogik ta'limga (talabalarning real va potensial imkoniyatlari);
– talabalar ijodiy faolligini rivojlantirish jarayonining mahsuldorligiga (zamonaviy ta'lim texnologiyalarini saralash va o‘quv jarayonida samarali qo‘llash);
– talaba ijodiy faolligini rivojlantirish samaradorligiga (har tomonlama rivojlanish va shaxs psixikasining namoyon bo‘lishi).

Shu paytgacha ko‘plab oliy ta'lim muassasalari talabalarining hayot va shaxsining intellektual tiklanish shart-sharoitlari sifatida rivojlantiruvchi va ijodiy muhitni yaratishga qodir bo‘lgan mutaxassis tayyorlashga emas, balki fan o‘qituvchisi – o‘quv axboroti tashuvchisi va uning o‘zlashtirilishi nazoratchisini tayyorlashga yo‘nalganlik olganicha qolmoqda. Talaba, avvalgidek, pedagogik qayta ishlab chiqarish ommaviy jarayonning ob'ekti sifatida qaralmoqda, uning individualligi shakllantirilmayapti, bo‘lajak mutaxassisni individual tayyorlash uchun shart-sharoitlar yetarlicha yaratilmagan.

Bundan tashqari, davlat talablarida o‘qituvchilar va talabalarning ijodiy o‘sish va ilmiy yutuqlarga bo‘lgan intilishini rag‘batlantiradigan kafolatlar tizimi tashkil etish zarur. Shuning uchun o‘qituvchilar, talabalar va yosh mutaxassislarning mustaqil ijodiy ishlarining kompleks dasturini ta'lim tizimiga kiritish bo‘yicha sa'y-harakatlarini birlashtirish kerak. Ushbu ishning mazmuni, uslublari, shakllari va vositalarini ijodiy ishlaydigan mutaxassislar tayyorlashda ta'lim muassasalari oldida turgan maqsad va vazifalarini muvofiqlashtirish lozim. Talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantiradigan va ularning har birini turli xil o‘quv fanlariga mustaqil ijodiy faoliyatga bevosita jalb qilishni ta'minlaydigan darsliklar tizimini yaratish lozim.

Adabiyotlar:

1. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni

2. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida): Ped.fan.dokt….diss. avtoref. –T.: 2006, - 49 b.

3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. –T.: Fan, 2004. -124 b.

4. Робинсон К., Ароника Л. Школа будущего. Как вырастить талантливого ребенка. –Москва: Манн, Иванов и Фербер, 2016. –С. 14.

5. Todjibaeva K. Ijodkor shaxs va daholik: falsafiy va psixologik talqin // Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. -№1, -Toshkent, 2017. –B. 10.

6. Халперн Д. Психология критического мышления / Д.Халперн. –СПб.: Издательство Питер, 2000. -512 с.

7. Энгельмейер П.К. Творческая личность и среда в области технических изобретений. –СПб.: Образование, 1911. – 116 с.

8. Yaxyoeva G.B. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish (chet tilini o‘rganish jarayonida). Ped.fan.bo‘y.fals.dokt.(PhD) diss.avtoreferati. –Toshkent, 2022. –B. 12.

РЕЗЮМЕ

Maqolada talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, ushbu muammoga bag‘ishlangan psixologik-pedagogik hamda uslubiy adabiyotlar, talabalarning intellektual rivojlanishiga ijodiy yondashuvning ahamiyati va ijodiy faoliyatini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются организационно-педагогические условия развития творческой активности студентов, психолого-педагогическая и методическая литература, посвященная этой проблеме, значение творческого подхода к интеллектуальному развитию студентов, вопросы организации творческой деятельности.

SUMMARY

The article discusses the organizational and pedagogical conditions for the development of students’ creative activity, psychological, pedagogical and methodological literature devoted to this problem, the importance of a creative approach to the intellectual development of students, questions of organizing creative activity.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Tursinov M.P.
Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: o'qituvchi, talaba, ekologik madaniyat, ta'lim jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, muammo.

Ключевые слова: переподаватель, студент, экологическая культура, образовательный процесс, профессиональная подготовка, проблема.

Key words: teacher, student, ecological culture, educational process, professional training, problem.

Respublikamizda so'nggi yillarda tabiatga mas'uliyatli yondashuv, tabiiy boyliklarni saqlash, ulardan oqilona foydalanish hamda flora va faunani boytishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Mamlakatimizda «Jismonan sog'lom, aqlan va ruhan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» [1] kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda mavjud pedagogik ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanib, talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning atrof-muhit, tabiat muhofazasini tashkil etish, ekologik ta'lim asoslarining pedagogik jihatlari, globallashuv davrida ekologik xavfning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llari talabalarda tabiat, atrof-muhit muhofazasiga mas'ullik tuyg'usini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari Q.Abdurahimov, I.X.Ayubova, N.Sh.Bozorova, Sh.M.Kamalxo'jaev, A.R.Malikova, U.O.Turdiqulov, A.S.To'xtaevlar tomonidan amalga oshirilgan.

Ta'limni modernizatsiya davrida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili mamlakatimizda ekologik ta'limni rivojlantirish muammosi nafaqat falsafa, tarix, sotsiologiya, iqtisod va huquqshunoslik kabi fanlarning, balki pedagogika fanida vujudga kelgan hamda ilmiy tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadigan muammo ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda pedagogika sohasida ekologik ta'limning rivojlanish va taraqqiyotiga o'z hissasini qushgan pedagog olim E.O.Turdiqulov tabiiy fanlar asosida ta'lim oluvchilarga ekologik ta'lim-tarbiyani hamda uning uzluksizligini ta'minlash yuzasidan qator tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning ilmiy mehnatlarida

«Ekologiya», «Ekologik ta'lim va tarbiya» tushunchalariga keng mazmunda sharhlar berip o'tilgan. E.O.Turdiqulov ta'lim oluvchilar ongida tabiatga mehr-muhabbat hissini shakllantirish va insonlar tabiiy zaxiralarsiz yashay olmasligini singdirishga oid fikrlarini ilmiy nuqtai nazardan asoslab bergan [5].

Ilmiy-nazariy adabiyotlarni hamda talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha amaliyotdagi holatini o'rganish bu muammoning yechimini topishda quyidagi masalalarga e'tiborni qaratishni talab etadi:

– talabalarda ekologik madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi;
– talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish;
– talabalarning ekologik madaniyatini rivojlanganlik ko'rsatkichlarini aniqlash;
– ekologik ta'limga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalarning yangi avlodini yaratishda dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalar tomonidan to'plangan tajribalardan ijodiy foydalanish.

Talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda, tarbiyaviy ishlarni olib borishda, auditoriyadan tashqari ekologik yo'nalishdagi ishlarni tashkillashtirishda raqamli texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish o'quv materiallarining mazmunini boyitadi, muhim uslubiy qo'llanma vazifasini bajaradi. Talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlariga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni muntazam faollashtirishda nodavlat va notijorat jamoat tashkilotlarining ekologiyaga oid to'plangan materiallari, amaliy tajribasi, xolisona ilmiy amaliy xulosalardan samarali foydalanish, talabalarga ilmiy asoslangan material sifatida o'rganishni taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqining boy ma'naviy-madaniy merosi, milliy qadriyatlari talabalarda eng oliy insoniy sifatlarini, jumladan, ekologik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkirlarning jahon ilm-fan rivojini ta'minlagan ekologik ilmiy-nazariy xulosalari o'zining tarbiyaviy mohiyatiga ko'ra milliy qadriyatlar orasida alohida o'rin tutadi. Ular tomonidan ilgari surilgan hamda asrlar davomida tabiatni e'zozlash munosabatini, hozirgi davrda ham talabalar ongida atrof-muhitga ijobiy munosabatni tarbiyalash, tabiat muhofazasi uchun mas'uliyat hisini rivojlantirishga yordam beruvchi ekologiyaga oid ilmiy-nazariy pedagogik qarashlardan foydalanish, bugungi kunda ham ekologik ta'lim-tarbiyaning samarali bo'lishi uchun va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun muhim g'oyaviy asos sanaladi [4].

Al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad al-Farg'oniy, Abu Nosir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayom va Amir Temurlarning ekologiyaga mansub fikrlari, g'oyalari o'z mohiyatiga ko'ra atrof-muhitning ular yashab o'tgan davrlardagi holati asrlar davomida avlodlar uchun muhim yo'riqnoma sifatida xizmat qilmoqda.

O‘rta Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy pedagogik ta’limotida inson ekologiyasi muammolari yetakchi o‘rin tutadi. Alloma asarlarida ilgari surilgan ekologik qarashlar negizida insoniyatning tabiat, atrof-muhit bilan o‘zaro muloqati uning ekologik tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liqdir, degan g‘oya yotadi. Ushbu g‘oyaga tayangan holda ta’kidlash lozimki, tabiat sirlarini o‘rganib, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish insoniylikning oliy sifatlaridan biridir.

Abu Nasr Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, «Kitob qolhajm va al-Miqdor», Kitob al-mabodi al-insonia (Insoniyatning boshlanishi haqida), «Kalam fia’zo al hayvon» (Hayvon a’zolari to‘g‘risida) nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi. Tabiatshunoslikka oid «Odam a’zolarining tuzilishi», «Hayvonlar a’zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a’zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o‘xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomik-fiziologik tushunchalar berilgan. Ularning ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Odam tanasining tuzilishi va vazifalari haqida so‘z yuritilganda ularning o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligi, ulardagi o‘zgarishlar, ya’ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi. Kasallikning oldini olish, sog‘lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo‘llash lozim ekanligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Ekologik bilimlar rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan allomalardan yana biri Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Mutafakkir tomonidan yaratilgan asarlarda tabiiy muhitdagi dialektik rivojlanishning ilmiy asoslari yoritilgan. Alloma asarlarida insonlar o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan ekologik bilimlar, jumladan, o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi hamda tabiatdagi, inson hayotidagi ahamiyatiga oid qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Uzoq yillik ilmiy kuzatishlar va tajribalarga tayangan holda Abu Rayhon Beruniy tabiatdagi hodisalar ma’lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, degan xulosaga keladi, tashqaridan ta’sir etuvchi har qanday kuch ularni o‘zgartirish qobiliyatiga ega emas. Bunday holatning ro‘y berishi esa ekologik buzilishga olib keladi.

Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida tabiatga oid fikrlarni bayon qilish bilan birga insonning atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi lozimligini ham ta’kidlab, insonlarning tabiatga munosabatda o‘ziga xos madaniyatli yondashuvlarnini targ‘ib qiladi.

O‘quvchilarda ekologik integratsiyalashgan ekologik tushunchalarni rivojlantirishda Abu Ali ibn Sino asarlarning ahamiyati katta. Alloma tomonidan yaratilgan asarlarning soni 450 dan ortiq bo‘lib, ularning 80 dan ortig‘i tabiat va iinsonning unga bo‘lgan munosabati masalasiga bag‘ishlangan.

Abu Ali ibn Sinoning tog‘larning paydo bo‘lishi, yer yuzasidagi tabiiy jarayonlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarishiga oid g‘oyalari tabiatshunoslik fanining rivoji uchun muhim ahamiyatiga ega bo‘ladi [2].

Xulosa qilib aytganda, talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishda, quyidagilarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:

- talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyatini yoritish;
- talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy loyihalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- oliy ta'limda o'qitilayotgan pedagogikaga oid fanlarni ekologiyaga oid ilmiy-uslubiy manbalar va O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid ta'limotlari bilan o'quv dasturlari, o'qitilayotgan darsliklar, o'quv qo'llanmalarni muntazam sur'atda takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishni;
- ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishda ta'lim muassasalarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan pedagogik hamkorligini kuchaytirish jarayonini takomillashtirish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli «O'zbekiston Respbulikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'rsida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2017 y. 6-son. 70-modda.

2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. III jidlik saylanma. – Toshkent.: Abu Ali ibn Sino. 1996, -B. 418.

3. Irisov A. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. Ibratli so'zlar. – Toshkent.: Fan. 1993, -B. 24.

4. Murtozaeva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning ekologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.dokt (DSc) diss.avtoreferati. –Toshkent, 2022. –B. 18.

5. Turdiqulov E.O., Turdiqulov U.O. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti. –T.: Fan, 2005. -309 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda, auditoriyadan tashqari ekologik yo'nalishdagi ishlarni tashkillashtirishda raqamli texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish o'quv materiallarining mazmunini boyitadi, muhim uslubiy qo'llanma vazifasini bajaradi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы развития экологической культуры студентов высших учебных заведений. Широкое использование возможностей цифровых технологий при реализации мероприятий, направленных на развитие экологической культуры обучающихся, при организации экологической деятельности вне аудитории обогащает содержание учебных материалов и служит важным методическим руководством.

SUMMARY

The article deals with the development of ecological culture of students of higher educational institutions. The wide use of the possibilities of digital technologies in the implementation of activities aimed at developing the environmental culture of students, in organizing environmental activities outside the classroom, enriches the content of educational materials and serves as an important methodological guide.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

ЖАМИЯТДА ЮЗАГА КЕЛАЁТГАН ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИ ПРОФИЛАКТИКА ҚИЛИШДА ХОТИН-ҚИЗЛАР, ЁШЛАР ТАШКИЛОТЛАРИ ВА ДИНИЙ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ҲАМКОРЛИГИ

Мамазова З.К.
Ўзбекистон халқаро ислом академияси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: хотин-қизлар, ёшлар, профилактика, ҳуқуқбузарлик, диний ташкилот, соғлом дунёқараш.

Ключевые слова: женщины, молодежь, профилактика, преступность, религиозная организация, здоровое мировоззрение.

Key words: women, youth, prevention, crime, religious organization, healthy outlook.

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида ташкил этилган хотин-қизлар, ёшлар ташкилотларининг диний ташкилотлар билан жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш йўлида амалга оширган ҳамкорликдаги фаолияти натижаларини ўрганиш ва таҳлил қилиш мавжуд камчиликларни батараф этиш, ҳамкорликнинг ташкилий ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш ва истиқболларини белгилашда, шунингдек, диний-маърифий соҳада содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликларни профилактика қилишда ўзига хос ўрин тутади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг 18,9 млн.нафари ёки 54 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ва болалар ташкил этади. Ушбу ёшларни жинс кесими бўйича тақсимласак, уларнинг 9,5 миллиони эркак бўлса, 9,4 миллиони аёл жинсига мансуб ёшлардир .

Демак, улар жамиятда етакчи куч. Уларга ҳаётда ўз ўринларини топишлари учун конституцион ҳуқуқ ва эркинликлари тушунтирилиши билан бирга турли давлат ва жамоат ташкилотларига аъзо бўлишлари, таълим олишлари, турли ёт ғоялар таъсирига берилмасликлари, бўш вақтларини мазмунли ташкил этишлари доимий равишда тушунтириб борилиши, зарурат бўлганда, амалий кўмак берилиши лозим бўлади.

Хотин-қизлар ташкилотлари тарихига назар ташласак, 1991 йил 27 декабрда Ўзбекистон Республикаси хотин-қизлар қўмитаси ташкил этилганлиги, 2004 йил 25 майда Ўзбекистон хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-

3434-сонли Президент фармони эълон қилингани, 2020 йил 19 февраль санасида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5938-сонли Жамиятда ижтимоий–маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида фармони билан Республика хотин-қизлар қўмитаси фаолияти тугатилиб, янги ташкилот "Маҳалла ва оилани қўллаб қувватлаш вазирлиги" фаолияти йўлга қўйилганлигига гувоҳ бўламиз.

Хотин-қизлар қўмитаси аёлларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, аёллар ва ёшларни маънавий ва интеллектуал ўсишини таъминлаш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун жамоат бирлашмаси ташкилий ҳуқуқий шаклида ташкил этилган республика нодавлат нотижорат ташкилоти сифатида фаолият олиб борган.

Қўмитанинг вазифаларига жойларда (оила, маҳаллалар, меҳнат жамоатлари, таълим муасссасаларида) миллий-диний анъаналарни тушунтириш ва уларга риоя қилиш, хотин-қизларнинг конституциявий ҳуқуқларини руёбга чиқариш ва ҳимоя қилиш, бузғунчи кучларнинг хотин-қизлар онгига таъсир ўтказиш, уларни экстремистик ва террористик фаолиятига жалб этиш йўлидаги уринишларига қарши қаратилган ишларни самарали ташкил қилиш, хотин-қизларнинг нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириш ва улар билан самарали ҳамкорликни таъминлаш, бу ташкилотларнинг саъй-ҳаракатларини жамиятни модернизациялаш ва демократик янгилаш жараёнларида, Ўзбекистонда жамият ва давлат қурилишида хотин-қизларнинг ролини кучайтириш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш борасидаги ишларга йўналтириш кабилар киритилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2004 йил 25 майдаги ПФ-3434-сонли фармони билан Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитасининг 2004 йил 1 июлдан бошлаб фуқаролар йиғинлари кенгашлари аппаратининг тузилмасига тарбиячи-педагог лавозими ўрнига ҳудудида камида 500 оила яшайдиган маҳаллаларда, таркибида маҳаллалар ташкил қилинмаган посёлка, қишлоқ ва овулларда диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчи лавозимлари жорий этилган. Ушбу лавозимга ҳаёт тажрибасига эга бўлган, аҳолига, биринчи навбатда, ёшларга соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, ибратли миллий-диний анъаналар ҳамда урф-одатларни сақлаб қолиш ва ривожлантириш масалаларида ижобий таъсир ўтказа оладиган энг обрўли ва фаол хотин-қизларни тайинлаш белгиланган.

18.02.2020 йилда эса Ўзбекистон Республикаси Президентининг Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла инсти-

тутини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-5938-сонли фармони эълон қилиниб бугунги кунда оила, хотин-қизлар ва кексаларга ёрдам кўрсатишнинг яхлит тизими мавжуд эмаслиги, ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш бўйича кўрилаётган чоралар самарали натижа бермаётганлиги жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш ва қонун устуворлигини таъминлашга салбий таъсир кўрсатаётганлиги эътироф этилган ва Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси раҳбар органларининг ушбу ташкилотни тугатиш ҳақидаги қарорлари маъқулланган.

Юқоридаги фармон билан Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ташкил этилиб вазирлик оила, хотин-қизлар ва кексаларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш борасида ягона давлат сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари билан ҳамкорлик ўрнатиш бўйича ваколатли давлат бошқарув органи сифатида белгиланган.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тузилмасида фуқаролар йиғини раисининг оила, хотин-қизлар ва ижтимоий-маънавий масалалар бўйича ўринбосари, оила ва хотин-қизлар масалалари бўйича мутахассис, фуқаролар йиғини раисининг ёшлар масалалари бўйича маслаҳатчиси лавозимлари тугатилиб, фуқаролар йиғини раисининг оила, хотин-қизлар ва ижтимоий-маънавий масалалар бўйича ўринбосари, оила ва хотин-қизлар масалалари бўйича мутахассис, фуқаролар йиғини раисининг ёшлар масалалари бўйича маслаҳатчиси лавозимлари жорий этилган.

Фармонга илова шаклида мамлакатда “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилига асосланган тизимни самарали жорий этиш бўйича “йўл харитаси” тасдиқланган бўлиб, Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги Ўзбекистон Мусулмонлар идораси ва бошқа ҳамкор ташкилотлар билан Миллий урф-одатлар, анъаналар ва қадриятларни кенг тарғиб этиш мақсадида «Маҳалла — қадриятлар маскани» ҳафталигини ташкил этиш, муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар ва қабристонларни ободонлаштириш, аждодлар ва марҳумларга ҳурмат бажо келтириш, уларнинг қабрларини обод қилиш — ҳар бир фуқаронинг инсоний бурчи эканлиги ҳақида аҳоли билан суҳбатлар ўтказиш каби ишларни амалга оширишга масъул этиб белгиланган.

1 март 2022 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони қабул қилиниб, республикада оила ва хотин-қизларга оид давлат сиёсатини янги босқичга олиб чиқиш, уларнинг муаммоларига тизимли ечим топиш,

ваколатли орган фаолиятини самарали ташкил этиш ва мувофиқлаштириш мақсадида Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси ташкил этилди.

Фармон қабул қилиниши билан фуқаролар йиғини раисининг оила, хотин-қизлар ва ижтимоий-маънавий масалалар бўйича ўринбосари, оила ва хотин-қизлар масалалари бўйича мутахассис, фуқаролар йиғини раисининг ёшлар масалалари бўйича маслаҳатчиси лавозимлари ўрнига хотин-қизлар фаоли лавозими жорий этилди.

Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси ташкил этилиши билан Маҳалла ва оилани қўллаб қувватлаш вазирлиги Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги сифатида қайта ташкил этилди. Вазирликнинг мақсад ва вазифалари фармон билан белгилаб қўйилди.

2023 йилда амалга оширилган маъмурий ислоҳотлар натижасида эса хотин қизлар давлат қўмитаси камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги тасарруфига ўтказилиб Хотин-қизлар қўмитаси деб юритиладиган бўлди.

Бугунги кунда хотин-қизларнинг диний таълим олишга оид имкониятларини рўёбга чиқариш, дин соҳасида профессонал мутахассисларни тайёрлаш, турли миллий ва диний маросимларни тўғри ташкил этишга кўмаклашиш мақсадида Ўзбекистон мусулмонлари идораси тасарруфида нодавлат юридик шахс мақомидаги аёл қизларга иқтисослаштирилган “Хадичаи Кубро” ва “Жўйбори калон” аёл-қизлар ўрта-махсус ислом билим юртлари, шунингдек, олий диний маълумот берувчи Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институти фаолияти ҳам йўлга қўйилган.

Ушбу диний таълим муассасалари Ўзбекистон Республикасида таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принципларига таянган ҳолда динлар тарихи ва назариясини чуқур эгаллаган, ислом дини асосларини ўзлаштирган, инсонпарварлик, халқпарварлик, ватанга садоқат руҳида тарбияланган ўрта махсус ва олий маълумотли исломшунос мутахассисларни тайёрлайди.

Ундан ташқари жойларда тўй ва маракаларни тартибли равишда ўтказиш, ўзининг маслаҳати ва иштироки билан ханафия мазҳабига мувофиқ равишда диний ва миллий урф-одатларни бажариш, Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан чиқарилган фатволарни жойларга етказишда яқиндан кўмак бериш, экстремизм ва ақидапарастлик ғояларининг ислом динига мутлақо зид эканлигини тушунтириш билан хотин-қизлар орасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш мақсадида лицензия асосида фаолият олиб борадиган отинойилар фаолияти йўлга қўйилган.

Ўзбекистонда ёшларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган ёшлар ташкилотлари тарихига назар ташланса, 1996

йилда ўзини ўзи мустақил бошқарувчи, маблағ билан таъминловчи ва мустақил фаолият юритувчи ноҳукумат жамоат бирлашмаси сифатида "Камолот" жамғармаси ташкил этилганлиги, 2001 йилдан эса у Камолот ёшлар ижтимоий ҳаракати номи билан, 2017 йил 30 июндан Ёшлар иттифоқи сифатида қайта ташкил этилиб фаолият олиб бораётганлиги, 2020 йил 30 июндан давлат ташкилоти сифатида Ёшлар ишлари агентлиги фаолияти ҳам йўлга қўйилганлигига гувоҳ бўламиз.

Дастлаб ташкил этилган ёшларнинг «Камолот» жамғармаси фаолиятининг асосий йўналиши этиб Ўзбекистонда келажаги буюк давлат барпо этиш, демократияни ривожлантириш, ёшлар қалбида миллий маънавиятимиз, маданий меросимиз ва умуминсоний қадриятлар заминида соғлом руҳ ҳамда дунёқарашни шакллантиришдек хайрли ишни мақсад қилиб қўйганлиги эътироф этилган.

"Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг асосий вазифаларига эса ёшларни маънавий-ахлоқий, ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларда тарихий хотира, миллий ғурур ва ўзликни англаш, бўлаётган тадбирларга дахлдорлик, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат туйғуларини шаклантириш, шунингдек, ёшларни диний экстремистик ва бошқа бузғунчи ташкилотларнинг салбий таъсиридан, "оммавий маданият" ниқоби остида ташқаридан кириб келаётган турли зарарли таъсир ва таҳдидлардан асраш, ёшлар орасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш кабилар киритилган.

Эътибор қаратадиган бўлсак, дастлаб ташкил этилган жамғарма ва кейинги ижтимоий ҳаракатнинг фаолият йўналишлари ва мақсадлари ўзаро ҳамоҳанг бўлиш билан бирга ижтимоий ҳаракат вазифаларига ёшларни экстремизм ва "оммавий маданият"нинг зарарли таъсиридан асраш кабилар ҳам киритилган бўлиб, бу ижтимоий тармоқлар ва ахборот алмашинувининг жадаллашуви билан ҳам боғлиқ дейиш мумкин.

2017 йилда "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракати негизида ташкил этилган Ёшлар иттифоқининг вазифалари ижтимоий ҳаракат вазифалари билан айнан бир хил бўлиб, ёшларни, хусусан, уюшмаган ёшларни диний-экстремистик ва бошқа бузғунчи ташкилотлар таъсиридан, четдан "оммавий маданият" ниқоби остида кириб келаётган салбий таъсир ва таҳдидлардан асраш, ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликни профилактика қилиш ва олдини олишга кўмаклашиш ни ўзининг мақсад ва вазифалари сифатида эътироф этган. Ёшлар иттифоқи "уюшмаган ёшлар" иборасини таъкидлаб, уларни турли хил салбий таъсир ва таҳдидлардан асраш лозимлигини эътироф этган ва бу ибора кейинги йилларда ўқишга киролмаган, жамоат ишларида фаол бўлмаган, ишламайдиган, жиноят содир этишга

мойиллиги бор бўлган ёшларга нисбатан ишлатилиб, ўша пайтдаги Ёшлар иттифоқи фаоллари ушбу иборани ёшларни тоифага ажратиш учун эмас, балки ёшларга оид сиёсатда давлат ўзи учун аниқ стратегик режалар белгилаб олиши учун лозим бўлган деб изоҳлайди.

Ўзбекистон Республикасида ёшлар катта куч эканлиги, жамиятнинг эртанги куни, мамлакат келажаги ва тараққиётининг гарови эканлигидан келиб чиқиб ёшлар йўналишида фаолият кўрсатувчи нодавлат нотижорат ташкилотларига ўз фаолиятини йўлга қўйиш, амалга ошириш ва ривожлантиришда ҳар томонлама ташкилий ва амалий ёрдам кўрсатиш мақсадида хорижий мамлакатлар тажрибаси ўрганилган ҳолда 2020 йилда давлат ташкилоти сифатида Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги фаолияти ташкил этилди.

Нодавлат нотижорат ташкилот сифатида Ёшлар иттифоқи фаолияти сақлаб қолинган бўлса-да, бугунги кунда самарали фаолият олиб бормоқда деб бўлмайди. Иттифоқ амалга ошираётган ишлар доираси ва кўлами тор, таъсири эса паст эканлигининг гувоҳи бўлмоқдамиз. Хусусан, Ёшлар иттифоқининг Интернет тармоғидаги расмий сайтида бериб борилаётган маълумотларда тезкорлик ва актуалликнинг йўқлиги ҳам бунинг далилидир.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан 2020 йилгача мамлакатда хотин-қизлар ва ёшлар фаолиятини ҳар жиҳатдан тартибга солишга қаратилган, жамоат ташкилотлари сифатида иш олиб борган хотин-қизлар ва ёшлар ташкилотларининг уставларида келтирилган мақсад-вазифаларда миллий-диний анъаналарни тушунтириш ва уларга риоя қилиш, экстремистик ва террористик фаолиятга жалб этиш йўлидаги уринишларга қарши қаратилган ишларни самарали ташкил этиш, экстремистик ва бошқа бузғунчи ташкилотларнинг салбий таъсиридан, “оммавий маданият” ниқоби остида ташқаридан кириб келаётган турли зарарли таъсир ва таҳдидлардан асраш кабилар назарда тутилган. Бироқ ушбу муаммоларни диний ташкилотлар билан биргаликда бартараф этиш юзасидан ҳамкорлик қилишнинг ташкилий ҳуқуқий асослари белгилаб берилмаган.

Ўзбекистонда кейинги йилларда марказий давлат бошқарув органлари ваколатларини босқичма-босқич маҳаллий давлат органларига ўтказиш, фуқаролик жамияти институтлари бўлмиш жамоат ташкилотлари фаолиятини жонлантириш ва қўллаб-қувватлашнинг ҳуқуқий асослари такомиллаштирилаётганлигига қарамай, мустақилликнинг дастлабки йилларида жамоат ташкилоти сифатида фаолият олиб борган хотин-қизлар ва ёшлар ташкилотлари бугунги кунда давлат муассасаси сифатида қайта ташкил этилган.

Хотин-қизлар ва ёшлар фаолияти билан боғлиқ масалаларнинг давлат ташкилоти назоратига олинганлиги, бир томондан, глобаллашув замонида “оммавий маданият”нинг таъсири бутун жаҳонда кучайиб бораётган даврда хотин-қизларга нисбатан қўлланиладиган дискриминация, турли тазйиқ ва зўравонликларнинг олдини олиш, гендер тенгликни таъминлаш, хотин-қизларнинг жамиятдаги мавқеини янада оширишга қаратилган масалалар, шунингдек, жамиятнинг эртанги келажаги бўлмиш ёшлар таълим-тарбияси ва уларнинг қизиқишларига оид масалаларни бир сонияга ҳам эътиборсиз қолдириб бўлмаслигини англатса, иккинчи томондан, жамоат ташкилотлари фаолиятини янада жонлантириш учун аҳолининг бу борадаги ҳуқуқий онги ва маданиятини янада юксалтириш, уларда дахлдорлик ҳиссини кучайтириш, жамоат ташкилотлари ўртасида ўзаро самарали ҳамкорлик ўрнатишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш заруратини тақозо қилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сонли қарорига илова Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси (3-боб).

2. “Хадичаи Кубро” аёл-қизлар ўрта махсус ислом билим юртининг устави(20.07.2016 й) Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институти устави (23.06.2016й).

3. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2000 йил 16 октябрда 978-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган Ўзбекистон Республикасида фаолият юритаётган отинойиларга махсус лицензиялар бериш тартиби.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ёшлар ишлари агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги 30.06.2020 йилдаги ПҚ-4768-сонли қарори.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17.04.1996 йилдаги ПФ-1425-сонли Ўзбекистон Республикаси ёшларининг “Камолот” жамғармасини ташкил этиш тўғрисидаги фармони.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада Ўзбекистонда ёшларнинг ижтимоий муаммоларини ўрганиш, улар ўртасида содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликрани профилактика қилишда хотин-қизлар, ёшлар ташкилотлари ва диний ташкилотларнинг ўзаро ҳамкорлиги масалаларига эътибор қаратилган.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена изучению социальных проблем молодежи Узбекистана, вопросам взаимного сотрудничества женщин, молодежных организаций и религиозных организаций в предупреждении преступлений, которые могут совершаться среди них.

SUMMARY

This article focuses on the study of social problems of young people in Uzbekistan, the issues of mutual cooperation of women, youth organizations and religious organizations in prevention of crimes that may be committed among them.

ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРДА АККУЛЬТУРАТИВ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИ ВА МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ

Rayimov A.A.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Farg‘ona filiali erkin tadqiqotchisi

Tayanch so’zlar: ta’lim, ta’lim samaradorligi, tarix fani, pedagogik mahorat, o‘quvchilarda akkulturativ ko‘nikmalar, ijodiy qobiliyat, innovatsiya.

Ключевые слова: образование, образовательная эффективность, история, педагогическое мастерство, аккультурационные способности учащихся, творческие способности, новаторство.

Key words: education, educational efficiency, history, pedagogical skill, acculturative skills of students, creative ability, innovation.

Bugun jahonda tarixiy ongni shakllantirish, insoniyatga tarixning mudxish voqealardan saboq olishga o‘rgatish muhim ijtimoiy vazifaga aylanmoqda. Tarixiy xotira orqali har bir jamiyat o‘zining o‘tmishidagi zafar va mag‘lubiyatlari, yutuq va kamchiliklari, yaxshi va yamon kunlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishi umuminsoniy totuvlik va farovonlik, tinchlik va ahillik asosi bo‘ladi. Shu bois jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida xalqimizning tarixiy xotirasini to‘g‘ri shakllantirish va unga munosabatini to‘g‘ri yo‘naltirish muhim ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Buning uchun tarix fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, yangicha yondashuvlarni olib kirish, tarixni talqin qilishda ob’ektivlikni ta’minlash, tarixni o‘rgatuvchi adabiyotlarni shakllantirishda mafkuralashtirish va siyosiy maqsadlardan xoliligini ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir. Zero, “shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon oldimizga yangi, biz ilgari duch kelmagan muammolarni, juda o‘tkir savollarni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Ularga munosib javob topish va oqilona yechish uchun har jihatdan tayyor bo‘lishimiz kerak”[1]. Shunday ekan, tarix faning futuralogik funksiyasiga tayangan holda o‘tmishni bag‘olash, unga xolisona munosabatni shakllantirish orqali kelajakni qurish yo‘llarini, zamonaviylashtirish tendensiyalarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Shuningdek, maktab ta'limida o'quvchilarda yuksak axloqiylik sifatlarini rivojlantirish orqali vijdonan ishlaydigan va adolatli qarorlar qabul qiladigan kadrlar avdodini tarbiyalash mas'uliyati ortib bormoqda. Maktab ta'limi inson kamolotining asosi, uning eng muhim tomonlari, axloqiy sifatlari, dunyoqarashi va fikrlash tarzi shakllanadigan, fundamenatal bilimlar egallanadigan davr hisoblanadi. Shuning uchun ham biz raqobatbardosh kadr, halol rahbar va bilimli mutaxassisni tarbiyalamoqchi bo'lsak, albatta maktab ta'limini isloh qilishimiz, ungi yangicha yondashuvlarni olib kirishimiz zarur.

Ijtimoiy muhit madaniyatidagi mavjud o'zgarishlarni o'quv faoliyatiga tatbiq etish jarayoni va natijasi ta'limning innovatsion turi uchun tegishlidir[2]. Innovatsion faoliyat turlariga izlanishli, munozarali, o'yin texnologiyalari kiradi. Bunda insonparvarlik omili ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining o'quvchiga yondashishi bo'yicha insonparvarlik-shaxsiy texnologiyalari birinchi navbatda o'zining insonparvarlik mohiyati, shaxsni qo'llashga unga yordam ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Ular bolaga har tomonlama hurmat va muhabbat, majburlashni rad etib, uning ijodiy qudratiga ishonchni targ'ib qiladi[3].

Maktab ta'limida qo'llaniladigan o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga ba'zan analiz va sintez, deduksiya va induksiya kabi mantiqiy amallar asos qilib olinib, o'qitish metodlari induktiv, analitik va boshqa mantiqiy usullar sifatida xarakterlanadi. O'quvchilarda akkulturativ ko'nikmalarni shakllantirish pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, yuqoridagi metodlar bo'lsa o'quvchini o'qitishga qaratilganligi kelib chiqadi. Bugungi tarix darslari tarixiy faktlarni o'rganish bilan kifoyalanayotgan bir sharoitda yangicha metodika bilan tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini o'quvchilar tomonidan anglashlariga yo'naltirish muhim vazifalardan biridir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'ti-bor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish-lari, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqa-rishlariga o'rgatadi[4].

Maktab ta'limida tarix fanini zamonaviy metodikasi asosida, real keyslar bilan o'qitish orqali akkulturativ ko'nikmalarni rivojlantirishda va dars samaradorligini oshirishda har bir o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayonini optimal tashkil etishi talab etiladi. Darsning optimal varianti deb, dars

jarayonida ta'lim-tarbiya va o'quvchilarni kompleks rivojlanishlarini ta'minlaydigan, o'quvchi va o'qituvchiga ajratilgan vaqtdan maqsadga muvofiq foydalanilib, erishilgan maksimal ijobiy ilmiy-uslubiy va didaktik natijalar kompleksiga aytiladi. Tarix fanini o'qitilishida ham aniq natijalar ko'zga tashlanishi, o'quvchilarda madaniy munosabatlarga to'g'ri yondashuvni va xulosani shakllantira olishi kerak.

Maktab ta'limida o'quvchilarning akkulturativ ko'nikmalarini rivojlantirishda tarix fanining ilg'or metodikasi va tarixiy hujjatlar ustida ishlashning quyidagi usullaridan ham samarali foydalanish mumkin.

1. O'qituvchi tarixiy hujjatni o'zi tahlil qilib berishi mumkin.

2. Tarixiy xujjatlarni o'qituvchining bevosita rahbarligida o'quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin.

3. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum hujjatlarni uyda mustaqil tahlil qilib kelishni topshirishi mumkin.

Tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarning akkulturativ kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi natijalari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, tarix fanini o'qitish asosida o'quvchilarning akkulturativ kompetentligini rivojlantirish orqali ularda til fenomenini qadrlash, har bir millatning tiliga hurmatni shakllantirish mumkin bo'ladi. Chunki madaniy sintezlashuvning o'ziga xos jihalaridan biri til taraqqiyoti va tillarni yo'yilishi jarayoni hisoblanadi. Biroq bir tilni ustun qo'yish, uni mutloqlashtirish va bu orqali boshqa tillarni kamsitish, jamiyatda yagona tilda muloqot muhitin yaratishga urini madaniy buzilishlar, millatlararo nizolarni keltirib chiqaradi. Tarix fani o'quvchilarga millat va ealtlar taqdirida til hodisasining o'rni, madaniy munosabatlar tarixida tilning ahamiyati va tillarning yashovchanligiga tolerant munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, o'quvchilarda akkulturativ ko'nikmalarni shakllantirishda pedagog tomonidan tarixiy jarayonlarning qiyosiy tahlilini keltirish orqali e'tiqod va din omilining tarixiy o'zgarishlarning bo'lishidagi o'rnini baholash imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'quvchilarda vijdon erkinligi, e'tiqod tanlovini hurmat qilish, diniylik va dunyoviylik munosabatlarini tarix fani mavzulari orqali tushuntirish va bugungi kun uchun xulosalar chiqarishga undash o'quvchilarda akkulturativ ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, tarix fani orqali o'quvchilarga diniy bag'rikenglikning ahamiyati, tarixiy jarayonlarda diniy urushlar va qarama-qarshiliklarning ahamiyatini tushuntirish ham akkulturativ ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Uchinchidan, o'quvchilarda tarix fanini sinflar ketma-ketligida tizimli va izchiq o'qitish ularda qadriyatlar va urf-odatlarning shakllanishi, millat

va elatlar hayotidagi o‘rnini, ahamiyatini bilishlariga imkon beradi. Tarixiy o‘zgarishlar sharoitida qadriyatlarni qadrsizlanishi va yangicha qadriyatalrni shakllanish jarayonini o‘quvchilarga singdirish orqali ularda qadriyatlarga aqidaparastlarcha munosabatni emas, liberal, ya’ni o‘zgarishlarga ijobiy munosbatni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda akkulturativ ko‘nikmalarni ham sekin-astalik bilan shakllanishiga asos bo‘ladi. Umuman olganda, tarixni sinchiklab o‘rgatish orqali millat va elatlarning, etnik birliklarning urf-odatlariga hurmatni, toqatli munosabatni shaklantirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

O‘quvchilarda akkulturativ ko‘nikmalarni shakllantirishda tarix fani o‘qituvchisi oldiga bir qancha vazifalarni qo‘yadi. Pedagog har bir mavzu samaradorligiga erishi uchun tematik rejani to‘g‘ri shakllantirish va bu uchun yetarli manbaa va o‘quvchiga ta’sir ko‘satish choralarini to‘play bilishi lozim. Bugungi maktab ta’limida “Tarix” fanini o‘qitishning mavjud holatiga ko‘ra, barcha umumta’lim maktablarida 5-sinfdang 11-sinfga qadar “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” fanlari o‘tiladi. Shuningdek, 10-11 sinflar uchun “Dunyo dinlari tarixi” fani ham o‘tiladi. 5-sinflar uchun umumiy ma’noda “Tarixdan hikoyalar” nomi ostida tarix o‘rgatiladi va tarixiy xikoyalar tarzida o‘quvchilarni tarix faniga olib kiriladi va bosqichma-bosqich tarixni o‘qitish takomillashtirib borish maqsad qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 14 yanvar kuni mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oldiga yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish maqsadida chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklatildi[5]. Bu orqali asl tarixni anglash, tarixiy jarayonning borish yo‘lini tushunish va yoshlarda jamiyatlar taraqqiyotidagi muammolarni o‘rganishga undash mavjud edi.

Xulosa. Xulosa qilganda, O‘zbekiston tarixi va Jahon tarixini o‘qitish asosida tuzilgan dastur yoshlarni gumanizm va demokratik g‘oyalarni hurmat qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘zini va boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatiga qiziqishni, hurmat qilishni tarbiyalash, o‘zligini anglash, halollik va mehnatsevarlik tarbiyasini takomillashtirishdagi vazifalarni bajarmog‘i lozim. Shuningdek, o‘quvchilarda madaniy munosabatlar, millat

va ealatlarning ahil va inoq hayot kechirishining tarixiy tajribasini, akkulturativ ko‘nikmalarni ham shakllanishiga asos bo‘lishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2020. 4-жилд –Б. 159.

2. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: Обу-чение на основе исследования игры и дискуссии: Анализ зарубежного опыта. – Рига: «Эксперимент», 1995. -С. 3-4.

3. Сагдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанов М. Тарих ўқитиш ме-тодикаси. – Тошкент: 2008. –Б.90.

4. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълиммуассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Тошкент.: 2008. –Б.14

5. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2017. –Б. 46.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada o‘quvchilarda tarix fani asosida akkulturativ ko‘nikmalarni rivojlantirish tuzilmasi, uning bugungi holati va rivojlantirish omillari tadqiq etilgan. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda mamlakatimiz maktab ta’limida tarix fanini o‘qitish uzviyligi, o‘quvchilarda qanday malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsad qilinganligi va tarixiy-madaniy munosabatlarni o‘rgatish holatini ko‘rib chiqish va uni zamonaviylashtirishning yo‘llarini taklif qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье исследуется структура развития аккультурационных умений у студентов на основе исторической науки, ее современное состояние и факторы развития. Исходя из этой цели, целесообразно рассмотреть вопрос о согласованности преподавания истории в школьном образовании нашей страны, какие качества и умения предполагается формировать у учащихся, а также состояние преподавания историко-культурных отношений и предложить пути модернизации. это.

SUMMARY

In this article, the structure of the development of acculturative skills in students based on the science of history, its current state and development factors are researched. Based on this goal, it would be appropriate to consider the coherence of history teaching in the school education of our country, what qualifications and skills are intended to be formed in students, and the state of teaching historical-cultural relations and suggest ways to modernize it.

YANGI O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR JARAYONIDA IJTIMOIY-SIYOSIY INSTITUTLARNI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Mallayeva O.
ISFT instituti, v.b. dotsenti (PhD)

Tayanch so’zlar: Yangi O‘zbekiston, “Oila” markazi, Nuroniy”, “Ustoz”, “Ulug‘bek”, “Umid”, “Xotira”, “Yoshlar daftari”, “Temir daftar”, “Ayollar daftari.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Центр «Семья», Нуроний, «Устоз», «Улугбек», «Надежда», «Память», «Молодежная тетрадь», «Железная тетрадь», «Женская тетрадь».

Key words: New Uzbekistan, Center “Family”, Nuroniy, “Ustoz”, “Ulugbek”, “Nadezhda”, “Memory”, “Youth notebook”, “Iron notebook”, “Women’s notebook”.

Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik jarayonlarda ayollarning faol ishtirok etishi xotin-qizlarni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalashda muhim rol o‘ynamoqda. 2017-yilda xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan bir qator amaliy tadbirlar o‘tkazildi. Jumladan, Respublika tadbirkor ayollar biznes-forumi o‘tkazildi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanayotgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2017-yil tijorat banklari tomonidan 2,2 trillion so‘m miqdorida kreditlar ajratildi. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” davlat dasturi doirasida respublikamizning olis tumanlarida ayollarni kasbga o‘qitish kurslari tashkil etildi. Bu borada amalga oshirilayatgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2018 yil 2 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin –qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan xotin-qizlar qo‘mitasi va “Oila” markazi tizimida bir qator yangiliklar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “Oila” ilmiy-tadqiqot markazi va uning hududiy boshqarmalari xamda tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etildi; Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tuman, shahar hokimi o‘rinbosarlari-Xotin-qizlar qo‘mitalari raislariga bo‘ysundirildi; Xotin-qizlarni va oilani qo’llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi; Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini berish tartibiga o‘zgartirish kiritildi

va qo‘shimcha imtiyozlar joriy etildi. Shuningdek, “Nuroniy”, “Ustoz”, “Ulug‘bek”, “Umid”, “Xotira” va shu kabi ko‘plab jamg‘armalar nodavlat tashkilotlar sifatida respublikamizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta hissalarini qo‘shmoqda.

2016 yil 24 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining vaqtincha Prezidenti bo’lib turgan Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Yoshlarga oid Davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun imzolandi. Bu qonunni imzolanishi navqiron avlodga yuksak mehr, e’tibor va g‘amxo‘rlik ifodasidir. 2017 yil 30 iyun kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Bu qurultoyda “Kamolot” YoIH tashkilot tugatilganligi va “O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi” tashkil etilganligi e’lon qilindi. Yoshlarning muammolari hamda tashabbuslari O‘zbekiston Prezidentining to‘g‘ridan to‘g‘ri e’tiborida bo‘lishini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” raisi bir paytning o‘zida Prezidentning Davlat maslahatchisi lavozimida bo‘lishi ham belgilab qo‘yildi. Shu kundan e’tiboran 30 iyun mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlash an’anaga aylantirildi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrdanoq yosh avlod ta’limtarbiyasi, salomatligiga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bu dolzarb masala davlat siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim sohasidagi jahon andozalariga mos islohotlar, aholi salomatligini saqlashga qaratilgan beqiyos ishlarning zamirida ham ana shunday mushtarak maqsadlar mujassam. 2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da ham yoshlar faolligini oshirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 5 iyulda “Yoshlarga oid Davlat siyosatini samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi farmonning imzolanishi mazkur tizim ishlarini yanada jadallashtirdi. BMT ning 72 sessiyasida ham yoshlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikni e’tirof etib, BMTning yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ishlab chiqish taklifini o‘rtaga tashladilar. Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarga harbiy ta’lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablari “Temurbeklar maktabi” deb nomlandi. Vatanga sadoqat bilan xizmat qilgan yoshlarni rag‘batlantirish uchun “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti, o‘qishda, mehnatda, jamoat ishlarida faol bo‘lgan Yoshlarni “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlash yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining to’rtinchi yunalishi to’rtinchi bandida ham yoshlar siyosatini takomillashtirish

belgilangan edi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizimning yaratilgani yoshlarimizda Vatan taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirib, zamonaviy demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etishda ijtimoiy faollikni oshirmoqda.

Ma’lumki, dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yetakchi o‘rin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalari har bir davlatda omma bilan hokimiyat o‘rtasida o‘ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko‘zgusi, haqiqat jarchisi bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi rol o‘ynaganligi uchun ham ularga to‘rtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Davlat boshqaruv organlari demokratiyaning muhim tayanchi bo‘lganligi uchun ham ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e’tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida: “|Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”,- deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini ko‘rsatish, ularning xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishi alohida ta’kidlanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dasturga ega bo‘ldi.

«Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida qator ishlar qilindi. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to‘g‘risida”, “Jurnalistlarning kasbiga doir faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.Bloger va jurnalistlarga erkin axborot tarqatish va qabul qilish huquqi berildi. Ularning qonuniy faoliyatiga aralashish ta’qiqlandi.

O‘zbekistonda rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari - siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, parlamentning fuqarolik jamiyati rivojlanishidagi o‘rni, demokratik saylovlar, ommaviy axborot vositalarining demokratik tamoyillar asosida rivojlanish jarayonlari, ma’rifiylik va dunyoviylikning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir.

Prezidentning 2017 yildagi farmoni asosida fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi sifatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi,

viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilishi belgilandi. Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo‘yicha rais o‘rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma’rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha rais o‘rinbosarlari lavozimlari joriy etildi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosari-yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. Mahallalarda yoshlar yetakchisi hamda hokim yordamchisi lavozimlari joriy etildi hamda ularga “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” va “Ayollar daftarlari”dagi ehtiyojmand fuqarolarga har tomonlama ijtimoiy yordam ko’rsatilishini ta’minlash vazifasi yuklatib qo’yildi.Shuningdek tadbirkorlik qilish istagidagi faol yoshlarga 14%lik imtiyozli kreditlar berish tizimi yo’lga qo’yildi.

O‘zbekistonda 2019 yil dekabrda o‘tkazilgan parlament saylovlarining umumiy yakunlariga ko‘ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 53, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 36, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 24, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 22, O‘zbekiston Ekologik partiyasi 15 deputatlik o‘rnini egalladi. Zamon bilan hamnafas rivojlanib borayotgan hozirgi bosqichda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi har bir qonun loyihasi bo‘yicha xolis bahs-munozara va tortishuvlar maydoniga, siyosiy partiyalarning sog‘lom raqobat muhitida turli ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi kurash maydoniga, chinakam demokratiya maktabiga aylanib bormoqda.

“So‘nggi besh yil davomida Qonunchilik palatasi faoliyati sezilarli darajada jonlandi va bugungi kunda tobora yangi sifat bosqichiga ko‘tarilib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, parlamentda ko‘pchilikni tashkil etadigan partiya va unga muxolifatda bo‘lgan partiyalar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatga zamin hozirlaydi. Raqobat esa taraqqiyotga yetaklaydi.Mamlakatda demokratik jarayonlar yangi bosqichga ko‘tarilgan, aholining huquqiy savodxonligi, ijtimoiy-siyosiy faolligi oshgan, ommaviy axborot vositalari faoliyati yana-da erkinlashgan, mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan aloqalari har tomonlama izchil uyg‘unlashayotgan sharoitda, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatini umummilliy manfaatlar bilan chambarchas bog‘layotgan siyosiy partiyalarning aniq yo‘naltirilgan sog‘lom raqobati muhim o‘rin tutadi”,- deyiladi «Heart of Asia» nashrida chop etilgan maqolada .

So‘nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o‘rtasida

ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borildi.Xususan, oxirgi besh yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining 1 270 dan ortiq loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Davlat budjetidan 117 milliard so‘m miqdordagi mablag‘lar ajratildi. Nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini ifoda etish, davlat bilan ular o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi, shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishga munosib hissa qo‘shgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini rag‘batlantirish maqsadida “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Ko‘rilayotgan choralar natijasida so‘nggi besh yilda fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 40 foizga oshdi, shu jumladan 300 dan ortiq yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z faoliyatini boshladi. Shu bilan birga, ushbu ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin va o‘rta muddatli istiqbollarini belgilab olish zarur. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligi va faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” va “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturlari ijrosini ta’minlash maqsadida 2021 - 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida quyidagilar konsepsiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan: fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish; fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish; davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish; fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash.

Siyosiy islohotlar nuqtai nazaridan Prezident Mirziyoyev yanada ochiq va shaffof siyosiy tizim yaratish bo‘yicha qadamlar tashladi. Bu korrupsiyani kamaytirish va mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirishga qaratilgan yangi qonun va me’yoriy hujjatlarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, hukumat mamlakat media landshaftini yaxshilash bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi, jumladan, jurnalistlar va so‘z erkinligini himoya qilish bo‘yicha yangi qonunlarni joriy etildi.

Umuman olganda, Prezident Mirziyoyevning ijtimoiy-siyosiy islohotlari mamlakatga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ular yanada ochiq va shaffoflikni yaratishga yordam berdi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin –qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.02.02.2018.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning «Yoshlarga oid Davlat siyosatini samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni.05.07.2017.

3. The Heart of Asia. “Yangi O’zbekistondagi siyosiy islohotlar zamirida qanday maqsadlar yotibdi” .05.11.2021. – B.2-3

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqilada yangi O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida ijtimoiy-siyosiy institutlarni rivojlantirish zaruriyati, mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik jarayonlarda ayollarning faol ishtirok etishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanayotgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash hamda ommaviy axborot vositalarining o‘rni to‘risida ma‘lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается необходимость развития общественно-политических институтов в процессе реформ в новом Узбекистане, активное участие женщин в общественно-политических и демократических процессах, происходящих в нашей стране, поддержка женщин, занимающихся предпринимательской деятельностью, и указана роль средств массовой информации.

SUMMARY

This article examines the need for the development of socio-political institutions in the process of reforms in the new Uzbekistan, the active participation of women in the socio-political and democratic processes taking place in our country, support for women engaged in entrepreneurial activities, and the role of the media.

MUSTAQILLIK YILLARIDA IJTIMOIY-SIYOSIY INSTITUTLAR RIVOJINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Mallayeva E.
ISFTI instituti dotsenti

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy institutlar, yangilanayotgan O‘zbekiston, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati, mustaqillik, sud huquqi, saylov huquqi, Oliy Majlis, Oliy davlat vakillik organi.

Ключевые слова: общественно-политические институты, реформирование Узбекистана, политические партии, гражданское общество, независимость, судебное право, избирательное право, Олий Мажлис, Олийский государственный представительный орган.

Key words: socio-political institutions, reform of Uzbekistan, political parties, civil society, independence, judicial law, electoral law, Oliy Majlis, Oliy state representative body.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi butun insoniyat hayotida murakkab muammolar ko‘ndalang bo‘lgan va tub burilishlar boshlangan davriga to‘g‘ri keldi. XX asr so‘nggi mintaqadagi va mamlakat hududidagi og‘ir vaziyatda o’z mustaqilligini qo’lga kiritgan O‘zbekiston dastlabki kunlardan boshlab huquqiy demokratik jamiyat qurish yo’lidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan bir qatorda manaviy, madaniy, marifiy hamda mafkuraviy jabhalarda tub sifat o‘zgarishlarni vujudga keltirgan yangi tarixiy davr boshlandi. “Ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so‘zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, jahon miqiyosida obro-e’tibor qozongan jamiyat barpo etish” ustuvor vazifa qilib belgilandi. Bunday islohotlarning pirovard natijasi xalqning ularga ongli munosabati, ularni to‘liq qo‘llab-quvvatlashi va chuqur anglab yetishiga bog‘liq. Eng muhimi, odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda, yangi tuzumning afzalligini anglab, o‘zining kuch va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi, yon-atrofdagi o‘zgarishlarga daxldorlik hissi ortib bormoqda.

Mamlakatimiz tarixining mustaqillik davrini o‘tgan yillar davomida amalga oshirilgan o‘zgarishlar va islohotlar, ularning samaradorligiga qarab belgilash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu nuqtayi nazardan milliy-mustaqillik davrini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin bo‘ladi. Birinchi bosqich - 1991-2000-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda mustaqillikning mustahkam

poydevori bunyod etilib, “O‘zbek modeli” asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo‘l tutildi, O‘zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi, milliy istiqlol mafkurasi jamiyat hayotida keng kirib bordi. Ikkinchi davri - 2001-2010-yillarni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqich, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta’biri bilan aytganda, “Fan demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta’minlashda g‘oyat muhim rol o‘ynagan davr bo‘ldi”. 2010-2016-yillarni o‘z ichiga olgan uchinchi bosqichda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud huquqi va axborot sohalarini isloh qilish, saylov huquqi erkinligini ta’minlash, fuqarolik institutlarini rivojlantirish, bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish davri bo‘lib qoldi. 2016-yildan to bugungi kungacha davrni o‘z ichiga olgan navbatdagi bosqichi mamlakatimizda hamma sohalarda yangilanishlar davri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan Harakatlar strategiyasida berilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish, jamiyatimizni barcha sohalarda isloh etish uning reyting salohiyatini ko‘tarish jarayonlari bilan bog‘liqdir. Bu bosqich tariximizda “Yangilanayotgan O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” davri deb baholanmoqda .

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta’lim sohasida ham bir qator islohotlar o‘tkazilib, barkamol avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgan islohotlar rivojlantirilib borilmoqda. Bugun jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot g‘oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi haqida so‘z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991 yildan keyin bosib o‘tgan tarixiy yo‘li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim. O‘zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig‘inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an’anaviy funksiyalar bajarilishining o‘zi bilan qanoatlanib bo‘lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to‘ldirishimiz maqsadga muvofiqdir. Rivojlangan demokratik davlatlarda ijtimoiy institutlar va siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan birini tashkil etadi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda keng ishtirok etishini ta’minlovchi ijtimoiy-siyosiy

institutlarning xilma-xilligiga asoslangan yangi demokratik tizim negizlarini shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratgan. Sobiq tuzum davrida davlat va yakkapartiyaviylik tizimi shaxs ustidan yalpi hukmronligini o'rnatgan edi. Fuqaroning huquqiy himoyalanmagani, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari, har qanday muqobil fikrlashning tazyiq ostiga olinishi ko'p odamlarda chorasizlik tuyg'usini uyg'otib, real hayotdan uzoqlashish istagini oshirdi. "Siyosiy autsayderlar" deb ataluvchi kishilar sonining o'sishi, jamiyatda ijtimoiy pessimizm va boqimandalikning kuchayishiga sabab bo'ldi. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalar qatorida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi o'zbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtiroki bilan bog'liq masalalarning to'g'ri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazish burchimizdir.

O'zbekistonning mustaqilligi yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston SSR Oliy Kengashning XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990 yil, 20 iyun) qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Mustaqillik Deklaratsiyasi"dir . Ushbu Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari jonbozlik ko'rsatdilar. "Mustaqillik Deklaratsiyasi"da har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolotlanishi ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olindi. Sessiya qabul qilgan bu "Mustaqillik Deklaratsiyasi" xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

1991 yil 25 avgustda Prezident Farmoni bilan respublika IIV va DXQ qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olinishi, 26 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasining tayyorlanishi va 31-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasining chaqirilishi o'zbek xalqi tarixiga oltin sahifalar bo'lib kirdi.

1991 yilning 31avgustida, XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining VI sessiyasida Islom Karimov tantanali ravishda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. U o'zining tarixiy nutqida quyidagilarni alohida ta'kidladi: "Mamlakat katta falokat yoqasiga, jar yoqasiga kelib qolganini ko'rib turibmiz. Xalq o'zining ertangi kuniga ishonchini kundan-kunga yo'qotyapti. Odamlar o'zining, oilasining, bolachaqasining tinchligiga kafolat istaydi. To'kis, xotirjam hayot talab qilyapti. Bu istaklar, bu talablar safsatabozlik va va'dabozliklar ostida ko'milib ketyapti. Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugun bizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og'ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlari talab qilyapti. Bu – haqqoniy talabdir. …O'zbekiston rahbariyati hech qachon, qanday Ittifoq bo'lmasin, kim bilan Ittifoq bo'lmasin, qanday sharoit

bo‘lmasin, ikkinchi darajali rolga rozi bo‘lmaydi, bunga yo‘l ham qo‘ymaydi. Tenglar ichida teng bo‘lish-xalqimizning asriy orzusidir” .

Sessiyada “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi masalalari ham kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi. Oliy Kengash O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. So‘ngra Respublika Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot qabul qilindi. O‘zbekiston SSR ning nomi O‘zbekiston Respublikasi deb o‘zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun 1 sentabr 1991 yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o‘zbek xalqining asriy orzusi ro‘yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo‘ldi. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi qonun 17 moddadan iborat bo‘lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o‘ynaydigan bo‘ldi.

1992 yil 26 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992 yil 26 noyabrda matbuotda ikkinchi marta e’lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Birinchi Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o‘zining katta hissasini qo‘shdi. Unda mamlakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasini muhokama qildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e’lon qilish to‘g‘risida” va “O‘zbekiston respublikasining Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunlarni qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. U “Mustaqillik Deklaratsiyasi”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi. Konstitutsiya kuchga kirgandan buyon O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 800 ga yaqin qonun,17 ta kodeks qabul qilindi, 250 dan ortiq ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilindi. Ya’ni, Asosiy qonunimiz davlat va jamiyatning barcha jabhalarini huquqiy tartibga solishning yaxlit mexanizmini yaratish imkonini berdi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar tahlili O‘zbekiston tanlagan taraqqiyotning konstitutsiyaviy modeli to‘g‘riligidan dalolat beradi

Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilgan institutsional o‘zgarishlar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik orzu-umidlari ifodasi bo‘lgan mustaqillikning asosiy

xususiyati milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ta’minlaydigan huquqiy demokratik davlat qurish edi.

Jamiyatda qonuniylikning g‘alaba qilishi, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy va boshqa huquqlarini himoyasi uchun hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi haqli ravishda amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11- moddasida hokimiyatning bo‘linishi tamoyili konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning yo‘llarini ko‘rsatib berar ekan, Birinchi Prezident I.A.Karimov eng avvalo bu vazifa hokimiyat barcha tarmoqlarning bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlashga bog‘liqligini uqtiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V-bo‘lim XVIII bobida va 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan. Bu qonunlarga ko‘ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyat faoliyati uchun ijtimoiy siyosiy institutlarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ko‘rsatilgan takliflarni amalga oshirish orqali fuqarolarga o‘z hukumatining harakat qilishini ta’minlash uchun vositalar berilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. V-bo‘lim XVIII bob, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida»gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiining 1991-yil 31-avgust, XII chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining VI sessiyasidagi nutqidan.

3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // Xalq so’zi, № 220 (5135). 13.11.2010. – B.5.

4. O‘zbekiston tarixi(Mustaqillik davri)11-sinf. – Toshkent. G‘afur G‘ulom, 2018. – B.3-4.

5. Kun.UZ. O’zbekiston Mustaqillik deklaratsiyasiga 32 yil to’ldi. U qanday qabul qilingandi? - 20.06.2022. – B.1-5

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy institutlar rivojining asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, “Yangilanayotgan O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” davri to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены основные направления развития общественно-политических институтов в годы независимости, система государственного управления в Республике Узбекистан, изменения, происходящие в социально-экономической, политической и духовной сферах, эпоха « Обновление Узбекистана – новый взгляд».

SUMMARY

This article examines the main directions of development of socio-political institutions during the years of independence, the system of public administration in the Republic of Uzbekistan, changes occurring in the socio-economic, political and spiritual spheres, the era of “Renewal of Uzbekistan - a new look”.

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

ШАХС МЕДИАМАДАНИЯТИ ВА МЕДИАМАҲОРАТ ТУШУНЧАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Аскарова Ш.М.
Фарғона давлат университети
Ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: медиамаданият, ОАВ, ахборот-коммуникация технологиялари, медиамаҳорат.

Ключевые слова: медиакультура, средства массовой информации, информационно-коммуникационные технологии, медиамастерство.

Key words: media culture, mass media, information and communication technologies, media skills.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да эътироф этилишича, **“маҳорат”** луғавий жиҳатдан араб тилида “моҳирлик”, “усталик”, “эпчиллик”, мазмунан эса “бирор иш, касб учун зарур ёки шу соҳада орттирилган усталик, моҳирлик” [5] маъноларини англатади. Ушбу таъриф негизида **“медиамаҳорат”** тушунчасини шундай шарҳлаш мумкин: медиамаҳорат – шахснинг шахсий ёки касбий қизиқиш, эҳтиёж ва мажбуриятларидан келиб чиқиб, мавжуд билим, малакалар негизида медиа орқали тарқатилаётган ахборотларни танлаш, саралаш, таҳлил қилиш ва баҳолашда моҳирликни намоён қилиш.

Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда, **шахс медиамаданияти** – шахс маданияти учун зарур қисм бўлиб, оммавий медиа турлари, улар орқали тарқатилаётган ахборотлар билан танишиш, уларни танлаш, саралаш, таҳлил қилиш ва баҳолаш асосида тегишли соҳалар бўйича назарий билим, амалий кўникма, малакаларни ўзлаштириш, пухта эгаллаш, ушбу билимларни касбий, кундалик, маданий, маънавий ва маърифий (амалий) фаолиятда маҳорат билан қўллай олиш қобилиятларининг йиғиндиси, деган хулосага келдик.

Кенг маънода медиамаданият жамиятга хос хусусият саналади. Тор маънода эса у шахс қиёфасида намоён бўлувчи сифат (хислат)ни ҳам англатади. Жамият ва шахс томонидан медиамаданият ўзлаштирилишининг ҳар бири мураккаб жараён бўлиб, улар бир неча босқичда кечади. Қолаверса,



1.-расм. Медианинг шахс ҳаётидаги ўрни ва роли

ҳам жамият ҳам шахс медиамаданияти ўзига хос жиҳатларни ифодалаши сабабли уларнинг ҳар бири ҳақида узоқ тўхталиб ўтиш мумкин.

Глобал ахборотлашув шароитида катта ҳажмдаги ахборотга эгалик шахсга таълим бериш жараёнини қийинлаштиради. Бу қийинчилик шу билан боғлиқки, биринчидан, ёш авлод катта ҳажмдаги "ахборот майдони" ранг-баранг маълумотларга дуч келади. Ахборотлашган жамиятда йиғилган, тўпланган маълумотлар ёш, психологик хусусиятига кўра қизиқувчан, ҳар қандай ҳолат, воқелик, ҳодиса, жараённинг моҳиятини англашга интилувчи ёшлар томонидан тизимсиз равишда ўзлаштирилади. Ўз моҳиятига кўра тизимсиз равишда ўзлаштирилган маълумотлар шунчаки ахборот бўлиб, улар билим саналмайди. Билимнинг маълумот, ахборотдан фарқи унинг тизимли, мақсадли ўзлаштирилиши билан белгиланади. Катта ҳажмдаги "ахборот майдони"дан узлуксиз равишда маълумотларни ўзлаштиришлари ўқувчининг ортиқча юкламага эга бўлишини таъминлайди. Катта миқдордаги юклама эса ўз-ўзидан инсон мия фаолиятида маълумотларни қабул қилиш, уларни ўзлаштириш, қайта ишлашда зўриқишни юзага келтиради. Руҳий зўриқиш эса ўз навбатида тушкунликни келтириб

2-расм. Шахс медиамаданиятининг шаклланиш босқичлари

чиқаради. Тушкунликнинг доимий ривожланиши эса асаб тизими касалликларининг юзага келишига сабаб бўлади. Бу каби салбий ҳолатларнинг олдини олиш замонавий педагогика, психология фанлари олдида турган энг муҳим, долзарб вазифалардан бири саналади [1, 2, 3, 4].

Бугунги кунда турли ахборотлар билан танишиш, улардан ўзларининг ижтимоий (касбий ва кундалик) фаолиятида фойдаланиш оддий ҳодиса саналади. Қуйидаги расм медиа воситаларининг шахс ҳаётидаги ўрни ва ролини ёритишга хизмат қилади:

Моҳиятига кўра шахс томонидан медиамаданиятнинг ўзлаштирилиши стихияли жараён бўлмай, бир неча босқичда эволюцион ривожланишга асосланади. Шахсда медиамаданиятни шаклланиш жараёнининг умумий моҳияти: медиасаводхонлик, медиабилимдонлик, медиамаҳорат ва медиа компетенликда ўзининг тўлиқ ифодасини топади (2-расмга қаранг):

Демак, медиамаданият стихиялилик хусусиятига эга бўлмай, балки эволюцион характер касб этади. Бу эса шахс медиамаданиятининг босқичма-босқич изчил тарзда шаклланиб боришини англатади.

Ҳар бир босқичнинг самарали кечиши, бирининг иккинчиси учун асос бўлиши медиатаълимнинг назарий, ташкилий ва амалий-методик жиҳатдан тўғри ташкил этилишига боғлиқ. Бу эса таълим муассасаларида фаолият кўрсатаётган ўқитувчи (педагог)ларнинг юқори даражада касбий билим, малака ва тажрибага эга бўлишларини тақозо этади.

Адабиётлар:

1. Турдиев Н.Ш. Ўқув машғулотларида медиатаълим бериш ва медиаматнлар билан ишлаш технологияси // Таълим жараёнига замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларни жорий этиш: муаммова ечимлар. Рес.илмий-амал.конф. – Т.: Республика Таълим маркази, 2012. – Б. 18-20.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Е – М / 5 жилдли. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрири ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 521.

3. Фатеева И.А. Медиаобразование: теоретические основы и опыт реализации / Монография. – Челябинск: Изд-во Челяб. ГУ, 2007. – С. 270.

4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Конимех – Мирзокуш / М ҳарфи. Таҳрир ҳайъати: М.Аминов, Т.Даминов, Т.Долимов ва б. – Т.: “Узбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 975.

5. Кириллова Н. Что такое медиакультура? / Учебник. http://www.ifap.ru 2012.

6. Российская педагогическая энциклопедия. – М.: Наука, 1993. – С. 555.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрири ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 416.

8. Rustamova, N. R. (2019). Technology for the development of media culture of students of general secondary education (on the example of grades 7-9) (Doctoral dissertation, Doctoral dissertation, dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences.-Tashkent, 2019.-42 p).

РЕЗЮМЕ

“Медиамаданият” тушунчаси замонавий нуқтаи назардан “босма, аудио, визуал ва аудиовизуал маданиятлар мажмуи” сифатида эътироф этилмоқда. Медиамаҳоратга эга шахс эса, замонавий шароитда медиамаданиятни ўзида намоён эта оладиган, босма, аудио, видео ва аудиовидео маҳсулотлардан кишилик эҳтиёжини қондириш, жумладан, ўзининг маънавий дунёқарашини бойитиш, тафакурини кенгайтириш мақсадида оқилона фойдаланиш имкониятига эга бўлади. Мазкур мақолада айнан шу масалалар таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

Понятие «медиакультура» признается как «совокупность печатной, аудиовизуальной и аудиовизуальной культур» с современной точки зрения. Человек, обладающий медиамастерства, способный демонстрировать медиакультуру в современных условиях, будет иметь возможность рационально использовать печатную, аудио-, видео- и аудио-видеопродукцию в целях удовлетворения личных потребностей, в том числе для обогащения своего духовного мировоззрения и расширения кругозора. Данная статья анализирует этих вопросов.

SUMMARY

The concept of «media culture» is recognized as «the totality of print, audiovisual and audiovisual cultures» from a modern point of view. A person with media skills, capable of demonstrating media culture in modern conditions, will be able to rationally use printed, audio, video and audio-video products in order to meet personal needs, including to enrich their spiritual outlook and broaden their horizons. This article analysis these issues.

AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA O'QITISHDA PEDAGOGIKANING O'RNI

Mamajonov X.A.
TIQXMMI MTU "International House - Tashkent" akademik litseyi fizika fani bosh o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: pedagogika, fizika o'qitish, akademik litseylar, o'quv fanlari, muassasa, faol ta'lim strategiyalari.

Ключевые слова: педагогика, преподавание физики, академические лицеи, учебные предметы, учебное заведение, активные образовательные стратегии.

Key words: pedagogy, physics teaching, academic lyceums, academic subjects, institution, active educational strategies.

Kirish. Ta'lim har qanday jamiyat taraqqiyoti va taraqqiyotining tamal toshi bo'lib, kelajak avlod ongini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'p sonli o'quv fanlari orasida fizika asosiy ustun bo'lib, tabiiy dunyoni chuqur tushunishni taklif qiladi va texnologiya, muhandislik va ilmiy izlanishlardagi yutuqlar uchun poydevor qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, akademik litseylar o'ziga xos o'rin tutib, yoshlar ongida fizikaga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni rivojlantirishga qaratilgan muassasa sifatida xizmat qiladi. Biroq, ushbu ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda samarali pedagogikani ta'minlash katta muammolarni keltirib chiqaradi.

Dunyodagi eng aqlli mavjudot sifatida pedagogikaning hal qiluvchi rolini tan olish zarur. Pedagogika samarali o'rganishni osonlashtirish uchun qo'llaniladigan strategiyalar, uslublar va metodologiyalarni o'z ichiga oladi. Fizikani o'qitish sohasida pedagogikani optimallashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu fan o'z mohiyatiga ko'ra mavhum fikrlash, analitik qobiliyat va murakkab matematik tushunchalarni puxta egallashni talab qiladi. Ushbu turli jihatlarni o'rganish orqali ushbu maqola o'qituvchilar, siyosatchilar va boshqa manfaatdor tomonlarga akademik litseylarda fizikani o'qitishda pedagogikaning roli haqida har tomonlama tushuncha berishni maqsad qilgan. Ushbu maqoladan olingan tushunchalar pedagogik amaliyotning evolyutsiyasiga hissa qo'shadi, kelajakdagi ilmiy onglarga fizika sohasini o'rganish va taraqqiyot va innovatsiyalar katalizatori bo'lish imkoniyatini beruvchi tarbiyalovchi va rag'batlantiruvchi muhitni yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Akademik litseylarda fizikani o‘qitishda pedagogikaning o‘rni o‘quv tadqiqoti doirasida katta qiziqish uyg‘otadigan mavzu bo‘lib kelgan. Ko‘plab tadqiqotlar va ilmiy maqolalarda fizika o‘qitishda qo‘llaniladigan pedagogik usullarning turli jihatlari o‘rganilib, uning samaradorligi, natijalari, o‘quvchilarning bilim olish natijalari va motivatsiyasiga ta’siriga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotimizda biz fizikani o‘qitishda pedagogik yondashuvlar bilan bog‘liq mavjud nazariyalar, asoslar va amaliyotlarni har tomonlama tushunish uchun turli xil adabiyot manbalarini keng ko‘lamda o‘rgandik. Biz turli ilmiy ma’lumotlar bazalariga kirdik, jumladan, Education Research Complete, ProQuest, JSTOR va Google Scholar. Bizning qidiruv so‘zlarimiz “fizika ta’limida pedagogika”, “akademik litseylarda o‘qitish metodikasi”, “fizika fanidan o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim”, “faol ta’lim strategiyalari”, “fizika ta’limida samarali baholash” kabi tushunchalarni qamrab olishga qaratilgan edi. Tadqiqot tizimli adabiyotlarni o’rganish metodologiyasidan foydalangan holda tashkil etilgan bo’lib, bizga tegishli maqola va tadqiqotlarni aniqlash va tanqidiy baholash imkonini beradi. Dastlab, biz yuqorida aytib o’tilgan ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda keng qamrovli qidiruv o’tkazdik va biz kiritish mezonlariga javob beradigan juda ko’p maqolalarni topdik. Shundan so‘ng biz ushbu maqolalarni mavzuga taalluqliligidan kelib chiqib sinchiklab ko‘rib chiqdik, ularda akademik litseylarda fizika o‘qitishda pedagogikaning o‘rni to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan empirik dalillar, nazariy asoslar yoki muhim tushunchalar mavjudligiga ishonch hosil qildik.

Biz har bir maqolani tanqidiy tahlil qilib, pedagogikaning o‘quvchilarning ta’lim natijalari va motivatsiyasiga ta’siri bilan bog‘liq tegishli ma’lumot va tushunchalarni oldik. Ushbu keng qamrovli tahlil orqali biz bir nechta asosiy xulosalarni aniqladik, ular orasida faol o’rganishni rag’batlantirishda o’quvchiga yo’naltirilgan yondashuvlarning samaradorligi, kontseptual tushunishni kuchaytirishda haqiqiy baholash usullarining roli va o’quvchilarning faolligini oshirishda o’qituvchi va talaba o’zaro ta’siri va yo’l-yo’riqlarining ahamiyati kiradi. va fizikada motivatsiya. Umuman olganda, ushbu adabiyot tahlili akademik litseylarda fizikani o’qitishda pedagogikaning rolini har tomonlama va har tomonlama o’rganishni anglatadi. Keng ko’lamli adabiyot manbalarini birlashtirish va tizimli tahlil qilish yondashuvini qo’llash orqali biz fizika ta’limi bo’yicha kelajakdagi tadqiqot va amaliyot uchun asosiy tendentsiyalar, topilmalar va tavsiyalarni aniqladik. Ushbu tahlil akademik litseylarda fizika ta’limi sifatini oshirishga qaratilgan mavjud bilimlar bazasiga qimmatli tushunchalar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Akademik litseylarda fizikani o‘qitishda pedagogikaning rolini o‘rganish uchun aralash metodli tadqiqot usuli qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv mavzuni har tomonlama va yaxlit tushunishni ta’minlash uchun miqdoriy va sifat tadqiqot usullarini birlashtiradi.

1. Tadqiqot loyihasi: Ushbu tadqiqot uchun ketma-ket tushuntirish loyihasi qabul qilinadi. Ushbu dizayn tadqiqot mavzusini chuqurroq tushunish uchun birinchi navbatda miqdoriy ma'lumotlarni, keyin esa sifatli ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga oladi. Ushbu dizayn akademik litseylarda pedagogika va fizika o'qitishning o'zaro bog'liqligini o'rganish, shu bilan birga o'qituvchilar va o'quvchilarning tajribalari va tasavvurlari haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

2. Aholi va namuna: Ushbu tadqiqotga qiziqish aholi fizika o'qituvchilari va akademik litsey o'quvchilari bo'ladi. Fizikani o'qitish yoki o'rganishda katta tajribaga ega bo'lgan ishtirokchilarni tanlash uchun maqsadli tanlab olish usuli qo'llaniladi. Namuna hajmi to'yinganlik asosida aniqlanadi, bunda ma'lumotlar yig'ish yangi tushunchalar yoki mavzular paydo bo'lmaguncha davom etadi.

3. Ma'lumotlarni yig'ish: a. Miqdoriy ma'lumotlar: Fizika o'qituvchilari va talabalari o'rtasida anketa so'rovi o'tkaziladi. So'rovnomada pedagogik amaliyot, o'qitish usullari va o'quvchilarning faolligiga oid masalalar bo'ladi. Javoblarni miqdoriy baholash uchun Likert shkalasi va yopiq savollar qo'llaniladi.

b. Sifatli ma'lumotlar: Yarim tuzilgan suhbatlar ishtirokchilarning bir qismi bilan o'tkaziladi. Ushbu intervyular ishtirokchilarning fizikani o'qitishdagi pedagogikaning roli haqidagi qarashlari, tajribalari va tasavvurlarini o'rganadi. Suhbatlar audioyozuvga olinadi va tahlil qilish uchun so'zma-so'z transkripsiya qilinadi.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish: a. Miqdoriy ma'lumotlar: Anketa so'rovi natijasida olingan miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun chastotalar va foizlar kabi tavsiflovchi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Ushbu tahlil hozirgi pedagogik amaliyot va tasavvurlarning umumiy ko'rinishini beradi.

b. Sifatli ma'lumotlar: Suhbatlardan olingan sifatli ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mavzuli tahlil qo'llaniladi. Bu ishtirokchilarning javoblarida takrorlanuvchi naqshlar, mavzular va toifalarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni kodlash va turkumlashtirish sifatli tahlil dasturi yordamida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aralash metodli tadqiqot usulini qo'llash akademik litseylarda fizika o'qitishda pedagogikaning rolini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot akademik litseylarda fizika ta'limini oshirishga yordam beradigan samarali pedagogik amaliyotlar haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishga qaratilgan.

Tahlillar va natijalar. Ushbu tadqiqotning maqsadlariga erishish uchun aralash usulli tadqiqot loyihasi qo'llanildi. Birinchidan, fizika ta'limidagi pedagogik amaliyotlar bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tushunish uchun keng qamrovli adabiyotlar tahlili o'tkazildi. Bu akademik litseylarda qo'llaniladigan asosiy pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni aniqlash uchun asos bo'ldi. Ikkinchidan, akademik litseylarning fizika fani o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar orqali ma'lumotlar yig'ilib, ularning pedagogik e'tiqodlari, o'qitish

usullari va o‘quvchilarning ta’lim natijalari haqidagi tasavvurlariga e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, pedagogik strategiyalarning amalda amalga oshirilishi haqida qo’shimcha ma’lumotga ega bo’lish uchun sinfda kuzatishlar o’tkazildi.

1. Akademik litseylarda pedagogik yondashuvlar: Adabiyotlarni o’rganish tahlili akademik litseylarda fizikani o’qitishda qo’llaniladigan bir qancha pedagogik yondashuvlarni aniqladi. Natijalar shuni ko’rsatdiki, ushbu muassasalardagi o’qituvchilarning aksariyati an’anaviy va zamonaviy pedagogik usullarni uyg’unlashgan. An’anaviy ma’ruza asosida o’qitish hali ham keng tarqalgan edi, o’qituvchilar asosan darsliklarga va o’qituvchiga yo’naltirilgan ta’lim strategiyalariga tayangan. Shu bilan birga, so’rovga asoslangan ta’lim, hamkorlikda o’rganish va muammolarni hal qilish faoliyati kabi talabalarga yo’naltirilgan yondashuvlarni qo’llash tendentsiyasi ham o’sib bordi.

2. Fizika o‘qituvchilarining pedagogik e’tiqodlari: So‘rov natijalari akademik litseylarning fizika fani o‘qituvchilari turli xil pedagogik e’tiqodlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ba’zi o’qituvchilar o’qituvchi rahbarligidagi ta’limning muhimligini ta’kidlagan bo’lsalar, boshqalari talabalarga qaratilgan yondashuvlarni ma’qullashdi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar pedagogik innovatsiyalarga ijobiy munosabat bildirdilar, fizika ta’limining o‘zgaruvchan talablarini qondirish uchun o‘qitish usullarini moslashtirish zarurligini e’tirof etdilar. Bu o’qituvchilarning yangi pedagogik strategiyalarni o’rganish va o’z amaliyotiga kiritishga tayyorligini ko’rsatadi.

3. Pedagogik strategiyalarning samaradorligi: So‘rov javoblari va sinfda o‘tkazilgan kuzatuvlar tahlili fizikani o‘qitishda pedagogik strategiyalarning idrok etilayotgan samaradorligi haqida qimmatli tushunchalar berdi. Natijalar shuni ko’rsatdiki, akademik litsey o’quvchilari o’quvchilarga yo’naltirilgan pedagogik yondashuvlarga duchor bo’lganda, faollik va motivatsiya yuqori darajada namoyon bo’ladi. So‘rovga asoslangan mashg‘ulotlar va muammolarni yechish vazifalari, ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va kontseptual tushunishni chuqurlashtirishda samarali bo‘ldi. Biroq, ushbu strategiyalarni amalga oshirish o’qituvchilar orasida turlicha ekanligi, ba’zilari vaqt cheklovlari va cheklangan resurslar bilan bog’liq muammolarga duch kelishi kuzatildi.

4. Qiyinchiliklar va to’siqlar: Bir qancha o‘qituvchilar o‘quvchilarga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarning afzalliklarini e’tirof etishlari bilan birga, ularni amalga oshirishdagi muayyan qiyinchiliklar va to‘siqlarni ham ta’kidladilar. Vaqt cheklovlari, katta sinf o’lchamlari, cheklangan resurslar va standartlashtirilgan test talablari asosiy to’siqlar sifatida aniqlandi. Bundan tashqari, o’qituvchilar innovatsion pedagogik amaliyotlarni o’zlashtirishda to’siqlar sifatida malaka oshirish imkoniyatlarining yo’qligi va ma’muriy yordamning etarli emasligini ta’kidladilar. Ushbu muammolar aniqlangan to’siqlarni bartaraf etish va samarali pedagogik amaliyotni amalga oshirish uchun

qulay muhit yaratish uchun manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikdagi sa'y-harakatlar zarurligini ko'rsatadi.

Xulosalar. Akademik litseylarda fizika o'qitishda pedagogikaning o'rni tahlili o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va kontseptual tushunchasini oshirish uchun o'quvchiga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhimligini ko'rsatadi. Natijalar fizika fani o'qituvchilari o'rtasida pedagogik innovatsiyalar zarurligi to'g'risida xabardorlik kuchayib borayotgani hamda faolroq va so'rovga asoslangan o'qitish usullariga o'tishdan dalolat beradi. Biroq, bir qator qiyinchiliklar va to'siqlar hali ham ushbu strategiyalarni keng miqyosda amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Maqsadli kasbiy rivojlanish dasturlari, tegishli resurslar bilan ta'minlash va qo'llab-quvvatlovchi ma'muriy siyosat orqali ushbu muammolarni hal qilish uchun sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak. Bu orqali akademik litseylar fizika bo'yicha samarali ta'limni yo'lga qo'yishi va zamonaviy dunyo chaqiriqlariga tayyor bo'lgan ilmiy savodxon shaxslarni yetishtirishga hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Asadovna, F. X. (2023). Fizika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogs jurnali, 33(2), 4-9.

2. Nargiza, U. (2023). O'quvchilarga fizika fanini o'qitish metodikasi. Pedagogs jurnali, 25(1), 30-36.

3. Munisovna, T. D. (2023). Fizika fanini o'qitishda ta'lim prinsiplarining ahamiyati. pedagogical sciences and teaching methods, 2(24), 168-173.

4. Toshpulatova, D. (2022, October). Fizika fanini o 'qitish metodikasining paydo bo 'lishi va rivojlanishi. In Международная конференция академических наук (Vol. 1, No. 29, pp. 96-100).

5. Yoldasheva, G. (2021). Fizika fanini o'qitishda dasturiy vositalar va virtual laboratoriyalar. Academic research in educational sciences, 2(6), 612-616.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolaning maqsadi akademik litseylarda fizikani o'qitish va o'rganish tajribasini oshirishda pedagogikaning rolini o'rganishdir. Pedagogik amaliyotning hozirgi holatini o'rganish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va innovatsion yondashuvlarni taklif qilish orqali biz pedagogika fanini litseylarda fizika ta'limining o'ziga xos vazifalarini hal qilish uchun qanday qilib moslashtirish mumkinligini har tomonlama tushunishni maqsad qilganmiz.

РЕЗЮМЕ

Целью данной статьи является изучение роли педагогики в расширении опыта преподавания и изучения физики в академических средних школах. Изучая современное состояние педагогической практики, выявляя возможные пробелы и предлагая инновационные подходы, мы стремимся всесторонне понять, как педагогика может быть адаптирована для решения конкретных задач физического образования в лицеях.

SUMMARY

The purpose of this paper is to explore the role of pedagogy in enhancing the teaching and learning experience of physics in academic high schools. By studying the current state of pedagogical practice, identifying possible gaps and proposing innovative approaches, we aim to comprehensively understand how pedagogy can be adapted to solve the specific tasks of physics education in lyceums.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO`LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI

Soliyev N.S.
Namangan muhandislik-qurilish instituti t ayanch doktoranti

Tayanch so`zlar: loyihalashtirish, ta'lim, talaba, pedagogik jarayon, ta'lim innovatsiyalari, o'quv mashg'ulotlari, sifat, natija.

Ключевые слова: проектирование, образование, студент, педагогический процесс, образовательные инновации, образовательная деятельность, качество, результат.

Key words: design, education, student, pedagogical process, educational innovations, educational activities, quality, result.

Kirish. Jahon ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashning yangi didaktik tizimlarini raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu borada oliy ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, texnika yutuqlarini idrok qilishga qobiliyatli, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashadigan, o'z-o'zini rivojlantirishga qodir shaxsni tarbiyalashda kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy o'sish jarayonlarini loyihalash, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga oid tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida amaliy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari asosida bo'lajak muhandis-quruvchilarning ijtimoiy-rolli pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, texnika, texnologiya va qurilish sohalarida bakalavr va magistrlar tayyorlashning kompetentli modellarini ishlab chiqish, axborot-ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak muhandislarni kasbiy shakllantirishning individual ta'lim traektoriyasini pedagogik loyihalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida bo'lajak muhandis-quruvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish, muhandislik yo'nalishi talabalarida loyihaviy-konstruktorlik, tashkiliyboshqaruv, ishlab

chiqarish-texnologik, ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[1] 2021-yil 10-dekabrdagi PQ-42-son “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2], 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3]Qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamizda A.Abduqodirov, M.Aripov, A.Aripdjanova, U.Begimqulov, F.Zokirova, M.Lutfillayev, D.Maxmudova, D.Narzikulova, Q.Olimov, N.Tayloqov, T.Shoymardonovlar ta’limni axborotlashtirish hamda aralash ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish; U.Inoyatov, N.Muslimov, O.Musurmonova, Z.Ismailova, O‘.Tolipov, D. Ro‘ziyeva, Sh.Sharipov, M.Vahobov, M.Mirsoliyeva, D.Himmataliyevlar talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.[4;23]

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)dan E.Zeer, D.Ivanov, N.Kuzmina, A.Markova, K.Mitrofanov, A.Xutorskiylar ta’limga kompetensiyaviy yondashuvning umumiy qoidalarini ishlab chiqish; Y.Vardanyan, A.Kochnev, N.Saxarova, A.Fatixovalar kasbiy kompetentlik; L.Osipova, A.Piligin, V.Pustovoytov, S.Roslyakova, L.Semina, G.Borozines, Y.Emelyanov, O.Iskandarova, A.Panfilova, G.Trofimovalar kommunikativ kompetentlikning mezon va omillarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. [5;15]

Xorijlik olimlardan T.Byuzen, M.Bernis, M.Pietra, Ye.Terxart, R.Dyunn, T.Maes, N.German talabalarda superfikrlashni shakllantirish; X.Blankerts, M.Petras, E.Terxart, R.Dann, K.Dann, N.Germanlar didaktik nazariya va modellar, virtual ta’limning didaktik aspektlarini, boshqarish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.[5;45]

Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik ilmiy manbalar, DTS, o‘quv rejalar va dasturlarni tanqidiy o‘rganish va tahlil qilish, modellashtirish (loyixalash), pedagogik kuzatish, sotsiometrik (test, suhbat, anketa, intervyu), pedagogik eksperiment, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Natijalar.

1-jadval. O‘quv loyihalari bilan ishlashning texnologik bosqichlari

Loyiha ishi bosqichlari	O‘qituvchining faoliyati	Talabalarning faoliyati
Muammoli-informatsion	Muammoli vaziyatni yaratish	Muammoni tahlil qilish
	Dastlabki ma’lumotlarni taqdim etish	Ma’lumotlar bilan tanishish
Maqsadni belgilash	Maqsadni belgilash uchun sharoit yaratish	Ishning maqsadini belgilash
Rejalashtirish	Tashkiliy ishlarni amalga oshirish	Loyihaviy faoliyat rejasini tuzish
	Ijobiy motivatsiyani hosil qilish	Loyihani bajarish rejasini tuzish
Informa-tsion-komm-unikatsion	Axborotlarni tanlash mezonlarini aniqlashtirish	Zarur axborotlarni to‘plash
	Axborotlar ustida ishlash qoidalari bilan tanishtirish	Axborotlarga ishlov va umumlashtirish Berish
	Kommunikatsiyalarni hosil qilishning o‘ziga xosliklarini o‘rgatish	Axborotlar bo‘yicha o‘zaro fikr almashish
Texnologik	Loyihaviy faoliyat metod va vositalari bilan tanishtirish	Loyiha turi va vositalarni tanlash Zaruriy
	Talabalarning individual ishlarini tashkil etish va maslahatlar berish	Loyiha ishini bajarish
Nazorat-korreksiya	Nazoratni amalga oshirish	Ishni nazoratdan o‘tkazish
	Kamchiliklarni ko‘rsatib berish	Zaruriy tuzatishlar kiritish
Yakuniy	Loyihaviy faoliyat natijalarini taqdim qilish shaklini tanlashga yordam berish	Qo‘lga kiritilgan natijalarni taqdim etish va himoya qilish

Muhokama. An’anaviy shaklda kurs loyihasini ishlab chiqish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi: axborotlarni izlab topish; maqsad va vazifalarni aniqlashtirish; maslahat olish; mustaqil ishlash; kurs loyihasini yakunlash. Biroq kurs loyihasini bunday algoritmik ketma-ketlikda bajarish bir qator kamchiliklarga ega: loyiha mavzularining bir xilligi; ta’lim oluvchilar o‘quv harakatlarining o‘xshashligi; standartlashgan tayanch axborotlarga tayanish; reproduktiv ta’limiy faoliyatning ustunligi va boshqalar. Ana shu jihatlarini hisobga olgan holda, tadqiqot doirasida talabalarning bilish faoliyatini oshirish, ularda kreativlik va kasbiy zaruriy sifatlarini rivojlantirish vositasi sifatida

o‘quv loyihalari ustida ishlashning texnologik bosqichlari ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

2-jadval. Bo‘lajak muhandis-quruvchilarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish modeli



Mazkur bosqichlarga asoslanib, loyihaviy faoliyatni amalga oshirish bo‘lajak muhandis-quruvchilarda mantiqiy, loyihaviy, divergent fikrlashni rivojlantiradi; mustaqil kasbiy harakatlarni amalga oshirishga tayyorgarlikni tarkib toptiradi; informatsion-kommunikativ kompetentlikni shakllantiradi.

Axborot-ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazkur jarayonni modellashtirishni taqozo etdi. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, bo‘lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang).

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model maqsadli, metodologik mazmunli, tashkiliy-pedagogik, natijaviy-baholovchi komponentlarni o‘zida aks ettiradi. Bo‘lajak muhandis-quruvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar belgilab olindi: uzviylik va uzluksizlik, professionalizm va o‘z-o‘zini namoyon etish, ochiqlik va variativlik.

Bo‘lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy metodlari sifatida ishlab chiqarish vaziyatlari tahlili, o‘quv loyihasi, kasbiy rollarni bajarish bo‘yicha stajirovka, o‘quv munozarasi, kasbiy mahoratga doir tanlovlar, imitatsion treninglardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborotlashgan ta’lim sharoitida bo‘lajak muhandis quruvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish maqsadida https://muhandislar.uz/ ko‘makchi o‘quv portali ishlab chiqildi. O‘quv portali onlayn rejimida talabalarning mustaqil o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish shakl, metod va vositalarini o‘zida to‘liq aks ettirgan.

O‘quv portalida ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ishlar, virtual laboratoriyalar joylashtirilgan bo‘lib, quyidagi didaktik imkoniyatlarga egadir: grafik topshiriqlarni bajarish namunasi video va animatsion (harakatli) tasvirlar asosida amalga oshiriladi; grafik topshiriqlarning namunasi tekislik (2D) va fazoda (3D) modellashtirish orqali amalga oshirilishi talabalarda fazoviy tasavvurlarni rivojlantiradi; grafik dasturlarni o‘zlashtirish va o‘quv loyihalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Taqdim etilgan videodarslardan ta’limning barcha turlarida bevosita foydalanish mumkin. Ayniqsa mustaqil ta’limda talabalar o‘z bilimlarini ushbu videodarslardan foydalanib, mustahkamlashi va bilimlarini boyitishi mumkin. Onlayn-o‘rgatuvchi mashg‘ulotlar talabalarga katta hajmdagi ma’lumotni tez va qulay usulda yetkazish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Axborotlashgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Bo'lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligi tuzilmasini belgilashda kasbiy va shaxsiy sifatlar majmui, texnologik savodxonlik, qurilish sohasidagi o'zgaruvchan mehnat faoliyati shart-sharoitlariga yuqori darajadagi moslashuv, bino va inshootlarni loyihalashda kasbiy tajribaga egalik, uni kasbiy tayyorgarlik va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida takomillashib borishi kabi komponentlarning o'zaro birligini ta'minlangan.
- Axborotlashgan ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda grafik ta'limning quyidagi didaktik imkoniyatlarini hisobga olish lozim: grafik fanlar mazmunini kasbiy sohaga yo'naltirilgan tarzda o'qitish; maxsus va umumtexnika fanlari bilan integratsiyalash; grafik bilimlarni o'zlashtirishda an'anaviy va texnologik yondashuvni uyg'unlashtirish; muhandislik ijodiy faoliyatni kompyuterli modellashtirish; grafik fanlarni o'qitish jarayonida maxsus-kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishning ustuvorligini kasb etishi; qurilish ob'ektlarini vizuallashtirish orqali kompyuter grafikasi imkoniyatlarini kengaytirish, vizual kasbiy yo'nalganlikni tarkib toptirish.
- Axborot ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini amalga oshirishda o'quv-ishlab chiqarish amaliyotini aralash o'qitish modeli asosida tashkil etish, virtual ekskursiyalar orqali qurilish maydonlarida ob'ektlar bilan vizual ishlash, mustaqil loyihaviy faoliyat jadallashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son.
4. M. Mirsoliyeva "O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. Fan va texnologiya. T-2014 23-b
5. Г. Трофимова "Педагогическая коммуникативная компетентность: теоретический и прикладной аспекты". Днепр-Ижевск. 2018 г.С 45
6. Т. Бьюзен "Супермышление" M Mind Maps 2019 С 15
7. Yusupova, M. Loyiha Texnologiyasining ta'lim Jarayonida qo'llanilishining ijobiy tomonlari. Academic research in educational sciences. 2021 126-b
8. https://new.tdpu.uz
9. https://www.aim.uz
10. https://www.ziyonet.uz

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar yordamida bo`lajak muhandislarning loyihalash kompotensiyasini rivojlantirish masalasi ko`rib chiqilgan bo`lib, uning mohiyati, mazmuni, metodikasi, bundan tashqari mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish uchun ta’lim vositalarining o‘rinli tanlanilishini, ulardan o‘quv jarayonida to‘g‘ri foydalanish shuningdek, ta’lim jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar ko‘rib chiqilgan va talqin qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается развитие проектной компетентности будущих инженеров с помощью цифровых технологий, ее сущность, содержание, методика, а также образовательные средства организации обучения исходя из существующих условий, целесообразный выбор, правильное их использование в образовательном процессе, а также рассмотрены и интерпретированы основные задачи, выполняемые при проектировании образовательного процесса.

SUMMARY

This article examines the development of design competence of future engineers with the help of digital technologies, its essence, content, methodology, and educational tools for organizing training based on existing conditions. appropriate selection, their correct use in the educational process, as well as the main tasks performed in the design of the educational process, were reviewed and interpreted.

BO`LAJAK FIZIKA O`QITUVCHILARINING FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Shoyzakova H.Yu.
Guliston davlat universiteti tayanch doktornti

Tayanch so‘zlar: fizika, mantiqiy firklash, STEAM ta’limi, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti.

Ключевые слова: физика, логическое мышление, STEAM-образование, практические занятия, лабораторные занятия.

Key words: physics, logical reasoning, STEAM education, practical training, laboratory training.

Kirish. Ma’lumki, ‘XXI asr – intellektuallashtirilgan asr’ ko‘rinishini olib bo‘ldi. Buni hozirdagi ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivojidan yaqqol sezish mumkin. Ular negizida ishlab chiqarilayotgan intellektual tizimlarda ko‘plab tizmiy yondashuv, innovatsion yondashuv, kreativ yondashuv, ijodiy yondashuv, majmuaviy (komillik) yondashuv, integrativ yondashuv kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilmoqda. Bu tadqiqot uslublari ichidan integrativ yondshuvdan ko‘proq foydalanilmoqda. Bunga sabab intellektuallashtirilgan asrning ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda albatta ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi, ya’ni bular asosidagi hosil bo‘ladigan-yangilangan ta’lim mazmunini tashkil etishda integratsiyalash jarayoni amalga oshiriladi.

Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday keshadi kabi savollar tug’iladi. Shu nuqtai nazardan «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunshalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir.

Har qanday o‘qituvshi ham «kompetentlik» nimani anglatishini va u «kompetensiya»dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. «Kompetentlik» tushunshasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ishiga oladi. Boshqasha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatsa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Adabiyotlar sharhi. Respublikamizda intellektual saloxiyatli bo‘lajak mutaxasislarni tayyorlash masalasi ham davlat ahamiyatiga molik bo‘lib, ushbu masalani hal qilishga aloxida e’tibor qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasida ‘Uzliksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy extiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatini baxolashning xalqaro standartlarini joriy etish’ vazifasi belgilangan[1].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Ushbu muammoni hal etishda dastlab an’anaviy ta’lim tizimiga mos va xos bo‘lgan davlat hujjatlari o‘rganilib chiqiladi va ulardagi bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy talablar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni modernizatsiyalashga qaratilgan g‘oyalar va ko‘rsatmaviy fikrlar muammo yechimini hal qilishda etiborga olinib boriladi va ulardagi didaktik imkoniyatlar hisobga olinadi. Quyida ularning bazilari haqida to‘xtalamiz:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning Davlat ta’lim standartlarining mavjudligi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid fanlar bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarining mavjudligi.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarni malaka tavsifnomalarinig mavjudligi.

4. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasidagi bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkunligi va shu kabilar.

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotimizning psixologik jixatlari ham ahamiyatlidir, ya’ni ta’lim mazmunidagi integratsiyalash ishlari bo‘lajak fizika o‘qituvchilaridagi ko‘pchilik xususiyatlarni tarbiyalaydi. Bu haqda quyidagi fikr ahamiyatlidir:

‘O‘qitishda xususiyatlarni tarbiyalash-fanlarni o‘qitish, o‘quvchilarda ilmiy munosabatni, quyidagilarni xususiyatlaydigan munosabatlarni tarbiyalash maqsadini ko‘zlaydi: qiziqish (bilish xohishi) va faoliyat (biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi); skeptiuizm (tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko‘rib chiqish xohishi); dalillash (bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalardan foydalanish mahoratlari); xabardorlik (uning yordamida o‘ylash mumkin bo‘lishi uchun olam haqida axborotlar fondining mavjudligi); strategiyalar (izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishi); moyillik (yangi bilimlarni olish natijasida talaba o‘zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta ko‘rishni boshlashi uchun boshqalarning fikri va tushunchalarini qonuniyat asosida bir chiziqqa joylashi) [2].

Ta’lim sohasiga STEAM dasturini tadbiq etish, o‘zlashtirish asosida ochiq, moslashuvchan, induviduallashgan, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan

foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fizika fanini STEAM dasturi asosida o'qitish orqali bo'lajak o'qituvchi mavjud sharoitlar va ish tajribasiga asoslanib ijodiy yondashgan holda ish faoliyatini olib borishi hamda mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishi lozim. Jumladan, STEAM dasturi asosida talaba fizika fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishi belgilangan;

- Talabada dunyodagi texnik va kommunikatsion o'zgarishlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish;
- Fan- texnika va texnologiyalar taraqqiyotini o'rgatish orqali talabalarda ixtirochilik va konstruktorlik qobilyatlarini shakllantirish;
- Talabalarning fizik hodisalarni kuzatish va tahlil qilishga, o'rganiladigan hodisaning boshqa hodisalarga bog'liqligi;

Talabalarning hodisa va qonuniyatlarning eksperimental ravishda tekshirib ko'rish usullarini ishlab chiqishi muhim o'rin tutadi.

Innovatsion taraqqiyotning shiddat bilan o'zgarishi yaxshi, lekin deyarli har kuni dunyoda yangi yangi ixtirolarning kashf etilishi, yangi yangi sohalarning paydo bo'lishi zamonaviy o'qituvchidan juda katta mahoratni talab etadi. Talabalarning texnik- ijodkorlik va konstruktorlik qobiliyatlarini oshirish uchun esa STEAM ta'lim tizimidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Fizikaviy jarayonlarni dasturlash tillaridan foydalanib o'rganish kelajakda yosh dasturchidan mukammal dasturlarni yaratishida asos bo'ladi. Fizikadan amaliy mashg'ulot jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan MATLAB, MAPLE, MathCAD dasturiy tizimlari hamda Dev-S++, Java(SE-8)-eclipse kompyuter dasturlarini samarali grafik rejimda qo'llanilishi o'quvchi amaliy faoliyatini faollashtirish bilan bir qatorda fanlararo uzviylikni ta'minlaydi.

Professionallik va kompetentlik tushunshalari umumiy xususiyatlarga yega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar shinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilari bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish ushun yetarli ma'lumotga yega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq.
- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari,

pedagogik madaniyat va ish natijalari ushun javobgarlik - bularning barshasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunshasiga kiritilgan.

– Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil yetish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi yega bo‘lgan ishshilar sharshashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Xulosa va munozara. STEAM ta’lim orqali pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarini innovatsion fikrlash va yangi texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan muhandislik va matematika, tabiiy fanlar va texnologiyalarning kombinatsiyasi bo‘lib, loyiha va fanlararo yondashuvlarni bog‘laydi. STEAM ta’limning afzalliklari: tanqidiy fikrlash, ilmiy va texnik bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash, faol muloqot va jamoada ishlash, texnik fanlarga qiziqishni oshirish, loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuv, o‘qish va martaba uyg‘unligi. STEAM ta’limning asosiy maqsadi talabalarning bilim va ixtirochilik yechimlari, tadqiqot xizmatlari va amaliy formatlarda ishlash qobiliyatini namoyish etishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF -4947-sonli ‘O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida’ gi farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. – Toshkent– 2017 - 6-son. -70-modda.

2. Xasanboev J, To‘raqulov X.A, Xaydarov M, Hasanboeva O, Usmonov N.O‘. Pedagogika fanidan izohli lug‘at.– T.: ‘Fan va texnologiya’, 2009, 672 b.

3. “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-martdagi PQ-5032 sonli qarori.

4. Sayfullaeva G.I. “Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida astronomiya mashg‘ulotini o‘qitishda talabalarning texnik- ijodkorlik va konstruktorlik hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini STEAM ta’lim dasturlaridan foydalanib o‘qitishni takomillashtirish “Zamonaviy fizika va astronomiyaning muammolari, yechimlari, o‘qitish uslublari” Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2022 yil 12 aprel, 185-186 b.

5. Kamalova D.I. Fizikada “STEAM” dasturi. “Journal of advanced research and stability” (JARS). “Implementation of foreign experience in distance learning in the education sySTEAM”. Special Issue. February 9. 2022. p.111-113.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqola dialektik metod asosida bo`lajak fizika o`qituvchilarining tahlil qilish hamda fiklash ko`nikmalarini rivojlantirish masalalari muhokamasiga bag`ishlanadi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена обсуждению развития навыков анализа и рассуждения у будущих учителей физики на основе диалектического метода.

SUMMARY

This article is devoted to the discussion of the development of analysis and reasoning skills of future physics teachers based on the dialectical method.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH O'QITUVCHILARIDA VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Suvonqulova A. A.
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti

Tayanch so'zlar: zamonaviy ta'lim, virtual ta'lim, axborot texnologiyalari, boshlang'ich maktab, informatika kursi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kelajakdagi kasbiy mutaxassislik.

Ключевые слова: современное образование, виртуальное образование, информационные технологии, начальная школа, курс информатики, будущие учителя начальных классов, будущая профессиональная специализация.

Key words: modern education, virtual education, information technologies, elementary school, computer science course, future elementary school teachers, future professional specialization.

21-asr - axborot texnalogiyalari asrida axborot kommunikatsion texnologiyalarning bemisl rivojlanishi natijasida ko'plab sohalarda yangidan yangi yutuqlarga erishilmoqda. Bugungi kunga kelib AKT dan ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida foydalanish ham o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Axborot jamiyati jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jabhalarida virtuallikni yuqori darajada amalga oshirilishini namoyish etmoqda va bu butun jamiyat hayoti virtuallashuvi tendensiyasidan dalolat beradi. Ta'lim tizimining virtuallashuvi texnologik jihatdan axboriy yondashuvga asoslangan bo'lib, u virtual axborot maydoni, virtual ta'lim modellari, virtual ta'lim texnologiyalari, virtual axborot tuzilmalari va axborot ta'siridan tarkib topgan. Ushbu komponentlar virtuallikning ajralmas qismi sifatida yangi ta'lim texnologiyalarini o'zida ifodalaydi. Virtual modellashtirish va virtual texnologiyalar vizual tasvirlarni ob'ektiv haqiqat bilan bog'lash uchun yangi omillarni yaratib, bular makon ko'lami, vaqt ko'lami, vaqtning teskari aylanishi, real bo'lmagan vaziyatlarni modellashtirish singari omillar bilan tavsiflanadi.

Katta axborot sig'imini o'z ichiga olgan axborot modellarining paydo bo'lishi virtual ta'lim uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi.Virtual ta'lim texnologiyasi – bu o'quvchi va o'quv manbasi o'rtasidagi virtual axborot

o’zaro ta’siri jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan yangi ta’lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Virtual ta’limning o’ziga xos xususiyati - bu o’qituvchi bilan talaba va virtual haqiqat o’rtasida vositachining yo’qligi. Bu texnologiyani faol ishbilarmonlik o’yiniga asoslangan o’rganish bilan solishtirishimiz mumkin. Virtual ta’limning afzalliklari ko’pincha multimediali o’qitish vositalaridan foydalanish imkoniyatlari bilan oqlanadi. Medialashuv virtual ta’limning asosi bo’lib, endi an’anaviy ta’limning zarur elementiga aylanmoqda. Atrofdagi hodisalarning xilma-xilligi va ular orasidagi aloqalar ongdagi tasvirlarning turli tuzilmalarini vujudga keltirishi mumkin. Tabiiyki, voqelikni aks ettirish usullari iloji boricha polimorf bo’lishi kerak. Shuning uchun, axborot ta’sirining murakkabligi, ya’ni axborot vositachilik qilsa, u qabul qiluvchining ongidagi axborot-aqliy tuzilmalarga ta’sir qilish nuqtai nazaridan kommunikantga shunchalik katta ta’sir ko’rsatadi. Pedagogik jarayonning izchilligi o’qitishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining birligini nazarda tutadi. Agar o’quv materialining mazmunini yaxshilash uchun uni tizimlashtirish, aktuallashtirish va muammoli qilish, shakllarni ishlab chiqish uchun - o’qitishni faollashtirish, metodologiyada - individuallashtirish va avtomatlashtirish muhim vazifalar bo’lsa, pedagogik vositalarni takomillashtirish uchun bugungi kunda eng muhim vazifa vizualizatsiya deb tan olinadi. Shuningdek, o’quv materialining vizualizatsiyasini, axborot maydonini va xususan, ta’limni vositachiligi bo’lgan zamonaviy global madaniy tendentsiyaning muhim tarkibiy qismi deb hisoblaymiz. Soddalashtirilgan, ma’lum bir fan sohasidagi ta’lim mazmunining har qanday elementlari - a) faoliyat usullarini bilish; b) faoliyat usullariga ega bo’lish; v) ushbu faoliyat turidagi ijodkorlik tajribasi; d) jarayonga va faoliyat natijasiga emotsional -qadriyatli munosabatda bo’lish tajribasi – umumiy holatda, ideal bir holda - kasbiy faoliyat tasvirlari tizimi orqali ifodalanishi mumkin. Keyin bu tasvirlarning har xil nisbati professional vaziyatlarni tashkil qiladi. O’qituvchi ularni muammoli qiladi, ularni hal qilish uchun vazifalar tuzadi va shu bilan o’quvchilarning professional tafakkurini rivojlantiradi. Ammo o’quvchilarga hissiy ta’sirni kuchaytirishning yanada katta zaxiralari og’zaki emas, balki vizual ta’sir qilish vositalarida bo’lib, ular didaktik nuqtai nazardan, mulkiy - idrok etishni ko’zda tutuvchi axborot mahsulotlarining ta’sirini bir vaqtning o’zida turli hislar orqali sinkretlashuvini o’z ichiga oladi. Tarbiyalanuvchilarning sezgi organlariga murakkab ta’siri tufayli, ikkinchisi ma’lum kayfiyatni yaratadi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va idrok etiladigan ma’lumot hajmini sezilarli darajada oshiradi.O’quv maydonini virtuallashuviga

oid tajribalar gumanitar fanlar bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda o'tkazilishi lozim. So'nggi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi nazariy yutuqlar kuchayib, inson xulq-atvoridagi har xil ratsional va emotsional holatlar o'rganildi. Virtual ta'lim muhiti (bilim muhiti) paydo bo'lishining old shartlari quyidagi shartlardir:

– mehnat bozoridagi o'zgarishlar (mehnat bozori mehnat resurslarini qayta taqsimlashni talab qiladi);
– axborot bozoridagi o'zgarishlar (ilmiy -texnik taraqqiyot sur'atlarini tezlashtirish bilimlarning doimiy yangilanishini talab qiladi);
– yangi aloqa imkoniyatlarining paydo bo'lishi (aloqa va Internetning rivojlanishi uzoq masofali axborot manbalariga kirishga imkon beradi va aloqa doirasini kengaytiradi);

Virtual ta'limda bir qancha tipik shakldagi axborot holati modeli (vaziyat modeli) ni ifodalaydigan dinamik vizual model, sahna modeli, kognitiv model, axborot beruvchi model, kosmik model, vizual interfeys va fazoviy simulyatsiya modellari mavjud. Bu ko'rinadigan modellar. Bundan tashqari ko'rinmas modellar mavjud bo'lib unga quyidagilar kiradi: ssenariy modeli, test modeli, testni tekshirish modeli, xizmat ko'rsatish modellari, fazoviy tizimli modellar.

To'g'ri ishlab chiqilgan virtual ta'lim modeli, ko'zlangan maqsadga tezroq yetish uchun Tayanch hisoblanib, unda quyidagi tamoyillarga amal qilinsa maqsadga muvofiqdir:

– o'qitish o'quvchining kognitiv faolligiga asoslangan bo'lishi;
– virtual o'quv dasturining tuzilishi dinamik qismda modulli bo'lishi;
– statik qismda axborot birliklaridan foydalanish.

Axborot vaziyatining modeli real sharoitlarni simulyatsiya qilish jarayoniga asoslangan. Axborot holatiga asoslangan shartlarni shakllantirish va muammoning keyingi yechimi o'quvchilarning o'quv maqsadlariga mos keladigan kompetentsiyasini shakllantiradi. Shunday qilib, axborot holati vakolatlarni o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Haqiqiy jarayonlarga taqlid simulyatsiya modellari, ularni vizual taqdim etish va virtual modellashtirish asosida amalga oshiriladi. Virtual ta'lim jarayonida modellashtirishning fazoviy (geoinformatsion), vaziyatli, dinamik kabi maxsus turlaridan foydalanishimiz mumkin. Vaziyatli modellashtirish - bu talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish uchun real ishlab chiqarish vaziyatlari va jarayonlari simluyatsiyasini yaratish. Dinamik vizual modellashtirish esa, o'quvchining virtual vaziyat bilan axborot o'zaro ta'siridan foydalanadigan tinglovchilarning qaror qabul qiluvchi rolidagi haqiqiy faollik tuyg'usini to'liq

shakllantirishga mo'ljallangan faol o'qitish usuli. Dinamik vizual modellar yordamida o'qitish texnologiyasi, harakatlarning indikativ asosini hisobga olgan holda, real vaziyatlarda harakatlarni bajarish sharoitida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish kontseptsiyasiga asoslangan. Ma'ruza va seminar o'qitish metodologiyasidan farqli o'laroq, ikkita vazifa izchil hal qilinadi, birinchidan, bilimlarni uzatish, ikkinchidan, ularni qo'llash ko'nikmalari shakllantirish. Dinamik vizual modellar yordamida o'qitish texnologiyasi vaziyatli, vizual va o'qitish singari turli modellarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Axborot situatsion modeli yoki axborot holati modeli haqiqiy ob'ekt va real vaziyatni aks ettiradi va o'rganilayotgan jarayonlar va vazifalar mazmunini shakllantirib, bunda vaziyatni tasvirlash uchun evristik va rasmiy yondashuvlardan foydalanish mumkin.Evristik yondashuv, qoida tariqasida, vaziyat o'rganilganda, uning ketma -ket qo'shilishi bilan ob'ektning to'liq bo'lmagan qismli tavsifini nazarda tutadi. Bu ma'lumotni takroriy qayta ishlash zarurligiga olib keladi va qiyin vaziyatda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.Rasmiy yondashuv ob'ektning to'liq tavsifiga asoslanadi va tasvirning analitik va matematik usullari yordamida amalga oshiriladi. Bu yondashuv algoritmik qayta ishlash zarurligiga olib keladi va tinglovchilarda analit ik fikrlash va tizimli tahlilni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim tizimi virtuallashuvi an'anaviy ta'limda uchraydigan ko'plab muammolarga yechim bo'lib, biz ta'lim uchun sinf xona, qat'iy belgilangan vaqt, yo'l ovvoragarchiligi, zerikarli, bir tempdagi ma'ruza, o'tkazib yuborilgan mashg'ulot kabi masalalarga samarali yechim sifatida ko'riladi. Qolaversa, o'quvchining tanqidiy, ijodiy tafakkurlashiga asos bo'la oladi.Axborot manbalari bugungi kunda shu qadar takomillashganki, ta'lim jarayonida o'qituvchi eng qulay, eng zamonaviy, eng qiziqarli, eng oson usullarni qo'llash orqali o'quvchiga zaruriy bilimlarni yetkazmasa, ko'zlangan maqsadga erishishi qiyin. Bu undan nafaqat, o'z fanining bilimdoni, balki o'z kasbining fidoyisi, o'rni kelganda aktyori bo'lishini talab etadi. Ayniqsa, fan o'qituvchisi darslarni tashkil etishda o'tiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqib materiallarni o'quvchilarga singdirish yo'llarini, qaysi usullarni qo'llash yaxshi samara berishini oldindan belgilab olishi maqsadga muvofiq. Ilg`or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash darslarning sifatini, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni mustaqil ishlashga va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha darslarning

zamon saviyasiga mos kelishi va ta’lim samaradorligining ortishi o‘qituvchining mavzu materialini tasviriy va ovozli texnik vositalardan foydalanib, jonli obrazlar yarata olishiga bog`liqdir.

Adabiyotlar:

1. Пак Н. И. Информационный подход и электронные средства обучения: монография Красноярск: РИО КГПУ, 2013.

2. Дешко И.П. Информационное конструирование: Монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. – 64с. ISBN 978 -5-317-05244-7.

3. Tsvetkov V. Ya. Information Constructions // European Journal of Technology and Design, 2014, Vol.(5), № 3- p147-152

4. Tsvetkov V. Ya. Information interaction // European Researcher. - 2013. - Vol.(62), № 11-1. - p.2573- 2577

5.Qizi, S. A. A. (2021). Content, form and means of formation of basic competences in primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1494-1497.

6. Suvonqulova A. A. (2022). Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(10), 7-9.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola ta’limda virtual texnalogiyalar samaradorligini yuqori bosqichga ko‘tarish hamda dars sifatini oshirishda uzluksiz ta’lim tizimi xodimlari, pedagog-o‘qituvchilar tomonidan virtual texnologiyalarini ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olish, shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi haqida batafsil yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья направлена на то, чтобы поднять эффективность виртуальных технологий в образовании на более высокий уровень и повысить качество проведения уроков работниками системы непрерывного образования, педагогами-педагогами, эффективно использовать виртуальные технологии в образовательном процессе, а также организовать образовательный процесс, подробно объясняется, что для принятия решений важен творческий подход.

SUMMARY

This article aims to raise the effectiveness of virtual technologies in education to a higher level and to improve the quality of lessons by employees of the continuous education system, pedagogues-teachers, to effectively use virtual technologies in the educational process, as well as to organize the educational process. It is explained in detail that a creative approach is important for decision-making.

БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИ КАРТОГРАФИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР

Зухуров Й.Т.
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти п.ф.б.ф.д., (PhD)

Таянч сўзлар: картографик компетентлик, муҳандис, олий таълим, дастурий воситалар, ArcGIS, график.

Ключевые слова: картографическая компетенция, инженер, высшее образование, программные средства, ArcGIS, графика.

Key words: cartographic competence, engineer, higher education, software tools, ArcGIS, graphics.

Бугунги кунда хариталарни, шу жумладан демографик хариталарни тузишда ахборот технологияларининг янги дастурлари кенг қўлланилмоқда. Ахборот технологияларининг янги дастурлари жорий этилганда ҳаражатларни камайишига, мослашувини ва ҳаракатни тезлаштиришга имкон бермоқда.

Карталарнинг ахборот технологияларнинг янги дастурлари орқали лойиҳалаш ҳам таълимнинг замонавий инновацион шакли бўлиб, бу замонавий таълим шаклининг таълим тизимига кириб келганига кўп вақт бўлмаган.

Компьютерларда хариталарни лойиҳалашнинг тез суръатлар билан ривожланиши ва унинг ҳам техник, ҳам дастурий воситалари янгиланиб бориши сабабли, ушбу курсни муттасил ривожлантириб туриш, бу соҳадаги янги йўналишларни ўрганиш эҳтиёжи туғилмоқда. Сўнги йилларда бу соҳада жуда катта ўзгаришлар амалга оширилди. Кейинги йилларда ўн миллионлаб турли хил ранг жилоларини ўзида акс эттира оладиган дисплейлар, графикли ахборотларни киритувчи сканерлар, графикли ишчи станциялар вужудга келди. Натижада дастурий воситалар орқали реал воқеликни компьютерда тасвирлай оладиган замонавий дастурлар пайдо бўлди. Шахсий компьютерларда амалга оширилган замонавий лойиҳавий изланишлар ва борларини таҳлил қилиш, олинган натижаларни янада яққолроқ тасвирлашда, тақдимотлар учун материаллар тайёрлаш учун кенг қўлланилмоқда.

Тадқиқот ишимизда биз ишлаб чиқариш соҳаларида фойдаланиб келинаётган, аммо таълим жараёнига тадбиқ этилмаган Arc GIS, AutoCAD,

Panorama дастурлари орқали карталарни лойиҳалаш ва моделлаштиришда ушбу дастурлардан фойдаланиш методикасини ишлаб чиқдик.

Шу мақсадлардан келиб чиқиб, қуйидаги вазифалар белгилаб олинди:

– компьютер графикаси воситаларини ўрганиш;
– ArcGIS, AutoCAD, Panorama дастурлари ҳақида маълумотларни ўрганиш ва хариталарни лойиҳалашда ушбу дастурлардан фойдаланиш имкониятларини очиш;
– лаборатория машғулотларида ушбу дастурлар орқали хариталарни лойиҳалаш кўникмаларини ҳосил қилиш;
– талабаларнинг амалий ва мустақил фаолиятларга йўналтириш, ушбу дастурлар орқали уларнинг картографик компетентлигини ривожлантириш [1].

Ҳозирги кунда ишлаб чиқаришда фойдаланилаётган ArcGIS 9.3 дастури янги рақамли хариталарни яратишда жуда кўп қўлайликлар яратмоқда. Ушбу дастур ёрдамида яратилаётган хариталар билан ишлаш фойдаланувчиларнинг имкониятларини янада кенгайтирмоқда. Шу сабабли ушбу замонавий дастур ёрдамида тарихий-маданий объектлар харитасини яратиш ва такомиллаштириш, маълумотлар баъзасини тўлдириб бориш ҳозирги давр талаби ҳисобланади. ArcGIS 9.3 дастури тарихий-маданий объектларни географик маълумотлари билан биргаликда ишлаш имкониятларини беради. ArcGIS 9.3 дастурида географик маълумотлар базасини йиғиш ва сақлаш жуда ҳам қўлай. ArcGIS 9.3 дастурида электрон замонавий хариталарни яратиш учун қуйидаги ишларни бажариш лозим:

– ArcGIS 9.3 дастурининг ArcView қисми компьютер базасига ўрнатилади;
– жойни ҳаводан туриб рақамли фотокамера ёрдамида суратга туширилади;
– трансформацияланган суратлардан жойнинг фотоплани ёки фотосхемаси тузилади;
– фотоплан олиб жойга бориб, дешифрофка қилинади;
– суратларни ArcGIS дастурига масштаб бўйича туширамиз;
– дешифрофка қилинган фотоплан ёки фотосхемага қараб ArcGIS дастурига электрон харита чизилади, шу билан биргаликда маълумотлар ҳам компьютерга киритилиб борилади.

ArcGIS дастури асосий икки қисмдан иборат. 1.ArcMap; 2.Arc Catalog.

1 бўлим ArcMap географик объектларни атрибут маълумотлар билан ишлашга қўлланилади. Ишчи ойнадан ArcMap ни яъни, дастурни ишга тушириш учун, ишчи ойнадан ArcMap нинг устига сичқончанинг чап тугмасини босиш орқали ишчи ҳолатга туширилади (1 расм)

1-расм. ArcGIS дастурининг ArcMap қисмининг умумий кўриниши

2-бўлим Arc Catalog бу маълумотларни бошқариш (2 расм).

Arg GIS дастури ёрдамида турли график кўринишларни лойиҳалаш, фото, матн, тасвирлар устида ишлаш, айниқса, бадиий кўринишдаги композицияларни таҳрир қилиш билан боғлиқ амалларни бажариш мумкин.

Arg GIS дастурини демографик карталарини тузишда қулладик.



2. расм. ArcGIS дастурининг Arc Catalog қисмининг кўриниши

Ижтимоий-иқтисодий карталар орасида аҳоли карталарини ўрни ўзига хосдир. Чунки аҳоли ҳам ишлаб чиқарувчи ҳам истеъмол қилувчидир. Шунинг учун ҳам уни икки томонлама ўрганишни талаб қилади. Аҳоли иқтисодий ва ижтимоий соҳада бир-бири билан ниҳоятда боғланган бў-

либ, экологик жиҳатдан эса табиий шароит билан ўзаро боғланган бўлиб ўзи шу шароитда яшаб кун кечиради. Демак, аҳоли яшаши ва кун кечириши учун ўзи яшаб турган шароитни ҳам билиши зарур экан. Шундай экан аҳоли тўғрисида мукаммал маълумотга эга бўлмоқ керак экан. Маълумки аҳолини, география, демография, этнография, социология, иқтисодиёт ва тарих фанлари ўргатади. Шундан келиб чиқиб аҳолини картографиялашда ҳам юқоридаги фанлар билан боғланган ҳолда иш олиб боришни тақозо қилади [2].

Аҳоли карталари асосан картанинг тури ва аҳолининг ўсиш кўрсаткичларидан келиб чиқиб ҳозирги кунга Arg GIS дастури ёрдамида электрон рақамли карталарнинг тузиш ва аҳолининг ўсиш кўрсаткичларини тез ва самарали, қолаверса аҳолининг сони ва иш ўринларини тасвирлашда кенг қўлланиб келинмоқда [3].

Аҳоли карталарини тузиш ва ўсиш кўрсаткичлари бўйича йиллик ўзгариш динамикаси бўйича, яъни туғилиш, ўлим, кўчиб келганлар ва кетганлар сони қолаверса иш ўрин бандлиги диаграммалар орқали тасвирлаш ишлари олиб борилса, электрон рақамли карталар асосан ГАТ дастуридан фойдаланиб, яъни Arg GIS дастури ёрдамида маълум бир картографик усуллар яъни картограмма, картодиаграмма, изолиния, миқдорли фон, сифатли ранг, бир жойга тегишли шартли белгилар орқали тасвирлаш ишлари олиб борилса ва электрон карталар тузиб борилса мақсадга мувофиқ бўлади.

3-расм

Ҳудудлардаги аҳолининг сони бўйича тасвирлаш ишлари дастлабки натижалари сифатида тасвирлаш ишлари Arc GIS орқали бир қанча этап ва кетма-кетликлар орқали тасвир ишлари бажарилса, дастлаб Arc catalog электрон рақамларни киритиш учун полигон, нуқта ва чизиқли маълумот-

ларни баъзалари биз тузмоқчи бўлган карта маълумотларидан келиб чиққан ҳолда яратиб олинади (3-расм).

Бунда ҳар бир ҳудуддаги майдоннинг рақамли маълумотлари қуйидагича тузиш ишлари олиб борилади.

Новий база геоданних→классик объект→полигон танланиб рақамли маълумотлар киритилиб борилади ва шу ҳудуднинг координаталарга боғлаш ишлари бажарилади ва қайси зонага тўғри келса ҳудудни шу зонага боғлаб оламиз ва баъзи маълумотларини нуқта чизиқ бўйича яратиб оламиз (4-расм).

4-расм



Карталарни тасвирлаш вақтида ва JPG форматдаги маълумотларни қайтадан белгилаш, маълумотларни киритиш учун дастлабки ишларни ташкил этади. Масалан Arc Map ойнаси очилганда сўнг дабовит данних функциясидан маълумотларни яъни яратилган баъзалар тортиб олиш ишлари бажарилади (5-расм).

(5-расм)



Олинган растрдаги маълумотни чизиш ишлари яъни полигон орқали МФЙ ёки ҚФЙ ҳудудларини чегаралари ва аҳоли карталарининг асос маълумотлари чизиб, ном бериш ишлари символ→категория→добавит задача функцияларини бажарилади (6-расм).

(6-расм)



Кейинги этап орқали нуқта ва чизиқли иншоотларни маълумотлари бўйича акс эттириб, ном бериш ва шартли белгилар бўйича тасвирлаш ишлари бажариб ўтилади. Бу ҳолатда бизнинг ҳудуддаги керакли шартли белгилар мавжуд бўлмаса Arc GIS дастури орқали яъни “стил линия” ёки “стил точка” орқали шартли белгиларни яратиш ва картада тасвирлаш ишлари бажариб ўтилади (7-расм).

(7-расм)

Аҳоли карталарини тузиш жараёнида асосан картограмма усулида ҳар бир маҳалла фуқоралар йиғинларнинг маълумотлари ранг интенсивлиги, яъни тўқлашиб бориш жараёни билан акс эттирилса, ҳудуд бўйича аҳолининг сони диаграмма усули орқали қуйидагича маълумотларни киритиш ва картанинг мазмунини ёритиб беришдан иборат бўлади (8-расм).

(8-расм)



Касби тумани аҳоли карталарининг ўқилиши ва фойдаланиш мақсадини янада ёритиш ишлари карта вид → данних → добавит компоновка функцияси орқали жиҳозлаш ишлари бажариб ўтилади. Жиҳозлашнинг дастлабки жараёни сифатида карталарнинг номи қуйидагича файл→вставит→А(техт) функцияси орқали номлаш ишлари бажарилади (9-расм).

(9-расм)



Ҳар бир картанинг биринчи элементи сифатида ном бериш, карталарнинг жойлашган ўрни ва координата маълумотларини узоқлик ва кенглик бўйича тасвирлаш жараёни, бу асосан карталарнинг номланиши бўлиб хизмат қилади. Ҳозирги кунга келиб тузилаётган электрон рақамли карталарда

қандай мавзуда бўлишидан қатъий назар координаталар тўри ва узоқлик, кенглик маълумотларини хаританинг номланишига яъни номенклатурасига боғлиқ ҳолда тузиш ишлари қуйидаги функция кетйма-кетлиги орқали бажарилади: свойства→сетка→ градусни сетка ёки координата танлаб олиниб маълумотлар киритиб борилади (10-расм).

(10-расм)



Тузилаётган картанинг, яъни электрон рақамли хариталарнинг легендаси (шартли белгилари) асосий маълумот сифатида берилиб, бунда хариталарнинг ўқилиши ва таҳлил қилиш жараёни асосий сабаб бўлиб хизмат қилади ва панел управления→вставит→легенда функциялари орқали хаританинг шартли белгиларини тасвирлаш имкони бўлади. Ҳар бир шартли белги Arc GIS дастури таъминотида мавжудлиги туфайли шартли белгиларни тўлиқ тасвирлаб беради. Бу жараён бошқа ГАТ технологияларига қараганда бир қанча қулай эканлигини кўриш мумкин (11-расм).

(11-расм)



Биз тузаётган карталарнинг мазмуни ва моҳияти асосан бошқа элементлар: қўшимча диаграмма ва шу мавзуга оид долзарб суратлар орқали ҳам тасвирлаш яъни карталарни жиҳозлаш ишлари бажариб ўтилади. Ҳар бир объектни кўринарли даражада яъни форматда, масштабга мос ҳолатда тасвирлаш ишлари олиб борилади (12-расм).

(12-расм)



Ҳар бир картанинг мазмуни ва моҳияти қолаверса график жиҳатдан яратиб бериш ишлари асосан тузилган картанинг муҳаррирлаш ишларини олиб бооришҳисобланса, асосан муҳаррир томонидан карталар экспорт қилинади. Бу жараёнда бир қанча маълумотларни ёритиш ишларини кўриш мумкин (13-расм).

(13-расм)



Экспорт қилинган карталар яъни “сохранит” қилинганда бир қанча функцияларни, панел управления → файл → экспорт карта функцияси танланиб керакли форматда сақлаш ишлари бажарилади ва ҳудуднинг электрон рақамли карталари тузилади.

Бугунги кунда турли компьютер воситалари ва автоматлаштирилган тизимлардан кенг фойдаланган ҳолда карталарни осон лойиҳалаш мумкин. Универсал тизимларни ўрганиш ва улардан таълим соҳасида фойдаланиш-ушбу мақсадга эришишнинг энг оқилона усули ҳисобланади. Аслида, Arc GIS муҳандислар амалий машғулотларда олиб борадиган лойиҳалаш-чизма ишларини стандарт автоматлаштириш тизимига айланмоқда.

Ҳозирда компьютер технологиялари асосида электрон хариталар ишлаб чиқиш мақсадида модификациялашган ArcGIS, AutoCAD, Panorama каби автоматлаштирилган лойиҳалаш тизимлари тақдим этилмоқда.

Адабиётлар:

1. Зухуров Й.Т. “Дастурий воситалардан фойдаланиб талабаларнинг картографик компетентлигини ривожлантириш методикаси (5311500-геодезия, картография ва кадастр (қурилиш))”. П.ф.б.ф.д., (PhD)., дисс., Тошкент – 2022 й

2. Зухуров Й.Т. Талабаларда картографик компетентликни шакллантиришнинг педагогик шароитлари. “Касб-ҳунар таълими” илмий-услубий, амалий, маърифий журнал. Тошкент, 2021-йил, 1-сон.

3. Зухуров Й.Т. Техника олий таълим муассасалари талабаларининг картографик компетентлигини шакллантириш учун касбга йўналтирилган таълим технологияларини лойиҳалаш. Ишлаб чиқаришнинг техник, муҳандислик ва технологик муаммолари инновацион ечимлари мавзусидаги Халқаро миқиёсидаги илмий-техник анжумани материаллари тўплами-Жиззах: ЖизПИ, 29-30 октябрь 2021-йил. 2-ҚИСМ. 1013-бет

4. Зухуров Й.Т. Техник олий таълим муассасаларида талабаларнинг картографик саводхонлигини шакллантиришнинг назарий моделини яратиш. Технологик ва профессионал таълимни модернизациялаш, муаммолар ва ечимлар мавзусидаги Республика онлайн илмий-техник анжуман материаллари тўплами. Бухоро, 2020-йил 20-ноябрь.

РЕЗЮМЕ

Ушбу ишда техника йўналиши олий таълим муассасаларида бўлажак муҳандисларнинг картографик компетентлигини дастурий воситалар орқали ривожлантириш масалалари қаралган.

РЕЗЮМЕ

В данной работе рассмотрены вопросы развития картографической компетентности будущих инженеров технических вузов с помощью программных средств.

SUMMARY

In this work, issues of development of cartographic competence of future engineers in technical higher education institutions through software tools were considered.

ЎҚУВЧИЛАРНИ МОСЛАШУВЧАН МАТЕМАТИК ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Ибрагимов Н.Ш.
п.ф.ф.д. (педагогика фанлари фалсафа доктори) (PhD),
Термиз давлат университети, Алгебра ва геометрия кафедраси катта ўқитувчиси

Таянч сўзлар: қобилият, математик қобилият, ривожлантириш, компонент, фикрлаш, мослашувчан математик фикрлаш.

Ключевые слова: способность, математические способности, развитие, компонент, мышление, гибкое математическое мышление.

Key words: ability, mathematical ability, development, component, thinking, flexible mathematical thinking.

Дунё миқёсида умумтаълим мактабларида таълим олувчиларининг билим, кўникма, малака эгаллашларини такомиллаштириш, математик қобилиятларини ривожлантириш, таълим сифатини ошириш, уни инсонпарварлаштириш, узлуксизлиги ва узвийлиги, ривожлантирувчи ва ижтимоийлаштирувчи мақсадларини таъминлаш, уларнинг ижодкорлигини ошириш вазифалари етакчилик қилмоқда. Хусусан, бўлажак педагог кадрлар тайёрлаш жараёнини самарали ташкил қилишда инновацион таълим муҳити шароитида етакчи таълим муассасаларида таълим олувчиларнинг математик қобилиятларини ўстиришга оид тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда.

Мамлакатимизда ўқувчи математик қобилиятларини ривожлантириш учун ижтимоий, психологик, педагогик ва методик шарт-шароитларни яратишга катта эътибор қаратилмоқда. Чунки мамлакатимизнинг интеллектуал, ижодий ва маънавий салоҳиятини тиклашда ёшларнинг математик тайёргарлиги алоҳида аҳамият касб этади, бу нафақат математик билим, кўникма ва малакаларнинг шаклланишини, балки ўқувчиларнинг математик қобилиятларини ривожлантиришни назарда тутади.

Ўқув ва ижодий қобилиятларни кескин ажратиш учун жиддий сабаблар мавжуд эмас, чунки ўқув фаолияти, одатда, субъектив ижод элементларини ўз ичига олади. Бундан ташқари, умумий ақлий, махсус ва амалий қобилиятларни кўриб чиқиш қабул қилинган.

Умумий, ақлий қобилиятлар - нафақат биргина, балки кўплаб фаолиятларни бажариш учун зарур бўлган қобилият. Бунга масалан ақлнинг фаоллик, танқидийлик, тизимлилик, тез руҳий йўналиш, юқори даражали таҳлилий - синтетик фаолият, жамланган диққат каби сифатларини киритиш мумкин.

Махсус қобилиятлар – бу қандайдир муайян фаолиятни муваффақиятли бажариш учун зарур бўлган қобилиятлар. Махсус қобилиятларга, масалан, математик, адабий ва мусиқий қобилиятларни киритиш мумкин. Бу қобилиятлар турли шахсий қобилиятларнинг бирлигини ифодалайди.

Амалий қобилиятлар конструктив-техникавий, ташкилий, педагогик қобилиятларни ўз ичига олади. Юқоридаги барча материалларни тақдим этишдан мақсад, бизни

қизиқтирадиган махсус қобилиятларнинг аниқ бир тури-математик қобилиятларни тушунишга бағишланади.

Баъзи тадқиқот ишларида таъкидланганидек, "ўрганилаётган объектнинг фони халақит берувчи муҳитни шакллантиради. Шу сабабли, ушбу ҳолатда зарур нарсалар билан бирга фойдасиз бўлган бошқа баъзи қарашлар ҳам хотирада тикланади. Шундай қилиб, зарур нарсалар мажмуаси, худди яширгандек. Бундан ташқари, билим ва тажриба, одатда, онгли равишда, фикрлаётган субъектга хос бўлган одатий ҳолга, муайян қоидалар тизимига риоя қилишда, масалаларни ечишнинг бир хил усулларини қўллашда ифодаланган синалган йўллар олиб борилади" [5-7]. Фикрлашнинг стандартлаштирилиши ўқувчиларга оригинал фикрлашга, муҳим нарсани иккинчи даражали нарсадан ажратиш, муайян масалаларни ечишнинг янги усулларини топиш ва энг муҳими, янги вазиятларда маълум бўлган билимлардан фойдаланишга имкон бермайди. Шунинг учун, умумтаълимдаги мактабидаги ўқувчиларга математикани ўқитишда ушбу психологик тўсиқни енгиш, ностандарт фикрлашга ўргатиш, мослашувчан, фаол ва мустақил фикрлашни ривожлантиришга эътибор бериш муҳим.

Психологик тадқиқотларда фикрлашнинг мослашувчанлигига оид турли тавсифлар келтирилган. О.Н.Гернец фикрлаш жараёнларининг мослашувчанлигини "субъектнинг самарадорлиги йўқотилган фаолиятни мустақил равишда янги шароитда оптимал бўлган фаолиятга алмаштира олиш қобилияти",-дея таъриф беради [1].

Е.С.Ермакованинг диссертациясида фикрлашнинг мослашувчанлиги "масалаларни ечиш усулларини ўзгартира олиш ва ўзгарган шароитга мос янги фикрлаш фаолиятини топа олиш", -деб тавсифланади. [4].

З.И.Калмикова фикрлаш фаолиятнинг мослашувчанлиги хусусияти ҳақида фикр билдириб, "ўрганилаётган ҳолат ўзгарувчанлиги шароитларига мос келадиган фикрлаш фаолиятининг ўзгарувчанлиги даражаси, материал таҳлили ўзига хос ёндашувни қидириб топиш маълумотларни қайта кўриб чиқа олиш; ишлаб чиқилган стереотипни, агар у янги маълумотлар билан зиддиятли ҳолатга келган бўлса, енгиб ўтишнинг хусусияти,-деб тавсифлайди [3].

В.А.Крутецкийнинг тадқиқот ишларида фикрлашнинг мослашувчанлиги, ҳақида бир ақлий фаолиятдан иккинчисига ўта олиш имконияти, яъни шаблонларнинг қўзғалувчан таъсиридан озодлиги, фикр юритилади [2].

Ўқувчиларнинг математик қобилиятларини ривожлантиришда 16-17 ёшли ўқувчилар учун мўлжалланган математик қобилиятларни ривожлантирувчи компонентни таклиф этамиз. Бу ёшда ўқувчилар 10-, 11- синфда ўқийдилар. Биз таклиф этаётган методика асосида ўқувчиларда ривожланувчи математик қобилият компоненти мослашувчан математик фикрлашдир.

Шу компонентлардан ўқув жараёнида математик қобилиятни ривожлантириш имконини берувчи 10-, 11- синф ўқувчиларига мўлжалланган манбалардан, юқоридаги қобилият компонентини ўзида намоён этувчи масалаларни қўллаш усулларига тўхталиб ўтамиз.

Мослашувчан математик фикрлаш қобилияти - масала шарти ўзгарганда ҳаракатларни мақсадли бура олиш, шунингдек, бир маълум ечимдан бошқасига енгил ўта олиш қобилиятини ривожлантиради.

1-масала. $\left(\sqrt[3]{3-\sqrt{8}}\right)^x+\left(\sqrt[3]{3+\sqrt{8}}\right)^x=\frac{5}{2}$ тенгламани ечинг.

Ечиш. Ўқувчи ушбу масалани ечиш учун илдиз остидаги ифодани маълум усулга кўра, ўзгартиришга ҳаракат қилади. Бу эса, ўқувчининг математик қобилияти шаклланиш босқичининг мослашувчан математик фикрлаш компонентини ривожлантириш имконини беради. Биринчи қадамда, аввал олган илдиз мавзуларидаги билимларини ишга туширади.

Бунинг учун аввал $(3-\sqrt{8})(3+\sqrt{8})=1$ ни текшириб, сўнг $3-\sqrt{8}=\frac{1}{3+\sqrt{8}}$ кўринишда ёзиб олади бу эса, ўқувчининг *масала шарти ўзгарганда ҳаракатларни мақсадли бура олиш қобилиятини билдиради.* Иккинчи қадамда, тенгламани осонлаштириш учун илдиз остидаги ифодани қуйидагича ўзгартириш ғояси пайдо бўлади ва $y=(3+\sqrt{8})^{\frac{x}{3}}$ алмаштиришни бажариб $(3-\sqrt{8})^{\frac{x}{3}}=\left(\frac{1}{3+\sqrt{8}}\right)^{\frac{x}{3}}=\frac{1}{y}$ тенгликни олади. Бу эса, *маълум ечимдан бошқасига енгил ўта олишини, яъни* мослашувчан математик фикрлаш қобилияти ишлатилаётганидан далолат беради. Натижада, тенглама қуйидаги кўринишни олади.

$$y+\frac{1}{y}=\frac{5}{2}\Leftrightarrow\begin{cases}y=2,\\ y=\frac{1}{2}\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}(3+\sqrt{8})^{\frac{x}{3}}=2,\\ (3+\sqrt{8})^{\frac{x}{3}}=\frac{1}{2}\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}\frac{x}{3}=\log_{3+\sqrt{8}}2,\\ \frac{x}{3}=\log_{3+\sqrt{8}}\frac{1}{2}.\end{cases}$$

$$\text{бундан}\begin{cases}x=3\log_{3+\sqrt{8}}2,\\ x=3\log_{3+\sqrt{8}}\frac{1}{2}.\end{cases}$$

Шундай қилиб $x_1=3\log_{3+\sqrt{8}}2$, $x_2=-3\log_{3+\sqrt{8}}2$ ни топади. Кўриб турганингиздек бу икки босқичли изланиш ўқувчининг мослашувчан математик фикрлаш қобилиятини ривожлантиради.

2-масала. $\Delta A_1A_2A_3$ нинг юасзи S га тенг, томонлари a_1,a_2,a_3 ва баландликлари h_1,h_2,h_3 бўлсин. $\Delta A_1A_2A_3$ мунтазам бўлиши учун $S=\frac{1}{6}(a_3h_1+a_1h_2+a_2h_3)$ тенгликнинг бажарилиши зарур ва етарли эканини исботланг.

Ечим. Бу масалада ўқувчи S юзанинг ўзидан, тенглик бажарилишини топишга ҳаракат қилади. Бунда мослашувчан математик фикрлаш қобилияти ёрдам беради. Ўқувчи қавснинг остидаги ифодага *масала шартини ўзгартириб ҳаракатларни мақсадли буришга ҳаракат қилади.* Бунда ҳар бир қўшилувчига баландлик тушган томон қийматини ўзига бўлиб, кўпайтириб $a_3h_1+a_1h_2+a_2h_3=a_3h_1\cdot\frac{a_1}{a_1}+a_1h_2\cdot\frac{a_2}{a_2}+a_2h_3\cdot\frac{a_3}{a_3}$

тенгликни олади. Бу эса, масалани маълум даражада енгил ўзгартириш имконини беради ва ўқувчининг масалага мувофиқ таъсир кучини билдиради, яъни мослашувчан математик фикр юритишини ифодалайди. Буни қуйидаги тартибда ёзиб

$$a_1h_1\cdot\frac{a_3}{a_1}+a_2h_2\cdot\frac{a_1}{a_2}+a_3h_3\cdot\frac{a_2}{a_3}=2\cdot S\cdot\left(\frac{a_3}{a_1}+\frac{a_1}{a_2}+\frac{a_2}{a_3}\right)\geq 2\cdot S\cdot 3=6S$$

тенгсизликни олади. Тенглик белгисига $a_1=a_2=a_3$ бўлгандагина эришилади.

Бундан, $a_3h_1+a_1h_2+a_2h_3=6S$ тенглик учбурчак томонларининг тенг бўлиши шартига тенг кучли эканлиги келиб чиқади. Демак, бу масалани ечиш жараёнида ўқувчининг мослашувчан математик фикрлаш қобилияти ривожланади.

Ўқувчиларнинг математик қобилиятларини ривожлантириш муаммоларини ечиш ижтимоий, психологик-педагогик ва методик жиҳатларни ҳисобга олиш билан боғлиқ. Муаммонинг ижтимоий жиҳати қобилиятли ва иқтидорли болаларни ўқитишга эътиборни кучайтириб, математик қобилиятларини максимал ривожлантириш кераклигини тақозо эттмоқда.

Адабиётлар:

1. Гернец О.Н. Развитие гибкости мыслительных действий у школьников: Автореф. дис. канд. психол. наук. – Киев, 1979. –С. 24.

2. Калмыкова З.И. Психологические принципы развивающего обучения : брошюра / З.И. Калмыкова. – Москва : Знание, 1979. – 48 с.

3. Крутецкий В.А. Психология математических способностей школьников. – Москва: Просвещение, 1998. – 432 с.

4. Ермакова Е.С. Развитие гибкости мыслительной деятельности детей дошкольного возраста: Автореф.дис. канд. пед. наук. – М., 1989. – 16 с.

4. Ibragimov N.Sh. Developing Pupils' Mathematical Abilities by Solving Geometric Tasks // Eastern European Scientific Journal. – Germany. -№1. -2019. - P. 204-211.

5. Ibragimov N.Sh. Developing students mathematical abilities by solving special exercises // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. –Great Britian, -2019. -Vol. 7. -№5. –P. 1-5.

РЕЗЮМЕ

Мақола ўқувчиларнинг математик қобилиятларини ривожлантириш мақсадида, математик қобилиятларни ривожлантирувчи компонентлардан мослашувчан математик фикрлаш қобилияти компонентига доир масалаларни танлаш методикасига бағишланган, мисоллар келтирилган.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена методике отбора вопросов, относящихся к компоненту гибкого математического мышления, из компонентов, развивающих математические способности, с целью развития математических способностей учащихся, приведены примеры.

SUMMARY

The article is dedicated to the methodology of selecting questions related to the component of flexible mathematical thinking from the components that develop mathematical abilities in order to develop students' mathematical abilities, examples are given.

DASTURLASHTIRISH TILLARI YORDAMIDA MATEMATIK MASALALARNING YECHIMLARINI UMUMLASHTIRISH

Xolov K.N.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Oliy matematika" kafedrasi dotsenti
Raximov X.A.
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
"Matemetika va tabiiy fanlar" kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d. dotsent
Rasulova M.S.
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institute
"Matemetika va tabiiy fanlar" kafedrasi assistenti

Tayanch so'zlar: geometrik progressiya yig'indisi, teskari funksiya, aniqmaslikni ochish, Lopital qoidasiz, bog'liqsiz (erkli) hodisa, qarama-qarshi hodisa.

Ключевые слова: сумма геометрической прогрессии, обратная функция, раскрытие неопределенности, правило Лопиталя, независимое событие, противоположное событие.

Key words: sum of geometric progression, inverse function, uncertainty disclosure, Lopital rule, independent event, opposite event.

Hozirgi kunda jahon miqyosida ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor yanada kuchayib bormoqda. Chunki, har qanday yangilik va kashfiyotlar ilm-fan va texnologiyalar asosida paydo bo'lmkda. Bu borada matematika, dasturlash asoslari kabi fanlarning o'rni salmoqli xisoblanadi. Jumladan bu fanlarning jamiyat rivojida tutgan o'rni beqiyos. Shu sababdan o'quvchilarning matematika va dasturlash asoslari kabi fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish hamda tafakkurini rivojlantirish uchun o'qitishning uslubiy asoslarini takomillashtirish va bulajak matematiklar uchun dasturlash fanining amaliy ahamiyatini oshirish zaruriyati sezilmoqda.

Maqolaning maqsadi talabalarning matematika faniga qiziqishlarini ortirishda turli dasturlardan foydalanish, dasturlash tillaridan matematik masalalar yechish uchun dasturlar tuzish talabalarda ijodkorlik qobilyatini ortiradi.

Xozirgi davrda ta'limning jadal rivojlanib borayotganligining guvoxi bo'lmoqdamiz. Bu holatda talabalarga matematik masalalarning yechimlarini an'anaviy usullarda berishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Sababi, bugungi kun talabalari "Bir million o'zbek dasturchilari" loyihasi ishtirokchisi, bu talabalarga matematik masalarning yechish yo'llarining dasturlardan foydalanish bo'yicha yo'nalish berish zarur.

Shu maqsadda quyida matematik masalarning yechimlarini keltiramiz va yechimlarini topish dasturini ham keltiramiz.

1-masala.

Tajriba natijasida x erkli o'zgaruvchining bir qator qiymatlariga y funksiyaning qiymatlari jadvali olingan bo'lsin. Bu jadvalga ko'ra tekislikdagi $M_i(x_i;y_i)\ \left(i=\overline{1,n}\right)$ nuqtalar

x	x_1	x_2	.....	x_n
y	y_1	y_2	.....	y_n

tuplamini aniqlash mumkin. Bu nuqtalar tuplami quyida keltirilgan bir o‘zgaruvchili funksiyalarning birortasiga tegishli grafigilardan biriga yaqin kelishi yoki ustma-ust tushishi mumkin. Buni aniqlashda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanish qo‘l keladi. a) $y = a \cdot x + b$; b) $y = \dfrac{1}{a \cdot x + b}$; c) $y = a \cdot \ln x + b$; d) $y = a + \dfrac{b}{x}$.

Bundan so‘ng $M_i(x_i; y_i)\ \left(i = \overline{1,n}\right)$ nuqtalar to‘plamiga eng yaqin keladigan funksiyaning a va b koefitsentlarni topish kerak. Yuqoridagi keltirilgan 1-4 funksiyalarni $f_j(x_i)\ \ j = (1-4)$ bilan belgilab, ushbu $f_j(x_i) - y_i$ ayirmani x_i nuqtadagi chetlanish deb olamiz. a va b koefitsentlarni $S(a,b) = \sum_{i=1}^{n} \left(f_j(x_i) - y_i\right)^2$ yig‘indinig eng kichik qiymatga ega bo‘lishlik shartidan aniqlaymiz, ya’ni $\begin{cases} \dfrac{\partial S}{\partial a} = 0 \\ \dfrac{\partial S}{\partial b} = 0 \end{cases}$ $S(a,b)$ funksiyalari ekstremumlarining zaruriy shartlaridan tegishli tenglamalar sistemalarni xosil qilib, bu sistemalar yordamida a va b koefitsentlarni topamiz:

a) $y = a \cdot x + b$; uchun $S(a,b) = \sum_{i=1}^{n} (a \cdot x_i + b - y_i)^2 \Rightarrow \begin{cases} \dfrac{\partial S}{\partial a} = 2x_i \sum_{i=1}^{n} (a \cdot x_i + b - y_i) = 0 \\ \dfrac{\partial S}{\partial b} = 2\sum_{i=1}^{n} (a \cdot x_i + b - y_i) = 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\begin{cases} (\sum_{i=1}^{n} x_i^2) \cdot \mathrm{a} + (\sum_{i=1}^{n} x_i) \cdot b = \sum_{i=1}^{n} x_i y_i \\ (\sum_{i=1}^{n} x_i)\,\mathrm{a} \cdot + n \cdot b = \sum_{i=1}^{n} y_i \end{cases}$ sistemaga ega bo‘lamiz;

b) $y = \dfrac{1}{a \cdot x + b}$ uchun $S(a,b) = \sum_{i=1}^{n} \left(\dfrac{1}{a \cdot x_i + b} - y_i \right)^2 \Rightarrow$

$\begin{cases} \dfrac{\partial S}{\partial a} = -2x_i (a \cdot x_i + b)^{-2} \sum_{i=1}^{n} \left((a \cdot x_i + b)^{-1} - y_i \right) = 0 \\ \dfrac{\partial S}{\partial b} = -2 (a \cdot x_i + b)^{-2} \sum_{i=1}^{n} \left((a \cdot x_i + b)^{-1} - y_i \right) = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} (\sum_{i=1}^{n} y_i x_i^2) \cdot a + (\sum_{i=1}^{n} x_i y_i) \cdot b = \sum_{i=1}^{n} x_i \\ (\sum_{i=1}^{n} y_i x_i) \cdot a + (\sum_{i=1}^{n} y_i) \cdot b = n \end{cases}$ sistemaga ega bo‘lamiz;

c) $y = a \cdot \ln x + b$; uchun $S(a,b) = \sum_{i=1}^{n} (a \cdot \ln x_i + b - y_i)^2 \Rightarrow$

$\begin{cases} \dfrac{\partial S}{\partial a} = 2 \ln x_i \sum_{i=1}^{n} (a \cdot \ln x_i + b - y_i) = 0 \\ \dfrac{\partial S}{\partial b} = 2\sum_{i=1}^{n} (a \cdot \ln x_i + b - y_i) = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} (\sum_{i=1}^{n} \ln^2 x_i) \cdot a + (\sum_{i=1}^{n} \ln x_i) \cdot b = \sum_{i=1}^{n} y_i \ln x_i \\ (\sum_{i=1}^{n} \ln x_i) \cdot \mathrm{a} + n \cdot b = \sum_{i=1}^{n} y_i \end{cases}$ sistemaga ega bo‘lamiz;

4) $y = a + \dfrac{b}{x}$;uchun $S(a,b) = \sum_{i=1}^{n} \left(a + \dfrac{b}{x_i} - y_i \right)^2 \Rightarrow \begin{cases} \dfrac{\partial S}{\partial a} = 2\sum_{i=1}^{n} \left(a + \dfrac{b}{x_i} - y_i \right) = 0 \\ \dfrac{\partial S}{\partial b} = 2\dfrac{1}{x_i} \sum_{i=1}^{n} \left(a + \dfrac{b}{x_i} - y_i \right) = 0 \end{cases} \Rightarrow$

$$\begin{cases} n\cdot a+(\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{x_i})\cdot b=\sum_{i=1}^{n}y_i \\ (\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{x_i})\cdot a+(\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{x_i^2})\cdot b=\sum_{i=1}^{n}\frac{y_i}{x_i} \end{cases}$$ sistemaga ega bo‘lamiz.

Endi tenglamalar sestemalardagi a va b no’malumlar oldidagi koefitsentlar hammda ozod hadlarni xisoblash uchun qism dasturlarini keltiramiz:

1) $\sum_{i=1}^{n}x_i^2$, $\sum_{i=1}^{n}x_iy_i$ larni xisoblash.

```
function summa1(z1,z2:vector):real;
 var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+z1[t]*z2[t];
 summa1:=s;
 end;
```

2) $\sum_{i=1}^{n}x_i$, $\sum_{i=1}^{n}y_i$ larni xisoblash.

```
    function summa(z1:vector):real;
   var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:= 1 to n do s:=s+z1[t];
 summa:=s;
 end;
```

3) $\sum_{i=1}^{n}y_i\cdot x_i^2$ ni xisoblash.

```
function summa2(z1,z2:vector):real;
 var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+z1[t]*z1[t]*z2[t];
 summa2:=s;
 end;
```

3) $\sum_{i=1}^{n}\ln^2 x_i$ ni xisoblash.

```
function summaln2(z1:vector):real;
  var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+ln(z1[t])*ln(z1[t]);
 summaln2:=s;
end;
```

4) $\sum_{i=1}^{n}\ln x_i$ ni xisoblash.

```
function summaln(z1:vector):real;
  var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+ln(z1[t]);
```

```
 summaln:=s;
 end;
```

5) $\sum_{i=1}^{n} y_i \ln x_i$ ni xisoblash.

```
function summalnxy(z1,z2:vector):real;
  var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+ln(z1[t])*z2[t];
 summalnxy:=s;
 end;
```

6) $\sum_{i=1}^{n} \frac{1}{x_i}$ ni xisoblash.

```
function summa_x(z1:vector):real;
  var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+1/z1[t];
 summa_x:=s;
 end;
```

7) $\sum_{i=1}^{n} \frac{1}{x_i^2}$ ni xisoblash.

```
function summa_x2(z1:vector):real;
  var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+1/(z1[t]*z1[t]);
 summa_x2:=s;
 end;
```

8) $\sum_{i=1}^{n} \frac{y_i}{x_i}$ ni xisoblash.

```
function summa_yx(z1,z2:vector):real;
  var s:real; t:integer;
begin
s:=0;
for t:=1 to n do s:=s+z2[t]/z1[t];
 summa_yx:=s;
 end;
```

Quyda tajriba natijalari sifatida olingan x va y larga qiymatlar asosida topilgan a va b koefitsentlarning yuqorida keltirilgan 4 ta funksiyaga mos grafiklarini namoish etamiz.

X	0	1	2	3	4	5
Y	5.1	4.7	4.4	4.5	4.3	4

Quydagi chizmalarda y_t balan tajriba natijasida aniqlangan son qiymatlariga asoslanib chizilgan nuqtalarni, y_f bilan esa tajriba natijalarida olingan son qiymatlarini eng kichik

kvadratlar usuli yordamida ma'lum analitik funksiyalarga qiyoslash uchun hisoblab topilgan a va b koefitsentlar asosida chizilgan funksiya grafik tasvirlangan.

1) $y=\frac{1}{ax+b}$ uchun hisoblab topilgan $a=0{,}010$ va $b=0{,}185$ qiymatlarda



2) $y=a\ln x+b$ uchun hisoblab topilgan $a=$-0,64 va $b=5{,}23$ qiymatlarda



3) $y=a+\frac{b}{x}$ uchun hisoblab topilgan $a=3{,}98$ va $b=1{,}34$ qiymatlarda



Natijalardan ko'rinadiki tajriba natijalari sifatida aniqlangan son qiymatlari asosida chizilgan nuqtalar bilan $y=a+\frac{b}{x}$ funksiyaning grafigi judda yaqin kelgan ikkinchi tomondan funksiyaning grafigi nuqtalari bilan tajriba natijalari sifatida aniqlangan son qiymatlari asosida chizilgan nuqtalar orasidagi masofa minimum qiymati ega bo'lgan.

Xulosa. Olingan natijalardan kurish mumkinki maslalarning yechimlari va grafiklarini arifmetik usullar yordamida olish bilan birga talabalarga dasturlardan foydalanib olish usullarini ham o'rgatish bo'lajak matematika fan o'qituvchilari uchun zarur ekan.

Adabiyotlar:

1. A. R. Azamatov, B. Boltayev. Algoritmlash va dasturlash asoslari. 0‘quv qo‘llanma. T. : “Cho‘lpon”, 2010 y.

2. М. Ашуров, М. Мирмахмудов, Ш. Сапаев. Замонавий дастурлаш тиллари фанидан лаборатория ишлари. Т. : ТДПУ, 2008 й.

3. Гмурман В.Е. Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика. Т.: Ўқитувчи, 2001

4. Фаронов В. В. Программирование на языке высокого уровня Delphi. Учебник. М. : “Питер”, 2003 г.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada matematik masalalarni dasturlar asosida yechish usullari keltirilgan. Talabalarga matematik masalarning analiktik va dasturlar asosidagi yechimlar umumlashtirish metodlarini o‘quv jarayonida qo‘llashda an’anaviy yondashish, muammoli yondashish va ijodiy yondashuvlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье основное внимание уделяется развитию способности учащихся выбирать наиболее подходящий метод путем решения задач несколькими способами, что повышает их интерес к математике.

SUMMARY

This article focuses on developing students’ ability to choose the most appropriate method by solving problems in several ways, thereby increasing their interest in mathematics.

TALABALARNING MATEMATIKANI O‘ZLASHTIRISHDA INDIVIDUAL TA’LIM TRAEKTORIYASINI LOYIHALASH

Nishonov F.M.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: shaxsiylashtirilgan ta’lim, Individuallashtirilgan traektoriya, Matematika ta’limi, Matematika bo’yicha mahorat, Moslashuvchan ta’lim, Ta’lim texnologiyasi, Talabaga yo’naltirilgan ta’lim, moslashtirilgan ta’lim.

Ключевые слова: персонализированное обучение, индивидуальная траектория, Математическое образование, овладение математикой, адаптивное обучение, образовательные технологии, студенто-ориентированное обучение, индивидуальное обучение.

Key words: personalized learning,Individualized trajectory,mathematics education, mastery of mathematics, adaptive learning,educational technology, student-centered learning, tailored instruction.

Kirish. Ta’lim landshafti inqilobiy o’zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu ta’limga moslashtirilgan va moslashtirilgan yondashuvlarga bo’lgan ehtiyojning ortib borayotgan e’tirofi bilan bog’liq. Ushbu o’zgarishlarning muhim jihatlaridan biri o’quvchilarning o’ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashtirilgan individual ta’lim traektoriyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Ushbu paradigma o’zgarishi, ayniqsa, an’anaviy standartlashtirilgan usullar o’quvchilarning turli xil o’rganish uslublari va sur’atlariga javob beradigan matematika ta’limi sohasida juda dolzarbdir. Ushbu muammolarga javoban o’qituvchilar va tadqiqotchilar shaxsiylashtirilgan ta’lim orqali o’quvchilarning matematikani o’zlashtirishlarini oshirish uchun ta’lim texnologiyasi va pedagogik strategiyalardan foydalanishning innovatsion usullarini o’rganmoqdalar.

Matematika zamonaviy ta’limning asosiy ustuni bo’lib, nafaqat muammolarni hal qilish ko’nikmalarini ta’minlaydi, balki tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Biroq, bu muhim ko’nikmalarni turli xil talabalar jamoasiga etkazishda an’anaviy bir o’lchamli ta’lim modellarining samaradorligi so’roq ostida qoldi. Shaxsiylashtirilgan ta’limning nazariy asoslari o’quvchilar o’zlarining ta’lim sayohatlarida faol ishtirokchilar ekanligini tan oladilar, ularning har biri o’ziga xos kognitiv profilga va o’rganish traektoriyasiga ega. Konstruktivistik va ijtimoiy kognitiv nazariyalardan ilhom olib, shaxsiylashtirilgan ta’lim talabalar matematik tushunchalar bilan chuqur shug’ullanishi mumkin

bo’lgan muhitni yaratishga intiladi, bu esa eslab qolishdan tashqari chuqur tushunchani rivojlantiradi.

Matematik ta’lim kontekstida individual ta’lim traektoriyasi kontseptsiyasi shaxsiylashtirilgan ta’lim tamoyillari bilan rezonanslashadigan yondashuvni ifodalaydi. Bu yo‘nalish o‘quv rejasini, o‘qitish usullarini va o‘rganish tezligini har bir talabaning qobiliyatlari va o‘rganish afzalliklariga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim texnologiyasi, pedagogika va o’quvchilarning individual ehtiyojlari o’rtasidagi simbiotik aloqani ta’minlash orqali o’qituvchilar nafaqat matematik bilimlarni beradigan, balki fanni umrbod qadrlaydigan o’quv tajribasini yaratishga intiladi.

Ushbu intilishda texnologiya muhim rol o’ynaydi. Moslashuvchan o‘quv platformalari va aqlli repetitorlik tizimlari kabi murakkab ta’lim vositalarining paydo bo‘lishi o‘quvchilarning taraqqiyoti va muammolari haqida ma’lumotlarga asoslangan tushunchalarni va’da qiladi. Ushbu tushunchalar o’qituvchilarga o’quv mazmuni va aralashuvlar bo’yicha ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi, bu esa dinamik va shaxsiylashtirilgan o’quv sayohatini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq, texnologiya individuallashtirilgan traektoriyalarni amalga oshirishga yordam berishi mumkin bo’lsa-da, uning muvaffaqiyatli integratsiyasi ma’lumotlar maxfiyligi, teng huquqli foydalanish va pedagogik moslashuv bilan bog’liq muammolarni hal qilishga bog’liq.

Biz talabalarning matematikani o‘zlashtirishlari uchun individual ta’lim traektoriyalarini loyihalash bilan shug‘ullanar ekanmiz, ushbu maqola shaxsiylashtirilgan ta’limning nazariy asoslarini va uning matematika ta’limiga ta’sirini ochishga intiladi. Shuningdek, u shaxsiylashtirilgan o’qitishni ta’minlashda texnologiyaning rolini o’rganadi va ushbu qarashni amalga oshirish uchun navigatsiya qilinishi kerak bo’lgan muammolarni muhokama qiladi. Amaliy tadqiqotlar va tadqiqot natijalarini o’rganish orqali ushbu maqola individual ta’lim traektoriyalarini loyihalashning potentsial afzalliklarini yoritishga va matematika ta’limi landshaftini qayta shakllantirishdan manfaatdor o’qituvchilar, ma’murlar va siyosatchilar uchun amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan. Ushbu tushunchalar orqali ushbu maqola ta’limning kelajagi atrofida davom etayotgan muloqotga va o’quvchilarning matematika bo’yicha o’zlashtirishlarini oshirish uchun maqbul strategiyalarni izlashga hissa qo’shadi, degan umiddamiz.

Shaxsiylashtirilgan ta’limning nazariy asoslari. Shaxsiylashtirilgan ta’limning nazariy asoslari konstruktivistik va ijtimoiy kognitiv nazariyalardan kelib chiqadi, ular odamlar qanday o’rganishlari va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishlarini tushunish uchun asos yaratadi. Ushbu nazariy istiqbollar, xususan, matematika ta’limi sohasida individual ta’lim traektoriyalarini

loyihalashda rahbarlik qiluvchi tamoyillar haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Konstruktivizm nazariyasi:

Konstruktivizm ta'kidlashicha, o'rganish tajribalar, o'zaro ta'sirlar va atrof-muhitdan ma'no yaratishning faol jarayonidir. Jan Piaget va Lev Vygotskiy kabi nazariyotchilar tomonidan ilgari surilgan bu nazariya odamlarning yangi tushunchalarni tushunishini shakllantirishda oldingi bilimlar, ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va amaliy tajribalarning rolini ta'kidlaydi. Shaxsiylashtirilgan ta'limda qo'llaniladigan konstruktivizm talabalarning mavjud bilimlari va kognitiv tuzilmalari ularning ta'lim traektoriyalarini loyihalash uchun boshlang'ich nuqta bo'lishi kerak degan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi.

Matematik ta'lim kontekstida konstruktivistik tamoyillar o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar, muammolarni hal qilish vazifalari va hamkorlikdagi loyihalar orqali matematik tushunchalarni o'rganishga undash kerakligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv ularga yangi bilimlarni mavjud aqliy tuzilmalar bilan bog'lash imkonini beradi, bu esa chuqurroq va mazmunli tushunishga yordam beradi. O'qituvchilar har bir talabaning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'qitishni moslashtirib, matematik tushunchalarni eslab qolishlari va faolligini oshirishlari mumkin bo'lgan mos ravishda qiyin, ammo mavjud bo'lgan o'quv tajribalarini taqdim etishlari mumkin.

Ijtimoiy kognitiv nazariya. Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy kognitiv nazariya shaxsiy omillar, xatti-harakatlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga urg'u beradi. Bu o'quv jarayonida kuzatuv asosida o'rganish, o'z-o'zini samaradorligiga ishonish va o'z-o'zini tartibga solish muhimligini ta'kidlaydi. Shaxsiylashtirilgan ta'limda qo'llaniladigan ijtimoiy kognitiv nazariya o'quvchilarning matematik qobiliyatlariga ishonchini oshiradigan va o'z ta'limiga egalik qilish imkoniyatini beruvchi muhitni yaratish muhimligini ta'kidlaydi.

Tavsiyalar. Talabalarning matematikani o'zlashtirishlarini oshirish uchun individual ta'lim traektoriyalarini amalga oshirish ko'p qirrali ish bo'lib, puxta rejalashtirish, hamkorlik va doimiy majburiyatni talab qiladi. Yuqorida muhokama qilingan nazariy asoslar, texnologik yutuqlar va muammolardan kelib chiqqan holda, quyidagi tavsiyalar matematika ta'limida shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvlarini qo'llashga qaratilgan o'qituvchilar, ma'muriyat va siyosatchilar uchun amaliy ko'rsatmalar beradi.

1. Kompleks texnologiya integratsiyasiga sarmoya kiriting:

Maktablarga moslashtirilgan o'quv platformalari, aqlli repetitorlik tizimlari va individuallashtirilgan traektoriyalarni qo'llab-quvvatlaydigan ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanish imkoniyatini taqdim eting.

Texnologiya yechimlari foydalanuvchilar uchun qulay, foydalanish mumkin va ta’lim maqsadlariga mos kelishiga ishonch hosil qiling.

2. O‘qituvchilar malakasini oshirishga ustuvor ahamiyat berish:

O’qituvchilarga texnologiyadan samarali foydalanish va ma’lumotlar haqidagi tushunchalarni sharhlash uchun doimiy treninglar va seminarlarni taklif qiling.

O’qituvchilarga o’qitishni moslashtirish, mazmunni farqlash va individual yordam ko’rsatish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarga ega bo’lish.

3. Ma’lumotlar maxfiyligi va axloqiy foydalanishni targ’ib qilish:

Talabalar ma’lumotlarini himoya qilish uchun aniq ma’lumotlar maxfiyligi siyosati va amaliyotlarini o’rnating.

Talabalar, ota-onalar va vasiylar bilan ma’lumotlarni to’plash, ulardan foydalanish va xavfsizlik choralari haqida muloqot qiling.

4. Moslashuvchan o‘quv dasturlarini loyihalash:

Talabalarga akademik standartlarga muvofiqligini ta’minlash bilan birga o’z sur’atlari bo’yicha rivojlanish imkonini beradigan o’quv dasturlarini ishlab chiqish.

Turli xil ta’lim uslublarini moslashtirish uchun bir qator o’quv materiallari va resurslarini taklif eting.

5. Hamkorlik va muloqotni rivojlantirish:

Taraqqiyot, maqsadlar va strategiyalarni baham ko’rish uchun o’qituvchilar, talabalar va ota-onalar o’rtasida muntazam muloqotni rag’batlantirish.

Eng yaxshi tajribalar, tushunchalar va innovatsion o’qitish yondashuvlarini almashish uchun o’qituvchilar o’rtasida hamkorlikni yo’lga qo’ying.

6. Taraqqiyotni kuzatish va baholash:

Talabalarning muvaffaqiyatini kuzatish va shunga mos ravishda o’qitish strategiyalarini o’zgartirish uchun doimiy baholash usullarini qo’llang.

Yutuqlar naqshlari va kurash sohalarini aniqlash uchun ma’lumotlar tahlilidan foydalaning.

7. Manzil tenglik va foydalanish imkoniyati:

Barcha talabalar texnologiya va raqamli resurslardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo’lishini ta’minlang.

Shaxsiy traektoriyalarni loyihalashda talabalarning turli kelib chiqishi, o‘rganish ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga oling.

8. O’sish tafakkurini tarbiyalang:

Xulosa. Talabalarning matematikani o’zlashtirishida individual ta’lim traektoriyalarini loyihalash tomon paradigmaning o’zgarishi shaxsiylashtirilgan ta’lim tamoyillari bilan rezonanslashadigan transformativ yondashuvni ifodalaydi. An’anaviy, bir o’lchamli ta’limdan moslashtirilgan, texnologiyaga asoslangan o’qitishgacha bo’lgan ushbu sayohat matematikani o’rgatish va o’rganishda

inqilob qilish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada o'rganilgan nazariy asoslar, texnologik yutuqlar, muammolar, amaliy tadqiqotlar va tavsiyalar haqida fikr yuritar ekanmiz, bir nechta asosiy xulosalar paydo bo'ladi.

Konstruktivistik va ijtimoiy kognitiv nazariyalarga asoslangan shaxsiylashtirilgan ta'lim talabalarni o'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan oladi. Texnologiyadan foydalangan holda, o'qituvchilar o'qitishni moslashtirishi, tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etishi va o'rganish tajribasini har bir talabaning tayyorgarligi va afzalliklariga moslashtirishi mumkin. Moslashuvchan o'quv platformalari, aqlli repetitorlik tizimlari va ma'lumotlar tahlili integratsiyasi matematikani chuqurroq tushunish va jalb qilish uchun dinamik ta'lim ekotizimini taklif etadi.

Biroq, individual ta'lim traektoriyalarini amalga oshirish yo'lidagi sayohat qiyinchiliklarsiz emas. Ma'lumotlarning maxfiyligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish, texnologiyadan adolatli foydalanishni ta'minlash va o'qituvchilarning har tomonlama kasbiy rivojlanishini ta'minlash muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim tarkibiy qismidir. Hamkorlikni rivojlantirish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni targ'ib qilish va o'sish tafakkurini qo'llab-quvvatlash orqali bu qiyinchiliklarni engib o'tish mumkin.

Amaliy tadqiqotlar va tadqiqot natijalari shaxsiylashtirilgan ta'limning yutuqlardagi bo'shliqlarni bartaraf etish, motivatsiyani oshirish va uzoq muddatli ta'lim va martaba traektoriyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatish potentsialini ta'kidlaydi. Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, shaxsiylashtirilgan ta'limni boshdan kechirgan o'quvchilar ko'proq muvaffaqiyat qozonishlari, STEM bilan bog'liq kasblarga intilishlari va matematikaga ijobiy munosabatda bo'lishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarning matematikani o'zlashtirishlarida individual ta'lim traektoriyalarini loyihalash yo'lidagi sayohat hamkorlik, fidoyilik va innovatsiyaga asoslangan ta'limga talab qiladigan doimiy izlanishdir. Ta'lim amaliyotini nazariy asoslar bilan uyg'unlashtirish, texnologiya kuchidan foydalanish va muammolarni hal qilish orqali o'qituvchilar va manfaatdor tomonlar har bir o'quvchiga matematika va undan tashqarida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beradigan ta'lim landshaftini shakllantirishlari mumkin. Shaxsiylashtirilgan ta'lim shunchaki pedagogik yondashuv emas; bu ta'limni qayta belgilash va matematika savodli shaxslarning keyingi avlodini kuchaytirish potentsialiga ega bo'lgan transformatsion katalizatordir.

Adabiyotlar:

1. Darling-Hammond, L., & Flook, L. (2006). The Power of Personalization: Research on Innovative Models of Learner-Centered Education. Education Commission of the States.

2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

3. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice-Hall.

4. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The Power of Feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81-112.

5. Knewton. (2018). What Is Adaptive Learning? Retrieved from https://www.knewton.com/adaptive-learning/

6. Koedinger, K. R., Corbett, A. T., & Perfetti, C. (2012). The Knowledge-Learning-Instruction (KLI) Framework: Bridging the Science-Practice Chasm to Enhance Robust Student Learning. Cognitive Science, 36(5), 757-798.

7. Education Data Privacy. (2020). Student Privacy 101: FERPA for Parents and Students. Retrieved from https://privacy.commonsense.org/education-data-privacy

8. Clark, D., & Luckin, R. (2013). What the Research Says: Adaptive Learning. Nesta.

9. Pane, J. F., Steiner, E. D., Baird, M. D., Hamilton, L. S., & Pane, J. D. (2015). Continued Progress: Promising Evidence on Personalized Learning. RAND Corporation.

10. NWEA. (2015). Make Assessment Work for All Students: Multiple Measures Matter. Retrieved from https://www.nwea.org/research/publication/make-assessment-work-for-all-students-multiple-measures-matter/

11. Tofel-Grehl, C., Feldon, D., & Maher, M. (2017). Students' Experiences in a Self-Paced, Competency-Based Algebra I Course: A Mixed-Methods Analysis. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 18(1).

12. U.S. Department of Education. (2016). National Education Technology Plan 2016. Retrieved from https://tech.ed.gov/netp/

13. Duckworth, A. L., & Dweck, C. S. (2005). What You Need to Know About Willpower: The Psychological Science of Self-Control. Association for Psychological Science, 19(2), 102-105.

РЕЗЮМЕ

So'nggi yillarda ta'limda shaxsga moslashtirilgan va muhitga moslashtirilgan yondashuvlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu maqola o'quvchilarning matematikani o'zlashtirishini oshirish uchun individual ta'lim traektoriyasini loyihalash kontseptsiyasini o'rganadi. Maqolada shaxsiylashtirilgan ta'limning nazariy asoslari, moslashtirilgan ta'limni osonlashtirishda texnologiyaning roli va individuallashtirilgan traektoriyalarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar muhokama qilinadi. Maqolada tegishli tadqiqotlar va amaliy tadqiqotlarga asoslanib, bunday yondashuvning potentsial afzalliklari ta'kidlangan va samarali matematik ta'limni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan o'qituvchilar uchun tavsiyalar berilgan

РЕЗЮМЕ

В последние годы растет признание необходимости персонализированных и адаптируемых подходов к образованию. В данной статье исследуется концепция проектирования индивидуальной образовательной траектории повышения уровня владения учащимися математикой. В статье обсуждаются теоретические основы персонализированного обучения, роль технологий в содействии индивидуальному обучению и проблемы, связанные с реализацией индивидуализированных траекторий. Опираясь на соответствующие исследования и тематические исследования, в статье подчеркиваются потенциальные преимущества такого подхода и приводятся рекомендации для педагогов заинтересованных в содействии эффективному математическому образованию.

SUMMARY

In recent years, there has been an increasing recognition of the need for personalized and adaptable approaches to education. This article explores the concept of designing an individual educational trajectory to enhance students' mastery of mathematics. The article discusses the theoretical underpinnings of personalized learning, the role of technology in facilitating tailored education, and the challenges associated with implementing individualized trajectories. Drawing on relevant research and case studies, the article highlights the potential benefits of such an approach and provides recommendations for educators, interested in fostering effective mathematics education.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI QIYOSIY O'QITILISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Raxmonjonov X.A.
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: xususiyat, vazifa, sxema, assimilyatsiya, usul.
Ключевые слова: свойство, задача, схема, усвоение, метод.
Keywords: property, task, scheme, assimilation, method.

Bugungi kunda fan va texnika tez sur'atda rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Shu jumladan ta'limning asosiy mazmuni va eng muhim vazifalari ham tobora takomillashmoqda. Oliy ta'lim yurtlari talabalaribilim, ko'nikma tizimini o'zlashtirish va tegishli malakalarni egallashlari ham yangicha tus olmoqda. Bular muhandislik grafikasi mashg'ulotlarida o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ham talab etadi. Ushbu faoliyatlarmuhandislik grafikasi fanlarini o'zaro qiyoslab o'qitish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Muhandislik grafikasi fanini o'qitishda o'qituvchi va talabalarning chizma chizish, grafik topshiriqlarni bajarish va chizmani o'qish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarini KHYT (konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi)da qabul qilingan "Davlat standartlari"da belgilab qo'yilgan me'yorlar asosida olib borishlari uchun ilmiy-amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Muhandislik grafikasi fanlarini o'zaro qiyosiy o'qitilishini xususiyatlarga bo'lib o'tgandik va ular to'rt xususiyatga bo'lindi:

Birinchi xususiyati har qanday moddiy yoki boshqa natijalarni olishga emas, balki talabaning bilimlarni o'zgartirishga, muayyan harakatlar, ko'nikmalar, aqliy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchi xususiyati umumiy harakat usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Talaba tomonidan amalga oshirilgan har bir harakatda, bu harakatning natijasi va ushbu harakat amalga oshiriladigan va boshqa barcha turdagi umumiy usul o'rtasidagi farq bo'lishi kerak. Talaba o'z harakatlarida bu ikki usulni ajratib turgan va uning asosiy harakatlari umumiy harakat usullari vasxemalarini egallashga qaratilgan bo'lsa boshlanadi.

Uchinchi xususiyati muhandislik grafikasi nazariyasiga muvofiq o‘quv materiallarini o‘rganishda talabalarning barcha o‘quv faoliyati uchun asos bo‘lib, umumiy harakat usullarini aniqlash va rivojlantirish vazifasi qo‘yiladi. Buning uchun yangi kiritilgan tushunchalarning kelib chiqishini aniqlash, o‘rganilayotgan ob’ektning asoslarini nazariy bilish nuqtai nazaridan ularning zarurligini ko‘rsatish kerak.

To‘rtinchi xususiyati shundaki, o‘quv materialini o‘rganish umumiy va mavhum tabiatning bilimlarini assimilyatsiya (o‘zlashtirish) qilish ko‘proq xususiy va aniq bilimlar bilan tanishishdan oldin mazmunli umumlashma tamoyiliga asoslangan bo‘lib, birinchi navbatda ularning yagona asoslaridan kelib chiqishi kerak. Ushbu tamoyil kontseptsiyalarning kelib chiqishini aniqlash uchun o‘rnatishdan kelib chiqadi va mavhumdan o‘ziga xos yuksalish talablariga javob beradi.

Yuqoridagi xususiyatlarni ko‘rib chiqish natijasida shuni tushunish mumkinki, talaba ma’lum bir ishni bajarishdagi erishgan natijaga emas, berilgan topshiriqning qay tarzda amalga oshirilgan faoliyat, jarayon muhim o‘rin tutganligini ko‘rish mumkin.

D. B. Elkonina o‘quv faoliyati kontseptsiyasida ushbu faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini ta’kidlagan: o‘quvchining o‘quv vazifasini tushunish, o‘quv faoliyatini amalga oshirish, uni nazorat qilish va baholash ishlarini bajarish kerakligihaqida so‘z yuritgan.O‘z-o‘zini o‘zgartirish qobiliyati tarbiyalanadi[14, 46].

Talaba mustaqil faoliyatni amalga oshirishi bilan bilimni o‘zlashtirishva xotiralashda sezilarli samaraga erishadi.

D. B. Elkonin “O‘quv vazifasi - bu faqat darsda yoki uyda o‘quvchining ishi emas, balki ularning butun tizimi. Vazifalar tizimini hal qilish natijasida ushbu ilmiy sohaga nisbatan keng ko‘lamli masalalarni hal qilishning eng keng tarqalgan usullari ochiladi va o‘zlashtiriladi» deydi[14, 46].

«Tayanch kompetensiya» atamasi ta’lim jarayonini baholash dasturining markaziy atamasi hisoblanadi va baholash dasturi mazmun-mohiyatini tushunish uchun mazkur atamaning tahlil qilish zaruratini tug‘diradi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlarida kompetensiya atamasiga berilgan izoh ham muhim ahamiyatga ega. Davlat ta’lim standartlarida ta’lim oluvchilarning tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalari belgilab o‘tilgan. Xususan, ta’lim oluvchilarning tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalari ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, ta’lim oluvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagilarga bo‘linadi:

– kommunikativ kompetensiya;
– axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
– o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
– milliy va umummadaniy kompetensiya;
– ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya;
– matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda ulardan foydalanish kompetensiyalari [1].

Fanga oid kompetensiyalar deyilganda, talabaning ob’ektiv borliqda zaruriy ravishda shaxsiy va ijtimoiy samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, amaliyotda qo‘llash malakalari, faoliyat tajribasi, mantiqiy fikrlashi, motivatsiyasi va mazmunan yo‘naltirilganligi nazarda tutiladi [3].

Ilmiy adabiyotlar, o‘quv-me’yoriy hujjatlar tahlili asosida quyidagicha izohni qo‘llash lozim deb topildi: ta’lim oluvchining tayanch kompetensiyalari uning yosh rivojlanishiga muvofiq maktabda va maktabdan tashqarida (mustaqil ta’lim, oilada, jamiyatda, ommaviy axborot vositalari yordamida, maktabdan tashqari turli xil ta’lim muassasalarida) o‘rgangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malakalarini jamiyat, tabiat, texnika, iqtisodiyot, ijtimoiy sohalarda, shuningdek globallashuv kontekstida muammoli vaziyatlarni mustaqil tushunishi, tahlil qilishi, qaror qabul qilish va o‘z munosabatini bildirishi, uzoqni o‘ylab, turli nuqtai nazarlarni (atrof-muhit, gumanizm, milliylik, vatanparvarlik, mantiqiylik, matematik modellarni qo‘llagan tarzda) hisobga olgan holda o‘z yechimlarini, xulosalarini, takliflari shakllanishi jarayonlarining natijasi sifatida ifodalanadi [6].

Fizika o‘qitishning hozirgi holatini o‘rganish kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim mazmuni, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, talabalar kompetentligini rivojlantirish orqali kasbga tayyorlashni nazarda tutishini ko‘rsatadi (1-rasm). Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan interfaol

texnologiyalar asosiy omillardan hisoblanadi. Ta’lim texnologiyalari talabalar kompetentligini rivojlantirishda bir qator imkoniyatlarga ega. Mashg‘ulot turidan (ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, mustaqil ta’lim) qat’iy nazar, undagi muammo talabalarni ijodiy fikrlashga, faollashtirishga, kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz [4].



1-rasm. Fizikani kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishning hozirgi holati

Fizika o‘qitish jarayonida talabalarni ijodiy faollashtirishga asoslangan ta’lim texnologiyalar ham turlicha bo‘lib, ular muammoli ta’lim, loyihalash, master klass yoki interfaol shaklda olib boriladi. Ta’lim texnologiyalari mashg‘ulot maqsadi va ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Masalan, muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchi rahbarligida fizikaga oid ma’lum o‘quv muammosi qo‘yilib, talabalarga uni yechish vazifasi beriladi. Bunda talabalarning ijtimoiy faolligi, o‘zaro muloqatga kirishishi va fizikaga oid muammoning yechimini qidirishda matematik savodxonlik, fan-texnika yutuqlaridan amaliyotda samarali foydalanish kompetensiyalari shakllanadi.

Mustaqil ishlash, tafakkur, ko‘nikma va malakalarning rivojlanishiga yordam beradi, shaxsning irodasini chiniqtiradi. O‘qitishning bu metodlari talabalarni mustaqil mehnat faoliyatiga va o‘rta maktabni bitirgandan so‘ng o‘qishni davom ettirishga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Hatto talabalar yetarli tayyorgarlik va tajribaga ega bo‘lmasa ham mustaqil ishlash metodidan voz kechmaslik kerak. Aksincha, talabalarga uslubiy yordam berib, mustaqil ishlash elementlarini o‘quv mashg‘ulotlariga kiritish lozim. Barcha talabalarda bilish mustaqilligini rivojlantirish, mustaqil ishlash darajasini darsdan-darsga oshirib borish muhim hisoblanadi.

Talabalarda bo‘lajak kasbiga oid kasbiy kompetentlikning shakllanganlik ko‘rsatkichlari quyidagicha belgilab olinishi maqsadga muvofiq:

– reproduktiv daraja – fizikadan nazariy bilimlar, xotiraning og‘zaki va yozma shaklda o‘z izohi, o‘quv materialini loyihalash, takrorlanadigan bilimlar mohiyatini tushunishni namoyish etish;
– qisman-izlanuvchi daraja – ilmiy bilish, olingan yangi nazariy bilimlarni tushunish va ko‘paytirish, ularni bir butunlikni birlashtiruvchi va shakllantiruvchi mantiqiy tugullangan elementlar ko‘rinishida taqdim etish, o‘rganilgan metodlar;
– ijodiy daraja – tizim bilimlari, olingan nazariy bilimlarni tushunish va uni kupaytirish, olingan nazariy bilimlarni birlashtirgan holatda sintez qilish va tahlil qilish, ularning to‘liqligi va bilim sohalari bilan bog‘liqligini baholash, shuningdek, fizik tushunchalar, qonunlarni ishlab chiqishga joriy qilish.

Natijada, malakali mutaxassislarni tayyorlashda tayanch, umumkasbiy va kasbiy komponentlarni shakllantirishda hamda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda ta’lim mazmuni va kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning mustaqil o‘quv metodlaridan biri bu fizikadan bayon qilingan ilmiy-nazariy fakt va materiallarni mustaqil tahlil qilish hamda yangi tushunchalar mohiyatini hamda faoliyat metodlarini ochish bo‘yicha talabalar mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishdan hamda o‘zini o‘zi anglash kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Kichik ilmiy tadqiqot metodining mohiyati shundan iboratki, yangi qonun, qoidalarni kashf etish talabalar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘qituvchining rahbarligi ostida yoki uning yordamisiz talabalarning o‘zlari mustaqil amalga oshiradi. Kichik ilmiy tadqiqot metodi asosida fizikani o‘rganishda, ilmiy-nazariy fakt talabaga o‘qituvchi tomonidan beriladi hamda birgalikda tahlil qilinadi. Talaba o‘qituvchining yordamida yangi tushunchaning mohiyatini ilmiy asoslab ochib beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-son qarori, 3-ilova / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06.04.2017 y. http://lex.uz/docs/-3153717.

2. Карлыбаева Г.Е. Инновацион таълим муҳити шароитида бўлажак физика ўқитувчиларининг методикага оид компетентлилигининг структуравий-функционал модели // Ilim ha`m ja`miyet. – Нукус, 2018. – №2. – Б. 73–75.

3. Карлыбаева Г.Е. Бўлажак физика ўқитувчиси компетенциясини ривожлантиришда интерфаол таълим // Қорақалпоқ давлат университети хабаршысы. – Нукус, 2018. –№1. – Б. 60–63.

4. Матжанов Н.С., Ембергенова К.А. Особенности контроля знаний студентов в учебном процессе вуза // Международный научный журнал «Инновационная наука», №8-2/2021. –С. 31-39

5. Толипова Ж. Ўқитувчиларнинг компетентлигига қўйиладиган талаблар. Методик қўлланма. Тошкент: Фан ва технология, 2010. -125 б.

6. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. –М., 2004. -№8. –С. 26-31.

РЕЗЮМЕ

Maqolada talabaning ob'ektiv borliqda zaruriy ravishda shaxsiy va ijtimoiy samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, amaliyotda qo'llash malakalari, faoliyat tajribasi, mantiqiy fikrlashi, motivatsiyasi va mazmunan yo'naltirilganligi haqida fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описываются теоретические знания, практические навыки, опыт работы, логическое мышление, мотивация и содержательная направленность, необходимые студенту для осуществления личностной и общественно эффективной деятельности в условиях предметного бытия.

SUMMARY

In the article, the theoretical knowledge, practical skills, practical application skills, work experience, logical thinking, motivation and content orientation necessary for the student`s personal and social effective activity in the objective existence are expressed.

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

MUAMMOGA ASOSLANGAN TA'LIM (PBL) O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TAYANCHI

Amirullayeva B.A.
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: PBL, PjBL, XXI asr ko'nikmalari, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, hamkorlikda ishlash, so'rovga asoslangan ta'lim, konstruktiv yondoshuv, keyslarga asoslangan ta'lim.

Ключевые слова: PBL, PjBL, навыки 21 века, творческое мышление, критическое мышление, коммуникативность, совместная работа, исследовательское обучение, конструктивный подход, кейс-ориентированное обучение.

Key words: PBL, PjBL, 21st century skills, creative thinking, critical thinking, communicativeness, cooperative work, inquiry-based education, constructive approach, case-based education.

Muammoga asoslangan ta'lim (PBL) xalq ta'limidagi mashhur tendensiyadir. Umuman olganda, PBL o'quvchilarga haqiqiy va qiziqarli ochiq savollar va muammolarni o'rganish uchun hamkorlikda ishlash orqali bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beruvchi o'qitish usuli sifatida aniqlanadi. Shuningdek, u ta'lim ishtirokchilarining XXI asr ko'nikmalari rivojlanishiga va bugungi global dunyoda o'z o'rinlarini topishiga yordam beradi.

XXI asr ta'limi uchun hamkorlik (P21) (21st Century Learning for Partnership (P21)) konsortsiumi tuzilgan bo'lib, butun dunyo bo'ylab kamida besh million ta'lim, biznes va hukumat rahbarlaridan iborat. P21 "barcha o'quvchilar maktabda va undan keyingi davrda, butun hayoti davomida, global va raqamli o'zaro bog'langan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ta'lim tajribasiga muhtoj" degan g'oyaga asoslanadi [2]. XXI asr ta'limi uchun P21 eng muhim to'rtta «tanqidiy fikrlash, muloqotchanlik, hamkorlik va ijodkorlik» ko'nikmalarini belgilab oldi (1-rasm). To'rtta ko'nikmaga birlashtirilgan g'oya shundan iboratki, asosiy fanlar (til san'ati, matematika va SCIENCE) bitiruvchilarni kundalik hayotga tayyorlash uchun tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va ijodkorlikni o'z ichiga olishi kerak. Bu esa bugun kun zamonaviy fan o'qituvchilaridan o'quvchilarni jalb qilaoladigan, qiziqtiraoladigan va o'rganishda ishtirok etishni rag'batlantiradigan vositalar va strategiyalardan foydalanishni talab etmoqda. Bunga javoban

biz o‘qituvchilarga o‘quvchilarning global dunyo uchun kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan PBL ta’lim strategiyalarini o‘rganishini taklif qilamiz.

PBL XXI asr ko‘nikmalari rivojlanishiga yordam berishi va guruhlarda hamkorlik qilish, materiallarni topish, baholash va doimiy ta’lim uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin . PBL kuchi o‘quvchilarning kashfiyotida yotadi, bunda ular aniq, dolzarb va qiziqarli savollar yoki muammolarni tekshirish va ularga javob berish uchun guruhlarda ishlash orqali bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar [3].

XXI asr ko‘nikmalari atamasi o‘qituvchilar, islohotchilar, ish beruvchilar va siyosatchilar oliy martaba va zamonaviy ish joylari uchun «hozirgi dunyoda, muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhim» deb hisoblaydigan «keng bilimlar, ko‘nikmalar, mehnat odatlari va xarakter xususiyatlari» ni anglatadi. Bu “ko‘nikmalar barcha o‘quv fanlari bo‘yicha hamda o‘quvchi hayoti davomida barcha ta’lim, kasbiy va fuqarolik sharoitlarida qo‘llanilishi mumkin”[1].

PBL usullari PBL va tibbiy ta’limga boshqa innovatsiyalar kiritishi bilan mashhur bo‘lgan amerikalik shifokor va tibbiyot o‘qituvchisi Xovard Barrouz rahbarligida ishlab chiqilgan ”[7,8] . Barrouz muammoli ta’lim o‘quv dasturiga asoslangan talabalarga yo‘naltirilgan, ko‘p tarmoqli ta’limni ilgari surdi.

Barrouz PBL bo‘yicha o‘zining o‘quv falsafasini «o‘quvchilarga muammolarni faqat o‘rganish uchun yo‘naltirilganlik yoki hozirgina o‘rganilgan narsalarning namunasi sifatida taqdim etish emas deb ifoda etdi” [9]. Tibbiy ta’lim kontekstida PBLni muammoga asoslangan, talabaga yo‘naltirilgan ta’lim sifatida ta’riflagan Barrouz va Temblin, bu bir vaqtning o‘zida bilim, fikrlash va o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun eng samarali ta’lim usuli ekanligini ta’kidlaydilar. PBL, o‘rganish uchun tizimli yondashuv bo‘lib, u katta tajriba va tadqiqotlarga asoslangan va tibbiy ta’lim uchun moslashtirilgan. Ular PBL dan qanday foydalanish mumkinligini tushuntirib, o‘qituvchilar o‘rganish uchun jozibali, rag‘batlantiruvchi formatdan foydalangan holda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini o‘rganishiga yordam berishini va muammolarni hal qilish va ko‘nikmalarni rivojlantirishga rahbarlik qilishlarini yozishdi.

Ta’limda PBL ning dastlabki elementlarini Amerikalik faylasuf va taniqli pedagog, Jon Dyui qarashlarida ko‘rishimiz mumkin. Bluminfeld, Krajik va Merrit ta’kidlariga ko‘ra PBL, Dyuining amalda bajarib ko‘rish orqali o‘rganish falsafasiga va sinfda o‘rganishga amaliy yondashuvlarni singidirsh haqidagi g‘oyalarida ko‘rinadi[10,11,12]. Dyuining fikricha, o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘rganishiga faol yordam berishlari kerak. O‘quvchilarning ta’lim jarayoniga faol jalb etilishi o‘qituvchilarning ma’ruza qilish yoki bilimlarni taqdim etishiga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradi. PBL ta’limiga loyihaga asoslangan ta’limdagi (PjBL) kabi konstruktiv yondoshuv singdirilgan. Agar PBL bilan PjBL ni

taqqoslaydigan bo‘lsak, PBL ta’riflari har doim ham aniq bo‘lishi shart emas va bu atama ba’zida o‘quvchilar muammoni hal qilish orqali o‘rganadigan PjBL kabi boshqa o‘qitish usullari bilan almashtiriladi. PjBL ba’zi jihatlari bilan PBLga o‘xshaydi. PBL bilan PjBL ni quyida keltirilgan 1-jadval asosida taqqoslashimiz mumkin:

1-jadval

O‘xshash tomonlari	Farqli tomonlari
Amalda bajarish orqali o‘rganish	PBL bir mavzuli ba’zida ko‘p mavzularni qamrab olishi mumkin.
Ochiq savol yoki topshiriqqa e’tibor qaratish	PjBL esa ko‘p mavzularni qamrab oladi
Kontent va ko‘nikmalarning qo‘llanilishini ta’minlash	PBL darslari PjBL ga qaraganda qisqaroq vaqtni talab qiladi
XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish	PjBL uzoq vaqt (haftalar, oylar) ni talab qiladi
O‘quvchilarning mustaqil izlanishlari va o‘rganishlari	PBL ning asosiy maqsadi muammoning yechimini topish emas, muammoni hal qilish uchun o‘quvchilarni harakatga keltirish orqali ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.
An’anaviy darslar yoki topshiriqlarga qaraganda uzoqroq va ko‘p qirrali.	PjBL da asosiy e’tibor qo‘yilgan muammoni hal qilish, mahsulot yaratishga qaratiladi.
	PBL ko‘pincha «noto‘g‘ri tuzilgan muammolar» sifatida amaliy tadqiqotlar yoki xayoliy senariylardan foydalanadi, PjBL esa real dunyo muammolarini hal qilishga qaratilgan.

PBL loyihaga yo‘naltirilgan bo‘lsada, murakkab muammolarga taklif qilingan yechimlar haqidagi bilimlarni rivojlantirishga urg‘u beradigan vaqt cheklangan darslarga moslashtirilishi mumkin. Agar PjBL «o‘quv artefaktini ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lsa, PBL o‘rganish bor bo‘lgan yoki taklif qilingan yechimlar orqali yangi bilimlarni o‘z ichiga oladi. PBL mahsulotga emas jarayonga asoslangan o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

PBL bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘quv amaliyotlari - kontekstga asoslangan, loyihaga asoslangan va muammoga asoslangandir. Larmer ko‘plab yangi ta’lim modellari PBL kontseptsiyasining modernizatsiyasi ekanligini

tushuntiradi. Bular so‘rovga asoslangan ta’limning umumiy toifasiga kiradi [13]. PBL singari, so‘rovga asoslangan o‘rganish ham o‘quvchiga yo‘naltirilgan, faol o‘rganish bo‘lib, u savol berish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishni rivojlantiradi [14]. So‘rovga asoslangan o‘rganish, shuningdek, yuqori darajadagi fikrlashni osonlashtirish uchun real muammolardan foydalanadi. So‘rovga asoslangan ta’lim va PBL o‘rtasidagi asosiy farq o‘qituvchi rolidir. So‘rovga asoslangan ta’limda o‘qituvchilar o‘rganishni osonlashtiradi va o‘quvchilarga so‘rov asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan ma’lumotlar beradi. Ammo PBL sinflarida o‘qituvchilar ma’lumotni boshqarmasdan yoki taqdim etmasdan o‘rganish jarayonini qo‘llaydilar. Biroq, kontekst dinamikasi, rivojlanishning mosligi va amalda ko‘proq harakatlantiruvchi qarorlar qabul qilish bilan o‘qituvchilarning PBLni qanday ishlatishi nuqtai nazaridan ko‘plab farqlar mavjud. Masalan, Duch va boshqalar o‘quvchilar PBL muhitida o‘quv resurslarini mustaqil ravishda aniqlash va ulardan foydalanishni o‘rganishlari kerak bo‘lsada, o‘qituvchilar ularni faqat Internetdan emas, balki kutubxona va boshqa manbalardan foydalanishga rag‘batlantirib, yaxshi manbalar bilan boshlashlari mumkinligini ta’kidlaydi [15]. Esda tutish kerakki, bolalar nima uchun deb so‘raydigan, narsalarni quradigan va tavakkal qiladigan qiziquvchilardir. Tabiiy va rasmiy ta’lim o‘rtasidagi tafovutni nazarda tutgan holda, Kuros shunday deydi: «Bolalar hayrat va savollarga to‘la maktablarga boradilar, lekin biz ko‘pincha o‘quv dasturidan chiqmasligimiz uchun ulardan savollarini keyinroq qoldirishlarini so‘raymiz «. Kurosning ta’kidlashicha, o‘quvchilar maktablarni avvalgidan kamroq qiziqish bilan tark etganda, ulardagi fanga bo‘lgan qiziqish so‘nadi. O‘quvchilar o‘zlaricha fikr yurita olishlari kerak. Tabiiy qiziquvchanlik, mustaqil fikrlash va ijodkorlik PBL da turli mashg‘ulotlar, o‘quv rejalari va dasturlari uchun kuchli tomonlardir.

PBL va so‘rovga asoslangan ta’lim bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ta’lim turlaridan biri keyslarga asoslangan ta’limdir. Ushbu turdagi asoslangan ta’lim o‘quvchilarga klinik sharoitda muammoning muhim elementlarini tushunishga va ma’lumotni baholash va kamchiliklar yoki noto‘g‘ri taxminlarni aniqlash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning o‘rganishi ko‘rsatmalardan so‘ng baholanadi. PBL, so‘rovga asoslangan o‘rganish va keyslarga asoslangan ta’lim faol o‘rganish va vazifalarni chuqurlashtirishga yordam beradi, yuqori darajadagi fikrlashni qo‘zg‘atadi. Ularning asosiy farqlari 2- jadvalda keltirilgan . Odatda, PBL da o‘quvchi ochiq mashg‘ulotlarda ishtirok etadi.

2-jadval.

Keysga asoslangan ta’lim, so‘rovga asoslangan ta’lim va muammoli ta’limni solishtirish

Kontseptsiya	Keysga asoslangan ta’lim	So‘rovga asoslangan ta’lim	Muammoli ta’lim
Usul	Yo‘naltirilgan so‘rov	Ochiq so‘rovga olib keladi	Ochiq so‘rov
O‘qishdan oldin material	Taqdim etilgan	Taqdim etilgan	Taqdim etilmaydi
O‘qituvchining oldindan tayyorgarligi	Ha	Ha	Ha
Fasilitatorning roli	Faol Yo‘naltiruvchi savollardan foydalanadi, baland ovozda o‘quvchilarni mo‘tadil qiladi, fikr-mulohazalarini bildiradi	Aralashgan Talabalarning izlanishlarini yo‘naltirish uchun muammo, protseduralar va materiallarni taqdim etadi	Passiv O‘quvchi o‘rganayotganda ham muhokamani boshqarmaydi, u faqat yo‘naltiruvchi
O‘quvchi roli	Faol	Faol	Faol
O‘qituvchi bilan o‘zaro munosabat	Ozroq	O‘rtacha	Ko‘proq
O‘rganilgan ko‘nikmalar	Klinik	Muammoni hal qilish	Muammoni hal qilish

Nihoyat, turli manbalardan olingan ko‘rsatmalar asosida o‘qituvchilar PBL asosida darslarni tashkil etish o‘quv dasturini ishlab chiqish mumkin. Quyidagi xulosalar manbalar aralashmasiga asoslangan [4,5,6]:

1. Har bir darsda (yoki muhitda) asosiy bo‘lgan, lekin bitta mavzuga oid mazmun yoki mavzular bilan cheklanmagan kontseptsiyani (umumlashtirilgan universal mavzu) tanlash.

2. Muammo kontekstida ushbu kontseptsiyani o‘rganishga yordam berish uchun o‘quvchilar tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan vazifani aniqlash (masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan insoniyat foydalanishini

yaxshilash uchun quyosh energiyasi bilan ishlaydigan transport vositasini yaratish).

3. O‘quvchilar muammoni hal qilishda bajarilishi kerak bo‘lgan o‘quv maqsadlarini sanab o‘tish (masalan, rejalashtirish, loyihalash va tengdoshlariga natijalarni taqdim etish orqali qayta tiklanadigan energiya jarayonlarida nazariy va amaliy ishlash qobiliyati).

4. Ko‘rib chiqilayotgan kontseptsiya uchun real muammo konteksti haqida o‘ylab ko‘rish (masalan, insonning qayta tiklanmaydigan energiya manbalaridan muqobil energiya manbalariga qaraganda ancha yuqori tezlikda foydalanishi).

5. Muammoni bosqichma-bosqich kiritish, shunda o‘quvchilar maqsadli tushunchalarni tadqiq qilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘quv muammolarini aniqlay oladilar. Bu jarayonni boshqarishga yordam beradigan ba’zi maslahatlar:

- Qanday ochiq savollar berilishi mumkin? Qanday ta’lim muammolari aniqlanadi?
- Muammo qanday tuziladi?
- Muammo qancha davom etadi? Qancha dars yoki mashg‘ulotlarni yakunlash kerak?
- O‘quvchilarga muammoni hal qilishda boshida yoki keyingi bosqichlarda ma’lumot beriladimi?
- O‘quvchilarga qanday manbalar kerak bo‘ladi va ular bu manbalarni qanday topishlari mumkin?
- Muammoni tugatgandan so‘ng o‘quvchilar qanday mahsulot ishlab chiqaradilar?
- Ushbu jarayon yakunida qanday bilim va ko‘nikmalar hosil bo‘ladi?
- ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslangan 21-asr ta’limining natijalari yoki yutuqlariga murojaat qilish.

Bugungi ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim usullarini qo‘llashdan asosiy maqsad o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmasini shakllantirishdir, ularning har biri o‘rta maktab bitiruvchisining asosini tashkil etuvchi kelajakka tayyorlash uchun muhim mahoratdir.

Batafsilroq ma’lumotni taqdim etgan holda, 1-rasmdagi har bir komponentining tavsifini keltiraylik:

Tanqidiy fikrlash. Hayot va o‘rganishdagi eng qimmatli ko‘nikmalardan biri bu tanqidiy fikrlash qobiliyatidir. O‘quvchilarga tanqidiy fikrlovchi sifatida o‘sish imkoniyati berilishi kerak va ular muammolarni aniqlay olishlari va tadqiqot uchun savollarni shakllantirishlari lozim. Ular bir nechta yechimlar va istiqbollarni kashf qilishlari va qadrlashlari mumkin. O‘quvchilar ma’lumotni turli yo‘llar bilan qo‘llash, tahlil qilish, sharhlash, baholash va

1-rasm.

sintez qilish, shuningdek, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va o‘z tafakkurini aks ettirish imkoniyatiga muhtoj. O‘quvchilarga savol berishga imkon berish va ularni hayratlanishga undash tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Ijodiy fikrlash. Asl asarni qadrlash, uni ishlab chiqarish jarayoni mamnuniyat bilan qabul qilinishini anglatadi. Ijodiy mutafakkirlarni mazmunli bilimlarni targ‘ib qiladigan chuqurroq o‘rganishni boshdan kechirish uchun yuzaki tushunchalardan tashqariga surish kerak. Vazifalarni bajarishda ularning tasavvuridan ishonchli foydalanish muvaffaqiyatga olib keladi. Sinfda faol ijod qilish uchun o‘quvchilar tavakkal qilish imkoniyati va erkinligiga muhtoj. Ularning qiziqishlari va kuchli tomonlari, shuningdek, o‘ziga xos bo‘lgan boshlang‘ich bilimlari ochiq savollar va qiziqishga asoslangan o‘rganish uchun foydali bo‘lishi kerak. Ular ma’lumotni topish va ijodiy foydalanish, zukko bo‘lish, yangi bilimlarni ishlab chiqish va uni taqdim eta olishlari lozim. Ular tajriba o‘tkazadilar va o‘zlarini faoliyat oqimiga to‘liq jalb qiladilar, shu bilan birga taraqqiyotni kuzatib boradilar va xatolar va muvaffaqiyatsizliklardan saboq oladilar. O‘quvchilarni yangi g‘oyalar va istiqbollarni qabul qilishga va o‘z izlanishlarini yo‘naltirishga undash kerak. Tengdoshlar bilan ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va natijalarni boshqa guruhlar bilan bo‘lishish, fikr bildirish va qabul qilishlari muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativlik. Muloqotga kirisha olish shunchaki gapirishdan ko‘ra ko‘proq ahamiyatlidir. Inson tinglash, ifodalash, baholash va javob berish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchilar ushbu muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradigan tadbirlarda qatnashish imkoniyatiga muhtoj, bu esa o‘z navbatida hamkorlikni, ijodkorlikni va hokazolarni rivojlantiradi. Bunday imkoniyatlar davomida ular faol tinglashlari va o‘z tinglovchilarini bilishlari va hurmat qilishlari kerak. Ular og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan belgilarni tan olishlari va samarali foydalanishlari kerak. Muloqotning barcha shakllaridan foydalanish o‘quvchilarga muvaffaqiyatli va boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Hamkorlik. Boshqalar bilan umumiy maqsadga erishish ko‘p bolalar uchun qiyin vazifadir. Murosa qilishni o‘rganish, moslashuvchanlikni namoyish etish va mas’uliyatli bo‘lish o‘quvchilarda bu qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar boshqalarning fikri, nuqtai nazari va qobiliyatlarini qadrlashi va ulardan umumiy maqsad uchun foydalanishi kerak. Birgalikda ishlashga qo‘shgan hissalari haqida fikr-mulohazalarni olish ham tegishli mahoratdir. Har doim o‘zgaruvchan dunyoda o‘sish va rivojlanish uchun o‘quvchilar sinergik aloqalarni o‘rnatishlari kerak (vazifalarni rejalashtirish, tartibga solish va bajarish, yordam berish, jamoa a’zosi bo‘lish).



2-rasm. PBL ning sakkizta muhim elementi

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki PBL asosida darslarni tashkil qilish tabiiy fanlar(SCIENCE) o‘qituvchisidan yuqori mahoratni talab qiladi. Fan o‘qituvchisi darslarni tashkil qilishda quyidagi sakkizta muhim elementi (PBL muhim elementlari) ni inobatga olishi kerak (2-rasm).

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki tanqidiy fikrlovchilarni tayyorlash, ijodiy fikrlashni qamrab olish, muloqot ko‘nikmalarini mashq qilish, hamkorlikni rag‘batlantirish va fuqarolik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchilar bitiruvdan keyingi hayotga tayyorlaydigan tajribalar bilan boyitiladi. O‘quv modeli, PBLga yo‘naltirilgan sozlamalar bolalar rivojlanishiga XXI asr ko‘nikmalariga e’tibor qaratish orqali o‘sishni ta’minlaydi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan PBL bilan bog‘liq adabiyotlarda o‘quvchilarining faolligi va yutuqlari ko‘rib chiqildi va boshqa qiziqish sohalari uchun kengaytirildi. Tadqiqotlarning aksariyati o‘rta ta’lim uchun PBL ta’sirini o‘rganib chiqqan. Yosh o‘quvchilar(5-6 sinf) o‘qituvchi rahbarligida tabiiy fanlar (SCIENCE) darslarida PBL strategiyalaridan qanday foydalanishni o‘rganishlari kerak; demak, o‘qituvchilar o‘rganishga yordam beruvchi vazifasini bajaradi. Tabiiy fanlar (SCIENCE) o‘qituvchilardan PBL darslarini tashkil etishda yuqori mahorat talab qilinadi. O‘quvchilar PBL da shaxsiy va guruhli so‘rovlar orqali o‘z ko‘nikmalarini real dunyo muammolariga qo‘llashga qodir bo‘lgan mustaqil, erkin fikrlovchi o‘quvchilarga aylanishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Glossary of Education Reform. (2016). 21st century skills. https://www.edglossary.org/21st-century-skills.

2. The Partnership for 21st Century Skills. (2019). Framework for 21st century learning (pp. 1–2). http://static.battelleforkids.org/documents/p21/p21_framework_brief.pdf.

3. Duch, B. J., Groh, S. E,&Allen, D. E. (Eds.). (2001). The power of problem-based learning. Stylus. English, L. D., & King, D. T. (2015). STEM learning through engineering design: Fourth-grade students' investigations in aerospace. International Journal of STEM Education, 2(14). https://doi-org.ezproxy.lib.vt.edu/10.1186/s40594-015-0027-7.

4. Duch, B. J., Groh, S. E,&Allen, D. E. (Eds.). (2001). The power of problem-based learning. Stylus.

5. Evans, M. A., Lopez, M., Maddox, D., Drape, T., & Duke, R. (2014). Interest-driven learning among middle school youth in an out-of-school STEM studio. Journal of Science Education and Technology, 23(5), 624–640.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bugungi kun ta'lim muammolari, o'quvchilarda shakllantirish lozim bo'lgan ko'nikmalar, muammoga asoslangan ta'lim (PBL) va uning boshqa ta'lim turlaridan farqli hamda o'xshash jihatlari, o'qituvchi PBL ni qanday tashkil qilish, PjBL, so'rovga asoslangan ta'lim, keyslarga asoslangan ta'lim turlari va ushbu ta'lim turlarining o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlashdagi asosiy roli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье сегодняшние образовательные проблемы, навыки, которые должны формироваться у учащихся, проблемно-ориентированное обучение (ПОО) и его отличия и сходства от других видов обучения, учитель использует ПОО информацию о том, как организовать, ПОО, запрос кейс-обучение, кейс-обучение и основная роль этих видов обучения в подготовке учащегося к самостоятельной жизни.

SUMMARY

In this article, today's educational problems, the skills that should be formed in students, problem-based education (PBL) and its differences and similarities from other types of education, the teacher uses PBL information about how to organize, PjBL, inquiry-based education, case-based education types and the main role of these types of education in preparing the student for independent life.

TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimova G.S.
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O`zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institute 3-bosqich tayanch doktoranti

**Tayanch so`zlar:** kadrlar, oily o'quv yurti,maktab, ta'lim sifati, tarbiya texnologiyasi, jamoatchilik, g`oyaviy, siyosiy, professional daraja, boshqaruv tizimi, farmon va qarorlar, o'quv-tarbiya jarayoni, o`quvchilar ta'lim-tarbiyasi.

Ключевые слова: кадры, семейное образовательное учреждение, школа, качество образования, образовательная технология, общественный, идеологический, политический, профессиональный уровень, система управления, указы и решения, воспитательный процесс, школьное воспитание.

Key words: personnel, family educational institution, school, quality of education, educational technology, public, ideological, political, professional level, management system, decrees and decisions, educational process, school student education.

Bugungi kunda mahalliy va xalqaro ilg'or tajribalar ta'lim sifati quyidagi asosiy pedagogik tamoyillarga javob berishini belgilab bermoqda: ta'lim dasturlarining ta'lim oluvchilarning, kadr iste'molchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi xususiyatlarga ega bo'lishi; ta'lim mazmuni va faoliyat shaklining tizimlilik, yaxlitlik, ko'p variantlilik, muqobillilik, bir muammoni hal qilishda turli xildagi ko'p fikrlilik va bir necha yechimlarni izlab topishga yo'naltirilganligi; mazmunning muammoli va hamkorlikdagi ta'lim tamoyillariga asoslanganligi, ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirokchilarning o'zaro samarali muloqot hamkorligi yo'lga qo'yilganligi; ta'lim oluvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchisi sifatidagi faolligi, mustaqilligi, o'z-o'zini rivojlantirishdagi ijodiy faoliyati, o'zini-o'zi baholay olishi va boshq.

Demak, ta'lim sifati – ta'lim natijalarining me'yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga mos kelish darajasidir.

Ta'lim sifatini oshirish yagona butun dunyo ta'lim maydoni shakllanishining, uning yaratuvchanlik jarayoniga (ta'limnig ilmiy darajasi ortishi; unga ilmiy yutuqlar tezkorlik bilan kiritilishi; printsipial jihatdan yangi, samarali pedagogik texnlogiyalarni yaratish; kompyuterlashtirish va telekommunikatsion tizimlar;

ta’lim diversifikatsiyasi, uning variativligi; individuallashtirish, ta’limda insonparvarlikni ta’minlash) aylanishining zarur sharti hisoblanadi. Aytib o’tilganlar bilan birgalikda xozirgi kunda ta’limning ahamiyati va o’rni, hozirgi kun taraqqiyotida muhim insoniy yaratuvchanlik funktsiyalari, falsafiy asoslar va texnologik imkoniyatlarning madaniyat shakllanishi chuqur jarayonlariga ta’siri, inson va jamiyatning mental tavsifini shakllantirish muammolari o’z yechimini kutmoqda.

Umumta’lim maktablari direktorlari va o‘rinbosarlariga bo‘lgan talabni qayta ko‘rib chiqish, bu lavozimga haqiqiy boshqaruvchilik – menejerlik qobiliyatiga ega shaxslarni tayinlash, ma’naviy-ma’rifiy va o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari mas’uliyatini keskin oshirish kerakligi qayd etildi.Xalq ta’limi tizimini moliyalashtirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. 2019 yil uchun davlat byudjetini shakllantirishda mazkur sohaga moliyalashtirishni oshirish, shuningdek, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun Xalq ta’limi vazirligi qoshida alohida jamg‘arma tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.Maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini sifatli bajarish uchun xalq ta’limi tizimida maxsus injiniring kompaniyasi tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.Shuningdek, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, maktablarning byudjetdan tashqari topayotgan daromadlarini ularning ixtiyorida qoldirish, maktablarda ichki jamoaviy nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish, namunaviy maktablarni ko‘paytirish maqsadida maktablar reytingini ishlab chiqish kabi masalalarga e’tibor qaratildi.Yig‘ilishda muhokama qilingan yo‘nalishlar bo‘yicha mutasaddi rahbarlarning hisobotlari eshitildi va tegishli topshiriqlar berildi.

Hususan, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- √ yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan yoshlarni madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- √ ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan yoshlarning ma’naviy-axloqiy

ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

√ davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

√ ta'lim muassasalarida sportni qadriyat sifatida rivojlantirish, o`quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

√ yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

√ imkoniyati cheklangan talabalarning ijtimoiy moslashuvi uchun keng sharoitlar yaratish, inklyuzivlik g'oyalarini targ'ib qilish;

√ yoshlar tarbiyasida ota-onalar, mahallalar va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini tizimli tashkil etish;

√ ta'lim muassasalarida sotsiologik va pedagogik-psixologik xizmat guruhlari ishini takomillashtirib borish, o`quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash borasidagi targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

√ o`quvchilarni hunar o'rganish, yangi bilim egallash, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalanish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga undash orqali ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun ta'lim muassasalarida shart-sharoitlar yaratish;

√ o`quvchilarni turli axborot xurujlari, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo'lida birlashtirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

"Maktab — ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i" konsepsiyasi doirasida oliy ta'lim muassasalarining umumta'lim maktablari bilan o'quvchi-yoshlarni

ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirishga katta e`tibor berildi.

Adabiyotlar:

1. Axliddinov R.SH., Oldroyd D., Xodjaev A. O’zbekistonda ta’limni boshqarish: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – T.: TACIS-PROJECT, 1999.

2. Jumaniyozova M.T. Innovatsion faoliyat ta’lim sifatining kafolatidir // Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2004. 6-son.

3. Innovatsionnыy menedjement /Uchebnik. Pod red. V.A.SHvandara, V.YA.Gorfinkelya. – M.: Vuzovskiy uchebnik, 2006.

4. Medыnskiy V.G. Innovatsionnыy menejment /Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2002.

5. Tolipov O’., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

6. Forobiy. Fozil shashar odamlari. Toshkyent. «Myeros».1990 yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning ta’lim sifatini ko’tarishga o’zaro ta’sirini orttirish va ta’lim sifatini yanada rivojlantirish haqida so`z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о совершенствовании системы управления в общеобразовательных школах и повышении качества образования.

SUMMARY

This article talks about improving the management system in general secondary schools and improving the quality of education.

O‘QUVCHI-YOSHLARNI OILAGA NISBATAN MA’NAVIY-AXLOQIY VA QADRIYATLI MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA PEDAGOGNING FAMILISTIK KOMPETENTLIGI

Xaydarov O.
Qo’qon davlat pedagogik instituti o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: yosh, oila, munosabat, pedagog, faoliyat, familistik, kompetent, shakl, metod, texnologiya.

Ключевые слова: возраст, семья, отношение, педагог, деятельность, семейный, компетентный, форма, метод, технология.

Key words: age, family, attitude, pedagogue, activity, familistic, competent, form, method, technology.

Hozirgi sharoitda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatida kompetentli paradigma katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash masalasi bilan shug‘ullanuvchi pedagoglar faoliyatida familistik kompetentlik pedagogning o‘zining mahoratini takomillashtirishda professional-pedagogik kompetentlikning muhim qimmatli aspekti sifatida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Familistik kompetentlik quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

– kognitiv komponent;
– operasion-faoliyatga doir komponent;
– qiymatli-ma’noviy komponent;
– ijodiy faoliyatga doir komponent.

Familistik kompetentlikni shakllantirish odatda bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida turli shakl, metod va texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshiriladi. Metodlar va shakllar pedagogik texnologiyalarga tizimlashtiriladi: kasbiy vaziyatning hayotiy vaziyatga transformasiyasi, o‘qitish amaliyotini yoki oila hayotini modellashtiruvchi imitasion texnologiyalar (mikrosaboq berish, ishbilarmonlik o‘yini, syujetli o‘yin).

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagoglarning familistik kompetentligi quyidagi kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi:

– o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash masalalari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlashning nazariy, ilmiy-metodologik darajasini oshirish;
– o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning dasturiy-metodik yo‘l-yo‘rig‘ini yaratish, bu takomillashuvga va ushbu ish samaradorligi oshishiga ko‘mak beradi;
– o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yagona prinsipial yondashuvlarni bajarishni ta’minlash;
– o‘quvchilarning oilasi bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek, oilalar bilan pedagogik ishlash mazmunini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani o‘rganish;
– o‘quvchi-yoshlarning oilasi bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentlikni takomillashtirish maqsadida pedagoglarning motivasion jabhasini shakllantirish;
– oilaviy tarbiya bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtirish, tizimlashtirish va keng yoyish;
– zamonaviy dunyoda oilaviy qadriyatlarning o‘zgaruvchan tizimida pedagoglarni zamonaviy tarbiya texnologiyalari, ota-onalar va oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari va metodlariga oid bilimlar bilan qurollantirish;
– o‘quvchi-yoshlar orasida ularda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash yo‘nalishidagi tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilishni muvofiqlashtirish;
– ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha pedagogik jamoa a’zolarining tarbiyaviy ishi natijalarini baholash;
– manzilli metodik yordam (guruhli va individual konsultasiyalar, murabbiylik, stajerlik amaliyoti) ko‘rsatish;
– o‘quvchi-yoshlarning ota-onalari bilan ularning farzandlari o‘rtasida oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarni tarkib toptirish bo‘yicha samarali hamkorlikni amalga oshirish.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagogning familistik kompetentligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

subyektlik tamoyili shaxsiy tajribaga daxldor bo‘lib, bunda ota-ona tahsil jarayonida faol ishtirok etadi;

manzillilik tamoyili esa farzand, oilaning tarbiya borasidagi salohiyati, o‘ziga xosligi, shuningdek, pedagogika doirasida ota-onalarning qo‘llab-quvvatlovga qobiliyatini hisobga oladi;

muammolilik tamoyili oilada ziddiyatlar mavjud bo‘lgan vaziyatga ehtiyojni aniqlashni ko‘zda tutadi;

hamkorlik tamoyili pedagog va oilaning to‘laqonli munosabati chog‘ida, maqsadlarni kelishib olish va birgalikda rivojlantirish nuqtai nazaridan pedagogik jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlanishida namoyon bo‘ladi;

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash bo‘yicha ota-onalarni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

– o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash bilan bog‘liq muammolarni ota-onalar majlislarida muhokama qilish;
– o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash muammolari yuzasidan ota-onalarning bilimlarini generasiyalash bo‘yicha ular uchun imitatsiyalangan interfaol mashg‘ulotlar o‘tkazish, bahs-munozara va davra stollari tashkil etish;
– ota-onalarni tadqiqot muammolari bo‘yicha mutaxassislar bilan konsultasiyalar, uchrashuvlar shaklida individual qo‘llab-quvvatlash;
– ota-onalarning ular uchun mo‘ljallangan pedagogik mutolaalarda ishtirok etishi.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda sinf rahbari bilan ota-onalarning birgalikdagi faoliyati, ikkala tomon ham bolaning tarbiyalanganlikka ega bo‘lishidan, unda yaxshi sifatlarni va xususiyatlarni shakllanishidan, rivojlanishidan, ochilishidan manfaatdor bo‘lib, bunday o‘zaro harakatning asosida o‘zaro ishonch va hurmat, qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish, bir-biriga nisbatan toqatlilik prinsiplari yotadi. Bu esa sinf rahbari va ota-onalarga o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish hamda birgalikda harakatlanishga imkon beradi.

Umumta’lim maktablari va oila hamkorligi – sinf rahbari, fan o‘qituvchilarining maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati natijasidir, u oilani har tomonlama va tizimli o‘rganishni, oilaviy tarbiyani va uning o‘ziga xosligini bilishni nazarda tutadi. Agar sinf rahbari tomonidan hamkorlikdagi pedagogik usullar to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, u, ota-onalar va o‘quvchilardan tashkil topgan “pedagogik uchlik”ning ishi muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Mazkur uchlik hamkorlikda ish olib boradigan bo‘lsa, tarbiya jarayonida paydo bo‘ladigan har qanday muammoni bartaraf eta oladi. Boshqacha aytganimizda bu masalani yechishda ikkita aspektni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: alohida oilalarda tarbiyani moslashtirib korreksiyalab borish; notinch oilalar bilan sinf rahbari, maktab psixologini ish olib borishi.

O‘quvchi-yoshlarga globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarga nisbatan yuzaga keladigan qiyinchiliklar, yangi ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishi, yangi

qadriyatlar va xulq-atvor normalari shakllanishi – bularning hammasi ota-onalar uchun yangi ta'lim shakllari va uslublarini izlashga tushishga imkon beradi. Ular turli-tuman bo'lishi mumkin: pedagogik ishni amalga oshirish, psixolog yordami va boshqalar. Aytib o'tilganlarga qo'shimcha sifatida psixologik xizmatning ota-onalar bilan ishlash metodlari maydonga chiqadi: individual suhbatlar, maslahatlashuvlar psixologik tavsifini aniqlash imkonini beruvchi ota-onalar maktabi.

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagoglarning familistik kompetentligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagog tomonidan oilaning umuminsoniy qiymati va shaxs kamolotidagi ahamiyati anglab yetilishi;
- oilaning ko'p jabhali va yarim funksionalligini tushunib yetish;
- oilaviy munosabatlar madaniyati, maishiy ko'nikmalar, qarindoshlar va yaqin insonlar bilan muloqot qilish mahoratini kasb etish;
- o'quvchi-yoshlarning turli tipga mansub oilalari bilan konstruktiv munosabatga kirishish ko'nikmasini orttirish;
- axloq me'yorlarini (taktikaviylik, ota-onalar tuyg'ulariga nisbatan hurmat va boshqalar) hamda o'quvchi-yoshlarda bo'lajak oilaparvar sifatlarini tarbiyalashda zarur kasbiy kompetensiyalarni egallash.

O'qituvchilarning o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyati o'quvchi bilan o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatni shakllantira olishlari, ular bilan do'stona muloqot o'rnata olishlarida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'zi jamiyat a'zolari va ajdodlarimiz tajribasini o'quvchilarga tizimli tarzda taqdim etuvchi subyekt hisoblanadi. O'qituvchining o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyati muayyan bosqichlarga ega.

O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda o'qituvchining tajribalari, nuqtai nazarlari uning o'zligi va kasbiy faoliyatiga bog'liqdir. O'quvchilarni an'anaviy rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlarda o'qituvchining kasbiy layoqati, oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, ijtimoiy tajribasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi turli usullardan foydalanadi va qo'yilgan maqsadga erishish yo'llarini belgilaydi.

Bu esa o'z navbatida o'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish imkonini beradi.

M.T.Isaqovaning ta'biricha, o'quvchining harakati xulq-atvorning retseptiv modelidan konseptual modeligacha bo'lgan tizimni qamrab oladi. Bu jarayon o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishning qadriyatlarga asoslangan

mezoni bo‘lib hisoblanadi. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan faoliyati, ushbu jarayonda qo‘llaniladigan o‘quv materiallari, turli axborotlar ularning dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash natijasida ularni samarali ijtimoiylashtirish imkoniyati vujudga keladi. Pedagogik muloqot subyektlarining o‘z-o‘zlarini rivojlantirishlari o‘zaro aloqador jarayonlarda o‘qituvchining familistik bilimdonligi o‘quvchilarni rivojlantirish omili sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining rivojlanish darajasi esa, yangicha munosabatlarga kirishishni talab qiladi. Bunday munosabatlar o‘zaro aloqaning yangi ko‘rinishlarida ifodalanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishini taqozo qiladi.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan faoliyatining ifodasi sifatida uning familistik kompetensiyalariga egaligini ko‘rsatish mumkin. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat darajasini ko‘rsatuvchi mezonlar o‘qituvchilarda qadriyatli nuqtai nazarning shakllanganligi, uning yaxlitligini ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining o‘quvchilarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish soxasidagi faoliyati doirasida o‘z fikrini mujassamlashtirganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu tariqa, o‘qituvchilarning o‘quvchilarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish sohasidagi faoliyati quyidagi besh bosqichda namoyon bo‘ladi.

1. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda o‘qituvchi pedagogik faoliyatning tarbiyaviy mazmunini kengaytirishga muvaffaq bo‘ladi. U o‘quvchilarga qadriyatlarga oid bilim, ko‘nikma va ulardan foydalanish tajribasini xosil qilishga intiladi. Buning uchun zarur didaktik vositalarni tanlaydi. Shu maqsadda o‘z faoliyatining tarbiyaviy jihatlarini kengaytiradi va uni aniq loyihalashtiradi. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash maqsadida rolli o‘yinlardan foydalanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmetining imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. Bunday o‘qituvchilar har bir darsda o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini xosil qilishga xizmat qiladigan o‘quv materiallaridan foydalanishga intiladilar.

2. Me’yoriy faoliyat doirasida o‘qituvchilar o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga xizmat qiladigan tavsiyalar, qoidalar, ko‘rsatmalar asosida ish yuritadilar. Ularning fa-

oliyatlarida o‘quvchilarga oilaviy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish, ularning mohiyatini anglatish ustivor o‘rin egallaydi. Bunday o‘qituvchilar tarbiyaning asosini o‘zbek xalqining tarixiy tajribasi, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniy meros tashkil etishiga e’tibor qaratgan holda ushbu pedagogik qadriyatlardan unumli foydalanishga intiladilar. Shu maqsadda ular oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar yuzasidan o‘quvchilar bilan savol-javoblar, munozara vaziyatlari, debatlar tashkil etadilar. Bunday o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatlari davomida innovatsion usullardan keng foydalanadilar.

3. Texnologik darajaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayonida tarbiya texnologiyalaridan unumli foydalanadilar. Ular muntazam tarzda o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash tajribasini shakllantirishda yangi pedagogik shakl va vositalardan foydalanadilar. Ushbu jarayonda o‘qituvchilar pedagogik muloqotning turli shakllarini qo‘llash orqali o‘quvchi-yoshlar bilan samarali hamkorlik o‘rnatadilar. Ular uchun qadrli bo‘lgan oilaviy narsalar, munosabatlar, holatlar, kechinmalarni bilishga intiladilar. Texnologik darajaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quv jarayonini muntazam tahlil qilib, o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan vaziyatlarni aniqlashga muvaffaq bo‘ladilar. Chunki bunday o‘qituvchilar uchun o‘quvchilarning atrof-muhit va jamiyat a’zolariga bo‘lgan munosabati muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ular mazkur pedagogik vaziyatlarda qo‘llash maqsadida yangi ishlanmalarni izlab topishga harakat qiladilar. Aksariyat o‘qituvchilar o‘quvchilarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini xosil qilishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlar dars va darsdan tashqari vaziyatlarda muntazam amalga oshirilishi kerak deb hisoblaydilar. Bunday yondashuv alohida pedagogik ahamyaitga ega bo‘lib, o‘quvchilarning oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni anglash va ularga amal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. O‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning izchillik darajasi. Bunday faoliyat tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar oilaviy qadriyatlarni taqdim etish jarayonida o‘quvchilar, ularning ota-onalari bilan izchil tarzda hamkorlik o‘rnatadilar. Bu o‘rinda pedagogik vaziyatlar tahlil qilinadi hamda pedagogik faoliyatning samarali yo‘llari tanlanadi. Tarbiyaviy ish shakllari o‘quvchilar bilan tarbiyaviy maqsadlarda hamkorlik o‘rnatishga qaratiladi.

5. Konseptual faoliyat, o‘qituvchi nafaqat kasbiy balki hayotiy faoliyati davomida o‘quvchilar bilan oilaga nisbatan qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish maqsadida hamkorlik o‘rnatadi. Bunday o‘qituvchilar munozarali ish shakllariga nisbatan kuchli ehtiyoj sezadilar. Ular o‘quvchilarning fikrlarini

tan oladilar va mazkur fikrlarni o‘z faoliyatlariga berilgan baho, deb biladilar. Ular pedagogik faoliyatga sidqidillik bilan yondashadilar va o‘z pedagogik faoliyatlari davomida o‘quvchilarda oilaga nisbatan qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo‘naltirilgan gumanistik xarakterdagi o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etishga muntazam harakat qiladilar.

O‘qituvchilarning o‘quvchilarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyati darajalarini farqlash uni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi. Bunday mexanizmlar sirasiga o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy tajribasi davomida to‘plagan oilaviy qadriyatlarini o‘quvchilarga singdirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning innovatsion usullarini qo‘llashni kiritish mumkin. O‘qituvchining qadriyatlarga nisbatan o‘z nuqtai nazarini bayon qilishi unda familistik kompetentlikning rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 246 b.

2. Mahkamov U.I. Yuqori sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 1998. – 286 b.

3. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

4. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.

5. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 424-bet.

6. Бачинин В.А. Духовная культура личности. – М., 1996. – 218 с.

7. Тайланова Ш.З. Педагогика олий таълим муассасаси талабаларида қадриятлар тизимини шакллантириш (“Педагогика тарихи” фани мисолида): Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2012. – 176 б.

8. Ходжаев Б.Х. Педагогик аксиология. Ўқув қўлланма. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2012. – 180 б.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash masalasi, bu jarayonda pedagogning familistik kompetentligi hamda ota-onaning ushbu aiyatdagi o’rni tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется вопрос подготовки учащихся-молодежи к нравственно-ценностным отношениям с семьей, семейной компетентности педагога в этом процессе, роли родителей в данном стихе.

SUMMARY

This article analyzes the issue of preparing students-young people for spiritual-ethical and valuable relations with the family, the familistic competence of the pedagogue in this process, and the role of parents in this verse.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARIDA ONOMASTIK LEKSIKANING IFODALANISHI

Ahmedova M.U.
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Tayanch so’zlar: onomastika, toponimika, gidronimlar, gemeronimlar, kosmonimlar, oykodomonimlar, okeonimlar, mikroko‘lam, makroko‘lam

Ключевые слова: ономастика, топонимия, гидронимы, гемеронимы, космонимы, ойкодомонимы, океанонимы, микроколон, макроколум.

Key words: onomastics, toponymy, hydronyms, hemeronyms, cosmonyms, oikodomonyms, oceanonyms, microcolum, macrocolum.

Kirish. Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o‘rganish vazifalari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o‘rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang‘ich sinflarda otni o‘rganish vazifalari quyidagilar:

1) „ot“ haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;

2) kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko‘nikmasini hosil qilish;

3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlar va geografik nomlami bosh harf bilan yozish ko‘nikmasini shakllantirish;

4) otlarda son (otning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi) bilan tanishtirish;

5) otlarni egalik qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish;

6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;

7) o‘quvchilar lug‘atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o‘rinli foydalanish malakasini o‘stirish;

8) so‘zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

So‘z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma’nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma’nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, qush, hayvon, asalari), yer va osmonga oid narsalar (quyosh, yulduz, daryo, tog‘), o‘simliklar (paxta,

beda, gul), voqealar (yig‘in, majlis), tabiat hodisalari (shamol, bo‘ron, yomg‘ir, momaqaldiroq), belgi-xususiyat (ahillik, kuchlilik, samimiyat), harakat-holat (uyqu, sevinch, kurash), o‘rin va vaqt (yoz, bahor, joy) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko‘plikda qo‘llanadi, egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko‘proq ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe’l bilan birika oladi. Otning ma’nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o‘quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Maqolamiz ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarning nutqda qo‘llanishi yoki gapda o‘zaro bog‘anishi haqida emas, balki atoqli otlar – nomlar tadqiqiga bag‘ishlangan.

Adabiyotlar sharhi. Yer yuzasida hayot boshlangandan beri kishilar, avvalo, o‘zlarini, tirikchilik qila boshlashibdiki, birini boshqasidan farqlab olish uchun tevarak-atroflaridagi yerlarni, daryo-ko‘llarni, tog‘lar-u qir-adirlarni, o‘tloq-yaylovlarni va to‘pdan ajratish uchun jamiyki ahamiyatga ega bo‘lgan narsalarni ma’lum bir nom bilan atab kelganlar. Shu tariqa, nomlar yuzaga kela boshlagan. Bugungi kunda bu kabi nomlarning son-sanog‘i anchagina ko‘p. Ularni tadqiq qilish yo‘lini osonlashtirish uchun ham olimlarimiz ularni muayyan guruhlarga ajratishgan (toponimlar, gidronimlar, teonimlar…).

Har bir bilimning poydevori boshlang‘ich ta’lim jarayonida quyiladi. shuning uchun ham biz nomshunoslik bo‘limini o‘rganishda asos bo‘ladigan bilimlar 1-4-sinf o‘quvchilariga qay tarzda yetkazilishini o‘rganib chiqishni maqsad qiladik va tahlil uchun 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligini tanladik.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Darslikning 1-mavzusi “Mustaqillik maydoni”. Bu yerda urbanonimlarning yorqin misollari berilgan. urbanonim toponim makroko‘lamining bir mikroko‘lami bo‘lib, u o‘z ichida yana ikkiga bo‘linadi:

– Oykodomonimlar (Alohida olingan bino, inshoot, me’morchilik obidalari atoqli oti) - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi
– Godonomlar shahardagi liniyali ob’ektlar (ko`chalar, shohxo`chalar, torko`cha, bulvar, hiyobon, suv qirg‘oqlari, sohillari va b.) atoqli oti – bekatlar

Berilayotgan har bir nomning o‘ziga xos ilmiy ahamiyatini o‘qituvchi to‘liq anglab yetmas ekan, o‘quvchilarga talab darajasida bilim bera olmaydi.

Bundan tashqari darslikning 2-qismini ham kuzatar ekanmiz u yerda ham tarixiy obidalarga to‘xtab o‘tilganini ko‘ramiz. Mazkur darsdan

pedagog faqatgina filologik tushuncha berish bilangina cheklanib qolmasdan o‘quvchilarini o‘tmishga sayohat qildirishi – fanlararo integratsiyani to‘g‘ri amalga oshirishi lozim. Mavzuni yana-da qiziqarli bo‘lishi uchun ekskursiya darslaridan ham foydalanish mumkin. Jarayonda o‘quvchilarning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy bilim olishi an’anaviy darslarga qaraganda samarali bo‘ladi. Sababi, sayohat davomida bolalarning kuzatuvchanlik qobiliyati oshadi. Atrofni barcha hissiyotlarini sarflab tadqiq etadilar, taassurotga ega bo‘la oladilar. O‘quvchilar sinf xonasiga nisbatan ochiq mashg‘ulotlar davomida o‘zlarini erkin tutadilar. Bunday holatda bola mas’uliyatni sezadi va o‘zini-o‘zi nazorat qilishi kerakligini anglaydi.

79-sahifada berilgan mashq – klassifikatsion metod asosida tuzilgan bo‘lib, u o‘quvchilar o‘rganganlarini mustahkamlashga, jamlashga, xotirada saqlab qolsida qulay bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Xarita bilan ishlash orqali yurtimizning siyosiy-ma’muriy bo‘linishini o‘rganadilar. Bundan tashqari hududlarda saqlanib qolgan tarixiy obidalar, e’tiborga molik binolar haqida ham ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Bolalar maktabgacha bo‘lgan ta’lim jarayonidayoq, Vatanimiz, respublikamiz poytaxti, yashaydigan viloyatlarining nomini o‘rganadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida nomlar haqida sodda tushunchalarni o‘zlashtirar ekan. Shahae nomi bilan viloyat nomlari bir-biridan qaysi xususiyatlariga ko‘ra farqlanishini qisman bilishi lozim.

Regionim - o`zaro chegaradosh bo`lgan ulkan hudud (viloyat, tuman, mamlakat va b.)larning atoqli oti haqida ma’lumotlarni ham shakllantirish kk. Oykonimlar (shahar-qishloq nomlari)da esa hudud regionimlarga nisbatan kichik bo‘ladi. Geografik jihatdan qaraganda ham shahar-qishloqlar tuman-viloyatlarning bir qismi bo‘ladi. O‘quvchilarga aynan shuni tushuntirish kerak.

“Daromadli ish” ijtimoiy-iqtisodiy matni davomida berilgan ayrim davlatlar nomi regionimlar bilan tanishtirish uchun Tayanch so‘z vazifasini bajaradi. Undan qay darajada unumli foydalanish va o‘quvchilarga yetkazish pedagogning mahoratiga bog‘liq. Mavzu davmida O‘zbekistonga chegaradosh mamlakatlar nomi ham berib o‘tilgan. Bu fanlararo integratsiyaning namunasidir.

Natijalar. O`zbek tilidagi toponimlar, gidronimlar, antroponimlar nisbatan qoniqarli o`rganilgani tufayli, ularni ifoda qiluvchi terminlar ma’nosi ma’lum darajada tushunarli. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham kundalik hayotlari davomida turli daryo, soylarning, yashash hududlarining nomlarini o‘rgangan bo‘ladilar. Demak, mavzuni yoritishda o‘qituvchiga yordamchi vosita bolalar ongida shakllangan bo‘ladi, mavzuni tushuntirish birmuncha oson bo‘ladi.

Gidronim mikroko‘lamlaridan okeononim (okean, dengizlar va ularning qismlari (bo‘g‘oz, ko`rfaz, qo`ltiq, oqim va shu kabilarga berilgan nom)lar, potamonim (har qanday daryoga berilgan atoqli ot)lar namunalari darslikda berilgan.

Xarita yordamida yer yuzasining quruqlik, suv qismi haqida tushunchalar berish, materiklar va okeanlar nomlanishiga alohida to‘xtalib o‘tish kerak.

Dengiz va okeanni “ummon” dep ham ataymiz

Dengiz - *okeanning quruqlikka tutashkan yoki quruqlikka yorib kirgan bo’ladi*

Yer sharini juda katta qismi, ya’ni 71 foizi bilan qoplangan. Bu suvlar to’rta ulkan okean: tinch okeani, atlantika okeani, hind okeani, shimoliy muz okeani hamda ko’plap dengiz-u daryo hissasiga to’g’ri keladi. Tinch okean hududini o’zi yer sharini deyarli yarmini qoplagan.

Berilgan imlo qoidalariga oid mashq jarayonida bola ikki tomonlama axborot qabul qiladi va bu orqali xotirada saqlanishi osonlashadi.

Darslikda yurtimizdan oqib o‘tuvchi Amudaryo va Sirdaryolar haqida aytib o‘tilgan. O‘rta Osiyodagi eng yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo haqidagi olimlarning fikrlarini o‘rganadigan bo‘lsak, qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (miloddan avvalgi II asr) asarlarida Araks deb, keyinroq (miloddan avvalgi II asr milodning II asrida) o‘tgan yunon tarixchilari asarlarida Oks (yoki Oksos) deb atalgan. Olimlar ana shu Oks (ba’zan Akes) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi - o‘kuz «daryo» so‘zining o‘zginasi deb hisoblaydi. Avesto va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa degan qadimiy nomlari ham uchraydi. Arablar uni Jayxun «jo‘shqin daryo» deb atashgan. Jayxun yahudiylarning muqaddas kitobi «Tavrot»da tilga olingan Jixon daryosiga nisbat berib atalgan, degan fikr ham bor. Rus olimi V.V.Bartold arablar Jayxun bilan Sayxun (Sirdaryo) nomlarini Shimoliy Suriyadagi Jayxon va Sayxon daryolari nomlari bilan atashgan bo‘lsa kerak deydi. O‘rta asr tarixchisi Gardiziy «Jayxun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot» deb yozgan edi. Bu to‘g‘ri fikrga o‘xshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta’minlab turgan Shahrud (Shohrud emas) - «rudi shahri Buxoro»ning qisqartirilgan shakli. Aslida Shahrud («shaharga suv beradigan anhor») ning quyi qismi Jayxun deb atalgan.

Sirdaryoning hozirgi nomi - qachon paydo bo‘lgan? Rim tarixchisi Pliniy (I asr) daryoni skiflar (saklar) Sitis deydilar deb yozgan edi. Ba’zi olimlar (V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy, H.Hasanov) Silis - Sir so‘zining aynan o‘zginasi deb bilganlar. Demak, Sirdaryo qadim zamondanoq, o‘rta va yuqori oqimlarida Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan[4].

Sirdaryo so‘zining ma’nosi nima? Daryo nomi sir, ya’ni «rang, bo‘yoq», «Sariq daryo (loyqa suvli daryo), «Serob» (Sersuv), «Sirt-daryo» (tog‘ sirtlaridan, tepalaridan oqib keladigan daryo) degan ma’noni bildiradi deb sharhlovchilarni fikri noto‘g‘ri ekanligini professor H.Hasanov aytib o‘tgan edi. Bu azim daryo shu atroflarda yashagan Sar (silis - sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin.

3-sinf darsligining 133-sahifasida keltirilgan “Quyoshning bolalari” matni doirasida quyosh sistemasidagi sayyoralar haqida gap ketadi. Bu nomlarning tilshunoslikda kosmonimlar deb ataymiz (Zuhro, Mirrix, Yupiter, …). Issiq yoz kechalari chorpoyada yotib yulduzlarni tomosha qilmagan bola bo‘lmasa kerak. Buning gashti o‘zgacha… Bu mashg‘ulot Bolani kuzatuvchanlikka o‘rgatadi. O‘quvchilar kecha osmonga qararkanlar 1-navbatda oymomoni ko‘radilar, yorqin, o‘z joyida sobit turib yo‘l ko‘rsatuvchi Shimoliy qutb yulduzini ko‘radilar. Maktabga kelib “Tabiiy fanlar” darslarida kuzatgan osmon jismlarining ilmiy jihatlarini o‘rganadilar. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarida nomlarini tahlil qiladilar.

Insonning aqliy, g`oyaviy va badiiy faoliyati mahsuli bo`lgan narsalarning atoqli nomi ideonim (yun. idea – g`oya + onoma – atoqli ot)lar deb ataladi. Ideonimlarga insonning aqliy, mafkuraviy va badiiy sohalardagi faoliyatiga mansub narsa-buyumlarni anglatuvchi nomlar, chunonchi, artionimlar (san’at asarlari nomi), gemeronimlar (davriy matbuot nashrlari nomlari), xrononimlar (tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan davr nomlari), geortonimlar (bayramlar, muhim sanalar va tadbirlarning nomi), dokumentonimlar (hujjatlarning nomlari) va boshqalar kiradi.

Gemeronimlar (grekcha. гмера “gemero” – kun, sutka + оним – nom) – ommaviy matbuot nashrlari: gazeta, jurnal va xabarnomalarning atoqli maxsus nomlari “Uchqun”, “Saodat”, “Tong yulduzi”, “G`uncha” kabi.Biz tahlil uchun olgan darsligimizni ham kuzatadigan bo‘lsak, shu kabi bolalar nashrlari nomlarga qisqacha to‘xtab o‘tilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Umuman, inson narsalarga nom qo‘ymasdan yashay olmaydi. Dunyodagi hamma narsaning nomi bor. O‘simlik va hayvonlarning mahalliy nomlaridan tashqari ilmiy, lotincha nomlari ham mavjud. Har qanday o‘simlik va hayvonni lotincha nomiga qarab turli millat mutaxassislari darrov bilib oladilar. Demak, nomlar bir narsani ikkinchi

narsadan farq qilishga yordam beradi. Uning ahamiyatini boshlang‘ich ta’limdanoq tushuntirib borish shu jihatdan ham muhimdir.

Adabiyotlar:

1. H. Hasanov Geografik nomlar siri. T.O‘zbekiston nashriyoti. 1985.
2. S.Qorayev Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2002
3. E.M.Murzayev. “Ocherki toponimiki”. -M:1974;
4. Abdunazarova Xurshida “Gidronimlar va ularning nomlanish xususiyatlari (Jizzax viloyati misolida)”BMI. 2013. JDU
5. Qorayev.
S. Etnonimika -T.; 1979.
6. 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxnligi” darsligi 1-2-qismlar

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi tahlilga tortilgan bo‘lib, unda keltirilgan onomastik birliklar o‘rganib chiqilgan. Onomastikaning mikro va makroko‘lamlariga alohida to‘xtab o‘tilgan. Yurtimizdan oqib o‘tuvchi Amudaryo va Sirdaryolarning nomlari tarixi haqida ma’lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье был проанализирован учебник 3 класса «Родной язык и грамотность чтения», а также изучены представленные в нем ономастические единицы. Отдельно обсуждаются микро- и макромасштабы ономастики. Даны сведения об истории названий рек Амударо и Сырдарья, протекающих по территории нашей страны.

SUMMARY

In this article, the 3rd grade textbook «Native language and reading literacy» was analyzed, and the onomastic units presented in it were studied. The micro- and macro-scales of onomastics are discussed separately. Information on the history of the names of the Amudaro and Syrdarya rivers flowing through our country is given.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH ZARURATI

Qurbonova M.F.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, P.f.f.d(PhD)

Tayanch so’zlar: zamonaviy yondashuvlar, PISA, PIRLS, xalqaro baholash dastur talablari, o‘qishga munosabat, loyihalash faoliyati, mustaqil ishlash qobiliyati.

Ключевые слова: современная солнечная энергия, PISA, PIRLS, практические программы, отношение к учебе, плетевая активность, развитие самостоятельных требований.

Key words: modern solar, PISA, PIRLS, practical programs, attitude to study, lash activity, development of independent requirements.

Butun dunyo ta’lim tizimining PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim mazmunini belgilashi ta’limda yangicha yondashuvlar, o‘sish, o‘zgarish, yangilanish jarayonlarini paydo qilmoqda.

“Oyog‘i osmondan bo‘lgan sichqonlar”, “Tomdagi gullar”, “Dushman uchun pirog” kabi badiiy asarlar o‘quvchiga estetik zavq berish bilan birga, mantiqiy fikrlashga, kreativlikka undaydi, nostandart vaziyatlarda o‘z bilimidan foydalanishga yordam beradi. “Zumrad va Qimmat”, “Egrivoy va To‘g‘rivoy”, “Baxil va Saxiy”, “Yomonlikning jazosi” kabi didaktik ruhdagi asarlarda faqat tabiyaviy maqsadlar ilgari surilgan, zamonaviy talablarga mos keladigan kreativlik, ijodkorlik tamoyillari kabi zamonaviy mezonlar hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan yangi bilimlar va ishtimoiy ko‘nikmalar aks etmagan. PIRLS topshiriqlari uchun tanlangan matnlar ham o‘quvchini mustaqil tarzda yangi bilimlarni izlab topishga, kitobxon o‘quvchiga aylanishiga xizmat qiladi. Buning sababi matnlar mazmuni rang barang va takrorlanmas mazmunga egaligi bilan harakterlanadi.

PIRLS baholash dasturi uchun o‘qish savodxonligi jamiyat talab qiladigan yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ishlatish qobiliyati sifatida belgilanadi. Yosh o‘quvchilar turli xil matnlardan ma’no tuzishlari mumkin. Ular o‘qish uchun, maktabda va kundalik hayotda o‘quvchilar jamoalarida ishtirok etish uchun o‘qishadi [1].

PIRLS baholash dasturi o‘quvchilar o‘qish savodxonligining uch jihatiga qaratilgan:

o‘qish maqsadlari;

tushunish jarayonlari;
o‘qishga munosabat.
Tushunish jarayonining to‘rt turi PIRLS baholash dasturida baholanadi:
aniq bayon qilingan ma’lumotlarga e’tibor qaratish;
to‘g‘ri xulosalar chiqarish;
g‘oyalar va ma’lumotlarni sharhlash va birlashtirish;
matn tarkibi, til, matn elementlarini o‘rganish va baholash.

PIRLS baholash dasturi o‘qish maqsadlari va tushunish jarayonlarida o‘quvchi ishtirokini o‘rganadi. Biroq, ular bir-birlaridan yoki o‘quvchilar yashaydigan va o‘rganadigan matnlardan ajratilgan holda tahlil etilmaydi. O‘qish savodxonligi insoniyatning qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘qish sabablari bilan bevosita bog‘liq. Umumiy holda, bu sabablar shaxsiy qiziqish va zavq uchun o‘qish, jamiyatda ishtirok etish uchun o‘qish va bilim olish uchun o‘qish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Yosh kitobxonlar uchun bu jihatlar muhim ahamiyatga ega.[2]

PIRLS baholash dasturi baholash tizimi maktabda va undan tashqarida yosh o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘qishning aksariyat qismini hisobga olish uchun quydagilar asosiy maqsad sifatida belgilangan:

adabiy tajriba orttirish uchun;
yangi ma’lumotlardan xabardor bo‘lish uchun;
yangi bilimlardan foydalanish uchun.

Ushbu yoshda o‘qishning har bir turi muhim, PIRLS baholash dasturi har bir maqsadni baholaydigan materialning teng nisbatini o‘z ichiga oladi.

O‘qish savodxonligi butun umri davomida o‘qishni qo‘llab-quvvatlaydigan xatti-harakatlar, jarayonlar va munosabatlarni qamrab oladigan turli xil matnlardan ma’no yarata olish qobiliyatidir. Bunday xatti-harakatlar va munosabat savodli jamiyatda shaxsning imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishga yordam beradi [3].

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish fanini o‘qitishning asosiy maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shaklantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish fani o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga o‘quvchilarda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlashni shakllantiradi hamda o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Izlanishlar davomida Respublikamiz miqyosida PIRLS baholash dasturiga tayyorgarlik ko‘rayotgan tayanch maktablarning 4-sinflarida o‘qish savodxonligini oshirish yuzasidan quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

o‘quvchilar notanish matnga tayyor emasligi;

axborot matnlari bilan ishlash qobiliyati sustligi;

badiiy matnlarda mantiqiylik asosida savol va topshiriqlarga javob berishda qiynalishi;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan sinf rahbari yoki maktab xodimidan boshqa notanish shaxs tomonidan olingan nazorat ishlari ta’lim sifatini tushishiga ta’sir ko‘rsatishi;

o‘quvchilarda shoshqaloqlik, ikkilanish va chuqur hayajon tufayli savollarga javob bera olmaslik;

o‘qish savodxonligida tez va ifodali o‘qishga e’tiborni kuchaytirish orqali izohli va ongli o‘qish turiga e’tibor berilmaslik natijasida o‘quvchilarda matnlarni o‘qish va tushunish darajasi pasayganligi;

o‘qituvchi tomonidan nostandart vaziyatlarni tashkil etishda kreativ faoliyatni va o‘quvchining motivatsiyasini oshirishda nazariy bilimlarning yetishmasligi;

o‘quvchilarda loyihalash va mustaqil ishlash qobiliyatining shakllanmaganligi.

Pedagogik tadqiqotlarda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rishda aniqlangan mauammolarni bartaraf etish hamda yuqori reyting natijalariga erishish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. PIRLS topshiriqlaridagi matnlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshi, qiziqishi va bilish darajasini tahlil qilish orqali boshlang‘ich sinf 3-chorakdan boshlab mustaqil ishlar jarayonida quyidagi yondashuvlar asosida o‘qitish maqsadga muvofiq:

- rejalashtirish;
- amalga oshirish (sinab ko‘rish);
- birgalikda tahlil
- baholash;
- qayta ishlash (tatbiq etish) [4].

2. Mustaqil ishlar jarayonini “Teskari ta’lim”, “MIMM”, “Kouching” metodlari yordamida tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu metodlar o‘zlashtirilgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, o‘quvchilarda tezkor qaror qabul qilish va kreativ fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi va bu PIRLS talablariga muvofiq keladi.

3. O‘quvchilarning o‘qilgan asar bo‘yicha taassurotlari, o‘zlari chizgan rasm va boshqa mustaqil ishlari hamda erishgan yutuqlari asosida “o‘quvchi portfoliosi”ni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu o‘quvchilarda o‘zlari mustaqil bajargan ishlaridan zavqlangan holda mustaqil bajariladigan ishga nisbatan rag‘batini oshirishga, o‘z qobiliyatlarini anglashga xizmat qiladi [5].

PIRLS baholash dasturi talablari yangi bilimlar va ma’lumotlarni tushunish, tahlil qilishda o‘quvchi egallagan bilimlaridan foydalana olish qobiliyatiga e’tibor qaratiladi. O‘quv jarayoniga PIRLS baholash dasturi talablarini tatbiq qilish ta’lim mazmunini o‘zgartirishda, o‘quv jarayoni sifatini oshishiga, pedagogning

amaliy ishlarida samaradorlik oshishiga sabab bo‘ladi. PIRLS baholash dasturi tahlili natijalarida “Nimani o‘qitish kerak?”, “Nimaga o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?” savollariga yechim topiladi[6].

Zamonaviy ta’lim tizimida PIRLS baholash dasturi ta’limning sifatini ta’minlaydi. Aslida, ta’lim sifatini boshqarish o‘quv jarayonida ta’lim olish natijalari sifatida o‘zlashtirilishi zarur kompetensiyalarni aniqlash bilan boshlanadi. PIRLS baholash dasturi o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi faoliyati ham hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish hamda PIRLS baholash dasturida ijobiy natijaga erishish uchun xalqaro baholovchi dasturlarning maqsadi, vazifalari va talablariga mos o‘quv va didaktik materiallari, ta’lim texnologiyalarini o‘quvchilarning umumiy bilim saviyasi, o‘zlashtirishi va qiziqishlarini inobatga olib tanlash lozim. Tanlangan metodni amalga oshirishda bosqichma-bosqich tarzda, o‘quvchini faol hamkorlikka undovchi, guruhlar va yakka tartibda ishlay olish imkoniyatini oshirish uchun o‘qituvchidan katta mahorat va zamonaviy pedagogik bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Shundagina o‘quvchilarda tayanch hamda fanga oid kompetensiyalar samarali shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. Yakimanskaya, I.S. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii: problemi i puti modernizatsii. – Novosibirsk. 2013.- 159s.

2. Baker, L., Scher, D. (2002). Beginning readers’ motivation for reading in relation to parental beliefs and home reading experiences. Reading Psychology, 23(4), 239-269 c.

3. Qurbonova M.F. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2020. 3-maxsus son. – B. 29-33. (13.00.00 №17)

4. Qurbonova M.F. O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda kouching metodikasi // Maktab va hayot. – Toshkent, 2020. Maxsus son №1, – B. 8-10. (13.00.00 №4)

5.Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar // Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendiriw. – Nukus, 2021. – B. 112-116. (13.00.00 №20)

6.Mirzayeva S.T. (2023). Zamonaviy yondashuvlar asosida adabiyot darslarini tashkil etish. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 3(1), 130–134. https://doi.org/10.5281/zenodo.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim mazmunini belgilashi ta’limda yangicha yondashuvlar tahlili haqida fikr bildirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье выражена необходимость современного производства производственного контента PI, анализ нового создания образовательного контента в образовании на основе производственных программ типа PIRLS.

SUMMARY

This article discusses the need for modern production of production content by PI, analysis of new content in education based on production programs such as PIRLS.

TALABALARNING TINGLAB TUSHUNISH ANGLASH QOBILYATLARI RIVOJLANTIRISHDA YOZMA VA OG‘ZAKI TIL ADABIY ME’YORLARI

Kaziyeva T.T.
Andijon davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri p.f.f.d. dotsent

Tayanch so’zlar: talaba, kadr, texnologiya ta’lim, nutq, anglash, tushunish, jarayon, takomillashtirish, maktabgacha ta’lim.

Ключевые слова: ученик, персонал, технология обучения, речь, осмысление, понимание, процесс, совершенствование, дошкольное образование.

Key words: student, frame, technology education, speech, understanding, understanding, process, improvement, preschool education.

O‘zbek madaniyatining uyg‘onish davri bo‘lgan XIV-XV asrda shakllanib bo‘lgan tilimiz takomillashish pillapoyasiga qadam qo‘ydi. Bu davrda o‘zbek badiiy adabiyotining go‘zal va yuksak namunalari yaratildi. Talabalarda tinglab tushunish ko’nikmalarini rivojlantirishda yozma va og’zaki til adabiy meyorlari ham muhum hisoblanadi. Adabiy va jonli so‘zlashuv tili orasida farq yanada kuchaydi. Bu esa badiiy adabiyotning erkin ommalashuviga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi. SHuningdek, turkiy til tarixida turkiy bilan o‘zbek qipchoq lahjasi aralashuvidan iborat “qarluq-qipchoq qorishuvi” yuz berdi. Natijada davr lug‘atchilik amaliyotini yo‘lga qo‘yishni taqozo qildi. Turli lug‘atlar yaratish davr talabiga aylandi. Xususan, Alisher Navoiyning ulkan ilmiy va adabiy merosini o‘rganish, tahlil qilish – so‘z ma’nolariga, ularning qo‘llanishiga e’tibor berish, izohlash, lisoniy, ma’rifiy qiymatini ochish, asarlarning tarjimasi kabi masalalar bilan shug‘ullanish bu davr leksikografiyasining maqsad va vazifasi bo‘ldi.

a) Gazeta tilida morfologik me’yorning buzilishi quyidagi hollarda sodir bo‘lgan: 1. Kelishik shakllarini to‘g‘ri ishlata olmaslik. Ularni farqlamaslik, belgili va belgisiz holatlaridan noto‘g‘ri foydalanish, kelishiklarning o‘zaro sinonimiyasidan to‘g‘ri foydalanmaslik, kelishiklarni qo‘llashda shevaning ta’siri. 2. So‘z yasovchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘llash. 3. Fe’l nisbatlarin farqlamaslik. 4. Affiksal pleonazm. Ayrim jiddiy holatlarni ko‘zdan kechiraylik.

1. Ayrim so‘z yasovchi qo‘shimchalarni ishlatishda qoidalarga e’tibor biroz pastligi sezilmoqda. M.: Katta-katta janjallarni bartaraf qilishda, tunda

sandiraqlaydigan bekorchixo‘jalarni yo‘lga solishdi (XS., 25.10.01). Bu so‘zdagi -chi qo‘shimchasi ortiqcha.

2. Tushum va qaratqich kelishiklari qo‘shimchalarini ishlatishda kamchiliklar juda ko‘plab uchraydi. M.:Xayhot, kutilmagan fojia Georgiyni olamdan erta ko‘z yumishiga sabab bo‘ldi (O‘O., 23.12.99). Shulardan biri oliy ta’limni bakalavr va magistr bosqichlariga bo‘linishi-dir. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda har ikkala darajani mehnat faoliyati doirasi maxsus qonunlar bilan belgilab qo‘yilgan, ...xalqimiz asrlar osha e’zozlab kelayotgan milliy urf-odatlar, an’analarimiz, ularni yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati to‘g‘risida ma’ruza qildilar. ...boquvchisining yo‘qotgan, kam ta’minlangan oilalarga yanada ko‘proq moddiy yordam ko‘rsatiladi (Z.,20.11.01). Gazetaning bir sonidan olingan ushbu misollarda qaratqich kelishigi o‘rnida tushum, oxirgisida tushum o‘rnida qaratqich kelishigi qo‘shimchasi noto‘g‘ri ishlatilgan. Ushbu fanning puxta va mukammal o‘qitishda darsdan tashqari tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar, ko‘rik-tanlovlar, uchrashuvlarning ahamiyati ham katta bo‘lmoqda (XS.,8.11.02). Misolda tushum kelishigi qo‘shimchasi o‘rnida qaratqich kelishigi qo‘shimchasi ishlatilgan. Natijada uslubiy noravonlik hosil bo‘lgan.

Ushbu holatni yakuniy 30-turda ham kuzatildi (XS.,5.12.02). Gapda tushum kelishigi qo‘shimchasi ortiqcha qo‘llanilgan.

3. Fe’l nisbatlarini ishlatishda kamchiliklar ham mavjud. M.: Xo‘jalik dasht hududlarni surish uchun 1,2 million so‘mga nasos qurib bitkazildi (Z.,20.11.01). Fe’lning majhullik nisbati noto‘g‘ri ishlatilgan, jumlada uslubiy g‘alizlik hosil bo‘lgan (-il qo‘shimchasi ortiqcha).

Ma’lumki, namunaviy nutqqa qo‘yiladigan asosiy talab uning grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishidir. Bunda gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan foydalanish, gapda so‘z va qo‘shimchalar o‘rtasidagi munosabatlarning to‘g‘ri bo‘lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo‘laklarning bog‘lanishiga e’tibor berish, gapda so‘zlar tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilish muhimdir. Ammo nutqda har doim ham sintaktik normalarga amal qilinmayapti. Gazeta tilida ham sintaktik normaning buzilish hollarini kuzatish mumkin.

b) Gazeta tilida sintaktik me’yorbuzilishlari quyidagi hollarda yuz bergan: 1. Gapdagi mantiqiy bog‘lanishning buzilishi. 2. Jumla tuzishda so‘zlarni tegishli shaklda ishlata olmaslik. 3. Jumlalarni ortiqcha cho‘zib yuborish va gaplarning bog‘lanishidagi mazmuniy uzilishning sodir bo‘lishi. 4. Sodda gaplarni sun’iy ravishda qo‘shma gap tarkibiga birlashtirish. 5. Gapda so‘z tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilmaslik. 6. Jumla tuzishda faqat badiiy uslubga xos elementlardan foydalanish, fikrning aniq ifodalanishiga putur yetkazish.

Ayrim jiddiy holatlarni ko‘zdan kechiraylik. Bunday holatlar uslubiy me’yorning buzilishi ham hisoblanadi. Chunki gap tuzilishidagi aksariyat holatlar uslubiy g‘alizlikni yuzaga chiqargan.

1. Jumlalarni tuzishda so‘z tartibi, mazmunga salbiy ta’sir qiluvchi holatlarga yo‘l qo‘yilmoqda. Ayrim materiallar uslubiy kamchiliklarga to‘la, tahrirtalab holda nashr etilmoqda. M.: Kim g‘olib bo‘lar ekan? Bu savolga 28 oktyabr kuni nihoyasiga etadigan «So‘g‘diyona-Hamdo‘stlik kubogi - 2001» xalqaro musobaqasi natijalari yakun yasaydi (XS.,25.10.01). Aslida Savolga yakun yasalmaydi, javob beriladi.

Aslida fermer xo‘jaligi yaqindagina, ya’ni 2000 yilda tashkil etilgandi. Lekin xo‘jalik rahbari SH.Qurbonov-ning sa’y-harakatlari bois, qisqa fursatda salmoqli natijalarga erishildi. CHindan ham fermer xo‘jaliklari-ning a’zolari rahbaridan xursand. Qisqasi, «SHuhrat» medali sohibi SHokir Qurbonov yurtimiz iqtisodini rivojlantirishga a’zolari bilan hamkorlikda munosib ulush qo‘shib kelmoqda (Z., 20.11.01). Mazkur jumlalar tahrirtalab, ajratilgan o‘rinlardagi so‘zlar ortiqcha, oxirgi gapda fermer xo‘jaligi birikmasini ishlatish lozim.

Quyidagi matnda esa gapning boshi bilan oxiri o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish buzilgan, natijada uslubiy g‘aliz jumla hosil bo‘lgan: - Chunki viloyatdagi traktorlarning bir qismi dvigatel etishmasligidan mahsulotning xorijga eksport qilinishi va shu orqali yangi texnika olish juda katta yutuq. Bu dehqonga ham, muhandisga ham katta qulaylik yaratadi (XS.,25.10.01). Uchta gapning sun’iy ravishda birlashtirilganligini anchagina mulohazadan so‘ng bilib olish mumkin.

2. Badiiy til elementlari ortiqcha ishlatilgan jumlalar, matnlar miqdori kundan-kunga oshib bormoqda. Matbuot tilining jonliligi, ta’sirchanligini ta’minlashda badiiy uslub vositalarining ahamiyati katta. Lekin ularni gazeta tili talabiga mos holda, me’yorida ishlatmaslik balandparvozlik, sun’iylik, ortiqcha tavsif kabilarni vujudga keltiradi.

Quyidagi matnga e’tibor bering. Undagi o‘xshatish va tasviriy vositalar bir qarashda maqolaga ko‘rk bag‘ishlagandek, juda chiroyli badiiy ifoda tanlangan. Lekin aslida bu jumlalar maqolaga zo‘rma-zo‘raki tiqishtirilgan o‘ta badiiy, qisman mantiqsiz jumladan boshqa narsa emasligi aniq ko‘rinadi: G‘o‘za paykallari tugab, qovun-tarvuz ekilgan maydonga chiqdik. Bu maydonlarda ham bironta begona o‘t ko‘zga tashlanmaydi. Jo‘yaklardan bir hovuch ko‘z yoshiday miltirab suv oqib turibdi. Qovun va tarvuz palaklari qirq kokil sanamning sochlariday pushtaga tartib bilan tarab qo‘yilgan. Quyosh ufqqa qaymoq surtilgan shirmon nondek qizarib bota boshladi (XS., 1.09.98).

Ushbu satrlar qog‘ozga tushayotganida Navoiy viloyatidan bir mitti xushnasim esib qoldi... (O‘AS.,12.12.97). Bu holat ham gazeta tilida ortiqcha ishlatilgan badiiy til elementi sifatida ko‘rinadi.

Talabalarning tinglab tushunish anglash qobilyatlari nutq madaniyatini rivojlantirishda germenevtik ta’limotida muhim o’rin egallaydi.

Talabalarda tinish belgilarining o‘z o‘rnida ishlatilishi jumlaning mazmuni, ravonligi, aniqligiga katta ta’sir qiladi. Ularni noo‘rin tushirish yoki qo‘llash uslubiy noaniqlik va g‘alizlikka sabab bo‘lishi mumkin. Gazetalarda tinish

belgilarini qo‘llash bilan bog‘liq ayrim kamchiliklar uchraydi. Bunday holatlar, fikrimizcha, juz’iy nuqsonlar emas.

Talabalar bilan gazeta tilida punktuatsion me’yorga rioya qilmaslik hollari quyidagi o‘rinlarda yuz berganligidan quyida namunalar orqali ko’rib chiqamiz: 1. Bog‘langan qo‘shma gaplarda zidlovchi va qiyoslash munosabatini bildiruvchi bog‘lovchilardan so‘ng vergul qo‘yish (qoida bo‘yicha ushbu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi). 2. Uyushiq bo‘laklar va bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarda vergul ishlatmaslik. 3. Ko‘chirma gaplarda tinish belgilarini noto‘g‘ri qo‘llash. 4. Undov gaplarda tireni tushirib qoldirish, tire o‘rnida defis ishlatish. 5. So‘roq, buyruq va undov gaplar oxirida zarur tinish belgisini tushirib qoldirish (mas., sarlavhalarda tinish belgisi qo‘yilmagan). 6. Iboralarda qo‘shtirnoqni noto‘g‘ri qo‘llash. Misollarni ko‘zdan kechiraylik.

1. Gazetalarda modal so‘zlar va bog‘lovchilar bilan bog‘liq holda tinish belgilarini ishlatish qoidalari buzilayapti. M.: Obuna davri shubhasiz oson kechmadi (XS.,25.10.01), Ahvol ayniqsa Osiyo davlatlarida jiddiy bo‘ladi. Avvalo shu narsani ta’kidlab o‘tish lozimki bizning universitet Samarqand hududida magistraturaga eng ko‘p talaba qabul qiladigan oliy o‘quv yurti hisoblanadi. Bunda albatta, har yili Toshkentda o‘tkaziladigan xalqaro yarmarkalarning ham o‘rni bor. O‘ylaymanki kelajakda bu muammolar o‘z echimini topib izga tushib ketadi. (Z., 20.11.01). Ushbu misollarda, ajratilgan o‘rinlarda, vergul qo‘yish lozimligi to‘g‘risida imlo qoidsi mavjud. Lekin bu qoidaga deyarli barcha gazetalarda rioya etilmayapti.

Chunki, butun dunyoda e’tirof etilgan me’yorlar asnosi-da o‘tadigan saylov demokratiyaning asosiy talablaridan biridir (O‘O., 23.12.99), ya’ni, bu baloqazo tag-tomiri bilan yo‘qotilishi lozim (XS.,25.10.01). Bog‘lovchilardan keyin qo‘yilgan vergul ortiqcha.

2. Ushbu misolda tire emas, vergul qo‘yish lozim: Uy qushlari sayrashmasa - sovuq uzoq davom etadi (Z., 20.11.01). Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

3. Iborada qo‘shtirnoq noto‘g‘ri ishlatilgan: Tabiiyki, Buba Diop hozircha o‘zini «taroziga» solmoqda.Hozir esa ularning o‘yinlarini «jilovlaydigan» terma jamoa topilmayapti (XS.,18.06.02).Talabalarga tinglab tushunish anglash qobilyatlari nutq madaniyatini rivojlantirishda germenevtik ta’limotidan foydalangan gazeta tilida uslubiy me’yor muammolari bilan tanishtirish zarur.

Ko‘plab faktlar tilning boshqa normalarining buzilishi aksariyat holatlarda uslubiy norma bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Quyida Talabalarning tinglab tushunish anglashda uslubiy ravonlik, aniqlik va ixchamlikka ta’sir etuvchi ayrim holatlarni ko‘zdan kechiraylik.

1. Matbuot tili konkretlikni, har bir narsani o‘z nomi bilan atashni talab etadi. Ayrim holatlarda aniqlikka putur etayapti yoki chalkashlik holatlari yuz berayapti. M.: Respublikamizda «Xalq ta’limi to‘g‘risida» Qonun, Kadrlar

tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan keyin oliy va o‘rta maxsus ta’limni yanada rivojlantirish uchun keng ufqlar ochildi (Z.,20.11.01). Keyingi yillarda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan bir necha qarorlar qabul qilindi (XS.,1.09.98), Sessiya oralig‘ida O‘zbekiston Respublika-sining «Ta’lim to‘g‘risida»gi (? qonuni) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining Toshkent shahrida bajarilishi o‘rganildi (XS.,20.11.01). SHu erga oydinlik kiritilishi, muhrda firma nomi qaysi xalqaro tillarda ko‘rsatilishi «Til to‘g‘risida»gi Qonunimizdan kelib chiqib, aniq belgilab qo‘yilishi lozim, deb hisoblayman (XS.,11.12.03). Barchaga ma’lum bo‘lgan qonunlar nomini yozishda bir xillikka erishish shart, deb hisoblaymiz.

Joriy yilning o‘tgan davrida birgina Samarqand shahrining osori-atiqalari 260 million daromad keltirdi (Z.,20.11.01). Pul birligi yozilishi lozim. Jumlada mavhumlik yuz bergan.

...viloyat davlat pedagogika instituti rektori Ravshan Rahmonov-ning xabar qilishicha,... (O‘AS.,12. 12.97). Oliy o‘quv yurtining nomi to‘liq aks etishi lozim: Navoiy davlat pedagogika instituti tarzida.

2. Ayrim holatlarda fikr noto‘g‘ri ifodalangan. M.: Darvoqe, 30-tur uchrashuvlari yakunlangan bo‘lsa-da, kecha Farg‘onada hech qanday ahamiyat kasb etmagan “Neftchi” va “Paxtakor” jamoalari o‘rtasida kechiktirilgan tur uchrashuvi o‘tkazildi (XS.,5.12.02). Ajratilgan birikma noo‘rin ishlatilgan, jumlada g‘alizlik paydo bo‘lgan.

3. Ibora bilan birga aynan shu ma’noni ifodalovchi so‘zni yonma-yon ishlatish bilan uslubiy norma buzilgan holatlar mavjud. M.: Ko‘zlarimga ishonmay, chiptani qo‘limga olarkanman ishning xamirdan qil sug‘urgandek tez bitganiga hech ishongim kelmasdi (XS.,8.11.02).

4. So‘z ma’nosini hisobga olmaslik uslubiy norma buzilishiga sabab bo‘lgan. M.: SHuningdek, ma’ruzachi yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning ilgarigisidan keskin farqi xususida ham to‘xtalib o‘tdi (K.,26.12.01). Keskin so‘zini tubdan so‘zi bilan almashtirish lozim.

5. Uslubiy norma ayrim qo‘shimchalarni noto‘g‘ri ishlatish natijasida sodir bo‘lgan (Bu holat yuqorida ham qayd etilgan edi). Quyidagi matnda tushum va qaratqich kelishiklari ortiqcha ishlatilgan. M.: Terror murosasiz ko‘rinishda olib borilishi natijasida: - er yuzi ekologiyasida keskin buzilish holatlarini yuzaga keldi; - ishsizlikning kuchaydi; - er yuzida yangi urush o‘choqlarining paydo bo‘ldi; insoniyat barpo qilgan moddiy va ma’naviy boyliklarning vayron bo‘lmoqda (K.,26.12.01).

6. Ayrim texnik xatolar tufayli (buni gazeta xodimlari kompyuter bilan bog‘lashadi) matnlar palapartish, bir-biriga bog‘lanmagan holda bosilgan. M.: Uchinchi tosh - Nefrittosh esa Amir Temurning qabriga qo‘yilgan.

Masjid hovlisidagi marmar lavhada ushbu yozilgan: «Ulug‘ sulton, shavqatli hoqon, din homiysi va xanafiya mazhabining rivojkori ibn sulton, tinchlik va din panohkoriesa Amir Temurning qabriga qo‘yilgan).

Masjid hovlisidagi marmar lavhada ushbu yozilgan: «Ulug‘ sulton, shavqatli hoqon, din homiysi va xanafiya mazhabining rivojkori ibn sulton, tinchlik va din panohkori Ulug‘bek Ko‘ragon»..

Yana shu maqoladan misol: Tangriga shukrlar bo‘lsin-kim, yurtimiz uzra mustaqillik shabodalari (?) esib, istiqlol quyoshi nur socha boshlagach, ulug‘ bobomiz tomonidan bunyod etilgan bu betakror obida yana qayta ta’mirlanib, ma’naviy-madaniy merosimizning umrboqiy durdonalari qatoridan mustahkam joy oldi.Ulug‘ bobomiz tomonidan bunyod etilgan bu betakror obida yana qayta ta’mirlanib, ma’naviy-madaniy merosimizning umrboqiy durdonalari qatoridan mustahkam joy oldi (Z.,20.11.01).

7. Adabiy normaning bir necha holatlari buzilgan matnlar gazetalarda ko‘payib bormoqda. Masalan, ushbu matnda ortiqchalik uslubiy noravonlikka sabab bo‘lgan: Mahalla faoliyatini yanada takomillashtirishning zarur shartlaridan yana biri tadbirkorlikni rivojlantirish-dir. Bu mahallalarda, ayniqsa, qishloq sharoitida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni joylarning o‘zida echishga, ikkinchidan, ushbu yo‘l bizningcha, oz mablag‘ sarflab, ko‘pchilikni ish bilan ta’minlashga, uchinchidan, bu borada erishiladigan ijobiy natijalar nafaqat iqtisodiy islohotlar jarayonini, balki aholining turmush darajasini ham yaxshilashga (, ?) ayniqsa, ish bilan bandlik dasturini amalga oshirishga katta yordam beradi (D.,29.04.04).

Yuqorida adabiy me’yor buzilishlarining bir muncha jiddiy holatlariga misollar keltirdik. Bulardan tash-qari ayrim juz’iy kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilmoqda, ularga e’tiborsizlik matbuot tilining keyingi rivoji va yangi jurnalistlar avlodini tarbiyalashda, umumiy savodxonlik va yuqori nutq madaniyatiga erishishda salbiy o‘rin tutadi. Bu kamchiliklar orasida, ayniqsa, so‘z qo‘llash, jumla tuzish, gapning uslubiy ravonligiga e’tibor bermaslik hollari barcha gazetalarda u yoki bu darajada mavjud bo‘lib, ayrim gazetalarda ular kundan-kunga ko‘payib bormoqda. SHunday gazetalar borki, ularning ayrim sonlarida o‘nlab turli xarakterdagi kamchiliklar uchraydi. Ushbu holat ancha tashvish uyg‘otadi.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov bu kabi holatlarni keskin tanqid qiladi: «OAVda til masalalarida yo‘l qo‘yilayotgan bunday bepisandlikka, savodsiz-likka, loqaydlikka mutlaqo toqat qilib bo‘lmaydi. Negaki, yo‘l harakatini boshqarib turadigan Yo‘l harakati xavfsizligi bor, ammo ona tilimiz qoidalarining muttasil va bekamu ko‘st bajarilishini taftish qiladigan Davlat tili nazorati yo‘q. Til borasidagi o‘zboshimchaliklari va tartibbuzarliklari uchun javobgarlikka tortish Jinoyat majmuasida nazarda tutilmagan. SHuning uchun til boyligini asrash, uning qonun-qoidalariga qat’iy amal qilishni nazorat etish, tilimizning beqiyos go‘zalliklari-ni namoyish qilish to‘laligicha OAV zimmasiga tushadigan mas’uliyatdir. Bir vaqtlar ular bu mas’uliyatni bajarish-ga, birinchi

navbatda o‘zlarining tillari go‘zal, ma’nodor va benuqson bo‘lishiga juda katta e’tibor berar edilar, har haftada maxsus shu masalaga bag‘ishlangan ishlab chiqarish majlislari o‘tkazib turishardi, tilshunoslar va boshqa nufuzli odamlarni taklif qilib, ular yordamida o‘z faoliyatlarini tanqidiy taftishdan o‘tkazar edilar.

Matbuot tili o‘zbek tilining ajralmas bir tarmog‘i, uning ko‘zgusi, savodxonlik va nutq madaniyati namunasidir. Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar ba’zi gazetalarda ko‘proq, ayrimlarida kamroq uchraydi. Jurnalistlarning chinakam ijodkorligi, tanqidga xolis munosabatigina matbuot tilining namnuaviyligini saqlab qolishi, matbuot tili madaniyatining yuksak bo‘lishiga xizmat qilishi mumkin.

O‘zbek adabiy tilining qanchalik me’yorga keltirilganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o‘zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan sanalar ekan, bu muammo bilan shug‘ullanish ziyolilarning bundan keyingi hal qilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifasi bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018

2. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 1992. - 424 bet;

3. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.-288 b.

4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017,-456

5. Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. I қисм. 1985, 39-б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola talabalarning tinglab tushunish anglash qobilyatlari nutq madaniyatini rivojlantirishda germenevtik ta’limotidan foydalangan holda hozirgi zamon o‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, orfoepik hamda orfografik, imloviy me’yorlarining nisbatan mukammal shakllanganligi o‘zbek tili madaniyatining ulkan yutug‘lari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещаются огромные достижения культуры узбекского языка в развитии навыков понимания на слух, сравнительно совершенного формирования фонетических, лексических, грамматических, орфоэпических и орфографических, орфографических норм современного узбекского языка с использованием герменевтического учения в развитии культуры речи.

SUMMARY

This article highlights the enormous achievements of Uzbek culture in the relatively perfect formation of phonetic, lexical, grammatical, orthoepic and orthographic, spelling norms of the modern Uzbek language using hermeneutic teaching in the development of speech culture of students ‘ ability to comprehend listening.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING HAMKORLIKDAGI FAOLIYATI(ADABIYOTLAR TAHLILI)

Djurayeva D. N.
Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi «Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi» kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, jamoa muhiti, pedagoglar, kollobrativ, hamkrolikdagi faoliyat.
Ключевые слова: дошкольное образование, общественная среда, педагоги, совместная, кооперативная деятельность.
Key words: preschool education, community environment, pedagogues, collaborative, cooperative activities.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni jamoa muhitiga moslashuvi va o'zaro hamkorlik munosabatlarini ta'minlash orqali bola shaxsining rivojlanishida yuqori natijalarga erishish mumkin. Eng avvalo, agar bolalar guruhdagi tengdoshlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik o'rnatsa, mashg'ulot jarayonida bilish operatsiyalarini samarali bajaradi. Ikkinchidan, bolalar guruhdagi tengdoshlari bilan muvaffaqiyatli muloqot ularning so'z boyliklari jadal tarzda ortishiga ijobiy ta'sir etadi.

Rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Ushbu nuqati nazardan, bolalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish ularda jamoadagi munosabatlarda ijobiy xulq-atvor sifatlari va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim davr ekanligini anglatadi.

Bola shaxsida madaniyat olamini o'zlashtirishning interpsixik mexanizmiga va madaniy-tarixiy yondashuvga e'tibor qaratilishi tarbiyalanuvchilarda dunyo haqidagi obrazni shakllantirishda kattalar bilan birgalikdagi hamkorligi muhimligidan dalolat beradi.

T.I.Babaeva o'zining tadqiqotlarida bolalarning kognitiv, ijtimoiy-kommunikativ jihatdan rivojlanishida hamda ta'lim muammolarini samarali

hal qilishda bolalar-kattalarning birgalikdagi o‘yin hamkorligi tajribasi muhimligini ta’kidlaydi.

N.A.Korotkova kattalarning bolalar bilan hamkorligini quyidagicha izohlaydi: “...ta’lim jarayonida kattalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy shakli to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish emas, balki birgalikdagi hamkorlik faoliyati bo‘lishi kerak. Hamkorlik - bu kattalarning faoliyat jarayoniga teng ravishda qo‘shilishidir”.

Hamkorlikdagi faoliyat bolalarda bilishga, muloqotga hamda ijtimoiy xatti-harakatlar orientatsiyasining rivojlanib borishiga zamin yaratadi. Bunda kattalarning birgalikdagi faoliyati voqelikdagi ijtimoiy ahamiyatli tajribalarni eng maqbul shaklda o‘zlashtirishga imkon beradi. Lekin, shuni ham e’tiborga olish kerakki, didaktik topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalarning kattalar bilan hamkorligidan ko‘ra, o‘z tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyati natijasida o‘quv-bilishga oid topshiriqlarni tezroq hamda sifatliroq o‘zlashtirib boradilar.

J.Piajening tadqiqotlarida bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti o‘rtasidagi farqli jihatlar qiyoslab o‘rganilgan bo‘lib, unga ko‘ra tengdoshlari ichida bolalarning o‘zaro munosabatlari tenglik asosida qurilgan bo‘lsa, tarbiyachilar orasida esa, bunday munosabatlar tadrijiy, ierarxik tarzda tarkib topganligi bilan xususiyatlanadi.

Hamkorlik pedagogikasi – bu shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi yo‘lida muhim qadam hisoblangan o‘qitish va tarbiyalash jarayonidagi birgalikdagi faoliyatdir. Hamkorlik o‘zida birgalikdagi faoliyatga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalab, bularga muayyan maqsad yo‘lida, ishtirokchilarning birgalikda ya’ni hamkorlikda ishlashi, yaxlit jarayon alohida o‘zaro aloqador bo‘lgan qismlarga ajratilishi, shuningdek ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlanishi va boshqaralishini anglatadi. Jarayonda yakuniy natija ko‘zda tutiladi.

G.A.Sukermanning ta’kidlashicha, hamkorlikning mohiyati barcha ishtirokchilarning o‘zaro birgalikda harakatlanishida o‘z ifodasini topadi, u orqali individual va birgalikdagi faoliyat maqsadiga erishish imkoniyati yuzaga keladi.

M.Mead hamkorlikda umumiy maqsadga erishish ya’ni raqobatlashish jarayonida boshqalar erishishga intilayotgan natijani izlash va qo‘lga kiritish kuzatiladi, deb hisoblaydi. Biroq, bizningcha, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirokchilar o‘rtasida raqobatlashish munosabatlarining yuzaga kelishi ularning hamjihatlikdagi umumiy maqsadga erishish jarayonini murakkablashishiga olib keladi.

Shuningdek, hamkorlikning pedagogik mohiyati S.L.Rubinshteynning faoliyat va shaxs rivojlanishining aloqadorligi haqidagi psixologik qonuni asosida yanada aniq mohiyat kasb etadi.

Ch.Bernard (C.I.Barnard) “hamkorlik” va “raqobat” tushunchalarini shaxsning biologik jihati bilan bog‘liqlikda tushuntirishga harakat qilib, turli vaziyatlarda kishilarning imkoniyati biologik omillar sababli cheklangan, hamkorlik esa, uni bartaraf etishning samarali metodlari sifatida yuzaga chiqadi, degan xulosaga kelgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ularning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy ahamiyatli sifat hamda shaxs xususiyatlarini rivojlanishida, shuningdek, birgalikdagi faoliyat natijasida tarbiyaviy-pedagogik ta’sirning samaradorligi oshishiga olib keladi deb hisoblaymiz.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati, unda ta’lim-tarbiyaning mazmuni, tarbiyalanuvchi hamda tarbiyachilarga qo‘yiladigan talablar, ularning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati, bolalarda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirishga oid darslik, qo‘llanma hamda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Quyida ularga to‘xtalib o‘tamiz: B.R Djurayeva, H.M Tojiboyeva, G.M.Nazirovalarning “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” nomli o‘quv qo‘llanmasida maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini o‘ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari, bolalarning me’yoriy rivojlanish mezonlari, zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning mazmuni va tarbiyachi mahorati, bolalar ta’lim-tarbiyasida qo‘llaniladigan o‘yinlarning psixologik xususiyatlari, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan o‘tkaziladigan korreksion-rivojlantiruvchi o‘yin-mashg‘ulotlar hamda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning mazmuni tahlil etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O.U.Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, N.M.Qayumova va bosh. tomonidan nashr etilgan “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” nomli pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanmasida bog‘cha yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xos xususiyatlari, qonun-qoidalari va amalga oshirish vosita, metodlari yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur o‘quv qo‘llanmada tarbiyachining jamiyatda tutgan o‘rni hamda bog‘cha bolalari tarbiyasida oila va jamoatchilikning hamkorligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

N.X.Avliyakulov, N.N.Musaevalar tomonidan nashr etilgan “Maktabgacha ta`limni axborotlashtirish” mavzusidagi o‘quv qo‘llanmasida “Pedagogik texnologiya” kursining nazariy-metodologik asoslari, uning loyihalash

asoslari taqdim etilgan. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining nazariyasi va loyihalash tartibi keltirilgan holda masofaviy o‘qitishning texnologiyasi yoritib berilgan.

N.Sh Abdullayevaning “Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida maktabgacha ta’limning muqobil shakllari (lekotika, qisqa muddatli guruhlar, bolalarni rivojlantiruvchi o‘yin markazlari, oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari) variativ yondashuv tamoyillari asosida takomillashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

G.E.Djanpeisovaning pedagogika oliy ta’lim muassasalarining 5111800-Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanmasida maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar geometrik tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish usullari va metodlari yoritilgan.

M.N. Xushnazarovaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslari, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv texnologiyalari hamda pedagoglarning o‘z kasbiga nisbatan internal va eksternal motivlarini rivojlantirish imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan.

S.S.Raximovaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmuni andragogik yondashuv asosida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan tinglovchilarning mustaqil ishlari mazmuni va malaka oshirish kurslarining elektron formatdagi integrallashgan bazasi yaratilgan.

M.N.A’zamovaning “Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, hamkorlik muhitiga tayyorlashning asosiy parametrlari, bolalarni hamkorlikka o‘rgatish orqali ularni aqliy rivojlantirishning didaktik jihatlari yoritib berilgan.

I.I. Tuychiyevaning tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalash istiqbollari, bolalar jamoasining fikrlash faolligini rivojlantirishga doir xorij tajribalari o‘rganilgan.

Xulosa.

Shunday qilib, so‘nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar tomonidan maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilarining faoliyati mazmunini o‘rganilishiga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Biroq, mavjud manbalarning deyarli barchasida maktabgacha ta’limda boshqaruv jarayonini tashkil etish, ijtimoiy munosabatlar, hamkorlikdagi faoliyat kabi yo‘nalishlarda yuzaga keladigan muammolar, ularning turlari, oqibatlari va yechimlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan bo‘lsa-da, aynan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning mohiyatini o‘rganishga xizmat qiladigan maxsus adabiyotlar hamda pedagogik-psixologik tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Bu esa tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini ifodalash bilan birga muammoning yechimini topish orqali mavjud jarayon uchun amaliy ahamiyatga ega metodik ta’minotni shakllantirish imkoniyatini ham yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Хонхожаева M.R. Мактабгача ёшдаги болалар ижтимоийлашувида жамоанинг ўрни // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №5. 443 б. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalar-izhtimoiylashuvida-zhamoaning-rni (дата обращения: 01.03.2023).

2. Davletshin M.G., Sh.Do’stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To’ychiyeva .Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O’quv metodik qo’llanma. T.: 2004. 118 b.

3. Бабаева Т.И., Римашевская Л. С. Как развивать взаимоотношения и сотрудничество дошкольников в детском саду. Игровые ситуации, игры, этюды: учеб.-метод. пособие. СПб. : Детство-пресс, 2012. Стр. 5.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlik ta’limi bo‘yicha pedagogikada o‘rgangan olimlar, mutaxassislarning fikrlari tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются мнения ученых и специалистов, изучавших педагогику, о кооперативном обучении в системе дошкольного образования.

SUMMARY

The article analyzes the opinions of scientists and experts who studied pedagogy on cooperative education in the preschool education system.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KASB TUSHUNCHALARNING SHAKLLANISHI

Xafizova N. X.
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: kontseptsiyani shakllantirish, kasblar, boshlang'ich sinf o'quvchilari, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-madaniy ta'sirlar, ta'lim strategiyalari.

Ключевые слова: формирование представлений, профессии, учащиеся начальных классов, когнитивное развитие, социокультурные влияния, образовательные стратегии.

Key words: concept formation, professions, primary class students, cognitive development, socio-cultural influences, education strategies.

Kasblar kontseptsiyasi insoniyat jamiyatining asosiy jihati bo'lib, individual intilishlar, kasb tanlash va jamiyat tuzilmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'limning dastlabki yillari, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda, bolalarning turli kasblar haqidagi tushunchalarini rivojlantirish uchun hal qiluvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu shakllanish yillarida kasb-hunarga oid tushunchalarning shakllanishi umr bo'yi o'rganish, izlanish va qaror qabul qilish sayohati uchun zamin yaratadi. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasblar haqidagi tushunchalarini qanday rivojlantirishi, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-madaniy ta'sirlar va ta'lim strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishning murakkab jarayonini o'rganadi.

Texnologik taraqqiyot va o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy landshaftlar kasbiy landshaftni qayta belgilab beradigan tez rivojlanayotgan dunyoda yoshlar ongini har tomonlama va moslasha oladigan kasblar tushunchasi bilan qurollantirish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z ta'lim sayohatiga otlanar ekan, ular yangi nihol kabi bo'lib, atrofdagi ma'lumotlarni o'zlashtiradi va dunyo haqidagi bilimlarini quradi. Kasblar bu dunyoning ajralmas tarkibiy qismidir va turli xil rollar to'plamiga erta kirish bolalarga o'z ufqlarini kengaytirishga va kengroq nuqtai nazarni rivojlantirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanishi ularning tushunchalarini shakllantirish jarayonining asosini tashkil qiladi. Jan Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga asoslanib, biz bolalar yangi ma'lumotlarni tushunish uchun atrof-muhit bilan faol ishtirok etishlarini tan

olamiz. Turli mutaxassislar va ularning rollari bilan bog'liq noyob atributlar bilan uchrashganda, bolalar bu tajribalarni mavjud kognitiv doiralarida o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, ular yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olish uchun aqliy tuzilmalarini takomillashtirish, turar joy jarayoni bilan shug'ullanadilar. Assimilyatsiya va turar joy o'rtasidagi bu o'zaro ta'sir asta-sekin ularning kasblari haqidagi tushunchalarining boyligi va murakkabligini shakllantiradi.

Ijtimoiy-madaniy ta'sirlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasblarni idrok etishlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oilalar, ommaviy axborot vositalari va jamiyat me'yorlari birgalikda bolalarning turli martaba bilan bog'liq munosabatlari, qadriyatlari va umidlarini shakllantirishga hissa qo'shadilar. O'z oilasida yoki ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan namunalar yosh ongni ilhomlantirish va ularning intilishlarini shakllantirish qudratiga ega. Biroq, bu ta'sirlar, shuningdek, muayyan kasblar bilan bog'liq stereotiplar va noto'g'ri qarashlarni davom ettirishi mumkin, bu esa bolalarning kasb tanlash doirasini cheklashi mumkin. Pedagoglar va manfaatdor tomonlar sifatida kasblarning muvozanatli va xilma-xil tasvirini ta'minlash, har bir bola o'zi xohlagan rolda o'zini tasavvur qila oladigan muhitni yaratish juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda qabul qilingan ta'lim strategiyalari kasbga oid tushunchalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Amaliy tajribalar, masalan, ish joylariga sayohatlar va mutaxassislar bilan o'zaro aloqalar nazariy bilimlar va real hayotdagi ilovalar o'rtasidagi tafovutni yo'q qiladi. Sinfdagi muhokamalar va amaliy loyihalar kabi interfaol ta'lim usullari tanqidiy fikrlash va qiziqishni uyg'otadi, kasblarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Texnologiyani ta'limga integratsiyalash turli kasblarni namoyish etuvchi o'quv videolaridan tortib, o'quvchilarga turli kasblarning nozik tomonlarini o'rganish imkonini beruvchi onlayn platformalargacha bo'lgan kengroq manbalarga eshiklarni ochadi.

Kognitiv rivojlanish va kontseptsiyani shakllantirish:

Kognitiv rivojlanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida tushunchalarni, jumladan, kasblarga oid tushunchalarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Jan Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning atrofdagi dunyo haqidagi tushunchalarini qanday shakllantirishlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Piagetning fikriga ko'ra, bolalar kognitiv rivojlanishning alohida bosqichlaridan o'tadilar, ularning har biri o'ziga xos fikrlash, fikrlash va tushunish usullari bilan ajralib turadi.

Aniq operatsion bosqich (7 yoshdan 11 yoshgacha): Bolalar aniq operatsion bosqichga o'tgan sari, ular mantiqiy va tartibli fikrlashni rivojlantiradilar. Endi ular saqlanish kontseptsiyasini tushunishlari, teskarilikni tushunishlari

va aniq muammolarni hal qilish bilan shug'ullanishlari mumkin. Bu bosqich kasbga oid yanada nozik tushunchalarni shakllantirish uchun qulay zamin yaratadi. Bolalar turli kasblarning o'zaro bog'liq tomonlarini tushunish uchun ko'proq moslashtirilgan, chunki turli rollar o'ziga xos mas'uliyat, ko'nikma va funktsiyalar bilan birga keladi. Turli ish joylari haqida sinfda muhokama qilish yoki ish joylariga tashrif buyurish kabi aniq tajribalar o'quvchilarga kasbiy dunyoda xilma-xillikni tushunishlarini chuqurlashtirish imkonini beradi.

Rasmiy operatsion bosqich (11 yosh va undan katta): Rasmiy operatsion bosqich mavhum fikrlash va faraziy fikrlashga o'tishni anglatadi. Rasmiy operatsion fikrlashning rivojlanishi odatda o'smirlik davrida sodir bo'lsa, mavhum fikrlash elementlari kechki boshlang'ich sinf o'quvchilarida paydo bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichda o'quvchilar turli martaba yo'llarining oqibatlarini kengroq miqyosda hisobga olgan holda, kasblar bo'yicha yanada murakkab tahlil va mulohaza yuritishlari mumkin. Ular, shuningdek, zamonaviy mehnat bozorida sodir bo'layotgan tez o'zgarishlarni hisobga olgan holda, turli kasblar bo'yicha kelajakdagi potentsial o'zgarishlarni tasavvur qilishlari mumkin.

Kontseptsiyani shakllantirish jarayoni chiziqli emas va bosqichlar orasidagi o'zaro bog'liqlik davrlarini o'z ichiga olishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha kognitiv rivojlanishning dinamik va murakkab tabiatini aks ettiruvchi bir vaqtning o'zida bir nechta bosqichlarning xususiyatlarini namoyish etadilar. Bundan tashqari, kasblar haqidagi tushunchalarning shakllanishiga tengdoshlar, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar va real hayot tajribasi ta'sir qiladi. Tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va turli kasblar bo'yicha hamkorlikda muhokama qilishni rag'batlantiradigan sinf mashg'ulotlari kasblarni intuitiv tushunishdan aniqroq tushunishga o'tishni tezlashtirishi mumkin.

Kasblar haqidagi tushunchalarning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy ta'sirlar:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasblar haqidagi tushunchalarning rivojlanishi ijtimoiy-madaniy ta'sirlar bilan sezilarli darajada shakllanadi. Bu ta'sirlar oila muhitini, ijtimoiy me'yorlarni, ommaviy axborot vositalari vakillarini va bolalar suvga cho'mgan kengroq madaniy kontekstni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy omillarning ta'sirini tan olish yosh o'quvchilarda kasblar haqida har tomonlama va xolis tushunchani shakllantirish uchun juda muhimdir.

Oila ta'siri: Oilalar bolalarga qadriyatlar, e'tiqodlar va munosabatlarni uzatuvchi asosiy sotsializatsiya agenti bo'lib xizmat qiladi. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda asosiy

rol o'ynaydi. Suhbatlar, ota-onalarning kasbiy faoliyatini kuzatish, turli ishda ishlaydigan oila a'zolari bilan muloqot qilish bolalarning kasblarni dastlabki tushunishiga yordam beradi. Ijobiy oila namunalari bolalarni ilhomlantirishi va ularning dunyoqarashini kengaytirishi mumkin, oiladagi salbiy tasavvurlar yoki noto'g'ri qarashlar bolalarning muayyan kasblarga bo'lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin.

Ijtimoiy me'yorlar va stereotiplar: ijtimoiy normalar va stereotiplar bolalarning kasblar haqidagi tushunchalariga ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi. Madaniy talablar va gender rollari bolalar o'zlari uchun mos yoki egallashga qodir deb hisoblaydigan kasb turlariga ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, ba'zi kasblar bir jinsga nisbatan ko'proq mos deb qabul qilinishi mumkin, bu esa martaba variantlari haqida noto'g'ri tasavvurga olib keladi. Ushbu stereotiplarga qarshi turish va bolalarni turli xil kasblarga jalb qilish, ularning potentsialini jamiyatdagi noto'g'ri qarashlar asosida cheklashning oldini olish juda muhimdir.

Ommaviy axborot vositalari vakilligi: OAV, jumladan teleko'rsatuvlar, filmlar, kitoblar va onlayn platformalar bolalarning kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda kuchli rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari ko'pincha ma'lum martabalarni jozibali yoki bo'rttirilgan tarzda tasvirlaydi, boshqalari noto'g'ri yoki noto'g'ri ko'rsatilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarida tor doiradagi kasblarga duchor bo'lgan bolalarda bu martaba haqida noto'g'ri yoki haqiqiy bo'lmagan umidlar paydo bo'lishi mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar tanqidiy media savodxonligini rag'batlantirishlari, bolalarga to'g'ri tasvirlar va ommaviy axborot vositalari tomonidan yaratilgan stereotiplarni farqlashiga yordam berishlari kerak.

Madaniy kontekst: Madaniy kontekst jamiyatdagi turli kasblarga e'tibor qaratishga ta'sir qiladi. Ba'zi madaniyatlarda ma'lum martaba yuqori baholanishi va hurmat qilinishi mumkin, boshqalarida esa ular kamroq ta'kidlanishi mumkin. Madaniy qadriyatlar va an'analar bolalarning maqbul yoki maqbul deb hisoblagan kasb tanlashiga ta'sir qilishi mumkin. Madaniy xilma-xillikni kasblar haqidagi munozaralarga integratsiyalash o'quvchilarga turli jamiyatlar va kontekstlarda mavjud bo'lgan rollarning xilma-xilligini baholash imkonini beradi.

Ijtimoiy-madaniy ta'sirlarni bartaraf etish bo'yicha ta'lim strategiyalari: kasblar haqidagi tushunchalarning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy ta'sirlarning mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini yumshatishda o'qituvchilar va ota-onalar muhim rol o'ynaydi.

Turli rol modellari: O'quvchilar bilan o'z tajribalarini baham ko'rish uchun turli kasblardan turli xil mehmon ma'ruzachilarni taklif qiling. Bu bolalarga har xil kelib chiqishi namunalarini ochib beradi va ularga har kim istalgan martaba bilan shug'ullanishi mumkinligini ko'rishga yordam beradi.

Inklyuziv o'quv rejasi: o'quv materiallari, kitoblar va tadbirlar keng doiradagi kasblar va turli shaxslarni tasvirlashiga ishonch hosil qiling. Bu stereotiplarga qarshi turishi va bolalarning dunyoqarashini kengaytirishi mumkin.

Tanqidiy media savodxonligi: bolalarga kasblarning ommaviy axborot vositalari vakillarini tanqidiy baholashni o'rgating. Ular bilan qanday qilib ommaviy axborot vositalari ba'zan martaba haqida noto'g'ri yoki cheklangan nuqtai nazarni taqdim etishi mumkinligini muhokama qiling.

Ochiq munozaralar: kasblar, stereotiplar va noto'g'ri qarashlar haqida ochiq muhokamalarni rag'batlantiring. O'quvchilarga savollar berishlari va turli kasblar haqida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishlari uchun xavfsiz joy yarating.

Ishga qabul qilish: turli kasblar bilan bog'liq amaliy tajribalar, sayohatlar va interaktiv tadbirlar uchun imkoniyatlarni taklif etish ham bu jarayonning asoslaridan biri hisoblanadi. Bu bolalarga boshqalardan ko'rgan yoki eshitishi mumkin bo'lgan narsalardan tashqari, yanada aniqroq tarzda martaba bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Xulosa:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasblar haqidagi tushunchalarni shakllantirish dinamik va ko'p qirrali jarayon bo'lib, ularning intilishlari, kasb tanlashlari va dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'lim yosh o'quvchilarning kasbiy dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantiradigan tushuncha urug'lari ekiladigan muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-madaniy ta'sirlar va samarali ta'lim strategiyalarining o'zaro ta'siri orqali boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni esdalik bilimidan tashqariga chiqadigan poydevor bilan jihozlaydi.

Kognitiv rivojlanish nazariyalari, xususan, Jan Piagetning asoslari kontseptsiyani shakllantirishning progressiv xususiyatini ta'kidlaydi. O'quvchilar intuitiv idroklardan aniqroq tushunchalarga o'tishlari bilan o'qituvchilar ularni izlanish va kashfiyot sayohati orqali yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ijtimoiy-madaniy ta'sirlar, oila dinamikasidan tortib, ommaviy axborot vositalari vakillariga qadar, o'quvchilarning kasblarni ko'rish linzalarini shakllantiradi. Noto'g'ri qarashlar, stereotiplar va cheklovlarni tan olish va hal qilish inklyuziv va xolis tushunishni rivojlantirishda muhim qadamdir.

Ta'lim strategiyalari boshlang'ich ta'limning ta'sirini yanada kuchaytiradi. Dala sayohatlari, interfaol tadbirlar va texnologiya integratsiyasi o'quvchilarga

nazariy bilimlarga hayot bag'ishlaydigan aniq tajribalar beradi. Ushbu strategiyalar qiziqish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa o'quvchilarga professional landshaftning murakkabliklarida harakat qilish imkonini beradi.

Biroq, gender tarafkashliklari, cheklangan ta'sir qilish va rivojlanayotgan kasblar kabi muammolarni tan olish va hal qilish kerak. Turli xillikni qo'llab-quvvatlash, inklyuziv resurslar bilan ta'minlash va kasblarning o'zgaruvchan tabiatiga moslashish orqali o'qituvchilar ushbu qiyinchiliklarni engib o'tishlari va yanada adolatli ta'lim muhitini yaratishlari mumkin. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limning kontseptsiyani shakllantirishga uzoq muddatli ta'sirini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. O'quvchilarning kasblar haqidagi dastlabki taassurotlari ular o'z ilmiy yo'llarida muvaffaqiyat qozonish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosaqilibaytishmumkinki,kasblarhaqidagitushunchalarnishakllantirishda boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyosdir. Bu nafaqat shaxslarning martaba traektoriyasini, balki ularning munosabatlari, qadriyatlari va jamiyatga qo'shgan hissasini ham shakllantiradi. Kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-madaniy xabardorlik, samarali pedagogik strategiyalar va muammolarga javob berishni o'z ichiga olgan yaxlit tushunchani rivojlantirish orqali o'qituvchilar va manfaatdor tomonlar chidamlilik, ochiq fikrlilik bilan doimiy rivojlanayotgan professional landshaftda harakat qilish uchun jihozlangan avlodga yo'l ochadilar. , va maqsad tuyg'usi.

Adabiyotlar:

1. Piaget, J. (1967). The Psychology of Intelligence. Routledge.

2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

3. National Center for Education Statistics. (2020). Digest of Education Statistics, 2019 (NCES 2020-009). U.S. Department of Education.

4. Thompson, C., & Johnson, M. (2015). Early Childhood Education and the Development of Occupational Aspirations. Journal of Educational Psychology, 107(2), 295-310.

5. UNESCO. (2015). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. UNESCO.

6. Smith, A. B., & Brown, C. D. (2018). Role of Family Influence in Shaping Children's Perceptions of Professions. Early Childhood Research Quarterly, 32, 128-137.

7. Johnson, E. R., & Martinez, K. (2019). Integrating Technology in Primary Education: Benefits and Challenges. Journal of Educational Technology, 25(3), 156-170.

8. Davis, J., & Turner, M. (2021). Diversity in Careers: Addressing Gender Stereotypes through Education. International Journal of Gender and Education, 43(1), 45-62.

РЕЗЮМЕ

Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasblar haqidagi tushunchalarning shakllanishi jarayoni o'rganiladi. Kasblar shaxsning intilishlari, kasb tanlashi va kelajakdagi intilishlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'limning dastlabki bosqichlari, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda,

turli kasblar to'g'risida asosiy tushunchalarni shakllantirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada yosh o'quvchilarda kasbga oid tushunchalarni shakllantirishga yordam beradigan kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-madaniy ta'sirlar va ta'lim strategiyalari ko'rib chiqiladi. Kognitiv psixologiya, ta'lim nazariyasi va rivojlanish psixologiyasining g'oyalari ushbu tushunchalar qanday o'rnatilishi va tarbiyalanishi haqida har tomonlama tushunishni ta'minlash uchun birlashtirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ham rasmiy ta'lim, ham ijtimoiy o'zaro munosabatlarni o'z ichiga olgan yaxlit yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbga oid tushunchalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

РЕЗЮМЕ

В данной научной статье рассматривается процесс формирования представлений о профессиях у учащихся начальной школы. Карьера играет важную роль в формировании стремлений человека, выборе карьеры и будущих устремлениях. Ранние этапы обучения, особенно в начальных классах, имеют большое значение для формирования основных представлений о различных профессиях. В этой статье рассматривается когнитивное развитие, социокультурные влияния и стратегии обучения, которые помогают молодым студентам развивать концепции карьеры. Идеи когнитивной психологии, теории образования и психологии развития интегрированы, чтобы обеспечить всестороннее понимание того, как эти концепции устанавливаются и развиваются. Результаты показывают, что целостный подход, включающий как формальное образование, так и социальное взаимодействие, оказывает значительное влияние на развитие профессиональных концепций у учащихся начальной школы.

SUMMARY

This scientific article explores the process of the formation of concepts of professions in primary class students. Professions play a pivotal role in shaping an individual's aspirations, career choices, and future endeavors. The early stages of education, particularly in primary classes, are crucial for developing a foundational understanding of various professions. This article examines the cognitive development, socio-cultural influences, and educational strategies that contribute to the formation of profession-related concepts in young learners. Insights from cognitive psychology, education theory, and developmental psychology are integrated to provide a comprehensive understanding of how these concepts are established and nurtured. The findings suggest that a holistic approach, encompassing both formal education and social interactions, greatly influences the development of profession-related concepts in primary class students.

IJTIMOIY-HISSIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNING TAHLILI(MAKTABGACHA TA’LIM MISOLIDA)

Rashidova Z.
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
3- bosqich tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: ko‘nikmalar, xorijiy tajriba, ijtimoiylik,hissiyotlar.
Ключевые слова: навыки, зарубежный опыт, социальность, эмоции.
Key words: skills, foreign experience, sociality, emotions.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning meyor va qoidalari haqidagi turli bilimlarni, jamiyatga ko‘nikishiga yordam beruvchi turli ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalikda juda jadal sur’atlar bilan amalga oshadi. Ma’lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o‘z aksini topuvchi nihoyatda ko‘p bilimlarni oladi.

Ijtimoiy va hissiy rivojlanish o’z-o’zini ifoda etish, his-tuyg’ularni boshqarish, o’zi va atrof-muhit bilan uyg’un bo’lish qobiliyatlari sifatida qaraladi. Ushbu rivojlanish bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir ko’rsatadi .Bolalarning ijtimoiylashuvi hamda hissiyotlarini namoyon qilishlari bevosita tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti orqali namoyon qilinadi. 6-7 yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o’zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan ehtiyoj kuchayib boradi. Faoliyatda (o’yin, mahsuldor faoliyatda) tengdosh - sherigi sifatida qatnashadi. Tengdoshlari bilan muloqot davrida bolalar o’yinda va boshqa faoliyatda ma’lumotlar, rejalar, vazifalarning taqsimlanishi asosida birgalikda faoliyat olib borishga intiladi. Yoshga qarab muloqot bolaning hissiyotini, o’zaro tushunishini, tengdoshlariga nisbatan hissiy yaqinlikni tasvirlay boshlaydi. 7 yoshga borib bola tengdoshining shaxsiy xususiyatlarini ajrata boshlaydi (“qiziqarli o’yinlarni o’ylab topadi”, “ yaxshi yuguradi”, “ juda yaxshi bola” va boshqalar).

Bola ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati, uning jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish meyorlariga baho berishi va nazorat qilishining

qiyinligidadir. U bularni faqat o‘zlashtirib boradi, shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarning (psixolog, shifokor, pedagog va shu kabilar) ta’siri katta bo‘lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o‘zlashtirishlari, ularni hayotda qo‘llashga intilishlari aynan ularga bog‘liqdir.

Ijtimoiylashuv tushunchasi ilk bor 1940 yillar oxiri 1950 yillar boshlarida amerikalik psixolog hamda sotsiologlar A. Park, D. Dollerd, Dj. Kolman, A. Banduraning ishlarida alohida yo‘nalish sifatida talqin qilingan

Hissiyotlar insonning doimiy hamrohi bo‘lib, uning barcha fikrlari va harakatlariga ta’sir qiladi. Hissiyotlar insonni ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan asoslarda tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega: insoniylik va sezgirlik. Maktabgacha yosh davrida hissiyotlar bolaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular haqiqatni tushunishga va unga javob berishga yordam beradi. Xulq-atvorda namoyon bo‘lib, ular kattalarga bola nimani yoqtirishi, nimani yoqtirmasligi, nimadan xafa bo‘lishi haqida ma’lumot beradi. Bola o‘situsga kiradi. Emotsional jihatdan rivojlangan bola egotsentrizmni osonroq yengib o‘tadi, o‘quv jarayoniga tezroq kirishadi, faoliyatda ham o‘zini muvaffaqiyatliroq namoyon qiladi.

Amerikalik olimlar Pianta, R. C., Cox, M. J., & Snow, K. L. o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy va hissiy munosabatlar bolalarni hayotga tayyorlashini, oila a’zolari bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatishda, bolalar o‘zlarini kelajakda qanday ko‘rishi, mustaqil dunyoga qadam qo‘yishda xavfsiz his qilishi kabi masalalarni o‘rganishga urg‘u qaratilgan. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari ko’pincha o’zining shaxsiy axloqiy sifatlarini baholay va bu sifatlarni anglay boshlaydilar, hissiy holatlarni ajrata boshlaydilar. Mustaqilligi oshadi, bolalar tomonidan baholash va o’z-o’zini baholashga nisbatan tanqid ortadi. Bolalar birinchi navbat tengdoshlarining va o’z- o’zlarining sifatlar va xususiyatlarni baholaydilar va shunga qarab o’zlarining guruhdagi mavqeilarini aniqlab olishlari mumkin.

M.J.Elias, J.E.Zins, K.S.Weissberg, M.T.Frey, N.M.Greenberg,

R. Kessler, T. P. Shriver tomonidan 1994 yilda tashkil etilgan, hozirda Chikagodagi Illinoys universitetining psixologiya bo‘limida joylashgan, ijtimoiy va emotsional bilim olish Akademiyasi (AIEBH) da hissiy ta’lim olish, ijtimoiy bilim olish, emotsional holat, nizolarni bartarf etish yo‘llari chuqur asoslab berilgan.

6-7 yoshdagi bolalarda muloqotga kirishish malakasi yuqori bo’ladi. Bolalar tomonidan beriladigan taklif, iltimos, baholanish ancha asoslangan holda ifodalanadi. 7 yoshdagi bolalar hayotida tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ehtiyoji kuchayadi. Xulq- atvor meyorlari va qonun - qoidalarni egallash natijasida shakllangan etik meyorlarni aks ettiradi va bu meyorlarni faqat o’zigagina

nisbatan ishlatmaydi. Bola shaxsi mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda shakllana boshlaydi.

Ulardan aynan o'z-o'zini anglash (o'zining va boshqa odamning his-tuyg'ularini tan olish), o'zini-o'zi boshqarish, ijtimoiy tan olinishi (tushunish va empatiya), mas'uliyatli qarorlar (axloqiy va konstruktiv), shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorda faol tanlov) asosiy rivojlanish mezonlari hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuv ijtimoiy va hissiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biridir. Ijtimoiy moslashuv jarayoni-bu shaxslarning ma'lum bir guruhga mansublik hissi va qadriyatlarni o'zaro tan olish jarayoni. Bu jarayon inson tug'ilgandan boshlab umri davomida davom etadi, ammo eng senzitiv davr bu maktabgacha yosh davri.

L.S.Vigotskiy shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muloqot jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda dastavval muloqot asosiy vosita, so'ngra esa xulq-atvor turadi. Chunki inson yakka qolgan paytda ham muloqot funksiyasini o'zida saqlaydi.

Maktabgacha yosh davrida bolalar boshqa bolalarni o'zlariga nisbatan tabiiy baholay boshlaydilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z- o'zlarini baholashlari kichik maktabgacha yoshdagi bolalarnikidek yuqori hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning o'z- o'zini baholashi, o'zi to'g'risidagi fikrlari to'liq, asoslangan holda kechadi. Bola o'zini, o'zining kattalar va tengdoshlari o'rtasidagi mavqeini, atrofdagilarga bo'lgan munosabatini anglay boshlaydi.

Kattalarning ta'siri ostida bolada vaziyatdan tashqari muloqotga kirishish kabi yangi shakllari yuzaga keladiki, bu sharoitda bola "odamlar dunyosiga" moslashadi. Bola insonni o'zi yashab turgan jamiyat vakili sifatida anglay boshlaydi, ijtimoiy hayotda o'zaro bog'liqlikni bila boshlaydi. Muloqot qilishning bunday shakli o'yinning shakllanishiga bog'liq, chunki o'ynash davrida bolalarni insonlarning o'zaro munosabatlari, jamiyatdagi o'zlarini tutishlari qiziqtiradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kattalarning samimiy diqqatiga va hamkorlikda ish olib borishga intilmaydi, balki kattalar bolalarni hurmat qilishlarini, o'zaro tushunishlarini xohlaydi.

V.M.Bexterevning boy merosida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muloqot mavzusi ijtimoiy psixologik nazariya jihatidan o'rganilgandir. Uning qarashlarida insonlarning o'zaro ta'sir etishlari muhim muammo sifatida talqin etiladi. V.M.Bexterev ijtimoiy hayotda muloqotning rolini tavsiflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagilari bilan muloqoti qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga

oshadi. V.M.Bexterev muloqotning ijtimoiy roli va funksiyasini tahlil etishda uning ko'rinishlari bo'lmish taqlid va ta'sirlanish ahamiyatiga to'xtaladi.

Bolaning ijtimoiy tajribasi, atrofdagilarga nisbatan o'zaro munosabati ortadi. Bu narsa bolaning o'zini, o'z mavqeini va kamchiliklarini anglashga olib keladi. Ilk va kichik yoshdagi bolalardan farqli ravishda katta maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini kattalarning baholanishi bilan belgilaydilar, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil ravishda o'zlari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar va o'zlarini, o'z holatlarini va tashqi xususiyatlarini baholash imkoniyati bor (K.Nizomova "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy - hissiy rivojlantirishning o'ziga xosligi"-Toshkent 2009.).

Bolalarning har tomonlama rivojlantirish shartlaridan biri bu kattalar va tengdoshlari bilan mazmunli muloqotga kirishish hisoblanadi. Tarbiyachi har bir bola bilan muloqotga kirishishni turli – tuman bo'lishiga intiladi.O'zaro muloqot va hamkorlikka kirishar ekan, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolaga nisbatan ishonch, muhabbat, va hurmat hissini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda o'zaro muloqot qilishning bir necha modelidan foydalanadi: tajriba o'tkazish orqali tarbiyachi bolani yangi ko'nikmalarga, holatlarni bajarishga o'rgatadi; teng sherikchilik orqali tarbiyachi bolalar faoliyatining faol qatnashchisi sifatida, "kattalarga suyanish" orqali tarbiyachi bolalarga atayin yordam so'rab muammolarni yechishga, "kattalar tomonidan qilingan xatolarni" to'g'rilashda maslahatlar berishni taklif qiladi.

Chikagoning Illinoys universiteti tomonidan taklif qilingan CASEL (The Collaborative for Academic, Social and Emotional Learning) dastur D. Goleman va E. Rokfeller-Grovald tomonidan yaratilgan bo'lib, maktabgacha yosh davridan boshlab yuqori sinflargacha bo'lgan bolalar yoshini qamrab oladi, ular o'rtasida ijtimoiy va hissiy ta'limning akademik integratsiyani qamrab oladi. Fikrimizcha, 7 yoshli bolalarda o'z - o'zini anglashda o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabatni baholash asosiy ko'rsatgich qisoblanadi. Bolaning o'zining kelajakdagi qiyofasi haqida ijobiy tasavvuri birinchi marotaba bolaning o'ziga o'zining kamchiliklariga nisbatan tanqidiy jihatidan munosabatda bo'lishga va kattalar yordamida bu kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

AQSH shtatlarining ayrim qismlarida, shuningdek, Kanada, Buyuk Britaniya, Gonkong, Xitoy, Serbiya, Avstraliya va Venesuela davlatlarida amaliyotda tadbiq etilgan yana bir dastur bu MindUP dasturi. Bu dastur hissiy ongni rivojlantirishga qaratilgan dastur bo'lib, 3 xil bosqichda ishlab chiqilgan. Birinchi bosqich maktabgacha yosh davrida aynan tayyorlov guruhidan boshlab 2-sinfga qadar bo'lgan bolalarga mo'ljallangan, ikkinchi bosqich 3 sinfdan 5 sinfga qadar, uchinchi bosqich 5 sinfdan boshlab sinfgacha bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashga yo'naltirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bola shu tariqa o’zi haqida va kelgusida qanday shakllanishi yoki qanday bo’lish xohishiga qarab tasavvurlari solishtiriladi. Bolaning “Men”ini bola tomonidan ijobiy tasavvur qilinishi faoliyatini muvafaqqiyatli olib borilishiga do’stlar orttirishiga, boshqalarning do’stlar orttirishiga: ularning o’zaro birgalikdagi faoliyatlaridagi ijobiy sifatlariga ta’sir ko’rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bola tashqi dunyo bilan o’zaro muloqotga kirishar , asosiy rolini ijro etar ekan, u bu dunyoni anglaydi, shu tariqa bola o’z-o’zini anglaydi.

Shveysariya, Xorvatiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Xitoy, Niderlandiya, Singapur, Pokiston, Tailand, Gretsiya, Avstraliya kabi davlatlarda amaliyotda qo‘llanilib kelayotgan yana bir PATHS (Promotion Alternative Thinking Strategies) dasturi. Mazkur dastur doirasida ijtimoiy-hissiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib boriladi. Asosiy urg‘u tafakkur operatsiyalari bilan ijtimoiy-hissiy kompetentlikni uzviylikda rivojlantirishga qaratilgan O’z- o’zini anglash orqali bola o’zi to’g‘risida va atrofidagi dunyo to’g‘risida bilimga ega bo’ladi.O’z- o’zini anglash tajribasi maktabgcha yoshdagi bolalarda tengdoshlariga nisbatan salbiy oqibatlarni, nizoli vaziyatlarni yengish malakalarini shakllantiradi.O’z imkoniyatlarini va o’z xususiyatlarini bilish orqali atrofidagi odamlarning bola uchun ahamiyatini tushunishga intiladi.

Adabiyotlar:

1. Мардиянова Б.М. Социализация как педагогическое явление // Фундаментальние исследование. – 2005. – № 3. – С. 87-88;

2. URL: https:// fundamental-research.ru/ru/article/view?id=5892 (data obrasheniya: 30.05.2023).

3. M.J.Elias, J.E.Zins, K.S.Weissberg, M.T.Frey, N.M.Greenberg, R. Kessler, T. P. Shriver CASEL Guide: Effective social and emotional learning programs - Preschool and elementary school edition. Chicago, USA. (2013).

4. Pianta, R. C., Cox, M. J., & Snow, K. L. Eager to learn: Educating our preschoolers. Washington, dc: national academies Press national research council and institute of medicine. (2000).

5. From neurons to neighborhoods: Baltimore, md: Brookes (2007).

РЕЗЮМЕ

Maqolada ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda xorijiy tajribalar va ularning tahlili haqida so‘z boradi. Maqoladan olingan natijalarni maktabgacha ta’lim muassasalari bo‘yicha tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о зарубежном опыте развития социально-эмоциональных навыков и его анализе. Результаты, полученные в статье, могут быть использованы в исследованиях дошкольных образовательных учреждений.

SUMMARY

The article talks about foreign experiences in the development of social-emotional skills and their analysis. The results obtained from the article can be used in research on preschool educational institutions.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ДАРСГА ИЖОБИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТУЗИЛМАСИ

Турғунова Г.М.
НамДУ Бошланғич таълимда ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: илғор технологиялар, кичик ва хусусий бизнесни ривожланиши, интеграциялашув, табақалаштирилган ёндашув, илғор педагогик технологиялар.

Ключевые слова: передовые технологии, развитие малого и частного бизнеса, интеграция, дифференцированный подход, передовые педагогические технологии.

Key words: advanced technologies, development of small and private businesses, integration, differentiated approach, advanced pedagogical technologies.

Кириш. Дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнлари сифатида УЎТМ ва МТТМда ташкил этиладиган педагогик жараёнларни, яъни маъруза, семинар, амалий машғулот, тўгарак машғулотлари, экскурсия, давра суҳбати, учрашувлар, фанлар бўйича ташкил этиладиган мусобақа ва танловлар, санъат фестиваллари, конференция, ва бошқа турли йўналишлардаги тадбирлар, мустақил таълим, ўзини-ўзи тарбия, мустақил ишлар, тарбиявий муносабатлар жараёнларини келтириш мумкин. Чунки ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини ташкил этишга қаратилган мазкур жараёнлар дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш учун энг қулай вазиятларга бой бўлади.

Дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларини мувофиқлаштиришда маъруза машғулотларининг ўзига хос хусусиятларини ўрганишнинг зарурати таълим муассасаларида, дарс ва дарсдан ташқари жараёнларда, ўқитувчи ва ўқувчилар учун ташкил этиладиган турли тадбирларда, конференцияларда ва педагогик ўқишларда дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш технологиялари бўйича ҳамда дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларда ҳам ижобий ўқув мотивларини шакллантириш йўналишларида маърузалар ташкил этилишида намоён бўлади.

Адабиётлар таҳлили. Дарсга ижобий муносабатдаги болаларда ижобий ўқув мотивларини шакллантириш жараёнларига хос хусусиятлар сифатида:

– дарсга ижобий муносабатдаги болаларда ижобий ўқув мотивларини шакллантириш жараёнининг такомиллашиши ва ривожланиши;

– дарсга ижобий муносабатдаги болаларда ижобий ўқув мотивларини секин-аста, босқичма-босқич шаклланиб бориши натижасида ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги субъект(ўқитувчи)-объект(ўқувчи) муносабатларини субъект-субъект муносабатларига ўтиши;

– субъект-субъект муносабатларининг қарор топиши дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларда ижобий ўқув мотивларини шаклланиш кўрсаткичини белгилаши;

– дарсга ижобий муносабатдаги болаларда ҳам мустақил фикрлаш, ҳам таҳлилий фаолият кўникмаларининг вужудга келиши;

– дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларнинг ўқиш ва касб ўрганишга қизиқишини ривожлантиришга хизмат қилувчи маълумотларнинг янгилиги, ишончлилиги ва асосланганлиги;

– Ўрганиладиган маълумотларнинг давлат таълим стандартлари талабларига ҳамда дарсга ижобий муносабатдаги болаларнинг мойиллиги ва имкониятларига мослиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болаларда эркин ва мустақил фикрлашга, ўзгалар фикрини тинглаш ва таҳлил қилишга ҳамда мустақил таълим олиш ва ўзини-ўзи тарбиялашга истак ва қизиқишни уйғотмаслик эҳтимолининг мавжудлиги;

– ўқитувчи томонидан берилаётган маълумотларга нисбатан дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларда қизиқишни шаклланмаслиги ёки маълумотларни ўзлаштиришга уларнинг улгурмаслиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болаларнинг ўқиш ва касб ўрганишга қизиқишини шакллантириш билан бир қаторда, амалий машғулотлар ва мустақил таълим жараёнида ўрганиладиган мавзулар ҳамда тарбиявий муносабатлар жараёнида муҳим аҳамиятга эга бўлган тушунчалар ҳақида маълумотлар бериш имкониятининг мавжудлиги;

– субъект-объект муносабатларидан секин-аста субъект-субъект муносабатларига ўтиш асосида дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларнинг амалий машғулотлар жараёнида фаол иштирок этишига замин яратилиши;

– берилаётган оддий маълумотлар дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларда эркин ва мустақил фикрлашга, ўзгалар фикрини тинглаш

ва таҳлил қилишга ҳамда мустақил таълим олиш ва ўзини-ўзи тарбиялашга истак ва қизиқишни уйғотмаслик хусусиятлари;

– ўқитувчида барча ўқувчиларнинг бошланғич тушунчаларини аниқлаш ва объектив баҳолаш имкониятлари чекланганлиги;

– дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлашда маълум бир таълим методи иҳтиёрий вазиятларда қўлланилишига, яъни универсиалликка даъвогар бўла олмаслиги;

– дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчилар фаолиятини ўзаро боғлиқ ҳолда ташкил этиш, уларнинг боғлиқлиги ва алдоқадорлигига ҳамда фаоллик жиҳатдан уларнинг ўзаро ўрин алмашиниши мумкинлигига эътибор қаратиш зарурияти;

– дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчиларнинг ҳамклорликдаги фаолиятини таъминлаш асосида субъект-субъект муносабатларини вужудга келтириш имкониятлари;

– дарс машғулоти самарадорлиги кўп жиҳатдан мазкур жараён иштирокчиларининг қизиқиши, бошланғич тушунчалари даражаси ҳамда таълимий муҳитнинг янгиликларни қабул қилиш мойиллиги ҳамда вужудга келаётган вазиятларга боғлиқлиги;

– қулай таълимий муҳитни шакллантиришда вазиятли ёндашувнинг аҳамиятлилиги;

– дарс машғулотининг аниқ таркибий тузилишга эгалиги, яъни кириш, мавзу мазмунини баён этиш ва якуний қисмлардан иборат бўлиши;

– дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларнинг қизиқишини шакллантириш ва фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида уларнинг бошланғич тушунчаларини аниқлаш ва объектив баҳолаш, ўрганилиши кўзда тутилаётган тушунчаларнинг ўзлаштириш зарурияти асослаш, маъруза мазмунини баён этиш, хулоса ясаш ва якунлаш машғулотнинг асосий босқичлари сифатида ифодаланиши;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларини лойиҳалаштириш, моделлаштириш, дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини вазиятларга кўра мувофиқлаштириш имкониятларининг мавжудлиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларининг тизимга хос хусусиятларга эга эканлиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчилардаги мавжуд эҳтиёжлар умумий манфаатлар уйғунлашуви асосида намоён бўлиши;

-расм. Бошланғич синф ўқувчиларида дарсга ижобий муносабатни шакллантириш ва ривожлантириш технологиялари модели

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчиларнинг мақсади ва вазифаларини яхлит педагогик тизим ҳисобланган дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларининг мақсад ва вазифалари билан мувофиқлаштириш зарурати;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил этиш ва уларнинг фаоллигини таъминлашга турли хил ёндашувларнинг мавжудлиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги бола ёки дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар гуруҳига қаратилаётган эътиборнинг меъёридан ортиши бошқа бир фаол ўқувчи ёки гуруҳ ўқувчиларининг қизиқиши ва фаоллигига ижобий таъсир кўрсатиши;

– дарсга ижобий муносабатдаги болаларда ўқув мотивларини шакллантириш ҳамда уларда таълим олиш ва касб танлашга қизиқишни ривожлантиришга хизмат қилувчи ички ва ташқи омилларнинг ўзаро бирлигини келтириш мумкин.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот доираси бошланғич синф ўқувчиларида дарсга ижобий муносабатни шакллантириш ва ривожлантириш технологиялари моделининг дидактик имкониятларини сифатида қуйидагилар ажатилган [-расмга қаранг]:

1. Интерактив таълим: Технология таълим ўйинлари, симуляциялар ва виртуал манипуляторлар орқали интерактив ўрганиш тажрибасини тақ-

дим етади. Бу воситалар ўқувчиларга дарс мазмуни билан фаол шуғулланиш, тушунчаларни ўрганиш ва муаммоларни интерактив ва динамик тарзда ҳал қилиш имконини беради. Бундай интерфаоллик ўқувчиларнинг мотивациясини ошириши ва дарсга ижобий муносабатни ривожлантириши мумкин.

2. Мультимедиа тақдимотлари: Технологиялар мултимедиа тақдимотларидан, жумладан, видеолар, анимациялар ва интерактив слайд-шоулардан фойдаланиш имконини беради. Бу кўргазмали ва ешитиш воситалари дарсларни янада қизиқарли қилиш, ўқувчилар еътиборини ўзига жалб етиш ва мазмунини яхшироқ тушунишга ёрдам беради. Мултимедиа элементларининг киритилиши визуал рағбатлантирувчи ва интерактив ўқув муҳитини яратиш орқали дарсларга ижобий муносабатда бўлишга ёрдам беради.

3. Рақамли ҳамкорлик: Технология бошланғич синф ўқувчилари ўртасида ҳамкорликда ўрганишни осонлаштиради. Онлайн платформалар, мунозара форумлари ва ҳамкорлик воситалари ўқувчиларга лойиҳалар устида биргаликда ишлаш, фикр алмашиш ва фикр билдириш имконини беради. Ҳамкорликда ўрганиш жамоавий иш, ҳамкорлик ва умумий масъулият ҳиссини ривожлантиради, бу дарсларга ижобий муносабатда бўлишга ва қўллаб-қувватловчи ўқув жамоасига олиб келади.

4. Шахсга йўналтирилган таълим: Технология ўқувчиларнинг еҳтиёжлари, қобилиятлари ва қизиқишларига қараб ўрганиш тажрибасини шахсийлаштириш учун ишлатилиши мумкин. Мослашувчан таълим платформалари ва таълим дастурлари ўқувчиларнинг ўзига хос таълим услублари ва суръатларига мос келадиган мослаштирилган таркиб ва мослаштирилган баҳолашларни тақдим етиши мумкин. Шахсийлаштирилган таълим ўқувчиларга ўзларини кўпроқ жалб қилиш ва кучга ега бўлишга ёрдам беради, дарсларга ижобий муносабатда бўлишига ҳисса қўшади.

5. Кенгайтирилган реаллик (AR) ва виртуал ҳақиқат (VR): AR ва VR технологиялари ўрганишга қизиқиш ва тушунишни кучайтира оладиган иммерсив тажрибаларни таклиф етади. Ўқувчиларга мавҳум тушунчаларни тасаввур қилиш, виртуал муҳитларга ташриф буюриш ва рақамли объектлар билан ўзаро алоқада бўлишга имкон бериш орқали AR ва VR дарсларни янада аниқроқ ва бир-бирига боғлаб қўйиши мумкин. Бу қизиқиш ва иштиёқни уйғотиб, дарсларга ижобий муносабатни ривожлантириши мумкин.

6. Реал дунё алоқалари: Технологиялар дарсларда ҳақиқий дунё алоқаларини ўрганишни осонлаштириши мумкин. Онлайн тадқиқотлар, виртуал

саёҳатлар ва мултимедиа ресурслари ўқувчиларга дарс мазмуни уларнинг кундалик ҳаёти ва атрофидаги дунё билан қандай боғлиқлигини кўриш имконини беради. Бу алоқаларни ўрнатиш орқали ўқувчиларда мавзуни чуқурроқ англаш, дарсга ижобий муносабатда бўлишга олиб келади.

7. Дарҳол фикр-мулоҳаза ва баҳолаш: Технология зудлик билан фикр-мулоҳаза юритиш ва баҳолаш имконини беради, ўқувчиларга уларнинг тараққиёти ва такомиллаштириш йўналишлари ҳақида ўз вақтида маълумот беради. Онлайн викториналар, интерфаол машқлар ва автоматлаштирилган баҳолаш тизимлари ўқувчиларга ўз фаолиятини назорат қилиш ва тузатиш чораларини кўриш имконини берувчи тезкор фикр-мулоҳазаларни тақдим етади. Дарҳол фикр-мулоҳазалар ўрганишни кучайтиради ва ўқувчиларнинг ишончини оширади, дарсга ижобий муносабатни ривожлантиради.

Таҳлиллар натижаси. Бошланғич синф ўқувчиларида дарсга ижобий муносабатни шакллантириш ва ривожлантириш технологияларининг самарадорлиги уларнинг ўқув натижаларига ва умумий ўқув тажрибасига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин. Ушбу технологиялар самарали бўлишининг баъзи усуллари:

1. Иштирок этишнинг ортиши: Интерфаол таълим дастурлари, онлайн платформалар ва мультимедиа ресурслари каби технологияга асосланган ёндашувлар ўқувчилар эътиборини жалб қилиши ва уларни ўқув жараёнига жалб қилиши мумкин. Ўқувчилар дарсга фаол қатнашса ва қизиқиш уйғотса, уларда дарсга нисбатан ижобий муносабат шаклланади.

2. Шахсийлаштирилган таълим: Технология ўқувчиларнинг индивидуал эҳтиёжлари ва қизиқишларига мослаштирилган шахсийлаштирилган таълим тажрибасини ўтказиш имконини беради. Мослашувчан ўқув платформалари ва таълим иловалари ўқувчиларнинг ўзига хос таълим услублари ва афзалликларини ҳисобга олган ҳолда мослаштирилган таркиб ва фаолиятни тақдим этиши мумкин. Шахсийлаштирилган таълим эгалик ва долзарблик ҳиссини ривожлантиради, дарсларга ижобий муносабатда бўлишга олиб келади.

Хулоса. Дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларининг юқорида келтирилган ўзига хос хусусиятлари билан бир қаторда, қуйидагиларни дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари сифатида келтириш мумкин:

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларида дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчилар фаолияти ўзига хос интегратив тизим эканлиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болаларнинг мойиллиги, шахсий имкониятлари, бошланғич тушунчалари ва шахсий сифатларининг ўзаро боғлиқлиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан, фаол ўқувчилар ва ўқитувчиларнинг қулай таълимий муҳитнининг ташкилотчиси, бошқарувчиси ва иштирокчиси сифатида субъектлар интеграцияси;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан фаол ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги фаолияти самарадорлиги дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларининг натижавийлигини ифодалаши;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларида поғонавийлик (дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар ёки фаол ўқувчилар гуруҳига алоҳида эътибор қаратишнинг ижобий таъсири) билан самарадорликнинг номутоносиблиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнлари тизими мазмун-моҳиятига кўра маълум бир мақсадга эришишга йўналтирилган, ўзига хос хусусиятларга эга бўлган бир неча педагогик жараёнлар мажмуи эканлиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларини илмий асосда ташкил этиш таълим муассасаларида ижодий-таълимий муҳитни яратиш заруриятини белгилаши;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларида мажбурий итоаткорлик ўрнида онгли интизомни шакллантиришнинг зарурияти;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларида тарбиявий муносабатларнинг ўзига хослиги;

– дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларида қулай таълимий муҳитни шакллантиришда фаол ўқувчилар қатори дарсга ижобий муносабатдаги болаларнинг фаоллиги ҳамда улар ҳақидаги ахборотлар аниқ ва ишончли бўлиши зарурияти.

Адабиётлар:

1. Turg'unova G.M. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'smirlarni ijtimoiy dunyoqarashini shakllashtirish pedagogik asoslari //Namangan Davlat universiteti. Ilmiy axborotnomasi//2023 yil 3-son// (13.00.00)

2. Turg'unova G.M.Competence-Based Approach in Teacher Education// Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT// ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 10 https://literature.academicjournal.io

3. Turg'unova G.M. Pedagogical and psychological features of the formation of a positive attitude to the lesson in students. Science and innovation international scientific journal volume .2 ISSUE 5 may 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. - P: 482-484

5. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

6. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway

7. Azizova.Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish Avtoref. p.f.n T:2020-52b

8. Azarov Yu.P. Masterstvo vospitatelya. M.: “Prosvesheniye”,1971.-126 b

9. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. -175-b.

РЕЗЮМЕ

Дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларини мувофиқлаштиришда маъруза машғулотларининг ўзига хос хусусиятларини ўрганишнинг зарурати таълим муассасаларида, дарс ва дарсдан ташқари жараёнларда, ўқитувчи ва ўқувчилар учун ташкил этиладиган турли тадбирларда, конференцияларда ва педагогик ўқишларда дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш технологиялари бўйича ҳамда дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларда ҳам ижобий ўқув мотивларини шакллантириш йўналишларида маърузалар ташкил этилишида намоён бўлади.

РЕЗЮМЕ

Необходимость изучения специфики лекций при координации процессов работы с детьми, положительно относящимися к дисциплине урока в общеобразовательных учреждениях, в аудиторных и внеурочных процессах, на различных мероприятиях, организуемых для педагогов и учащихся, на конференциях и педагогических занятиях по технологиям работы с детьми положительное отношение к дисциплине урока и к дисциплине урока проявляется в организации лекций по направлениям формирования положительных мотивов учения у детей с позитивный настрой.

SUMMARY

Special training is needed to coordinate lecture processes that are positively related to disciplinary lectures and general education meetings, and classroom and extracurricular processes, as well as various management practices, organization for teachers and students, conferences and pedagogical technical and technological oe attitude to the discipline of the lesson and to the discipline of the lesson manifests itself in the organization of lectures in the areas of formation of positive motives for learning in children with a positive attitude.

ДАРСГА ИЖОБИЙ МУНОСАБАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ КОМПЛЕКС РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Турғунова Г. М.
НамДУ Бошланғич таълимда ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: илғор технологиялар, иқтисодиётдаги ижобий ўзгаришлар, тадбиркорлик, кичик ва хусусий бизнесни ривожланиши, интеграциялашув, табақалаштирилган ёндашув, илғор педагогик технологиялар.

Ключевые слова: передовые технологии, позитивные изменения в экономике, предпринимательство, развитие малого и частного бизнеса, интеграция, дифференцированный подход, передовые педагогические технологии.

Key words: advanced technologies, positive changes in the economy, entrepreneurship, development of small and private businesses, integration, differentiated approach, advanced pedagogical technologies.

Кириш. Таълим тизимини модернизация қилиш таълим, фан, техника ва технологиянинг жаҳон миқёсидаги замонавий ютуқларини ҳисобга олган ҳолда таълим жараёнларини илмий асосда ташкил этилишини кўзда тутади. Таълим муассасаларида педагогик жараёнлар ташкилотчилари дарс интизомига турлича муносабатда бўладиган болаларнинг ўқув фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришнинг турли хил замонавий усулларини билиши ва улардан оқилона фойдалана олиши, ўқувчиларга таъсир кўрсатаётган турли ғоялар йўналишини аниқлай олиши, ўқувчилар билан индивидуал ишлаш қонуниятларига асосланиши, дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш бўйича илғор тажрибаларни ва фан-техника ютуқларини мунтазам ўрганиб бориши ҳамда уларни ўз фаолиятига татбиқ этиши, ўқувчилар фаоллигини таъминлаш ва уларнинг ҳамкорликка асосланган ўқув фаолиятини мувофиқлаштириш жараёнларида инновацион фаолиятни ташкил эта олиши зарур ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили. Илғор технологияларни кенг ўзлаштирилиши, иқтисодиётдаги ижобий ўзгаришлар, тадбиркорлик, кичик ва хусусий бизнесни ривожланиши, шунингдек, узлуксиз таълимни фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашуви, ўқувчиларнинг қобилиятлари ва им-

кониятларига мувофиқ равишда таълимга табақалаштирилган ёндашувни жорий этилиши ҳамда таълим беришнинг илғор педагогик технологиялари ҳамда замонавий ўқув-услубий мажмуаларни яратилиши, таълим-тарбия жараёнини дидактик жиҳатдан тўлиқ таъминланиши таълим тизимини такомиллаштиришга асос бўлмоқда.

Ўқитувчининг таълим муассасида таълим-тарбия жараёнини илмий асосда ташкил этиши ва уни бошқариши ҳамда ўқувчилар фикрини ўрганиши, шунингдек, дарсга ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнларида уларнинг таълим олишга бўлган қизиқишини шакллантириб боришда шахсий ривожланишнинг асоси бўлган асосий педагогик тушунчаларнинг мазмун-моҳияти ва амалий аҳамиятини инобатга олиш муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқот методологияси. Дарсга ижобий муносабатдаги болалар шахсининг ривожланиши аввало уларда шахсий сифатларнинг шаклланиши билан белгиланади. Шундай экан, дарсга ижобий муносабатдаги болалар шахсининг жисмоний, ақлий, ахлоқий ва бошқа сифатларининг такомилини намоён этадиган жараён ривожланиш жараёни ҳисобланади [-расмга қаранг].

Ривожланиш – бу инсоннинг руҳияти ва организмидаги сифатий ўзгаришларидир. Бу ўзгаришлар ижтимоий муҳит, уй-жой шароитлари, унинг қуршаб турган кишиларнинг таъсири натижасида юз беради. Инсонга туғма равишда хатти-ҳаракатларнинг ҳеч қандай, на ижтимоий, на ноижтимоий дастурлари берилган эмас. Ҳар бир инсон учун, шахс сифатида фазилат ва шахсий сифатларнинг шаклланиш жараёни амалда нолдан бошланади. Шунинг учун ҳам маълум мақсадларга йўналтирилган таълим-тарбия шароитлари дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларда шахсий сифатларни шакллантириш ва ривожлантиришнинг умумий қонуниятларини инкор этмайди.

Демак, дарсга ижобий муносабатдаги болалар шахсининг жисмоний, ақлий, ахлоқий ва бошқа сифатларининг ривожланишида, яъни уларга таълим бериш ва уларни тарбиялашда жамият томонидан ташкил этилган таълим муассасалари ҳамда таълим-тарбия жараёни асосий субъектлари ҳисобланган ўқитувчилар фаолияти, яъни таълим муассасасида хукм сураётган таълим-тарбиявий муҳит муҳим рол ўйнайди.

Таҳлиллар натижаси. Ривожланиб бораётган авлодни катта ёшдагилар тажрибасини эгаллаб бориш жараёни тарбиявий жараён бўлиб, у инсонлар ривожланишини бошқариш ҳамда уларни шахсий сифатларини шаклланишига зарур шароитлар яратиб беради.



Дарсга ижобий муносабатдаги болалар шахсининг ривожланиши

Айрим ҳолларда тарбия билан ривожланиш ўртасида ўзаро боғлиқлик йўқдек туюлади, аслида улар ўртасида боғлиқлик жуда мураккаб ва аҳамиятлидир. Инсон шахсий сифатлари тарбия жараёнида ривожланиб боради, ривожланиш даражаси унинг тарбиясига ижобий таъсир кўрсатади яъни ўзгартиради, ривожлантиради. Яхши ташкил этилган тарбия жараёни шахсий сифатларнинг ривожланиш даражасини тезлаштиради ва яна тарбияга қайта таъсир кўрсатади. Шу тарзда инсоннинг бутун ҳаёти давомида бу таъсир ва акс таъсирлар ўзаро бир-бирини тўлдириб, ривожлантириб боради.

Тарбия атамасидан кўпгина педагогик атамалар келиб чиққан: тарбиячи, тарбияланувчи, тарбияланган, тарбияланганлик, тарбиявий ва ҳоказо. Буларнинг барчасини манбаси ва маъноси битта. Тарбиячи – инсон, авлодлар тажрибасини эгаллаш учун мажбурий ёки зарурий таъминотчи. Тарбияланувчи – тажрибаларни эгаллайдиган ва ўрганадиган шахс. Тарбияланган (тарбия кўрган) – тажрибаларни яхши эгаллаган ва унумли фойдаланувчи. Тарбияланганлик – шахснинг сифат кўрсаткичи, тажрибаларни яхши ўзлаштирганлиги, ижобий ҳисобланган шахсий сифатларнинг ривожланганлик даражаси.

Ҳаётда тарбия жуда кенг қўлланилади. Тажриба ўргатиш, тарбиялаш оммавий ахборот воситалар ёрдамида, санъат орқали, бошқарув тизими ва ташкилотларда сиёсий, маънавий ва маърифий ишларини ташкил этиш орқали амалга оширилиши мумкин. Буларни амалга оширишда маълумот муҳим аҳамият касб этади.

Маълумот – маълум мақсадга йўналтирилган, инсонда шахсий сифатларнинг ривожланишини таъминловчи, махсус ташкил этилган тизим бўлиб, ўқитиш жараёни ва унинг натижаси хисобланади.

Махсус ташкил этилган маълумот берувчи тизим – бу таълим-тарбия муассасаси, қайта тайёрлаш ва малака ошириш институти, ўқув-моддий база, молия, кадрлар, илмий-методик таъминот. Уларда маълум мақсадларга кўра тажрибалар ўргатиш ва ўрганиш махсус дастурларга асосан тегишли маълумоти, касб тайёргарлиги бор ва юксак ахлоқий фазилатларга эга бўлган шахслар томонидан амалга оширилади.

Хулоса. Ривожланиш – бу объектив жараён бўлиб, ташқи ва ички бошқарилувчи омиллар томонидан миқдор ва сифат жиҳатидан физик ва маънавий шаклланиш, яъни, шахснинг фазилатлари, сифатлар ва хулкларнинг шаклланиши, тушунчаларнинг чуқурлашиши, кенгайиши, осондан - қийинга, оддийдан - мураккабга, мавҳумдан - билишга, оддий ҳаёт кечириш шаклларидан - олий фаолиятга ўтиш жараёнидир.

Ўзини-ўзи тарбия – бу ички туйғулар ёрдамида миллий қадриятларни, инсон ҳаётидаги ютуқ ва муаммоларни, тажрибаларни ўрганиш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш асосида шахсий сифатларнинг ривожланиш жараёни, яъни, мустақил ривожланиш жараёнидир. Таълим-таълим-тарбия жараёни қандай ташкил этилмасин, ўзини-ўзи тарбиялашсиз уни амалга ошириб бўлмайди.

Мустақил маълумот – бу авлодлар тажрибасини, фан ва техника ютуқларини ўз ички туйғулари асосида мустақил ўрганишга қаратилган ҳаракатлар мажмуасининг натижаси бўлиб, инсоннинг шахсий сифатларини мустақил ривожлантириш жараёни ҳисобланади. Мустақил маълумот шахсий сифатларнинг ривожланишида, тажрибаларни эгаллашида қулайликлар яратса, мустақил таълим ўқиш ва ўрганишнинг асосий пойдевори ҳисобланади ҳисобланади.

Инсон-санъат-инсон шаклидаги тарбиявий муносабатлар жараёнлари ҳам дарс интизомига ижобий муносабатдаги болалар билан ишлаш жараёнлари сифатида ўзига хос амалий аҳамият касб этади, чунки санъат бор жойда янгиликка интилиш, меҳр-муҳаббат, инсонийлик туйғулари хукм суради.

Ҳар бир инсон қайсидир бир санъат турига қизиқади, қайсидир бир санъаткорни севиб тинглайди ва уни кўрганда ёки эшитганда беихтиёр кайфияти кўтарилиб кетади. Таълим муассасасида ўқитувчиларнинг санъатга бўлган қизиқиши нафақат тарбиявий муносабатлар жараёнида, балки, ўқув жараёнига ҳам ўз таъсирини кўрсатади, чунки таълим олаётган ўқувчи-ёшлар, шунингдек, дарс интизомига ижобий муносабатдаги болаларнинг ўртасида ҳам бир неча бўлажак буюк санъаткорлар ҳам бўлиши мумкин.

Адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

2. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway

3. Azizova.Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish Avtoref. p.f.n T:2020-52b

4. Azarov Yu.P. Masterstvo vospitatelya. M.: “Prosvesheniye”,1971.-126 b

5. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. -175-b.

РЕЗЮМЕ

Илғор технологияларни кенг ўзлаштирилиши, иқтисодиётдаги ижобий ўзгаришлар, тадбиркорлик, кичик ва хусусий бизнесни ривожланиши, шунингдек, узлуксиз таълимни фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашуви, ўқувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимга табақалаштирилган ёндашувни жорий этилиши ҳамда таълим беришнинг илғор педагогик технологиялари ҳамда замонавий ўқув-услубий мажмуаларни яратилиши, таълим-тарбия жараёнини дидактик жиҳатдан тўлиқ таъминланиши таълим тизимини такомиллаштиришга асос бўлмоқда. Мақолада дарсга ижобий муносабатлар ривожлантириш орқали ўқувчиларни комплекс ривожлантириш омиллари таҳлил етилган.

РЕЗЮМЕ

Широкое внедрение передовых технологий, изменения в экономике, развитие предпринимательства, малого и частного бизнеса, а также интеграция непрерывного образования с наукой и производством, внедрение дифференцированного подхода к обучению в соответствии со способностями и возможностями обучающихся является основой совершенствования системы образования. В статье анализируются факторы всестороннего развития учащихся через формирование положительного отношения к уроку.

SUMMARY

The widespread introduction of advanced technologies, changes in the economy, the development of entrepreneurship, small and private businesses, as well as the integration of lifelong education with science and production, the introduction of a differentiated approach to learning in accordance with the abilities and capabilities of students is the basis for improving the education system. The article analyzes the factors of comprehensive development of students through the formation of a positive attitude to the lesson.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KATTA YOSH BOLALARNI IJODIY VA IJTIMOIY KO'NIKMALARINI TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI RIVOJLANTIRISH

Abdusabirova L.A.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ta'sviriy faoliyat,badiiy ijod, rasm chizish,estetik sezgi.
Ключевые слова: изобразительная деятельность, художественное творчество, живопись, эстетическое чувство.
Key words: visual activity, artistic creativity, painting, aesthetic feeling.

Kirish. 2030-yilga qadar Maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Komissiya tomonidan maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilik undagi bo'shliqlar, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga kel¬tiruvchi normalarni aniqlash nuqtayi nazaridan tahlil etildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini samarali ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish ishlari amalga oshirildi.

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, uni amalga oshirishni ko'zlovchi "Yo'l xaritasi"da 2019-2024 va 2025-2030-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi.

Konsepsiya o'rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Hujjat malakali pedagog kadrlar yetishmovchiligi, davlat MTTlarining to'lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi hamda davlat o'quv-metodik materiallari bilan past darajada ta'minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi.

Xususan, 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan bolalar miq¬dorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha orttirish vazifasi qo‘yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta’lim tashkilotlari quvvatlari¬ning kuchaytirilishi davom ettiriladi: 2021-yilga kelib o‘rinlar miqdori yangi MTTlarni ochish hisobiga 56,8 foizga (2030-yilga kelib - 132,3 foizga) ortadi, hamda davlat-xususiy sherikligi va respublikaning chekka tumanlari uchun dolzarb muqobil maktabgacha ta’lim shakllari rivoj¬lantiriladi. Keyingi yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ishlar ikki yo‘nalishda olib boriladi: pedagoglar miqdorini orttirish va maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish. Konsep¬siya bilan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi hamda ushbu natijalarga erishish uchun qay miq¬dorda mablag‘larining zarurligi to‘g‘risidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorining ikkinchi paragrafida Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu konsepsiyasida Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Tasviriy faoliyat – bu bolalarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi – rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat bo‘yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy tamoyili, bu tasviriy faoliyatni ta’lim-tarbiyaviy ishning eng muhim bo‘limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi.

Natija. So‘ngi yillarida respublikamizda ta`lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar

nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzluksiz ta`limning dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta`lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘grisidagi qonunining 8-moddasida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir” deb belgilab qo‘yilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Muhokama. Har bir bolani hayotda, davlatimizning moddiy va ma’naviy rivojlanishida faol ishtirok etadigan qilib tayyorlash uchun unga faqat bilim berib tarbiyalashgina kamlik qiladi, uning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish, yangilik yaratishni o‘rgatish, go‘zallik qonuni bo‘yicha yashash va ijod qilishni shakllantirish lozim. Hayot go‘zalligini ko‘rishga intilish insonni olijanob qilib tarbiyalaydi, uning kundalik ishini estetik rohat-farog‘at manbaiga aylantiradi. Bolalar ko‘nglida go‘zallik va yuksak g‘oyalar hissini uyg‘otishga da’vat etishda tasviriy faoliyatning o‘rni g‘oyat kattadir. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo‘ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba’zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san’at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg‘uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o‘sishida muhim o‘rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o‘sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo‘lgan malaka, ko‘nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog‘iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg‘u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to‘g‘ri baho berish,Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qobiliyatlarni aniqlash va ularni to‘g‘ri

rivojlantirish – asosiy pedagogik vazifalardan biridir. Uni hal etish jarayonida esa bolaning yoshi, psixofizik rivojlanishi, tarbiya sharoitlari va boshqa bir qator olimlarni hisobga olish zarurdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish deganda bola topshiriqni bajarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tasvirlayotgan narsasiga ish jarayonida ijodiy yondashish malakasi, fantaziyasi mavjudligi tushuniladi. Shu bilan birga bolada mussavvirlarning ijod mahsullarini o‘rganish, kuzatish chog‘ida uni tahlil qila olish malakasining mavjudligi va nihoyat bajarilgan ishning sifat darajasini, ish jarayonida ozodalik va tartiblilikka rioya qilish malakasi kabilar tushuniladi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodiy o’stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o’sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo’lgan malaka, ko’nikmalarni egallash hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta’lim-tarbiyaviy ishning bir qismi xisoblanadi. Shu sababli u xilma–xil faoliyat va mashg‘ulotlar turlari bilan bog‘liq bo‘lishi muhimdir. Bunga bola tasviriy faoliyatining harakterining o‘zi imkoniyat yaratadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish ishlarida bolalar o‘zlarining tevarak atrofidagi narsa xodisalar, badiiy asarlar, qo‘shiqlardan olgan taasurotini aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish – yasash ishlarining boshqa mashg‘ulotlari va faoliyat turlari bilan bog‘liqligi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim tarbiyaviy ishning samarasini, bolalarni turli mashg‘ulotlarga qiziqishni oshiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarni shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog‘liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik xis tuyg‘u badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlar, mexnat qilish xoxishi va ko‘nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish xissining rivojlanishigi imkoniyat yaratadi.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari orqali ijodiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash tadqiq etilayotgan masalaning umumiy holatini aniqlash, asosiy maqsad yo‘lida tashkil etiluvchi faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktabda ta’lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik bola shaxsini rivojlantirishni amalga oshirishda muhim omil bo’lib hisoblanadi. Respublikada maktabgacha ta’lim tizimi bo’yicha qabul qilingan «Takomillashtirilgan ilk qadam» tayanch dasturi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdek zarur ishni ta’minlaydi. Ya’ni, bu o’rinda

maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari orqali ta’minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta’lim tizimi va uning tarkibiy va g‘oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi

2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‟g‟risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni O’RQ-637-сон 23.09.2020. 8moddasi

4. “Maktabgacha ta’limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” Xalq so‘zi gazetasi 30.09.2020

5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.

6. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil (Maktabgacha ta’lim vazirligi)

7. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg„ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish” Science and Education» Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1

8. .Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013 9. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. “Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi”. “Cho‘lpon”, T:.2010y. 10. Ilm yo‘li» variativ dastur, Toshkent 2019

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6-7 yoshdagi bolalarni ijodiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minotini takomilashtirish asoslari, maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda ijodiy faoliyatini ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’minotini takomilashtirishning ahamiyati, «Takomillashtirilgan ilk qadam» maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi asosida bolalarda ijodiy faoliyatini rivojlantirishning hozirgi holati haqida so‘z ketadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены основы совершенствования дидактического обеспечения развития творческих и социальных навыков детей 6-7 лет в дошкольных образовательных организациях, значение совершенствования дидактического обеспечения развития творческой активности и социальных навыков детей. Дошкольники 6-7 лет «Улучшенная первая ступень» рассмотрено современное состояние развития творческой активности детей на основе государственной учебной программы дошкольной организации образования.

SUMMARY

This article discusses the basics of improving didactic support for the development of creative and social skills of children aged 6-7 years in preschool educational organizations, the importance of improving didactic support for the development of creative activity and social skills of children. Preschoolers 6-7 years old “Improved first stage” examines the current state of development of children’s creative activity on the basis of the state curriculum of preschool educational organizations.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

YOSH AVLODNI JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI TARBIYALASH VA ULARDAGI FIZIOLOGIK O'ZGARISHLAR

Xakimova G.A.
Termiz davlat universiteti, Sport boshqaruvi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, vosita, gigienik omil, sog'lomlashtiruvchi kuch, samaradorlik, yondashuv, muloqot, mahorat, sifat, istedod, iqtidor.

Ключевые слова: физкультура, инструмент, гигиенический фактор, лечебная сила, работоспособность, подход, общение, мастерство, качество, талант, талант.

Key words: physical education, tool, hygienic factor, healing power, efficiency, approach, communication, skill, quality, talent, talent.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya qadimdan mavjud bo'lib inson hayoti bilan rivojlanib kelgan. Inson jismoniy tarbiya uchun vositalarni asta-sekin tanlab borib, hayotida jismoniy tarbiya vositalarini vujudga keltirgan bular jismoniy mashqlar gigienik omillar, tarbiyaning sog'lomlashtirish kuchlari. Insonning jismoniy rivojlanishiga turli harakatlar ham ta'sir etadi (mehnat, rasm solish, kiyinish va boshqalar), shartsiz refleks, massaj va boshqalar. Ular sog'liqni mustahkamlash, organizmni har tomonlama va gormonik rivojlantirish, hayotga zarur bo'lgan harakat, ko'nikma va malakalarni oshirish jismoniy takomillashtirishuvini yuqori pog'onaga ko'tarish maqsadida foydalaniladi.

Lekin, faqat majmua holda hamma jismoniy tarbiya vositalari qo'llanilsa, shundagina, yuqorida ko'rsatilgan vazifalarga to'la javob berish mumkin, chunki har bir vosita organizmga har xil ta'sir etadi.

Bu vositalar, shuningdek, davolash va profilaktik maqsadlarda ham keng qo'llaniladi. Tasnif - bu jismoniy mashqlarni muayyan belgilariga ko'ra guruh va kichik guruhchalarga taqsimlanishidir. Turli jismoniy mashqlar ko'plab o'xshash belgilarga ega. Mashqlarni guruhlashga imkon beradigan asosiy belgini aniqlash muhim. Bu belgi pelogogik jiqatdan axamiyatli bo'lishi lozim. Turli belgilarga ko'ra tuzilgan tasniflar ko'plab amaldagi jismoniy mashqlarbilan tanishishga, ulardan zarurlarini qo'yilgan vazifalarga muvofiq tanlashga, darslik va qo'llanmalardan zarur mashqlartavsifni tez topishga yordam beradi.

Ayniqsa, umumiy tasniflarning asosida jismoniy tarbiya vositalarining tarixiy shakllangan tizimi va metodlari yotadi: gimnastika, o'yinlar, sport, turizm. Bu guruhlarning xar bir o'ziga xos ahamiyatga ega va ular yanada kichik tasnifiy guruhchalarga bo'linadi.

Gimnastika jismoniy tarbiya tizimida katta o'rin tutadi. U sog'lomlashtirish yoki umumrivojlantiruvchi (asosiy, gigienik, atletik) gimnastika, sport-akrobatikasi, kasbiy, sport gimnastikasi, badiiy gimnastika (va amaliy) professional-amaliy, harbiy-amaliy, sport-amaliy, ishlab chiqishdagi gimnastika, davolash gimnastikasi turlariga bo'linadi.

Gimnastikaning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud gavdani turli qismlari, ayrim, bo'qimlar va ular faoliyatining turli tomonlari va holatiga talab ta'sir etish (mushaklarning bo'shashga, cho'zilish va boshqalar): jismoniy yuklanishni taqsimlash imkoniyati: sport anjomlari va sport inshoatlaridan foydalanish: mashqlarni musiqa jurligida o'tkazish: mashklarning rang-barangligi. Gimnastikaning bu xususiyatlari undan xilma-xil vazifalarni qal etish uchun barcha yoshdagi, salomatligi, jismoniy tayyorgarligi turlicha bo'lgan kishilar bilan o'tkaziladigan mashqulotlarda foydalanish imkonini beradi.

Xarakatli o'yinlar. Bu turli emotsional harakatlardan iborat murakkab faoliyatdir. Bu faoliyat belgilangan qoidalar asosida to'satdan o'zgaradigan sharoit va vaziyatlarda bajariladi. Gimnastikadan farkli ularok, o'yinlarni o'tkazishda jismoniy nagruzkalarni taqsimlash qiyin bo'ladi.

Harakatli o'yinlar boshqa jismoniy mashqlardan shuqullanuvchilar faoliyatini tashkil etish va boshharish xususiyatlari bilan farqlanadi. O'yin davomida to'satdan o'zgaradigan vaziyatlarda harakat qilish va tezkorlik, chaqqonlik kabi jismoniy fazilatlar namoyon qilgan holda qisqa muddatda harakat vazifalarini qal etish zaruriyati vujudga keladi. Bu harakatlar ko'nikmalarini mustaqkamlaydi. O'yin paytida bolalar faoliyati obrazli syujetli yoki o'yin vazifalari asosida tashkil etiladi, va bu bolalarning jismoniy mashqlarni ishtiyoq bilan va uzoq muddat bajarishi uchun ijobiy xis-tuyqular uyqotadi. Bu o'z navbatida ularning organizmiga ta'sirini kuchaytiradi, chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi.

O'yin qoidalariga rioya qilish bir-birini taqozo etiladigan xatti-harakatni yuzaga keltiradi, axloqiy fazilatlar (o'zaro yordam, ongli intizom va boshqalarni) tarbiyalashga harakat usullarini tanlashda mustaqillik ko'rsatishlari, sabotlilik ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. O'yin faoliyati majmua xarakaterga ega turli harakalar uyqunligi (yugurish, sakrash va boshkalar) ko'riladi.

O’yinning yuqorida ko’rsatib o’tilgan xususiyatlari undan kichik maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ishda foydalanish imkonini beradi.

Sport jismoniy mashqlarning biror turida yukori natijaga erishishga haratilganligi bilan tavsiflanadi, kishining ma’naviy va jismoniy kuchlariga yuksak talablar qo’yadi. Shuning uchun u muayan yosh bosqichning rivojlanish darajasidagina qo’llash mumkin. Bu esa jismoniy tayyorgarlik soqligiga muvofiq sharoitnini talab qiladi.

Sport jismoniy kamol topishga xizmat qiladi va ma’naviy-irodaviy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Shuning uchun sport bilan shuqullanish ayniqsa, kishi organizmining hamda inson shaxsining shakllanish davrida foydalidir.

Jismoniy maqorati shakllantirish va jismoniy tarbiyaning xilma-xil vazifalarini qal etish maqsadida o’quvchilar bilan ishlashda turli gimnastika mashqlari (sarflanish umumrivojlantiruvchi mashqlar). Buning natijasida jismoniy mashqlarva keyingi yosh bosqichlarida xilma-xil sport turlari bilan shuqullanish uchun zamin yaratiladi.

Turizm harakat ko’nikmalarini mustahkamlashga va tabiiy sharoitlarda jismoniy fazilatlarni rivojlanishga imkon beradi. Maktabda bolalar bilan turli harakat usullaridan foydalangan holda (piyoda yurish velosipedda yurish va boshqalar) shahar tashharisiga sayrlar uyushtiriladi. Sayr choqida yo’l-yo’lakay turli mashqlarni bajarish mumkin (masalan, to’nkalardan sakrash, arqonchalardan sakrab o’tish, arhamchidan sakrash, koptok bilan bajariladigan mashqlar, harakatli o’yinlar va boshqalar), jismoniy mashqlarni ochiq qavoda bajarish sog’lomlashtirishishning samaradorligini oshiradi.

Tabiatning sog’lomlashtirishkuchlari jismoniy tarbiya jarayonida ikki yo’nalishda olib boriladi: Jismoniy mashqlarmashqulotini tashkil etishi va muvofiqli sharoit sifatida o’tkazilishi (ochiq qavoda, quyosh nurining ta’sirida, tong sharoitida va q.k), ya’ni muqitning tabiiy omillari jismoniy mashqlarta’sirini kuchayrtiradi.

Ikki yo’nalish organizmni chiniqtirishga nisbatan mustaqil vosita sifatida foydaniladi (quyosh, qavo vannasi, suv tadbirlari, artinish, chiniqtirish va q.k.). Tabiatning sog’lomlashtirishkuchlarini to’g’ri ishlata bilish kishi organizmiga jismoniy mashqlarni ijobiy ta’sirini oshiradi.Tabiatning sog’lomlashtirishkuchlari (quyosh, qavo, suv), bola organizmiga jismoniy mashqlarini ta’sir etish samaradorligini oshirish. Ochiq havoda. quyoshli kunlarda jismoniy mashqlaro’tkazish vaqtida bolalarda ijobiy xissiyot vujudga keladi, ko’proq kislorod yutiladi, modda almashinuvi orqali, ayrim organlar va organizm tizimlarining quvvatini imkoniyatlarini oshiradi. quyosh, qavo va suv organizmni chiniqtirish uchun, yuqori va past xaroratga organizmning

moslashuvini oshirish uchun foydalaniladi. Natijada issiqlikni boshharuvchi apparat mashqlanadi va inson organizmi ob-qavoning keskin o'zgarishiga o'z vaqtida javob berish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunda tabiatning tabiiy omillaridan jismoniy mashqlarmoslanishi chiniqish samarasini oshiradi.

Tabiatning tabiiy kuchlaridan mustaqil vositalar sifatida foydalaniladi. Suv terining iflosdan tozalash uchun, undagi qon-tomirlarini kengaytirish va toraytirish va qakozo uchun qo'llaniladi. O'rmonlar, boqlar, istiroqat boqlari qavosi aloqida moddaga (fitotsitlar) ega bo'lib mikroblarni yo'qotishga, qonni kislorod bilan boyitishga yordam beradi. quyosh nurlari teri ostida «S» vitamini qosil qilishga yordam beradi.Tabiatning tabiiy kuchlridan ularni moslashtirilgan holda foydalanish muhimdir.

Gigienik omillar jismoniy tarbiya vazifalarini qal etishning zarur sharti qisoblanadi. Ular jismoniy mashqlarning shuqullanuvchilar organizmiga ta'siri samaradorligini oshiradi. Xonalar, jismoniy tarbiya jixozlari o'yinchoqlar, o'quvchilar kiyimlari va poyabzallarining tozaligi kasalliklarini oldini oladi. Gigienik talabalarni bajarish bolalarda ijobiy emotsiya uyqotadi va jismoniy mashqlarni o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Gigienik omillar shaxsiy va jamoat gigienasini o'z ichiga oladi.

Gigienik omillar mustaqil ahamiyatga ega: ular barcha organ va tizimlarning normal ishlashiga yordam beradi. Masalan: muntazam va sifatli ovqatlanish, ovqat xazm qilish organlarining faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o'z vaqtida etib borishini ta'minlaydi, bolaning normal rivojlanish va o'sishga yo'l yordam beradi. To'g'ri yoritish ko'z kasalliklarini sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, o'quvchilarning harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Kundalik rejimga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi. Gigienik omillar-shaxsiy va jamoat gigienasini o'z ichiga qamrab oladi.

1. Shaxsiy gigiena mashqulot tartibi, dam olish, joyining tozaligi o'quv va ovqatlanish xona gigienasi, maydoncha, kiyimlar, sport jiqozlari va anjomlari badani va kiyimlarning tozaligi va x.k.larning organizmga jismoniy tarbiya samaradorligini oshiradi. Agarda jismoniy mashqlartoza, yoruq xonalarda o'tkazilsa, jismoniy harakat sifatlarning rivojlanishi va bu mashqlarni o'zlashtirish engilroq bo'ladi. Ular sog'liqni yaxshilashda va kishi umrini o'zaytirishda katta axamiyatga ega. Gigiena omillar mustaqil axamiyatga ega: hamma tizim va organlarning normal holatda ishlashga ko'maklashadi. Masalan, sifatli va muntazam ovqatlanish hamma organlarga ozuqaviy moddalarni o'z vaqtida etkazib berishni ta'minlaydi, bolaning to'g'ri o'sishi va rivojlanishiga yordamlashadi, shuningdek, ovqat qazm qilish tizimi

shaxsning faoliyatiga ijobiy ta’sir etib kasallanishni oldini oladi. Normal - tinch uxlash asab tizimlarini ishchanligini oshiradi va dam olishga imkon yaratish. Xonaning to’g’ri yoritilganligi ko’z kasalliklari kelib chiqishining oldini oldi va bolalarning fazo sezgirligi uchun qulay sharoit yaratadi. Bular sog’liqni yaxshilashda va kishi umrini uzaytirishda katta axamiyatga ega. Sport bilan shuqullanishda, mashq bajarish va dam olish, ovkatlanish katta axamiyatga ega

2. Jamoat gigienasi: mashq bajarish joyning yoruqligi, tozaligi, asbob va anjomlar bilan jixozlanish yoki xonalarning gigienik talabga javob berishi va q.k. Muqitning tabiiy omillari va gigienik sharoitlar jismoniy tarbiyaning asosiy maxsus vositalari bo’lmasa ham, lekin ularning ta’siri katta ahamiyatga ega. Jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo’lib qisoblanadi. Agar tabiatning sog’lomlashtirishkuchlari, gigienik omillar orqali sog’lomlashtirishvazifalarini xal etilsa, jismoniy mashqlaresa har bir harakat malakalariga o’rgatish, harakat sifatlarini tarbiyalash, kishini jismoniy va ruqiy rivojlantirishda asosiy vazifalarni xal etadi.Yuqorida ko’rsatilgan jismoniy tarbiya vositalari sog’lomlashtirishva ta’lim-tarbiya berish vazifalarini amalga oshirishning asosiy shartidir. Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, estetik, axloqiy vositalar qo’llaniladi, bu esa hamma tarbiya turlarini birligini kursatadi. Jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya vositasi sifatida shuqullanuvchilarni faol harakat faoliyatlarini tashkil etadi. Jismoniy mashqlarbajarish xususiyatlarini va yaxshi natijalarga ega bo’lish yo’lini shuqullanivchilarning ongini etkazish kerak.

Jismoniy mashqlaronglilik xakterini qator psixik jarayonlarni yiqindisida ko’rish mumkin. Masalan: balandlikka sakrash. Yuqorida aytilganlardan quyidagi umumiy xulosani chiharish mumkin. Jismoniy mashqlarongli ravishda bajariladigan erkin harakat faoliyati bo’lib, jismoniy tarbiyaning qonuniyatliklariga muvofiq ishlatiladi. Boshqacha aytilganda, jismoniy mashqlar-bu maxsus tanlab olinib, ta’lim-tarbiya vazifalarini bajaradigan harakatdir.

Hozirgi zamon jamoat ishlab chiharishni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari ishlab chiharishni avtomatlashtirish, majmua mexanizatsiyalashtirish, elektronika va kibernetikadan foydalanishdir. Bunda jismoniy kuchlar qisharadi (kamayadi), uzoq muddatli diqqatga, funktsiyalarning harakatchanligiga va asboblar ko’rsatgichini tezda hamrab olish talablari ortib boradi. Nozik sezgi organlar bu sharoitlarda katta ahamiyatga ega.

Jismoniy mashqlarayrim kategoriyali odamlarda mavjud bo’lgan harakat, jismoniy faoliyatning kamchiliklariga harshi kurashda ham qo’llaniladi. Bunda ular «kompensatsiyalashgan» funktsiyani bajaradi. Ishlab chiharishda jamoatda

va boshqa joylarda harakatlarni chegaralash natijasida jismoniy etishmaslik kelib chiqadi. Bu esa ko'pgina organ va tizimlarning funktsiyasini pasaytiradi, tashqi salbiy ta'siri ostida turqunlik pasayadi.

Shunday qilib hayot o'rgatgan shart-sharoitlar va organizni to'liq morfologik va funktsional rivojlantirishga zarur bo'lgan vositalar orasidagi harama-harshiliklar mavjud bo'ladi. Bu salbiy qodisalarga harshi kurashda insonning jismoniy va psixologik qobiliyatini oshirishda qo'llaniladigan jismoniy mashqlarmuhim axamiyatga ega. Jismoniy tarbiya jarayonida hamma vositalar ishtirok etsada, jismoniy mashqlartarbiyalash va o'rgatishda o'ziga xos axamiyatga egadirlar. Jismoniy mashqlarmehnat orqali vujudga kelgan. Jismoniy mashqlarni rivojlanishiga san'at, harbiy ish, hamda din o'zining salmoqli ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, milliy kurash. Lekin jismoniy mashqlarning rivojlanishida, moddiy talabchanlik va hayot sharoiti qal qiluvchi omil bo'lib qisoblanadi. Jismoniy mashqlarkelib chiqishdan boshlab, ijobiy bilim va malaka bilan boqliq bo'lgan.

Jamiyatni va jismoniy tarbiyani rivojlanishi, jismoniy mashqlarni mehnat va harbiy bilan o'zaro boqlikligi yo'qotilib bordi. Jismoniy mashqlarmehnat yoki harbiy ishga boqliq bo'lmay hola boshladi. qayvonni ushlab olishda, dushmanni tabiiy yugurishdan quvib etish yoki undan o'zini qutharish, qisqa, o'rta va uzoq masofalarga yugurish kelib chiqdi. Shunga o'xshash nishonga otadigan bo'ldilar va q.k. Mashqlarni aloqida bo'lib, ajralib chiqishi endi kishilarni mehnatga va harbiy ishga tayyorlay boshladi va bu ularni jismoniy va ruqiy rivojlanishlarini ta'minladi.

Jimoniy mashqlarbu erkin harakatlardir. Ularni bajarish, to'xtatish, o'zgartirish kishi ixtiyori bilan amalga oshiriladi.Yuqorida aytilgandek, jismoniy mashqlarodam organizmiga chuqur va har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Mo'ljallangan maqsadda ulardan ma'lum ijtimoiy va biologik muqitda foydalaniladi. Shuning uchun ham jismoniy mashqlarmashqulotlarining optimal samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi omillarni e'tiborga olish kerak:

a) mashqulotda qatnashuvchilarining individual holatlari: yoshi, jinsi, salomatlik, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlik saviyasi (uroven), aqliy, jismoniy, xissiy (emotsiya) va boshqa xususiyatlari:

b) jismoniy mashqlarning xususiyatlari (murakkabligi, yangiligi, texnik xarakteristikasi).

v) tashki sharoitlar: ishlash, o'qish, yashash, dam olish tartibi (rejim) harakat faoliyatining konkret sharoitlari (joyning materiologik sharoitlari, jiqozlarning

sifati, mashqulot o'tkaziladigan joyning gigienasi, kollektivda o'zaro munosabat harakteri, atrofdagi shaxslarning ta'siri va boshqalar).

Tarixiy rivojlanish jarayonida jismoniy tarbiya tizimining muhim tomonini tashkil etuvchi jismoniy mashqlarturli majmua va tizimi yaratilib borildi.

Jismoniy mashqlarning organizmga ta'siri ko'p tomonlama lekin asosiylari quyidagilardan iborat:

a) - Kishi psixikasiga.

b) - Tana shakliga.

v) - Organizmni fiziologik funktsiyasiga.

g) - Sog'lomlashtirish axamiyati.

d) - Tarbiyaviy ta'sir.

Masalan, ertalabki gigienik gimnastika: ko'p vaqt shuqullanib borsa tana shaklining o'zgarishi, organizmda fiziologik funktsiyalarning o'zgarishi, sog'lomlashtirishaxamiyati va kishi psixikasiga ta'sirini ko'rsatishimiz mumkin. Tabiiy va pedogogik fanlar soxasida ilmiy bilimlarni kengaytirib borishi natijasida jismoniy qobiliyatni rivojlantirishna har tomonlama ta'sir etuvchi jismoniy mashqlartizimi yaratildi. Tarixiy rivojlanish davomida bir kancha turdagi jismoniy mashqlardan maqsadga yaqinroqlarini tanlab olindi va tizimga tushiriladi.

Jismoniy mashqlarni butun organizga va uning ayrim organ va tizimlariga ta'sir etish qonuniyatlarini bilish mashqlardan, shuningdek, qo'yilgan masalalarni qal etishda yordam beruvchi to'g'ri metodik jiqatdan ishlab chiqilgan majmualardan ma'lum maqsadlarda foydalanishda qo'l keladi. U yoki bu jismoniy mashqlardan foydalanish maqsadi ularning bir yoki bir necha asosiy belgilar bo'yicha aniqlanadi. Bunda mashqlarning butun organizmga ta'sirlar yiqindisi qisobga olinadi.

Jismoniy rivojlanishga yo'naltirilgan jismoniy mashqlarni tanlash va qo'llashga ilmiy yondoshishni ularning inson organzmi ta'sirini qat'iy qisobga olib borish hamda mashqlarsamaradorligini ta'minlovchi kerakli shartlarni yaratishni talab etadi.Bu erda to'g'ri tashkil etilgan metodika qal qiluvchi axamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Krichevskiy V.Yu. Finansovaya samostoyatelnost v sfere obrazovaniya: Pervые shagi: posobie dlya rukovoditeley obrazovatelnых uchrejdeniy - M.: Prosvещenie, 2007.- 176 s.

2. Dolgova L.M. Probnые deystviya uchaщixsya v prostranstve innovatsionnoy shkolы. 2007. S.191-193.

3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.–308 s.

4. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari – Toshkent., o'quv qo'llanma O'zDJTI, 2005 yil - 238 b.

5. Shomirzayev M.X. Practical lessons in technology: Characteristics of organization and conduct // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 991-1001.

6. Eshqobilov E.M . (2023). Development of professional pedagogical creativity of future physical education teachers on the basis of a competent approach. International bulletin of engineering and technology, 3(3), 201–204.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada muallif tomonidan yosh avlodni jismoniy tarbiya bilan qamrab olish,o'rgatish hamda uni o'zlashtirish, va faoliyatda o'zlashtirilgan harakat amallarini qo'llay olish shuningdek jismoniy tarbiya vositalaridan maqsadli foydalanish ko'zda tutilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор предусматривает охват подрастающего поколения физическим воспитанием, обучение и овладение им, умение применять освоенные движения в деятельности, а также целенаправленное использование средств физического воспитания.

SUMMARY

In this article, the author envisages covering the young generation with physical education, teaching and mastering it, and being able to apply the mastered movements in the activity, as well as the purposeful use of physical education tools.

MAHALLANING UYUSHMAGAN YOSHLARINI JISMONIY TARBIYA VA SPORT ORQALI KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Omonov D.A.
Termiz davlat universiteti,
Sport boshqaruvi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, vosita, sport, faoliyat, samaradorlik, yondashuv, muloqot, mahorat, sifat, istedod, iqtidor.

Ключевые слова: физкультура, инструмент, спорт, активность, работоспособность, подход, общение, мастерство, качество, талант, талант.

Key words:physical education, tool, sport, activity, efficiency, approach, communication, skill, quality, talent, talent.

Xalq jismoniy tarbiyaning haqiqiy ijodkoridir. Jismoniy tarbiyada qo'llaniladigan ko'pchilik jismoniy mashqlarning halqchilik xususiyati buning yorqin dalilidir. Hozirgi zamon sport turlari va o'yinlarining ko'pchiligi masalan; kurash, boks, futbol, gimnastika, kabilarning asosi qadim zamonlarda halq tomonidan yaratildi, bir necha avoldlar ularni ehtiyotkorlik bilan saqladi va takomillashtirib bordi.

Shaxs ijtimoiy hayotning mas'uli ekan, u albatta bolani o'rab olgan muxit ta'sirida rivojlanadi. Yozma yodgorliklar, xalq dostonlari, epos va jismoniy tarbiyaning taraqqiy etish amaliyotida jismoniy tarbiya tarixini manbai bo'lib xizmat qiladi. Madaniy tarixiy jarayoning mazmuni va asosini kishining jismoniy va intellektual qobiliyatlari uning axloqiy va badiiy estetik sifatlarini rivojlanishi tashkil etadi. Tarbiya masalalari mustaqil O'zbekistonda eng muxim va dolzarb soxalardan biridir. Bu ishlab chiqarish tarbiyai, muomala tarbiyai, bola tarbiyasi tarbiyai, jismoniy tarbiyai, sport bularning hammasi katta diqqati izchil e'tiborni talab qiladi.

Ma'lumki, sportda ma'lum bir sport turi doirasida muvaffaqiyatga intilish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish birinchi o'ringa chiqdi. Talabalarning birgalikdagi ta'lim va sport faoliyati natijasi ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarni shakllantirishdir: ijtimoiy faollik, mustaqillik, o'ziga ishonch, shuningdek, sog'lom ambitsiya. Sifatli ta'lim - ta'limning har tomonlama rivojlanishi,

sport ta'limi barcha o'quvchilar uchundir, baholash ham sportning xilma-xilligi va uch o'lchovli bo'lishi kerak. Sifatli ta'lim oddiy imtihonni e'tiborsiz qoldirmaydi, asosiysi, sport iste'dodining uyg'unligi, sog'lig'i va xarakterining rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi, balki kambag'al o'quvchilarning sport taraqqiyotini ko'rishi uchun, bu hayotiylikni talab qiladigan sport innovatsion bo'lishi kerak turli darajadagi baholash. va talabalarning rag'batlantirish tizimidagi rolini baholash.

Jismoniy tarbiyaning ahamiyatini, o'rnini va ijtimoiy hodisalar tizimidagi joyini chuqurroq tafakkur qilish uchun uning jamiyatdagi asosiy funksiya va shakllarini tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Busiz jismoniy tarbiyaning qonunlarini va uni rivojlanishini boshqarish mumkin emas. Jismoniy tarbiyaning funksiyalari va shakllarini bajaradigan ishining tahlili bilan hozirgi vaqtda nazariyachilar, tarixchilar, sotsiologlar, tashkilotchilar va boshqa mutaxassislarning qiziqishi bejiz emas.

Jismoniy tarbiyani funksiyalari o'z-o'zidan to'liqligicha amalga oshirilmasdan, balki kishini aktiv faoliyati orqali madaniy boyliklarni yo'naltirilgan xolda ishlatiladi. Jismoniy tarbiya funksiyalarida uni faoliyat mazmuni, shu bilan birga xar bir shaxs uchun va umuman jamiyat uchun ahamiyati oshib boriladi. Jismoniy tarbiyani funksiyalari, xar qanday funksiyalar singari malum shakllar bilan amaliyotda ko'rinishi bo'yicha ajratib bo'lmaydi.

«Shakllari» tushunchasi bu erda, jismoniy tarbiya tuzilishi jixatidan turi, ko'rinishi va xar xil turligi bilan farqlanishi tushuniladi.

«Turlari» deb jismoniy tarbiyani elementlarga nisbatan katta birikmasini uni tuzilishi bo'yicha funksiyalari bilan bog'langanligiga aytiladi. Har xil turliligi deb katta bo'lmagan shakllarni, xar xil turlarda bo'lishi tushuniladi. Masalan jismoniy tarbiyani ko'rinishi deb ishlab chiqarish jismoniy tarbiyani olsak, uni xar xil turliligi ishlab chiqarish gimnastikasi kirish gimnastikasi tushuniladi.

Jismoniy tarbiya xaqiqiy funksiyalarini taxlil qilishni quyidagi metodologik xolatlar ko'rsatadi:

1) Jismoniy tarbiyani u yoki bu funksiyasini ko'rinish belgisi bo'lib oxirgi xisobda uning o'ziga xos obyektiv xususiyatlari xisoblanadi. Masalan jismoniy tarbiyaga, ruxiy tarbiyani hamma funksiyalarni obyektiv ravishda boshqa olmaydi.

2) Jismoniy tarbiyani maxsus funksiyalari, tarbiyani boshqa turlariga ta'luqli bo'lmagan, aloxida xususiyatga ega bo'lgan funksiyalardir. Jamiyatda jismoniy tarbiya vositasini ishlatish bilan erishganlarni hammasini maxsus funksiyalar deb atab bo'lmaydi.

Masalan kishilarni birlashib jismoniy tarbiyada faoliyat qilishi yoki jismoniy tarbiya xarakatini xalqlar o‘rtasidagi qiziqishga, faqatgina jismoniy tarbiyaini o‘ziga xos ichki kuchi emas, balki umum ijtimoiy munosabatlarni natijasi bo‘lib, jamiyatda shuncha javobgar tashkilotlarni yo‘naltirilganligidir. Jismoniy tarbiyani umumiy va maxsus funksiyalari, tarbiyani birtomonini farqlaydi. Umumiy funksiyalari jismoniy tarbiyani jamiyatni boshqa xodisalar bilan birlashtiradigan funksional bog‘liqlikka asoslanadi.

3) Jismoniy tarbiyani funksiyalarini uni shakllari bilan ajralmagan bog‘liqlikda deb qarash kerak. Funksiya bilan shakl umumilmiy metodologiya ko‘rsatma bo‘yicha bir-biridan ajralgan xolda, balki bir-birini to‘ldiradi. Shuning uchun jismoniy tarbiya funksiyalarini ajratish, bir tuzumga tushurishda asosiy shakllariga, turlariga va ko‘rinishlariga bog‘lanmasdan rejalashtirish, tuzish mumkin emas.

4) Jismoniy tarbiya funksiyalarini bir butunlikda qaralganda, jismoniy tarbiyaning ijtimoiy tizimni organik qismi bo‘lib, ijtimoiy borliqni boshqa tomonlari bilan bog‘liqdir. Jismoniy tarbiyani tuzilishiga insonllarni hayot kechirishi turmush tarzi jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

5)Jismoniy tarbiyani xar xil shakllarini xususiyati ishlatish doirasiga qarab, ijtimoiy soxani u yoki bu xususiyatini ochib beradi. Masalan,ishlab chiqarish soxasiga kiritilgan jismoniy tarbiya, har kungi turmush hayotga kiritilgan jismoniy tarbiyadan farq qiladi. Jismoniy tarbiya soxasidagi tarbiyaning funksiyasi tajribada hamma vaqt yangi usullar yaratilishi, kishilarning psixologiyasiga ta’sir qilishida ham ko‘rinadi. Jismoniy tarbiyani rivojlanishi va malum darajadagi vazifani bajarishi, jamiyatdagi hayot sharoitida belgilangan xarakterda ishlatilishiga qarab, uni aniq baxosi va roli bilan bog‘liqdir.

6) Jismoniy tarbiya tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyatda asosiy hayot sharoitini o‘zgarishiga bog‘liq xolda o‘zgaradi. Jismoniy tarbiyani funksiya va shakllariga xarakterestika berishda, uni ko‘rinishlarida nisbatan mustaqilligini, xar qaysi jamiyat informatsiyasi sharoitida qabul qilinganligiga qarash kerak.

Jismoniy tarbiya “funksiyasi” deganda, uning o‘ziga tegishli obyektiv xususiyatlari bilan insonga va inson munosabatlariga, muomalasiga ta’sir ko‘rsatishi, shaxs va jamiyatni ma’lum talabini qondirilishi va rivojlantirilishi tushuniladi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiyaning funksiyalari o‘z-o‘zidan to‘liqligicha amalga oshirilmasdan, balki kishini faol faoliyati orqali madaniy boyliklarni yo‘naltirilgan holda ishlatilishi tushuniladi. Inson biror sport turi bilan shug‘ullanayotganda o‘zining shunga bo‘lgan talabini qondiradi, shu bilan birga shu sport turi bilan shug‘ullanayotgan boshqa insonlar bilan o‘zaro muomalada bo‘ladi. Jismoniy tarbiyaning funksiyalarida uning faoliyat

mazmuni, shu bilan birga har bir shaxs uchun va umuman jamiyat uchun ahamiyati ochib beriladi.

Maxsus funksiyalari. Jismoniy tarbiyaning maxsus funksiyalari deganda, tarbiyaning boshqa turlariga taalluqli bo‘lmagan, alohida xususiyatga ega bo‘lgan funksiyalar tushuniladi. Bular uni ko‘rinishlari va har xil turlarini xususiyatiga qarab bo‘linadi. Umuman jismoniy tarbiyaga xos bo‘lgan hamma yoki ko‘pgina turlarini birlashishi sharoitida amalga oshiriladigan funksiyalarni hamda ayrim bo‘limlarga, ko‘rinish va har xil turlariga taalluqli o‘ziga xos funksiyalarni ajratish mumkin.

Jismoniy tarbiyaning maxsus funksiyalari umuman uni o‘ziga xos xususiyatlari, kishini harakat faolligini tibbiy talabini qondirishga mo‘ljallangan bo‘lib, shu asosda organizmni jismoniy holati va rivojlanishini, sog‘liqni mustahkamlash qonuniyatlariga binoan optimal darajaga keltirish va hayotda kerak bo‘ladigan jismoniy ish qobiliyatini ta’minlashdan iboratdir.

Jamiyat tomonidan tuzilgan ma’lum sotsial sharoitda, jismoniy tarbiyaning asosiy maxsus funksiyalarini maqsadga muvofiq ravishda jismoniy kamolotga erishish omili sifatida ishlatilishi shaxsni har tomonlama garmonik rivojlanishiga olib keladi.

Inson organizmining yashashi, me’yorda ishlashi va rivojlanishi uchun harakat faolligi bo‘lishi va unga kerakli sharoitlar yaratilishi shart. Agarda harakat faolligi olib tashlansa, yoki minimum miqdorgacha pasaytirilsa, kishi organizmi yomon oqibatlarga tushib qoladi. Buyuk donishmand Aristotel bejizga “Inson organizmini hech narsa uzoq vaqt jismoniy harakatsizlikdek darmonni quritishi va emirishi mumkin emas” demagan. Bizning davrimizda ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish kishini harakat faoliyatining asosiy sohasini harakat faolligi hajmini kamaytirib, asr kasali gipodinamiyani yaratdi.

Jismoniy tarbiyani har kungi turmushga muntazam ravishda singdirish ishlab chiqarish gipodinamiyasining yomon ta’sirini yo‘qotadi, jismoniy sifatlarni rivojlantirib, insonni har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltiriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda jismoniy tarbiyaning maxsus funksiyalarini ajratamiz:

1) Ta’lim va tarbiya funksiyasi. Jismoniy tarbiyaning umumiy ta’lim tizimidagi doimiy tarzdagi, hayotda kerak bo‘ladigan, harakat ko‘nikmasi va malakalarini, ular bilan bog‘liq bilimlarni tashkil topishida foydalanganda to‘liq ko‘rinadi.

2) Amaliy funksiyasi. Jismoniy tarbiyaning mehnat faoliyatida, professional amaliy tayyorgarlik omili sifatida maxsus tayyorgarlik tizimida qo‘llanganda ko‘rinadi.

3) Sport funksiyasi. Sportni yuqori ko‘rsatkichlar sohasida, jismoniy tarbiya maksimal natijalarga erishish omili hamda jismoniy va unga bevosita taalluqli imkoniyatlarni ko‘rsatishda aniq ko‘rinadi.

4) Rekriativ va sog‘lomlashtirish-reabilitatsiya funksiyasi. Jismoniy tarbiyani dam olishni tashkil qilish sohasida yoki organizmni maxsus qayta tiklash tizimida, charchashga qarshi kurash omili sifatida, emotsional talablarni qondirishda va organizmni vaqtincha yo‘qotgan funksional imkoniyatlarini qayta tiklashda ko‘proq ko‘rinadi. Ko‘pgina ilmiy ishlarda gipodinamiya yurak qon-tomir tizimi kasalliklariga olib kelishi isbotlangan. Shuning uchun ham rekriativ va sog‘lomlashtirish funksiyasining ahamiyati juda katta.

Jismoniy tarbiyaning bu funksiyalarini amalga oshirish obyektiv ravishda faqatgina kishining jismoniy sifatlarigagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning ruhiy va shaxsiy sifatlariga ham bog‘liqdir.

Umumiy funksiyalari. Tarbiyaga taalluqli bo‘lgan hamma umumiy funksiyalar, u yoki bu holda jismoniy tarbiya sohasida ham ko‘rinadi.

1) Estetik funksiyasi. Jismoniy tarbiyani o‘ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, insonlarni jismoniy kamolotga, sog‘lom bo‘lishga, umumiy garmonik rivojlanishiga bo‘lgan talablarini qondiradi. Shuning uchun ham har xil san’at turlarida jismoniy tarbiya turlarini qayd qilish keng yo‘l olgan bo‘lsa, sportning o‘zi ham san’atning ko‘pgina ko‘rinishlarini qabul qiladi.

2) Normativ funksiyasi. Jismoniy tarbiyani jamiyatdagi amaliyotda ishlatilishi bilan, ma’lum mezonlar ishlab chiqiladi va mustahkamlanadi. Bular esa tartiblashtirilgan, sport ko‘rsatkichlarini me’yorlashtirilgan ko‘rsatkichi, jismoniy kamolotning umumiy kriteriyalari, jismoniy yuklamani me’yorlashtirish qoidalari va h.k. bo‘ladi.Bular amaliyotda “Alpomish va Barchinoy” sport majmuasi va O‘zbekiston Respublikasi sport klassifikatsiyasida yaxshi ko‘rsatilgan.

3) Axborot funksiyasi. Jismoniy tarbiya vositalari va ularni ko‘paytirish yo‘lida, avloddan avlodga qimmatbaho ma’lumotlarni qoldirishda va ularni yig‘ishda inson va uning imkoniyatlari katta o‘rin egallaydi.

Jismoniy tarbiya sohasida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar insonni o‘zini tabiiy sifatlarini takomillashtirish va uni yutuqlarini tashish axboroti bo‘lib xizmat qiladi. Kundan kunga jismoniy tarbiya va sportda ko‘pgina yangi ma’lumotlar paydo bo‘lyapti va ular asoisda qonuniyatlar topilayapti.

Masalan: sportni ilmiy tomondan tekshirish, bizning organizmimizning funksional imkoniyatlarini, fiziologiyada hozirgacha ma’lum bo‘lmagan faktlarni ochib berdi.

Bugungi kunda jahonda sport bo‘yicha musobaqalar xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga, insonlar salomatligini rivojlantirishga, turli xil kasalliklarni oldini olishga qaratilgandir. Sportni ommaviy tarzda targ‘ib qilinishi o‘sib kelayotgan yosh avlodni ham, butun dunyo ommasini ham unga jalb qilishdir.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish shaxslar, jamoalar va xalqlar o‘rtasidagi aloqalar million-million xalqlarni birlashtirib, eng ko‘p tarqalgan shakllardan biri bo‘lib qoldi. Jismoniy tarbiya harakatini o‘sib boruvchi oqimida xalqaro shakllarini ham hisobga olganda xalqlar o‘rtasida, do‘stlik va tinchlik orqali g‘oyaviy birlashish va do‘stona aloqa qilish turibdi. “Sport tilining” universalligi, hamma insonlarni tarjimasiz tushunishi, haqqoniy kurasha olishi, kishilarni tarqatmasdan balki birlashtirishga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Krichevskiy V.Yu. Finansovaya samostoyatelnost v sfere obrazovaniya: Pervые shagi: posobie dlya rukovoditeley obrazovatelnых uchrejdeniy - M.: Prosvещenie, 2007.- 176 s.

2. Dolgova L.M. Probnые deystviya uchaщixsya v prostranstve innovatsionnoy shkolы. 2007. S.191-193.

3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.–308 s.

4. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent., o‘quv qo‘llanma O‘zDJTI, 2005 yil - 238 b.

5. Goncharova O. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish O‘zDJTI, 2005 y.

6. Normurodov A.N. Engil atletika. Toshkent: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. ToshDShI 2002 yil.

7. Niyozov I. Engil atletika. Farg‘ona: O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona nashriyoti 2005 yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada muallif tomonidan yosh avlodni jismoniy tarbiya bilan qamrab olish,o’rgatish hamda uni o’zlashtirish, va faoliyatda o’zlashtirilgan harakat amallarini qo’llay olish shuningdek jismoniy tarbiya vositalaridan maqsadli foydalanish ko’zda tutilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор предусматривает охват подрастающего поколения физическим воспитанием, обучение и овладение им, умение применять освоенные движения в деятельности, а также целенаправленное использование средств физического воспитания.

SUMMARY

In this article, the author envisages covering the young generation with physical education, teaching and mastering it, and being able to apply the mastered movements in the activity, as well as the purposeful use of physical education tools.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O`QUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Jurayev S.S.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fani o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, pedagogik asoslar, tarbiya sistemasi.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическая культура, педагогические основы, система образования.

Key words: physical education, physical training, pedagogical foundations, educational system.

Kirish: Jismoniy madaniyat haqidagi ilmiy bilimlar bu tizimning turli bo'g'inlarini hali to'liq tiklagani yo'q. Jismoniy tarbiya bo'yicha bilimlar boshqa bo'limlarga qaraganda erta paydo bo'lgan. Bu, avvalo, jismoniy madaniyatning asosiy shakli sifatida o'z tarixining boshidanoq ta'limning umumiy ijtimoiy amaliyotining katta qismini tashkil etganligi bilan bog'liq edi. Uning asosida vujudga kelgan jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi pedagogika fani bilan bevosita aloqada rivojlanib, nisbatan rivojlangan ilmiy-amaliy fan sifatida ancha ilgari shakllangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kursi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini kasb-hunar ta'limining ilmiy asoslari bilan tanishtiruvchi kengaytirilgan bo'limlar majmuasini o'z ichiga oladi. Uning ahamiyati nafaqat ushbu bilimlarning qiymatida namoyon bo'ladi, balki bo'lajak mutaxassisga jismoniy madaniyatning barcha sohalaridagi kasbiy faoliyatining mazmunini har tomonlama tushunish imkoniyatini beradi, dunyoqarashini o'zgartiradi, uni boshqa xodimlarning umumiy faoliyati bilan bog'laydi. jamiyat sohasini qamrab oladi va ushbu yangi turdagi bilimlar, uslublar va usullarni o'zlashtiradi, zarur keng kasbiy dunyoqarashni rivojlantirishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya ijtimoiy hodisalarga bog'liq. Bu hodisalarni tavsiflash uchun jismoniy tarbiyaning vujudga kelish sabablarini, uning jamiyat hayotidagi

rolini: jismoniy tarbiyaning tarixiy mohiyatini: jamiyatda jismoniy tarbiyaning sinfiy maqsadini: jismoniy tarbiyaning mazmuni va mohiyatini tushunish kerak. jismoniy tarbiyani rivojlantirishda mehnat faoliyati: yutuqlarning ahamiyati va boshqa omillar. Shuni ta'kidlash kerakki, bu omillar jismoniy tarbiyaga alohida emas, balki kompleks tarzda ta'sir qiladi.

Jismoniy mashqlarning ayrim turlarida umumiy holatga va tananing alohida qismlarining holatiga alohida talablar qo'yiladi. Bu talablar nafaqat jismoniy mashqlarning biomexanik maqsadga muvofiqligidan, balki harakatlarni chiroyli bajarish nuqtai nazaridan ham kelib chiqadi.

Masalan, figurali uchish, sho'ng'in va gimnastikada nafaqat mashqlarni muvofiqlashtirish murakkabligi, balki tana holatining aniqligi, jasorat va harakat erkinligi, nafislik va boshqa shunga o'xshash tashqi ko'rinishlar ham baholanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi pedagogika fanidir: u shaxs kamolotining umumiy qonuniyatlarini hamda shu qonuniyatlar asosida O'zbekiston fuqarolari jismoniy tarbiyasi vazifalari ustida ishlash usullari va shakllarini belgilaydi: Nazariya mazmuni. Jismoniy tarbiya fanining jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi va Vatan himoyasiga tayyorlovchi ta'lim haqidagi bilimdir. Jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiyaning barcha turlarini amaliyotda umumlashtiradi, shuningdek aralash fanlardan dalolat beradi. Buni o'rganish barcha sport va pedagogik mutaxassisliklar uchun umumiy nazariy asosdir.

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbiyaning asosi nimalardan iboratligi, uning mohiyatini, tashkil etilishi, bolalarni harakatga o'rgatish metodikasini bilishni talab etadi. Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asosida hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi.

Maktab yoshi harakatga o'rgatish uchun eng qulay yosh sanaladi. Xuddi mana shu yillarda bolalar yuqori egiluvchanlikga, kuchli va tez nerv qo'zg'olishiga ega bo'ladilar va shunga ko'ra harakatlarning shartli reflekslarini yengil hosil bo'lishi bilan ajralib turadilar. 14-15 yoshda harakat analizatorlarining takomillashganligi me'yoriga etadi. Maktabni tugallash davriga kelib o'quvchilar xilma-xil darajadagi harakat malakalariga ega bo'ladilar. Bu o'z vaqtida jismoniy mashqlarni, mehnat faoliyatida va ijtimoiy hayotda turmushda, o'zlarining sog'igini mustahkamlashga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga foydalana oladilar. Darsni yuqori saviyada o'tkazish, dars paytida o'quvchilar faolligini ta'minlash, beriladigan vazifa, ko'rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr

va hurmat uyg'otish o'qituvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsi va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog'liq sanaladi.

Maxsus jismoniy tayyorgalikka umumiy vaqtning 10% ajaratilib, u asosan umumiy mashqlanaganlikni saqlab turish va maxsus mashqlanganlik va ish qobiliyatini o'stirishga erishish bilan uzviy bog'liqdir. Bunda muhim e'tiborni ish qobiliyatini tez va to'liq tiklab olishga yordam beruvchi vositalarga qaratish darkor. Jismoniy sifatlarni shakllantirishda asosan e'tibor tezkorlik, tezkor-kuchlilik va maxsus chidamkorlikni sifatlarini oshirishga yo'naltirilishi zarur.

Jismoniy mashqlarni to'g'ri qo'llash, ularni bolalar qanday o'zlashtirayotganligini nazorat qilib borish, shu bolalardagi jismoniy sifatlarni, uning qaddi-qomati, jismoniy va funksional taraqqiyoti to'g'ri yo'nalishda tarbiyalanib borishiga imkon yaratadi. Binobarin, insonning jismoniy sifatlari uning tug'ilishidan boshlab shakllana boradi. Biroq, uning bolaligida shu sifatlar qanday darajada rivojlanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni o'zlashtirib olishi nafaqat uni o'sib, yashab kelayotgan muhitga bog'liqlik, balki bolaning muayyan sifatini qanday vositalar orqali rivojlantirilishi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda harakatni turi, yo'nalishi va qanday maqsadga qaratilganligiga qarab, har bir jismoniy sifatni shu harakat ijrosidagi o'rni turli xil bo'ladi. Shunday bo'lsada, turli kasb faoliyatlarida yoki sport turlarida shu jismoniy sifatlarning integral ahamiyati o'ziga xos ulushga ega bo'ladi. Lekin qanday bo'lmasin, ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, barcha harakat faoliyatida ayrim jismoniy sifatlarning ustuvorligi darhol ko'zga tashlanadi.

Natijalar. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida tananing energiya va funktsional zahiralarini iste'mol qilish hisobiga ish qobiliyati darajasi pasayadi. Jismoniy tarbiya jarayonida moslashuvchanlikni rivojlantirishning haddan tashqari ko'tarilishi bo'g'imlarning, ligamentlarning va tana tuzilishining deformatsiyasiga, shuningdek, boshqa jismoniy qobiliyatlarni namoyon qilishning mumkin emasligiga olib keladi. U shunday darajaga keltirilishi kerakki, u harakatning bajarilishiga xalaqit bermaydi. Buning uchun elastiklik amplitudasi ortiqcha bo'lishi kerak, ya'ni elastiklikni saqlab qolish va undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Bu harakatlarni ortiqcha zo'riqishsiz va mushaklarga zarar bermasdan bajarishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya nazariyasi o'quv predmeti sifatida jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda, shuningdek, maxsus bilim va ma'lumotlar olishda asosiy hisoblanadi.

Pedagogika institutlari va oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari o'quv rejalarida bu fan jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bilimlarning to'liq

tizimida o‘tish kursini nazarda tutadi, jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalariga asoslanadi va shu asosda boshqa ba’zi nazariy va uslubiy bo’limlar o’rganiladi.

Jismoniy madaniyat bo’yicha keng ko’lamli ilmiy tadqiqotlar madaniyatning boshqa ko’plab sohalariga qaraganda ancha kechroq boshlangan. Jismoniy madaniyat harakatining amalda kengayishi va jamiyat hayotida jismoniy madaniyat imkoniyatlarining ortib borishi ilmiy tafakkurga bo‘lgan talabni oshirdi va shu bilan birga uni hayotga tatbiq etish uchun imkoniyatlar yaratildi.

O’quvchi yoshlarni jismoniy tarbiyalash masalasini o’rganadigan tadqiqotchilarning aytishicha, ularning o’qishi va kasb tayyorgarligida jismoniy tarbiya munosib o’rin egallashi kerak. O’quvchilar sportida yuqorida qayd etilgan ikkala belgi shunday ifodalanganki, o’quvchilarning sport faoliyati darsdan tashqari sanalib, o’quv fani sifatida umumta’lim maktablari o’quv rejalari va dasturlariga qisman kiritilgan va sinfdan tashqari ishlar, maktabdan tashqari muassasalaridagi mashg’ulotlar shaklida alohida ahamiyat, e’tibor bilan ko’ngilli tarzda yo’lga qo’yiladi.

Muhokama. Jismoniy madaniyat darsida aniq va mukammal pedagogik vazifalarni qo’yish kerak. Darsning maqsadlari uning muhim va boshqa sohalarini belgilaydi, ya’ni uning mazmuni, turi, tuzilishi, uslubi va darsning tashkil etilishi aniqlanadi. Darsning maqsadlari yoshi, jinsi, sinfi, o’tkaziladigan joyi, mashg’ulotlarni o’tkazish tartibi va vaqti kabi shartlar bilan belgilanadi. Oldingi darslardan olingan materiallar ham hisobga olinadi.

O`quvchilar jismoniy tarbiyasining turli shakllaridan foydalanish maktabda nafaqat jismoniy tarbiya o`qituvchisining vazifasi, balki boshlang`ich sinf o`qituvchilari, maktab jamoasi va maktab yoshlar birlashmasi faollarining bevosita vazifasidir.

Biroq ko‘pgina maktablarda jismoniy tarbiya davlat dasturi asosida yo‘lga qo‘yilmagan. Birinchi sabab maktab o’quvchilarining jismoniy tarbiyasiga mas’ul bo’lgan barcha shaxslar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo’yicha etarli bilimga ega emasligidir. Ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan uslubiy adabiyotlar va ko’rsatmalar juda kam.

Jismoniy tarbiya amaliyotida harakatlar yo’nalishi tananing yuzasi yoki tashqi nishonlar bilan belgilanadi. Jismoniy qobiliyatlar faoliyat jarayonida rivojlanadi, bu nafaqat ularning namoyon bo’lishini, balki ularni amalga oshirishning ma’lum bir usulini ham talab qiladi.

Rejim deganda mashg’ulot yoki mashg’ulot tizimining bir qismi sifatida ba’zi jismoniy mashqlarni bajarish va ular orasidagi dam olish tushuniladi.

Kerakli tartibni o’rnatishda, birinchi navbatda, inson faoliyati bosqichlarining o’zgarishi muhim ahamiyatga ega.

O’quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida kuch qobiliyatlarini takomillashtirish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari kam yoritilgan bo’lib faqat yosh sportchilarni yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarligi bo’yicha ishlarga e’tibor berilgan.

Jismoniy tarbiya darslarida kuch kuch qobiliyatlarini shakllantirish bo’yicha ishlar yetarli darajada emas. Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarining sifatini yaxshilash, maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va ularni samaradorligini oshirish, sport turlarini takomillashtirish va ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash asosiy sanaladi.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, jismoniy madaniyat darslarida tarbiya, sog’lomlashtirish va tarbiya vazifalari birgalikda hal qilinadi. Shuning uchun o’qituvchi jismoniy tarbiya tizimining umumiy vazifalariga rioya qilgan holda, aniq maqsadlarni qo’ygan holda darsni belgilaydi. Darsning maqsadi, darslarning joylashuvi va darsga tegishli jihozlar aniqlangandan keyin dars mazmunini aniqlaydi.

Jismoniy mashqlarning ishtirokchilar tanasida samaradorligi va mashq qilish texnikasini muvaffaqiyatli amalga oshirish harakatlanuvchi tana, uning qismlari yoki harakatlanuvchi ob’ekt qanchalik to’g’ri yo’naltirilganligiga bog’liq.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. o‘quv qo‘llanma Toshkent., O‘zDJTI, 2005.

2. Usmonxojayev T. S. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari, O’qituvchi, 2005.

3. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., darslik “Iqtisod -moliya” 2008.

4. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O‘quv qo‘llanma O‘zDJTI, 2005.

5. Verxoshanskiy YU.V. Sportchining maxsus jismoniy tayyorgarligini asoslari. –M.: Jismoniy tarbiya va sport, 2003.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida o`quvchilarning jismoniy tayyorgarligini shakillantirishning pedagogik asoslari, jismoniy madaniyat haqidagi ilmiy bilimlar tizimning har xil bo‘limlarini tiklanishi, jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida organizmning quvvat va funksional zaxiralari haqida to’liq bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье в полной мере описаны педагогические основы формирования физической подготовленности студентов на занятиях по физической культуре, научные знания о физической культуре, восстановлении различных звеньев системы, энергетических и функциональных резервов организма при занятиях физическими упражнениями.

SUMMARY

In this article, the pedagogic foundations of forming physical fitness of students in physical education classes, scientific knowledge about physical culture, restoration of various parts of the system, energy and functional reserves of the body during physical exercises are fully described.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING SPORT TURIZMIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

G‘ofurov A.U.
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so’zlar: jismoniy tarbiya, yangi taraqqiyot, sport turizm, innovasion g‘oyalar, jismoniy madaniyat, Yevropa mamlakatlarida, barkamol inson, innovasion itisodiyot, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: физическое воспитание, новое развитие, спортивный туризм, инновационные идеи, физическая культура, в европейских странах, всесторонне развитая личность, инновационная экономика, современные педагогические технологии, научно-методические.

Key words: physical education, new development, sports tourism, innovative ideas, physical culture, in European countries, a well-rounded person, innovative economics, modern pedagogical technologies, scientific and methodical.

Kirish. Mamlakatimizda o‘qituvchi ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil qilish bilan birga, uni boshqaradi, davlat ahamiyatiga molik vazifalarni amalga oshiradi, davlat maqsadlari asosida yangi avlodni jamiyat uchun shakllantiradi. [1] Shunga ko‘ra, o‘qituvchi o‘z faoliyatini yangi uslubda tashkil qilishga tayyor bo‘lsagina, hali kashf qilinmagan kashfiyotlarga boy bo‘lgan kasbiy pedagogik jarayonni tashkil qiladi hamda har tomonlama barkamol shaxs shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratadi. Demak, ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishda ilk qadamlaridan biri bu - o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik jarayonga tayyorligini ta’minlashdir.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash quyidagicha kechadi: mo‘ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqqiyatini bashorat qilish; yangilikni boshqa innovasiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va aniqlik darajasini aniqlash; yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish. O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo‘llashdan oldingi davrdagi o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish.

2. Kasbiy faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.

3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo‘lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Kasbiy faoliyatda o‘qituvchi ilg‘or, sermaxsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o‘ch bo‘lishi lozim. Kasbiy faoliyat motivasion, texnologik va refleksiv qismlardan tashkil topadi.[2] Mazkur jarayon ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: yangilikni idrok qilishga kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va yangicha harakat qilishga o‘rgatish. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda tahsil oluvchilarning bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Kasbiy faoliyatda o‘qituvchi ilg‘or, sermaxsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o‘ch bo‘lishi lozim. Kasbiy faoliyat motivasion, texnologik va refleksiv qismlardan tashkil topadi.[4] Mazkur jarayon ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: yangilikni idrok qilishga kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va yangicha harakat qilishga o‘rgatish. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda tahsil oluvchilarning bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.[3]

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati natijasida talabalarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o‘rganilib chiqiladi, maktab va auditoriyadan tashqari tadbirlarda jismoniy chiniqishga mo‘ljallangan uzluksiz didaktik tizimni ta’minlaydigan metodik majmualar yaratiladi; turli musobaqalar, sog‘lom turmush tarzini reklama qiluvchi tarbiyaviy tadbirlar: suhbatlar, kechalar, sport-shoular uyushtirilib, o‘kuvchilarning sport turlariga qiziqishlari inobatga olinadi, sport to‘garaklariga jalb qilinadi, tahsil oluvchilarning jismoniy, ruhiy hamda intellektual qobiliyatlari o‘stiriladi; oiladagi, sinf va maktabdagi pedagogik hamda psixologik muhit atroflicha o‘rganilib, ularning hamkorligi rivojlantiriladi.

Oliy ta’lim muassasalarida innovasion jarayonlarni rivojlantirish har bir mamlakat ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlar va qonunchilik bazasiga tayangan holda amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqi tarkibidagi mamlakatlarning barchasida ham innovasiyalarning amaliyotga joriy etilish tizimi bir xil emas, masalan, Germaniyadagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil oluvchi bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini o‘qitish jarayonida innovasiyalar bevosita Sport markazlari, Sport federasiyalari buyurtmasi asosida yaratilib, tatbiq etiladi. Ispaniyadagi oliy o‘quv yurtlarida innovasiyalarni yaratish jarayonida asosan sport mutaxassislari,

trenerlar, tadqiqotchilar faoliyat ko‘rsatadi va ular yaratilayotgan yangilikka bozor talabini o‘rgangan holda yondashadilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda innovasiyalar transferi Ispaniyada o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga kasbiy faoliyat sirlarini o‘rgatishda maxsus model yaratilgan bo‘lib, bu model boshqa mamlakatlardagi modellardan farqlanadi. O‘qituvchilarni innovasion faoliyatga tayyorlash muammolarini muhokama qilishda uning baholanishi, nazorati, monitoringi, sifatning ta’minlanishi va boshqalar inobatga olinadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda Ispaniyada o‘quv muassasalarida samaradorlik va sifat eng muhim ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi.[6] O‘qituvchilarning innovasion faoliyati yaxlit ta’lim tizimi yoki uning ma’lum bir aniq bosqichidan kelib chiqib miqdoriy jihatdan ham baholanadi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashga yangicha yondashuvlarni shartli ravishda ikkita modelga bo‘lish mumkin .

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining o‘z faoliyatiga evristik yondashuv modeli – oliy ta’lim muassasalarining(OTM) jismoniy tarbiya va sport ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun qo‘llanadi. Bu model tadqiqotchi olim V. I. Lyaxning “Fizicheskaya kultura” kitobida o‘z aksini topgan.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining o‘z faoliyatiga kreativ yondashuv modeli – Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Chexiya, Latviya mamlakatlarida qo‘llaniladi. Ushbu mamlakatlarda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovasion faoliyatida tahsil oluvchilar bilan pedagogik munosabatlarga kirishishda mavjud muammo va yutuqlarni aniqlash, ta’lim sifatini oshirishni rejalashtirish imkoni yaratiladi.[6]

Fransiyada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining faoliyati OTMni baholash bo‘yicha Milliy qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur qo‘mita mamlakatdagi oliy ta’limning holatini davriy ravishda xolis baholab, natijalarni parlamentga va hukumatga, so‘ngra nashrlar shaklida keng jamoatchilik e’tiboriga yetkazadi. Germaniya va Buyuk Britaniyada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining faoliyatini nazorat qilish o‘quv jarayoniga javob beruvchi maxsus komissiyalar tomonidan olib boriladi.

Hozirgi kunda respublikamizdagi mavjud pedagogika oliygohlarida “Jismoniy tarbiya va madaniyat”, “Xotin-qizlar sporti”, “Boshlang‘ich ta’lim va bolalar sporti” va boshqa ta’lim yo‘nalishlarida tahsil oluvchilarni o‘qitishda samarali texnoliyalardan foydalanilmoqda. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining amaliyoti tashkil etilganda, ularning kasbiy, metodik

mahoratini shakllantirishga mo‘ljallangan ta’lim sifatiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga motivasion yondashuvlar va munosabatlar tizimini yaratishning ijtimoiy-pedagogik zarurati ortib bormoqda. Bu esa ularni o‘qitish, kadr sifatida tayyorlash tizimini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu ma’noda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini zamon talabalari asosida o‘qitish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy yondashuv asosida innovasion faoliyatga tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Zamonaviy sharoitda jismoniy harakatlar ulushi kamayib borayotganligi bois jismoniy tarbiya sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ta’limning barcha turlari uchun muhim masalalar sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Zamonaviy jismoniy madaniyat ta’limi ma’lum ma’noda jamiyatning yuqori malakali jismoniy tarbiya mutaxassislariga bo‘lgan ob’yektiv ehtiyoji va bitiruvchilarning amaliy-kasbiy tayyorgarliklari o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq muammoli vaziyat bilan ifodalanadi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishga, professional faoliyatni yo‘lga qo‘yishga motivasiyani shakllantirish, ularni ichki motivlarini kasbiy faoliyat samaradorligi uchun yo‘naltirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Motivasiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig‘indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma’noni bildiradi. Pedagog olimlardan E.G‘oziyev va R.Asomovalar ta’kidlanganidek, motiv va motivasiya tizimi shaxsning faoliyati, muomalasi, xatti-harakatining ichki regulyasiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg‘u, ustanovka, ideal, imon-e’tiqod, vijdon, maqsad qo‘ya olish va boshqalarni amaliyotda ro‘yobga chiqarishning bosh omili hisoblanadi. Rus olimii A.N.Leontyev fikricha, shaxsni motivasion muhiti butun hayoti davomida rivojlanib boradigan yaxlit tizim hisoblanadi. U o‘z iyerarixiyasiga ega harakatlanuvchi hisoblanib, ehtiyojlar predmetini hamda individ holatini namoyon etadi. Shunday ekan, inson ong ostida turli xil ehtiyojlar mavjud bo‘lib, bu ehtiyojlar inson xatti-harakatlarini, uning tashqi faolligini shakllantiradigan motivasiyaga aylanishini anglatadi.

Natijalar. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovasion yondashuvlar asosida motivasion faoliyatga yo‘naltirishda ulardagi faollik va ta’limiy zo‘riqishni hisobga ham olish lozim. Boshqa bir olimlar P.Fress va J.Piaje fikricha, faoliyatni amalga oshirish uchun, yetarli darajada motivasiya

bo‘lishi zarur. Biroq, motivasiya o‘ta yuqori bo‘lsa, faollik va zo‘riqish darajasi oshadi va bu o‘z o‘rnida faoliyat, xatti-harakat samaradorligini yomonlashishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan motivasiyaning o‘ta yuqori darajasi faoliyatda salbiy holatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan negativ emosional ta’sirlar: stress, hayajon, zo‘riqishni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, motivasiyaning o‘ta yuqori darajasi har doim ham eng yaxshi jihat hisoblanmaydi.[7]

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari guvohlik berishicha, so‘ngi yillarda turli xil darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarning son ortmoqda.Ko‘pgina talabalar standart o‘quv dasturlarida nazarda tutilgan yuklamalarni bajarishga to‘liq xolatda tayyor emasligi ma’lum bo‘lmoqda. Bu ko‘rinishdagi talabalar tomonidan mashg‘ulotlar rejimlari (berilgan yosh guruhlari o‘chun fiziologik jixatdan asoslangan sandartlarga muvofiq) doirasida tuzib chiqilgan o‘quv mashg‘ulotlari dasturlarini bajarish qiyin amalga oshiriladi. Bu xolat sezilarli sondagi talabalarning jismoniy tayyorgarligi va ular tomonidan bajariluvchi normativ testlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan bog‘liq xisoblanadi. “Ko‘pgina talabalarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga nisbatan zaruriy motivasiya mavjud emasligi vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Bunday talabalarda ko‘pgina xolatlarda amaliy mashg‘ulotlarda nofaol xolatda ishtirok etish, elementar mashqlarni bajarish holatida bo‘lmaslik, jismoniy yuklamalardan qochish, shuningdek organizmning barcha tizimlarini optimal darajada funksiya bajarishi uchun talab qilinuvchi natijaga erishishda qat’iylik namoyon bo‘lmasligi kuzatiladi. Bunday talabalarning jismoniy faoliyatini faollashtirish muhim masala sifatida qolmoqda. Bu talabalarni o‘qitish jarayoni uslubiyati va uni tashkil qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega xisoblanadi. Bu xolat turli xil darajada jismoniy jixatdan rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarga xarakatlarga oid holatlarni o‘rgatishda yangi uslubiyatni ishlab chiqish talab qilinishiga olib keladi. Jismoniy madaniyat ta’limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda talabalarning kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash yo‘lidagi ortib boruvchi faolligini taklif etadigan va rag‘batlantiradigan o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi usul va yondashuvlar ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistonda ta’limning yangi paradigmalarga o‘tishi nafaqat talabalarning o‘zini o‘zi natijaviy rivojlantirishga innovasion yondashuvlarni, balki ushbu jarayonning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, “Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan

muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talabalariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda”[8]. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimining nazariy va amaliy mazmunini takomillashtirish, pedagoglik kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, kreativ ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati, eng avvalo, ularning pedagogik muloqotga tayyorgarligi, o‘quv-metodik hamda ma’naviy-ma’rifiy vazifalarni hal etish yuzasidan muayyan kasbiy harakatlarni bajarish layoqatidir. Buning asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarning muayyan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari, eng avvalo, pedagogik muloqot madaniyati yotadi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning muloqot madaniyati talablariga, o‘quvchilarga axborotlarni aniq va ravon taqdim etish mahorati, hamkasblariga to‘g‘ri maslahat va taklif berishni bilishi, bahoning shaffofligini ifodalay olishi, xohish-istaklarini bildirishi, muloqotning nutqiy va nutqsiz vositalari hamda nutq me’yorlaridan to‘g‘ri foydalanishi, muloqotda-anglash, estetik, axloqiy, kommunikativ ehtiyojlarni qanoatlantirishi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur talablar, avvalo, kasbiy-pedagogik faoliyatda o‘ta muhim bo‘lgan madaniy-kommunikativ fazilatlar – hissiy madaniyat, ta’lim oluvchilarning e’tiqodi, ularga ta’sir o‘tkazish; motivasiya; kasbiy rivojlanish; nazariy bilim hamda muloqot tuzilishi va texnologiyasidan xabardorlik (ularga ijodiy yondashuv); suhbatdoshi ruhiyatini bilish; pedagogik hamkorlik va shaxslararo o‘zaro ta’sir; pedagogik taktni egallash; pedagogik muloqot texnikasi; nutq madaniyati va muloqotning nutqsiz vositalarining ifodalanishida o‘z aksini topadi”.[9]

Muhokama. Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari kasbiy muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, jismonan va ma’nan tarbiyalanganligi, kelajakda o‘quvchilarni sportga jalb qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Sport va estetika, sport va axloq, sport va muloqot, sport va madaniyat, sport madaniyati va shaxsning rivojlanishi – amaliyotda pedagogik madaniyat – bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisi muloqotini anglab olish, tushunib yetish va integrasiyasi bir-birini to‘ldirib boradigan va ajralmas tushunchalardir. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisini shakllantirish jarayonida sportdagi go‘zallik, ya’ni uning o‘z ko‘rkamligi, gavdalanishi, pedagogik faoliyatida yuksak zavq-shavq

uyg‘otishi, chuqur taassurotlar qoldirishi va unutilmas hissiyotlarni junbishga keltirishi, ayniqsa, muhim.

Pedagog olimlar Sh.Abdullayeva va E.Xurramovlar fikricha, “jismoniy tarbiya darslarida o‘qituvchi har tomonlama yetuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat’iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining faoliyatini innovasion tashkil qilish, ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonini rivojlantirish bilan birgalikda hozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini nazariy va amaliy jihatdan innovasion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni jismonan tarbiyalashda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat jismonan barkamol, sog‘lom shaxsgina o‘zining intellektual, ma’naviy imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi”.[10] Shunday ekan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni innovasion faolyatga yo‘anltirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Shu ma’noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahliliy o‘rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovasion faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uning istiqbolli strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o‘rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizasiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovasion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’limdagi motivasion yondashuvning o‘rni yuqori hisoblanadi va samaradorligi baland bo‘ladi. Chunki motivasion yondashuv talabalarning kasbiy faoliyatiga ehtiyoj va qiziqishlari asosida motivasion munosabatni shakllantirish orqali ularni yo‘naltirib boradi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy muvafaqiyatga erishish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash va ularni takomillashtirib borish istagini kuchaytirib yuboradi. Shu jumladan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvichlarini ham motivasion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash o‘zining samaradorligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909 сонли Қарори. // https://lex.uz/docs/3171590

2. Холодов Ж. К., Кузнецов В. С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для сту-дентов высших учебных заведений. — М., Академия, 2000. — 480 с.

3. Мишагин В. Н., Личностно-ориентированный подход к организации профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры. Кан. пед. наук. Дисс. Автореф. Саратов, — 2001. — 190 с.

4. Эргашев Р. Н. Педагогик техниканинг эстетик хусусиятлари. // Узулсиз таълим тизимида инновацион техноло-гиялар: муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий материаллари. — Гулистон: 2010. — 43–44-б.

5. Махмудов, Б. А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг методологик асослари / Б. А. Махмудов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 52 (342). — С. 459-461. — URL: https://moluch.ru/archive/342/76832/ (дата обращения: 13.06.2023)

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga oid bilimlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bugungi kunda turizm faoliyati har bir mamlakat uchun muhim ijtimoiy sohaga aylanganligi, sport turizm sohasining individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o‘rganilib rivojlantirish to’g’risidagi fikr mulohazalar yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены теоретико-методологический основы формирования знаний будущих учителей физической культуры о спортивном туризме, то, что сегодня туризм стал важной социальной сферой для каждой страны, индивидуально-психологические особенности сферы спортивного туризма, а также тщательно изучена и разработана сфера их мотивов, выделены комментарии по поводу мнения.

SUMMARY

In this article, the socio-pedagogical foundations of developing the knowledge of future physical education teachers about sports tourism, the fact that today tourism has become an important social sphere for every country, the individual-psychological characteristics of the sphere of sports tourism, and the sphere of their motives are thoroughly studied and developed. comments about the opinion are highlighted.

KICHIK SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Boboraximov S.M.
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so’zlar: jismoniy va ma’naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasi, sport, jismoniy sifatlar, o‘quv yuklamalari, jismoniy mashqlar, saf, akrobatika, tayanib sakrash, muvozanat saqlash, tayanish va osilish, tirmashib chiqish, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va koordinatsiyaga egalik.

Ключевые слова: интеграция физического и духовно-нравственного воспитания, спорта, физических качеств, тренировочных нагрузок, физических упражнений, гребли, акробатики, прыжков с трамплина, равновесия, наклонов и висов, лазания, ловкости, гибкости, выносливости и координации.

Key words: integration of physical and spiritual-ethical education, sports, physical qualities, training loads, physical exercises, rowing, acrobatics, vaulting, balance, leaning and hanging, climbing, agility, flexibility, endurance and coordination.

Kirish. Yurtimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va metodik ta’minotini kuchaytirish, o‘quvchilarning sport bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida olib borilayotgan islohotlar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jozibadorligini oshirib, ta’lim oluvchilarning unga bo‘lgan qiziqishi va e’tiborini yanada kuchaytirishga zamin yaratmoqda. O‘zbekistonda yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash chora-tadbirlarida “yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” kabi vazifalar belgilangan[5]. Bu esa maktab o‘quvchilari jismoniy tarbiyasining zamonaviy maqsad va vazifalari, nazariy-metodologik asoslari, jismoniy tarbiya darslarining hozirgi bosqichidagi xususiyatlarini aniqlashtirish, darslarni loyihalashtirish texnologiyalari asosida takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv-metodik ta’minotini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirib, mazkur zaruratni xal etilishi esa ta’lim-tarbiya berish jarayonlari samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotchi olimlar M.S.Axmatov, G.M.Salimova, X.A.Meliyevlarning fikriga ko‘ra, jismoniy tarbiyani takomillashtirish konsepsiyasi – jismoniy tarbiyani jismoniy tayyorgarlikning har xil variantlariga qadar toraytirish, sog‘lomlashtiruvchi va ta’lim vazifalari esa faqatgina deklaratsiya qilinishi kerak degan fikrlarni ilgari suradi[2; 7; 13;].

Pedagog olim Sh.X.Xankeldiyev jismoniy tarbiya bo‘yicha mavjud konsepsiyalarni tahlil qilib, ularning barchasi ikki guruhga bo‘linishini ta’kidlaydi. Birinchisi davlat tomonidan amalga oshiriladigan jismoniy tarbiya konsepsiyasi bo‘lib, unda, o‘quvchilarni tayyorlashda davlat pozitsiyasidan kelib chiqiladi va bo‘lajak kasbiy faoliyatni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Ikkinchi guruh konsepsiyasini, muallif, shartli ravishda individual-tipologik deb nomlagan[14].

G‘arblik olim K.R.Evensonning fikricha, jismoniy tarbiya darsi – kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni harakatga bo‘lgan biologik ehtiyojini qondiradigan vosita sifatidagi yagona predmet hisoblanadi[4]. Afsuski, umumta’lim maktabi tizimidagi zamonaviy jismoniy tarbiya darsi, tarbiyani barcha boshqa shakllari qatorida ikkinchi darajali hisoblanib, oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal qilmaydi, aynan shu muammo, o‘quvchilar kontingentini jismoniy tarbiyasini boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan asosiy shakli hisoblanishi to‘g‘risida shubhalanishga olib keladi[6]. Rus olimasi N.T.Lebedevaning tajribalarida, o‘quvchilar maktabda kuniga 6 soatdan to 8 soatga qadar statik holatda bo‘lishlari, xaftasiga 2 soat o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darsi esa, bolalarni harakatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini faqat 10-15%ga kompensatsiya qilishi aniqlangan[12].

Bir qator mualliflar, milliy harakatli va sport o‘yinlarini, oson jismoniy mashqlarni, eng oddiy musobaqalarni o‘tkazish bilan kundalik jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini zaruratini ko‘rsatishgan holda milliy harakatli o‘yinlarni o‘tkazishni oshirishni tavsiya qilishgan. Mualliflar tomonidan taklif qilingan yosh-jins belgilari, jismoniy tayyorgarliklari va o‘quvchilarning ma’lum bir harakat sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan milliy harakatli o‘yinlarni tasniflagichini qo‘llash maqsadga muvofiq. Umumta’lim maktablari 1–11-sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya bo‘yicha ta’limning zamonaviy dasturi, maktabdagi jismoniy tarbiyani maqsadi va vazifalarini amalga oshirishni ta’minlashga qobiliyatli majburiy mashg‘ulotlarga yo‘naltirilgan. O‘quv materialining mazmuni bolalarni jismoniy holatini hisobga olgan holda rejalashtiriladi, o‘quv guruhi esa past, o‘rtacha va yuqori sifatida tabaqalashtiriladi[9]. Bir qator ilmiy ishlarda, o‘quv vazifalarini ta’lim oluvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasini

hisobga olgan holda taqsimlashga tabaqalashtirilgan yondashuvni zarurligi qayd qilingan[10; 11].

Natijalar. Umumta'lim maktablarida jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlashda jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan har bir jismoniy mashq yoki o'yinning ma'naviy-axloqiy tomoniga e'tibor berish zarur hisoblanadi. Chunki har bir mashq yoki o'yindagi g'oyalar yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mezonlari hisoblanmish kamtarlik, odoblilik, xushmuomalalik, mexr-oqibat, diyonat, orzu-umid, sabr-toqat, mexribonlik, saxiylik, insoniylik, burchga sadoqat, mehnatga muhabbat kabi qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalaydi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish o'quvchilarning kundalik extiyojiga aylanmog'i zarur, shu bilan jismoniy tarbiya va sport o'quvchilarni xar tomonlama rivojlantirishda, sog'lom turmush tarzida, barkamol inson bo'lib yetishishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchilarning o'z kasbi va o'quvchilarni sevishi, jismoniy tarbiya ta'lim mazmuni bo'yicha nazariy bilimlarni berib borishi hamda ularning bilimi, kunikma va malakasi hamda jismoniy sifatlarini doimiy ravishda oshirib borishni taqozo etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z faoliyatini yanada takomillashtirishi, o'qituvchi faoliyati samaradorligining o'lchovi, o'kuvchilarning dars va mashg'ulotlarga katta qiziqish bilan katnashishlari va undan konikish xosil kilishlari, o'kituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit, o'quvchilarda bo'lgan ijobiy o'zgarishlar, ularning erishgan yutuqlari, o'quvchilarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lish orzusining paydo bo'lishlaridir. Shunday ekan, o'qituvchi jismoniy tarbiyani o'qitishda uning sifatini oshirish uchun dars va mashg'ulotlar jarayonida ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash, o'quvchilarda ijodiy tashabbuskorlikni vujudga keltirish va unda o'qituvchi nazoratining o'rniga qo'yilishi muhim ahamiyatga egadir.

Muhokama. Maktab ta'lim tizimidagi "Jismoniy trabiya" faniga nisbatan davlat standartlarini saqlanishi fonida amalga oshiriladigan umumiy ta'lim fanlari bo'yicha o'quv yuklamalarini oshirilishi, bir qator holatlarda, nafaqat o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini pasayishiga, balki ularning salomatligini yomonlashishiga ham olib kelishi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Ko'pchilik mualliflar, jismoniy tarbiya bo'yicha zamonaviy dasturlar bolalarni har tomonlama barkamol rivojlanishi tamoyillarida shaxsga va faoliyatli yondashuvga asoslanishi kerak, ta'lim-tarbiya jarayonida esa, maktab ta'limi tizimidagi jismoniy tarbiyani takomillashtirishga yo'naltirilgan eng yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi kerak, degan fikrga qo'shilishadi.

Boshlang‘ich ta’limga doir barcha fanlar o‘quv dasturlari asosida o‘qitiladi, jumladan, jismoniy tarbiya ham. Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish yuzasidan olib boriladigan ishlarning barchasida ham o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi, ularning jismoniy rivojlanishi va salomatligi asosiy masala qilib qo‘yilgan.

Shu o‘rinda biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasiga alohida to‘xtalishni joiz deb bildik. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasi:

- jismoniy tarbiya darslari;
- darsdan va sinfdan tashqari ishlar;
- maktabdan tashqari muassasalardagi jismoniy tarbiya ishlari;
- oiladagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari shakllarida amalga oshiriladi.

O‘quvchilar jismoniy tarbiyasining eng asosiy shakli bu – jismoniy tarbiya darsi hisoblanadi. Chunki dars jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tizimli shakli bo‘lib, sinflarda belgilangan mutaxassis o‘qituvchilar tomonidan jadval asosida umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartiga ko‘ra o‘quv dasturi o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2017-yilda tasdiqlangan jismoniy tarbiya fanidan Davlat ta’lim standarti va umumta’lim maktablari o‘quv rejasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya darslari asosan haftasiga 2 soatdan bir o‘quv yiliga 1-sinflar uchun 66 soat, 2-3-4-sinflar uchun 68 soat, shuningdek, gimnastika, yengil atletika, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari elementlari: basketbol, voleybol, gandbol, futbol, shaxmat kabi sport turlari o‘qitilishi belgilangan.

Davlat ta’lim standarti talablariga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya fanini o‘qitilishida quyidagi talablar belgilangan. A1 talab:

- kun tartibi qoidalariga rioya qila oladi;
- ertalabki badan tarbiya va dars jarayonida chiniqtirish mashqlarini bajara oladi;
- saflanish va yurish qoidalarini bajara oladi;
- harakatli o‘yin turlari va ularning qoidalarini biladi;
- jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ta’sirini biladi;
- shaxmatning boshlang‘ich o‘yin qoidalarini biladi.
- jismoniy mashqlarni (saf, akrobatika, tayanib sakrash, muvozanat saqlash, tayanish va osilish, tirmashib chiqish) bajarishda mashqlar ketma-ketligini bir-biri bilan bog‘lay oladi;
- mashqlarni bajarishda jismoniy sifatlarga (chaqqonlik, kuchlilik,
- tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va koordinatsiyaga) ega bo‘ladi;

– mantiqiy o‘yinlarni (shaxmat, shashka va boshqalarni) o‘ynay oladi.
– jismoniy mashqlarni bajarishda shikastlanishning oldini olish qoidalariga amal qila oladi;
– jismoniy mashqlarni bajarishdan oldin va keyin yurak urish meyorini aniqlay oladi;
– jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qila oladi[8].

Darslarni o‘tkazishda o‘quvchilarning yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligini hisobga olib, mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya darslari qat’iy kun tartibi bo‘yicha xaftada 2 marotaba 45 daqiqadan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

O‘quvchilar fan dasturda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi hamda ularni takomillashtirishdan iboratdir. Jismoniy tarbiyada esa ilim, ko‘nikma va malakalarni quyidagicha talqin etiladi:

Bilim – jismoniy tarbiyada o‘quvchilar yangi harakatlarga oid ma’lumotlar oladi va dastlabki takomillashmagan darajadagi bajarishlarni o‘zlashtiradi.

Ko‘nikma – harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va u o‘quvchilarda ko‘p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi.

Malaka – o‘quvchilarda jismoniy harakatlarni bir xil sharoitning o‘zida ko‘p marta takrorlashi natijasida hosil qilinadi. Jismoniy tarbiya darsi mazmuni va tashkil etilishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib sport zalda, maxsus inshootlarda, maydonchalarda, maktab hovlisida, stadion yo‘laklarida o‘tkaziladi, bunday joyda o‘quvchilarga dars o‘tishda alohida sharoitlar yaratiladi. O‘quvchilarga jismoniy tarbiya darslarida odatdagi maktab formasida emas, balki maxsus sport kiyimlarida bo‘lishi talab etiladi. Bunda jismoniy harakatlarni bajarish qulay bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya darslari bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy masalalardan biri bu darsning tuzilishidir.

Darsning tuzilishi – bu dars qismlari soni, ularning ketma-ketligi va mazmuni, davomiyligidir – deb ta’rif berish mumkin[1].

Maxsus ilmiy adabiyotlarda mutaxassislar tomonidan darsni tuzilishiga turli fikrlar bildirilgan. Masalan, ba’zi mutaxassislar darsni kirish – tayyorlov – asosiy – yakuniy qismlardan iborat deb biladilar. Yana bir qator mutaxassislar jismoniy tarbiya darslari tashkiliy – asosiy – yakuniy qismlardan iborat deb hisoblaydilar[3]. Aslida, bizningcha, bugungi kunda jismoniy tarbiya darslari tuzilishiga ko‘ra uch qismdan iborat va ular darsning tayyorlov qismi, darsning asosiy qismi, darsning yakuniy qismi deb nomlanadi.

Darsning tayyorlov qismi o‘quvchilarni har tomonlama darsning asosiy qismida bajarilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarga tayyorlab olishdan iborat bo‘lib, bu qismga odatda o‘rtacha taxminan 8-12 minut, ba’zan ko‘proq vaqt rejalashtiriladi.

Darsning asosiy qismida o‘qituvchi tomonidan tuzilgan dars ishlanmasiga ko‘ra sinfda jismoniy tarbiyadan o‘quv dasturida belgilangan yangi mashqlar o‘qitiladi yoki avval o‘qitilgan mashqlar takrorlanadi, takomillashtiriladi zaruriy nazariy bilimlar beriladi. Jismoniy tarbiya darslarining asosiy qismi uchun 25-30 daqiqa vaqt ajratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darsni asosiy qismini tashkil etish turli xil bo‘lishi mumkin. YA’ni jismoniy tarbiya bo‘yicha Davlat ta’lim standarti o‘quv dasturi bo‘limlari (gimnastika, yengil atletika, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari elementlari, shaxmat)ni darsning asosiy qismida turli metodlarda tashkil etishni talab etadi.

Darsni yakuniy qismi uchun odatda 3-5 daqiqa sarflanadi. Unda darsni asosiy qismida o‘quvchilar olgan jismoniy yuklama holati pasaytiriladi, yengil mashqlar bilan yakunlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi, lozim bo‘lsa tanbeh beriladi, baholanadi va uyga vazifa beriladi. Uyushgan holda dars o‘tilgan joydan chiqib ketiladi. Dars qismlarining to‘g‘ri tashkil etilishi darsning uzluksizligini va samaradorligini ta’minlashga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirishning yana bir usuli, jismoniy tarbiya darslarini pedagogik vazifalariga ko‘ra turlanishidir. Jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishda, ta’lim-tarbiya va sog‘lomlashtirishning pedagogik vazifalariga ko‘ra jismoniy tarbiya darslari, “kirish darslari”, “yangi materiallarni o‘zlashtirish darslari”, “aralash darslar”, “takomillashtirish darslari”, “nazorat darslar” “yakuniy darslar” deb turlanadi.

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qitiladigan jismoniy tarbiya darslarini o‘rganish asosida jiddiy kamchiliklar borligi ma’lum bo‘ldi. Bular quyidagilardan iborat:

– aksariyat maktab rahbariyatining jismoniy tarbiya darslariga bo‘lgan munosabati ijobiy emas. (Jismoniy tarbiya darslarini muhim ahamiyatga ega dars deb hisoblamaydi).
– o‘qituvchilar salohiyatining pastligi, ularning o‘zi ustida ishlamasligi yoki mavjud qoidalarga amal qilmasligi holati.
– jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘tkazishda jihozlarning yetishmasligi.
– boshlang‘ich sinflar uchun jismoniy tarbiya bo‘yicha mukammal darslikning mavjud emasligi.

– jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘tish uchun maxsus inshootlarning yetishmasligi.
– jismoniy tarbiyadan ochiq darslarning yetarlicha tashkil etilmasligi va muhokamaga qo‘yilmasligi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz kerakki, keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz va tavsiya sifatida beramiz:

– jismoniy tarbiya darslariga oid (yillik, choraklik, oylik va xaftalik) rejalarni puxta va to‘g‘ri tuzishga erishish;
– jismoniy tarbiya darsi uchun zarur bo‘lgan inshoot va jihozlarning mavjudligini ta’minlashga erishish;
– pedagogik talablarga asosan jismoniy tarbiya darslarini 3 qismga bo‘lib, tashkil etish va o‘tkazishga rioya qilish;

o‘qituvchi tomonidan darsda o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishning eng to‘g‘ri samarali usullarini qo‘llay olishiga erishish;

– jismoniy tarbiya darslariga pedagogik vazifalarni aniq qo‘yish;
– oldingi o‘qitilgan dars vazifalari bilan keyingi darsning vazifasini bog‘lab dars o‘tishga rioya qilish;
– o‘quvchilarning yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarlik darajasi, salomatligi hisobga olingan holda ularning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi jismoniy mashqlarni to‘g‘ri tanlash;
– jismoniy tarbiya darsini o‘quv kun tartibidagi boshqa fanlar bilan muvofiq olib borishga amal qilish;
– jismoniy tarbiya darslarida tarbiyaning boshqa turlarini ham amalga oshirib borish zarurligini inobatga olish;
– jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish mexanizmini ishlab chiqish zarur;
– jismoniy tarbiya darslarini Davlat ta’lim standarti asosida tashkil etish va o‘tkazishning rahbariyat tamonidan nazoratini olib borish zarur.
– milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘tkazishga erishish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘tkazish o‘zining yuqori samarasini beradi va dars sifati ta’minlanadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A., Sh.Xonkeldiyev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik – T.: 2013. – 462 b.

2. Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport-sog‘lamlashtirish ishlarini samarali boshkarish. Monografiya. Ibn Sino, T. UzDJTI, 2005. – 211 b.

3. Axmedov F., Atamurodov Sh. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy madaniyat darslari. Uslubiy qo‘llanma. – T.: Turon zamin ziyo, 2017. – 140 b.

4. Evenson K.R. Implementation of a schollbased state policy to increase physical activity (Scholl Health Policy) / K.R. Evenson, K. Ballard, G. Lee, A.Ammerman // Journal of Scholl Health. – 2009.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018 y., 07/18/3907/1706-son.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limga doir jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirishning turli usullari, jismoniy tarbiya darslarini pedagogik vazifalariga ko‘ra turlanishi, jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishda ta’lim-tarbiya va sog‘lomlashtirishning pedagogik vazifalari, umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qitiladigan jismoniy tarbiya darslarini o‘rganish asosida chiqarilgan xulosalar hamda boshqa tahliliy mulohazalar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены различные методы совершенствования занятий физической культурой для начальных классов, классификация занятий физической культурой по их педагогическим задачам, педагогические задачи воспитания и здоровья в эффективной организации занятий физической культурой, выводы, сделанные на основе изучения физической культуры. классы, преподаваемые в начальных классах общеобразовательных школ, и другие изложенные аналитические соображения.

SUMMARY

In this article, various methods of improving physical education classes for primary education, classification of physical education classes according to their pedagogical tasks, pedagogical tasks of education and health in the effective organization of physical education classes, conclusions made based on the study of physical education classes taught in primary classes of general education schools, and other analytical considerations stated.

JISMONIY MADANIYAT YO‘NALISHI TALABALARI O‘RTASIDA MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Otamirzayev O.M.
Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so’zlar: muloqot ko’nikmalari, pedagogika, psixologiya, jismoniy madaniyat, talabalar, ta’lim.

Ключевые слова: коммуникабельность, педагогика, психология, физическая культура, студенты, образование.

Key words: communication skills, pedagogy, psychology, physical culture, students, education.

Kirish. Samarali muloqot qobiliyatlari talabalarning jismoniy madaniyat sohasidagi o’quv va kasbiy sayohatlarida muhim ahamiyatga ega. Fikrlarni etkazish, bilim almashish va turli auditoriyalar bilan muloqot qilish qobiliyati ularning kelajakdagi murabbiylar, murabbiylar va sport va fitnes sohasidagi etakchi rollarining muhim jihati hisoblanadi. Ushbu maqola jismoniy madaniyat talabalari o’rtasida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo’lgan pedagogik va psixologik omillarning murakkab o’zaro ta’sirini o’rganadi.

Sport va jismoniy tayyorgarlikning dinamik landshaftida muvaffaqiyatli amaliyotchilar nafaqat o’z intizomining texnik jihatlarini yaxshi bilishadi, balki boshqalarni ilhomlantiradigan, o’rgatadigan va rag’batlantiradigan mohir muloqotchilardir. Samarali muloqotning ko’p qirrali xususiyati shunchaki ma’lumot uzatishdan tashqarida; u faol tinglashni, og’zaki bo’lmagan signallarni, empatiyani va muloqot uslublarini turli kontekstlarga moslash qobiliyatini o’z ichiga oladi. Shunday qilib, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik strategiyalar va psixologik asoslarni har tomonlama tushunish o’qituvchilar, talabalar va mutaxassislar uchun juda muhimdir.

Muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish sayohati samarali ta’sir o’tkazish san’ati va ilm-fanini o’z ichiga olgan nazariya va amaliyotning uyg’unligini o’z ichiga oladi. Ushbu maqola ushbu jarayonda pedagogika va psixologiya o’rtasidagi simbiotik munosabatlarni o’rganib, pedagogika tizimli ta’lim uchun asos bo’lsada, psixologiya odamlarning muloqot qilish usullarini shakllantiradigan kognitiv,

hissiy va xulq-atvor jihatlarini o'rganadi. Ushbu ikki o'lchovning integratsiyasini o'rganib chiqib, o'qituvchilar jismoniy madaniyat sohasidagi talabalarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun o'z yondashuvlarini moslashtirishlari mumkin.

Ushbu maqolaning keyingi bo'limlarida biz faol o'rganish va konstruktiv fikr-mulohazani osonlashtiradigan pedagogik yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga, biz muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish kontekstida o'z-o'zini hurmat qilish, empatiya va madaniy sezgirlikning psixologik asoslarini ochamiz. Oxir oqibat, ushbu maqola o'qituvchilar, talabalar va mutaxassislarga samarali muloqot ko'nikmalarini o'rgatish dasturlarini yaratish, jismoniy madaniyat talabalarining o'zlari tanlagan kasblarida ustunlik qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradigan tushunchalar bilan ta'minlashga qaratilgan.

Pedagogik yondashuvlar

Jismoniy madaniyat talabalari o'rtasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish faollikni, amaliy qo'llashni va o'z-o'zini boshqarishni ta'minlaydigan pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Pedagogika o'rganish uchun qulay muhit yaratishda markaziy rol o'ynaydi, bu o'quvchilarga nafaqat nazariy tushunchalarni tushunish, balki ularni real dunyo stsenariylarida ham qo'llash imkonini beradi. Bu erda biz samarali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ikkita asosiy pedagogik strategiyani o'rganamiz: faol o'rganish va konstruktiv fikr-mulohazalar.

Faol ta'lim va tajribaviy trening.Faol ta'lim metodologiyalari muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning asosini tashkil qiladi. Jismoniy madaniyat talabalari o'zlarining kelajakdagi faoliyatida duch keladigan vaziyatlarni aks ettiradigan amaliy tajribalardan foydalanadilar. Rolli o'ynash mashqlari, amaliy tadqiqotlar va simulyatsiya qilingan murabbiylik mashg'ulotlari kabi tajribaviy treninglar talabalarga samarali muloqotni talab qiladigan stsenariylarga sho'ng'ish imkonini beradi. Turli rollar va istiqbollarni o'z zimmasiga olgan holda, talabalar g'oyalarni ifodalash, ko'rsatmalar berish va shaxslararo dinamikani boshqarishni mashq qilishlari mumkin.

Texnologiya va multimediani o'z ichiga olish faol o'rganishni yanada kuchaytiradi. Muloqotning samarali va samarasiz bo'lgan o'zaro ta'sirining video tahlili talabalarga o'zlarining muloqot uslublari haqida qimmatli tushunchalar beradi. Interaktiv simulyatsiyalar qiyin stsenariylarni qayta yaratishi mumkin, bu esa talabalarga boshqariladigan muhitda turli strategiyalar va javoblar bilan tajriba o'tkazish imkonini beradi. Ushbu faol ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish orqali talabalar o'zlarining muloqot qobiliyatlarini takomillashtiradilar va turli xil muloqot kontekstlarida harakat qilish qobiliyatiga ishonchni mustahkamlaydilar.

Konstruktiv fikr va mulohaza.Konstruktiv fikr-mulohazalar samarali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. O'qituvchilar o'z vaqtida

va aniq fikr-mulohazalarni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi, ular kuchli tomonlarini tan olgan holda takomillashtirish sohalarini ta'kidlaydilar. Fikr-mulohaza nafaqat og'zaki muloqotga, balki og'zaki bo'lmagan signallarga, ohang va kontekstga mos kelishiga ham qaratilishi kerak.

Mulohaza yuritish muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bebaho vositadir. Talabalarni muloqot tajribalari haqida fikr yuritishga, muammolarni aniqlashga va takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishga undash metabilim va o'z-o'zini anglashni rivojlantiradi. Jurnal yoki guruh muhokamalari kabi aks ettiruvchi amaliyotlarni o'z ichiga olish talabalarni muloqotdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini baholashga undaydi, bu esa o'zlarining muloqot tendentsiyalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Samarali muloqot qobiliyatlari murabbiylik, trening va tarbiyaviy rollarni o'z ichiga olgan jismoniy madaniyat sohasidagi muvaffaqiyatning asosi hisoblanadi. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini har tomonlama o'rganish o'quvchilarni mohirona, empatik va madaniy jihatdan sezgir muloqot qilish qobiliyati bilan qurollantirishda ushbu o'lchovlarning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.

Ushbu maqola davomida biz jismoniy madaniyat kontekstida muloqot qilish qobiliyatining ahamiyatini ko'rib chiqdik va faol o'rganish va konstruktiv fikr-mulohazalarni osonlashtiradigan pedagogik yondashuvlarni muhokama qildik. Biz o'z-o'zini hurmat qilish, empatiya va madaniy sezgirlikning psixologik jihatlarini o'rganib chiqdik, ularning muloqot sifati va ta'sirini shakllantirishdagi muhim rolini tan oldik.

Pedagogika va psixologiyaning integratsiyasi muloqot ko'nikmalarini o'rgatishning kuchli asosi sifatida namoyon bo'ladi. Bu sinergiya talabalarga nafaqat muloqotning texnik jihatlarini, balki samarali o'zaro ta'sirni belgilovchi kognitiv, hissiy va xulq-atvor nuanslarini ham o'rganishga imkon beradi. Faol tajribalar orqali o'rganishni kontekstuallashtirish va o'z-o'zini boshqarishni rag'batlantirish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga sinfdan tashqarida ham muloqot qilish qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirishga imkon beradi.

Jismoniy madaniyat talabalari o'zlarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantirar ekan, ular turli xil va dinamik professional landshaftda o'zlarini ustun qo'yadilar. Pedagogik strategiyalar va psixologik tushunchalarning badiiy integratsiyasi orqali o'qituvchilar mazmunli aloqalarni o'rnatish, ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirish va sportchilar, mijozlar va jamoalar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kommunikatorlarni rivojlantirishga hissa qo'shadilar.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola jismoniy madaniyat sohasida samarali muloqot ko'nikmalarining muhim rolini ta'kidlaydi va o'qituvchilar va amaliyotchilar uchun talabalarni mohir muloqotchi va ta'sirchan mutaxassislar

bo’lishga yo’naltirish uchun yo’l xaritasini taqdim etadi. Sport va fitnes landshafti rivojlanishda davom etar ekan, muloqot mahorati doimiy boylik bo’lib qolmoqda, bu esa o’quvchilarning qiyinchiliklarni engib o’tishini va imkoniyatlardan ishonchli va malakali foydalanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Duley, A. R., & Rehrer, N. J. (2017). The role of communication in athletic coaching: A qualitative investigation. Qualitative Research in Sport, Exercise and Health, 9(3), 311-326.

2. Jones, T., & Turner, P. (2020). The importance of communication in personal training: A review. International Journal of Exercise Science, 13(2), 1443-1452.

3. Chelladurai, P., & Saleh, S. D. (2017). An experiential learning approach to teaching communication in sport management. Sport Management Education Journal, 11(1), 42-53.

4. Smith, B. N., & Anderson, J. C. (2018). Improving student communication through constructive feedback. Teaching and Learning in Communication Sciences & Disorders, 2(2), 14.

5. Buhrmester, M., Kwang, T., & Gosling, S. D. (2018). Amazon’s Mechanical Turk: A new source of inexpensive, yet high-quality, data? Perspectives on Psychological Science, 6(1), 3-5.

РЕЗЮМЕ

Samarali muloqot qobiliyatlari jismoniy madaniyat talabalari uchun juda muhim, chunki ular turli xil kasbiy va ijtimoiy o’zaro munosabatlarda ishtirok etadilar. Ushbu maqola jismoniy madaniyat talabalari o’rtasida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini o’rganadi. U fitnes bo’yicha murabbiylar va sport o’qituvchilari sifatida kelajakdagi martaba kontekstida muloqot qilish qobiliyatining ahamiyatini o’rganadi. Maqolada faol tinglash, og’zaki bo’lmagan muloqot va nizolarni hal qilish kabi muloqot qobiliyatlarini oshirish uchun pedagogik va psixologik yondashuvlarning integratsiyasi ta’kidlangan. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli muloqotni rivojlantirishda o’z-o’zini hurmat qilish, empatiya va madaniy sezgirlikning roli muhokama qilinadi. Ushbu maqolada keltirilgan tushunchalar o’qituvchilar va amaliyotchilar uchun jismoniy madaniyat talabalari uchun muloqot ko’nikmalarini o’qitishni optimallashtirishda qo’llanma bo’lib xizmat qilishi mumkin.

РЕЗЮМЕ

Навыки эффективного общения необходимы студентам, изучающим физическую культуру, поскольку они участвуют в широком спектре профессиональных и социальных взаимодействий. В данной статье исследуются педагогические и психологические основы развития коммуникативных навыков у студентов физической культуры. В нем углубляется значение коммуникативных навыков в контексте их будущей карьеры фитнес-тренеров, тренеров и спортивных педагогов. В статье подчеркивается интеграция педагогических и психологических подходов для повышения коммуникативной компетентности, включая активное слушание, невербальное общение и разрешение конфликтов. Кроме того, обсуждается роль самооценки, эмпатии и культурной чувствительности в содействии успешному общению. Представленные в данной статье выводы могут служить руководством для преподавателей и практиков при оптимизации тренировки коммуникативных навыков студентов факультетов физической культуры.

SUMMARY

Effective communication skills are essential for students of physical culture as they engage in a wide range of professional and social interactions. This article explores the pedagogical and psychological foundations of developing communication skills among students of physical culture. It delves into the significance of communication skills in the context of their future careers as fitness trainers, coaches, and sports educators. The article emphasizes the integration of pedagogical and psychological approaches to enhance communication competence, including active listening, nonverbal communication, and conflict resolution. Moreover, the role of self-esteem, empathy, and cultural sensitivity in fostering successful communication is discussed. The insights provided in this article can serve as a guideline for educators and practitioners in optimizing communication skills training for students of physical culture.

МАКТАБ ЕНГИЛ АТЛЕТИКА ТЎГАРАКЛАРИДА ТАРБИЯЛАНУВЧИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОШИРИШ САМАРАДОРЛИГИ

Мирзатиллаев И.И.
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети катта ўқитувчиси

Таянч сўзлар:енгил атлетика, тугараклар, жисмоний тайёргарлик, мактаб ўқувчилари, енгил атлетика турлари, болалар ва ўсмирлар спорти назарияси ва услубияти, ёшлар спорти, спорт захираси, намунавий ўқув режаси.

Ключевые слова: легкая атлетика, юноши, физическая подготовка, школьники, виды легкой атлетики, теория и методика детско-юношеского спорта, юношеский спорт, спортивный резерв, типовая учебная программа.

Key words: athletics, youth, physical training, schoolchildren, types of athletics, theory and methodology of children's and youth sports, youth sports, sports reserve, standard curriculum.

Дунёда енгил атлетика турлари мураккаб координацион техник спорт турларидан бири бўлиб, жаҳонда географик жиҳатдан кенгайиб, оммавийлашиб бормоқда. Дунёда енгил атлетика спорт турларида рақобатнинг кучайиши ушбу спорт тури бўйича спортчиларни дастлабки тайёргарлик босқичидан тортиб олий спорт маҳорати гуруҳигача бўлган барча босқичларни бошқаришнинг ташкилий ва услубий жиҳатдан самарадорлигини ошириш йўлларини излаб топиш талабини қўймоқда. Дунёнинг етакчи мамлакатларида енгил атлетика турлари бўйича спортчилар томонидан кўрсатилаётган спорт натижаларининг ўсиб боришида асосий омилларидан бири сифатида тўгарак машғулотларида тайёргарликнинг турли босқич ва даврларида ёш спортчиларнинг кўп йиллик тайёргарлик концепциясини ишлаб чиқиш ва уни тизимли бошқаришга қаратилмоқда.

Жаҳонда болалар ва ўсмирлар спорти назарияси ва услубияти соҳасида енгил атлетика турлари учун болаларни саралаб олиш мезонлари, воситалари ҳамда усулларини аниқлаш, уларнинг жисмоний ривожланишини бошқариш, яъни болалар организмининг анатомик-физиологик ва психологик хусусиятларини эътиборга олган ҳолда машғулот юкламаларини тақсимлаш ва режалаштириш юзасидан илмий изланишлар олиб борилмоқда. Жаҳонда енгил атлетика спорт амалиёти кўрсатишича мактаб енгил атлети-

ка тўгаракларида шуғулланвчи ёш спортчиларни тайёрлаш кўп йиллик тайёргарлик машғулотларни истиқболли режалаштириш тизими билан боғлиқ бўлиб, мактаб тўгарак машғулотларининг кўп йиллик тайёргарлик тизимини яратиш илмий асосланган ёндашувни талаб қилиш билан биргаликда машғулот жараёнини самарали бошқаришда спортчиларнинг жисмоний ва психологик тайёргарлигини ҳисобга олган ҳолда, индивидуал ёндашувга асосланган, тадқиқотларни олиб бориш талабини қўймоқда.

Республикамизда болалар-ўсмирлар спортини ривожлантириш ва оммавийлаштириш, кўп йиллик тайёргарлик босқичларида иқтидорли спортчиларни саралаб олиш, мақсадли тайёрлаш, улар учун зарур шарт- шароитлар яратиш, миллий терма жамоага захира спортчиларни етказиб бериш ҳамда уларни халқаро спорт майдонларида муносиб иштирок этишини таъминлаш борасида аниқ режали ишлар амалга оширилмоқда. “Ёшларда спортга бўлган ҳавас ва интилишни, жамиятда соғлом турмуш тарзи тамойилларини янада кучайтириш, ёш иқтидорли спортчиларни танлаб олиш, уларда профессионал маҳорат ва кўникмаларни ривожлантириш, спорт турлари бўйича мамлакат терма жамоаларига спорт заҳирасини тайёрлаш, ўқувчи ва талабаларни спорт машғулотларига узлуксиз жалб этишга қаратилган спорт мусобақалари тизимини янада такомиллаштириш мақсадида” қатор фармон ва қарорлар қабул қилинди. Бу эса жисмоний тарбия ва спорт, айниқса, болалар спортини илмий асосда ривожлантириш, унинг ташкилий асосларини яратишга алоҳида эътибор қаратиш вазифасини юкламоқда.

Тадқиқот мақсади: Енгил атлетика тугаракларида ўқувчи ёшларни жисмоний тайёргарлигини янги воситалар асосида ривожлантириш самарадорлиги.

Тадқиқот вазифалари:

Мактаб енгил атлетика тўгаракларида шуғулланувчи енгил атлетикачилар ўқув-машғулотлари самарадорлигини оширишда ҳаракатли ўйинлар қўллаш методикасини ишлаб чиқиш;

Ўқувчи ёшларни жисмоний тайёргарлигини ривожлантиришга қаратилган тайёргарлик дастурини ишлаб чиқиш ва педогогик тажрибада самарадорлигини аниқлаш

Енгил атлетика тўгаракларида шуғулланувчи ўқувчиларни тайёргарлиги даражасини назорат қилиш, спорт меъёрларини бажариш учун тўгарак машғулотларини ташкил қилиш

Тадқиқот объекти: Мирзо-Улуғбек туманидаги 148 ҳамда 248 -сонли умумий ўрта таълим мактаби 8 синф ўқувчи ёшлар билан ўтказиладиган енгил атлетика машғулотлари.

Тадқиқотда қўлланилган усуллар: илғор тажриба ва илмий-услубий маълумотларни умумлаштириш ва таҳлил қилиш, педагогик назорат тестлари, педагогик тажриба ва математик статистика.

Тадқиқотнинг объекти: Умумтаълим мактабларда енгил атлетика билан шуғулланиши ўқувчилар ва улар билан ўтказиладиган машғулот жараёни.

Тадқиқот натижалари ва унинг муҳокамаси: Енгил атлетика тўгараги бошланғич тайёргарлик гуруҳларида жами соатлар 188 соат бўлиб ҳафтасига 3 марта 2 соат давомида машғулотлар 90 дақиқадан ташкил этилади. Тадқиқот олиб борган мактабларимизда ўтказилган сўровномадан олинган натижаларга кўра, ҳозирги кунда умумий ўрта таълим мактабларида енгил атлетика тўгараги машғулотларини ўтказишнинг ташкилий ва услубий тузилиши модели ишлаб чиқилмаган ва машғулотларни олиб бориш бўйича ўқитувчиларда етарлича тажриба ва тушунчалар йўқлиги аниқланди. Мактабда енгил атлетика турлари бўйича тўгаракда соатларни намунавий тақсимланиши

Мактаб енгил атлетика тўгараги машғулотларининг 48 ҳафталик ўқув юкламаларининг
НАМУНАВИЙ ЎҚУВ РЕЖАСИ

2-жадвал

Т/р	айёргарликбўлимлари	Тайёргарлик йиллари						
		1-йил	2-йил	3-йил	4-йил	5-йил	6-йил	7-йил
1.	Умумий жисмоний тайёргарлик	180	170	162	135	85	60	54
2.	Махсус жисмоний тайёргарлик	54	48	46	63	80	96	100
3.	Техник тайёргарлик	16	25	28	30	50	54	58
4.	Тактик тайёргарлик	4	6	8	12	20	24	28
5.	Назарий тайёргарлик	10	10	8	8	8	8	8
6.	Ўтказиш-назоратсиновлари	12	12	12	12	12	12	12
7.	Назорат ўйинлари	Соат сеткасидан ташқари						
8.	Ҳакамлик ва йўриқчилик амалиёти*	-	-	4	6	9	10	4
9	Мусобақалардаиштирок этиш	ирлари тақвим режасибўйича						
10	Тикланиш тадбирлари	6	9	12	12	12	12	12
11	Тиббий текширув	Соат сеткасидан ташқари						

Жами:	**288**	**288**	**288**	**288**	**288**	**288**	**288**
Бир ҳафталик юклама:	**6 соат**	**6 соат**	**6 соат**	**6 соат**	**6 соат**	**6 соат**	**6 соат**

* Мактаб енгил атлетика тўгаракларининг 1-2 йилида ўтказилмайди.

Тадқиқот олиб борган мактабларимизда ўтказилган сўровномадан олинган натижаларга кўра, ҳозирги кунда умумий ўрта таълим мактабларида енгил атлетика тўгараги машғулотларини ўтказишнинг ташкилий ва услубий тузилиши модели ишлаб чиқилмаган ва машғулотларни олиб бориш бўйича ўқитувчиларда етарлича тажриба ва тушунчалар йўқлиги аниқланди.

Умумий ўра таълим мактабларда Енгил атлетика тўгараклари учун ўқув машғулот соатларини тузилиши ва режаси

2.Жадвал

Мазмуни	Жами	сентябр	октябр	ноябр	декабр	январ	феврал	март	апрел	май	июн
Амалий машғулотлар (201 соат)											
Умумий жисмоний тайёргарлик (81 соат)											
Енгил югуришлар	12	1	1	1	1,5	1,5	1,5	1,5	1	1	1
Кросс (3-5 км)	15	1	1	2	2	2	2	1	1	2	1
Спорт ва ҳаракатли ўйинлар	15	2	2	1	1	2	2	2	1	1	1
Умумривожлантирувчи машқлар гимнастика, акробатика	25	3	3	3	3	3	2	2	2	2	2
Ҳар хил оғирликлар билан кучни ривожлантириш	14	1	1	1	1,5	1,5	1,5	2	2,5	1	1
Жами соатлар	**81**	**8**	**8**	**8**	**9**	**10**	**9**	**8,5**	**7,5**	**7**	**6**
Махсус жисмоний тайёргарлик (120 соат)											
Улоқтириш машқлари тўлдирма тўпни, ядро, диск, найза.	10	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Сакраш машқлари	10	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Югурувчиларни махсус машқлари	17	2	3	3	3	1	1	1	1	1	1
Ғовлар оша югуриш ва ғовлар оша югуриш махсус машқлари (91,4 см) баландлиги	10	2	2	1	1	-	-	1	1	1	1
Пастки стартдан югуриш	12	2	1	2	-	-	1	1	1	1	3
100-200 м гача бўлган масофада такрорий югуриш	10	1	1	1	-	-	2	1	1	-	3
Югуриб келиб югуриш, эстафета югуриши	7	-	-	-	-	-	-	1	2	2	2
100-300 м дан ортиқ масофаларда такрорий югуриш	7	-	-	-	1	1	1	1	1	1	1
Ўзгарувчан (алмашлаб) югуриш	2	-	-	-	-	1	1	-	-	-	-
Югуриб келиб узунликка сакраш	15	2	2	2	2	2	1	1	1	1	1
Югуриб келиб баландликка сакраш	13	2	2	2	2	-	-	-	2	2	1
Найза, найза (граната)ни улоқтириш	7	-	-	-	-	2	1	1	1	1	1
Жами соатлар	**120**	**13**	**13**	**13**	**11**	**9**	**10**	**10**	**13**	**12**	**16**
Мусобақаларда қатнашиш тақвим режалар асосида											
Ҳакамлик ва инструкторлик амалиёти	**6**	**-**	**-**	**-**	**-**	**-**	**1**	**2**	**1**	**1**	**1**
Жами соатлар	**216**	**22**	**22**	**22**	**22**	**20**	**21**	**21,5**	**22,5**	**20**	**23**

Енгил атлетика тўгаракларининг ўқувчиларга қуйидаги машқларни ишлаб чиқдик ва машғулот жараёнида қўлладик, ҳафта бўйича очиб беришга эътибор қаратдик.

Душанба: Машғулот вазифалари: Тезкор куч сифатларини ўзида жамлаган ўйин характерига эга бўлган машқлар: Енгил югуриш 800 м, УРМ 15 дақиқа, МЮМ 2х20 м, Эстафета югуриш 4х30/200 м, Ўйин 20 дақиқа

Чоршанба: Кросс югуриш 2 км, УРМ майса устида ўтриб 10 дақиқа Якунловчи югуриш 400 м.

Жума: Енгил югуриш 800 м, УРМ 15 дақ, МЮМ 2.30 м, 60-70% шидатда югуриш, 20 дақиқа ўйин.

Биз тадқиқот олди ва тадқиқот охирида педагогик тест синовларини ўтказдик. Унга кўра тадқиқот олди олинган натижаларга асосланиб биз томонимиздан ўтган ой давомида кузги мавсумида машғулот микроцикли ишлаб чиқилди шу микроцикил ёрдамида биз томонимиздан тўгарагимиз шуғуланувчиларни билан машғулот олиб борилди. Тадқиқот сўнгида ишлаб чиқилган тайёргарлик микроциклини самарадорлигини аниқлашга эътибор қаратдик. Олинган тадқиқот натижаларини қуйидаги жадвалда берилган.

Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларни тадқиқот олдидан жисмоний тайёргарлигини шакиланганлик даражаси

3.жадвал

Тестлар	60 м	100 м	1000	Теннис каптогини уловтириш	Жойдан туриб сакраш	1 дақ Арғамчидан сакраш
Тажриба гуруҳи						
ТО	9,9	15,5	4:42,8	25,18	168	58
ТК	9,6	15,1	4:37,5	27,30	187	67
Ўсиш	0,3	0,4	5,3	2,12	19	9
% ҳисобида	3,03	2,58	1,87	8,41	11,30	15,51

Тадқиқот натижалари ва унинг мухокамаси: Ўтказилган педогогик кузатувлар ва тажриба натижалари умумий ўрта таълим мактаб ўқувчилари билан ўтказилаётган енгил атлетика спорт тугараклари бугунги кунда қониқарсиз фаолият юритаётганлигини кўрсатмоқда. Чунки, биз томонимиздан Мирзо-Улуғбек туманидаги 148 ҳамда 248 –сонли умумий ўрта таълим мактабларини ўрганганимизда 55 % тугараклар номига ишлаётганлиги аниқланди.

Умумий ўрта таълим мактаб спорт тугаракларида енгил атлетикачиларни жисмоний тайёргарлигини аниқлашга эътбор қаратдик. Унга кўра 60-100 м масофаларга югуриш орқали тезкор куч сифатини ривожланганлигини тадқиқот олдидан ўрганганимизда 60 м масофага ўртача 9,9 соняга тенг бўлса, 100 м масофага югурушда ўртача 15,5 сонияни ташкил этди. Тезкор чидамлилик бўйича 1000 м масофага югуришда ўртача 282,8 сек натижага тенг бўлди. Теннис каптогини улоқтириш бўйича қўлни портловчи кучни аниқлаш тестимизда ўқувчи ёшлар ўртача 25 м 18 смга натижани қайд этишди. Оёқни портловчи кучини аниқлаш бўйича ўтказилган жойидан туриб узунлика сакраш тест натижаси 168 см натижага тенг бўлди. Арқондан сакраш орқали оёқ кучини ва чидамлилигини аниқлаш бўйича ўтказилган тестимизда 1 дақиқа давомида тажриба гуруҳи синалувчилари ўртача 58 марта натижаларни тадқиқот олдида қайд этишди. Олинган натижаларни В.Г.Никитушкин томонидан берилган тадқиқот натижалари билан қиёсий

тахлил этадигин бўлсак, улар ўртасида сезиларли фарқ махсус чидамлилик ва жойдан туриб узунликка сакраш тестларида кузатилди.

Хулосалар. Биз томонимиздан ўтказилган тадқиқот олди педогогик тажриба натижалари қуидаги хулосаларни қайд этиш имконини беради:

– Умумий ўрта таълим мактаб енгил атлетика тугаракларига ўқувчиларни саралаш мезонларсиз олиноётганлиги аниқланди. Биз биламизки, спортда саралаш иқтидорли спортчиларни излаб топишнинг энг самарали усули хисобланади
– Умумий ўрта таълим мактаб енгил атлетика тугаракларида ўқувчиларни жисмоний тайёргарлик даражасини ривожлантиришда уларни ёши жисмоний ривожланганлик холатини инобатга олиб машғулот юкламаларини қўллаш лозим.
– Мактаб енгил атлетика тугаракларида ўқувчиларни жисмоний тайёргарлигини ўйинсимон мазмунига эга бўлган восита усуллар орқали айланма машғулот асосида ташкил этиш уларни жисмоний тайёргарлигини ривожлантиришга имкон яратади

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5368-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Респуб ликасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 5924-сонли фармони.2020 йил 24 январь.

3. Soliev I., Khaydrov B., Mirzatillayev I., Khujamkeldiyev G., Ziyayev F., Functional training level of runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020, http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/

4. Солиев И.Р. Қисқа масофаларга югуришда спортчиларни техник тайёргарлик даврида старт реакцияларини такомиллаштиришни таҳлил қилиш. // ФАН-СПОРТГА илмий – назарий журнал. Тошкент. 2018 йил 2 сон. 56-60 бетлар.

5. Солиев И.Р. Юқори малакали узоқ масофага югурувчи спортчи қизларни тайёргарлик машғулотлари ва мусобақа жараёнининг қиёсий таҳлили. // ЎзМУ ХАБАРЛАРИ. Тошкент. 2018 йил №1/1 2018й. 171-174 бетлар.

6. Shakirjanova K., Soliyev I., Olimov M., Baratov A., Akmanov B., Saydkulov Z., Pedagogical technologies and interactive methods as a factor of increasing special knowledge of students. Journal of Critical Reviews., 2020; 7(6): 42-46.doi:10.31838/jcr.07.06.10. http://www.jcreview.com/?mno=101674

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада мактаб енгил атлетика тўгаракларида тарбияланувчи ўқувчиларни жисмоний тайёргарлигини ошириш самарадорлиги масалалари ҳартомонлама ўрганилган ва таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно изучены и проанализированы вопросы повышения физической подготовленности учащихся школьных легкоатлетических кружков.

SUMMARY

This article studies and analyzes in detail the issues of increasing the physical fitness of students in school athletics clubs.

JISMONIY TARBIYA DARSLARI JARAYONIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI

Джуманов А.У.
НДПИ «Жисмоний тарбия теорияси ва методикаси» кафедраси в.в.б. доценти

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya darslari, ekologik madaniyatni rivojlantirish, jismoniy tarbiyaning umumiy masalalari va vazifalari, pedagogik faoliyat, jismoniy tarbiya darslari jarayoni, oila va maktab hamkorligi.

Ключевые слова: уроки физкультуры, развитие экологической культуры, общие вопросы и задачи физического воспитания, педагогическая деятельность, процесс уроков физкультуры, сотрудничество семьи и школы.

Key words: physical education lessons, development of environmental culture, general issues and objectives of physical education, pedagogical activity, process of physical education lessons, cooperation between family and school.

Dasturimizda jismoniy tarbiya darslarida ekologik madaniyatni rivojlantirish muammosida yuqori sinf o'quvchilarini tabiat manzaralarida turizm va ekologik bilimlarni shakllantirish bo'yicha bir kancha ishlarni ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda amalga oshirish, ammo tarbiyaviy vazifalarni samarali yechish faqat oila va maktab hamkorligi sharoitida mumkinligi keng yoritib berilgan. Oila – bu bola uchun ilk mikrojamoat, u juda muhim tarbiya-ijtimoiy rolni bajaradi. Vatanimiz ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida, barcha darajalarda oila va maktab hamkorligi muammosi dolzarbdir. Ota-ona va pedagoglar – har bir insonning shaxsiy shakllanish jarayonida ikkita qudratli kuch bo'lib, uning rolini hech qachon bo'rttirib bo'lmaydi. O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va o'qitishda avvalo o'zaro tushunishga asoslangan hamkorlik dolzarb ahamiyat kasb qiladi. Maktab va oilaning pedagogik hamkorligini faollashtirish deyilganda biz quyidagilarni ta'minlovchi jarayonga kiritamiz:

1) jismoniy tarbiyaning umumiy masalalari va vazifalarini rivojlantiruvchi faoliyat integratsiyasi va salomat turmush tarzi qadriyatlarini pedagoglar, ota-onalar va bolalarda shakllantirish asosida pedagogik pozitsiyasini iishlab chiqish va manfaatlarini birlashtirish;

2) jismoniy tarbiya amaliyotida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni ijodiy jalb qilish, prinsipial yangi jismoniy tarbiya shakllari, metodlari va vositalarini ishlab chiqishda motivatsion muhtojlikni ishlab chiqish;

3) pedagoglar va ota-onalarning bolalarda jismoniy tarbiya jarayonini ongli va muvofiq tartiblashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish, tarbiya jarayoniga pedagogik refleksiya asosida o‘z vaqtida korreksiyalar kiritish.

Biz tadqiqotimizda maktab va oila pedagogik hamkorligi darajasi ko‘rsatkichlarini aniqlashda, pedagogik faoliyatda o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligini nazarda tutadigan tadqiqotchilar nuqtai nazarini quvvatlaymiz: birinchidan, pedagoglar va ota-onalarda o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, mustaqil ta’limi uchun stimullash va sharoitlar yaratish bo‘yicha xususiy pedagogik pozitsiyasini ishlab chiqish san’ati sifatida tarafdor bo‘lamiz. E.G.Garunov ushbu pozitsiyani shunday aniqlaydi «o‘z dunyoqarashi, tamoyillari va bolalik-katta yosh fazasidagi xulqining uyg‘unligini aniqlovchi katta yoshdagi insonning xulqida bir butun xarakteristika bo‘ladi». Pedagogik pozitsiya shu ma’noda shunday xususiyatga ega, u pedagogning kattalarning bola bilan uchrashuvida nazarga tushadigan shaxsiy pozitsiyasini, ham ta’lim maqsadiga erishish uchun sharoit yaratish bilan bog‘liq professional-faoliyat pozitsiyasini, va ularning xususiy pedagogik funksiyalarini pedagogning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ilmiy, estetik va boshqa e’tiqodlari bilan aniqlangan holda xarakterlovchi ko‘ra olishlari bilan sintezlaydi. Pedagoglar va ota-onalar shaxsiy pozitsiyasida bo‘lgan holda tarbiyalanuvchilar bilan xususiy noyob sub’ektiv tajribasiga ega o‘zga inson sifatida hamkorlikda bo‘ladi. O‘qituvchilar va ota-onalar tegishli pedagogik pozitsiyaga ega bo‘lgani holda bolaga uning individuallining barcha jihatlarini maksimal ochib berishiga yo‘naltiradi (jismoniy madaniyat muhitini tashkil qilish, maqbul sport-sog‘lomlashtirish faoliyati va h.) U tarbiya maqsadlarini va ta’lim qadriyatlarini, jumladan jismoniy jihatdan ham amalga oshirishini ta’minlaydi. Tadqiqotimiz kontekstida ota-onalar jismoniy tarbiyaning ijtimoiy-qadriyat mohiyatini aniqlashga intilishi bilan, tarbiya hodisalari va jarayonlari orasidagi aloqani bilishga intilishi bilan, ijtimoiy-madaniy sharoitlardagi o‘zgarishlar borasidagi bilimlarni tushunishi, eslab qolishi va qo‘llash usullarini egallab olishi bilan, bolalarning namuna bo‘yicha jismoniy tarbiyalash bo‘yicha bilimlarni qayta tiklash bilan xarakterlanadi. Ushbu daraja erk kuchlarining qisman noturg‘unligi bilan, ota-onalarning bilimlarni chuqurlashtirishga manfaatdorligining yo‘qligi va h. bilan ajralib turadi.

O‘ziga xos xususiyati – ota-onalar bolaning belgilangan maqsadiga erishishida erk va jismoniy sifatlarining shakllanishida qa’tiylik, va turg‘unligiga, qadriyatlari va e’tiqod mustahkamligiga yuqori manfaatdorlikni bildirishadi. Biz shunga bog‘liq holda dastlabki ko‘rsatkichlar sifatida pozitsiyalilikni ajratamiz, u esa biz tomonidan o‘qituvchilarning, tarbiyachilarning o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash bo‘yicha umumiy faoliyatida o‘zgartirish kiritishga tayyorligi va qobiliyati, yaratilgan faoliyatning tashqi sharoitlar va vaziyatlar bilan o‘zaro aloqasi asosida yangi tarbiya amaliyotining hamijodkorlari va hamtashkilotchilari bo‘lgani holda tushuniladi. O‘quv hamkorligining yuqori pedagogik samarasi shunga bog‘liq, ta’lim-tarbiya jarayoni natijaviyligi va unumdorligining ancha

yuqori darajasi, sinf va oilada do‘stona, insoniylik vaziyatni shakllantirish, o‘quvchilarning o‘zini baholashi va kommunikatsion kompetentligini orttirish va oxir-oqibatda, o‘quvchilarning jismoniy va psixik salomatligini saqlashni ta’minlaydi. Ikkinchidan, pedagogik ijodkorlikning etik aspekti sifatida, motivatsionlik bilan jips bog‘langan, yoki pedagogik hamkorlikning o‘ziga xosligi shundayki, pedagog o‘z professional faoliyatida avvalo ota-onalar bilan hamkorlikka, bola tarbiyasidagi etik dialog va o‘zaro tushunishga tayanadi.

Pedagogik faoliyatining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda «harakat motivatsiyasi, etikasi va usullari orasidagi aloqalar ancha aniq ko‘zga tashlanadi. Hozirgi zamonda dinamik rivojlanuvchi maktabda, psixologik-pedagogik bilimlarni chuqur egallagan, o‘z bolalarining rivojlanish xususiyatlarini tushunidigan, jismonan salomat, bolalarining sog‘lom turmush tarzining shakllanishiga manfaatdor bo‘lgan yangi ijodkor o‘qituvchilar va kreativ fikrlovchi ota-onalarni talab qiladi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlashda tadqiqotchi I.M.Karelovoy pedagogik faoliyatning « ijodkorligini» ta’kidlagan holda faoliyatning ijodiy strukturasi stilini yaratuvchi va motivatsion kichik strukturasini ajratadi. U o‘qituvchi faoliyati ijodiy stilining tizim yaratuvchi xususiyatlariga quyidagi sifatlarni kiritadi: muammolarni ajrata olish qobiliyati, muhokama qilishning mustaqilligi, o‘ylashining o‘ziga xosligi, assotsiatsiyasining yengilligi, fikrlashning antikonformizmi, g‘oyalar generatsiyasining yengilligi, fikrlashning tanqidiyligi, bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarga olib o‘tish qobiliyati. I.M.Karelovoy, foliyatning ijodiy stili xususiy korrelyant sifatida, shaxsning emotsional-erk sohasi xususiyatlari: ijodiy kuchni jamlash qobiliyati, qat’iyatlilik, maqbul tavakkalga moyillik, muhokamalardagi dadilligi va mustaqilligi, optimizm, o‘zini baholashning yuqori darajasi, yangini joriy qilishga intilishi va muhtojligi va akozalarni faoliyatning ijodiy stili korrolyantlari deb hisoblandi. Uchinchidan, bolalarni jismoniy tarbiyalashda hamkorlikdagi yutuqlarga yo‘naltirish, pedagoglar va ota-onalarda o‘zlarining tarbiyaviy vazifalarini fikrlash va tushunishning mavjud bo‘lishi, shaxsning maktab va oilada pedagoglar, ota-onalar va o‘quvchilar refleksiyasini tashkil qilish asosida jismoniy rivojlanishiga yo‘naltirish, uning o‘z faoliyati jarayonida o‘zini nazorat qilish va o‘zini baholash hamda natijasini amalga oshirish orqali ularga erishish rejalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lishi. U ham pedagog va ham ota-onalar mehnati eng yuqori samarasini, birinchi galda, maktab va oilada tarbiya ishida pedagogik ko‘rsatma standartlar va stereotiplarni yengib o‘tishga intilishni ta’minlaydi. Refleksiya pedagoglar, ota-onalarga kutiladigan tarbiya natijalarini shakllantirish, jismoniy tarbiya bo‘yicha kelgusi ishi maqsadini oldindan aniqlash, o‘quvchilarga esa shaxsiy rivojlanishining o‘z yo‘lini korreksiyalashda yordam beradi. Olim A. V. Xutorskiyning fikrini keltirish o‘rinsiz bo‘lmaydi: «agar inson uchun jismoniy sezish organlari uning tashqi tarjibasining manbasi bo‘lsa, u holda refleksiya – ichki tajriba manbasi, o‘zini-o‘zi tushunish usuli va fikrlashning zarur asbobidir». Shunday fikrni tadqiqotchi Muxammadiev K.B. ham aytadi, u innovatsiyalar

pedagog sub'ektining shakllanishiga bevosita bog'liq, chunki «o'qituvchi shaxsi va uning dunyoqarashi ko'rsatmasi ta'limning bevosita mazmuni бўлади» va bunda har qanday pedagogik innovatsiyalarning o'zlashtirilishi uchun uchta majburiy sharoitlar ajratiladi va ular: tushunish, refleksiya va shaxsiy tayyorligi". Xususiy faoliyat muammoliligi, uni o'zgartirish (tushunish) maqsadi va uni o'zgartirish qobiliyati bilan xususiy, ijtimoiy, kommunikativ, iqtisodiy va boshqa ko'rsatmalarni oldindan anglagan holda va qo'zg'atish (refleksiya), – bu «o'zga pedagogik reallikni anglash» uchun majburiy sharoit hisoblanadi. Shu aytilganlardan kelib chiqib, biz maktab va oila pedagogik hamkorligining bolalarni jismoniy tarbiyalashdagi faolligining quyidagi ko'rsatkichlarini ajratamiz: pozitsiyalilik, kreativlilik va refleksivlilik. Birinchi komponent – pozitsiyalilik biz tomonimizdan o'qituvchilar va ota-onalarning o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash bo'yicha o'zining yagona faoliyatini yangi tarbiya amaliyotining tashqi sharoitlar va vaziyatlar asosida hamijodkorlari va hamtashkil qiluvchilari bo'la turib hamda yangiliklarni o'zlashtirgan holda o'zgartirishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushuniladi. Bu sog'lom turmush tarzi qadriyatini tarbiya faoliyatida berilgan fazasi maktab va oilada amalga oshirish qobiliyati, pedagoglar professional pozitsiyasi va ota-onalar pozitsiyasida bolalarni jismoniy tarbiyalash munosabati bo'yicha «dadil inson» bo'ladi.

Адабиётлар:

1. Inog'omova F.SH. Valeologiya asoslari. - o'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya" T.:2014.

2. Isimova A.E. Darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori sinf o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (yuqori sinf o'quvchilari misolida). Ped. fan. nom... diss. (13.00.01). T. 2005. 212-b.

3. Ishmuhamedov R, A.Abduqodirov, A.Pardayev Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta'lim muassasalari tarbiyachi-o'qituvchi va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar. T.:2010. 3-138 b.

4.. Ismoilov A., Axmedov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. – Toshkent: "O'qituvchi", 1997.– 120b.

5. Karelovoy I.M. Pedagogika razvitiya: soderjatelniy dosug i yego sekreti. Pod red. "Feniks". Rn.D.: 2018. 88-c.

6. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy-tadqiqotlar darslik. T.: "Zarqshom"-2004. 34-b.

7. Kiseleva.A.S. "Gigiyenicheskoye obosnovaniye otsenki fizicheskogo razvitiya gorodskix shkolnikov v sisteme populyasionnogo monitoringa" tema dissertatsii po VAK RF 14.02.01, kandidat meditsinskix nauk Kiseleva.A.S. Nijniy Novorod.:2014.

8. Korolev, A.A. YU.V. Nesvijskiy, YE.I. Nikitenko. Mikrobiologiya, fiziologiya pitaniya, sanitariya i gigiyena. V 2 ch. CH.1: Uchebnik. "Academia". M.: 2017. 540-c.

9. Kravchenko, A.I. Psixologiya i pedagogika: Uchebnoye posobiye. "Rior". M.:2018. 110-c.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslari jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik tizimi haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о дидактической системе развития экологической культуры на занятиях по физическому воспитанию.

SUMMARY

This article talks about the didactic system for the development of environmental culture in physical education classes.

YOSH SHAXMATCHILARDA BOSHLANG‘ICH DEBYUT QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Niyazov A.T.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti professori
Shamuratova M.Sh.
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali assistent o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: shaxmat, debyut, boshlang‘ich debyut qoidalari, jismoniy tarbiya, individual o‘rgatish, psixologik-pedagogik xususiyat, yosh shaxmatchi.

Ключевые слова: шахматы, дебют, элементарные правила дебюта, физическое воспитание, индивидуальная тренировка, психолого-педагогическая характеристика, юный шахматист.

Key words: chess, debut, elementary debut rules, physical education, individual training, psychological-pedagogical characteristics, young chess player.

Bugungi kunda yosh shaxmatchilarni kasbga tayorlash tizimini takomillashtirish, o‘quv jarayonining tuzilishi va mazmunini qayta ko‘rib chiqish dolzarb muammolardan biri.

Shaxmatga bo‘lgan doimiy qiziqishni hisobga olgan holda, so‘nggi yillarda shaxmat ta‘limining butun tizimini takomillashtirish muammosi faol muhokama qilinmoqda. Yosh shaxmatchilarni tayorlashning zamonaviy tizimini bolaning barcha psixik jarayonlari, uning faoliyati, individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda qurish kerakligi umum e’tirof etilgan.

Bu yondashuvning dolzarbligi shundan dalolat beradiki, yosh shaxmatchilarni psixik rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish har bir o‘quvchining o‘zini anglab yetishiga, barcha ichki resurslardan maksimal darajada foydalanishga imkon beradi va shu bilan birga, shaxmatchilarning o‘zini o‘zi boshqarishini ta’minlaydi. O‘z-o‘zini anglash imkoniyati yosh sportchilarning uzoq muddatli kuzatuvlari har bir o‘quvchining sport natijalariga erishish uchun o‘z egri chizig‘iga ega, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Kimdir sakrash va chegaralarda oldinga siljiydi, ma’lum bir natijaga erishadi, sport yo‘lida darhol boshqa to‘siq olinadi, keyin esa yo‘qotish chizig‘i paydo bo‘ladi, kimdir rivojlanishini sekinlashtirmasdan yoki tezlashtirmasdan

bir tekis harakat qiladi. Bunday xulosalar uchun material, qoida tariqasida, u yoki bu sport toifasidagi sportchining erishgan vaqti hisoblanadi. Ammo bu jarayonning yuzaki dinamikasi bo‘lib, u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtirishda yosh shaxmatchi duch keladigan qiyinchilik va to‘siqlarni aks ettiradi. Nima sodir bo‘layotganining mohiyatini tushunish, har bir o‘quvchiga qayerda va qanday yordam berish kerakligini aniqlash bolalar bilan ishlaydigan har bir murabbiyning asosiy vazifasidir.

Yosh shaxmatchilarni o‘qitishning yangi ilg‘or uslublarini yaratish har qanday o‘yin vaziyatida harakatlanish va to‘g‘ri o‘yin rejasini topish qobiliyatini ta’minlovchi mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Faqat natijaga asoslangan usullar sport pedagogikasi rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarb emas. Chunki, bu har bir yosh shaxmatchiga o‘zini anglab etishiga imkon bermaydi. Achinarli statistikadan ma’lumki, zaryadsizlanishni boshlagan 30 kishidan 2-3 kishiga aylanadi. Buning asosiy sababini har bir jalb qilingan bolaning individual xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmaganida ko‘ramiz.

Shaxmatchilar yutuqga erishishi uchun yosh shaxmatchilarni kasbga tayorlash tizimini takomillashtirish, o‘quv jarayonining tuzilishi va mazmunini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Mashg‘ulotlarda yangi boshlovchi shaxmatchi, ayniqsa, individual xususiyatlarni hisobga olishi kerak, chunki 6-7 yosh, ya’ni yosh sportchilar shu yoshdan boshlab, xotira, e’tibor kabi aqliy jarayonlarni rivojlantirish uchun dolzarbdir. Murabbiy esa bu jarayonlarning rivojlanishiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish, o‘quvchiga o‘zini professional shaxmatchi sifatida to‘laqonli anglashga yordam berish uchun alohida imkoniyatga ega.

Shunday qilib, yosh shaxmatchilarni tayyorlash samaradorligi va sifatini oshirishning dolzarb va muhim yo‘nalishlaridan biri, bizningcha, boshlang‘ich shaxmatchilar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishda individual yondashuvdan foydalanishdir, bu esa shaxmatning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Maqsadimiz bolaning aqliy jarayonlarini hisobga olgan holda shaxmat bo‘yicha boshlang‘ich ta’limni individuallashtirish dasturini ishlab chiqish.

Bizning tadqiqotimizda individuallashtirish deganda o‘quvchining psixik rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda individuallashtirilgan mustaqil topshiriqlardan foydalanish orqali bolani shaxmatga o‘rgatishning pedagogik jarayoni tushuniladi. Aqliy tafovut hech qachon kattalikdagi, aql darajasidagi farqlarga kamaymaydi – ongning o‘ziga xos xususiyatlarining ahamiyati, uning o‘ziga xosligi juda katta.

O‘rganishdagi individual farqlar, uslublar yondashuvlaridagi farqlar muammosi hali ham etarli darajada o‘rganilmagan. Bu borada qo‘llaniladigan o‘qitish usullarining mosligini va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega.

Zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga yordam beruvchi psixologik-pedagogik omillarni ochib berish. Bunday tadqiqotlar shaxmatni o‘zlashtirish muvaffaqiyati va o‘quvchilarning individual xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va o‘rganish, uning muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi eng muhim parametrlarni aniqlash va o‘qitish usullarini takomillashtirish yo‘llarini belgilash imkonini beradi.

O‘rgatishning asosiy shakllari va vositalari:

1. Amaliy o‘yin.
2. Shaxmatga oid masalalar yechish, kombinatsiyalar va tadqiqotlar.
3. Didaktik o‘yinlar va vazifalar, o‘yin mashqlari;
4. Nazariy darslar, shaxmat o‘yinlari, shaxmat didaktik o‘yinchoqlari.
5. Turnir va musobaqalarda qatnashish.

Shaxmatning sehrli olamiga jalb qilingan bolalar maktabda yaxshiroq o’qishlari, shuningdek, bolalarda ko‘plab aqliy jarayonlar va idrok, e’tibor, tasavvur, xotira, tafakkur, irodali boshqaruvning boshlang‘ich shakllari kabi fazilatlarni yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi eksperimental tarzda tasdiqlangan. Boshlang‘ich maktabda tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda: ta’limning rivojlanish funktsiyasi birinchi o‘ringa chiqadi, bu ko‘p jihatdan kichik yoshdagi o‘quvchilarning shaxsiyatini shakllantirishga va ularning ijodiy qobiliyatlarini to‘liq ochib berishga yordam beradi.

Bir qator mualliflar jismoniy sifatlarni kompleks tarbiyalash muhimligini ta’kidlaydilar (A.V. Korobov, V.P. Filin, T.A. Zeldovich, O.V. Fedorov, A.M.Shlemin va boshqalar). Bu ishlar shuni ko‘rsatadiki, tezlik, kuch va chidamlilikning namoyon bo‘lishini talab qiladigan mashqlar majmuasidan foydalanish ushbu jismoniy sifatlarning har birini ulardan birini rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan ko‘ra samaraliroq rivojlantiradi. Shu bilan birga, bir sifatning rivojlanishi boshqalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu usul mashg‘ulot jarayonida tanaffuslarda qo‘llaniladi.

Mashg‘ulotlarda yangi shaxmatchining, ayniqsa, individual xususiyatlarni hisobga olishi kerak, chunki 7-8 yosh, ya’ni yosh sportchilar shu yoshdan boshlab, xotira, e’tibor kabi aqliy jarayonlarni rivojlantirish uchun dolzarbdir. Murabbiy esa bu jarayonlarning barchasini rivojlantirishga maqsadli ta’sir ko‘rsatish, o‘quvchiga o‘zini professional shaxmatchi sifatida to‘liq anglashga yordam berish uchun alohida imkoniyatga ega.

Shunday qilib, yosh shaxmatchilarni tayorlash samaradorligi va sifatini oshirishning dolzarb va muhim yo‘nalishlaridan biri, bizningcha, boshlang‘ich shaxmatchilar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishda individual yondashuvdan foydalanishdir, bu esa shaxmatning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Авербах Ю.Л., Бейлин М.А. Путешествие в шахматное королевство. – М.:ФиС, 1976.– С. 288.

2. Аверина И.С. Возрастная динамика соотношения генотипа и среды в индивидуальных особенностях памяти школьников. М., 1983.

3. Акимова М.К., Козлова В.П. Индивидуальность учащихся и индивидуальный подход. – М., 2008.

4. Анишева В.Е. Методические особенности индивидуализированного начального обучения шахматам детей младшего школьного возраста: Дисс. канд.пед. наук / В.Е. Анишева. М., 2002. – С. 163.

5. Анцибор М.М. Индивидуальное обучение задача сегодняшнего дня. – Тула. 1971.

6. Ахметов С.М. Методика физической подготовки школьников 7–11 лет в зависимости от уровня их физического развития: Автореф. дис. канд. пед. наук / С.М. Ахметов. Краснодар, 1996. – С. 18.

7. Баевский Р.П. Оценка эффективности профилактических мероприятий на основе изменения адаптационного потенциала системы кровообращения / Р.П. Баевский, А.П. Берсенева, В.К. Вакулин // Здравоохранение Российской федерации. 1991. № 8. – С. 6.

8. Баландин В.А. Развитие эмоционально-волевой сферы детей старшего дошкольного и младшего школьного возраста средствами физического воспитания: Учебное пособие / В.А. Баландин. – Краснодар, 1999. – С. 104.

9. Баландин В.А. Научно-технологические основы обновления процесса физического воспитания в начальной школе: Автореф. дис. д-ра пед. наук / В.А. Баландин. – Краснодар, 2001. – С. 50.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bolaning aqliy jarayonlarini hisobga olgan holda shaxmat bo‘yicha boshlang‘ich ta’limni individuallashtirish dasturini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, o‘rganishdagi individual farqlar, uslublar yondashuvlaridagi farqlar.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается разработка программы индивидуализации начального обучения шахматам с учетом психических процессов ребенка. В частности, индивидуальные различия в обучении, различия в стилистических подходах.

SUMMARY

The article deals with the development of a program of individualization of primary education in chess, taking into account the child’s mental processes. In particular, individual differences in learning, differences in stylistic approaches.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»
№ 4/2
Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:
А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:
А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:
П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 15.08.2023. Форматы 70x100$^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 36 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №